



MAKTAB
KUTUBXONASI

GO'RO'G'LI



2017/64-A 5528

GO‘RO‘G‘LI

DOSTONLAR



**Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT – 2017**

398.22(=512.433) - Ўзбек язувчи
жемостилари

UO'K 398.22(575.1)
KBK 82.3(50°)
G 99


Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi:

Mamatqul Jo'ravev – O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, filologiya fanlari doktori, professor

G 99 Go'ro'g'li [matn]: o'zbek xalq dostonlari – Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017. – 448 b.
ISBN 978-9943-05-900-9

Atoqli o'zbek xalq baxshilari tomonidan sevib kuylangan «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida ona yurtni qahramonona himoya qilish, vatanni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, pok sevgi va sadoqatni ulug'lash, oila qo'rg'onini muqaddas deb bilish, xalqlar o'rtaсидаги o'zaro do'stlikni qadrlash, yurt daxsizligi, osoyishtalik, erk, baxt va farovonlik uchun kurash g'oyasi tarannum etilgan.

UO'K 398.22(575.1)
KBK 82.3(50°)



ISBN-978-9943-05-900-9

© Original maket,
Cho'lpon nomidagi NMIU, 2017



EZGULIKNI KUYLOVCHI DOSTON

Ma'lumki, o'zbek xalq baxshilari tomonidan asrlar mobaynida sevib kuylab kelingan «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida ona yurtni qahramonona himoya qilish, vatanni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash, pok sevgi va sadoqatni ulug'lash, oila qo'rg'onini muqaddas deb bilish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro do'stlik va birodarlikni yanada mustahkamlash, yurt daxlsizligi, tinchlik va osoyishtalik, erk, baxt va farovonlik uchun kurash g'oyalari tarannum etiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalqimiz nazdida mardlik va bahodirlik, tantilik va olajanoblik, haqgo'ylik va elparvarlikning boqiy timsollaridan biri sifatida ulug'langan Go'r-o'g'li haqidagi dostonlarni baxshilarimiz o'zgacha bir mehr va muhabbat bilan jo'shib ijro etib kelishmoqda. Bu turkumga mansub xalq dostonlari har birimizni ezgulikni ulug'lashga, boqiy qadriyatlarni asrab-avaylash va boyitishga, ona diyorimizning oydin kelajagi, hayotning yanada go'zal va farahbaxsh bo'lishi hamda farzandlarimizning baxtli yashashi yo'lidagi ezgu ishlarni amalga oshirishga undaydi.

O'zining betakror badiiy dahosi tufayli beba ho badiiy qadriyatlarni yaratgan xalqimiz epik tafakkurining noyob durdonasi bo'lgan «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari baxshilarimiz orasida ikki versiya holida keng tarqalgan. Bulardan birinchisi, Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va Piskent dostonchilik maktablari, shuningdek, janubiy Tojikistonda yashovchi o'zbek-laqaylar va Farg'ona vodiysi baxshilari repertuarida mavjud bo'lgan sharqiy

versiya bolsa, ikkinchisi, «Go'ro'g'li» dostonlarining Xorazm versiyasidir.

«Go'ro'g'li» dostonlarining o'zbek folkloridagi sharqiy versiyasi hajman yirik asarlar sifatida om-malashganligi, voqelik talqinining keng ko'lamliligi, epik qahramonlar faoliyatini tasvirlovchi alohida mustaqil asarlardan iborat biografik turkumlikni yuzaga keltirganligi, do'mbira jo'rligida ijro etilishi, syujet qurilishi va obrazlar tarkibining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Eposning Xorazm versiyasi dostonlari esa hajman ixchamligi, ijro etilish usuli va kuylanish xarakteri jihatidan ushbu epik asarlarning Qashqadaryo, Surxondaryo va Samarcand baxshilar repertuaridagi namunalaridan farqlanadi.

Mutaxassislarning sikrlariga qaraganda, Go'ro'g'-lining qahramonona sarguzashtlari va ko'rsatgan jasoratlari to'g'risidagi ilk epik rivoyatlar XVI asrda yuzaga kelib, xalq dostonchiligining badiiy an'analari doirasida «Go'ro'g'li» dostonlarining dastlabki namunalari yaratilgan. XVI—XVII asrlarda Xorazm vohasi va Amudaryoning o'rta hamda quyi oqimi bo'yida ro'y bergen tarixiy-folkloriy jarayonlar, xususan, baxshilar epik ijodiyotida romanik dostonlarning intensiv yaratilishi natijasida Go'ro'g'li haqidagi dostonlarning ko'plab syujetlari shakllangan. Keyinchalik bu turkumga mansub dostonlar Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarcand, Navoiy, Jizzax, Toshkent va Farg'ona vodiysida istiqomat qiluvchi xalq baxshilar epik repertuarida muhtasham epos sifatida kuylana boshlagan. Shunday bolsa-da, bu turkumga mansub ko'pgina epik syujettlarning tarixiy ildizlari xalqimizning g'oyat qadimiy misologik tasavvurlariga borib taqalishi ham qiziqarlidir. Xususan, atoqli olim H.Zarifov folklor va arxeologiya materiallarini qiyosiy o'rganish natijasida, milodning V—VI asrlarida yasalgan bir oltin to'qada bulung'urlik zukko xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan «Malika ayyor» dostoni

qahramonlari Avazxon, Shoqalandar va Shozargarning sahrodag'i ulkan chinor daraxti tagida uchrashib, yarog'-aslalalarini daraxt shoxiga ilib qo'yib, dam olishi lavhasi aks ettirilganligini aniqlagan ediki, ana shu ma'lumotning o'ziyoq «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarining tarixiy asoslari olis moziyga daxldorligidan dalolat beradi.

O'zbek baxshilar repertuaridagi «Go'ro'g'li» eposi namunalarini yozib olish ishlari 1926 yildan boshlangan bo'lib, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi O'zbek tili va adabiyoti ilmiy-tadqiqot instituti Folklor arxivida «Go'ro'g'li» dostonlarining o'zbek baxshilaridan yozib olingan yuzdan ortiq variantlari saqlanadi. Professor T. Mirzayevning aniqlashicha, o'zbek baxshilar bisotida mavjud bo'lgan «Go'ro'g'li» silsilasiga mansub dostonlar 62 ta bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Go'ro'g'lining tug'ilishi;
2. Go'ro'g'lining bolaligi;
3. Chortoqli Chambil;
4. Zaydinoy;
5. Yunus pari;
6. Misqol pari;
7. Gulnor pari;
8. Qirq yigit bilan qirq qiz;
9. Hasan ko'lbar;
10. Rayhon arab;
12. Zammonbek;
13. Xidira li elbegi;
14. Berdiyor otaliq;
15. Elomon;
16. Xoldorxon;
17. Go'ro'g'lining Qrimga borishi;
18. Govdaroz dev;
19. Besh podshoning Chambilga yov bo'lib kelishi;
20. Shoqalandar;
21. Ro'zaxon;
22. Yosqila;
23. Hasanxon;
24. Chambil qamali;
25. Dalli;
26. Avazxon;
27. Gulqizoy;
28. Oygulqizning vafoti;
29. Intizor;
30. Malika Ay-yor;
31. Mashriq;
32. Zulfizar;
33. Bo'tako'z;
34. Qunduz bilan Yulduz;
35. Sarvinoz;
36. Balogardon;
37. Avazning arazi;
38. Ahmad sardorning o'limga hukm qilinishi;
39. Avaz o'g'lonning Rumga qochishi;
40. Avazxonning o'limga hukm etilishi;
41. Girdob;
42. Xonimoy;
43. Xushkeldi;
44. Oltin qoboq;
45. Zayidqul;
46. Gulixiromon;
47. Zarnigor;
48. Oq'a Yunusning olib qochilishi;
49. Ravshan;
50. Nurali;
51. Nuralining yoshligi;
52. Balxixon;

53. Jorxun maston; 54. Sumbulsoch beka; 55. Nurali va qari Ahmad; 56. Nuralining yutilishi; 57. Malla savdogar; 58. Sherali; 59. Jahongir; 60. Soqibulbul; 61. Avaz va Gultan; 62. Ero'g'li.

Baxshilarimiz ijro etgan bu dostonlar «Go'ro'g'li» eposining boshqa turkiy xalqlar, xususan, turkman, ozarbayjon, qoraqalpoq, turk, qozoq, gagauz va boshqa xalqlar folkloridagi versiyalaridan o'zining hajman nihoyatda ko'lamdorligi, syujet silsilasining rang-barangligi, vogelik epik talqining monumental xarakterga egaligi, variantlarining xilma-xilligi va baxshilar badiiy mahoratining g'oyat yuksakligi bilan alohida ajralib turadi. «Go'ro'g'li» turkumi dostonlari Janubiy O'zbekiston hamda Xorazm viloyatida yashovchi baxshilar tomonidan bugungi kunga qadar ijro etib kelinayotganligi ham bu epik silsila xalqimiz ma'naviy qadriyatlarining ajrالmas qismiga aylan-ganligini ko'rsatadi.

Muhtaram o'quvchi! Sizni mardlik va qahramonlikni kuylovechi baxshilarimizning boqiy bo'stonidagi durdona asarlar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida «Go'ro'g'li» turkumiga mansub dostonlardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilmoqdamiz. To'plamga kiritilgan xatirchilik Egamberdi O'llomurod o'g'lining «Go'ro'g'lining tug'ilishi» va zominlik Yorlaqab Beknazar o'g'lining «Malika Ayyor» dostonlari ilk bor chop ettirilayotgan bo'lsa, benazir ijodiy salohiyat sohibi Fozil Yo'ldosh o'g'li ijro etgan «Malika Ayyor» dostoni to'ldirib, qayta nashrga tayyorlandi. O'ylaymizki, ushbu dostonlarda kuylangan ezgu g'oyalar qalbingizdagи yaratuvchilik va bunyodkorlik tuyg'ularini yanada jo'sh urdirib, ezgu maqsadlar sari dadil intilishda qanot baxsh etadi.



GO'RO'G'LINING TUG'ILISHI

Aytuvchi: *Egamberdi shoir Ollomurod o'g'li*

Yozib oluvchi: *Temur Ochilov, 1959 yil*

Nashrga tayyorlovchilar: *Mamatqul Jo'ravev,*

Shomirza Turdimov

Yovmit viloyatining Buvraxon degan podshosi bor edi. Buvraxonning Varayxon amakisi bor edi. Ahmad sardor degan tog'asi bor edi. Mari degan mamlakatda To'liboy degan sinchi o'tgan edi. Buvraxon podshoning qizini To'liboy olgan edi. To'liboy o'g'il ko'r-di. Otini Ravshanxon qo'ydi, «ota», «ena» degiday bo'ldi. Ravshanning tili chiqqach, maktabga berdilar. Ravshan etti yoshga kirdi. Mullasi o'tin terishga dala-ga buyurdi. Qirq bola bir bo'lib o'tin terib turib edi, shahri Zangar viloyatidan askar kelib. Mari mamlakatini qamal qildi. Qirq bolani asirga tushirib, o'lja qilib, Zangar mamlakatiga olib ketdi. Zangarning podshosini Shohdorxon der edi. Uning bir yasovuli bor edi. Qosimbek qobilaboshi der edi. U dunyoda befarzand edi. Qirq bolaning ichida Ravshan xush-ro'y, sohibjamol edi. Qobilaboshi ishqiboz bo'lib, Ravshanni o'g'il qilmoqchi bo'ldi, etagiga soldi. Xotini yoqasidan tashlab, etagidan oldi. Qobilaboshi Ravshanni: «Iskasam gulim, qafasda bulbulim, o'lsam merosxo'rim» dedi. Ravshanni «o'g'lim» dedi. Shunday qilib, qobilaboshi podshodan qo'rqb. Ravshanni sandiqqa solib boqib yotaberdi. Kechasi eshikni berkitib xotiniminan ikkovi tizzasiga olib, Ravshanni erkalatib o'tiraberdi. Ravshanga ishqiboz bo'lib, uchta kokil qo'ydi. Kokilidan biriga oltin suvini, biriga kumush suvini, biriga mushki anbar suvini berdi. Har kokilini kuniga besh marta buzib o'rdi. Birini oyday qilib, birini kunday qilib orqasiga tushirib qo'ydi.

Bir kuni Shohdarxon uqlab yotgan erida tush ko'rdi. Bir qarchig'ay kelib boshiga tepdi. Uyqusi ochilib, yuragiga hovul tushib, podsho uyg'ona ketdi. Qur'achilarga qur'a tashlatdi, folchilarga sol ochtirdi, romchilarga rom ko'rsatdi. Lekin tushini ta'birini hech kim topmadi. Podsho: «Shunday keng mamlakatimdan tushimning ta'birini aytib beradigan biron kishi chiqmadi», deb darg'azab bo'ldi. Xolmo'min degan podshoning yasovulboshisi bor edi. Shul bilar erdi. Bir kampir bor edi. Otini Pattigul der edi. Bir yuz to'qson yoshga kirib edi. Kashmirilikni yaxshi o'qib, takror qilgan edi. «Kasbimni podsho bilsa dorga osib o'ldiradi» deb bir baland tovga borib yotar edi. Qiladigan kasbini so'rab bilgan edi. Xolmo'min podshoga qarab:

— Agar bir qoshiq qonidan kechsangiz bir kampir bor. O'shani keltirsam. U tushingizni ta'birlab bera olar edi, — dedi.

— Bor, qonidan kechdim, kampirni keltir. — dedi podsho.

Shunda Xolmo'min o'ziminan podshoning ikki mahramini birga olib, kampirning yoniga bordi. Mononi g'ordan chaqirib oldi. Podsho chaqirganini aytib, o'z aytganiga ko'ndirib, kampirni podsholikka olib kelaberdi. Momo podsholikka to'g'ri bo'ldi.

— Aziz bolam, mendan nima so'raysan? — dedi. Podsho:

— Ena, kecha yotganimda ko'zim uyquga borgan-da bir tush ko'rdim. Bir qarchig'ay kelib boshimga tepdi. Shu zahoti uyg'onib ketdim. Sizni shu tushni ta'birlab bersangiz, deb chaqirtdim. Momosi o'rnidan turib, podshoga tomon yurib, yoniga o'tirib, tush ta'birini qur'ada ko'rib, momo tirjayib qari yuzi bujmayib, bir kulib podshoga tushning ta'birini berib:

— Aylanay podshoyim, elingizda yaqinda bir sohibqiron paydo bo'libdi. Uni askarlar chetdan olib kelibdi. Otini Ravshanxon deydi. Yovmit elidan bo'lib,

Buvraxon podshoning avlodidandir. To'liboy deganning uli ekan. Ravshanxon yetti yoshda ekan. Qosimbek otli qobilaboshing Ravshanxonni ul qilaman deb ota-enasining uyidan pinhona o'g'irlab, uyiga olib kelibdi. Qobilaboshi etagiga solibdi, xotini yoqasidan tashlab, etagidan olibdi. Ikkalasi iskasam gulim, qafasda bulbulim, so'rsam bolim, dedi. Ravshanxonga uch kokil qo'ydi. Bir kokilga kumush, biriga tilla, biriga mushki anbar suvini berdi. Kuniga besh marta buzib, besh marta o'rди, birini oyday, birini kunday qilib orqasiga tushirib qo'ydi. Kunduz sandiqqa solib, kechasi eshikni bekitib, tizzasiga olib o'ynatib o'tiradi. Ana shu Ravshanxon elingdan, aylanay, bir xotin oladi, undan bir o'g'il ko'radi. Otini Go'ro'g'li qo'yadi. Mamlakatingni Go'ro'g'li oladi. Hamma amaldorlarin ni o'z yo'lliga soladi. Tushingni ta'biri shul, — dedi.

Podsho g'azablanib:

— Agar shul gaping ros[t] bo'lsa, sog'arga sigir, qo'sharga ho'kiz beraman. Agar yolg'on bo'lsa boshningni o'limga buyurib, molingni talatib yuboraman, — dedi.

Momoning bu gapdan qahri kelib:

— Topsam ishonmasang, topmasam o'ldirar ekansan, — deb irg'ib o'rnidan turib, podsho yasovullarini olib, qobilaboshinikiga qarab bordi. Qabila boshining uyining to'rida bir tilla sandiq bo'lib, Ravshanxon shu sandiqning ichida edi. Momoning buyrug'iminan yasovullar tabarminan bir urib, sandiqni ochdi. Ravshanni topib oldi. Qobilaboshiminan ikkalasini podsho tomon haydab bordi. Kampirning aytgan so'ziga podsho hayron qoldi. «Shumi momo, aytgan bolang?» — deb so'radi. «Shu», — dedi momo.

— Bolaning zarari bormi yoki yo'qmi menga? — deb so'radi podsho.

— O'zining zarari yo'q. Lekin farzandi Go'ro'g'-lining zarari tegadi, — dedi. «O'zimga zarari bo'lmasa

o'ldirib nima qilaman?» deb o'yadi podsho va Ravshanni o'lдirmadi. Qobilaboshi podshoning bu ishidan xursand bo'lib, Ravshanni uyiga keltirib, bir qo'y so'ydirib katta to'y qildi. Ravshanni tizzasiga o'tqazib, bir ilikni ushlatib, qobilaboshi Ravshanga qarab, bir so'z dedi:

Necha tilaklarman olgan tilagim,
Hurmatminan ilik olib, chirog'im,
Oqshomlari esa o'zingsan kunduzim,
Falakning tovidan oshgan kunduzim,
Bo'yginangdan aylanayin men o'zim.

Ravshan bolam, ilikni ol, azizim,
Ucharda qanotim, qo'nsam ravotim,
Tizzamda madorsan, belda quvvatim,
Aziz qo'zim, ilik olgin, farzandim,
Jonim qurban bo'lsin senga, dilbandim.

Manglayimda porlagan yulduzimni,
Ravshanxon, eshitgin aytgan so'zimni,
Ko'llarga qo'ndirgin o'rdak, g'ozimni,
Hurmatminan, bolam, dedim o'zingni,
Hurmat bilan ilikni ol, farzandim.

Qobilaboshining bu so'ziga Ravshanning qahri keldi, ilonday zahri keldi. Qobilaboshiga qarab bir so'z dedi:

Begonani «ota» desa bo'larmi,
Po'lat nayza er ostida yotarmi?
Temir nayza egovlasa o'tarmi,
Hech zolimni «ota» desa bo'larmi?
Ne ish qildim, nima mening gunohim,
O'z yurtimga ketmoqqa yo'q qanotim.
Sen zolimni «ota» desa bo'larmi?
Eram bog'dan alvon gullar teraman,
Javob bersang, men elimga boraman,
O'ldirsang ham mayli, o'ldir, netaman.

Ne qilsang ham senga farzand bo'lmayman,
Bosqinchiga farzand bo'lsa bo'larmi?

Qobilaboshi Ravshanning bu so'zidan qahri kelib,
yoqasini jup qilib ushlab, o'lдirmoqchi bo'lib, ikki
ko'zi qonga to'lib, Ravshanga qarab:

Quloq solgin mening aytgan zorima,
Gah desam mirg'azab kelar oldima,
Osayinmi registonda dorima?
Men zolimning o'lдirgani o'lmaymi,
Osoyinmi olib borib dorima?

Rahmim kelmay ko'zdan oqqan yoshingga.
Ko'rsatmayin qavmi-qarindoshingga.
Qilich solay sening aziz boshingga.
Zahar solay beshak xonumoningga,
Olov qo'yay sening ustixoningga.
Qocharga qo'ymayin yo'ling to'sarman,
Taningdan boshingni sening kesarman,
Aytganimga, Ravshan, mening yurmasang,
Qilichminan aziz boshing uzarman.

Bundan Ravshanning qahri kelib, ikki ko'zi qonga
to'lib, misoli sherdai bo'lib, yelkasi qirday bo'lib,
qobilaboshining so'ziga qahri kelib, bir so'z dedi:

Bedavlatning o'tgan umri zoyami,
Mard kishi sirini elga yoyami?
Po'pisangdan qo'rqqan o'zbek men emas,
Qo'lingdan kelganin qilgin, ayama.
Vaqt bo'lmay oy qiyaga botama,
Quq quvonmay murodiga yetama,
Qo'lingnan kelganin qilgin, ayama.
Bir nechalar gapni o'zga chenamas,
Yolg'on gapni dushman odam tan olmas,
Ey Qosimbek, Ravshan sendan kam emas.
Quloq solgin mening aytgan zorima,
Olov qo'ygin, mayli, xonumonima,
Osabergin registonda doringga.

Shunda qobilaboshining qahri kelib, Ravshanxonni urmoqchi bo'ldi. Qobilaboshining atrofiga odamlar jiyilib, Ravshanga rahmi kelib qobilaboshiga qarab:

— O'zbek xalqi ko'p o'r bo'ladi, o'r jag'ini bermaydigan zo'r bo'ladi. O'ldirsang o'ladi-ketadi, o'zbekning mardini ko'traman desang, yaxshi ko'rgan molini maqtay bersang, barakasi kelsa necha pul bo'lsa ham oladi. Sening yeyardan, ichardan kaming yo'q. Ravshanni uyingga qaytarib olib borsang, yaxshi otkarni mindirib, qabat-qabat sarpolarni kiydirsang, xazinangning eshigini ohib, ichiga to'shak solib bersang, gulday parvarish qilsang, shunda sening aytganinga yuradi. Aqlidan adashib, seni «ota» deb qo'yadi. Shunda sening ko'nglingdan chiqib, yuzingni ravshan qiladi. O'ldirsang pishakday bo'lib o'ladi-ketadi. Yosh bola tol chiviqday bo'ladi. Yaxshi gapirsang, aytganningga kiradi. Shunday qilmasang, gulday bola nobud bo'ladi, — deyishdi.

Qobilaboshiga bu gap ma'qul tushib, Ravshanni uyiga olib bordi. Eng yaxshi otga mindirib, chiroylı kiyimlarni kiydirib, gulday parvarish qildi. Ravshanxon musofirchilikka noiloj ko'nib, qobilaboshiga yolg'ondan ko'ngil berib yuraberdi. Ravshan otini minib shaharni kezib yuraberdi. Qobilaboshi Ravshanni o'z ixtiyoriga qo'ydi. Farzandim bo'ldi, deb inondi. Ravshan kunduzi ketib, kechasi keladigan bo'ldi. Uning bu ishidan Qosimbek xursand bo'ldi. Ravshanni gulday parvarish qildi. Taka degan viloyatda bir Gajdimbek degan Buvraxon podshoning amaki-vachhasi bor edi. Zangar mamlakatida Gajdimbekning Sultonxon degan tog'asi bor edi. Sultonxon Zangar mamlakatining bir chekkasida qo'rg'onbegi edi. Sultonxonning Rustanxon degan og'aynisi bor edi. Gajdimbek bu tarasga saydogarlik qilib kelib-ketib yuribidi. Tog'asi o'lib, Gajdimbek o'rniga qo'r-g'onbegi bo'ldi. Tog'asining xotinini olib mulkiga ega bo'ldi. Tog'asining mingta bo'tali tuyasi, mingta qu-

lunli biyasi bor edi. Hammasiga Gajdimbek egalik qildi. Gajdimbekning bir singlisi bo'lib, uni ham olib kelgan edi. Tog'asining xotini o'lib, Gajdimbek davlatni bo'ldi. Gajdimbekning singlisi Hiloloy uning o'rniga qo'rg'onni idora qila boshladи. Gajdimbek diq bo'lib, tepkiga tozisini olib, qushni chegaga qo'ydirib, Shakar ko'liga ovga borib, kunduz ketib, kech qaytadi. Hiloloy bir o'zi qo'rg'onda qoladi. Bir kuni Ravshanxon bir otni minib, birini jetalab qaytayotganida Gajdimbekning darvozasini oldidan o'tib borar edi. Ravshanxon xushro'y sohibjamol edi. Hiloloy ko'shki ayvondan turib, har kun Ravshanxonne ko'rib turar edi. Ravshanminan gaplashishni orzu qilar edi. Bundan Ravshanxon bexabar edi. Gajdimbek ovga ketdi. Kun choshga bo'lгanda Ravshanxon otini jetaklab daryoning bo'yiga bordi. Otni sug'orib, Ravshan Gajdimbekning darvozasining yonidan o'taberdi. Uch qavat tomning ustida darchadan qarab Hiloloy Ravshanni ko'rди. Hiloloy Ravshanga qarab:

Ayil qiyib bedovingni to'shini,
Yomon savdo kasal qilar kishini.
Tasadduqqa tanda jonim, vallamat,
Biror pasl to'xtat otning boshini.
Bek o'g'liday mening aytar tarzim bor,
Bir obloga jon bermakka qarzim bor.
Otingning boshini to'xtat, begali,
Men mushtipar, senga aytar arzim bor.

Bo'yingdan, eshitgin aytgan tilimni,
Bir egam uzoqqa sopti yo'lingni.
Qaysi elda qaysi odam ulisan,
Bayon bergen o'ynab-o'sgan elingni.

Senday o'g'lon kam tug'ilalar enadan,
Otingning afzali oltin-tilladan.
O'zing chiqding qaysi mazgil xonadan,
Ikki beting qizil olmaday pishgan.

Oy yuzingga oyu ostob adashgan,
 Zar kokiling och buyringga cho'lg'ashgan,
 Zarafshon kokillik, qaydan bo'larsan?

Bo'yingni o'xshatdim bo'z qarchig'ayga,
 Yuzingni o'xshatdim to'lishgan oyga,
 Qoshingni o'xshatdim egilgan joyga,
 Tilingni o'xshatdim mayna bulbulga,
 Mayna g'azalxonim, qaydan bo'larsan?

Muncha xushro'y bo'psan Haqning farmoni,
 Seni tuqqanlarning bormi armoni.
 Seni ko'rib ketdi tanim darmoni,
 Yigit desam chin odamning sirtloni.

Rahmim keldi ko'zdan oqqan yoshingga,
 Hayron qoldim sening qilgan ishingga.
 Hech narsadan sening kaming bo'lmasa,
 Yig'laguday ne kun tuvdi boshingga?

Otlilar cho'lda lochinni cho'ydimi,
 Enasi bor shoyi-baxmal kiydimi?
 Ne sababdan xasa bo'lib jilaysan,
 Yoki sening ichkuyaring o'ldimi?

Jondan ortiq emchakdoshing o'ldimi,
 Yoru jo'rang, og'a-ining o'ldimi?
 Qanoting qayrilib, tandan sindimi,
 Qodir mavlon xonavayron qildimi?

Suyanganda Asqar toving o'ldimi,
 Ota-ena g'amg'uzoring o'ldimi?
 Bolang o'lgan desam o'zing yosh bola,
 Ko'ngil bergen sevar yoring o'ldimi?

Bu so'zni eshitib Ravshanxon ortiga qarasa, Hiloloy uch qabat tomning ustida, ko'shki ayvon ostida, tilla karavotning ustida, zulfini tarab, darchadan qarab turibdi. Hiloloy Ravshandan ham ikki baravar chiroqli edi. Ravshanxon ruhi panja ostobni ko'rgan-

day bo'lib behush bo'ldi. O'n to'rt yoshiga kirgan, barkamol bo'lib husnga to'lgan, iynaday izilgan, ipakday tizilgan, shoyiga o'rالgan, g'unchaday buralgan, atlas shoyiga o'rالgan, oy desangiz ovzi bor, kun desangiz ko'zi bor, naqsh olmaday yuzi bor, boshiida oltin sarandozi bor, qoshi qora qunduzday, ko'zi Cho'Ipon yulduzday, oqshom palov ertan choy, muhrlangan qog'ozday, qoshu ko'zi pilikday, ovizlari o'ymoqday, lablari bor qaymoqday, shishadagi suvday chalqindi, to'rtadan ayirgan moyday balqiydi. Charvisi chatanidan ko'rindi, suv ichsa tomog'idan ko'rindi, mayiz esa biqnidan ko'rindi. Yuzining oqligi zimistonda yoqqan qorcha bor, yuzining qizilligi qorning ustiga tomgan qoncha bor, labining shirinligi baqqolda turgan bolcha bor. Muni sizga maqtab sotamanmi, kimni suluv deb maqtasangiz shuncha bor. Rost turganda o'tirikni qaytib aytay, tong oldida tuvadigan yulduzday ikkita ko'zi bor. Ravshan buni ko'rib, aqli shoshib, tabgiridan adashib, bir so'z deb turgani.

Bo'yingdan, eshitgin aytgan tilimni,
G'am bilan sarg'aygan gulday yuzimni,
Sen bilmasang, men aytayin zotimni,
Urug'im turkmandir, otim Ravshanxon,
Yovmit deydi o'ynab-o'sgan elimni.

Ochilganda toza bog'ning guliman,
Onamman otamning jonu diliman,
Buvraxonning avlodiman, zotiman.
Urug'im turkmandir, otim Ravshanxon,
Meni so'rsang To'liboyning uliman.

Quloq solgin mening aytgan tilima,
Asir bo'lib keldim menam elingga.
Egam rahmi kelgay ko'zda yoshima,
Borolmasam qavmi-qarindoshima,
Musofirlik tushdi mening boshima.

Ko'tarilmay ko'ngillardan g'uborim,
Uzoqda qolgandir makonim-joyim,
Kecha oqshom otam kirdi tushimga,
Bolam, deya qolgan sho'r qiblag'oyim.

G'oyibona har saharlar uyg'ongan,
Issiq joydan turib beshik tayangan,
Ikkovimiz tor to'shada talashgan,
Bir emchakdan sut talashib emishgan,
Akam, deb qolgandi sho'rli jigarim,
Men yig'lamay kim yig'lasin, bo'yingdan?

Alamlar o'rtagan gulday tanamni,
Musofirlilik tirnar har kun yaramni,
Ko'rsam deyman g'amxo'r ota-enamni,
Illojim yo'q musofirning elida,
Men bandiman qobilaboshi qo'lida,
Men yig'lamay kim yig'lasin, bo'yingdan?

Sochlari sumbulim, qaydin bo'larsan,
Tillari bulbulim, qaydin bo'larsan,
Qoshlari qalamim, qaydin bo'larsan,
Qizlarning sanami, qaydin bo'larsan,
Bayon bergen avlodiningni, zotingni.

Ag'darilib uchgan qaysi ko'lning g'ozisan,
Elatning ovozador go'zal qizisan,
Zulfizarim, aytgin, kimning qizisan,
Qilichga mengzadim ximcha belingni,
Sarvinoz, bayon qil, o'sgan elingni.

Ravshanxonadan bu so'zni eshitgan Hiloloy miyi-g'idan kulib, o'rnidan turib, yuragi shodlikdan gup-gup urib, o'z avlodini Ravshanga bir-bir bayon berdi:

Bahorda ochilgan bog'ning guliman,
Otamman onamning jonu diliman.
Ot ko'targan oy Hilolning o'ziman,
Taka elda Urayxonning qiziman.
Ag'darilib uchgan cho'lning g'oziman,

O'z elimning ovozador noziman.
Otimni so'rasang, derlar Hiloloy,
Taka elda Urayxonning qiziman.

Tog'larning boshida cholganda tuman,
Bir pasl ketmadi boshimdan tuman.
O'zim keldim xon og'amning uyiga,
Xotini o'lib, Gajdimbek bo'ldi bevatan.
Mergandan shirolg'i, botirdan sovg'a,
Yarashiqqa tuman taqqan bedovga.
Gajdimbekdir emchakdoshim, og'amdi[r],
Har kunlikka ketar O'ydinga ovga.

Hiloloy bu so'zni aytib Ravshanga qarab, «Balli,
sening ul bo'lganingga, xudoga qul bo'lganingga»,
deb yana bir so'z dedi:

Ushbu damni sen o'zingga dam dema,
Shukr qilgin, bu davlatni kam dema.
Bu savdolar tushar mardning boshiga,
Gajdimbekman Hiloloy bor, g'am ema.
O'ynatib minibsan asbi tozingni,
G'am bilan sarg'aytma gulday yuzingni,
Qul qilib bozorga solgin o'zingni,
Eramning bog'idan gullar terayin,
Kokilingni beshov qilib o'rayin.
Qul qilib bozorga solsang o'zingni,
Xaridoring bo'lib o'zim olayin.
Ravshan to'ram, loyiq ko'rsang o'zingga,
Seningminan birga turmush qurayin.
Hiloloya sening ko'ngling bo'lmasa,
Qiyomatlik sening singling bo'layin.

Shunda Ravshaxon uyiga borib otlarini haydab
yuborib, yig'laganicha uy ichiga kirdi. Ravshanning
bu holiga xafa bo'lgan qobilaboshi bir so'z dedi:

Yig'laganda qora bovrinig ozildi,
Bul qismat avvaldan boshga yozildi.

Ichardan, kiyardan kaming bo'lmasa,
Ne sababdan sening ko'ngling buzildi?

Rahmim keldi ko'zdan oqqan yoshingga,
Hayron qoldim sening qilgan ishinga.
Hech narsadan kamchiliging bo'lmasa,
Yig'laguday ne kun tuvdni boshingga?

Eshitib ol qobilaboshining so'zini,
Har kim mard biladi tanda o'zini,
Qay zolim xafa qildi senday qo'zini,
Yig'laguday ne kun tushdi boshingga?

Otalilar cho'lda lochin cho'ydimi,
Enalilar shoyi-baxmal kiydimi,
Bir zolimning yomon gapi tiydimi,
Yig'laguday ne kun tushdi boshingga?

Qobilaboshidan bu so'zni eshitgan Ravshanxon:

Zimiston choladi tovlarni tuman,
Yig'lamay qaytaman, taqdirim yomon.
Men yig'lamay kim yig'lasin, bo'yingdan,
Qo'shilmadim borib qarindoshima,
Musofirlik tushdi mening boshima, ■
Otamminan enam kirdi tushima.
Qobilaboshi, eshit aytgan tilimni
Sog'inibman taka-yovmit elimni.
Javob bersang men ketaman elima,
Yo bo'lmasa, sotib, olgin pulimni.

Bu gapni eshitgan qobilaboshining qahri keldi. Ravshanning clikmaganini qobilaboshi bildi. Xotinini chaqirib: «Bu Ravshaning elimadi. Bu so'zi menga malol keldi. O'zingdan bo'lmay ul bo'lmas, kishining bolasi kishmish bersang o'z bolangday bo'lmas. O'z bolangning o'zagiga tepsang ham ketmas, tuvishmay qovishmas. Begonani qirq yil boqsang ham aslo kishi-ga elikmas. Bul bola yaxshilikni bilmadi. Bugun yotib, erta turib qul qilib bozorga eltaman. Bahosini juda

qimmat aytaman. Qanday odam kuchi yetib oladi. Qaytarib olib kelib bir ko'zidan qon, bir ko'zidan iring olib ishlataman», — dedi. Ertasi Ravshanning bo'yniga sallasini solib bozorga olib ketdi. Endi gapni Hiloloydan eshitting. Ravshanning qul qilib bozorga solinganini bilib, Hiloloy Gajdimbekning orqasidan borib yig'laganicha akasiga to'g'ri bo'ldi. Hilolni bu holda ko'rib, Gajdimbek hayron qolib, bir so'z dedi, Hiloloy unga javob berib turibdi:

- Otingnan aylanay, qudratli Jabbor,
Ostimda o'ynaydi arabi tulpor.
Ne sababdan xafa bo'lding, mushtipar
Oy misol ruxsoring, aqling purviqor.
- Ostingda o'ynaydi arabi hayvon,
Sen ketasan ovga, akajon har on.
Men qolaman o'zim yolg'iz hovlida,
Men yig'lamay kim yig'lasin, og'ajon?
- Har kimam mard bilar tanda o'zini,
Qay zolim xafa qildi senday qo'zini,
Yoshlatibdi ikki Cho'lpon ko'zini,
Menga aytgin yig'lamaging vajini.
- Hiloloyning bilmaganin bildirgin,
Xursand qilib, uni har dam kuldirgin.
Bir rovotda yakka o'zim yuraman,
Bozor borib, aka, bir qul keltirgin.
- Ushbu damni sen o'zingga dam dema,
Shukr qilgin, bu davlatni kam dema,
Bo'yleringdan og'ang joni sadog'a,
Og'ang bordir, bir qul uchun g'am jema,
- Ko'rganda odamlar hayron qolguday,
Urush chog'i dushman bovrin tilguday,
Balki uyda mahrambachcha bo'lguday,
Bozor borib, aka, bir qul keltirgin.

— Yomg'ir yog'ib, halqob yerlar loylansin,
Urush bo'lsa dushman qo'li boylansin,
Bir qul desang, Hilol, sendan aylansin,
Quling bo'lar, Hilol, senga munosib.

Gajdimbek Hiloloyni xursand qilay, deb otdan tushib, xazinaga kirdi. Xo'rjunning bir ko'ziga oltin solib tashqariga chiqdi. Otni qayta egarlab, ustiga xurjunni ortib, bozorga jo'namoqchi bo'ldi. Hiloloy: «Bozorga borar og'am, o'zi juda xasis odam, og'iz-boshin tuk bosgan, ko'kragini jun bosgan bir qari qulni olib kelar», deb gumon qilib, akasiga qarab bir so'z dedi:

Qatorda nor yursa bo'lmas bahosi,
Yigit qarib o'lsa bo'lmas azasi.
Qari qulning ko'p bo'ladi hiylasi,
Bozor borsang yosh qul keltir, og'ajon.
Qari bo'lsa juda bo'lar hiylagar.

Orqangdan yig'layman menday mushtipar,
Ostingda o'ynaydi arabi tulpor,
Yigitlar ichida sen ham bir shunqor,
Bozor borsang yosh qul keltir, og'ajon,
Qari bo'lsa juda bo'lar hiylagar.

Barchadan ziyoda bo'lsin aqili,
Ulug'larga uning bo'lsin doxili,
Yarashiqqa uchov bo'lsin kokili,
Bozor borsang yosh qul keltir, akajon.
Qari bo'lsa juda bo'lar hiylagar.

Gajdimbek otini minib, choshkada bozorga bordi.
Bozorni tomosha qilsa, yaxshi-yomon, sarti-somon,
chirik-chopon, olvingan-chuvringan, majlis qurilgan,
o'rda bozor qurilgan.

Odamlar qurt-qumirsqaday terilgan. Gajdimbek ot o'ynatib registon bozoriga bordi. Qarasa, qobila-

boshi Ravshanni qul qilib bozorda turibdi. Ravshan ko'p sohibjamol edi.

Hilolning ko'ngliga kelibdi-da, Hilolning aytgani shul. Kuchim yetsa olay, qancha dunyom bo'lsa sarf qilay», deb Gajdimbek qobilaboshiga qarab, bir so'z dedi, qobilaboshi ham unga javob berdi:

- Bu dunyoning o'tarini endi bil
Gul ishqinda sayrar bog'da bulbul.
Ayt, qulingga necha tilla berayin,
Qulini bozor solgan yasovul?
- Vaqtি bo'lmay oy qiyaga botarmi,
Qul quvonmay maqsadiga yetarmi?
Avval holingni choqlagin, Gajdimbek,
Qulga baho qo'ysam, kuching yetarmi?
- Maydon kelsa bedov otim yelayin,
Yarashiqqa kokilini o'rayin.
Qulini bozorga solgan sultonim,
Ayt, qulingga necha tilla berayin?
- Po'lat nayza yer tubida yetarmi,
Temir nayza egovlasa o'tarmi?
Avvalam o'zingning holing choqlagin,
Baho qo'ysam, qulga kuching yetarmi?
- Eramning bog'idan gullar terayin,
Goh ochilsam, goho gulday so'layin,
Qulini bozorga solgan yasovul,
Ayt, qulingga kuchim yetsa olayin,
Pul yetmasa, mayli, quri qolayin.
- O'z elingda ozod o'sgan to'rasan,
Bul qulimga bir ming tilla berasan.
Avvalam holingni choqla, Gajdimbek,
Kuching yetsa shul qulimni olasan.
Bir nechalar gapni o'zga chenamas,
Teng qarindosh bir-biridan kam emas,
Bir ming tilla, bir tiyin ham kam emas,

Kuching yetsa tilla sanab berasan,
Pul kam bo'lsa, bekor quruq qolasan.

Gajdimbekka bu so'z malol kelib, har yelkasi qirday, tovday bo'lib, qobilaboshiga tuvri bo'lib, bu so'z ovir botib, otdan tushdi, xoli xurjunini olib, «Ol olganingcha!» deb oldiga qo'ydi. Qobilaboshi qarasa, xurjuni oltinminan liq to'la. Olay desa ulini ko'zi qiymaydi. Olmay desa, bir gapni aytib qo'ydi. Shunda qobilaboshi o'yladi: «Mard kishi aytmas, aytganimdan qaytmas», noiloj etagini yozdi. Gajdimbek qobilaboshining etagiga ming tillani sanab soldi. Gajdimbek bir qo'sh hovuch tangani olib, shirinkoma, deb uch tangadan bo'lib berdi. Tangani olganlar «xo'p savdo bo'ldi» deb o'rnidan turib jo'nayberdi. Qobilaboshi Rayshanni qulim emas, ulim deb yuribidi. Qilgan ishiga pushaymon edi. Kuygan mol, o'tangan jon, deb Gajdimbekdan olgan oltinlarini yerga sochib yubordi. Gajdimbek qobilaboshi tillani to'kkach, bachchag'ar qobilaboshi aynimasin, Rayshanni otga mindirib go'shtu moyiga, nosvoyi choyiga qaytib kelarman, deb otdan tushmay hovliga qarab yo'l soldi. Hovliga yaqinlashganda Hiloloy ko'shki ayvonda turib, akasi olib kelgan qulni ko'rib, behad xursand bo'ldi. Hiloloy o'rnidan turdi, ko'shki ayvondan enib, darvozaning odiga kelib, Gajdimbekka qarab, bir so'z dedi:

Oshiqlar sardori hazrati Odam,
Habibim, deb ani qildi mukarram.
Podsholikka bir yozganing bormidi,
Shohdorxonadan kelib ketgan kim bo'ldi?

Vo hasrato, uvuz etim uv bo'ldi,
Yig'lay-yig'lay ustixonim kul bo'ldi.
Podsholikka ne yozganing bor edi,
Shohdorxonadan kelib ketgan kim bo'ldi?
Bog' ichida olmamidi normidi,
Bu savdolar bizga nomus-ormidi,

Podsholikka yozgan ering bormidi,
Shohdorxon dan kelib ketgan kim bo'ldi?

Gajdimbek Hiloloyning bu so'ziga hayron bo'lib, qobilaboshining tillani to'kkidanum gumonsirab, «Bu savdodan aynib podshoga arz qilgan» deb, Ravshanni Hiloloya topshirib, darvozaning ichidan qulsnini urdirib, podsholikka ketdi. Akasining ketganini bilib, Hiloloy o'ynab-kulib, Ravshanning bilagidan ushlab, ko'shki ayvoniga boshlab bordi. Ko'shki ayvonga mushki anbardan, tillayu gavharden gul solingan edi.

Gajdimbek otning beliga minib Shohdorxonning arkiga borib, goh kirib, goh chiqib turibidi, buni Shohdorxon ko'rdi. Amaldorlardan sababini so'radi. Vazirlardan biri: «Bugun bozorga bir qul tushgan. Uni Gajdimbek olgan. Puli yetmay qolgan. Podsho xalqi nazrli bo'ladi, mobodo in'om berar, deb umid-minan kelgandir», dedi. Bu podshoga ma'qul tushib, bir taqsim oltin berishni buyurdi. Ikki mahram Gajdimbekka bir taqsim oltin chiqarib berdi. Gajdimbek oltinni olib, podshodan minnatdor bo'lib uyiga qaytdi. Qo'trg'onga kelsa darvoza qulsa, hech kimni ovozi chiqmaydi. «Qul qochgan, Hilol orqasidan quvib ketgan» deb xafa bo'lib, otini darvozaxonaga boylab, bir amallab, hovliga kirib xazinaxonaga bordi. Eshikni ohib ichkariga kirdi. Keltirgan oltinini xazinaga qo'shmaqchi bo'lib qarasa, ko'shki ayvon ostida quliminan singlisi gaplashib o'tirishibdi. Ravshan bir nimalarni deyapti, ikkovining ham ko'zidan yoshi selob bo'lib to'kilayapti. Bularni ko'rib Gajdimbek hayron bo'ldi, Ravshanbekning oldiga borib yig'laganining sababini so'radi.

Shunda Ravshanbek bir so'z dedi:

Yig'laganda qora bovrim ezildi,
Yomon savdo peshonamga yozildi.
Musofirlik bukun boshimga tushdi,

Vo hasrato, o'ldi degan shu bo'ldi,
Musofir bo'p ko'zda yoshim tizildi.

Haq rahm aylasin ko'zda yoshima,
Qo'shilmadim borib qarindoshima.
Ko'tarilmay ko'nglimdan g'uborim,
Sabil bo'lib qolib hovli saroyim,
Musofirlilik asar qildi boshima.

Ko'rmay o'ldim taka-yovmit elimni,
Doimo xor qildim ota-enamni,
Zor yig'latdim, mirzam, shunday sanamni.
Yolg'izligim asar qildi o'zima,
Musofirlilik giryon qildi siynamni.

Bu gapni eshitib Gajdimbekning ko'ngli jumbushga kelib: «Hay attang, bu Ravshan musofir ekan. Avlodi qul emas, asli podshozoda ekan. Singlim balog'atga yetgan bo'lsa, agar o'zining ra'yи bo'lib, shu yigitni qabul qilsa, sigirday sog'ib ichamanmi, so'qimday so'yib yeymanmi, birmas-bir kun erga beraman-da, bersam shunday odamga beraman-da. Bilgan odam quli der, bilmagani uli der», deb, oq ko'ngillik bilan Ravshanbekka qarab.

Ozoda o'g'lonsan, aqling farovon,
Zimiston choladi tovlarni tuman,
Yakkalikdan g'am yemagin, Ravshanjon,
Mirzam dema, men qaynag'ang bo'layin.

Ul Eram bog'idan gullar terayin,
Yarashiqqa kokillaring o'rayin,
Xursand bo'lgan jamolingni ko'rayin,
Mirzam dema, men qaynag'ang bo'layin.

Boqqa kirib qizil gullar terayin,
Davlat ko'rsam men ham davron surayin,
Jonim qo'zim, men qaynag'ang bo'layin,
O'z qo'limman oy Hilolni berayin.

Shundan keyin birov-birovini ko'ngil qo'yib, Hiloloyni Ravshanga nikohlab berdi. Ravshanxon bilan Gajdimbek briday, ochilgan gulday, sayroqi bulbulday yuraverdi. Gajdimbek xursand bo'lib: «Yaxshi bo'ldi, qo'llingga qo'lqanot bo'ldi», dedi. Yegani oldida, yemagani ortida xursand bo'lib yurganda, bir kun Gajdimbek Ravshanga qarab:

— Dovulni urib, shunqorni chuyib, tepkiga tozini olib, chegaga qo'shni solib Oydin ko'liga ovga borsak,
 — deb, maslahat qildi. Otlarini egarlab, gapni bir qilib, dovulni urib, shunqorni chuyib, otning beliga minib, Oydin ko'liga bordi. Ikkovi bir qo'triqqa yetganda, qadimgi podsholiklar o'ttasida jang bo'lgan bir joyda ko'p suyak qolgan ekan. Ravshanxon suyaklarni ko'rib, ko'ngli buzilib, bovri ezilib, bir chorraha yo'lga bordi. Chorraha yo'lging ustida bir quv kalla yotgan ekan. Kallaga yaqinlashib, Ravshanxon qarasa, suyakning peshonasida xati bor. Ravshan o'qib ko'rди-da, tagini qarichladi. Rosa ikki yarim qarich, peshonasini qarichladi, uch yarim qarich keldi Ravshan ko'zidan selop yosh to'kib, suyakka qarab yig'layberdi. Ravshanning bu ishiga Gajdimbekning ko'zi tushib, qahri kelib: «Jasadning odam bo'lsa ham, ko'ngling it ekan. It bo'limasang quv kallani quchoqlab nega yig'laysan?» — dedi. Ravshanxon turib Gajdimbekka qarab: «Bu suyak asl tulporning suyagi ekan. Enasi arabi. Otasi qulon ekan. Shu tulpor qirq yoshga kirgan ekan. Shu yerlarda hisobsiz savash bo'lganda o'q yeb o'lgan ekan», deb, kallani olib borib, bu so'zlarni aytayotir:

O'sha kalla tengsiz tulpor ekandi,
 Jonivorga bir o'q tekkan ekandi.
 Poyoni yo'q bu sahroda, vo darig',
 O'ligi beega qolgan ekandi.
 Bu yerlarda katta savash bo'lgandi,
 Shu tulpor maydonda o'lgan ekandi.

Qizil gulning so'lganiga yig'layman,
Paymonasi to'lganiga yig'layman.
Asl sulton suyagini xo'rلamas,
Shu tulporning o'lganiga yig'layman.

Ko'zimdan to'kaman qonli yoshimni,
Dim ko'rmadim qavmi-qarindoshimni.
Shunday bo'lib o'lib ketsak, Gajdimbek,
Qarg'a-quzg'un ep ketadi go'sh[t]imni.
Shunday bo'lib g'arib o'lsak, Gajdimbek,
Odam yurmas cho'l-sahroda loshimni,
G'arib bo'lib qolganiga yig'layman.

Gajdimbekka bu so'zni aytib, Ravshanxon o'midan turdi va kallani qo'lliqlab hovliga qaytdi. Kallani uyi-ga eltib, osoyishta qilib ehtiyot qilib qo'ydi. Bu orada «Ravshanxon sinchi emish», degan gap butun Zangar mamlakatiga yoyildi.

Shohdorxon podsho bir kuni amaldorlarini yig'ib, suhbat qurdi. Ko'nglini shod qildi. Sug'ankal degan sinchisini chaqirib, dedi:

— Ey Sug'ankal, yer yuzida menday podsho, senday sinchi yashamaydi. Uch yuz olmishta otim bor. Shuning ichidan tulporlarini ajratsang. Tabлага tortib boqsam, — dedi. Shunda Sug'ankal:

— Ey podshoyim, Ravshan degan Gajdimbekning qo'lida bir yigit bor. Yo'lida yotgan, o'lib ketgan, oradan o'ttiz-qirq yil o'tgan otning suyagidan tulporini ajratib oladi emish. To kallasidan biqalag'igacha topib olarmish. Uning oldida mening sinchiligm sahal, — dedi.

— Bor, Gajdimbekminan Ravshanxonni topib kel, — dedi. Sug'ankal Ravshanning rabotiga borib Gajdimbekminan Ravshanni ergashtirib, podshoning oldiga keldi. Podsho Ravshanxonga:

— Sen juda sinchi emishsan. O'lgan otning suyagidan tulporligini tanir emishsan. Rostmi shul? — deb so'radi. «Ha», — dedi Ravshanbek.

— Uch yuz olmishta otim bor. Shularning ichidan tulporini ajratib ber, — dedi podsho. «Xo'p» deb Ravshan o'midan turib otlarning oldiga bordi. Podsho alomon beklarini, jebachi beklarni, yasovul, qozi, muhrdorlarning otini ko'rsatdi. Ravshanxon: «Bularning ichida tulpori yo'q», — dedi. Podsho Ravshanni o'zining uch yuz olmishta otining oldiga to'g'rilab: «Bularda ham yo'qmi?» — dedi. Ravshanxon:

— Boru yo'q. O'zi uchov ekan, uchovining ham tulporligi gumon ekan, — dedi.

Podsho hayron bo'ldi. Bobonazar degan bir holvagar baqqol bor edi. Uning bir xarob bo'lgan oti bor edi. Ravshanning ko'zi shu otga tushdi. «Ana o'sha tulpor», deb podshoga ko'rsatdi. Podsho qarasa, holvagarning otini dumginasi bir qarich, qulog'i ikki qarich, badanida juni to'q qip-qizil xarish. Baqaloqlari mayishgan, yoli-dumi tuyishgan, ko'kragi yoziq, dumlarida quyishqon, so'ngaklari chiqqan, umurtqasi umrilgan, o'zi rosa quvrilgan.

Ravshanxon otga ta'rif berib, podshoga qarab bir so'z dedi:

Mullalar o'qiydi kalom xatini,
Mirzalar oladi oqbarotini.
Taxt ustida arz so'tagan, podshoyim
Tomosha qil holvachining otini.

Do'ngilik savrili, qovlon siyoqli,
Bo'g'jama savrili, chilbir mo'yinli.
Oltoy boqib, yana uch oy sovutsa,
Qish deganda olmish ikki o'yinli.

Baravardi beliminan biqini,
Ortsang ko'taradi norning yukini.
O'zi xosiyatli, pirdan daxli bor,
O'mgani keng kelgan qoplonday chipor.

Rosa kelgan claslaydi qulog'i,
Sovunday jimiqirilib kelgan tuyog'i.

Misoli qoplonga o'xshar siyog'i,
Onda-sonda bir tiyadi oyog'i.

Tomosha qil jonivorning saxtini,
Hech kim boylamasin otning baxtini.
Oltoy boqib, yana uch oy suv ichsa,
Buzadikan senday shoxning taxtini.

Ravshanxon dan bu so'zni eshitib, podshoning qahri keldi, ilonday zahri keldi.

— «Kel jarmor, muning ko'zini o'yib ol, muning sinchiligi sahal, shunday arg'umoq otlar ichida tulpor yo'q deb bir holvachining jarg'og'ini tulpor deydi», deb jallodga buyurdi. Ikki tabibi jarmor, ikkita xudo bexabar Ravshanning oldiga keldi. Bir otimday nosvoyni ko'ziga puf deb urdi. Ravshanni ko'zini gavhari oqib tushib qoldi. Ravshanxon edi Ravshan ko'r bo'ldi, ko'rligi shundan bo'ldi. Ko'zining azobiga chinqirib yubordi. Yig'lag'aniga yer titradi, podshoyam titradi. Podsho pushaymon qildi. «Muning ko'zini nohaqdan o'ydim, bir g'arib bo'lsa, men odil podsho bo'lsam, shundan oriyat bo'ldimi? Endi qonni qonminan yuvami, ko'zining xunini beray. Ajab emas oxiratda azobdan qutilsam», deb Ravshanga qarab, bir so'z dedi:

Ozoda o'g'lonsan, aqling farovon,
Bir pasl ketmadi saringdan tuman,
Bul gunoh o'zingdan bo'ldi, Ravshanxon,
Tilagin, ko'nglingda armon qolmasin,
Ko'zing xuni qiyomat qarz bo'lmasin.

Tila, beray qatorimda norimni,
Nor ustiga yuklab beray zarimni,
Sen tilasang bisotimda borimni.
Tilagin, ko'nglingda armon qolmasin,
Ko'zing xuni qiyomat qarz bo'lmasin.

Senga beray bozorimda bantimni,
Sen tilasang beray Zangar kentimni,

Talab qilsang beray o'sgan yurtimni,
Tilagin, bo'yingdan, armon qolmasin,
Ko'zing xuni qiyomat qarz bo'lmasin.

Xudo ochsin peshonangman baxtingni,
O'tkarmagin davron surar vaqtingni,
Sen tilasang beray toju taxtimni,
Tilagin, ko'nglingda armon qolmasin,
Mashharda bu bo'ynima qarz bo'lmasin.

Shunda Ravshanxon podshoga qarab bir so'z dedi:

Tog'larda o'ynaydi ayiqman bo'ri,
Arimasday bo'ldi peshona teri,
Olqorga suv bergen tovlarning qori,
Taxt ustida arz so'ragan sultonim,
Mol dunyoning yo'qdir bizga darkori.
Eshitib ol Ravshanxonning dodini,
Men ko'rmadim taka-yovmit yurtini,
Tila desang, men tilayman, podshoyim,
Olib bering holvachining otini.

Parvardigor osiy qulga pano[h]dir,
Holin bilgan har kimsa ham donodir.
Tila desang, men tilayman, sultonim,
Olib bersang holvachining otini.

Bir nechalar gapni o'zga chenamas,
Shu jarg'oq ot tulporingdan kam emas,
Ko'zimning xuniga shul ham oz emas,
Shu jarg'oq ot maqsadimga yetkazar.
Oltoy boqib, yana uch oy sovutsam,
Ravshan ko'rni falokatdan qutqazar.
Yo'lga kirib bularminan quvishsang,
Sen dushmansan, sendan meni qutqarar.
Ishonchminan senga aytsam, sultonim,
Sog'-salomat yovmit elga yetkazar.

Podsho turib:

— Ey Rayshan, asli pishak tilov ekansan. Sen men dan gavhar tila, javhar tila, sadaf tila, mushki anbar tila, zarvaraqli oltin makon tila, — dedi.

— Ey podshoyim, — dedi Rayshan, — zar qadrini zargar bilar, mis qadrini misgar bilar, chilangar nimani bilar? U jarg'oqning qadrini men bilaman, sen nimani bilasan? Shu jarg'oqni oltin bersang, jarg'oqqa qilgan xizmatimni ko'rsang. Uch juz olmish otqi boqib, bizminan yo'lida quvishib jarg'oqning qilgan ishini ko'rsang. Shunda senminan gap-lashaman. Shunda Shohdarxon:

— Bor, bir armoni shul bo'lsa holvachining jarg'oq'ini olib kelib ber, — dedi. Amaldorlar o'midan turib, eshikdan chiqqancha orqasiminan turib, uch yuz olmish otqi oralab, ichidan bir eng yaxshisini saralab olib chiqdi. Podshoni oldiga kelib «Bo'ladi mi shu?» deb so'radi. Podsho:

— Bu otga holvachi ko'nmas, xazinaga borib oltin, kumush olib, xurjunga solib, holvachini rozi qilib kelinglar, — deb buyurdi. Ikki yasovul otiga minib, oltinlarni olib holvachini qidirib ketdi. Holvachining oti tulpor edi. Bir chaqirim yerdan otlarning shivirini oldi. Bir qulog'ini ding, bir qulog'ini pas qilib, guldirab-guldirab kishnay berdi. Holvachining qahri kelib, «Jamonlab o'lgor, bir gap bo'ladi mi, atrosga qarab tashlay berding» — deb qarasa, podsho tomonidan ikki otli kelayotir. Holvachining yuragiga dovul tushi di. «Toshimning biri kam edi, bachechag'ar, anavi qishloqdagilar ko'zimni shamg'alat qilib toshimni o'lchab ko'ribdi. Kamligini darrov podshoga xabar beribdi. Yasovullar meni qidirib kelayotir» deganicha otini minib qocha boshladи. Holvachining qochganini bilgan yasovullar: «Turaberchi, turaber!» deb shovqinni soldi. Holvachi:

— To'zingni to'kdimmi, enangni so'kdimmi, toshim ros, kam emas, u aytgan holvaching men emas! — deb qochavurdi.

— Ey toshing boshingdan qolsin, to'xta to'xta! — deb yasovullar yaqinlasha berdi. Shunda «Bovang anoyi emas. Senlarning aldaganningga ko'nmas», deb holvachi bovang qochaberdi. Yasovullar quvaberdi. Moxov ko'cha pes ko'cha, ur qo'rg'on sher qo'rg'on, baland ko'cha, pas ko'cha, har tarasga tor ko'cha, quvib boraberdi. Holvachini oxiri qo'rg'onning qal'a-sigacha quvib borishdi. Uch paxsa devoldan holvagarning oti oshib o'tdi. Holvagar charchab, bir dayrabitga yetti. «Bu bachchag'arlarga bir hiyla qilay, ularning hozir tarozisi bormi, daryoda nima ko'p — tosh ko'p shularning barisi meniki, deb turay» deganicha otidan irg'ib tushdi-da, qo'liga bir qancha qayroq toshlarni olib, «kasraki toshim uyda qolgan», deb birini qo'yib, birini olaberdi.

Yasovullar unga qarab:

- Bobo, bizlardan xavotir qilmang, toshingizga ishimiz yo'q, otga keldik, — dedi.
- Otning narxi qimmat-da, ulim, — dedi holvachi.
- Qancha so'raysiz? — deb so'radi yasovullar.
- Qo'rqib turmasanglar o'n olti tanga berasizlar, — dedi.
- Ey bobo, durust aytin, biz bilan hazillashmang, — dedi yasovullar.
- Ey bo'lmasa, qishloqdan so'ra, bu puldan tashqari dahsari ko'rakning chigitini ham qo'shib berib olganman bu otni, — dedi. Yasovullar ot bilan oltintarni berib, podshoga ot kerakligini aytib, holvachi bovoni rozi qilib otini olib ketdi. Yasovullar holvachi bovonining otini olib kelib, podsholikning oldida turgan Ravshan ko'rga berdi. Ravshanxon ikki ko'zi ko'r bo'lib, Gajdimbek, ot uchovi bir bo'lib, o'z uyiga qaytdi. Shunda otning ta'risini berib, Ravshan bir so'z deydi:

Shul bedov keldi-da, moychiga tushdi,
Urdi-da, necha yil juvozga qo'shdi,

Orqasi shamollab, iyig'i ishdi,
Bilmayman, bedoving holi ne kechdi?

Shu tulpor keldi-da, baqqolga tushdi,
Marangni soldi-da, tovlardan oshdi,
Iyig'in ko'rди-da, bigizlab teshdi,
Bilmadim, tulpording holi ne kechdi?

Bir turg'ay keldida, putiga qo'ndi,
Bir shunqor keldi-da, changini soldi.
Do'stlaray, xudoning qudrati shuldi,
Bilmayman, to'rg'ayning holi ne kechdi?

Sinchiliktan Ravshanxonim ko'r bo'ldi,
Do'stlaray, xudoning taqdiri shuldi,
Ey jonivor, ikkimizga ne bo'ldi,
Zolimning qo'lida o'ldik, shul bo'ldi.

Bu gapni aytguncha Gajdimbekning hovlisiga yaqinlab qoldi. Hiloy — Gajdimbekning singlisi, Ravshanning yori podsholikdan xabar kelib, Ravshan minan Gajdimbekni olib ketgach, «Nima gap?» deb yuragiga hovur tushib, yo'liga termilib o'tiribidi. Hiloy qarasa, Gajdimbek, Ravshan bir jarg'oqni jetalab uchovi turna qator bo'lib, Ravshanning ko'kraklari qon bo'lib kelaberdi. Hiloy Ravshanning ahvolini ko'rib hayron bo'lib, Ravshanga qarab bir so'z dedi:

Sen yig'laysan och buyringdi tayanib,
Vo hasrato, qizil qonga bo'yalib,
Yurolmaysan Gajdimbekka suyanib,
Goh kelasan, goh kelmaysan o'zingga,
Yo'l bilmayin suyanasan tizingga,
To'ramjon, eshitgin aytgan tilimni,
Xazon urdi bog'da ochilgan gulimni.
Polvon to'ram, ko'zingni och, ne bo'ldi,
Qanday zolim o'ydi ikki ko'zingni?

Shunda Ravshan bag'ri ezilib, ko'ngli buzilib, Hiloloya qarab bir so'z dedi:

Egam rahini kelmay ko'zda yoshima,
Qo'shilmadim qovmi-qarindoshima,
Sinchiligm yetdi mening boshima,
Sinchi bo'lib ikki ko'zdan ayrildim.

Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
Yurolmayman, yona yo'lidan toyrixdim,
Sinchiligm yetdi mening boshima,
Sinchi bo'lib ikki ko'zdan ayrildim.

Bo'yingdan, eshitgin aytgan tilimni,
G'am bilan sarg'aytdim gulday yuzimni,
Podsho zolim o'yib oldi ko'zimni,
Sinchi bo'lib ikki ko'zdan ayrildim.

Bul gapni eshitib, oy Hilol yori bovri ezilib, ko'ngli buzilib, darbozadan o'zini otib tayladi. Yoqasi ho'l oqqan ko'zning yoshiga, hayron qoldi Ravshanning ishiga, yori Hilol keldi qoshiga. Hiloloy yori Ravshanni ko'shki ayvoniga olib bordi. Tabibni olib kelib, ko'ziga dori-darmon qilib, qirq kun ko'shkida yotdi. Ravshanning ko'zi ko'r bo'lib bitdi. Ravshanning xayoli o'ziga kelib, «O' Gajdimbek!» deb chaqirib oldi.

— Shul otni tiblag'a tort. Chirog'iga mash'alni yoq, oyog'iga xinani payvantdan taq, oxuriga arpadan to'k, ostob tegizmasdan otni to'qson kun boq, — dedi. Gajdimbek o'midan turib, otni jetalab ketdi, otni tabлага tortdi. Chirog'iga mash'alni yoqdi, arpani oxurga to'kdi. Oxurga kirib Gajdimbek kun sanab yotdi. Qirq kecha-qirq kunduz orada o'tdi, ot semirib ketdi, yoli-dumi cheshilib ketdi, to'qson kun oradan o'tdi. Gajdimbek otga ishqivoz bo'lib, «Ravshanning sinchiligin sinay» deb zinxonaga chiqip, chap savrisidan qoziqni qoqdi, qoziqni sug'urib oldi. Tanganing yuzidan ostob savrisiga tiyib turdi. To'qson kun orada o'tdi, otning muhlati bitdi. Otning xabari Ravshanga yetdi. Yotgan yerida Ravshan «Otni olib

kelinglar», — dedi. Otni jetalab Gajdimbek keldi. Ravshan otning oldiga keldi. Manglayidan tavob qildi, bovrini kabob qildi, otni siypab xursand bo'ldi. Ravshan otning chap yog'iga kelib siypab, ostobning tiyganini bilib: — Ey Gajdimbek, otni to'ldiribsang, mehnatni kuydiribsang, chap yog'iga ostob tiygizibsang, otning shuyiri kam qopti. Ot hojatga bo'lmaydi. Qayta boshdan to'qson kun yana boq, — dedi.

Tabлага tortdi, otni yana uch oy boqdi, Gajdimbekning mehnati oshib, olti oy orada o'tdi. Endi ham kami bormi, deb otni jetalab Ravshanning oldiga yetti. Ravshan otni ko'rib, «Endi hojat beradi» deb Gajdimbekning qo'liga berdi. To'qson kun otni sovut, dedi. Sug'orsa suv bosti qilib, to'qson kun orada o'tdi. Ot sovib bo'ldi Gajdimbek cho'pday qotib ketdi. Ana endi Gajdimbekka otni nomakoblab yuv, dedi. Nomakoblab yuvib, daryobotga suzdirib, otni egarladi. Gajdimbek otni minib, podshoning qal'asiga kelib, qal'asi osmonminan so'ylashgan, bir joyda uch paxsa devol, o'n gaz joydagi ariqning ustidan irg'itib, Ravshanning oldiga keldi. Ravshan ko'rib:

— Yaxshi, ot uch paxsa devol, o'n gaz ariqdan irg'ibdi, endi qo'rg'onning qal'asidan irg'it. Ot irg'i-ganda ko'zingni yum, — dedi.

Qo'rg'onga borsa qirq gaz chim, qirq gaz jar, qirq gaz qal'a, buni ko'rib Gajdimbek otni to'lg'ab yubordi, ot qo'rg'ondan oshdi. Gajdimbek «o'zim yarmida yiqlaman chog'i» deb ko'zini yummadi. Ayildan mahkam ushlab, otga qarab bir so'z dedi:

Quloqlaring erak-serak,
To'rt oyog'ing tikkан terak,
Bugun bo'lding bekka kerak,
Irg'i jonim, bekning oti,
Qo'ltig'ida bor qanoti,
Amallab o't ko'rning oti,
Chuv, jonivor, bekning oti!

To'rt oyog'ing qoqqan qoziq,
 Savring do'ngdi, buyring yoziq,
 Badanlaring guldan nozik,
 O'zing Ravshan ko'rning oti,
 Qo'lting'ida bor qanoti,
 Amallab o't zo'rning oti,
 Chuv, jonivor bekning oti!

Tuyoqlaring g'ur-g'ur ishgan.
 Savring do'ngdi, buyring cho'kkam,
 Ovozang olamga ketgan,
 Dong'ing Dog'istonga ketgan,
 Chuv jonivor, bekning oti!
 Olti oy talbada boqilgan,
 Oyog'ini ip qiyar deb,
 Putidan payvand taqilgan.
 Oyog'ini tosh urar deb,
 Habjo'shdan nahal qoqilgan.
 Oyog'iga tiygan toshlar,
 Misol yong'oqday chaqilgan.

Daryolarday tosharmisan,
 Shul qal'adan osharmisan?
 Suv keladi dor ostidan,
 Haq qutqarsin balosidan,
 Amallab o't ko'rning oti,
 Shul qo'rg'onning qal'asidan.

Gajdimbek ko'zini yumib, otga achchiq qamchi urib, «alhamdu» deb ko'zini ochsa, orqasida qo'r-g'onning daragi yo'q. «Keyiniga burilib ketgan bu, irg'itmasam qo'ymas bu ko'r» deb uyiga qaytib kelganiida yana qo'rg'on tarasga ketmoqchi bo'lgan edi, Ravshan ko'rib, qayting, dedi. Otni ko'rsa, ot oshibdi, qo'lting'i yozilibdi. Qo'lting'idagi shonalari yozilibdi.

Shunda Ravshan: «Endi Yovmitga ketamiz», – dedi. Ikkovi ketmoqqa qaror qilib, tilla kamar beliga buvib, dahsari bug'doyni talqon qilib iyniga oldi.

Metarasiga suv oldi, chaqmog'iga quv oldi, hammasini jamlab, Gajdimbek ilgari, Ravshan keyinga minib jo'namoqchi bo'lib darvozadan chiqaberdi.

Hiloloy ko'shkining ostida bularning ketishiga hayron bo'lib, bir so'z deb turibdi:

Bedovga yarashgan quyruq-yol bo'lsin,
Daryolarga suzgan kema-sol bo'lsin.
Yolg'iz otga ikkovlaring mingashib,
Polvon to'ram, ikkovingga yo'l bo'lsin?

Quloq solgin, oy Hilolning tiliga,
Tilla kamar mard yigitning beliga,
Polvon to'ram, ikkovingga yo'l bo'lsin,
Talab qilding, to'ram, kimning eliga?
Goh u yoqqa, goh bu yoqqa yurasan,
Hech narsani bilmagan bo'z bolasan.
Zor yig'latib menday sanam yoringni,
Ot o'ynatib, to'ram, qayga borasan?

Shunda Gajdimbek: «bir gap aytib, buni aldab tashlab ketay» deb Hilolga qarab:

Ushbu damni sen o'zingga dam dema,
Shukr qilgin, bu davlatni kam dema.
Mergannan, deb tumor taqdik bedovga,
Talab qildik bizlar Oydinga ovga.

Karvon tursa yo'lg'a solar chiyirdi,
Uyqu kelsa qush bo'ynini qayirdi.
Bir maylisda og'ang bo'ldi gunohkor,
Oydin ko'lga beklar ovga buyurdi.

Dunkullatib zumrad dobil tuy, dedi,
Oydin ko'ldan so'na, lochin chuy, dedi.
Oydin ko'ldan so'na, o'rdak ol, dedi,
Beklarga qush go'sh[t]i palov qil, dedi.

Eramning bog'idan gullar teramiz,
Maydon kelsa bedov otni elamiz.

Talab qildik, Oydin ko'lga boramiz,
Beklarga qush go'shitji palov qilamiz.

Hiloloy bularga inonmay, akasiga bir so'z dedi:

Vaqti bo'lmay oy qiyoga botami,
Qul suyunmay maqsadiga yetami?
Bu so'zingga inonmayman, og'ajon,
Mard kishi ham shuytib yolg'on aytami?

Har kimam mard bilar tanda o'zini,
Zor yig'latma menday sho'rli qo'zini.
Yolg'oni qo'y, aytgan so'zing bo'lmaydi,
Ovga borsang, tepkidagi tozing yo'q,
Charqillagan cheгадаги qushing yo'q.

Shunda Ravshan ko'r: «Ey Hiloloy, ko'rminan zo'rda uyat bormi?» deb Hiloloyga bir so'z dedi:

G'amxona-g'amxona ko'nglim, jo'sh endi,
Xumor-xumor nigor ko'zdan yosh endi.
Ko'rardan ko'rmasing bo'ldi dargumon,
Orqamda termilib qolding, xo'sh endi.
Bir armonim qopti qodir oblodan

Amalning kattasi qo'rboshi, dodxo,
Mard kishi niyatman minadi otga.
Orqamdan termilib qolding, bo'yingdan,
Talab qildik bizlar taka-yovmitga.

Hilol ularning orqasidan qichqirib bir so'z dedi:

Ayil qiyib bedovingning to'shini,
Sanamning to'karsan ko'zda yoshini.
Nomard to'ram, ketar bo'lsang elingga,
Bir pasilga tortgin otning boshini.

Bek o'g'liday mening aytar arzim bor,
Bir oblag'a jon bermakka qarzim bor.
Nomard to'ram, ketar bo'lsang elingga,
Bir pasil aytarga mening arzim bor.

Tovlarning boshini cholgan tumona,
Judolik savdosin o'yla, janona.
Nomard to'ram, ketar bo'lsang elingga,
Oltoylilik ichimda bordi[r] gumona.

To'ramjon, eshitgin aytgan nolamni,
Alamsaq o'rtadi gulday tanamni,
Zor yig'latding menday sho'rli sanamni,
Oltoylilik ichimda bordi[r] gumona.

To'ramjon, eshitgin aytgan so'zimni,
Orqangda telmirtding ikki ko'zimni.
Oltoylilik ichimda bordi[r] gumona,
Qornimni yor, olib ketgin qo'zingni.

Yig'lamay naylayin, ahvolim nochor,
Sen ketarsan meni aylab xoru zor,
Sen ketganso'ng g'arib holim ne kechar,
Qornimni yor, olib ketgin bolangni.

Badavlatning o'tgan umri zoyami,
Zolimning qo'lida yashab bo'lami?
O'zimni so'y, olib ketgin bolangni,
Uch etak tuproqni endi ayama.

Shunday qilib, Hiloloy yig'lab qolaverdi, Ravshan ketaberdi. Ravshan bilan Gajdimbek shaharni oralab Gajdimbekning Rustam degan ukasi bor edi. Gajdimbek mollarini Rustambekka topshirib, Ravshan bo'lsa bizlar ketayotibmiz, deb xotinini Rustamga topshirdi.

— Olti oylik ichida gumonasi bor ulmi qizmi bilmayman. Ikkovini senga topshirdim, — deb ikkovi javoblashib ketishdi. Shunda Ravshan Gajdimbekka:

— Endi Shohdorxonning oldiga boramiz, bizlar yovmitga boryapmiz deb bildirib o'tamiz, Gajdimbek, — dedi.

— Podshoning oldida nima qilamiz? Ul katta podsho bo'lsa, ikki yuz ming, uch yuz ming askari,

miltiq-qilichi bo'lsa, to'pu to'pxonasi bo'lsa, senminan men yurgan bir musofir bo'lsak, uning oldiga qanday tuvri bo'lamiz? Qo'limizda qamchidan boshqa asbob bo'lmasa, aydaharning damiga kim yonashadi? Nimaga kelding, deb bizga tuvri bo'lsa nima javob beramiz? Sug'ankal degan sinchisi bor. Uch yuz olt-mish chin tulpori bor. Sen olti oy otni boqqan bo'l-sang har kuni xabar olgan elchisi bor. Seniminan mening ishimdan podshoning xabari bor. Oltoy otlarini boqib turibdi, sovitib turibdi. Qani, ko'r Ravshanning qochib ketganini ko'ramiz, deb kechayu kunduz shaharni aylanib turibdi. Oqshom astagina podshoga bildirmasdan shahardan chiqamiz. Bir ovloq cho'lni olib ketayik-da borayik, — dedi.

Gajdimbek bu so'zni aytgandan keyin Ravshanxon turib aytди:

— Ey Gajdimbek, yashirinib ketish nomardning ishi. Borib bildirib o'tish mardning ishi. G'am yema, Gajdimbek, joning eson bo'lsa shu podsho daryoday chalqigan bo'lsa, ostimdag'i ot omon bo'lsa, Shohdorxon dan qutqaradi. Nima ish bo'lsa peshonadagi bo'ladi, — dedi. Gajdimbekning aytganiga yurmadи. Ravshanxon Gajdimbekning qo'lidan otning tizginini yulib oldi. Ikki marta otga achchi qamchi urdi. Podshoning qo'rg'onining qal'asidan kirdi. Shohdorxon podshoga tuvri bo'ldi. Gajdimbek bilan Ravshanni otning ustida Shohdorxon ko'rди. Bularning qocharini bildi. Olomon beklariga xabar qildi. Otlarning beliga minib, o'n ming otminan «shu Ravshanning qochib qutilganini ko'raylik» deb qo'rg'onning atrofini o'rabi oldi. Darvozani mahkamlab bekitib oldi. Yuz yigirma qal'aning ichida Ravshanbek bilan Gajdimbek podshoning arkinining ichida qoldi. Ravshanning ko'zi ko'r, hech joyni ko'rmaydi. Nima ish bo'layotganini bilmaydi, Gajdimbek bu ishlardi bildi. Hammasini ko'zi minan ko'rди. Bag'ri ezilib, ko'ngli buzilib yig'layberdi. Gajdimbekni yig'laganini Ravshanbek bildi.

— Nega yig'laysan? — dedi.

Gajdimbek:

— Ey Ravshan, sening ko'zing ko'r bo'lsa, senku o'lding, senga qo'shilib men ham o'ldim. Darvozaga qulfni urdi. Ko'p askarminan Sug'ankal qal'ani oldi. Podshoning qal'asida bizlarni qamab oldi, — dedi.

— Gajdimbek, xafa bo'lma, hali ko'rasan, — dedi.

Shu payt yigirma polvon Ravshanning otining dumidan mahkam bosib oldi. Gajdimbek shoshib qoldi. Ravshan ko'r bildi. Otga qamchini urdi. To'rt oyoqni ot bovriga oldi. Jonivor ot vorillab qo'rg'onning qal'asiga soldi.

Yigirma polvon qo'rg'onning yarmiga borganda qo'li judo bo'p, til tortmay o'ldi, podshoning nafasi ichida qoldi. Gajdimbek qarasa, qo'rg'onning daragi yo'q, ot cho'lda ketib borayotibdi. Gajdimbek xursand bo'ldi, Ravshanxon «Hayday ber endi», dedi.

Podsho arkiga chiqib qarasa, Sug'ankal haliyam qo'rg'onning qal'asini o'rab turibdi.

Podsho darg'azab bo'lib: «Ey Sug'ankal, qochib ketdi Ravshan ko'r. Hali ham yurgan ekansan enag'ar Ravshan ko'r dan bexabar!» — dedi.

Do'laniib yo'lga kirdi,
Elanib yo'lga kirdi.
Ko'zidan to'kdi nurdi,
Yod aylab komil pirdi.
Yolg'iz otga mingashib,
Gajdimbekman Ravshan ko'r
Yovmit deb yo'lga kirdi.
Chaqmog'iga quv olib,
Metaraga suv olib,
Belida bellik bulkillab,
Metarada suv shilqillab.
Ostidagi bedov ot,
Qamchi ursa dirkillab.
Ustidagi Ravshan mard,

Lochin qushday charqillab.

Otga urgan qamchisi,

Qor-yomg'irday to'kilib.

Ot boradi orillab.

Otgan o'qday zarillab.

Ravshanbekday zarkokil,

Shamol tursa porillab.

Ustdagi Ravshan mard,

Qarchig'ayday chorillab.

Parvardigor panodi[r],

Holini bilgan donodi[r].

Yolg'iz otga mingashib,

El Xizrning cho'lida,

Obro' ber, deb boradi.

Orqasidan So'g'ankal,

O'n ming otga bosh bo'lib,

Bulam quvib boradi.

Ravshan qildi g'ayratdi,

O'ngu so'lga qaratdi,

Bedovga qamchi tortdi,

Bedovga urgan qamchi,

Bedovga simday botdi,

Bedov jonini sotdi.

Yo'llarni to'zanglatdi,

Cholbor qildi banotdi.

Ravshanning mingan oti,

Qulog'in qaychilatdi.

Belidagi olmosi,

Tig'i zahar po'latdi[r].

Iynidagi qalqonin,

Qubbassin jarqillatdi.

Boshida tuymabandi,

Bir yoqqa selpillatdi.

Ravshanning mingan oti,

Oppoq ko'pikka botdi.

Chingilikda ter qotdi,

Ot sovib, bovrin tortdi.
 Kam-kam o'zin tuzatdi,
 Jilg'a kelsa jilp etdi,
 Ariq kesa irg'itdi,
 O'r kesa o'rgamlatdi.
 Nishab-nishab joylarda,
 Otni buklap to'xtatdi.
 Maydon-maydon joylarda,
 Kiyikday qip sakratdi.
 Jazirama cho'llarda,
 Qop-qoplاب tuproq otdi,
 Ravshanning mingan oti,
 O'ngu so'lga qaratdi.
 Boshida bor tos qalpoq,
 Osmon bilan yer qattil[q],
 Tovu toshni qulatdi.
 Oldidan dushman chiqsa,
 Qilichini uzatdi,
 Cho'llarda to'zanglatdi.

Ol-ha, deydi otiga,
 Chidamas g'ayratiga.
 Obro' ber, deb boradi,
 Taka-yovmit yurtiga.
 Sovut, qalqon bo'ktirib,
 Qilib yurgan ishini,
 Dushmanlarday o'tkazib.
 Ot ustida bek Ravshan,
 Obro' ber, deb boradi,
 Yovmit el deb axtarib.
 Ariq bo'yinda andiz,
 Daryoda suzar qunduz,
 Havoda yorug' yulduz.
 Ot ustinda Ravshan mard,
 Obro' ber, deb boradi.

Oyimlar zulfini o'rар shonaga,
 Beklar otin solar jilovxonaga.

Bir kecha-bir kunduz o'tdi orada,
Ostida arabi ot, belda zulfiqor,
Ot qo'yadi beklar maydon yonaga.

Orqasida Sug'ankal,
O'n ming otga bosh bo'lib,
Bu ham quvib boradi.
O'n ming otning ichidan,
Besh ming tulpor ayrildi.
Besh ming otning ichidan,
Uch ming tulpor ayrildi.
Uch ming tulpor ichidan,
Uch yuz oltmisht ayrildi.
Uch yuz oltmisht ichidan,
Yuzta tulpor ayrildi.
Yuz tulporning ichidan,
O'n olti ot ayrildi
O'n olti ot ichidan,
Yana uch ot ayrildi.
Shuncha tulpor ichidan,
Chin tulpori ayrilib,
Ravshanxonga etishdi.

Qulq soling Ravshan mardning tiliga,
Niyatminan mingandir otning beliga.
Talab qilgan taka-yovmit eliga.
Katta choshka-katta choshka bo'lganda,
Sug'an kalman ikkovi quvishib,
Ot o'ynatib chiqdi tovning beliga.

Endi Ravshan mard bir necha kun yo'l yurdi, ozgina ozgina emas mo'l yurdi, katta choshka bo'lganda Olatovning beliga keldi. Gajdimbek keyniga qarasa, orqasida So'g'onkal ayrimay Ravshanning keynidan keladi. Gajdimbekning «Orqamizdan bu So'g'ankal etdi», deganini eshitgach, Ravshan ko'r turib aytidi:

— Otning jilovini tortib kamarga endir, chang-to'zon So'g'ankalning ko'zini olsin. Chortoshning

panasiga ol, bachechag'ar So'g'ankal ilgari o'tib ketsin,
— dedi.

Shunda Gajdimbek otni kamarga soldi. Otning changi So'g'ankalning ko'zini oldi. Shu vaqtida Gajdimbek panaga oldi. Otning ustida hech narsani ko'r-may qoldi. Otning taysallab keyinga soldi. So'g'ankal adashib qoldi. Asta-asta Gajdimbek yo'lning to'tasiga soldi. Bir kamarni o'rlab tushdi. «Bachechag'arlar kelgan ekan shu vaqtida kamarni o'rlab» deb jo'nag'arga chiqib qoldi. Ravshanni ko'rib qoldi. Orqasidan yetib keldi. Shunda Ravshan:

- Otning tusini ayt menga, — dedi.
- Oq tuyoq, ola poycha, — dedi Gajdimbek.
- Toshloqqa sol, toshloqqa! — dedi.

Oq tuyoq ola naycha ekan, sinibdi tuyag'i parcha-parcha bo'lib, tushib hayday berdi-da. Ot oyog'ini bosolmay, Ravshandan adashib qoldi, So'g'ankal ora yo'lda qilichning dastasidan ushlab qoldi, Ravshan mard qutilib qoldi. Kun peshin bo'ldi. Olatovning Uytosh degan yeri bor ekan. Ravshan mard Uytoshga endi. Uytoshning atrosini bittasi angib yurgan ekan, Ravshanning ustidan keldi, Gajdimbek ko'rди. Ko'zi yo'q Ravshan dushmanning kelganini angladi. Ravshanbek: «Keyinga qara, kim bor ekan?» — dedi. «Bir ot keldi, Ravshan» — dedi. «Novoda dushmanlardin bo'lmasin, tusini ayt», — dedi. «Tusini aystsam, qora qosh chigir ot», — dedi. «Oftobga, ey oftobga!» — dedi. Oftobga soldi, chigir ot ekan, oftob ko'zini oldi. Otning ko'ziga qum tiqildi. Asli o'zi shapaq ekan, oftob ko'rsa bo'lmas ekan, chappa bo'p yiqildi. Bulam Ravshandan ayrilib qoldi.

Shu vaqtida kech peshin bo'ldi, tovdan quvilib endi Qizilqum degan cho'lga keldi. Dushmanning bittasi axtarib yurgan ekan. Gajdimbek qarasa, So'g'ankal. Shunda So'g'ankal:

- Ey Ravshan ko'r, tulpor yo'q deb eding, bor ekanmi? Endi qoyil bo'ldingmi? Qochganiminan qutil-

maysan, otdan tushib bo'yningni sug'urib otib yuboraymi, ko'r? — dedi.

Shunda Ravshan:

— Ey So'g'ankal, tulpor yo'qmi devdim, bor ekan, qoyil bo'ldim. Ichagingni sug'urib otayinmi? — dedi.

So'g'ankal:

— Hali ham qoyillik bermaysan, sen ko'r o'zbek bolasiyan, o'lguncha o'r yog'ingni bermay o'lar ekan-san, mardning ishiga qoyil bo'lmas ekansan, — dedi.

Shunda ko'r Ravshan:

— Avval holingni choqla, menga katta gapirma. Sendan bir gap so'rayman endi. So'g'ankal, ostingdagi otning enasini Arabistondan olib kelib eding, sinchililingningni o'tkazib eding. Shundan tulpor to'llataman deb niyat qilib eding. Qorako'lning boshiga borib eding, suvda yashaydigan dulduli qulon bor edi. Dulduli qulondan baytalni to'llatib eding. Shapaq tulpor olib eding, uch yashar bo'lganda nima sir ko'rib eding? — dedi.

— Hech sir ko'rganim yo'q, — dedi.

— Uch yasharligida o'sha toyni emlab eding, bila-sanmi? — dedi.

— Ha, bilaman, — dedi.

— To'rt oyog'iga ham em tushibmi? — dedi.

— Chiquvdi, — dedi.

— Bo'lmasa sinchi bo'lmay o'l, ey So'g'ankal, endi biz ketdik, — dedi.

Ravshan mard otni haydab yubordi, har irg'iganda bir chaqirim yerga bordi. So'g'ankalning oti yemlagan ekan, tip-tikka bo'lib qotib qoldi. Tebranib-tebranib bir odim ham bosolmay, yotib qoldi. Dushmanlardan sog'-salomat qutilgan Gajdimbek Ravshanga qoyil bo'lib:

— Bu otlar nega buytib qoldi? — dedi.

Ravshanbek:

— Men bekorga ko'r bo'lganim yo'q, demabmidim? Bu ot toza tulpor, ular xosa tulpor. Xosa

tulporning ma'nisi biri toshloqqa bo'lmaydi, biri of-tobga bo'lmaydi, biri emlagandan keyin, mol qashin-gandan keyin olaqaroq bo'p qotadi. Bu ot ham olaqaroq bo'p qotib qoldi. So'g'ankal bekoriga sin-chiman deb olamga oshkora qilib yuribdi. Ishini xom qilib ayrılib qoldi, — dedi.

Zangarminan Yovmitning orasi qirq kechayu qirq kunduz edi. O'n kechayu o'n kunduzda Yovmitning qorasini oldi. Bir kunlik yo'l qolganda otning ichi kuyib, yo'lida nobud bo'ldi, ikkovi piyoda bo'lib yo'lga kirdi. Yovmit yurtiga kirib, Ravshan o'zini ma'lum qildi. Buvraxon degan podshosi bor edi, Ahmad sardor degan tog'asi bor edi, To'liboy degan otasi bor edi. Yovmit viloyatining bir chekkasi takas, bir yog'i yovmit, Gajdimbekniki takadan edi. Ravshanni qo'yib, Gajdimbek og'aynilarini topib olib, ziyorat qilib, bul maqsadga yetdi.

Ravshanxon Buvraxon podshoning arkiga bordi. «To'liboyning uliman» deb o'zini ma'lum qildi. Yovmitning eliga ovoza bo'ldi. Uruvli el Ravshanni ko'r-makka hammasi jiyilib keldi. Ko'p xushro'y, sohib-jamol edi Ravshanbek, ko'zlari ko'r bo'lib, cho'pday qotgan. Ko'p yil orada o'tgan. Ravshanning burungi husni-jamoli qolmay ketgan. Bir chapani:

— Bu Ravshan emas, Ravshanxon bu tusli odam emas edi. Ravshanni bir joyda ko'rgan, Ravshanman deb borsam podsholik meni hurmat qiladi, in'om beradi», deb umid qilgan. Nima bersangiz in'omi siz berasiz, — dedi podshoga.

Shuytib podsholik bunga qalandar libosini, kuloh, so'ta, kosa berdi. Registonning ostidagi chorraha yo'lga olib keldi. Bir kichkina tomchari ixtiyoriga berdi. Ravshanning boshida kulosi, belida mallasi, eynida jandası, yonida randasi, qo'lida hassasi, kosani qo'liga olib tilanib, gadoy bo'lib qoldi. Hiloloy yori duoibad qildi. Hiloloyning ko'zining yoshi Ravshanni urdi. Shuning uchun Ravshan gadoy bo'lib qoldi. Bu

gadoy bo'lib qolabersin, endi gapni Zangar mamlakatidan, Shohdorxon podshodan eshitasiz.

Bir kuni podsho o'zicha o'yladi: «Men bir tush ko'rdim, tushimning ta'birini jo'latuvdim, Ravshan degan sohibqiron bor, deb aytibidi. Elingdan bir xotin oladi. Undan bir ul paydo bo'ladi. Otini Go'ro'g'li qo'yadi deb aytibidi. Aytgan so'zining bari to'g'ri keldi. Katta-kichini jiysam, daryobotga borsam, ko'p o'tinni jiysam. Hilolni shu o'tinning ustiga qo'yib, tagidan olov bersam. O'tga kuydirib, Hilolni yo'q qilib yuborsam».

Shunday qilib, Shohdorxon: «Hilolni yo'q qilsak Go'ro'g'li qaydan paydo bo'lib, qaydan mening yurtinga podsho bo'lar ekan?» deb, shu gapni o'zicha ma'qul bilib, amaldorlarini jiyip, amaldorlari ham podshoning so'ziga kirib, Hilolni kuydirib o'ldirmoqqa maslahatni bir joyga qo'ydi.

Gajdimbekning Rustambek degan og'aynisi ham shu maslahatda bor edi. «Ravshanning topshirig'ini qilay, shu podshoning boyagi aytgan so'zini ma'lum qilay, aytganimga yursa, shu bugun oqshom Hilolni olib yo'qolay», dedi. Rustambek ko'ngli buzilib, bovri ezilib Hilolning ko'shki ayvoniga keldi. Hiloloyni chaqirib Rustambek bir so'z dedi:

Podsho zolim bilmaganing bildirar,
Yig'latib, ichingni g'amga to'ldirar.
Bul o'rdadan olib borib Shohdorxon,
Ustixoning olovga sop kuydirar.
Parvardigor bandasiga panodi[r],
Har kim holin bilsa o'zi donodi[r].
Rustambekka maslahat ber, Hiloloy,
Ertan choshga ustixoning kuyadi.

Amalning kattasi abrashin do tho,
Beklar shiddat qilib minadi otga.
Xayr desang, shu kechasi ketayik,
Ikkovimiz borayik taka-yovmitga.

Shunda Hiloloy Rustamga qarab bir so'z dedi:

Yoqam ho'ldir oqqan ko'zda yoshima,
Illoj yo'q, qo'shilmas qarindoshima,
Nomahramsan, yanashmagin qoshima,
Bugun kelding, bugundan key kelmagin,
Toza gulsan, ruxsoringdan so'l magin.
Mushtiparman, ishonmayman so'zingga,
Ketaber, Rustamjon, yo'lidan qolmagin.

Donolarning so'ylagani dur bo'lar,
Suyib olgan yorning labi bol bo'lar.
Yovmitmikan Zangar elning orasi,
Otta yursa qirq kunchilik yo'l bo'lar.
Seniminan borsam agar, ukaginam,
Yomon savdo men sho'rliga tangilar.

Dumchasinda xazon urgan gul yomon,
Otli yursak jazirama cho'l yomon,
Piyodaga shalchiq-shulchiq ko'l yomon.
Seniminan borsam agar, bo'yingdan,
Yomon savdo men sho'rliga tangilar,
Suvsiz cho'lida g'arib o'lsak, shul yomon.

— Ey Rustambek, sen nomahramsan, men ayolman, ikkovimiz birov-birovmizga munosib bo'lami?
Podshoyi zolimning insosini berar, ayoldan o'ch olamizmi, desa qo'yar. Ajalim yetib, kunim yetsa, ajalim shuning qo'lida bo'lsa, qanday qilay, o'ldirsa endi o'ldirar-da. Endi, bor ketaber, — dedi.

Rustambek xafa bo'lib ketdi. Shu bugun shu joyda yotadi. Ertaman tong otadi. Lekin podsho hukm qilgan, Hilolni olib ketadi. Podsho zolim aytganini qiladi. Hiloloy vali emas edi. Hilolning tushiga ma'lum bo'ldi. Tong azon tahorat qilib, azizlarga munojot qilib, o'limini xudodan tiladi.

Shunda Hiloloy bovri ezilib, ko'ngli buzilib, o'zining holiga o'lim tilab, kushandayu margini tilab bir so'z dedi:

Mening o'zim bir ayoli mushtipar
 Mushtiparning bul qo'lidan ne kelar?
 Duchor qilma bul zolimning qo'liga,
 Hiloloyga o'zing bo'lgin madadkor.

Ucha bilmay qanotimdan qayrildim,
 Yurolmayman yona yo'lidan toyrildim,
 Ham otamdan, ham enamdan ayrildim,
 Ham opamdan, ham singlimdan ayrildim,
 Ham og'amdan, ham yorimdan ayrildim.

Bog' ichinda gulistonidan,
 Ochilgan bog'u bo'stonidan,
 Yoru jo'ra, mo'yinsamdan,
 Qoshi qora gul sanamdan,
 Oq sut bergen sho'r enamdan,
 Emchakdoshim ham og'amdan,
 Ko'ngil suygan gul yorimdan,
 Barisindin judo bo'ldim.

Tog'u toshdan qattiq bo'ldi toleyim,
 Yeru ko'kdan og'tir bo'ldi gunoyim.
 Kuyar bo'ldim bu dushmanning o'tiga,
 Kunimi to'lsa margimni ber, xudoyim.

Shuytib Hilol yig'layberdi zoru zor,
 Ayni sahar ko'zin yumdi beozor,
 Yeru ko'k olamning barin titratdi,
 Shaydullo, deb qirqta qalandar yetdi,
 Hiloloyning kelib girdini tutdi.

Shunda Burqisarmas qalandar Hilolning oldiga keldi. Hilolning oldiga kelib, o'ng tomonidan bilagidan ushladi. Rakasak degan kasalni Burqisarmas xudodan tiladi. Kasalni burnidan iskatdi, shunda Hilol o'zidan ketdi. Odamzotning ikkita ruhi bo'lar ekan. Bittasini ruhi gavhari, bittasini ruhi hayvoni der ekan, ruhi hayvoni chiqib ketdi. Hiloloy o'zini bilmay qoldi. Hilolning ustiga joynamozni kafan qilib yopib,

Burqisarmas qalandar dalaga chiqib ketdi. Ana endi Hiloloyni yotmoqda ko'ring, gapni Rustambekdan eshititing.

Rustambekning Hiloloydan ko'ngli qoldi, Ravshanxonning aytgan so'zi esiga keldi. «Ayolning nimasidan arazlay, hali ham so'zimga kirsa, tong otmay olib ketay», deb Hilolning ko'shki ayvoninining oldiga keldi. Oldiga bormoqqa ibo qilib, qichqirib nima deydi:

Rahmim keldi oqqan ko'zda yoshingga,
Aziz singlim, yana keldim qoshingga.
Hiloloyjon, eshit aytgan tilimni,
Xazon ursa men qaytaman gulimni?
Tashlab ketgan gul yoringning hurmati,
Emchakdoshing Gajdimbekning hurmati.
Zinhor soldim Ravshanxonni oraga,
Hurmatminan, singlim, dedim o'zingni.
Zimiston choladi tovlarni tuman,
Xudoyim saqlagay zulmatdan omon.
G'aflatdan boshingni ko'tar, bo'yingdan,
Eramning bog'idan gullar terayik,
Xudo davlat bersa davron surayik,
G'aflatdan boshingni ko'tar, bo'yingdan,
Podsho zolim yotir hozir uyzuda,
Uyg'onmayin bu shahardan chiqayik.

Bul gapni Rustambek aytdi. Hech odamzotning shobiri yo'q. Rustamning o'ldirarini bilgan, bir yaxshi odamning ko'ngliga xudoy rahm solgan. Men ketgandan keyin Hilolga xabarini bergan. Qochmoq quvmoq sipoyilikdan, deb yashirinib, o'zini bir panga olgan. Bu hovli odamsiz, beega qolgan. Hilolning ko'shkisiga boray, nima bo'lsa shu yerda to'xtab turay, Hilol ketgan bo'lsa ham, yotgan bo'lsa ham bir gaplashib ko'ray», deb yig'lab ko'shki ayvonga bordi. Borsa, Hiloloy oyog'ini uzatib yotibdi. «Uxlagan ekan» deb ko'ngliga keldi. Hilolga qichqirib bir so'z dedi:

Otingdan aylanay, qudratli Jabbor,
 Manmanga balodir, juyrikka tumor.
 Uyqudan boshingga ko'tar, mushtipar.
 Yoqang ho'ldir oqqan ko'zda yoshingga,
 Yosh juvonsan, savdo tushar boshingga.
 Uyqudan boshingga ko'tar, mushtipar,
 Toqatim yo'q, yana keldim qoshingga.
 Zolim podsho bilmaganing bildirar,
 Ochilganda qizil guling so'ldirar.
 Toqat qilmay yana keldim qoshingga,
 Uyqudan boshingga ko'tar, mushtipar.

Hiloloy o'rnidan turmadi, nima deyapsanam demadi. Bunga Rustambek hech toqat qilolmay Hilolning qoshiga kelib, ustini ochdi. Qarasa, Hiloloy o'lib yotibdi, kimdir kafanga sop o'rab ketibdi. Rustambek hayron bo'ldi. Turib-turib: «Ha, endi nima bo'lsa bo'pti-da» deb ko'ngilga keldi. «O'lmak — o'lma kning jazosi ko'mmak. Olamga oshkora qilmay, yog'ochga buvib ko'tarib ketay» deb uchta yog'ochni qirqib kelib, Hilolni yog'ochga solib, arqonga buvib, tong otmay hovlidan chiqib ketdi. Tong sarg'aydi, bu ham mozorotga bordi. Xolisdan ikkita odamni olib keldi. Ko'ngil to'lancha pul berdi.

Shunda lahmnii o'ydi. «Qiyomatli og'angman», deb Rustambek go'rga qo'ydi. Tuproqni uydi. Uchovlari «Qur'on» o'qib, Hilolning arvohiga bag'ishlab, «Hilolning o'lganini hech bir odamga bildirmanglar» deb uchovi bir bo'lib aytmasi qilib qo'ydi. «Podsho bilmasin, podsho bilib, murdasini olovga solib, munga azob berib yurmasin, bir ayoli mushtipar-da, Hilolning arvohi bizlardan norozi bo'lib turmasin», deb uchovi uch yoqqa yo'lni soldi. Ularni hech kim bilmay qoldi.

Ana endi Burqisarmas devona rakasak degan kasalni Hilolga berib edi xudodan tilab. Hilol o'lgani yo'q edi, kasalga yo'lig'ib edi. Bilagidan kelib Burqisarmas qalandar ragini oldi, sagi Hilolda qoldi.

Shunda bir mehriгио degan o'tni Burqisarmas qalandar olib keldi. Hilolning ovziga soldi. Hilolning hamma a'zoyi badani naf oldi. Rustambek eliga borib oshi-suv qilib, Hilolga xudoysi qilib, o'z do'stlariga tarqatib, Hilolning arvoхiga bag'ishlab yubordi.

Hiloloyning bo'yida olti oylik gumanasi bor edi. To'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soat, to'qqiz daqiqa o'tib, mehriгио erib ketdi, Hiloloyning sak kasali ham chiqib ketdi. Hiloloy hushi o'ziga keldi. Qarasa, mozorotning ichida yotibdi. «Men o'lган ekanman, bir yaxshi odam meni joyimga qo'ygan ekan» deb Hiloloyning vaqtı yetib, xudo bir ul berdi.

Bir ulug' kishi oldiga keldi. Hiloloya qichqirib bir so'z dedi:

Ot chopsa gumburlar tovning darasi,
Misoli qunduzdek qoshning qorasi.
Mazorotda beboq Hilol ul topdi,
Go'r ichinda ingalaydi bolasi.

Yomg'irga ko'karar cho'lning giyosi.
Urushda qaynaydi mardning miyasi.
Mazorotda beboq Hilol ul tuvdı,
Go'r ichinda ingalaydi bolasi.

Botirni ingratar nayza yarasi,
Olisdan chopilar otning sarasi.
Go'r ichinda oy Hiloljon ul topdi,
Go'r ichinda ingalaydi bolasi.

Yigitning piridir hazrati Ali,
Ulingizning oti bo'ldi Go'ro'g'li.
Enasining emchagidan sut keldi,
Go'ro'g'li enasin emmakda bo'ldi.

Go'ro'g'lining uncha-muncha tili kelguday bo'ldi. Kunda alifdan saboq berib, devona bovasi o'qitib ketaberdi. Kundan-kun Go'ro'g'li barkamol bo'lib ketaberdi. Go'ro'g'li bir yoshiga kirdi. Odamzot libos

kiymagandan keyin Go'ro'g'lining hamma joyini jun bosdi. Badanining juni xuddi toyning juniday bo'lib ko'kardi. O'n ikki oy deganda onasi xudodan ajal kelib o'lib qoldi. Go'dak enasidan ayrilib qoldi. Bir-ikki kun orada o'tdi. Go'dakning ochlikdan madori ketdi. Go'ro'g'li o'z ahvoliga yig'lab bir so'z dedi:

Kirmakka tayin mazorim bo'lmasa,
Qanday qilay, sanovli kun to'lmasa.
Emay desam menda emchak bo'lmasa,
Uchay desam menda qanot bo'lmasa.

Emib turgan emchagimdan ayrıldim,
Yaxshi ko'rgan g'amxo'rimdan ayrıldim.
Yeyin desam menda ovqat bo'lmasa,
Oq sut bergen sho'r enamdan ayrıldim.

Tovu toshdan qattiq bo'ldi toleyim,
Men yig'layman, juda ko'pdir gunoyim.
Men yetimman, ota-enam bo'lmasa,
Men sho'rliga rahm ayla, xudoym!

Devona bovasi oldiga keldi. Peshonasidan silab, manglayidan tavob qildi. Go'ro'g'liga nazar qildi. Go'ro'g'li bir yoshida nazarkarda bo'ldi. Endi bibi Hilolning go'rining oldiga bir ochiq mazorot bor edi. Bir sher buvoz ekan, shu mazorotga kelib ikkita bola tug'di. Burqisarmas devona shu mazorotning toqqa qaragan tomonidan bir chaqaloq sig'guday teshib qo'ydi. Shunda Go'ro'g'lini Burqisarmas sherning oldiga olib bordi. Sher bolasini emizganda Burqisarmas sherning mo'ynini bosib, Go'ro'g'lini emizib qo'ydi. Har kuni uch marta keladi. Sher dalada turadi. Bir oygacha qalandar piri emizdi. Bir oydan keyin sher bachechaga mehr qo'ydi. Qay vaqtı sher kelsa bollariman Go'ro'g'li emib turaberdi. Go'ro'g'li sherni bir yil emib, ikki yoshiga kirdi. Ham sherning, ham odamzodning tiliga tushunadigan bo'ldi. Odamzotning nafsi qattiq bo'lar ekan. Go'ro'g'li sherning

kuchini emchakdan oldi. Bir sherda qirqta yigitning kuchi bo'lar ekan. Go'ro'g'lining kuchi sherdan ikki baravar bo'ldi.

Gajdimbekning mingta bo'tali tuyasi, mingta qu'lunli biyasi bor edi. Shular Rustambekning ixtiyorida qolgan edi. Bir ola baytali bor edi. Ko'p yashamol bo'lgan edi. Yetti-sakkiz yildan beri tuvmagan edi. Boyagi baytal Qovg'ali ko'lda qulunladi. Boyagi sher toyni olib kelib mazorotda yep qo'ydi. Jonivor baytal sher opketgandan keyin toyidan ayrılib, mazorotga keldi. Baytal kunduzi bilan shu yerda o'tlab, tizillab emchagidan suti oqib turadi. Bir oqshom sher bolalarini olib mazorotdan yo'q bo'lib qoldi. Go'ro'g'li bu sherdan ham ayrılib qoldi. Go'ro'g'li enasining oldida yotibidi, bir ko'r sichqon mazorotning to'basini kovlab, shitir-shitir tuproqni mazorotga to'kaberdi. «Bu nima?» deb Go'ro'g'li tuproq tushgan joyni qo'liminan turtib yubordi. Chuqalab ko'rsa, bir sichqon ekan. Sichqonni ushlab olib o'ynadi. Bu sabil yaxshi o'yin bo'lar ekan, tag'i bormikan?» deb kulib, sichqonning inini chuqaladi. Sabab sichqonning uyasi bo'ldi. Shuni kovlayman, deb mazorotning to'basini teshib yubordi.

Shunday teshikdan qarasa, yer yuzi yop-yorug' jahon, Go'ro'g'li tarmashib yorug'liqqa chiqib oldi. Yerning ostida yotgan, badani havo ko'rmagan, badaniga shamol teyib Go'ro'g'li karaxt bo'lib yiqildi. Bir kecha-bir kunduz yotdi. Hushi Go'ro'g'liga kirib, ham ena, ham oziq-ovqatidan ayrılib, qorni och qoldi. O'z ahvoliga nola qilib, bir so'z dedi:

Supaga makon qip oqqan ko'llarni,
Muncha ham uzoqqa solib yo'llarni.
Yerning qoni — icharga suv bo'lmasa,
Ne uchun yaratgan baland tovlarni?

Bulbulga oshno qip qizil gullarni,
Ochlikdan quvratib qizil tillarni.

Yerga bahra berar daryo bo'lmasa,
Kim uchun yaratgan suvsiz cho'llarni?

Go'ro'g'li mazorotda tuproqqa bulanib, ovnab yotdi. Rustambekning ola baytali sher yep qo'ygan toyini kunda mazorotga izlab keladi. Emchagidan suti oqib turadi. Devona bovasi bir qism tuproqni olib, Go'ro'g'lining ustiga chochib yubordi. Shunda boyagi baytal izlab jun bosgan Go'ro'g'lini iskaladi. Devona bovasi Go'ro'g'liga dam solgan edi, toining isi bolaga urg'an edi. Baytal Go'ro'g'liga tuvri bo'ldi. Go'ro'g'li baytalning emchagini ko'rib, ikki qo'li bilan ushlab, emib qoldi. Go'ro'g'liga baytalning mehri jo'shib, har kuni emizib tura beradi. Bola uch yashar bo'ldi.

Rustambekning mingta tuyasi, mingta biyasi bor. Qovg'ali ko'lida yurar edi. Rustambekning shu mollarni boqib turadigan xizmatkorlari bor edi. Ola baytal ko'p semiz edi. Odamzodning nafsi qattiq bo'lib, baytal ariqlab ketdi. Xizmatkorlar kunda baytalni yo'qotib, mozorotdan topib ketar edi.

Shunda ikki xizmatkor: «Ola baytal bir yildan beri mazorotga uyir bo'ldi. Odamning tizzasiga keladigan Qovg'alining o'tini yemay nimaga mazorotga ketadi. Kundan-kun ola baytal keyin ketayotir. Mazorotda tuproqdan boshqa narsa yo'q. Shu baytalni ushlab kelayik. Mo'yniga arqonni solayik. Ko'lga opkep boylab qo'yayik», deb ikkovi mazorotga bordi. Baytalni mazorotda ko'rди. Baytalni ushlayman, degan edi, ushlatmadи. Shunda baytalga qarab xizmatkorlar bir so'z dedi:

Yomonlagir, ola baytal
Qavg'ali ko'lga bormaysan.
Chalg'in o'tlarni yemaysan,
Mazorotdan dim chiqmaysan.
Teringni ostob olibdi,
Quri suyaging qolibdi,

Endi o'lmaging qolibdi,
 Mazorotdan dim chiqmaysan,
 Shibar o'tlarni yemaysan.
 Rustamga xabar qilaman,
 Qassobni olib kelaman,
 Kallangni kesib olaman,
 Go'sh[t]ingni taqsim qilaman,
 Mis qozonlarga solaman.

Shunda baytalning oldiga keldi. Baytal dumini sirtiga soldi. Mozorotni oralab Hilolning go'rige keldi. Bir bola mazordan chiqib, baytalning putiga kirdi. Boyagi xizmatkorlar shoshib qoldi. «Jinmi-ajinami?» deb tura qochdi. Mozorotga surinib chappa bo'p yiqildi. Bular o'rnidan turaman degancha Go'ro'g'li baytalni emib, mozorotning teshigidan ichkari kirib ketdi. Baytal dumini sirtiga solib, xizmatkordan belang olib, Qavg'aliga enib ketdi. Ikkovi o'rnidan turib, bu savdoni ko'rib hayron bo'lib, baytalning orqasidan keldi. Ola baytal hech joyga burilmay Rustambekning hovlisiga keldi. Rustambek baytalni hovlida ko'rdi. Baytalning tarziga qarab, darvozadan chiqib qarasa, yilqi boqqan xizmatkorlar baytalning orqasidan kelaberdi. Bularni ko'rib Rustambek hayron bo'ldi. «Nega buytib turibsizlar?» deb xizmatkorlarning oldiga tuvri bo'ldi. Baytalning qilgan ishini xizmatkorlar Rustambekka bayon berdi. Shunda yilqichilar:

— Bir yildan avval ola baytal semiz edi. Shu mozorotdan kechayu kunduz kelmaydi. Qavg'ali ko'lga olib kelsak ham jayrab o'lgor dim turmaydi. Baytalni mozorotga izlab bordik. Mozorotdan topib oldik, ushlaymiz deb quvib bordik. Jayrab o'lgor, mozorotga tuvri bo'ldi. Bir mozorot teshilibdi. Ola baytal tuvri bo'ldi. Shu teshikdan bitta jondor chiqib, baytalning putiga kirdi. Jinmikan, martuvmikan, bizlar borgancha mozorotga kirib ketdi. Bu jayrab o'lgor ko'lga qarab qochib, enib ketdi. Ko'lda ham turma-

di. Baytal hovliga soldi. Orqasidan izlab keldik, — dedi.

Rustambek bu gapni eshitib, o'ylanib qoldi. «Shu mozorot Hilolning go'ri bo'lmasa?» deb ko'nglida guman qildi.

— Boringlar, ketaberinglar. Buni hech kimga ayt-manglar. Baytalni ushlab olib orqalaringdan o'zim olib boraman, — dedi.

Baytalni ushlab ayvonga tortib boylab qo'ydi. Baytal Go'ro'g'liga mehr qo'yan, beorom bo'lib, yer tirnab kishnayberdi. Rustambek baytalning ahvolini ko'rib, baytalning beorom bo'lganiga guman qilib, argonni chechib bo'shatib yubordi. Baytal hech joyga burilmasdan mozorotga qarab soldi. Rustambek baytalning orqasidan poylab bordi. Baytal Hilolning go'riga tuvri bo'ldi. Mozorotdan bir jondor chiqib, baytalning putiga kirdi. Rustambek bu jondorni uzoq-dam ko'rdi. Rustambek boraman degancha bir bola mozorotga kirdi. Rustambek borsa, Hilolning go'ri bir bola chiqib-tushguday teshilibdi. Teshikdan ichkariga qaradi. Ichkari qorong'i ekan. Odam ekanini bildi. Ulmi, qizmi bilmadi. Rustambek chopib uyiga keldi.

— O' kampir, men shu bugun bir sir ko'rdim. Hilolning go'rige bordim. Hilolning go'ri teshilibdi. Ola baytalni bir bola chiqib emib turibdi. Meni ko'rib go'rga kirib ketdi. Ulmi-qizmi bilmadim. Ketmonni olib bir mozorotga borsam. Hilolning go'rini kovlab ko'rsam, — deganda xotini:

— Ketmonminan kovlamasdan bunga bir amal qilamiz. O'nta quvurchoq, egarminan yuganni ong. Baytalni no'xtalab etagingizga ong. Go'rning boshiga qo'virchoq, egar, juganni qo'yib, ko'rinxmay lahimda baytalni ushlab turing. Shu bola chiqadi. Qiz bo'lsa qo'virchoqqa, ul bo'lsa egarga aylanadi. Bo'lmasa, baytalni emaman deb keladi. Shu vaqtin uni ushlab olsa bo'ladi, — dedi.

Xotinining aytganini to'g'rilib, Rustambek Hilolning go'rige bordi. Opporgan narsalarini joy-joyiga qo'ydi. Lahimni o'yib, o'zi panalab yotaberdi. Go'ro'g'li uch yashar edi. Esaygan bola mozorotdan irg'ib chiqdi. Shunday qarasa, bir yog'ida qo'virchoq, bir yog'ida egar-jugan turibdi. Rustam qarasa, hamma joyi jun. Qo'virchoqning oldiga bordi. «Bul qiz ekan», dedi Rustam. Qo'virchoqni tomosha qilib, otib-otib yubordi. Egarning oldiga kelib, egarning ustiga minib, «chuv» deb o'ynayberdi. Shu pallada bir sher mozorotning ichidan oralab keldi. Go'ro'g'liga changalini soldi. Go'ro'g'li irg'ib turib sherni egar bilan bir urdi. Sher chappa bo'p yiqildi. Sherning poychasidan Go'ro'g'li ushlab olib otdi. Besh gaz nariga borib tushib, tirq etmasdan sher o'lib ketdi. Sher, baytal onasini emib Go'ro'g'li kuchli bo'lgan. Rustam qo'rqib qoldi. «Bu ul ekan, sherni otib yubordi. Men buning oldiga borolmayman. Meni bir changallasa o'llirib qo'yadi», deb Rustambek irg'ib o'rnidan turib, chopib borib Go'ro'g'lining belidan quchoqlab oldi. Go'ro'g'li qarasa, bir odamzod. Go'ro'g'li indamay muruvvat qildi. Go'ro'g'liga qarab Rustambek:

Oldirmaydi adir-tovning tulkisi,
Ado bo'lmas oshiq yorning kulkisi,
Men bo'laman oy Hilolning og'asi,
Lodon bolam, sening tog'ang bo'laman.
Kumush bo'lar tarlon qushning chegasi,
Tilladandir savit to'nning yoqasi,
Men bo'laman oy Hilolning og'asi,
Lodon bolam, sening tog'ang bo'laman.

Boqqa kirsam qizil gullar teraman,
Davlat ko'rsam menam davron suraman,
Yurgin bolam, uyg'a olib boraman,
Agar bilsang, sening tog'ang bo'laman.

Shunda Go'ro'g'li tog'asiga qarab bir so'z aytdi:

Egam rahmi kelsin ko'zning yoshiga,
 Kim ko'nmas xudoning qilgan ishiga.
 Esa qo'yib yubor meni, tog'ajon,
 Men borayin sho'r enamning qoshiga.

Ul Eram bog'idan gullar terayin,
 Enam sho'rdan borib javob so'rayin.
 Sho'r enamning diydorini ko'rayin,
 Javob bersa o'zim qaytib kelayin.

G'arib sho'rning borib ko'nglin olayin,
 Hiloloy enamdan javob tilayin.
 Esa qo'yib yubor meni, tog'ajon,
 Chin ko'ngilman javob bersa kelayin.

Shunda tog'asi o'ylab turdi. «Bu Hilol o'lgan bo'lса, bul go'dak lodon bo'lса, o'lган odamdan javob so'rayman desа, javob bermasang ko'nglida bo'lса, xayr, borsa borsin, enasiga tuvri bo'lsin, bearman bo'lsin» deb, «mayli, bor, bolam», — dedi.

Go'ro'g'li enasining oldiga borib, enasiga qarab, javob so'rab, bir so'z dedi:

— Yaxshining sarvari hazrati Odam,
 Habibim, deb ani etdi mukarram.
 Qavatingda ich achiring bormidi,
 Og'angman deb keb turibdi bir odam.
 Boqqa bitgan olmamidi, normidi,
 Anal-haq Mansurga qurgan dormidi?
 Qabristonda bo'ylab turur bir odam,
 Sut emishgan emchakdoshing bormidi?

Bog' aralab tersam gulshandan bodom,
 O'lgancha tavba, deb bosaman qadam.
 Jon qadridon ichkuyaring bormidi,
 Tog'angman deb hech qo'ymaydi bir odam.

Enasi bo'lib Burqisarmas devona,
 G'oyibdan ovoz berib nima deydi:

— Bolu parim sensan, mening qanotim,
Ko'nglim uchun ozoyishta farzandim.
Endi yetdim, bolam, sakkiz behish[t]ga,
Sirayam tinmadi sendan qulog'im.

Oqshomligim sensan, mening kunduzim,
Falakning tongidan oshgan kunduzim.
Eram bog'im sensan, bog'u jannatim,
Sho'r enangdan ne arzing bor, farzandim?

Sutminan sarg'aydi gulday siyog'im,
Bir pasil qolmadi sabru qarorim.
Endi yetib edim sakkiz behish[t]ga,
Sirayam tinmadi sendan qulog'im.

Enasi bu gapni aytgandan keyin Go'ro'g'li: «Ey
g'amxo'r ena, orqangda og'ang, ining, ota-enang
bormidi? Tog'angman deb qo'ymaydi, javob bersang,
enamdan so'rab kelsam, deb sening huzuringga kel-
dim», — dedi. Shunda enasi Go'ro'g'liga qarab:

Qirg'iyning mazgili bo'lar qiyada,
Bo'ztarlon charqillar baland uyada.
Aziz bolam, kuygan jonim kuydirma,
Og'a deb olamni qilma ziyoda.

Ot sovisa uzoq yo'ldan chopilar,
Ham chopilsa jonivorlar sobilar.
Og'a, deb o'rtangan jonim kuydirma,
Enang musofirdir Zangar eliga.

Quloq solgin sho'r enangning tiliga,
Ustixonim kuydi o'lim hiliga.
Enang musofirdir Zangar eliga,
G'arib o'lgan dushmanlarning qo'lliga.

Gajdimbekday emchakdoshim og'amdi[r],
Ko'r Ravshan der, bolam, sening otangdi.
Sinchilikdan ikki ko'zi ko'r bo'lib,
Yovmit eliga ketdi tashlab enangdi.

Oq yuzingga dona-dona xol bo'lzin,
 Aziz bolam, avliyolar yor bo'lzin.
 Ich achiring ketgan Yovmit eliga,
 Kelib turgan Rustam tog'ang bo'lmasin?

Bulbul qo'nar toza bog'ning guliga,
 Yigit oshna bo'lar jonon diliga.
 Kelib turgan Rustam tog'ang bo'lmasin,
 Borgin, bolam, Rustam qulning qo'liga.

Bu gapni Burqisarmas devona Go'ro'g'lining enasi
 bo'lib, o'zining enasiday gapirdi. «Enamning gapini
 qulog'imga olay, mayli, Rustam tog'am bo'lsa qo'liga
 boray», deb enasiga qarab, bir so'z dedi:

Qarchig'aying bo'lay, suygan enajon,
 Ko'rardan ko'rmasim bo'ldi dargumon,
 Orqamda termilib qolding, enajon,
 Bir armonim ko'pdir, qodir oblodan,

Bizning uchun aziz joning fido qil.
 Qizil gulning bo'lay, iska enajon,
 Orqamda termilib qolding, ka'bajon,
 Qo'l ko'tar, haqqimga xolis duo qil.

Qulq solgin, ena, aytgan dodima,
 Ustixonim kuydi chiqqan dutima.
 Rozi bo'lgin, ena, bergan sutingga,
 Omin, deb qo'lingni tortgin betingga.

Shunda enasi bo'lib g'oyibdan bir ovoz chiqdi:

Qulq solgin sho'r enangning tiliga,
 Borgin, bolam, Rustam tog'ang qo'liga.
 Bolam, kirsang munnan yetti yoshingga,
 Rahm qilsin ko'zdan oqqan yoshingga,
 Yovmit elga borgin jon qardoshingga.
 Otingdan aylanay, qudratli Jabbor,
 Mening o'zim bir ayoli mushtipar.
 Borar bo'lsang, bolam, qarindoshingga,

O'sgan eling Yovmit el deb so'rab bor.
 Azizingni so'rar bo'lsang, chirog'im,
 Xon otangni Ravshan ko'r, deb so'rab bor.

Lodonim, eshitgin aytgan nolamni,
 Yig'latib xor qildi menday sanamni.
 Ravshan ko'r der, bolam, sening otangni,
 Gajdimbek der ul emchakdosh og'amni,
 Taka borsang, Gajdimbek deb so'rab bor.

El ko'chirib, Olatovdan oshirdim,
 Xizmat qilgan ulug'larga topshirdim,
 Sirim aytmay g'animlardan yashirdim.
 Yolg'iz joning bir xudoga omonat,
 Omonatga zinhor qilma xiyonat.
 Azizimni, xudo, senga topshirdim,
 Ravshan ko'rga yetkar sog'u salomat.

Enasi duo qilib, Go'ro'g'lini xudoga topshirib, bor bolam, deb jo'natdi. Go'ro'g'li o'trnidan turib oldiga keldi. Rustamning dimog'i choq bo'lib, Go'ro'g'lining bari yeri jun bosgan, libos ko'rмаган, choponiga o'rab uyiga olib keldi. Xotiniman ikkovi xursand bo'lib, yo'q yerdan farzand berdi, deb unga turli lipossalarni kiydirib, Rustambek etagiga soldi. Xotini yoqasidan solib, etagidan oldi. Rustambek Go'ro'g'lini ul qildi. Rustambek xushvaqt bo'lib, yoru jo'ralarini jiyip, menga ul berdi deb, yaxshi ko'rgan jo'ralariga in'om berib, ulli bo'lganini jo'ralariga ma'lum qilib, Go'ro'g'lini tizzasiga olib, Go'ro'g'liga qarab:

Tog'da ochilgan gulim bo'lgin,
 Qafasda bulbulim bo'lgin,
 Go'ro'g'lijon, ulim bo'lgin,
 Ko'lda uchgan g'ozim bo'lgin,
 Ovozada nozim bo'lgin,
 Kuylamakka sozim bo'lgin.
 Kunim bitib o'la ketsam,
 O'lsam merosxo'rim bo'lgin.

Yurtimning egasi bo'lgin,
 Qirq yigit og'asi bo'lgin.
 Kunim bitib o'la ketsam,
 Tobutim chegasi bo'lgin.
 Belimning quvvati bo'lgin,
 Tizimning madori bo'lgin,
 Dardimning darmoni bo'lgin.
 Rustambekni ota degil,
 Otangning farzandi bo'lgin.
 Otang bilan bul enangni,
 Bo'yingdan, qurboni bo'lgin.

Go'ro'g'li xursand bo'lib, Rustambekni ota qilib, xotinini ena qilib, jonusu dilda xizmat qilib, o'ynab-kuldi, xushboq bo'lib, Go'ro'g'li bu so'zni eshitib xursand bo'lib yurdi. Go'ro'g'lining badanini jun bos-gan edi. Badanini yalong'ochlab, Rustambek Go'ro'g'lining badaniga upa surtib, cho'miltirib Go'ro'g'lining badanidan jun to'kilib, odam sisfatli bo'lib songa kirdi. Go'ro'g'li chiroyli bo'lib, ko'rigan odam «mening ham shunday farzandim bo'lsa» deb havas qildi. Yaxshi liposlarni kiyib, Go'ro'g'li ko'chalarga chiqib, shaharlarni tomosha qilib, yaxshiyomonlarni ko'rib yurdi. Go'ro'g'li sherni, odamzotni ham yilqini emgan. Sherning kuchini olgan, shuning uchun Go'ro'g'li kuchli bo'lgan. Hamma tilga Go'ro'g'li tushadi. Ko'chalarda yurganda har turli o'yinlarni ko'radi. Shu o'yinda qo'shilib Go'ro'g'li bolalarman kurashib yuradi. Bolalarning bir o'yini bor edi. Oltin oshiqdan edi. Uni ovdarmoloq der edi. Bolalarga «oshig'ingnan ber» deb aytdi. Bolalar bermadi. Rustambekning oldiga xafa bo'lib keldi. Shunda Go'ro'g'li norizo bo'lib yig'ladi. Rustambek Go'ro'g'lining ra'yiga boradi. Og'zidan chiqqandan tayyor qiladi. Bir zargarni olib kelib oltindan soqqa, kumushdan gang qilib, Go'ro'g'liga berdi. Oltindan soqqa, kumushdan gangni olib, Go'ro'g'li chorrahaga

bordi. Kun botib namozshom bo'ldi, bolalar o'yinini buzib uy-uyiga ketayotir. Go'ro'g'li kelganini ko'rib, ko'chadagi o'ynab yurgan bolalar uni o'rta ga oldi.

Podshoning Haybat degan bir polvoni bor edi. Shu polvonning bitta uli bor edi. Otini Rahmon der edi. Qo'ynida ko'p oltin oshig'i bor edi. Go'ro'g'liminan Rahmon ovdarmoloq o'ynadi. Bolalar bularni tomosha qildi. Go'ro'g'lining oltindan soqqasi, kumushdan gangi bor. Go'ro'g'li oltin soqqasini yerga qo'ydi. Rahmonberdi g'irrom o'ynab utib olib qo'ydi. Go'r-o'g'li Rahmonga: «Sen g'irromlik qilding, oltin soq-qamni ber», dedi. Rahmon: «Men utib oldim, menda oltin soqqa ko'p», dedi. Go'ro'g'li qahrlanib, Rahmonning ko'kragiga minib, o'ng qo'lini sug'urib oldi. Poychasidan ushlab osmonga otdi. Rahmonberdining jasadi shahardan chiqib ketdi. Ko'p odam yig'ilib Go'ro'g'lini o'rta ga oldi. Rahmonning bilagiman Go'ro'g'li to'qson kishini mayib qilib qo'ydi. Rahmonberdining hamma oshig'ini o'ngiriga solib uyiga keldi. Go'ro'g'li oqshom uyida yotdi. Ertaminan tong otdi. Go'ro'g'li ertaniga registonga bordi. Registonda ko'p bolalar yurgan ekan. Shularminan o'yinni qurdi.

Shunda Go'ro'g'lining qilgan ishini ko'rgan odamlar, «Bir bola chiqib Haybatning bolasini urib o'lirdi. Buning dastidan ko'p odamni mayib qilib qo'ydi», deb xalq chuvlab yubordi. Xaloyiq bolani ko'rib, qurollarni qo'liga olib uni o'lDIRMOQchin bo'lib yoniga keldi. Go'ro'g'lining oldiga kelmay bir kishini: «Sen Go'ro'g'lini oshiq o'ynab andarmon qilasan, g'ar-qopta urib o'ldiramiz», deb maslahat qilib yubordi. Boyagi kishi Go'ro'g'lining oldiga keldi. Ko'p oltin soqqani o'rta ga uyib, ikkovi o'ynay berdi.

Shu payt qalandar bobosi Go'ro'g'lining oldiga kelib, bir so'z dedi:

Orqa etakni kesib solsa yeng bo'lmas,
Ko'zning yoshi oqqanminan sel bo'lmas.

Yosh bolasan, ketgin bolam, uyingga,
Avval dushman, qo'zim, senga el bo'lmas.

Tarzingga qarasam lodon bolasan,
Yig'laysan, ichlaring g'amga to'lasan.
Qo'y o'yinni, ketgin bolam, uyingga,
Yosh bolasan, bolam, nobud bo'lasan.

Shu payt besh yuz odam Go'ro'g'lini o'rtaga oldi. Boyagi oshiq o'ynagan odam Go'ro'g'lining yoqasidan jup qilib ushlab oldi. Go'ro'g'lining qahri kelib, yoqasidan olganiga malol kelib boyagining qo'lidan ushladi, uch aylantirib osmonga otdi. Bul ham qo'r-g'ondan o'tib ketdi. Go'ro'g'lini o'rtaga olib chuvlab mojaro qildi. Qalandar bobosi Go'ro'g'liga bir jandasini yopib qo'ydi. Go'ro'g'li ko'rinnmay g'oyib bo'ldi. Bolaning qayoqqa ketganini odamlar bilmay qoldi. Bobosi ustidan jandani oldi. Kun shu vaqtin xuston bo'ldi. Odamlar tarqab ketibdi. Yuragiga hovur tushdi, uyiga kelib otasiga bildirmadi. Oqshom yotib, ertaminan tong otdi. Oltin soqqani ko'tarib chorsuga bordi.

Chorsuga borsa ko'p bola yig'ilgan, chavki qurilgan. Go'ro'g'li shu bolalarga qo'shilib o'ynayberdi. Chorraha, registonda ko'p odam mayib bo'lgan. Xalq odammi yoki balomi, deb chuvlab ketgan. Har ko'chadan odam chiqib, bolani topib olamiz, deb izlab ketgan. Nor yigitlar izlab Chorsuga yetdi. Qarasa, kechagi bola bolalarminan chavki o'ynab turibdi. Xaloyiq yig'ilib, xonada turib, Murodim degan polvonga Go'ro'g'lini ko'rsatdi. Murodim polvon qo'lini orqasiga qilib bolalarning oldiga bordi. Go'ro'g'lining turqiga nazar soldi. Shunday qarasa, uning siyosati hech narsaga o'xshamaydi. Bilagiga qarasa, o'zi yosh bola, bilagi yengiga sig'maydi. Oyog'iga qarasa, poychasi ishtonining balog'iga sig'maydi. Beliga qarasa, odamning quchog'i yetmaydi. Ko'ziga qarasa, ikki ko'zi chiroqday yonib

turibdi. Hamma joyi kelishgan, yelkasi, savrisi juda tutash. O'ziga hamma yeri yarashgan. Murodim polvon «Bu bola yo sohibxurish, yo sohibqiron ekan. Ulug'larning nazari tiygan ekan. Agar qahrlansa tovni tolqan qilar ekan. Odamzod bunga tan tutolmas ekan», deb qo'rqib, odamlarning oldiga keldi.

— Men Shohdorxonga boraman, Hayvat palvonning bolasini urib o'ldirib qo'ygan emish, chorrahada ko'p kishini mayib qilgan emish deb aytaman, — deb xaloyiqni tarqatib yubordi.

Shunda Murodim uyiga keldi. «Ke, muni podshoga bildirmay bolaning oldiga borib, avlodini so'rab, kim ekanini bilib olay», dedi. Go'ro'g'li shu kuni xotirjam bo'lib uyiga keldi. Shu oqshom yotib, ertaminan chorrahaga yana keldi. Ko'p bola yig'ilib o'ynab yotgan ekan. O'yinning ustidan keldi. Bolalar qo'rqib, chor tomonga ketaberdilar. Murodim polvon hamma joyni axtarib, oxiri chorrahada Go'ro'g'liga tuvri bo'ldi. Go'ro'g'liga qarab bir so'z dedi:

Bo'yingdan, eshitgin aytgan tilimni,
Bir egam uzoqqa solgan yo'lingni.
Qaysi elda qanday odam ulisan,
Bayon bergen menga o'sgan elingni.

Bo'yingni o'xshatdim bo'z qarchig'ayga,
Yuzingni o'xshatdim to'lishgan oyga,
Qoshingni o'xshatdim kelishgan yoyga,
Sohibqiron bolam, qaydin bo'larsan?

Qarchig'ay kelbatli, burgut qoboqli,
Urush maydonida Rustam haybatli.
Sohibchangal o'g'on, qaydin bo'larsan,
Qaysi elda qanday bekning ulisan?

Bul gapni aytib Murodim turibidi, Go'ro'g'li fikr qildi, nazar ko'ziminan polvonga qaradi. Qarasa, Murodim dushman ekan. Dushman ekanini bilib, bir so'z dedi:

Eshitgin, bo'yingdan, aytgan tilimni,
 Men bilmayman avlodimni-zotimni.
 Yetim qulman, yetimlikda minim yo'q.
 Yetim qulda ota-ena ne qilar,
 Ota tugul qavatimda inim yo'q,
 Qahrlansam dushmanimga tinim yo'q.
 Tarzimga qarasang, lodon bolaman,
 Dushman kelsa men o'chimni olaman,
 Darbadarman, ota-ena ne qilsin,
 Ota-enasi yo'q yetim bo'laman.
 Men bilmayman avlodimni-zotimni,
 Dushmanlardan men olaman o'chimni,
 Go'ro'g'li deydilar mening o'zimni.

Murodim: «Bu bola haqiqatdan sohibqiron ekan. Har qanday odam munga baravar kelmas ekan. Men Shohdorxonning oldiga boray, muning tarafini bildiray, Hayvat degan polvonning ulini ham nobud qilgan. Nima ish qilsam, podshominan kengashli qilay», deb sirini bildirmasdan ketdi. Alqissa, Murodim podshoga tuvri bo'ldi.

— Ey podshoyim, turqiga qaradim, hamma joyi tutash, o'zi sohibqiron, Rustam haybatli, burkit qobqli, o'zi sohibchangal, changallasa tovni talqon qiladi. Har qanday odam ko'rsa undan hazar qiladi. Lekin qahrlansa shaharingni bir kechada vayron qiladi, — dedi.

Podsho Murodimdan bu gapni eshitib, oddiy chaponni kiyib:

— Tanisang menga ko'rsat, men ham ko'ray, qanday odam ekanini bilay, — dedi. Shunda podsho polvonni iyartib, o'zini tanitmay bolani axtarib turib edi, Go'ro'g'li eski shaharda chavki o'ynab yotib edi, Murodimning ko'zi tushdi. Go'ro'g'lini topib podshoga ko'rsatdi. Podsho oldiga borib qarasa, Murodimning aytganidan ham ziyoda. Ravshan ko'rnинг ko'zini o'yib olib edi shu podsho. Jasadi

xuddi Ravshan ko'rning o'zi. Qaytib o'rdasiga keldi. Murodimminan maslahat qildi.

— Murodim, men bir tush ko'rganimda Pattigul degan kampir shu tushimni yo'rib, bir yigit keladi, elingdan xotin oladi. Undan bir ul tug'iladi, degan edi. Shu aytgani boylaganday keldi. Ravshan xotin oldi, o'zi Yovmitga qochib ketdi. Xotini joyida qop ketdi. O'ldirmoqchi bo'lganimda bir oqshominan shu xotin yo'q bo'lib ketdi. Shu xotin o'lgan ekan, go'rga qo'yilgan ekan bu bola go'rda tug'ilgan ekan. Qarasam, o'zi sohibqiron ekan. Ravshanning ko'zini o'yib oluvdim. Rangi-ro'yini ko'ruvdim. Shu bolaning qoshi-ko'zi otasining o'zi. Endi besh yuzta yasovulni qo'yaylik. Shu bolani tutaylik. Shu bola go'rda tuvilsa go'rga kiradi, qayerda ushlasak bir shekilli qilaylik. Hozircha Hayvat safarga ketgan. Kelar vaqtি bo'ldi, shu kelsin, deb maslahat qilib turib edi, bu maslahat ado bo'lmay Hayvat keldi. Podshoni ziyorat qildi. Podsho Hayvatga qarab:

Quloq solgin endi shohning tiliga,
Bulbul qo'nar toza bog'ning guliga.
Elimizga bitta dushman kelibdi,
Sohibqiron bola paydo bo'libdi.
O'shal dushman shaharlarda yuribdi,
Odamlarga qirg'in solib turibdi.
Otini so'rasang deydi Go'ro'g'li,
O'sha bola, bilsang, go'rdan chiqibdi.
Hayvatbek, eshitgin aytgan nolamni,
Dushman kelsa buzar kulbaxonamni.
Oshiq o'ynab o'ldiribdi bolangni.
Go'ro'g'liman borib chavki qurasan,
Tirikmikan, o'lik ushlap kelasan,
Ushlab bersang mendan in'om olasan.

Bolasining o'lganligini bildi, boshiga tuman tushib qoldi. Hayvatga qiyomat bo'ldi, chorraha yo'lga keldi. Qarasa ko'p bola yig'ilgan, chavki qurilgan, Go'ro'g'-

lini tanimaydi, bir kishini chaqirib olib, «Go'ro'g'li degani bormi?» dedi. Go'ro'g'lining ovozasi ketgan, zarbi o'tgan. Aytgani qo'rqaadi. Hayvatni panaga oldi. Go'ro'g'li chavki o'ynab yuzi tushlikka qarab o'tirib edi, «Ana Go'ro'g'li», dedi astagina. Shunda Go'ro'g'li qarasa, Haybatbek kelayapti. Enliligi ellik gaz, uzunligi bir yuz ellik gaz. Kallalari katta to'baday, murnilar to'laday, joyrirlari qirday. Shunda Go'ro'g'li:

— Ey Haybat! Sennan qo'rqlmayman, kelag'ay! — dedi. Go'ro'g'li fikr qildi. Bolalikda pirlar nazar qilgan. Pir nazar solsa, haqiqatda Hayvat dushman ekan. Dushmanligini bilib, o'rnidan turib, chorrahaga kelib tayyorgarlik ko'rди. Gurkirab Hayvat Go'ro'g'lining oldiga bordi. Go'ro'g'lining qahri keldi, ilonday zahri keldi. «Ota-bobomning arvohi yor bo'lsa muniminan bir shekilli bo'lay», dedi. Hayvatning ikki bilagidan ushlay ketdi.

Hulkar kelib, taroziga tayaldi,
Xizmat qilgan xon oldidan joy oldi.
Ikki yoqdan chiqdi ikki zo'rabor,
Biri Go'ro'g'lidir, biri Hayvat, yoronlar,
Ikki polvon bir-birini aylandi.

Attang, dedi barmog'ini tishladi,
Bor bolasi bozor ko'rsa yashnadi,
Ikki polvon bir-birini ushлади.
Oyog'ini qatti yerga tiradi,
Qatti yerga tizzasidan kiradi.
Silkib-silkib olishgandi, yoronlar,
Haybatiga tovlar larzon beradi.

Xaloyiqlar keldi kurash boshlashgan,
Ikki polvon bir-biriman ushlashgan.
Tomoshaga kelgan kishi qarasa,
Itarishib bir-biriman boradi,
Ikki polvon kurashda teng keladi.

Bir-birini yuboradi silkishib,
 Ikki polvon bir-biriman tortishib.
 Do'stlar-ey, xudoning qudrati kuchli,
 Osha yurtdan oshgan tortar koyishdi,
 Bir kecha-bir kunduz tinimay olishdi.

Hayvatbekning bilmaganin bildirdi,
 Ochilganda qizil gulin so'ldirdi.
 Hayvatning kallasin oldi qo'litiqqa,
 Go'ro'g'libek keyin qarab tindirdi,
 Chap qobirg'asin uchovini sindirdi.
 Cholim solib tizzasiga Haybatni,
 Chorrahada uning umrin so'ndirdi.

Shunday qilib, Go'ro'g'li Haybatning ishini tindirib, bilagini sug'irib olib, chorrahada to'palang qilib kelganning bari dushman, deb kelganini urib, ko'pini mayib qilib, Go'ro'g'li jang qilib qoldi. Go'ro'g'li namozshom bo'lganda uyiga keldi, Rustambek Go'ro'g'lining qilgan ishini bilmadi. «Mening ovozam har tarafga ketdi» deb gumon qip, o'zi emgan ola baytalni jetalap sahar vaqtি bo'lganda sahroga chiqib ketdi. Qovg'ali ko'liga bordi. Baytalni o'tga qo'yib, o'zini panaga olib uxbab qoldi. Uxlab yotgan erida qadimgiday sog' bo'lib enasi tushiga kirdi. Go'ro'g'liga nasihat berib:

Bolam, kirding endi yetti yoshingga,
 Yomon savdo tushar sening boshingga.
 Ketgin, bolam, taka-yovmit elingga,
 Borib qo'shil, bolam, qarindoshingga.

Orqa etakni kesib salsa yeng bo'lmas,
 Ko'zning yoshi oqqanminan sel bo'lmas.
 Borgin, bolam, taka-yovmit elingga,
 Shohdor dushman, bolam, senga el bo'lmas.

Ulug' shohlar qo'ygan sening otingni,
 Taka-yovmit deydi ota yurtingni.

Sen bormasang taka-yovmit yurtingga,
Yerlarga sog'aman bergen sutimni.

Doimo qasdingga bo'ldi ul dushman,
Aziz bolam, doim senga kashalman.
Zinhor borgin taka-yovmit yurtingga,
Rozimasman, bolam, emgan sutingga.

To'rt juma o'tibdi tuvgan oyidan,
Yigit ruxsat tilar bir xudoyidan.
Chuchchi uyquda yotgan ekan Go'ro'g'li,
Sachirab turib ketdiku joyidan.

Go'ro'g'li joyidan tursa, dalada uxbab yotgan ekan.
Enasi boshida yetti yoshingga kirsang ketgin deb edi.
Enasining aytgan so'zi esiga keldi. «Bu tushim bexislat
emas», deb o'midan turdi. Baytalni jetalab Rustam-
bekning oldiga keldi.

Ko'rgan tushini Rustambekka bayon berdi:

Bek o'g'liday mening aytar tarzim bor,
Bir obloga jon bermakka qarzim bor.
Quloq solib eshit aytgan tilimdi,
Tog'ajonim, sizga aytar arzim bor.

Kecha yotib sahar vaqtı tush ko'rdirim,
Ul tushimda ko'p qabohat ish ko'rdirim.
Boqqa kirsam qizil gullar teraman,
Javob ber, tog'ajon, Yovmit boraman.

Jonimni qurban qilaman so'zingga,
Tanda jonim qurban bo'lsin o'zingga.
Men ketaman taka-yovmit elima,
Rozi bo'lgin, tog'a, bergen tuzingga.

Go'ro'g'li bu gapni aytdi. Rustambek hayron bo'-
lib, bir so'z dedi:

Ochilganda bog'da guling so'ldimi,
Bul boshingga yomon savdo keldimi?

Ne sababdan, bolam, Yovmit ketasan,
Rustambekdan, bolam, ko'ngling qoldimi?

Rahmim keldi oqqan ko'zda yoshingga.
Men hayronman sening qilgan ishingga.
Ayolimdan sening ko'ngling qoldimi,
Yangi kirding, bolam, yetti yoshingga,
Kirganda borasan o'n to'rt yoshingga.

Yaxshilarning so'ylagani dur bo'lar,
Ko'ngil suysa yorning yuzi nur bo'lar.
Yovmitminan bu Zangarning orasi,
Karvon tursa qirq kunlik safar bo'lar.
Yangi kirding, bolam, yetti yoshingga,
Kirganda borasan o'n to'rt yoshingga.

Bu gapdan kezin Go'ro'g'li tog'asiga qarab bir so'z dedi:

— Ey tog'a, mozorotga borganingizda, meni ushlab suxan qilganingizda, enamdan javob so'radim. Yeyti yoshingga kirganingda Taka-yovmit elingga bor. U yerda Ravshan ko'r otang bor, Gajdimbek tog'ang bor, izlaysan. Agar izlamasang sutimga rozi emasman, deb javob bergen edi. Kecha baytalmi boqib ko'lida yotsam tushimda enam ayon bo'ldi. Borasan, deb javob berdi. Enamning aytganini qilaman.

Bu so'zni eshitgan Rustambek noiloj ruxsat berib, tog'asidan ko'p narsa qolgan edi, «Ketar bo'lsa Go'ro'g'lini rozi qilay» deb bir so'z dedi:

Yaxshining sanosi bordir tiliga,
Borar bo'lsang, bolam, Yovmit eliga.
Xon tog'angdan qolgan, bolam, javhar bor,
Xazinada tilla tanga, gavhar bor,
Ko'shki ayvonida qancha g'oli bor,
Illi mingta bu qo'limda moli bor.
Shu mollarning bari, bolam, seniki.

Go'ro'g'li bu so'zni eshitib:

Tovlarda o'ynaydi ayiqman bo'ri,
Piru komil er yigit madadkori.
Molu dunyo nasib qilsin o'zingga,
Go'ro'g'liga sira yo'qdir darkori.

Er yigitning yigirmada kamoli,
Yigitga yarashar yorning jamoli.
Molu dunyo nasib qilsin o'zingga,
Go'ro'g'liga sira yo'qdir darkori.

Tog'a, o'zim shu mollarga roziman,
Yo'lga chiqsam ko'lning uehar g'oziman.
O'zim emgan baytalingni tilayman,
Ketar bo'ldim ola baytal o'ziman.

Shunda tog'asi:

— Bolam, Taka-yovmitminan shahri Zangirning orasi qirq kunlik yo'l. Qancha tov, qancha cho'l bor. Qirq kungacha senga oziq-ovqat kerak bo'ladi, — dedi. Go'ro'g'li «Ovqatning yengili yaxshi» deb dassisari bug'doyni qovirmoch qildi. Bir tananing terisini mesh qildi. Xurjunga solib, Go'ro'g'lining ko'ngliga keldi. «Endi, qalandar libosini topib kelay, ustimga kiyib qalandar bo'lay, el oralab boray. Mening ketganimni do'stu dushman bilmasin» deb hamma asbobni to'g'rilab, Rustambekka qarab bir so'z dedi:

G'amxona-g'amxona ko'nglim jo'sh endi,
Xumor-xumor ko'zlarimda yosh endi.
Qo'l ko'tarib, shul dam duo aylagin,
Orqamda termilib qolding, xo'sh endi!

Maqsadimni tilab yakka xudodan,
Ko'rishmagim endi bo'ldi dargumon.
Qo'l ko'tar, haqqimga duo aylagin,
Orqamda termilib qolding xo'sh endi!

Bizning uchun aziz jonni fido qil,
Gapning barisini endi ado qil.

Ko'rishligim endi bo'ldi dargumon,
Orqamda termilib qolding, ka'bamjon,
Qilgan duong bo'lsin endi mustajob,
Och qo'lingni, tog'a, xolis duo qil.

Tog'asi nima deydi:

Quloq solgin Rustamxonning tiliga,
Borgin, bolam, Ravshan ko'rning qo'lliga,
Ollohim yetkarsin Yovmit eliga,
Iskab yurgan qizil gulim, xo'sh endi!

O'z elimda bizni qildi malomat,
Kecha-kunduz bo'lgin, bolam, salomat,
Yolg'iz joning bir xudoga omonat,
Iskab yurgan qizil gulim, xo'sh endi!

Shunday qilib, Go'ro'g'li dahsari bug'doyni qovirmoch qilib xurjunga soldi. Qalandar libosini kiyib, boshida kulosi, belida mallasi, yonida randasi, qo'lida hassasi Rustambekminan omonlashib, Yovmit elga talab qildi. Enasining qabriga bordi. O'tirib «Qur'on» o'qib, enasining arvohiga bag'ishlab, o'rnidan turib jo'nadi. Shunda Go'ro'g'li yo'lga chiqib, baytalga minib ketaberdi.

Boshda kuloh, belda kamar,
Aziz jonga tiydi tabar,
Ravshan ko'rdan bormi xabar,
Bo'ldim cho'llarda qalandar,
Qalandar bo'lGANIM bo'lGAN.

Beklar minar bedov otin,
Qarchig'ay yozar qanotin,
Topib olsam ota yurtin,
Ko'r Ravshanning asl zotin,
Qalandar bo'lGANIM bo'lGAN.

Qiyomat tongi otgancha,
Isrofil sur tortgancha,

Qish ketib, yoz o'tgancha,
Ul G'avsul G'iyos etgancha,
Qalandar bo'lganim bo'lgan.

Goho sozini sozlaydi,
Goho bag'rini tuzlaydi.

Yalangoyoq er bosmagan Go'ro'g'li,
Jazirama cho'lda xezlaydi.

Biyobon cho'llarga chiqib, necha kulfatlarni ko'rib,
uch kecha-yu, uch kunduz yo'l yurib Qizilqum degan
cho'lga bordi. Qumga botib, yo'lning azobini tortib,
karaxt bo'p hisobidan adashdi. O'n kun orada o'tdi.
Shul qumda hisobdan adashib yotdi. Olgan oziq-
ovgati ado bo'ldi. Xayoli Go'ro'g'lining o'ziga kelib,
ochlikdan madori ketdi. Tili tanglayda qotdi. Ko'p
kun orada o'tdi. Bir baland toqqa yetdi, harakatdan
ketib, tovning bovrida yotdi. Ertaminan tong otdi.
Shunday tog'ning taramida do'lana, bodomlar pishib
yotibdi. Do'lanalarni ovqat qildi. Ovqatlanib o'rnidan
turib, tovning taramida ehashmani ko'rib, baytalga
suv berib, o'ziyam suv ichib, ko'ngli shod bo'lib, kech
peshinda tovning beliga chiqdi. Toqqa borib o'z
holiga yig'lab:

Men yig'layman yaratganga zoru zor,
Ko'r Ravshanni izlab bo'ldim qalandar.
Qalandarman, bul qo'limdan ne kelar,
Go'ro'g'liga o'zing bo'lgin madadkor.

Bugun chiqdim baland tog'ning beliga,
Borolmadim Taka-yovmit eliga.
Ketay desam yo'l bermaydi baland tov,
Ko'ndalang bo'p menga bo'ldi yomon g'ov.

Shunday qilib, tog' Go'ro'g'liga yo'l bermadi. Shu
kuni o'sha yerda yotdi, g'aflat uyquga ketdi. Uyqudan
orom oldi. Kun chiqarda Go'ro'g'lining tug'ilganida
yordam bergen bobosi qalandar bo'lib oldiga keldi.
Go'ro'g'lining yuragiga qo'lini soldi. Qo'lning hay-

batidan sachrab o'rnidan turdi. Qarasa, bobosi Burqisarmas oldida turibdi. Bobosi o'zini ma'lum qilib, Go'ro'g'liga tanitib kelgan yog'iga qaytardi. Tog'ning darasi bor erdi. Karvonlar shul daradan yurar edi. Shu yerga kelib bobosi Yovmit mamlakatiga o'ng'ardi. «Ana shul yo'ldan adashmasdan o'n kun yo'l tortsang Yovmitga borasan», — dedi.

Go'ro'g'li necha kun yo'l yurib, bir shaharga yetdi. Shaharni oralab tomosha qildi. Bir chorrahaga bordi. Shunday qarasa, ko'chalar ketgan rasta-rasta, bir-biriga payvasta, biri baland, biri past, ko'rgan odamlar havasda, odamzod qurt-qumursqaday bo'lib, har qaysisi o'z ishida yuribdi. Go'ro'g'li «bu qanday shahar?» deb hayron bo'ldi. Shunda Go'ro'g'li:

Ochilganda gul g'unchalar,
Gulga yarashgan dumchalar,
Rastada yurgan nechalar,
Yovmitning eli qaysidir?

Ozodalar, shozadalar,
Bir-biridan bekzodalar,
G'amga to'lgan g'amzodalar,
Yovmitning eli qaysidir?

Baland-baland pas ko'chalar,
Do'konda baqqol bachchalar,
Bo'yи uzun ham novchalar,
Yovmitning eli qaysidir?

Bozordagi do'kondorlar,
Qo'yni boqqan chorvadorlar,
Qarib qolgan oqsoqollar,
Yovmitning eli qaysidir?

Men aytaman ko'p maqollar,
Bovvuchcha hamda to'qollar,
Halvo qilgan halvogarlar
Yovmitning eli qaysidir?

Men sanayman oyman kundi,
 Boqqa kirgan ko'rар guldi,
 Nasib qilgan ko'rар eldi,
 Yovmitning eli qaysidir?

Ana endi odamlar shunday qarasa, boshida kulosi, belida mallasi, iynida jandasi, bir yoshgina qalandarbacheha mistar bo'lgan. Shunda bir otli kishi buni ko'rib, bir so'z dedi:

Bu shaharning aylanasi tor ko'cha,
 Oshiqning mavsumi qorong'i kecha.
 Yig'lasam holimga kuyar bir necha.
 Mistar bo'p yig'lama, devonabacheha.

Sarhovuz bo'yinda bir bo'lak g'alcha,
 Shoyiminan baxmal kiyar qizbachcha,
 Hasratidan oshiq bo'lar bir necha,
 Mistar bo'p yig'lama, devonabacheha.

Bulbulday so'ylaydi yaxshining tili,
 Yigitni qo'lllagay qo'l bergan piri.
 Mistar bo'p yig'lama, devonabacheha
 Kelib turgan ering Yovmitning eli.

Shunda Go'ro'g'li Yovmitning eliga kelgan ekanman, deb xursand bo'ldi. Ko'nglidan g'ubori ko'tarilib, ko'kragi ochilib, ko'zлari ravshan bo'ldi, mushkulim oson bo'ldi, deb xursand bo'ldi. Baytalni jetalab chorsuning bozoriga bordi. Bozorni oralab har tarafni tomosha qildi. Shunday bir ko'chaning ovzida yak-kagina tom bor edi. Tomning ovzida, supaning labida bir qalandari benavo o'tiribdi. «Shuning oldiga boray, shu qalandarga tuvri bo'lay», deb haligi qalandarning oldiga bordi. Shunday qarasa, shu qalandarning ikki ko'zi ko'r bo'lib, manglayini devorga suyab turibdi. Shunda boyagi qalandarding boshida kulosi, belida mallasi, ustida jandasi, yonida randasi, yonboshida hassasi, oldida kosasi. Go'ro'g'li tomosha qilib, hay-

ron bo'ldi. O'tgan-ketgan odamlar bir tanga-ikki tanga kosaga soladi, ba'zilari bitta non beradi. Qo'l ko'tarib, g'arib duo qiladi. «Shu odam ko'hna kamol ekan. Ravshan ko'rni shundan so'rasam bo'larmikan?» deb Go'ro'g'li bir so'z dedi:

Toza gulsan, ruxsoringdan so'limagin,
Omon bo'lgin, sira, bobo, o'limagin.
Bir yo'g'im bor, bobo, sendan so'rayman,
Novoda ko'nglingga og'ir olmagin.

Bir vaqtłari Mari elga bek bo'lgan,
Musofir bo'p Zangar eliga borgan.
Yovmit elda Ravshan ko'r deb so'rayman,
O'zingizday ikki ko'zi ko'r bo'lgan.

Zangar elda bozor solib qul bo'lgan,
Sinchi bo'lib, ikki ko'zi ko'r bo'lgan.
Shu yerlarda Ravshan ko'r deb so'rayman,
G'arib bo'lib, peshonasi sho'r bo'lgan.

Go'ro'g'li bu gapni aytgandan keyin shuning o'zi Ravshan ko'r edi. Bovri ezilib, ko'ngli buzilib:

Bosib kelgan qadamingdan aylanay,
Chekib turgan alamingdan aylanay,
Ravshan degan tilginangdan aylanay.
Har so'zing dardimga darmon bo'ladi,
Dovshing jonimni o'rtab boradi,
Ravshan, bolam, sening nimang bo'ladi?
Manmanlarning boshdan ketar davlati,
G'arib qulning ko'nglida ko'p kulfati.
Ravshan degan tilginangdan aylanay,
Ovozing jonimni o'rtab boradi,
G'arib Ravshan sening nimang bo'ladi?

Bayon bergen, o'zing kimning ulisan,
Ochilganda qaysi bog'ning gulisan,
Enangman otangning jonu dilisan.
Har so'zing jonimni o'rtab boradi,

So'yelasang tanimga darmon bo'ladi,
Ravshan, bolam, sening nimang bo'ladi?

Qarchig'ayni qanotidan bo'shatdim,
Shikor qilsam, uchqur edi bo'z otim,
Qoshi-ko'zing bir odamga o'xshatdim,
Dovishingni oy Hilolga o'xshatdim,
So'yelasang yuragim hil-hil bo'ladi,
Ravshan, bolam, sening nimang bo'ladi?

Shunda Go'ro'g'li o'zini bildirib bir so'z dedi:

Ochilganda toza bog'ning guliman,
Enamman otamning jonu diliman.
Otimni so'rasang, derlar Go'ro'g'li,
Asli o'zim Ravshan ko'rning uliman.

Takabburning boshdan ketar davlati,
Sinmasin, naylayin, mardning qanoti.
Otimni so'rasang, derlar Go'ro'g'li,
Asli zotim Ravshan ko'rning farzandi.

Bo'yingdan, eshitgin aytgan nolamni,
Zor yig'latdim qoshi qora sanamni,
Oy Hiloldek oq sut bergen enamni,
Gajdimbek der mening oyim tog'amni,
Otimni so'rasang, derlar Go'ro'g'li,
Ravshan ko'r derlar mening g'amgin otamni.

Bu gapni aytgancha bo'lmay Go'ro'g'li,
Xudo bergen bu g'animat onidi[r].
Qursin dunyo, odamzod mehmondi[r].
Yetti yil begona bo'lgan Ravshan ko'r,
Dovushidan bolasini tanidi.

To'rt juma o'tibda tuvgan oyidan,
Insos bersa yomon qaytar ra'yidan.
Farzand degan qanday shirin kishiga,
Vo bolam, deb tura keldi joyidan.

Attang, dedi barmog'ini tishladi,
 Alam chekdi, xumor ko'zni yoshladi.
 Ko'rarga ko'zi yo'q sho'rli Ravshan ko'r,
 Shosupadan o'zin otib tashladi.

Vo bolam, deb ul joyidan turadi,
 Qulochini yoyib bebaxt boradi.
 Ko'rarga ko'zi yo'q sho'rli Ravshan ko'r,
 Goh yiqilib, goh o'rnidan turadi.

Yoqasi ho'l oqqan ko'zning yoshiga,
 Yoshligida kulfat tushdi boshiga.
 Otasi ekanin bildi Go'ro'g'li,
 Qulochini yoyib bordi qoshiga.

Ravshan ko'r yig'laydi siynasin dog'lab,
 Go'ro'g'li kelgandi buni so'troqlab.
 Ko'rarga ko'zi yo'q sho'rli Ravshanning,
 Bolasini oldi sho'rli quchoqlab.

Oltin mo'yna mard yigitning iyniga,
 Yig'laganda yosh to'kilar qo'yniga
 Ko'rarga ko'zi yo'q sho'rli Ravshanning,
 Bilagini sho'rli soldi bo'yniga.

Yig'laydi, ko'zining yoshin quyadi,
 Alam cheksa qaddin yoyday iyadi.
 Bosib oldi Go'ro'g'lini to'shiga,
 Navbat-navbat ikki betidan suyadi.

Go'ro'g'lining diydoriga to'ymaydi,
 Bolasini o'z holiga qo'ymaydi.
 Farzand ekan odamzodning mevasi,
 Beklarning belida bo'lar po'tasi,
 Oyqalab qo'ymaydi sira otasi.

Kumush bo'lar tarlon qushning chegasi,
 Sadafdandir savut to'nning yoqasi.
 Go'ro'g'lining kelganini eshitib,
 Kelib qoldi Gajdimbekday tog'asi.

Attang, dedi barmog'ini tishladi,
 Xumor ko'zni Gajdimbek ham yoshladi,
 Quloch yozib otdan o'zin tashladi,
 Bolam, deydi, goh yiqilib turadi,
 Qulochini yoyib bulam keladi.

Yaxshining so'zida yo'qdir xatosi,
 Farzand bo'lar odamzodning mevasi.
 Jiyanim, deb Gajdimbekday tog'asi,
 Bolam, deydi Ravshan ko'rday otasi.

Go'ro'g'lini o'z holiga qo'yimaydi,
 Biri suysa, biriga navbat teymaydi.
 Yig'lay-yig'lay ustixoni kul bo'lgan,
 Biri bolam, biri qo'zim deyishadi.

Beklarning bo'ladi belda po'tasi,
 Chilla bo'lar ayni yozning o'rtasi.
 Uchovlari izillashib yotuvdi,
 Kelib qoldi Ahmad sardor tog'asi.

Buzilgan ko'ngillar bo'ldi imorat,
 Qodir egam, o'zingdandir bashorat.
 Yetib keldi Ahmad sardor tog'asi,
 Ravshan ko'rni kelib qildi ziyyarat.

Ravshan ko'r Go'ro'g'lini bavriga bosib, bilagini
 mo'yniga solib, Go'ro'g'lini tizzasiga olib, Go'ro'g'-
 liga qarab bir so'z dedi:

Asqar tovlarim pas[t] bo'ldi,
 Ko'zim, sendan ayrilgani.
 Dushman izimdan qas[d] bo'ldi,
 Ko'zim sendan ayrilgani.
 Tirikligim gumon bo'ldi,
 Bolam, sendan ayrilgani.
 Otang sho'qli qora yerga,
 Yakson bo'ldi ayrilgani.
 Yurtim mening vayron bo'ldi,
 Go'ro'g'lijon, ayrilgani!

Hammasi Go'ro'g'lini quchoqlab, tizzasiga olib,
Gajdimbek Go'ro'g'liga:

Ado bo'lmas oshiq yorning kulgisi,
Oldirmaydi adir, tovning tulkisi,
Men bo'laman oy Hilolning og'asi,
Zangar elda oy Hiloljon omonmi?

Tovlarning boshini choladi tuman,
Judolik savdosi, o'ylasam yomon,
Mening singlim seni enang Hiloljon,
Zangar elda oy Hiloljon omonmi?

Shunda Go'ro'g'li:

Kuyganning to'kmagil ko'zda yoshini,
Yomon savdo kasal qilar kishini.
So'raysan Hilolning mendan nesini,
Men aytay, sen eshit tomoshasini.

Xazon urib, bog'ning guli so'lgandi[r].
Zangarning elida enam o'lgandi[r].
Hiloloyning nimasini so'raysan,
O'ligi besayib bo'lib qolgandi[r],
Go'rdan chiqib bul Go'ro'g'li kelgandi,
Shu sababdan menin otim Go'ro'g'li.

Shunda Gajdimbek, Ravshan ko'r, Ahmad sardor
Hiloloyning hasratidan kuyib:

Ochilganda gullar so'lganday bo'ldi,
Hasratda qiyomat bo'lganday bo'ldi.
Enasining o'lganini bildirib,
Hiloy shu bugun o'lganday bo'ldi.

Ana shunda, biri yorim deyishadi, biri singlim
deyishadi, biri enam deyishadi, kuyganlar bag'rin te-
shadi. Yig'lashib, ingrashib bo'ldi, bir-birimani ken-
gasib, o'tirishib «Qur'on» o'qib, Hiloloyning arvohiba
bag'ishlab qo'ydi. Go'ro'g'li kelganligi Yovmitga

ma'lum bo'ldi. Elga oshkora bo'ldi. Katta-kichik yig'ilib bularning ustiga keldi.

Buzilgan ko'ngillar bo'ldi imorat,
 Xudoyning qudrati kuchli, jamoat.
 Tiri ayrilgan ko'radikan, yoronlar,
 Kun joyila-kun joyila keluvdi,
 Peshingacha kelib qildi ziyyarat.
 Osha yurtdan oshgan tortar koyishdi,
 Do'stlar-ay, xudoning qudrati kuchli.
 Tiri ayrilgan ko'radikan, yoronlar,
 Katta-kichik Go'ro'g'liman tanishdi,
 Bir-biriman quchoqlashib ko'rishdi.
 Ravshanxonning bilmaganin bildirdi,
 Tilla taxtga Ravshanbekni mindirdi.
 Tomosha qing Go'ro'g'liday qo'zini,
 Kim tashlaydi ulug'larning so'zini,
 Ochdi borib Ravshanxonning ko'zint,
 Bolasining ko'rdi sho'rli yuzini.
 Yetti kecha-yetti kunduz to'y berdi,
 Ulamo, sarkardalarga qo'y berdi.

Shunday qilib, Go'ro'g'li o'z otasining huzuriga kelib, murodiga yetib, Ravshanxonning ko'zini ochib, hamma xaloyiqni ko'rib, Go'ro'g'li podsho bo'lib, g'amu kulfat ko'kayidan chiqib, el og'alariga amal berib, yoru jo'ralariga qo'y berib, ini-og'alariga to'y berib, uch kechayu uch kunduz fuqarosini yig'ib chulon berib, qancha dunyoni sadaqa qilib, tilla taxtga minib, beva-bechoraning holini so'rab, murod-maq-sadiga yetdi.





AVAZXON

(Doston)

Aytuvchi: *Rahmatulla Yusuf o'g'li*

Yozib oluvchi: *baxshining o'zi*

Nashrga tayyorlovchilar: *To'ra Mirzayev va*

Zubayda Husainova

Ammo roviyonи axbor, noqiloni osor, muhadisoni oston, doston, bo'ston va hushi chinon, xirmoni suxon, o'tgan zamonda bo'lgan bir necha hangomachi baxshilar rivoyat qilishib ayturlarki, Turkmanga Og'alibek xon bo'ldi. Undan keyin Jig'alibek xon bo'ldi. Undan keyin tilla jig'asi boshida, qirq yigit qoshida, Xoldor mahram yonboshida Go'ro'g'libek sulton bo'ldi. Go'ro'g'libek turkman yurtiga sulton bo'lib Ko'hi Qofdan Misqol parini, Irambog'dan Og'a Yunus parini, Hindistondan Gulnor parini olib kelib, davron surib. Vayangandan Hasanxonni keltirib, o'ziga o'g'il qilib, qirq yigitiga kosagul qilib, qirq yigit bilan mayxonasida may ichib, kayf-safo qilib yurar edi.

Kunlardan bir kun Chambilga bir qari boboy baxshi kelib, har kimning mehmonxonasiga qo'nib, doston aytib, pul yig'ib yura berdi. O'zi ham shu vaqtvari Chambilda uch yuz oltmishe mehmonxona, bir yuz yetmishe boloxona bor edi. Baxshi boboning kelganini Go'ro'g'li sulton ham eshitib: Ul baxshi bizning mehmonxonaga ham kelib, bir hangoma qilib bersa, — deb o'ylab yurdi. Oradan ko'p kun o'tib, baxshi boboning navbati yetib, Go'ro'g'li sultonning mehmonxonasiga kelib tushib, kechasi Go'ro'g'li sulton katta ziyoftlar aylab, bir boshqasi o'tirish tashkil qildirib, bir yoqdan may suzilib, alyor aytilib turdi. Shunda baxshi bobo gulxanning labida o'tirib, elu

yurtning egasi, mamlakatning chegasi, sovut-to'ning yoqasi Go'ro'g'li sultonning shashti qaytmasin, balki davlati bundan ham ziyoda bo'lsin, deb bir piyola mayni olib ichib turib, do'mbirasining qulog'ini chingillatib toblab, torlarini tarang qilib, avval Go'ro'g'li sultonning shu o'tirishining sha'niga qarab, bir terma aytib, baxshi bobongiz nima derdi:

Majlis ahli xurram bo'lar,
 Majlisning bulbuli bo'lsa.
 Soqilarga saqo bo'lgan —
 Soqi kosaguli bo'lsa.
 Bu majlisni baland ko'rdim,
 Barchani mayga band ko'rdim.
 Boshqalarga pisand bo'lsa,
 Menga ham ha-pisand ko'rdim.
 Shunda Avaz sulton bo'lsa.
 Sulton ekan, bunda sulton,
 Sulton desa, toza sulton,
 Haybatli tarafsiz polvon,
 Hay attang-a bir kamligi —
 Yo'qdir bunda Avaz o'g'lon,
 Bu majlislar bir cho'liston,
 Bol Avazdan xoli bo'lsa.
 So'zlab berar menday baxshi,
 So'z bo'lar majlisning naqshi,
 Avazxonsiz majlisingdan,
 Sahrodagi soya yaxshi,
 Salqingina hili bo'lsa.
 Bu so'zimni olmang og'ir,
 Baxshi bobong emas sag'ir,
 Avaz tuyg'un, Avaz olg'ir,
 Ul Go'ro'g'li o'g'li bo'lsa.

Baxshi bobongiz yana Avazxonni ta'rif aylab nima dedi:

Bo'y desang bo'y, o'y desang o'y bor,
 Bodom qovoq, muloyim xuy anda bor,

Qirq yigitlar, arg'umoqlar senda bor,
Farzand bo'lsa senga Avaz, Go'ro'g'li.

Talab aylab xizmatingga keltirsang,
Qirq yigitman sozu suhbat qildirsang,
Uning qo'lliga tilla kosa oldirsang.
Gul bo'lsa majlisga Avaz, Go'ro'g'li.

Barcha tursa jon deb chorlaganicha,
Kiygizsang zARBobdan to'nlar taniga.
Bunday oliv majlisingning sha'niga,
O'ttada o'tirsa Avaz, Go'ro'g'li.

Avaz dedim, Avaz behisht g'ilmoni,
Ko'rganda bahr olar odamning joni,
Qirq yigitning suhbat tuzgan zamoni,
May uzatsa anda Avaz, Go'ro'g'li.

Baxshi bobong so'z kelganda so'zlaydi,
Yaqin emas, yiroqlarni ko'zlaydi,
Avazning bo'lishin shunda tilaydi,
Undan keyin kelib doston kuylaydi.

Baxshi bobo so'zini tamom qilib, do'mbirasini beliga qistirib, mayxonadan tashqariga chiqib, keta berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton va qirq yigit baxshi boboning harakatiga hayron qolib: «Nima balo, bu baxshi bobo baxshi emas, bir xabarchi elechimikan», — deb Go'ro'g'libek sulton qirq yigiti va Xoldor mahramga: — Sizlar to'xtab turinglar-chi, men o'zim chiqib, u baxshi surat xabarchidan suray. Qani nima maqsadda Chambilga kelib yurgan ekan, deb Go'ro'g'li sulton tashqariga chiqib, ketayotgan baxshi bobosining orqasidan yetib borib, baxshi bobosiga qarab, Avazxonni so'rab, bir so'z dedi:

Avaz deding meni, hayron aylading,
Ta'rifidan turfa-turfa so'ylading,
Meni uning savdosinda boyladning,
Ayt makonin, qayda bo'lar Avazxon?

Yarashiqa zarrin po'ta o'rayman,
So'zni so'zga uyqoshtirib qurayman,
Asli turar makonini so'rayman,
Ayt makonin, qayda bo'lar Avazxon?

Qiydirib aytgansan bir necha doston,
Hangoma-suhbatni aylabon bo'ston
Bor bo'lsa ul o'g'lon agarda rostdan,
Ayt makonin, qayda bo'lar Avazxon?

Ko'nglimga joy bo'ldi aning havosi,
Aytmasang, bo'larman vaslin gadosi,
Qay shahar, elatda aning ma'nosi,
Ayt makonin, qayda bo'lar Avazxon?

Endi mening bo'lmas sabru qarorim,
Befarzandman shuytib, yo'qdir madorim,
Bu ishda yo'qdir o'z ixtiyorim,
Ayt makonim, qayda bo'lar Avazxon?

Qayerda bo'lsa ham ani izlayman,
Yaqin emas, olislarni ko'zlayman.
Go'ro'g'li der, endi turfa so'zlayin,
Ayt makoning, qayda bo'lar Avazxon?

Bu so'zni baxshi bobo Go'ro'g'li sultondan eshitib,
Avazxonning aslini, naslini va bareha sifatlarini
Go'ro'g'li sultonga bayon qilib, bir so'z dedi:

Avval Avazxonni ta'rif aylayin,
Ostobday jamoli bordir Avazning,
Oliy majlisning guli bo'lguday,
Oliy majlisning guli borci Avazning.
Qaddi barkamoli bordir Avazning.

Kecha-kunduz hozir Xunxor qoshida,
Tilladan murassa' jig'a boshida,
O'zin so'rsang, hali o'n uch yoshida,
Ajab bir jamoli bordir Avazning.

Majlisning sha'niga bir gul bo'lгuday,
 Qomatiga boqib dillar to'lгuday,
 Orqasidan boqqan tikilib qolгuday,
 Qaddi barkamoli bordir Avazning.

Bu dunyoga kelib farzand ko'rmading,
 Bola suyb o'ynatmading, kulmading,
 Zo'r bo'lsang sen, ani olib kelmading,
 Ostobday jamoli bordir Avazning.

Shu Avazni eshittirdim o'zingga,
 Bir sultonsan, dushman tushmas izingga,
 Olib kelib tutiyo qip ko'zingga.
 Olma, anor, oli bordir Avazning.

Boshidan to qadam ipor sasilgan,
 Har tola kokili boblab kesilgan,
 Tolasiga ming bir xushtor osilgan,
 Ajab bir jamoli bordir Avazning.

Baxshiman, xo'jaman so'z ovozimga
 Chertsam to'rg'ay kelib qo'nar sozimga,
 Ishlongin, Go'ro'g'li, aytgan so'zimga,
 Qaddi barkamoli bordir Avazning.

Baxshi bobo: — Ey Go'ro'g'li sulton, mening
 Chambilga kelib, baxshilik qilishimdan maqsad Avaz-
 xonning xabarini senga yetkazish edi. Asli meniki
 Xunxor yurtidan. Bir marta Avazxonning oldidan
 qirqib o'tganimga Xunxorshohning yasovullaridan
 yetmish qamchi yeb, alamiga shu Avazxonning
 xabarini senga berib, Xunxor zolimdan Avazxonni
 ayrmoq qasdida shu yerlarga keldim. Har ishning
 uddasidan chiqsang, sen chiqasan. Endi men senga
 Avazning xabarini berib, o'ylagan shartimni ado
 qildim. Endi menga mayxonangga borib, baxshilik
 qilib o'tirishga hojat qolmadi. Endi menga javob.
 Meni qirq yigitlarining oldida dovdiratib, sandira-
 tib, ovora qilib, nima qilasan, — deb baxshi bobo
 do'mbirasini orgalab hayt, deb ketib qoldi.

Ana endi Go'ro'g'li sulton mayxonasiga qaytib kelib, soqining qo'lidan bir piyola sharob olib: — Mana bu sharobni kim mening qo'limdan olib ichadi, deb bir so'z aytayotir:

Qani bizning pahlavonman deganlar,
Nabot ichib, qazi-qarta yeganlar,
Yigit bo'lib qo'rmas nomini olganlar,
Talab soldim, mendan mayni kim ichar?
Bir gap kelar shu soatda dilimga,
Har tarafdan kelgansizlar qo'limga,
Soqi bo'ldim boqing arzu holimga,
Talab soldim, mendan mayni kim ichar?

Mayni ichgan mast bo'p qaynab jo'shqiday,
Necha-necha darbandlardan oshqiday,
Bu kosani tekin kosa demanglar,
Xunxorshohning yo'llariga tushguday.

Mayni ichib bahri-dilim ochguday,
G'ayrat qilib shirin jondan kechguday,
Bu kosani tekin kosa demanglar,
Xunxordan Avazni olib qochguday.

Mayni ichib mendan ko'ngli to'liday,
Rustamdan ham ziyod sherdil bo'liday,
Bu kosani tekin kosa demanglar
Xunxordan Avazni olib kelguday.

Go'ro'g'li der turfa-turfa so'ylayman,
Sozimga jo'r bo'lib qo'shiq kuylayman,
Bu sharobni mendan olib ichgandan,
Avazga borishni talab aylayman,
Talab soldim, mendan mayni kim ichar.

Go'ro'g'li gohlarda olamdan kechar,
O'ylasam bu dunyong bulutday ko'char,
Naylayin, farzandim yo'qdir, yoronlar,
O'zim o'lgan kuni chirog'im o'char.
Avazxonni ul qib olsam, yigitlar,
Talab soldim, mendan mayni kim ichar.

Go'ro'g'li sulton qo'lida may to'la kosaman ko'tarib uch marta qichqiradi. Yerdan sado chiqsa chiqdi, ammo qirq yigitdan sado chiqmadi. Go'ro'g'li sultonning so'zi, pok bo'lmasa, erda qoladigan bo'ldi. Shunda yo'lbars bilakli, qoplon yurakli, urushga kerakli, tilla jig'a boshida, ayni o'n besh yoshida, qirq yigitni qoshida Hasanxon o'rnidan turib, Go'ro'g'li sultonning qo'lidan kosani olib, sharobni ichib, chirqillab mast bo'lib, Go'ro'g'li sulton otasiga qarab, bir so'z dedi:

Ota, bugun xizmatingni qilayin,
Har amringga qoyim maqom bo'layin,
Qirq yigitni qo'shsang mening oldimga,
Xunxordan Avazni olib kelayin.

Bedov minib o'yu qirda yekayin,
G'ayratim kelganda toshib to'layin,
Qirq yigitni qo'shsang mening oldimga,
Xunxordan Avazni olib kelayin.

Isfihon shahrida oldim ta'limdi,
Qirq yigitning hali menga ma'lumdi(r),
O'rganganman yetmish ikki bilimdi,
Yigitlarni qo'shsang mening oldimga,
Xunxordan Avazni olib kelayin.

Bu xizmatga qirq yigitni ko'ndirsang,
G'irko'kning beliga o'zim mindirsang,
Kashal bo'lmay, ota, ko'ngling tindirsang,
Yigitlarni qo'shsang mening oldimga,
Xunxordan Avazni olib kelayin.

Bu so'zlarni degan senga Hasanxon,
Chambilbelda o'zim tarafsiz polvon,
Aslo kashal bo'lma endi, otajon,
Yigitlarni qo'shsang mening oldimga.
Xunxordan Avazni olib kelayin.

Bu so'zni Go'ro'g'li sulton Hasanxon o'g'lidan eshitib, quvonib, ko'ylagiga sig'may ketib: — Ey, barakalla, o'g'lim Hasanxon. Qatorda noring bo'lsa, yuqing yerda qolurmu, balli, o'g'lim. O'zingsan quvvatim, madorim, — deb Hasanxon o'g'liga qarab, bir so'z dedi:

Hasan o'g'lim, erligingni bildirding,
Ko'nglim topding bolam, xursand qildirding,
Dushmanim yig'latib, do'stim kuldirning,
Sen ekansan erka qo'zim Hasanxon.

Bu so'zlarni aytgan mendayin sulton,
Chambilda farzandim sendayin o'g'lon,
Amrim tutding, bolam bo'ldim bearmon,
Sen ekansan erka qo'zim Hasanxon.

Talab qipsan qizilboshning eliga,
Mingin endi G'irko'k bedov beliga,
Bulbuldayin qo'ngan Chambil beliga,
Sen ekansan erka qo'zim Hasanjon.

Yakdona xoling bor oppoq yuzingga
Hukmronsan o'zing degan so'zingga,
Qirq yigitni hamroh qilgin o'zingga,
Bo'lib endi erka qo'zim Hasanxon.

Bedovni o'ynatib bellardan oshgin,
Dushmanlarning galasiga yondashgin,
Oq ko'ngilman berdim, bolam, fotiha,
Har nechuk g'animman borib bellashgin,
Bo'lib endi erka qo'zim Hasanxon.

Xunxor borib zo'rligingni bildirgin,
G'animlar bag'rini qonga to'ldirgin,
Fursat topib Avazxoni keltirgin,
Asli o'zing erka qo'zim Hasanxon.

Dushmanlarga bo'lib keldim men g'olib,
Qo'ymadim g'animni tursam qo'zg'olib,

Senday g'o'chchoq botir o'g'lim bo'lganda,
Men ham yotay yonbosh qo'yib, dam olib,
Go'ro'g'li o'g'lisan, qo'zim Hasanxon.

Go'ro'g'li sulton Hasanxon o'g'liga oq fotiha berib,
Xunxor yurtiga borib, Avazxonni olib kelishga jo'nay
berdi. Ana endi Hasanxon mayxonadan dalaga chiqib,
qirq yigitga boqib: — Yigitlar, tayyor bo'linglar Xun-
xor yurtiga, deb bir so'z dedi:

Qani endi bunda man-man deganlar,
Go'ro'g'lining choyu tuzin yeganlar,
Ot ko'tarib satta shavvoz bo'lganlar,
Mining otga, bundan Xunxor boramiz.

Haydang endi qizilbosh elatiga,
Xunxorday zolimning mamlakatiga,
Borliq dushmanlarning viloyatiga,
Mining otga, bundan Xunxor boramiz.

Haydang, do'stlar g'alcha yovning yurtiga,
Qizilbosh chidarmi yurak o'tiga,
Tog'dan oshib ular muzofotiga,
Mining otga, bundan Xunxor boramiz.

G'ayratman mininglar bedov beliga,
Talab solib bundan Avaz uliga,
Qasd bilan o'tamiz yovning eliga,
Mining otga, bundan Xunxor boramiz.

Qizilboshning tomi cho'pkor, qalama,
Mard yigit dushmanidan o'chin olama,
So'zlagan so'zlarim uyqash-ulama,
Mining otga, bundan Xunxor boramiz.

Qizilboshning kiygan kiyimi qalami,
Xunxorshohning bo'lsin endi alami,
Sizga degan mard Hasanning kalomi,
Mining otga, bundan Xunxor boramiz.

Qirq yigit qirg'iyday chaqqon qiyilgan,
 Hasanxonning qabatiga yig'ilgan,
 Ha shunda bir tilla dobil qoqilgan,
 Bedov otlar tosh tabladan chiqilgan.

Tol chibiqday bo'lib shunda hammasi,
 Shiqirlab qo'llarda qilich, nayzasi,
 Farmon bersa Hasanxonday mirzasi,
 Bo'lmaydimi qirq yigitning arzasi.

Yag'rini yoziqdan kelgan Hasanxon,
 Yigitlar ichida tarafsiz polvon,
 Ostida o'ynaydi G'irkko'kday hayvon,
 Ustiga yarashib qirmizi alvon.

Shuytib Hasan mingan G'irko'k beliga,
 Talab solib Xunxor podsho eliga,
 Endi quloq soling shoir tiliga,
 Kumush dasta qamchi oldi qo'liga.

Qo'lini har suvga ravon ayladi,
 Bo'ling, deb shu damda farmon ayladi,
 Qirq yigit ham o'rtan qo'lday choq bo'ldi,
 Buralib bedovlar larzon ayladi.

Barilar kiygan cholbor banotdi,
 Qamchi urib bedovlarin o'ynatdi,
 Xoldor mahram chiqib berdi fotiha,
 Shuytib satta shovvozlarni jo'natdi.

Hasan polvon bosh bo'lib,
 Birday ko'zu qosh bo'lib,
 Bir-biriga sirdosh bo'lib,
 Xunxor qarab jo'nashdi,
 Qirq birta yo'ldosh bo'lib.

Dol bedovlar orillab,
 Shamolday bo'b shorillab,
 Yigitlarning haybatiga,
 Turkman cho'li dirillab.

Popuk nayza pirillab,
Ko'z ilg'ashmay zirillab,
Satta g'o'chlar jo'nadi,
Oqqan suvday shirillab.

Uzoqlarga angizlab,
Avazning elin izlab,
Bari birday shovvozlar,
Bedovni urib xezlab.

Uzoqlarga boqishib,
Suvday bo'lib oqishib,
Satta mardlar jo'nadi,
Bo'l-ha, bo'l-ha bo'l deyishib.

Osmonda oy o'roqlar,
Makonida turoqlar,
Yo'l adashsa yigitlar,
Oqshom oydan so'roqlar.

Ko'kda yulduz charaqlar,
Uzoqdan tog' taraqlar,
Taraqlagan gazalar,
Borgan sayin yiroqlar.

Bedov chopsa tuzalar,
Qamchi olgan uzalar,
Yaqin-yaqin kelarlar,
Son-sanoqsiz gazalar.

Qichab borar otlari,
Birday bo'b qanotlari,
Yo'l-yo'lakay ko'rinish,
Turkmanning elatlari.

Quduq boshinda qovg'a,
Qo'sh yog'ochi qadovga,
Hasanxonman qirq yigit,
Xunxorga borar yovga.

Dashtda to'rg'ay bidirlar,
 To'nda sizat sidirlar,
 Ko'zigadi ko'zlarga,
 Bo'gat-bo'gat adirlar.

O'rdak qo'nar ko'llarga,
 Yigit qo'nar ellarga,
 Qirq yigitman Hasanxon,
 Oshdi necha bellarga.

O'balarga yondashdi,
 Gaza, bandlardan oshdi,
 Suxanvorning ilhomni,
 Orqasidan ergashdi.

Shuytib, haydab yurgandi,
 Chuv deb bedov surgandi,
 Shoir so'zlar taxmindan,
 Bo'lmasa kim ko'rgandi.

Ol-ol yurdi, ol yurdi,
 Ozgina emas, mo'l yurdi,
 Mard Hasanxon mard bo'lib,
 Hafta choqli yo'l yurdi.

Ot chopilar baland bilan pastiga,
 Qulq soling so'zimning payvastiga,
 Hasanxon bilan qirq yigit yo'l yurib,
 Yetib bordi Asqar tog'ning ustiga.

Bovar bilan balandlikka urindi,
 G'ayrat bilan yiqqan etak turindi,
 Asqar tog'ning tepasidan elaslab,
 Qopqora bo'b Badbaxt beli ko'rindi.

Ana shunda Hasanxon bilan qirq yigitlar Asqar tog'inining bir-ikki bildirgi balandligiga chiqib, naryoqda elaslanib turgan Badbaxt belini shunday qop-qora tuman bosib yotganini ko'rib, xuddi bir zo'r ajdarhoning og'ziga yaqinlashib borayotganday,

qirq yigit dir-dir titrashib, qo'rqa berdilar. Nimaga deganingizda, Go'ro'g'li sulton ham har zamonda Xunxor yurtiga yov bo'lib kelsa, shu Badbaxt beliga qarar edi. Agar Badbaxt beli tuman bo'lmasa, Xunxorning yurtidan ko'p o'lja olib qaytar edi. Agar Badbaxt beli tuman bo'lsa, Go'ro'g'li sulton hech o'lja ololmay, quruq qaytar edi. Buni qirq yigit bir necha martabalar ko'rgan edilar. Shuytib, qirq yigit beshov bir, oltov bir bo'lib birlashib, orqaga qaytmoqchi bo'la berdilar. Bu voqeani Hasanxon bilib, qirq yigitga qarab, uzangiga oyog'ini tirab, bir so'z dedi:

Siz emasmi mard yigitlar g'o'chehog'i,
Mard bo'lgan qaytarmi ma'raka chog'i.
Bir tumanli beldan qo'rqqan yigitga,
O'rasha, lozimdir xotin lachagi.

Baland tog' bo'larmi tumandan xoli,
Shumikan, do'stlarim, yigitlik holi,
Bir tumanli beldan qo'rqqan yigitlar,
O'rasha, lozimdir xotin ro'moli.

Muxannas degani shunday bo'larmi,
Bir tumandan kishi qo'rqb qolarmi,
Qirq yil qirg'in bo'lsa, ajal yetmasa,
O'zidan o'ziga odam o'larmi?

Yigit bo'lib qamchi ushlab qo'llarga,
Ko'rnak bo'lib qancha nozli dillarga,
Shu yurakman navkar bo'lib sultonga,
Qaytib borasizlar o'zga ellarga.

Baland o'ynaydi osmonning oyi,
Qo'rqqanlarga bormi uning parvoysi,
Buytib sizlar navkar bo'lib yurguncha,
Hayf ekan Go'ro'g'lining noniman choyi.

Hali ham mard bo'lib orqa qaytinglar,
Bekbachchaman, menga qulluq aytinlar.

Qo'rqinchlik bahridan, do'stlar, o'tinglar,
Mardonalik yo'llarini tutinglar.
Shundan shunga kelgandankay, yoronlar,
Xunxordan Avazni olib ketinglar.

Ana shunda Hasanxon G'irko'kning jilovini burib, qirq yigitga boqib, do'stlar, qaytinglar, deb turibdi. Lekin qirq yigit qaytadimi? Shibirlashib: «Ey, Hasanxon Go'ro'g'li sulton bo'larmidi. Yuring, qaytayik, Badbaxtning beli tuman ekan, deb Go'ro'g'li sultonga aytayik», — deyishib, turkilashib, bir-biri bilan imlashib, beshov bir, oltov bir bo'lishib, Asqarning bavriga qarab, Hasanxonning so'ziga qulq solmay, qayta berdilar. Barchasi qaytib ketib, bir o'zi qolibdi. Oxiri Hasanxon nochor ham o'ylab: «Bir bolalik qilib, shunday zo'r shahanshoh, Xunxor zolimning qo'lidan Avazxonni olib kelaman, deb nega bo'ytib xom kalla bo'lib, chuechchi barakni xom sanab yuribman», — deb turib-turib qo'rqib, vahima bosib, yigitlarning qo'rqoqligi bunga ham yuqib, hovri past bo'lib, bu ham G'irko'kning jilovini orqaga burib, qayta berdi. Go'ro'g'li sulton har kuni tiramaning kayfiga chor-toq'iga chiqib, Xoldor mahram bilan nasha qilib, nashaning ustidan yumshoq qovunlarni kosa qilib, yeb o'tirar edi. Bir kun qarasa, uch otli bir, to'rt otli bir bo'lib, qirq yigit kelayotir. Go'ro'g'li sulton darriv, qani nima gap, deb Xoldor mahram bilan otlanib, qirq yigitlarning oldidan chiq berdi. Buni ko'rib qirq yigit uyalib, Go'ro'g'li sultonning oldidan boshini yerga solib, indamay, chip-chip terga botib, xijolat tortib, o'ta berdilar. Hammadan keyin Hasanxon shunday gazadan oshib Go'ro'g'li sulton otasinig oldidan chiqib, o'zini G'irko'kning ustidan yerga tashlab: — Ota, mening gunohimni kechir, — deb bir so'z dedi:

Qirq yigitlar yo'lda bo'lib sababkor,
Shu marta olmadi ovimiz baror.

Bekorangi bo'lmas ishga talab qip,
Jonim ota, senga bo'ldim gunohkor.

Badbxatning bellari ekan tuman deb,
Avazni keltirmak bizga gumon deb,
Xunxor borgan kishi topmas omon deb,
Qirq yigitlar yo'lda bo'lib sababkor,
Jonim ota, senga bo'ldim gunohkor.

Sultonim, o'zingdan tortdim xijolat,
Xijolat ustiga etmagin murtad,
Sendan turur karam, shafqat, muruvvat,
Qirq yigitlar yo'lda bo'lib sababkor.
Jonim ota, senga bo'ldim gunohkor.

Katta ketdim, o'z holimni choqlamay,
Qaytib keldim, degan so'zim oqlamay,
Hasanxon der choyu tuzing haqlamay,
Qirq yigitlar yo'lda bo'lib sababkor,
Jonim ota, senga bo'ldim gunohkor.

Shunda Go'ro'g'li sulton Hasanxon o'g'liga: — Ha,
zarari yo'q, o'g'lim. Baliqning tirikligi suv bilan bo'l-
sa, mening tirikligim sen bilan, bolam. Sen Majnun-
ko'kni minib Chambilga qayt, G'irko'kni menga ber.
Hech kim mening bilan ergashmasin. Men Avazni
olmay, qaytmayman, — deb G'irko'kka minib olib,
Hasanxonga buyurib, yov-yarog'ini uydan ketirtirib,
qani, Xunxorning qo'lidan Avazni olib kelmaganimni
ko'ringlar, deb jo'nab ketdi. Xoldor mahram bilan
Hasanxon Go'ro'g'li sultonning orqasidan uch toshlar
chamasi ergashib bordilar. Shunda Go'ro'g'li sulton
Hasanxon bilan Xoldorxonga qarab, uzangiga oyog'ini
tirab, qaytinglar, menga yo'ldosh kerak emas, deb
bir necha joydan timsol keltirib, shu so'zni aytdi:

Har kishi ishonsa kuchga, bilakka,
Dushmanlar yurtiga boradi yakka,
Chambil borib damingni ol, Hasanxon,
Bu safar lozim emas mendan bo'lakka.

G'irko'kim o'ynasin tog'larda dirka,
Orqada berk turib kuchingni tirka.
Davlatimning soyasida, Hasanxon,
Chambilda o'tirgin sen bo'lib erka.

Zo'rligim ko'rsatib, bo'lganman sulton,
O'lgancha dunyoda suraylik davron.
O'rnimda hukmdor bo'lib Chambilga,
Sen ham qolgin o'z joyingda Xoldorxon.

G'irko'kim o'ynatib Badbaxt beliga,
Yolg'iz o'zim boray dushman eliga,
Qulq sol do'stingning aytgan tiliga,
Sen ham qolgin o'z o'rningda, Xoldorxon.

Ot o'ynatib chiqay Badbaxt tog'iga,
Tan beraman G'irko'k shoshti-doviga,
Qoyil qoling Go'ro'g'lining oviga,
Chambil borib orom olgin, Xoldorxon.

Go'ro'g'li sulton G'irotiga qamchini bosib, orqasiga qaramay keta berdi. Hasanxon bilan Xoldor mahram noiloj bo'lib, orqalariga burilib, qayta berdilar. Endi Go'ro'g'li sultondan eshititing.

Go'ro'g'li sulton shu yurganicha yurib, hech bir manzil-makonda to'xtamay, Asqar tog'iga tarmashib, balki undan ham oshib, Badbaxt beliga chiqib bordi. Go'ro'g'li sultonning Chambildan chiqayotganidan katta ketgani uchun Badbaxt belining ustida oldidan xudoning yetmish ikki balosi to'sib chiqqa berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton bu sirni ko'rib, Xizir bobosiga sig'inib, bir so'z dedi:

Shundaylarda G'ovsul-G'iyos,
Xizir bobo, bergin madad,
Boshimga ish tushganlarda,
Sheridargoh, bergin madad.

Ota etuv bermagan,
Ilmu odob ko'rmagan,

Do'ng bo'yin bandaman,
Men ro'siyo, bergen madad.

Og'zim qursiv: beo'lechov,
Doim ishim bo'l ganga dov.
Sari bobom bunda payrov,
Qora bobo, bergen madad.

Chiqdim Badbaxtning beliga,
Boray deb Xunxor eliga,
Balolaringning qo'liga,
Otma, xudo, bergen madad.

Xato qildim ketib katta,
Endi tilim munojotda,
Biqib yotgan har bo'g'atda,
Yotmisht balo, bergen madad.

Go'ro'g'li qolmasin hayron,
Qo'lim tutgin, Qodir maylon,
Izlaganim Avaz o'g'lon,
Xatarlardan bergen madad.

Nariroqqa qarab, bir to'da ko'k chodirlarni ko'rib,
G'irko'kni shu ko'k chodirlarga qarab haydabdi.
Shunda oldidan Xizir Ilyos, G'ovsul-G'iyos, o'n bir
imom, qirq chiltonlar chiqib: — Ey, shoshma,
Go'ro'g'li sulton, o'zingsan mardu maydon. Sen
Chambildan chiqayotganingda katta ketganliging
uchun oldingdan etmish ikki balo ko'ndalang bo'lib
chiqqan edi. Bizlar kelib barchasini tarqatib yubordik.
Ana, atrofingga qara. Xuddi tuman tarqalganday
balolar ko'chib borayapti. Endi qo'rqlama, Go'ro'g'li.

Avazxonning aslini bilsang, Bulduniq qassob de-
ganning o'g'li bo'ladi. Yetti yashar pillarsida bolalar
bilan o'tynab yurganida, Xunxorshoh ovdan kelayotib,
Avazxonga ko'zi tushgan. Avazxon olma yuzli, qura-
lay ko'zli, bir suluvgina yulduzi issiq bola bo'lganligi
uchun Xunxorshoh bolani o'zining suhbatiga loyiq

ko'rib, bolalardan «Bu kimning bolasi», — deb so'ragna, bolalar: «Shu yerlik Bulduruq qassobning bolasi», — deb javob bergenlaridan keyin, oradan birikki kun o'tib, Xunxorshoh zo'rligini bildirib, hukmini ravon qildirib, Avazxonni oldirib, o'rdasiga keltirib, o'ziga mahram qildirib qo'ygan. Bulduruq qassobni bo'lsa, jami Xunxordagi qassoblarga bobo qilib qo'yibdi. Avazni Xunxor shohning oldidan olib chiqmoq juda qiyin. Ammo «Qiz palaxmonning toshi», deb bir sabab bilan turkmandan Guloyim degan qiz shu Bulduruq qassobga tushgan. Avazxonning enasi ana shu Guloyim bo'ladi.

U turkmandan ketayotganida, Qo'ng'irboy degan yosh bir ukasi bor edi. Endi sen shu Qo'ng'irboy bo'lib borsang, Guloyimni ko'rsang, Avazxonni qo'lga olsang, — deb bir necha sipohilik ta'limlaridan berib, Xizir bobosi shu belda Go'ro'g'li sultonga fotiha berib qoldi.

Ana endi Go'ro'g'li sulton Badbaxt tog'idan oshib, bunday qiyalab Hazar dengizga yaqin atrofdan tushib, juda bir ovqat yegisi kelib qolib, cho'ponlarning matkatagiga burilib, shu yerda joy bersanglar, bir kecha qo'noq bo'lib ketsam, — deb cho'ponlarga qarab, bir so'z dedi:

Loluvlashgan qizilboshli cho'ponlar,
Mehmon keldi, marhabochi bormidir.
Jangal ichra otarin surib yurganlar,
Qo'noq kelsa, marhabochi bormidir.

Chiqinglar, ey do'stlar, tushib o'taman,
Ko'nsanglar, bir kecha shunda yotaman,
Ko'nmasanglar, bir choy ichib ketaman,
Mehmon keldi, marhabochi bormidir.

So'ylash, deb turgan menday bek bo'lar,
Jo'mard odam mehmon kelsa, tik bo'lar,
Horiganning qadqomati buk bo'lar,
Mehmon keldi, marhabochi bormidir.

Odam sig'mas matkataklar tormidir,
 Matkatakning oldi-beti jarmidir,
 Cho'ponlar mehmonga do'st-yormidir,
 Mehmon keldi, marhabochi bormidir.

Cho'ponlarning ko'targani do'q bo'lar,
 Do'q ichgan cho'ponlar sog'lab sho'x bo'lar,
 Choy puling so'rasang, bizdan naqd bo'lar,
 Mehmon keldi, marhabochi bormidir?!

Bu so'zni cho'ponlar Go'ro'g'lidan eshitib, hech tiliga tushuna olmay, oxiri kallalarini chayqab, biltanglashib, matkatakiga kirib ketdilar. Go'ro'g'li sulton otidan tushib, G'irko'kni bir daraxtga bog'lab, qani bular nima qilishayotgan ekan, deb matkatakka kirsa, besh cho'pon bir to'qlini pishirib, katta bir choro toboqqa suzib olib, endi yemoqchi bo'lib turgan ekan. Go'ro'g'li sulton ham hov yo'q, dov yo'q, go'shtdan olib yey berdi. Bir pilla cho'ponlar qarasa, bu kelgan odam har olganda nimcha go'shtni olib og'ziga solib, pochirlatib, suyagini ham chaynab, maydalab yuborib, moyini shimib, bu yog'ini matkatakdan dalaga qaratib tuflab yuborayotir. To'qlining go'shtining barakasi qochib, o'pirilib, ozayib borayotir. Buni ko'rib, cho'ponlar o'z tillarida chiyillashib, bu yovmit go'shtning barini quritdi, o'zimiz to'y may qolamiz, deyishib, bir xili mushti bilan, bir xili tayoq bilan Go'ro'g'li sultonni boshing demay, ko'zing demay, ura berdilar. Lekin Go'ro'g'li sulton cho'ponlarning urchaniga parvo ham qilmay, bir to'qlining go'shtini joylik tushirib olib: — Qani, endi qo'llaringning qichuvi qondimi, urib bo'ldinglarmi, yo bo'lmasa matkatak-patkataklering bilan qo'shib ag'da-rib tashlayinmi, — debdi, cho'ponlar undan badtar chiyillashib, Go'ro'g'li sultonni yasay berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton qarasa, matkatakning chekkasida bir qorin tuymuch turgan ekan. Qorinning og'zini ochib olib, bir boshidan yeb tamom qilib, bir nav

qavzlanib olib, endi qizib, cho'ponlarni qaytarib bari-ni uribdi, cho'ponlar dodlab matkatakdan dalaga qo'chib echiqdilar. Shunda ostida ko'kkina yo'rg'a, xurjinginasi to'la, ko'kkina chakmanli Gambik cho'-pon kelib qolib, uzangichasiga oyoqqinasini tirab, Go'ro'g'li sultonga qarab, taltayibgina bir so'z dedi:

Ol-ol bo'lzin, ol-ol bo'lzin, ol bo'lzin,
Yeganing go'sht bo'lzin, oshing bol bo'lzin,
Ko'k ot minib ko'kda yurgan sipohi,
So'rayman, so'rayman, sizga yo'l bo'lzin?

Po'latdandir sari yoyning chegasi,
Bulduruqdir bu mollarning egasi,
Bu yer bo'lsa mamlakatning chekkasi,
So'rayman, so'rayman, sizga yo'l bo'lzin?

Bu yerlar bir kengish yaylov bo'ladi,
Har bir soyi qo'ra qo'yga to'ladi,
Bu yerkarga mol yo'qtgan keladi,
So'rayman, so'rayman, sizga yo'l bo'lzin,
Sipohi, ismingiz nima bo'ladi?

Gambik der men o'zim cho'ponlar boshi,
Bo'ynimda ularning noniman oshi,
Adashib bu yerga, ey, kelgan kishi,
So'rayman, so'rayman, sizga yo'l bo'lzin,
Kelganning bitadi o'zimdan ishi.

Shunda Go'ro'g'li sulton qarasa, bir gambikkina cho'pon, yo'l bo'lzin, deb turibdi. Go'ro'g'li sultonning achchig'i tarqalib: — Ey, ko'p bemaza cho'ponlaringga yo'liqib qoldim. Bari beadab o'sgan cho'-ponlar ekan. Sipohi bilan barobar bo'laman, deb bari o'z gunohi o'zi bilan tayoq eydi. Men, albatta bu yerga quruq kelganim yo'q. Ana betda mening otam Bulduruq qassobdan oltmish qo'yni soyda sherikka olib boqqan edi. Bir-ikki yilning ichida oltmish qo'y ko'payib mingga yetdi. Shuning besh yuzini otam

menga toshpirib, shu qo'ylarni sen Bulduruq qassobga eltib ber, bo'ynimdan soqit bo'lsin. — dedi. Bir cho'ponim qo'ylarni narigi soy bilan haydar borayotir. Bulduruq qassob qo'ylaridan xabar olgani chiqqan emish, deb eshitgan edik. Shuytib, men bu yoqqa burilib, kelgan edim. Bilsam, sening kelayotganiningni birov ko'rib, Bulduruq qassob deb xabar bergan ekan. Ana endi desang, jo'ra, shu otim bilan, shu sipohi kiyimlarim bilan Bulduruq qassobning oldiga qanday borishimning hisobini topmay qoldim. Mening bu ot, to'nlarimni olib, saqlab tursang, menga Bulduruq qassobning oldiga borib kelganimgacha shu uyingdagi bosma chakmaningni berib tursang, — desa, Gambik cho'pon: — Bu chakmanni bilasanmi, buni yigirma ikki tangaga olganman. Senga berib bo'pman bu chakmanni, sipohi bo'lsang, o'zingga, menga nima. Bulduruq qassob har nimani ko'ngliga oladigan odamning xilidan emas. Borsang, ana shahar, o'n toshlik yo'lida ko'rinish turibdi, — deb nosini chekib turibdi. Go'ro'g'li sulton qarasa, bu Gambik cho'pondan ish bitmaydiganga o'xshaydi. Yo'lida boshqa biror joydan ishimni to'g'rilab olarman, deb Xunxor shahriga qarab keta berdi. Yo'lida bir chaylada uchta akali-ukalilar bitta qovunni uch kosa qilib: «Seniki katta bo'ldi, meniki kichkina bo'ldi», — deb jannallashib yotibdi. Go'ro'g'li sulton o'tayotib: — Hay, yigitlar, shaharga qancha yo'l qoldi, — desa, ular: — He, mahmadana, shu vaqtgacha shaharni bilmagan qanday ahmoqsan», — deb taytulushlik qilib, yana o'zlar qovunga talasha berdilar.

Go'ro'g'li sulton:

«Bunday taytulushlardan shaharni so'ragan men ahmoq», — deb naryoqqa qarab o'tib keta berdi. Taxminan Xunxor shahriga besh toshlar qolganda mingta choqli semiz qo'ylarni boqib yurgan bir cho'pon boboga ko'zi tushib qolib, shunday burilib borib, cho'pondan yo'l so'rab, bir so'z dedi:

Tumanli qor ekan tog'larning beli,
To'kilibdi bunda o'lanylар gulи,
Uzoqdan keluvchi men bir yo'lovchi,
Qanchalik yo'l qoldi Xunxorning eli.

Gapisra, ochilar odamning bahri,
Tumtaygan kishining ko'п bo'lar qahri,
Uzoqdan kelaman bo'lib yo'lovchi,
Bobo, qanchalik yo'l Xunxorning shahri.

Ora yo'lda old-ortima qarayman,
Savlat bilan shomurtimni burayman,
Uzoqdan kelaman bo'lib yo'lovchi,
Bobo, sizdan shahar yo'lin so'rayman.

So'zlagan so'zlarim so'zning sarasi,
Buldiraydi, ko'rindi qorasи,
Uzoq ekan bu tog'larning orasi,
Toliqib kelaman bo'lib yo'lovchi,
Qanchalik yo'l qoldi Xunxor darasi.

Yo'l kezguvchi bir yo'lovchi bo'laman,
Juda uzoq etatlardan kelaman,
Shahar olis bo'lsa, kun ham kech bo'ldi.
Ko'nsang senga mehimon bo'lib qolaman.

Bu so'zni eshitib, Cho'pon bobosi achchiqlanib:
— Hay, yo'lovchi, hali seni yo'ldan adashgan desam,
sen bahona qilib menikida qolib, kechasi qo'ylarimni
o'g'irlab haydab ketmoqchisan. Ha, bilasanmi, hali
men kimman. Men Xunxor yurtida nomi chiqqan
Bulduruq qassobning cho'poni bo'laman. Orqam zo'r,
esingning borida shaharga jo'nab qol, — deb tayog'ini
ko'tarib, Go'ro'g'li sultonga qarab, udag'aylab kela
berdi. Aslida Bullduruq qassob so'yadigan satta bo'r-
doqi qo'ylarni shu boboya боqtirib qo'yar edi.
Shaharga yaqinroq joylarda boqib, har zamonda Bul-
duruq qassobga yigirma, o'ttiz qo'y haydab borib
berib yurar edi. Bu boboyi qurg'ur «Ishq mijozи ishqи

haqiqiyga eltib qo'yar emish», degan tutumda ruhbozlik qilib, cho'ponligiga haq olmasa ham, har zamonda Avazxonning bir diydoriga qarab, mast bo'lib yuradigan edi. Shunda Go'ro'g'li sulton Cho'ponning avzoini buzuq ko'rib, G'irko'kdan tushib, cho'ponga ko'zini olaytirib, sillasini qotirib, yerga chalqarta qilib yotqizib, kiyimini shilib olib, uning ko'kragidan G'irko'kni bostirib, G'irko'k otiga qarab: — Men Xunxorga borib kelgancha sen shu cholga qorovul bo'lib turgin, — deb shu so'zni aytdi:

Xunxor borib, boz kelguncha,
Shu boboga boqib turgin.
U yon, bu yon tibirlasa,
Miyasidin qoqib turgin.

Qimtib qo'ygin qimirlatmay,
Qo'l-oyog'in tibirlatmay,
U yon, bu yon g'ibirlatmay,
Shu dushmanga boqib turgin.

Ko'kragidan bosib turgin,
Boqar yo'lin to'sib turgin,
Ikki qo'lin qisib turgin,
Shuytib shunga boqib turgin.

Qora ko'rsa, baqirmasin,
Odam ko'rib chaqirmsin,
Har yon boqib ayqirmsin,
Shu dushmanga boqib turgin.

Aslo ko'zin ochirmagin,
Qo'llarini echirmagin,
G'osil qolib qochirmagin,
Bachchag'arga boqib turgin.

Go'ro'g'li der qaynab toshib,
Xunxor boray qirlar oshib,
Bir maqsad yo'liga tushib,

Chir atrofing dushman eli,
 Chuvillab yotgan lolulashib,
 Jonim, hushyor bo'lib turgin.

Alqissa, bu so'zlarga esli bezabon tushunib, chol boboni qimming-qirab bosib turdi. Go'ro'g'li sulton G'irko'k otiga ishonib, cho'pon boboga qorovul bo'lib turishni tayinlab, o'zi cho'pon boboning kiyimini kiyib, sig'may tarillab yirtilib ketgan joylarini shardoz bilan ildirib, qo'ylarning eng semizdan to'rt yuzini saralab, ayirib olib haydab, juda bemahal yarim kechalarda Xunxor shahriga yetib borsa, allaqachon darvoza qamalib, balki bobo qo'rboshi uch-to'rt ag'nab uxlagan ekan. Shunda Go'ro'g'li sulton bobo qo'rboshiga qichqirib, darvozangni och, deb shu so'zni aytди:

Dorstlar, shunday ekan falakning ishi,
 Xatodir odamning salonman deyishi,
 Biz bir chorva bo'lib cho'l kezgan kishi,
 Uyg'ongin, bormisan, bobo qo'rboshi.

Bu dunyong ekadir qallob guzari,
 Birov uyda, bir dashtda gezari,
 Ko'p qo'y olib kelgandirman bozorga,
 Ochgin darvozangni, bobo qo'rboshi.

Men bir dashtda yurgan chorva bo'laman,
 Tong mahalda qo'yim bozor solaman,
 Kirgizmasang taqron bo'zda qolaman,
 Ochgin darvozangni, bobo qo'rboshi.

Har doim puxtadir turkmanning ishi,
 Oldida qo'rasi yoz bilan qishi,
 Qora sovuq ekan shaharning tashi,
 Ochgin darvozangni, bobo qo'rboshi.

Odamlarning bari qizilbosh kosir,
 Bu ovloq dalangda ko'pdir kissavir,

Men bir o'yu qirni bilmas musofir,
Ochgin darvozangni, bobo qo'rбoshi.

Taqron dalada qo'ylar qoldi-da,
Falakning gardishi shunday bo'ldi-da,
Agarda molimdan bitta yo'qolsa,
Sendan to'lataman podshoh oldida,
Ochgin darvozangni, bobo qo'rбoshi.

Bu so'zni Go'ro'g'li sultondan bobo qo'rбoshi eshitib, o'zining odamlariga qarab: — «O'zbakka salom berdim, qirq tanga tovon berdim», degan bu bir xudoning qizil ko'zli balosi ekanmi, deyman.

Shu vaqtlar nima ko'p, — o'g'ri-kissavur ko'p. Agar mollaridan yo'qolguday bo'lsa, bu o'zbak podshoning oldiga borib, marg'oba qilishdan ham toymaydi. Tong otsa, bozor kuni.

O'zi ham bu qo'ylarni haydab bozorga borgancha tong ham bo'zarib qoladi. Qo'yinglar shu bachechag'ar o'tib ketsin, darvozani ochib yuboringlar, deb darvozani ochdirib yubordi.

Ana endi Go'ro'g'li sulton shaharga kirib, yo'l-yo'lakay ko'zini ildirib, ayni bozor qizigan palla Xunxor shahrining bozoriga kirib, qo'ylarni haydab, qo'y bozoriga borib turdi.

Shunda Go'ro'g'li sulton bozorda gartak turib, ichi qizib, diq bo'lib, bir dumsakka chiqib, tevarak-atrosga qichqirib, bir so'z dedi:

Ey, qassoblar, xaridorlar,
Keling, do'stlar, arzon qo'yga,
Birodarlar, talabgorlar,
Keling-keling go'shtdor qo'yga.

Qo'yim haydab qancha soydan,
O'tib keldim qirdan, o'ydan,
Savdolashib menday boydan,
Oling, do'stlar, arzon qo'ydan.

So'zlab turgan sizga o'zim,
Barisi qo'y, yo'qdir qo'zim,
Arzon baho, birdir so'zim,
Oling, do'stlar, arzon qo'ydan.

Qo'y sotaman arzon baho,
Keling bari qassob og'a,
Turkmanlarda bir naql bor,
Tavakkali sen bil xudo.

Oling, do'stlar, arzon qo'ydan.
So'zlarimning bari haqqon,
Kela bering, dallol chaqqon,
Oling, do'stlar, arzon qo'ydan.

Qo'ng'irboy der mening otim,
Asli turkman o'sgan yurtim,
Yovmitdandir urug'-zotim,
Oling, do'stlar, arzon qo'ydan.

Go'ro'g'li sultonning bu so'zini eshitib: «Ko'p qo'y bilan bozorga bir anoyi o'zbek kelib qolibdi. Qo'ylari juda semiz. Buni boshqa xaridorlarga ko'rsatmay, qo'ylarimi aldab, arzongina baho bilan olmoq kerak. Bunday qulay gagirdak qayerda bor», — deyishib, bir necha yalmanglagan qizilbosh qassoblari yig'ilib: — Uka mana bu qo'yning necha tanga? Mana bunishi? — deb g'ujurlashib qoldilar. Shunda Go'ro'g'li sulton qassoblarga qarab: — Hov, akalar, men bir cho'lda yurgan chorvador odamman. Bozorlaringni ko'rib-bilib yurganim yo'q. Kattasi-kichigi, semizi-orig'i ichida. O'n tangadan ola bering, — dedi. Shu vaqtlar bozorda qo'yning semizi yigirma tanga edi. Buni eshitib, qassoblarning ichi shuvillab, tomog'i g'imillab ketdi. Har qaysi har yoqdan: — Uka, bo'lmasa, menga o'n qo'y uchun naqd pulingni ol. Dallol kelib bozorni ochgandan keyin qo'ylarni berasan, — desa, yana birovi: — Ma, besh qo'yga, — olti qo'yga, — deb har yoqdan g'ujurlashib, Go'ro'g'li sultonning

qo'yninga pul tiqa boshladilar. Shunda qassoblarning ichida bir donishmand ko'sa degani bor edi. U qassoblarga qarab: — Hov, birodarlar, tavakkali bunga ha, deb pul bera berdinglar. Oxirini o'ylamaysizlarmi? Mabodo bu bir tentak yoki bir beoqibat, beobro'y odam chiqsa, nima qilasizlar? Avval buning biror tanishini bilmak kerak. Undan keyin u tanishini buning sirtidan ehtiyoji kafil, deb qo'ymoq kerak. Undan keyin ishini bitirmak kerak — deb qoldi. Qassoblar donishmand ko'sadan bu so'zni eshitib: — Ha-ha, to'g'ri. Aytmoqchi avval buning tanishini bilib olmoq kerak. Uka, sen o'zing bu shaharda biror kishini taniysanmi, — deb Go'ro'g'li sultonning tevaragini ola berdilar. Shunda Go'ro'g'li sulton: — Nega meni biron ta dam odami, oshnasi yo'q, deb kam-sitmoqchisizlar, — deb qassoblarga qarab, shu so'zni aytdi:

Bekorangi bu yerlarga kelmayman,
Bozoringda hech kimingni bilmayman.
Har nima deybermang bunda, qassoblar,
Shaharingda yolg'iz bo'lib qolmayman.

Men turkmanman, o'z ishimni bilaman,
Bozoringga qo'yim haydab kelaman,
Har nima deybermang menga, qassoblar,
Bir katta odamiga qayin bo'laman.

Ey qassoblar, yuragingiz buncha tor,
Bugun kelib bo'ldim sizlarga duchor,
Har nima deybermang menga, qassoblar.
Bu shaharning kattasidan yaznam bor.

Qo'y haydab shahringga kelmayman quruq,
Bilgandan so'rayman bunda yo'l-yuruq.
Har na deb o'tlaybermang, qassoblar,
Yaznamning ismini derlar Bulduruq.

Qo'ng'irboy derlar mening otimni,
Taka-Yovmit derlar o'sgan yurtimni,

Har nima deybermang menga qassoblar,
Qo'ying sot, deb olib oldi-ortimni.

Go'ro'g'li sultondan bu so'zni eshitib, qassoblar keyin tis bo'l shib: — Hay, uka, qaysi Bulduruqni aytasan? — deyberdilar. Bir pilla po'sht-po'shtlab, odamlarni yorib, saman yo'rg'a ostida, besh yuz qassob oldida, shamoliga bozor dirillab, qo'y bozoriga Bulduruq qassob kelib qolib, Go'ro'g'li sultonga: — «Qani, hov bola, qo'ylarni necha puldan deb turibsan» — deb yuzlana berdi.

Shunda donishmand ko'sa Bulduruq qassobga qarab: — Taqsir, buning gaplari qiziq. Bu shaharning kattasi Bulduruq degan yaznam bor, deb turibdi, — dedi. Bulduruq qassob donishmand ko'saga: — To'xta-to'xta, bu o'zbek bilan o'zim bir so'zlashib, ko'ray-chi. Hov, uka, sening bu shaharda Bulduruq qassob degan yaznang bo'lsa, opangning ismi nima edi, — deb Go'ro'g'li sultondan so'radi. Shunda Go'ro'g'li sulton Bulduruq qassobga qarab, bir so'z dedi:

Yoshligimda yetim qoldim otadan,
Undan kay turkmanda bo'ldim men cho'pon,
Bugun sizni ko'rib bo'ldim bearmon,
Shukrililloh, yetkazarsiz opamga.

Odam bo'lib turkman elda mol qildim,
So'rab-so'rab opam daragin bildim,
Shuytib diydor tortib bu yerga keldim,
Shukr endi, yetkazarsiz opamga.

Yoshligimdan chekar edim ko'p voyim,
Bizga ayroliqni solgan xudoyim,
Yaznamni deydilar bunda Bulduruq,
Opamning ismini derlar Guloyim.

Yoshligimdan koru borim dodu voy,
Shu ahvolga solgan meni bir xudoy,

Opamning ismini derlar Guloyim,
Mening nomim so'rsang, deydi Qo'ng'irboy,
Shukr endi, yetkazarsiz opamga.

Cho'listonda cho'llab shuytib yuribman,
Shuncha qo'yni buyon haydab suribman,
Sizni ko'rib bunday katta bozorda,
Yaznanimi, deb taxmin qilib turibman.
Umidim shu, yetkazarsiz opamga.

Ana shunda Bulduruq qassob Go'ro'g'li sultonning
so'zlarini eshitib: — Ey, barakalla, yorqinim. «Tani-
masni siylamas», degan. Shuytib opangni axtarib kelib
qoldingmi? Juda sara qilibsan-da, yorqinim. Opang-
ning Qo'ng'irboy ukam, deb ko'z yoshi qilib yurgan-
laridan g'oyibona seni tanib yurar edim. Opangning
xudoyma qilgan nolishlari qabul bo'lgan ekan. Hali
sen bilmaysan, Avazjon, Boloyim degan jiyanlarining
bor. Balki hali zamon Avazxonning o'zi kelib qolar,
— deb muloyim so'ylab qoldi. Allaqaqachon bir qassob
Avazxonning qalpoq bozorida yurganida uchrashib,
turkman yurtidan Qo'ng'irboy degan tog'ang kelibdi,
deb xabar beribdi. Bir pilla qunduzi telpak boshida,
ayni o'n uch yoshida, bir suluv-suvori ot ostida
Avazxon qo'y bozoriga kirib keldi. Bulduruq qassob:
— Kel bolam, tog'ang bilan ko'rish. Lekin, bolam,
sen sipohi o'sgansan. Tag'i tog'angning kiygan
kiyimiga hayron bo'lib yurma,— deyyotir. Shunda
Go'ro'g'li sulton ham darrov Avazxonni: — Ey, aylan-
nay, jiyanim, esonmisan, omonmisan, — deb otning
ustidan ko'tarib olib, olmaday qilib qo'yniga solib
qo'ydi. Avazxon juda sipohi qayriq bo'lib, badaniga
bitta ham kir o'tirmay o'sgan bola emasmi, sholi
chakmanning bidirmoqlari gulday taniga botib, tezroq
buni yo'qot, deb Bulduruq qassobga qarab, bir so'z
dedi:

Erisin, tog'larning qori erisin,
Har banda olgani bilan qarisin,

Chakmani bag'rimdan o'tib boradi,
Quv o'zbekning kiygan to'ni qurisin,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon.

Tog'larning tepasin chalganmi tuman,
Basharasi qursin buning, ko'p yomon,
Kir isi anqidi bundan shu zamon,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon.

Chakmani ko'ksimga toshday botadi,
Tog'am emas, ota, o'ying xatodi (r),
Kir qo'lliman egnimdan bir tutadi,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon,

Shuytib ham yurarmi o'zbek bo'lmasa,
Qo'ssiyb tutibon qo'liga hassa,
To'rt yuz qo'yni oldiga solib netadi,
Yaxshiroq bir yo'rg'a olib minmasa,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon.

Qo'sqigan boshida qozonday telpak,
Kiygan chakmani ham yulluqi dillak,
Shuncha qo'yni oldiga solib netadi,
Bir yo'rg'a minmayin sho'rli bu o'zbak,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon.

Qirg'iy degan qush o'ltirar qiyada,
Kakliklar charx urar tog'da uyada,
Asli kun ko'rmagan o'zbek bo'lmasa,
Shuncha yo'ldan kelarmidi piyoda,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon.

Qulq solgin bu bolaning zoriga,
Hayronman men buning koru boriga,
Tog'ang deysan shunday iflos gandani,
Bu kelgandir Avazingning sho'riga,
Teziroq yo'qotgin buni, otajon.

Ana shunda Bulduruq qassob Avazxonning buytib
bezovta bo'layotganini bilib: — Hay-hay, tog'angga
behurmatlik qilma. Sen o'zbekning kiyimini hisobga

olma. Bular shunday qo'sqi ko'ringani bilan ko'p olyihimmat odamlar bo'ladi. Sen har doim shohning oldida o'tirib juda quruq, suv yuqmas bo'lib ketgansan.

Endi, o'g'lim, ko'p tezlik qila bermay, tog'angni uyga olib borib, enang bilan ko'rishtir. Bechora shundan shunga opasining diydoriga intiq bo'lib horib, charchab kelgan, bir diydorlashsin. Bor endi, odam buytib tez bo'lmaydi-da. Tog'amga malol keladi, demaysan, — deb Go'ro'g'li sultonni Avazxonga qo'shib hovlisiga jo'natayotib: — Qo'ng'irboy, qo'ylarga kashal bo'lmay hovliga bora ber.

Men o'zim qo'ylarni sotib, pulini o'zingga eltil beraman, — desa, bir xil qassoblar: — Taqsir, men Qo'ng'irboyning o'ziga o'n qo'yga pul berib edim, — men olti qo'yga, — men besh qo'yga, deb Bulduruq qassobning tevaragiga yig'ilib qoldilar. Ana shuylib, Avazxon otli, Go'ro'g'li sulton piyoda Bulduruq qassobning hovlisiga yetib bordilar. Shunda Avazxon ichkariga kirib, enasiga qarab, bir so'z dedi:

Ena, turib bunda kelgin,
Turkman eldan ukang keldi.
Cho'llar kezib, molin haydab,
Horib-tolib ukang keldi.

Har kimdan daraging olib,
Ora yo'lda horib-tolib,
Ko'p qo'yni oldiga solib,
Turkman eldan ukang keldi.

Qo'shiq aytib, o'lan so'zlab,
Cho'llarda bo'taday bo'zlab,
Shundan shunga seni izlab,
Turkman eldan ukang keldi.

Necha-necha bellar oshib,
Gohi-gohlarda adashib,

Bir seni deb to'lib-toshib,
Turkman eldan ukang keldi.

Qancha dasht-yovon kezib,
Bunda kepti, ozib-to'zib,
Bir seni deb ko'nglin bo'zib,
Turkman eldan ukang keldi.

Yo'l-yo'lakay bag'rin dog'lab,
Bir seni deb zor-zor yig'lab,
Gohilarda o'zin saqlab,
Turkman eldan ukang keldi.

Qo'ng'irboy der o'zin oti,
Yovmit emish asli zoti,
Cho'llik emish o'sgan yurti,
Turkman eldan ukang keldi.

Avazxonning eshit so'zin,
Ko'zingga mengzatdim ko'zin,
Qo'ng'irboy deydi kan o'zin,
Turkman eldin ukang keldi.

Shunda bu so'zni Guloyim Avazxon o'g'lidan eshitib, sillasi qotib, hushini yo'qotib, yuragi qizib, boshi aylanganday bo'lib ketib, yugurib tashqari hovliga chiqib: — Voy, Qo'ng'irboy jonim, bormiding, aylanay. Seni ham ko'rар kunim bor ekan, — deb yig'lab quchog'ini ochib, bechora Guloyim Go'ro'g'li sultonga o'zini otibdi. Go'ro'g'li sulton ham opajon, deb jo'rtagadan yig'lab, Guloyim bilan quchoqlashib, yig'lashib turibdi. Bechora Guloyim bo'lsa mehr bilan Qo'ng'irboy deb quchoqlab, Go'ro'g'li sultonni dim qo'ymaydi. Go'ro'g'li sultonni bo'lsa, shayton qitiqlab borayotir. Guloyim o'zi ham ochari qochmagan, ko'kragi issiq, semiz ayol edi-da.

Shunday qilib, Go'ro'g'li sulton Guloyimni qimtib-qimtib bir-ikki quchoqlab olibdi. Guloyim bechora bo'lsa, o'ziga kelib: — Uka, esim qursin, o's-

gan yurtlarimni so'ramabman, — deb Go'ro'g'li sultonga qarab, bir so'z dedi:

O'ylasam bu dunyo ovdim zamoni,
Baland bellar gohi-gohi tumani,
Birin-birin, uka, endi so'rayin,
Bolalikda o'sgan ellar omonmi?

Ko'klamlar yashagan turkman cho'llari,
Atir anqib yotgan baland bellari,
Ko'klang, taka, yovmit, sari ellari,
Salqin elli Asqar tog'lar omonmi?

Quloq sol Qo'ng'irboy aytgan so'zima,
G'am bilan sarg'aygan guldai yuzima,
O'ylay bersam yosh keladi ko'zima,
Katta-kichik qadrdonlar omonmi?

Unutay deb qo'ydim turkman tilini,
Eshitaman obod Chambil belini,
Menga solgan ayriliqning xifini,
Hamma ko'rgan og'aynilar omonmi?

Qator-qator nori bilan lo'klari,
Kampirlari, qizu kelinchaklari,
Fuqaro, cho'poni, bobo beklari,
Yurt egasi Go'ro'g'libek omonmi?

Shunda Go'ro'g'li sulton Guloyimdan yurt egasi Go'ro'g'libek omonmi, degan so'zini eshitib: — Ey, opa, unday dema, Go'ro'g'li bizga dushman. Uni hech ovloqda uchrata olmay yuraman. Agar uni bir ovloqroq joyda uchratsam, go'shtini burdalab itlarga berar edim, — dedi. Shunda Guloyim Go'ro'g'li sultonga qarab: — Unday dema-da! Uka, hali sen yoshroqsan, ko'p narsani bilmaysan. O'zingdan chiqqan kattani o'zingga dushman bilasan. Hali sen elingning qadrini ham ko'p bilmaysan. Cho'lda hech narsani bilmay o'sgan ukam. Men ham Turkmanda

vaqtimda senday edim. Endi bu Xunxorlik bo'lib, bitta urug'doshim ko'rmay, elimni, xalqimni sog'inib o'z xalqimning qadfini bildim. Sen Go'ro'g'li menga yov deysan. Men bo'lsm, falon qo'rg'oni Go'ro'g'li talab, qirib — juyib ketibdi, deb eshitsam, ko'ylagimga sig'may, quvonib ketaman. Kishi elida qolganlik shunday bo'lar ekan, Qo'ng'irboyjon, deb Go'ro'g'li sultonning ostiga to'qqiz qabat ko'rpa to'shab, to'qqiz xil taomni dasturxonga keltirib qo'yib, Guloyimning o'zi choyu murabbolarni tayyorlash bilan ovora bo'lib yurganida, Avazxon choy suzib berib o'tiribdi. Shunda Go'ro'g'li sulton Avazxonni ko'tarib, olmaday qilib tizzasiga o'tirtib, dimog'i choq bo'lib: — Avazxon, seni Turkman yurtiga olib borsam, Chambilni tomosha qildirsam, G'irko'k degan otimni senga bersam minarmiding, — deb Xunxor yurtida ekanligini unutib, bir so'z dedi:

Qaddingdan aylanay, erkam Avazxon,
Senday toza ulni ko'rmamish davron,
Avaz dilim, so'zlay senga bir zamon,
Minasanmi, jonim, G'irko'k otimga?

Olib ketsam seni asli yurtinga,
Taka-yovmit otli mamlakatimga,
Qulog sol, jon Avaz, arzu dodimga,
Minasanmi, jonim, G'irko'k otimga?

O'ylasam, ko'p o'ylar keladi dilga,
Bundan borsak Avaz Turkmanday elga.
Ikkalamiz kirsak shahri Chambilga,
Minasanmi, jonim G'irko'k otimga?

Sayrlar aylasang Asqar tog'inda,
Gul iskab, gul iskab chaman bog'inda,
O'ynashib yigitlar so'lu sog'inda,
Minasanmi, jonim, G'irko'k otimga?

G'irko'kimning hargiz tengu joyi yo'q,
Xon otangning bitta ko'ngil xo'yi yo'q,

Go'ro'g'lining sendan boshqa o'yi yo'q,
Minasanmi, bolam, G'irko'k otimga?

Bu so'zni Avazxon eshitib, Go'ro'g'li sultonning tizzasidan otilib yerga tushib, ko'chaga qarab yugurib, o'tkinchilarga qarab, xaloyiqlar, kelinglar, darrov xabardor bo'linglar, biznikida dushman bor. — deb qichqirib, bir so'z dedi:

Ey, yoronlar birodarlar,
Biznikiga yig'ilib keling,
Yovuz dushman o'tiribdi,
Bachchag'arni tutib oling.

So'z aytadi menday o'g'lon,
So'zlarimni demang yolg'on,
Chakmon kiyib cho'pon bo'lib,
O'tiribdi yovuz dushman.

Ey, yoronlar, kelinglar, hoy,
Hech qo'rqlmay, beparvoy,
Go'ro'g'libek kep o'tirdi,
Otini qo'yib Qo'ng'irboy.

Shuytib ebin ketirarmi,
O'z aqlini yitirarmi,
O'zi bo'lib bizga dushman,
Yana kelib o'tirarmi?

Bir ulovi yo'q ostida,
Xanjari ham yo'q ustida,
Gadoy sifat ayyor bo'lib,
Bilmam kelgan kim qasdida.

Asli turkman, tusi buzuq,
Ko'zi qizil, burni yoziq,
Uyga kelib o'tirgani,
Bachchag'arning juda qiziq.

Ko'cha yoqdan biqib o'tmay,
Manziliga borib yetmay,

Bizning uyg'a kep o'tirdi,
O'zin aytib, qo'rqlmay netmay.

Og'aynilar, yig'ilib kelng,
Atrofini qurshab oling,
Cho'pon bo'lgan pillasida,
Buni oson qo'lga oling,
Avaz dushman oldida, deb
Shohga darrov xabar qiling.

Ana shunda Go'ro'g'li sulton Avazxonning avzoi buzilib, ko'chadagi odamlarga xabar berib, sirini ochib qo'yayotganidan o'zi og'zidan chiqqan gaplariqa pushaymon yeb: — Meni Go'ro'g'li deb xaloyiqqa tutib bermoqchimisan? Men bo'lsam, seni tizzamga oltirib, o'zimni Go'ro'g'licha bilib, o'zim Go'ro'g'li bo'lsam, Chambil shahrim bo'lsa, G'irko'k o'zimning otim bo'lsa, deb xayol surib aytgan gaplarimni sen chinga bitibsang. Ey, bu qanday gap. Biz turkmanlarning shunday odatlari bo'ladi. Ishonmasang, opamdan so'ra, deb Avazxonni aldabsuldab ko'ndirib orqasiga qaytardi.

Shuytib, kun kech bo'lib, Bulduruq qassob qo'y-larni sotib, hovlisiga qaytib kelib, qo'ylarning pulini Go'ro'g'li sultonga berdi. Go'ro'g'li sulton pulni ikki bo'lakka bo'lib, yarmini bozorlik deb Guloyimga, yana bir yarmini kiyim-kechaklik deb Boloyimga berib: — Opa, Avazxonga hech nima bermadi, deb ko'nglingga keltirib o'tirma. Men yo'lida kelayotib, haydashga qiynalib, to'rt yuz semiz qo'yimni bir cho'ponga tayinlab tashlab keldim. Shundan ikki yuzini Avazxonga enchi deb niyat qilganman. Xudo xohlasa, ertaga Avazxonning o'zi mening bilan birga sahroga chiqsa, o'sha to'rt yuz qo'ydan ikki yuzini o'zim ketishga yo'l xarji qilib ketsam, — deb Bulduruq qassob, Guloyim, Avazxonlarni rozi qilib, Bulduruq qassobnikida yotib, erta bilan Avazxonni ergashtirib, sahroga chiqmoqchi bo'la berdi.

Semiz qo'y degandan keyin qassob odamzod qoladimi? Bulduruq qassob ham sahroga bular bilan birga chiqmoqlikka tayyorlana berdi. Bo'rdoqi qo'y-larning hirsı Bulduruq qassobning ichini tutib, Avazxonni mingashtirib olib, Avazxonning otiga Qo'ng'irboy minib olar, deb Go'ro'g'li sultondan oldinroq jo'namoqchi bo'layotir. Go'ro'g'li sulton otdan qo'rqqan kishi bo'lib bahona qilib, Bulduruq qassob yo'lga chiqqan bo'lsa ham, hali gidirayib Guloyimning oldida turibdi. Ulug' martabali Bulduruq qassob ko'chada gidirayib qarab turmojni nomus bilib, Qo'ng'irboy orqamdan yetishar deb Avazxonni mingashtirganicha saman yo'rg'asini yo'rg'alatib, katta ko'cha bilan haydab ketdi. Shunda Go'ro'g'li sulton Guloyimga o'zini tanitib, endi Avazingdan ayrilding, bergen tuzingga rozi bo'l, — deb shu so'zni aytadi:

Ucha bilmay qanotingdan qayrilding,
Nogohonda qiya ketib tayrilding,
Rozi bo'lgin harna bergen tuzingga,
Guloyimjon, Avazingdan ayrilding.

Men turkmanman, qilar ishim bilaman,
Chambildan shu Avazni deb kelaman,
Aslim bilsang, bek Go'ro'g'li bo'laman,
Rozi bo'lgin harna bergen tuzingga,
Guloyimjon, Avazingdan ayrilding.

Ot chopilar balandida, pastida,
Mard yigitning tulpor o'ynar ostida,
Kelgan edim bol Avazning qasdida,
Rozi bo'lgin har na bergen tuzingga,
Guloyimjon, Avazingdan ayrilding.

Bevaso dunyoda o'ynab-kulay deb,
Besh kun farzand suyib shodon bo'lay deb,
Shu bolangni o'zim o'g'il qilay deb,
Senikiga necha qaytib kelay, deb,

Rozi bo'lgin har na bergen tuzingga,
Guloyimjon Avazingdan ayrilding.

Eshitgin, Guloyim degan so'zimni,
Go'ro'g'li sulton der bilsang o'zimni,
Befarzandman mana soniy dunyoda,
Shuytib Avazxonga tikdim ko'zimni,
Rozi bo'lgin har na bergen tuzingga,
Guloyimjon Avazingdan ayrilding.

Bu so'zni Go'ro'g'li sultondan eshitib, Guloyimning ko'zi ochilib, ko'chaga chopib chiqib, Bulduruq qassobning orqasidan Avaz bolamni tashlab ket, deb qiehqirib, bir so'z dedi:

Yuragimga solgan dardu alamni,
Eshitgin aylagan ohu nolamni,
Illoyim, qo'y demay o'lgor imonsiz,
Hushing yig'ib, tashlab ketgin bolamni.

Naylayin, bag'timning ichi yarali,
Qayga bo'lsa, biz ham ko'pman borali,
Illoyim, mol demay o'lgor, imonsiz
Aldab kelgan odam ekan Go'ro'g'li.

Minibdi, tentak chol, shayton bo'yningga,
Nasiya mollar kirganday bir qo'lingga,
Illoyim, qo'y demay o'lgor, imonsiz,
Bir burilib, qarasang-chi keyningga.

Men sho'rli boshimni g'amga chulg'ayman,
Ayriliq dardidan bo'ynim to'lg'ayman,
Illoyim, mol demay o'lgor, imonsiz,
Burilib boqsang-chi, qo'lim bulg'ayman.

Go'ro'g'li qo'yiga talabgormisan,
Yoinki ikki yuz qo'yga zormisan,
Tashlab ket deyman-a Avaz bolamni,
Nima balo hushing ketib, karmisan.

Eshitgin Guloyimning nolishini,
Haq o'zi o'ng'arsin har bir ishini,
Illoyim, mol demay o'lgor, imonsiz,
So'ziga ergashmay dushman kishini.

Bulduruq qassob bo'lsa faryodini ko'chaning shovshuvi bilan eshitmay, ko'zdan yiroqlashib ketdi. Shunda Guloyim bechora Avaz bolasidan ayrilishiga ko'zi yetib, Go'ro'g'li sultonga qarab: — Uka, endi Avazimni senga topshirdim. Sen o'z bovrimsan, deb zor-zor yig'lab, **bir so'z dedi**:

Turkman eldan kelgan, inim Go'ro'g'li,
Avazimni endi senga topshirdim.
Shundan boshqa bormi mening ilojim,
Avazimni men o'zingga topshirdim.

O'z bovrimsan, asli, urug'doshimsan,
Sultonimsan, jonim, ko'zim, qoshimsan,
Turkmanda bir chin ishongan kishimsan,
Avazimni endi senga topshirdim.

Olib ketib jon bolamni xor etma,
Har nokasga ani do'stu yor etma,
Termultirma, har nimaga zor etma,
Avazimni men o'zingga topshirdim.

O'g'limdan ayrilmoq menga dard bo'lar,
Avazim yo'lida ko'zim to'rt bo'lar,
Ishonaman turkmanlarim mard bo'lar,
Avazimni endi senga topshirdim.

Inim debon bergan tuzim oqlagin,
Gohilarda men sho'rlikni yo'qlagin,
Guloyim qo'zisin jonday saqlagin,
Avazimni men o'zingga topshirdim.

Guloyim zor-zor yig'lab qola berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton Guloyimga: — Xasa bo'lma, Guloyimjon. Men bu yerga bir kelib ketadigan odam emas-

man. Meni sen xuddi o'zingday bilaber. Xunxor emas, menga ul bo'lsa, hech vaqosi yo'q, — deb tayog'ini sudrab, Avazxonning otiga minmay piyoda kela berdi. Shahardan chiqsa, Bulduruq qassob otini to'xtatib orqasiga qarab turgan ekan. Go'ro'g'lini ko'rib: — Ha, yorqinim, nega piyoda kelayapsan? — dedi. Shunda Go'ro'g'li: — Ey, yazna, chorva odamga piyoda yurishdan qulayi bormi? Oldilaringizga tushib keta beraman, deb Bulduruq qassobning oldiga tushib sahrolardan oshib keta berdi. Shuytib, o'zi qoldirib kelgan qo'yalarining berigi uchiga yetib: — Ana endi Avaz jiyanim otdan tush. Ikkovimiz qo'yalmi ko'rib, saralaymiz, — deb Avazxoni ko'tarib, yerga tushirib, yura-yura G'irko'k cho'pon boboni bosib turgan yerga yaqinlab qolganda, Bulduruq qassob nimadan seta-mol olganday, Avazzonga: — Kel, kel bolam otga mingashib ol, dey berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton Bulduruq qassobga qarab, qani, nima demoqchisan, deb bir ko'zini olartirib yuborgan ediki, Bulduruq qassob qo'rqib qoldi.

Ana shunda Go'ro'g'li sulton Bulduruq qassobga qarab: — Borib shohingga ayt, armonda qolmasin, — deb bu so'zni aytib turibdi:

Ey, Bulduruq, borib bildir shohingga,
Men bunda, savashsa kelsin maydonga,
Tag'ina qolmasin anda armonda,
Men bunda, savashsa, kelsin maydonga.

Tuman yotar Badbaxt tog'ning ustida,
Qo'yularing yuribdi bunda ostida,
Kelgan edim Bol Avazning qasdida,
Men bunda, savashsa, kelsin maydonga.

Bol Avazni endi olib ketaman,
Chambilbelday shahrimga eltaman.
Anda men o'zimga o'g'il etaman.
Men bunda, savashsa kelsin maydonga.

Shohingga ayt, meni nomard demasin,
Bunda kelsin, armonda bo'p qolmasin,
Yig'ilib kelsin, qirib tashlay hammasin,
Men bunda, savashsa, kelsin maydonga.

Eshitgin, Bulduruq aytgan so'zimni
Qocha berma ko'rib turib ko'zimni,
Bilmasang, Go'ro'g'li deydi o'zimni
Ayt, shohingga bunda kelsin maydonga.

Bulduruq qassob bu so'zlarni eshitib, ko'zi kattarib,
saman yo'rg'asini haydab, oldi-ortiga qaramay, sha-
harga qarab qocha berdi. Go'ro'g'li sulton bo'lsa,
G'irotning oldiga bordi. Cho'pon bobo bo'lsa, qop-
qonga tushgan sichqonday, ko'zlari kosasidan chiqib
kelib, allaqachon qotib qolgan ekan.

Shunda Go'ro'g'li sulton Avazxonni oldiga
chaqirib: Kel, bolam G'irotga min, — deb bir nima
dedi:

Endi Chambilga ketaylik,
Kel, Avaz mingin G'irotga,
Vaqtli manzilga yetaylik,
Jon Avaz, mingin G'irotga.

Sulton otang bunda shoshar,
Kelsa, dushmaniga yondashar,
Kiygan to'nlarining yarashar,
Kel Avaz mingin G'irotga.

Xunxor bizga qoyil bo'lsin,
Ko'ngling otga moyil bo'lsin,
Har bir kuning sayil bo'lsin,
Jon, Avaz, mingin G'irotga.

Endi qaynab jo'sh urayin,
Badbaxt beldan oshirayin,
Qomatingni bir ko'rayin,
Kel, Avaz, mingin G'irotga.

Daryolardan kechirayin,
Saylab suluv quchirayin,
Senga sharob ichirayin,
Jon, Avaz, mingin G'irotg'a.

O'zim Xunxordan ziyoda,
U shoh bo'lsa, men ham shoh-da
Sensan qirq bir ozoda,
Kel, Avaz, mingin G'irotg'a.

Ko'trganlarni lol qilayin,
Ichganiningni bol qilayin,
Chambil eltib ul qilayin,
Soqiyu kosagul qilayin,
Jon Avaz, mingin G'irotg'a.

So'z so'zlagan menday sulton,
Men o'zingni qilay o'g'lon,
Chambil borib surgin davron,
Qomatingdan jon Avazxon,
Kel, Avaz, mingin G'irotg'a.

Go'ro'g'lidir mening otim,
Taka Yovmit asli zotim,
Chambil shahrim, mamlakatim,
Jon, Avaz, mingin G'irotg'a.

Shunda Avazxon bu so'zni Go'ro'g'li sultondan
eshitib, javobiga bir so'z dedi:

Aldab kelgan ey Go'ro'g'li,
Minmayman, nomard G'irotg'a,
O'g'riday g'azang'ar g'azzob,
Minmayman, nomard G'irotg'a.

Shunda bir qirg'in bo'lmayin,
Jarlар o'likka to'lmayin,
Yolg'iz o'zing ko'p qo'shingga,
Shunda barobar kelmayin,
Minmayman, nomard G'irotg'a.

Qo'shin oldini bo'g'masang,
G'olib kelib borin quvmasang,
Qon bilan xanjar yuvmasang,
Minmayman, nomard G'irotga.

Ko'p qo'shinni o'lдirmasang,
Soyni qonga to'lдirmasang,
O'zim qoyil qildirmasang,
Minmayman, nomard, G'irotga.

So'zlar senga Avaz o'g'lon,
Shoh qo'shini xirmon-xirmon,
Shu kamarda oqmasa qon,
Minmayman, nomard G'irotga.

Bu so'zni Avazzondan eshitib: — Mayli o'g'lim, sen mening ishlarimni ko'rmasdan menga tan bermaydiganga o'xshaysan. Bo'lmasa ana qirga chiqib o'tir, — deb Avazxon bilan ishi bo'lmay, yoy-yarog'ini taqinib, G'irko'kni yetaklab, bir dumsakechaga chiqarib, u yoq-bu yoqqa yurgizib, qashlab netib sovuta berdi. Ungacha Avazxon Go'ro'g'li sulton chiq, degan qirga chiqmay, balki boshqa bir Xunxorga toza ko'rinish qirga chiqib, bo'ridan taysallagan gayak uloq-day bo'lib turdi. Go'ro'g'li sulton ichida: «Hay, qizil-boshdan yaragan dim ilikmaydi-yov», — deb qo'ydi. Endi gapni Bulduruq qassobdan eshitsangiz.

Bulduruq qassob shu qochganicha Xunxor shohning oldiga borib, Go'ro'g'li sulton Avazxonni aldab olib ketganini bildirdi. Xunxorshoh bu voqeadan xabardor bo'lib, darrov Kosaman sardoriga buyurib, o'zing bilan o'n ming askar olib, Go'ro'g'li xardo'zning orqasidan yetib, o'lдirmay, tirik ushlab kel. Uni o'zim to'rtta temir qoziq bilan qiy nab o'ldiraman, — dedi. Kosaman sardor Xunxorshohning buyrug'i bilan o'n ming askarni olib, o'zidan oldin bir cho'loq sarkardasini ming askari bilan peshdov qilib jo'natib yuborib, o'zi qolgan to'qqiz ming askari

bilan shahar darvozasidan chiqib, bu ham jo'nay bersin. Endi Go'ro'g'li sultondan eshititing.

Go'ro'g'li sulton Xunxor shahridan qo'shin chiqib kelayotganini ko'rib, G'irko'kni zartang-zabartang aylab, G'irko'kka minib choq bo'lib, chirpinib turdi. Bir pilla cho'loq sarkarda ming qo'shinni olib yetib kelib, Go'ro'g'li sultonni ko'rib, tevaragini qamsab olmoqchi bo'la berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton G'irko'kka qamchini bosib, cho'loq sarkardaning qo'shinnini bir-ikki aylantirib, satta qizilboshning semizini saralab, bir daqiqada yuztachasining kallasini sap-chaday kesib tashladi. Bunday zo'rlikni ko'rghan cho'loq sarkarda shoshib tabgiridan adashib, enasini amma, deb qolgan askarlari bilan Xunxorga qarab qochib ketdi.

Shuytib, Go'ro'g'li sulton dushmanlarni qo'rqtib, bir siraga hurkitib, endi Avazxonni otimga mingashtirib olay, deb Avazxon chiqqan do'ngga borsa, Avazxon yo'q. Bir pilla qarasa, qirning narigi yog'i-dagi jar bilan qochib borayotir. Go'ro'g'li sulton borib Avazxonga qarab, uzangiga oyog'ini tirab: — Ha, bolam Avazxon, qayoqqa borayapsan? — deb so'rabb, shu so'zni aytdi:

Kirpi, jayralarday biqib jar bilan,
Yo'l bo'lsin, Avazxon, qayga borasan.
Qizilboshing qochib ketdi or bilan,
Ey, jonim Avazxon qayga borasan?

Qizilboshlar o'z holini bilmaydi,
Taltayib turkmanni ko'zga ilmaydi,
Keyin bilib hech o'ziga kelmaydi,
Yo'l bo'lsin, Avazxon qayga borasan?

Qoyil bo'lsang, turkmanga tan berasan,
Chambil borsang, davri davron surasan,
Nega bo'ytab jayra bo'p jarman yurasan,
Yo'l bo'lsin, Avazxon qayga borasan?

Balli kokilingga, balli Avazxon,
 Kokilingga banda bo'lay Avazxon,
 Yur men bilan, o'g'lim qilay Avazxon,
 Yo'l bo'lsin, Avazxon, qayga borasan?

Qoyil bo'lgin Go'ro'g'lining koriga,
 Bedovim o'ynatay ko'ngling bahriga,
 Borib davron surgin Chambil shahriga,
 Yo'l bo'lsin, Avazxon, qayga borasan?

Ana shunda Go'ro'g'li sultondan bu so'zni eshitib,
 ayyorlik qilib: — Ey, turkman tog'a, men sendan
 qochganim yo'q, qizilboshdan qochayotirman. Mayli
 endi senga mingashaman, — deb Avazxon Go'ro'g'li
 sultonga mingashib olib, qirning bu yog'iga osha
 berdi. Bu yodqa cho'loq sarkarda to'qqiz yuz odami
 bilan qaytib, Kosaman sardorning oldidan chiqib,
 Kosaman sardor cho'loq sarkardani ham qaytarib,
 jazoyil to'plarini guldiratib, tog'u toshni titratib kela
 berdi. Go'ro'g'li sulton qo'shin etishguncha o'ylanib:
 «Endi bu Avazxonni mingashtirib yurmasam, bu
 Xunxorning qo'shiniga qo'shib qochib ketishdan
 ham toymaydi», — deb bir chilbir bilan Avazxonni
 mahkam qilib o'ziga qo'shib bog'lab, G'irko'kni
 tezlab, qizilbosh qo'shinining oldini to'sa berdi:

Dala-dashtlar changib ketdi,
 Quloq kar bo'p gangib ketdi,
 Go'ro'g'li arslonday bo'lib,
 Shu changlikka sho'ng'ib ketdi.

Kimdir shahid, kimdir g'ozi,
 Hisob emas, ko'pu ozi,
 Yaqinlashib kela berdi,
 Gumbirlagan to'p ovozi.

Bedov otlar hiyillashi,
 Otgan o'qning chiyillashi,
 Tasir-tusir, qasir-qufir,
 Chaqilib soylarning toshi.

Popuk nayza pirillaydi,
Dol bedovlar arillaydi,
Bu shovqinning haybatiga,
Badbaxt tog'i dirillaydi.

Shuytib dushman yovut etdi,
Gazalarni askar tutdi,
Balki balandlarga o'tdi,
Shunda G'irko'k g'irday bo'p,
Bir pishqirib ishib ketdi,
Sag'rilari toshib ketdi,
Tom bo'yiday oshib ketdi,
Qattiq kishnab, sixa tortib,
Dushmanga yondashib ketdi.

Dushman kelar qo'lida nayza.
Bir qo'lida sir bayzo
Bunday pilla sho'pir ko'nda,
Tog'u toshga tushdi larza.

Dushman kelar shobi bilan,
Har qaysi bob-bobi bilan,
Bir xillari chuvlab kelar,
Jiyron, yo'rg'a, yobi bilan.

Dushman kelar hujum qilib,
Gaza betman qirni olib,
Go'ro'g'li o'rtada qolib,
Po'lat xanjar sermab solib.

Boshini boshga qo'ymaydi,
Qo'rqqanman olishmaydi,
Botiriman kelishmaydi,
Bedovlarning bo'yni sindi,
O'lgan odam o'lib tindi,
Go'ro'g'lini ko'ring endi,
Dushmanga ot qo'yib do'ndi,
Jahannamga eltilib qo'ydi.
Do'stuman bo'lib bo'lganlari

O'zlarining qoniga to'ydi.
 Endi dushman shoshib qoldi,
 Bir-biridan adashib qoldi,
 Bir xil shumitob qo'rqoqlari
 Qochib yo'lga tushib qoldi.

Bir xillari olha, deyishib,
 Hech ayamay sol-ha deyishib,
 Shuncha qo'shin bas kelmaymi,
 Bu bo'lsa bir tanho deyishib.

Shuytgan bilan bo'larmidi,
 Hargiz baland olarmidi,
 O'n ming qo'shin bir arslonga
 Sira ham teng kelarmidi.

Ko'ring endi Kosamandi,
 Chap bo'p ishi, shashti sindi,
 Erga bir urib kamondi,
 Qochmoqqa yuz qo'ydi endi.

Soydan tuman ko'chganday bo'p,
 Shahar bag'rin quchganday bo'p,
 Kun isisa, issig'idan,
 Bulut narmon qochganday bo'p.

Shuytib dushman to'zg'ib ketdi,
 Qochgani shaharga yetdi,
 Mard Go'ro'g'li ko'p qo'shinga
 Yakka yolg'iz zo'rliq etdi.

Ana shuytib Go'ro'g'li sulton bir o'zi shuncha qo'shinga zo'rlik qilib, urgancha urib, qirgancha qirib, surgancha surib, dushmanlarni ishirib quvib yuborib, o'zi ham juda charchab, Badbaxt bovriga yetib, Avazxonni otdan tushirib, o'zi ham otdan tushib, dam olib yotdi. Shunda Avazxon mardlik ham shuncha bo'lar-da, — deb ko'nglida Go'ro'g'li sultonga qoyil bo'lib o'tirdi.

Shunda Go'ro'g'li sultonning miyasiga bir fikr kelib qolib, yoshlik vaqtlarini eslab, bu kuni choshtgohda Xunxorning qibla betidagi qo'riqda yashayotgan turkmanlar ovuliga borib, Avazxon o'g'li bilan u yerda ham bir-ikki kun mehmon bo'lib, u yerda qolgan-qutgan turkmanlarni bir kun choq sahroda harna bor ulovlariga anjomlarini orttirib, o'zi Avazxonni mingshтирib, ularga soqchilik qilib, barini Badbaxt belidan oshirib: — Endi sizlar Chambilga ko'chib bora beringlar. Bu yoqlarga Xunxor zolimning hukmi yetmaydi. Avazxonni olib kelayotir, deb Chambilda Xoldor mahram, Hasanxonlarga aytib qo'yinglar. Mendan barcha turkmanlarga salom denglar, — deb o'zi qaytib yana Xunxor yurtiga tushib, Xunxorning ovullarini sayr tomosha qilib yura berdi. Bundan Go'ro'g'li sultonning maqsadi «Mening mard va botirligimga Avazxon ishonib, qoyil bo'lsin», degani edi. Xunxor shoh: «Har kim Avazxonni Go'ro'g'li xarduzdan tortib olib keltirsa qizim Sarvinozni berib, o'zimga vazir qilaman», — deb jar soldirdi. Endi gapni Rayhon arabning jiyani Bektosh arabdandan eshitting.

Rayhon arab Xoljuvonoyni olib qochmasdan bir yil ilgari Rayhon arabning erka jiyani Bektosh arab juda otbozligidan tog'asi Rayhon arabning otini o'g'irlab, bir damga kelgan baytalga choptirib, undan bir qora tulpor tug'dirib olgan edi. O'sha vaqtarda Xuroson mamlakatining podshosi Harishohning Gulnoz degan oy desa oy, kun desa kun bir sohibjamol, o'zi barkamol qizi bo'lib, har kim mening qizimga xushtor bo'lsa, ko'shkimning boshidagi tilla qovoqni o'q bilan urib tushirsa, shu ko'shkimdan ot sakratsa qizimni berib, o'zimga vazir qilaman», — degan edi. Bu ovozani Bektosh arab eshitib, Xurosonga bormoqliki talab qila bergandan keyin arablarning manazini yaxshi bilgan Rayhon arab noiloj rozi bo'lib: «Bo'lmasa, Xurosonga borsang, maqsadingga yetsang, undan narida Go'ro'g'li degan juda shashti baland bir

yigit bor. Zinhor o'sha bilan do'st bo'lgin», — deb tayinlab javob bergen edi. Bektosh arab Xarishohning yurti Xurosonga kelib, Harishohning ko'shkiga to'g'-rilab, qora tulporiga bir-ikki achchiq qamchini bergen edi. Shunda ot Harishohning ko'shkidan sakrab, shu sakraganda ko'shkning ustidagi oltin qubbani o'q bilan urib tushirib o'tgan edi. Shuytib, Bektosh arab Harishohning qizi Gulnozoya uylanib, vazirlik qilib yurganida Xunxor shohning Go'ro'g'lidan Avazni tortib keltirib berganga qizim Sarvinozni berib, o'zimga vazir qilib olaman», — deb jar soldirganini eshitib, shayton qitiqlab, «Voh, Gulnoz, Sarvinoz qanday yarashib tushgan qo'sha ismlar», Xunxorday podshohlar podshosining qizi xotinim bo'lsa», — deb havas qilib, o'n ikki ming askar to'plab, Badbaxt belining oldini o'rabi chiqa berdi. Bu yoqda Go'ro'g'li sulton Chambilda ko'rgan baxshi bobosini uehratib qolib, uning uyiga mehmon bo'lib, doston ayttirib, Avazxon bilan o'tirar edi. Buni Bektosh arab eshitib, burilib baxshi boboning ovuliga kelib, shunday baxshi bobonikiga rav bo'lib, otidan tushmay, uzangiga oyog'ini tirab, mo'ylovinib burab, baxshi boboga qarab, bir so'z dedi:

Eshitgin jon bobo sardor so'zini,
Har bir kimsa topolmaydi izini.
Asli Rayhon arab shohning jiyani,
Xurosonda Bektosh deydi o'zini,
Talab qildim sendan aziz mehmonni.

Men bilan aylasin mehmon ko'ngil shod,
Qayg'u kulfatlarni qilishib barbod,
Xuroson yurtida Hari podshoga,
Ham o'zim vazirman, ham o'zim domod,
Talab qildim sendan aziz mehmonni.

Eshitganman, Go'ro'g'lini bilaman,
Yov emasman anga do'stlik qilaman.

Shu to'g'rida Rayhon tog'am sharti bor,
Ul yurtiga men ham iqror bo'laman.
Talab qildim sendan aziz mehmonni.

Borsanglar uch-to'rt kun ko'ngil olaman,
Yolg'on emas chindir Bektosh so'zlari,
Musulmon deydiku sizu bizlarni,
Olib borib Hari shohning oldida.
Bir ikki kun mehmon etsam sizlarni.

Bu so'zni baxshi bobonikida mehmon bo'lib
o'tirgan Go'ro'g'li sulton eshitib, bachechag'arning
taklisiga bormasak, qo'rkoq, der. Borsak, biron xatar-
dan xoli emas. Har doim mardning boshiga ish
tushadi. Endi nima bo'lsa ham tavakkali xudoning
o'ziga. Agar niyati buzuq bo'lsa, yomonligi ursin
ko'ziga», — deb o'ylab: — Mayli, rozi bo'l.

Shu odamnikiga mehmon bo'lamiz, deb bobosiga
qarab, nima dedi:

Mard ko'rinar baxshi bobo, kelgan bek,
Rozi bo'lib, xo'p boramiz, mayli, de,
Talab qilgan bo'lsa sendan bizlarni,
Xursand bo'lib, xo'p beramiz, mayli de.

Talab qilgan bo'lsa bizday mehmonni,
Izzatin ko'ramiz unday sultonni,
Birga borsang, sen aytasan dostonni,
Rozi bo'lib, xo'p boramiz, mayli, de.

Bizning mehmon ochiq shirin xo'yli de,
Sozu suhbat, doston bo'lur sayli, de,
O'zim ham xizmatga qo'llim boyli de,
Rozi bo'lib, xo'p boramiz, mayli de.

Mehmonim suhbatga dili bog'li de,
Past emas, sarkarda, o'zing chog'li de,
Go'ro'g'li ismli, Avaz o'g'li de,
Rozi bo'lib, xo'p boramiz mayli, de.

Shunda baxshi bobo Go'ro'g'li sultondan bu so'zni eshitib, Bektosh arabga qarab javob berib: — Mayli, mehmonlarni siznikiga olib boraman, deb turibdi. Bektosh arab «Juda yaxshi, mehmonlarni birato'la o'zim olib ketaman», — deb otidan tusha berdi. Go'ro'g'li ham kiyinib chiqib, Bektosh arab ham yurak uchi bilan ko'rishib, quchoqlashibdi. Shunda Go'ro'g'li sulton hech kimga sir boy bermay, Avazxонни mingashtirib, Bektosh arab ham o'z otiga minib, butun qo'shinlari bilan dov-dastgoh qilib, Go'ro'g'li sultonni mehmonlikka iyartib ergashib keta berdi. Baxshi bobo ham cho'ntoqqina eshagini minib, yomon xurjunchasiga do'mbirasini solib, pechkasini qaytarib, cho'ntayib, Ovul pattaga o'xshab jo'r-tanglab, bu ham Go'ro'g'li sulton oshnasining orqasidan keta berdi. Kun kech bo'lib, yo'lida Harishohga tegishli bir qo'rg'onga mehmon bo'lishdilar. Shunda qo'rg'on begi Bektosh arabni ovloqqa chaqirib, bir necha joydan timsol keltirib, bir so'z dedi:

Mehmonni ko'rganda gulday tarzim bor,
To'qqiz turli ziyofatga qarzim bor,
Quv Go'ro'g'li oson qo'lga tushibdi,
Ani behush aylang degan arzim bor.

Topilmaydi bunday qulay gagirdak,
Bu ishni aylamak ertarak kerak,
Bachchag'ar ko'p ayyor, juda bir sarak,
Sharobga dorini joylamoq kerak.

Avazxонни chorlab olib dalaga,
Aldab o'tkazayik tablaxonaga,
Go'ro'g'lidan qo'yib buni panaga,
Baxshisimon bu odamxo'r baloga,
Dori berib hushin zoyil aylasang,
Qo'lini zanjirlab mahkam boylasang.
Tanba tirab tomga qamab taylasang,
Avazin qaytishga moyil aylasang.

Xunxor shohga eltib olib qizini,
Barcha elu xalqni qoyil aylasang.

Senga so'zlab turgan menday bek bo'lar,
Turkmanlarning ichi to'la kek bo'lar,
Shundan keyin Go'ro'g'li ham o'shalar,
Olchi bo'lmay, jon oshig'i pik bo'lar.

Bu so'zni qo'rg'on begidan Bektosh arab eshitib, xayoli tarlon bo'lib: to'g'ri aytasan. Bunday qilay gagirdak qay erda bor. Bo'lmasa, sen Avazxonni chaqirib, ot sotaman, deb bir suluv otga xushtor qilib aldab tur. Men sharobga behush dori solib, Go'ro'g'li bilan baxshi bobog'a berib, hushini og'daraman, deb bek bilan gapni bir qilib, maslahatni bir joyga qo'yib, Go'ro'g'li sultonning oldiga kirib o'tirdi. Va'daning payti etib, qo'rg'on begi Avazxonni imlab dalaga chaqirib, Bektosh arab: — Qani Go'ro'g'li do'stim, ovqat pishguncha oz-moz yayrashib, otamlashib, bir piyoladan ichishib o'tiraylik, deb baxshi bobo bilan Go'ro'g'li sultonga behushdori solingan sharobdan bir-bir piyola qo'yib berib, boshqa toza sharobdan ichib shunda baxshi bobo bilan Go'ro'g'li sulton sharobni ichib, erga yalmayib yiqilib tushdilar. Shu payt daladan yasovullar kirib, Go'ro'g'li sulton bilan baxshi boboni po'lat band qilib, shu mehmonxonaga qamab, orqasiga og'ir tambalardan tirab ketishdilar. U yoqda Avazxonga qo'rg'on begi bir suluv jiyrонни ko'rsatib: Turkman og'angga ayt, shu otni senga olib bersin. O'zi ham uncha qimmat emas. Uch yuz ellik tanga bersa, bo'ladi, deb andarmon qilib turgan edi. Yasovullar borib Avazxonni bog'lab olib o'ziga ko'rsatgan jiyronga mindirib, Bektosh arab boshliq G'irkо'kni etaklab, Harishohning o'r dasiga qarab keta berdilar.

Bir pilla Go'ro'g'li sulton o'ziga kelib, baxshi bobosini uyg'otib, bir so'z dedi:

Bu qanday voqeа, qanday alomat,
 Yo bo'ldi o'xshaydi zo'r qiyomat,
 Baxshiyo bormisan sog'u salomat,
 Ko'targin boshingni bizga ne bo'ldi?

Bu yerda qolibmiz po'lat band bo'lib,
 Bir ish qilgan o'xshar dushmanlar kelib
 Avaz qani, bizlar g'aflatda qolib,
 Ko'targin boshingni, bizga ne bo'ldi?

Jo'rtaga do'st ekan bizga Bektoshi,
 Behush dori ekan u bergan oshi,
 Quloq sol, kelarmi Avaz nolishi,
 Ko'targin boshingni, bizga ne bo'ldi?

Albatta bu ishlар dushmanning ishi,
 Dushmanlik aylabdi Bektoshday kishi,
 Quloq sol, kelarmi Avaz nolishi,
 Ko'targin boshingni, bizga ne bo'ldi?

Hay attang-a, nishab joyda tayrildim,
 Angsizlikman qanotimdan qayrildim,
 Temir qanot polopondan ayrildim,
 Quloq sol, kelarmi Avaz nolishi,
 Ko'targin boshingni, bizga ne bo'ldi?

Hali ham bor qulog'imning garangi,
 Yomon bo'ldi buning oriman pangи,
 Quloq sol, kelarmi Avaz nolishi,
 Ko'targin boshingni, bizga ne bo'ldi?

Go'ro'g'li sultonning bu so'zini baxshi bobo
 hushining oralig'ida eshitib, ingranib, boshini
 ko'tarib, Go'ro'g'li sultonga qarab, bir so'z dedi:

Quloq sol, Go'ro'g'li, turli na'maga,
 Bektoshning do'stligi uchmish havoga,
 Havas qilib Sarvinozday o'dag'a,
 Bizni shuytib solgan ekan baloga.

Mard yigitlar minar doim bedovga,
 Bahorda o'ynashib chiqarlar tovga,
 Asli gapning tubi bunday Go'ro'g'li,
 Xunxor qo'ygan Sarvinoz qizin garovga,

Jar soldirgan bozorma-bozor yurganga,
 Eshittirgan barcha xudoy urganga,
 Ovoza tarqatgan shahar qo'rg'onga,
 Xunxor va'da qilgan Sarvinozini,
 Avazxonni unga eltid berganga.

Bu gapni eshitgan Bektosh xotinboz,
 Havasi ketibon, qilganda parvoz,
 Yuragin qizdirib sho'x Sarvinoz,
 Bu ishni aylagan undan qay og'oz,
 O'ylamagan senman menga, Go'ro'g'li,
 Po'latband bo'libmiz hali bul ham oz.

Shunda Go'ro'g'li sulton: — Voh enag'ar, hali
 Avazni Xunxorga eltid, maqsadiga yetib bo'bdi, —
 deb bir chirani, po'latband zanjirlarni uzib, baxshi
 bobosining band zanjirlarini ham yilib uzib, bo'lak-
 bo'lak qilib tashlab, tomoning eshigini tepib sindirib,
 tashqariga chiqib, qorovullarning ilinganini tutib
 o'ldirib, G'irotdan darak topmay, boshqa bir ot topib
 minib, bobosiga ham qo'rg'on begining tablaxona-
 sidan bir ot olib mindirib, ikkovi iz olib toqqa qarab
 keta berdi. Bektosh arab bo'lsa, bir tog'da dam olib,
 Avazxonni bir cho'ng'olga berkitib bog'lab qo'yib,
 kayfini qilib o'tirgan edi. Askarlari bo'lsa yana qo'r-
 g'onga borib qo'ngan edi. Shunda Avazxon Go'ro'g'li
 sulton bilan baxshi boboning o'tayotganini ko'rib,
 o'zini bildirib, Go'ro'g'li sultonni chaqirib, bir so'z
 dedi:

Bektosh do'sting ayyor ekan,
 Bemaza bozingar ekan,
 Oshnoligi bekor ekan,
 Men bundaman, kel bu yonga.

Men bu yerda qo'llim bog'li,
 Armondadirman ne chog'li,
 Yolg'iz o'zim yurak dog'li,
 Men bundaman, kel bu yonga.

Meni sendan yashirdilar,
 Alamimni oshirdilar,
 Aldab qo'lga tushirdilar,
 Men bundaman, kel bu yonga.

Arzim eshit turkman og'a,
 Arabing hech emas oshna,
 Qo'llim bog'li, qaddim duto,
 Men bundaman, kel bu yonga.

Cho'ng'al ichra Avaz o'g'lon,
 Dod deb chekar ohu fig'on,
 G'amlar bilan bag'rimdir qon,
 Men bundaman, kel bu yonga.

Cho'ng'olning pastida pusinib yotgan Bektosh arabning qorovullari Avazxonning bu chaqirig'ini eshitib, nima qilarini bilmay qola berdilar. Go'ro'g'li sulton bo'lsa, shofi qo'lida, Avazxon dilida, baxshi bobosi oldida chirpinib cho'ng'olga qarab, burilib bora berdi. Go'ro'g'li sulton Bektosh arabning qorovullari ustidan borib qolib, to'xtang badbaxtlar, deb qorovullar hushini qochirib, ko'zlarini katta ochirib, mahkam qilib bog'lab band qilib, Avazxon o'g'lini ko'rib, bandini yechib, qorovullar yo'l ko'rsatib, Bektosh arab ayyor, yana bir necha odamlar bilan kayf qilib o'tirganlarining ustidan borib qolib: — Qani, Bektosh arab, oshnolikni bir suluv qiz deb barbos berdingmi? Shuytib, xatoga ketganiningni bo'yningga olib, qayta boshdan mening bilan do'st bo'lasanmi yoki mening bilan maydonda jang qilasanmi. Qaysisini xohlasang, men tayyor, — deb baxshi bobo va Avazxonni ergashtirib, cho'ng'aldan enib bora berdi.

Shunda Bektosh arab: — Agar sening bilan do'st bo'lmoqchi bo'lsam ham, bir kurashay. Mardlar kurashib do'st bo'ladi, degan, — deb yechinib maydonga chiqmoqchi bo'la berdi. Go'ro'g'li sulton ham Bektosh arabning avzoini ko'rib, Avazxonni bir balandlik joyga qo'yib, bu ham yechinib maydonga tushdi.

Shuytib, Go'ro'g'li sulton bilan Bektosh arab bir sira aylanishib, tutinib qolib, ancha olishadi. Bektosh arab ham ko'p zo'r ekan. Hech Go'ro'g'li sultonga o'ng'ayini bermadi. Maydon toza shudgor bo'lib ketdi. Oxiri Go'ro'g'li sulton g'ijirlanib, Bektosh arabni shunday tutib, yelkasidan oshirib otib yubormoqchi bo'ldi. Lekin Bektosh arabning ko'ylagi sirilib ketib, Go'ro'g'li sultongning qo'li Bektosh arabning yalan-g'och orqasidan toyib ketib, Bektosh arab omon qoldi. — Barakalla, kuchingga qoyil bo'ldim, Go'r-o'g'li, endi sendan yiqildim hisob. Mening o'tgan gunohlarimni kechir. Kechdim Xunxorning o'zidan ham, qizidan ham. — deb bir necha joydan timsol keltirib. Go'ro'g'li sultonga qarab, bir so'z dedi:

Do'stim, kechir gunohimni,
Borib ko'r manzilgohimni,
Oq rabotga eltib seni,
Yuvay ro'yi siyhimni.

Nafsim meni olib qochdi,
Shuytib do'sting yo'l adashdi,
Xunxor qizin olaman, deb
Senga har na zahrin sochdi,
Avazingni olib qochdi.
Ur endi do'stim, bu boshdi.

Kechdim endi Xunxoridan,
Xunxorning har na boridan,
O'zingga bo'layin navkar,
Chiqib shoh ixtiyoridan.

Nafs olib ixtiyorimni,
Yo'qotdim har na borimni,
Eshitgin ohu zorimni,
To'kmagin endi orimni.

Adashdim sharmisoringman,
Kechirsang do'stu yoringman,
Qator xizmatda noringman,
Asiring bandzoringman.

Bu so'zlarni deyar Bektosh,
O'zim seningman teng qurdosh,
Kechir, do'stim, gunohimni,
Yurayin bo'p senga yo'ldosh.

Bu so'zni Bektosh arabdan eshitib, Go'ro'g'li sulton: «Buning gunohini kechirsammikan, kechirma-sammikan», — deb o'ylanib qoldi. Shunda baxshi bobosi sozini qo'liga olib, bir maqomga solib chertib, bir necha joylardan timsot keltirib, Go'ro'g'li sultonga qarab, bir so'z dedi:

Eshitgin, sultonim, do'sting so'zini,
Ko'p eganman shu Bektoshning tuzini,
Dasturxonni haqi tushdim o'rtaga,
Nobud qilma shu arabning o'zini.

Rostlik bilan yosh oladi ko'ziga,
Yomon bo'lsa, nur enmasdi yuziga,
Nobud qilma shu Bektoshni, Go'ro'g'li,
Kirgandir bu Qo'rg'onbegi so'ziga.

Qizilboshning chikoridir ishlari,
Maymunday surraygan so'zoq tishlari,
Hech kimga yoqmaydi rav-rav deyishlari,
Bir qarich jun bo'lar ko'krak to'shlari.

O'q ilonday bo'lar qalam qoshlari,
Shunday bir buzuqlik shumlik ishlari,

Hoyvol aylab ajdahoday qizlari,
Arabni ozg'irgandir ovboshlari.

Shu Bektosh gunohin tilaydi baxshi,
O'miga begini o'ldirgan yaxshi,
Soz bilan qo'shiqdir qo'shiqning naqshi,
Arabni boz yana oshno aylagin.

Bu so'zni Go'ro'g'li sulton eshitib, mardning ishi kechirmak, xatolarni uchirmak, deb Bektosh arabni qayta boshdan quchoqlab, navozish qilib, undan keyin ig'vogar, deb aybni qo'rg'on begiga to'nnkarib, qo'rg'on begini zo'rda itqitib o'ldiribdi. Qorovullarning ham gunohidan o'tibdi. Bektosh arab yashirib qo'ygan G'irko'k otni olib chiqib, Go'ro'g'li do'stiga beribdi. — Endi, do'stim Go'ro'g'li sulton, sen shunda tursang, men askarlarimni qo'rg'onдан olib qaytib, undan keyin seni Oqrabotga mehmonlikka olib ket-sam, — deb Go'ro'g'li sultondan iltimos qildi. Go'ro'g'li sulton Bektosh arabning iltimosiga ko'nib, Avazxon bilan shu tog'ning cho'qqisida qoldi. Endi gapni Xunxorshohdan eshititing: Bektosh arab: «Go'ro'g'li xarduzni tutib, temirband qilib qamab tashlab, Avazxoni xizmatingga olib borayapman», — deb Xunxorshohga chopar jo'natgan edi. Chopar Xunxorshohga yetib, xabar berib, Xunxorshohning har mo'rti shopday, og'zi ko'hna qopday bo'llib, Kosamanning ukasi Do'samanni besh yuz askar bilan Bektosh arabning oldiga peshvoz chiqardi. Bektosh arab pastki qo'rg'onga tushganda Do'saman kelib qolib, Avazxoni so'rabi. Bektosh arab: — Men Avazxoni Go'ro'g'li sultonga qaytarib berib, qaytadan uning bilan do'stlashib, askarlarimni qaytarib olib ketgani keldim, — debdi. Shuytib hamma gaplar Do'samanaga ma'lum bo'llib qoldi. Do'saman darrov shu erda ayyorlik qilib: — Bo'lmasa, men ham Go'ro'g'li sultonga qaytaman. Endi, jo'ra, nima bo'lsa ham kun

kech bo'lib qoldi. Bugun shu qo'rg'onda qo'nib, yerta bilan Go'ro'g'li sultonning oldiga chiqamiz, — deb Bektosh arabni boplab tushirib, shu kecha ham pastki qo'rg'onda bo'lishdilar. Kechasi Do'saman: «Xunxorday shahanshohdan bir xarduz Go'ro'g'li turkmanga qaytgan odamning jazosi o'lim», — deb ig'vo tarqatib, Bektosh arabni uyqusida bog'latib, ertasiga o'zining otiga ortib, hali Go'ro'g'li sultonning urushini ko'rмаган Do'saman Bektosh arabning ham askarlarini o'ziga tobe aylab, o'n ikki yarim ming qo'shin bilan Go'ro'g'li sultonning ustiga bostirib kela berdi. Cho'qqida Avazxonni pastlikka tomosha qildirib o'tirgan Go'ro'g'li sulton qarasa, pastki qo'rg'on tomondan bir to'da qo'shin jazoyillarini jizzilatib izillashib, to'plarini guvillatib, tog'larni huwillatib kelayotir.

Shunda Go'ro'g'li sulton: «Ha ukkag'ar arab, toza ikki yuzli odam ekan», — deb Avazxonni cho'qqiga qo'yib, o'zi G'irko'kni zartang-zabartang aylab, urushga choq bo'lib turdi. Kelayotgan qo'shin ham yaqinlab qoldi, Shunda Go'ro'g'li sulton isfahoni nayzasini qo'liga olib, G'irko'kni o'ynatib chirpinib, qo'shinga qarab keta berdi.

Quloq soling suxanvorning so'ziga,
So'zlar ekan g'ayrat olib o'ziga,
Daryoday bo'p to'lib toshib Go'ro'g'li,
Chibincha porimas qo'shin ko'ziga.

Jonivor bedovi og'zin ochadi,
Urush desa, shirin jondan kechadi,
Qo'shinni aylanib shunda G'irko'kot,
Go'ro'g'li egasin olib qochadi.

Baland cho'qqi aylanasi cho'rqli,
Bedov degan har nimadan hurkami,
Ot chopmoqqa asli usta Go'ro'g'li,
Otin olib qochganiga qo'rqami?!

Shundayda qaytarma, kelar g'ayrati,
Tog'ni bosib osmon misol haybati,
Tirqiratib qizilboshni quvladi,
Tishin tishlab hay-haylagan haybati.

Endi ko'ring sulton qirg'in boshladi,
Nechovning kallasin uzib tashladi,
Bir xilining miyasiga mushtladi,
O'lganlari yotib yerni tishladi.

Barcha qoyil bular mardning ishiga,
Yo'llaydimi qizilboshning qoshiga,
Yuzchasi o'lgan so'ng sag'al fursatda,
Qocha berdi bari tushi-tushiga.

Avval bilganlari endi o'ldek deb,
Go'ro'g'li qahriga duchor bo'ldek deb,
Do'samanga o'xhash gushitoblari,
Yoronlar, nima gap, nima bo'ldek deb.

Do'saman sira ham yonin berami,
Shuytmasi odamni xudoy urami,
Ming zo'r bo'lganda ham yolg'iz o'zi-ku,
Bir odamdan kishi qocha ko'rami?

Deb Do'saman lashkariga boqadi,
Ko'p qo'shinga uning o'zi soqadi(r)
Qayting jangga, deb chirpingan say,
Lashkarlari suvday oqib ochadi.

Shunda Do'samanning qayt, deganiga ham qaytmay, qirilgani qirilib, surilib, bulutday bo'lib to'rilib, o'lGANI o'lib, qolGANI qolib, qochib borayapti. Bektosh arab bechora bo'lsa, yetti zanjir bilan bog'langan, otiga qo'shib tang'ib tashlangan. Qora tulpori bo'lsa, buncha katta shobirni ko'rgandan keyin o'zidan-o'zi pishqirib, qo'shinni bir-ikki martaba oralagan, otdan og'ib ketib uzangiga qoptirilib, u yog'i otga band bo'lgani uchun ayrilmay sholbirab qolgan. Shunda

bechora Bektosh arab o'z holiga zor-zor yig'lab, bir so'z deb borayapti:

Qizilboshga tobe bo'lib yo' darig',
G'urbatlari maydonda holim na bo'ldi,
Nafsi havo yo'llariga chalg'ishib,
Mana bu maydonda holim na bo'ldi?

Xotin dedim, kechdim o'sgan elimdan,
Ayrilib necha bir jonus dilimdan,
Ana endi na ish kelar qo'llimdan,
G'urbatlari maydonda holim na bo'ldi?

Saylab mingan otim yetar boshima,
Dushmanidan o'zga yo'q tegra-to'shima
Go'ro'g'li do'stim ham kelmay qoshima,
Mana bu maydonda holim na bo'ldi?

Otdan tushay desam qo'llarim bog'li,
Ne bir xafalarman yuragim dog'li,
Hech bo'lmasa kelmas do'stim Go'ro'g'li,
G'urbatlari maydonda holim na bo'ldi?

Kimsasiz sudralib boradi Bektosh,
Jigar bandlarimni ko'rsam edi kosh.
Shuytib bunda oqib ko'zdan qonli yosh,
Mana bu maydonda holim na bo'ldi?

Odamning ofati bo'lgan bunday marakada har kim o'z joni bilan bo'lib, qochgan qutilib, qochmagan tutilib soyutlar so'tilib, Go'ro'g'li sultonning zARBini ko'rmanlar ko'rib, ko'rganlar allaqachon itday hurib, qochib ketib, Xunxorning yo'lini tutib, shuytib, uch-to'rt soatning ichida dushmanidan asar ham qolmay to's-to'poloni chiqib, bir xil qo'rkoqlari jar-larga biqib, jo'rttadan o'lik desin, deb og'iz-burniga tuproq tiqib yotibdi.

Shuytib, Go'ro'g'li sulton dushmaniga g'olib kelib, otidan tushib, ham otiga, ham o'ziga dam berib, nayzasiga suyanib turgan edi, bir pilla G'irko'k kish-

nab, shu yoqqa qarab, tag'i bir ot kishnab kela berdi. Bu Bektosh arabning qora tulpori edi. Go'ro'g'li sulton qarasa, Bektosh arabni otiga yetti zanjir bilan band qilib tashlabdi. Bechora Bektosh arab otdan og'ib sudralib o'libdi. Endi Go'ro'g'libek sulton Bektosh arabning haqiqiy do'st ekanligini, Do'samanning hiylasi bilan shu ahvolga tushganligini bilib, afsuslanib turganida Bektosh arabning mirzosi pusinib yotgan joyidan chiqib kelib, voh beginm, deb o'zini Bektosh arabning ustiga tashladi.

Shunda Go'ro'g'li sulton Bektosh arabning mirzo-siga qarab, undan so'rab, bir so'z dedi:

Qay yerda Bektoshning manzilxonasi,
Manziliga borsin jonsiz tanasi,
Do'stimning yo'q ekan menga ginasi,
Ko'rsat, qayda, makoniga eltayin.

Tog'dan toqqa oshgan Bozirgon xo'ja,
Shahid bo'lqa, haqda topsin daraja,
Shu yerda yog'ochdan yasab saraja,
Turar joyi — makoniga eltayin.

Oqrabot degani qaysi tomonda,
Sho'rli do'stim ado bo'ldi armonda,
Hay attang-a, qildi dushmani xanda,
Ko'rsat menga, makoniga eltayin.

Bu do'stimning bordir bola-chaqasi
Tanga nimkam bor-ku mayda chaqasi,
G'azotda sho'rlining kuydi chaqasi,
Turar joyi makoniga eltayin.

Dushmanlarga shashtim doim g'ov bo'lsin,
Har bahorda manzilgohim tov bo'lsin,
Boshla ottlar Oqrabotga rav bo'lsin.
Yo'lni ko'rsat, makoniga eltayin.

Go'ro'g'li aytadi senga arz holini,
Ko'z yoshi ho'l qilib otning yolini,

Oqrabotning ko'rsat endi yo'lini,
Buni joyi — makoniga eltayin.

Shunda mirzo Go'ro'g'li sultondan bu so'zni eshitib, darrov olti bo'lak yog'oehdan bir saraja bog'lab, iplar bilan berkitib chog'lab, mana sultonim, deb turdi. Go'ro'g'li sulton G'irko'kdan tushib, Bektosh bechoraning jasadini sarajaga solib, sarajaning bir bog'ini G'irko'kning orqa tomoniga bog'lab, yana bir yog'ini mirzoning otining oldingi tomoniga tang'ib: — Ana endi Mirzo uka, hayda otingni, — deb asta-asta Mirzo bilan yurib, cho'qqidan Avazxonni mingashtirib, Bektoshning otini yetaklab olib, Oqrabotga qarab kelaberdi. Gapni qisqaroq qilsak, Oqrabotga ikkinchi kuni kechqurun Go'ro'g'li sulton kirib borib, voqeadan sho'rli Gulnoz xabardor bo'lib zor-zor yig'lab, bir so'z dedi:

Tanda joning buytib ado bo'lgancha,
O'zginamga shukur qilsang, bo'y midi,
G'azotda joningdan judo bo'lguncha,
O'zginamga shukur qilsang bo'y midi?

Nafsing seni olib qochdi, ne bo'ldi,
Toza nihol eding, nogahon so'lding,
Bedovga sudralib qaylarda qolding,
O'zginamga shukur qilsang bo'y midi?

Nafsing seni qamrab oldi o'ziga,
Adashtirib soldi ajal iziga,
Yetdingmi Xunxorday shohning qiziga
O'zginamga shukur qilsang, bo'y midi?

Senman bosh qo'shgandim yomon bo'lsam-da,
Sin-sinbotdan anche orqa qolsamda,
Botalaring bor edi, shukur orqangda,
O'zginamga shukur qilsang, bo'y midi?

Gulnozga bu olam endi tor bo'ldi,
G'amu kulfatlarga girifstor bo'ldi,

Kimlar unda senga do'st-yor bo'ldi
O'zginamga shukur qilsang, bo'yymi?

Shunda Go'ro'g'li sulton G'irko'kdan tushib, Gulnozoya tasalli berib: — Bu mening bilan do'st kirishgan edi, taqdiri yomon ekan, kuni bitib, vaqtı yetgan ekan. Bechora Xunxorning sarkardasi Do'samanning makriga ilinib halok bo'ldi. Endi xafa bo'lishning soydası yo'q, deb Bektoshning jasadini olib, Mirzo bilan ko'tarib, uyiga tushira berdilar. Shunda Gulnozoy zor-zor yig'lab, tag'i bir so'z dedi:

Naylasin, hasratda yig'laydi Gulnoz,
Qanchalar yig'lasa ham, shuncha oz,
Arabiston ketgan edi Shoniyoz,
Qolar bo'ldi jon otasin ko'rmayin.

Shoniyozim hali o'n uch yoshida,
Borib o'tirgandi Rayhon qoshida,
Ne savdolar bo'lib endi boshida,
Qolar bo'ldi jon otasin ko'rmayin

Ota yurtin ko'rsin deya jo'natdim,
Bunda o'zim yor jasadin tunatdim,
Shoniyoz dedim, yurak-bag'rim qonatdim.
Qolar bo'ldi jon otasin ko'rmayin.

Netar edi borib arab eliga,
G'am qadaldi bunda Gulnoz diliga,
Yo olib, yo olmay anda tiliga,
Qolar bo'ldi jon otasin ko'rmayin.

To'tigul to'tiday sayrar qizim bor,
Za'saron kelbatga sariq yuzim bor,
Hozircha oldimda shu yolg'izim bor,
Shoniyoz qoldi jon otasin ko'rmayin.

Bu so'zni Go'ro'g'li sulton Gulnozoydan eshitib, fotiha qilib, shu kech Oqrabotda tunab, o'zini toza tanitib: — Men bu Xunxor yurtiga yot odamman.

Tong otmay ketishim kerak. Mirzo Bektosh arabning jasadini otga tirkab, sarajaga solib keldim, — deb qo'yaqolsin. Nimaga deganda otang Harishoh Xunxorga qaram kishi.

Shunday qilinsa, bu mirzoni ham bir nima qilishi mumkin, — deb G'irko'kka mingashtirib, Oqrabotdan chiqib, Badbaxt beli qaydasan, deb jo'nab kela berdi. Go'ro'g'li sulton hech vaqtida bunchalik muzaffar bo'lib qaytmagan edi. Buni G'irot bilib, bir maqomga solib yurib, Badbaxt belidan oshib, Chambilga yuzlanib kela berdi. Shuytib, bir necha vaqtlardan keyin Chambilning minor, peshtoq, chortoqlari yaltirab ko'rina berdi. Shunda Go'ro'g'li sulton Avazxonga qarab, Chambilga keldik o'g'lim, deb xursand bo'lib, Chambilning ko'rifikli joylarini Avazxonga ko'rsatib, bir so'z deb kelayotir:

Har pilla yaraydi yigit hunari,
Turkman yurti endi bundan enari
Qaragin ko'tarib boshing Avazxon,
Ana tik bo'p turgan Chambil minori.

Ostimda o'ynaydi tilisiz pirog'i,
Ana turgan sarchashmaning qarog'i,
Hovuz atrofida tolu teragi,
Chambil bo'lar ul qoradan narrog'i,

Yomon bo'lar odamzodning intiq muntog'i,
Cho'nqayganlar Chambilning peshtog'i,
Ko'm-ko'k bo'p ko'ringan bog'u chorborg'i,
Ana pesh ayvondir Chambil chortog'i.

Darvoza boshida elu siynasi,
Asli mard kishining yo'kdir ginasi,
To'rt burchakda turganlari qanqayib,
Chambilning to'rt naqshin jebaxonasi,

Sirdagi tekislik Chambil maydoni,
Mashq qiladi anda qirq bir polvoni,

Borganda ko'rasan menim, Avazxon,
Chambilda turganning bo'lmas armoni.

Go'ro'g'libek borib otidan tushar,
Otining oyog'iga banotlar to'shar
Og'a Yunus chiqib seni ul qilar,
Pariga ul bo'lgan, bilgin, yuz yashar.

Ana Go'ro'g'li sulton Chambilga yetib bordi. Buni bilgan Xoldor maham, Hasanxon, qirq yigitlar Cham-bilning darvozasidan to Go'ro'g'li sultonning mayxonasiga poyondoz to'shab, G'irko'kni shu poyondozning ustidan yurgizishib, bardor-bardor qilib, Go'ro'g'li sulton bilan Avazxonni mayxonaga tushi-rib, maylar suzilib, bazm — suhbat qizib, qirq yigitlar xizmatni qila berdilar. Shunda Go'ro'g'li sulton qo'liga bir piyola may olib, Avazxon o'g'liga qarab, dimog'i choq bo'lib, bir so'z dedi:

Davron-davron, bizning davron,
Avaz, aliyor-aliyor,
Chambilbelga o'zim sulton,
Jonim, aliyor-aliyor.

May ichaylik yoru-yoron,
Chambilbelda shodu xandon.
Dol bo'yingdan Avaz o'g'lon,
Bolam, aliyor-aliyor.

O'ng yonimda Hasan jonim,
Chap yonimda Avazxonim.
Endi hargiz yo'q armonim,
O'g'lim aliyor-aliyor.

Alamlar orqa taylansin,
G'animning qo'li boylansin,
Qo'lingdan kosa aylansin,
Kosa, aliyor-aliyor.

Aqlu hushlar zoyil bo'lsin,
Dushman bizga qoyil bo'lsin,

Barcha mayga moyil bo'lsin,
Sharob aliyor-aliyor.

Go'ro'g'li qaynabon toshar,
Qo'shiq aytSAM hovrim tushar,
Ikki yonda ikki bolam,
Tarang bo'lib kayfim oshar.
Suhbat aliyor-aliyor.

Ana shuytib, Go'ro'g'li sulton, Xoldor mahram,
Hasanxon, Avazxon, qirq yigit va parilar har kuni
bazmu suhbat aylab, murod-maqsadlariga yetdilar.





MALIKA AYYOR

Aytuvchi: *Fozil Yo'ldosh o'g'li*

Yozib olvuchi: *Muhammadisa Ernazar o'g'li*

Ilk bor nashrغا tayyorlovchi: *Hodi Zarif*.

To'ldirib, qayta nashrға tayyorlovchi: *Mamatqul Jo'rayer*

Go'ro'g'lining yurtini Chambil deydi. Chambil qanday? Chambil shunday Chambil: oltmis obxonali, yetmish jevaxonali, sakson sardobali, to'qson to'pxonali Chambil. Chambil elida Go'ro'g'li zo'rabor, qirq olti sardor, to'rt yarim lak bedovsuvor, chiltan-larning biri Soqibulbul degan sayisi bor. Go'ro'g'lining zo'r deb ta'rifi ketgan, zarbasi toshdan o'tgan, ul Go'ro'g'li keldi, desa yig'lab yotgan bolasini yupatgan, Isfahonda ishlatgan qilichining ishlovi yetgan, tekkan omon qolmasin, deb zaharning suvin yalatgan, Chambilda davronni surib yotar Go'ro'g'li sulton. Ana endi bir kunlari Chambilda davron surib, qirq yigit bilan, Hasan, Avazi bilan, qancha amaldori bilan suhbat qurib o'tirib, Soqi degan xizmatkorini chaqirib:

— Soqijon, G'irko'k otni abzallab, choqlab olib kel, — dedi. — G'irotni minsam, Shakar ko'liga borsam, dovul tuyib, ko'lga qushimni solsam, Shakar ko'ldan so'na-suqsurni olsam, so'na-suqsurni olib keilib qirq yigitga chulon bersam, — dedi.

Bu so'zni Soqibulbul eshitib Go'ro'g'liga aytdi:

— E. Go'ro'g'libek, bu oyni nima oy deydi, safar oyi deydi. Safar oyinda o'n sakkiz payg'ambar safar qildi. O'n sakkiz payg'ambar ham safar qilib, yo'ldan omon kelgan emas. Amir Hamza bul oyda safar qildi. Uhud tog'ida fano bo'ldi. Ayyub payg'ambar safar qildi, taniga qurt tushdi. Zikriyo payg'ambar safar

qildi, boshiga ari keldi. Yahyo payg'ambar safar qildi, ul kishi yosh o'ldi. Shunday azizlar safar oyida safar qilib, omon kelgan emas. Shunday odamlar omon kelmaganda sening [haddingmi] bu safar oyida safar qilib, omon kelmak? — dedi. Bu so'zni Soqi aytdi, ko'ring Go'ro'g'li marddi, g'ayratgi g'ayratga yetdi, achchig'i chillali qishday murtiga chappa qaytdi. «Mening shashtimni qaytarding», — deb Soqiga qarab har tebrandi, tebranganida quymuchi yerga to'rt enli botdi. Bu so'zni Go'ro'g'lidan Soqibulbul eshitib, Go'ro'g'lining achchig'i kelganini bilib, toshtablaga qarab burilib, G'irotga jo'nab ketdi.

Hamisha bundan ilgari G'irko'k otga bir soat, ikki soat ilgari chiltanlardan xabar kelib turar edi. Lekin bu shikorda G'irko'k otga xabar kelgani yo'q edi. G'irotning ko'ngliga keldi: «Menga chiltandan xabar kelgani yo'q edi. Bu Soqibulbul bir nimaga kelayotir ekan?» — dedi. Bu yoqdan taaddi yeb kelgan Soqi, ko'nglini xushladi, so'ramasdan G'irko'k otning jilovidan ushladi. Xonning nazarkarda G'iroti Soqining belbog'idan tishladi, olib yerga bir urdi. Soqi boyoqish to'qqiz yumalab o'rnidan turdi.

Ko'ring Soqi marddi, qilib yotir siyosatdi: «Yomonlagur, jayratmasam, yoyga choqlab otsam, besarzandni yig'latmasam, katta chorak go'shtingni bir tangadan sotmasam, o'zimning tegishimni g'ingqillatib yutmasam», — deb shiqirlatib sari yoyni tortdi, yoyning o'qi yashinday bo'lib oqib ketdi, toshablani teshib o'tdi, aqli shoshib xonning G'iroti tappa tushib yotdi, ot o'zini o'ngarguncha G'irotning jilovini Soqibulbul ushlab, G'irotni egarlab, choqlab, olib kelib Go'ro'g'liga to'g'ri qildi. Go'ro'g'li G'irko'k otning beliga minib, bo'ztarlon qushini qo'liga olib, Soqiga qarab aytdi:

O'zimning holimni o'zim bilayin,
Zebit cho'lga, Shakarko'lga borayin,

Dovul tuyib, ko'lga qushim solayin,
 Kelib qirq yigitga chulon berayin,
 Soqijon, taningdan boshing yulayin.

Ko'ring Go'ro'g'li marddi, mindi bedov otdi, qis-tab yo'l tortdi. Zebit cho'lda Shakarko'lga yetdi. Ko'lga borib dovul tuyib qushni solib, shunday qaradi, xudoning qudrati, pirning karomati, shunday cho'lda bir qo'rg'onи azim paydo bo'ldi. «Qanday qo'rg'on ekan?» — deb Go'ro'g'li bordi. Ko'rsa, shunday qo'r-g'on: kungirasi po'latdan, darvozasi zumratdan, bo'-sag'asi Bag'doddan. Shunday ochib ichkari kirdi. Ichkari kirsa, olmalar pishib yotar, tagiga tushib yotar, gullar ochilib, bulbullar bir-biriga chaq-chaq uchirib o'tiribdi. Uch ko'shk, ichkima-ichki, zinapoya, zer-tang-zabartang, joylar tuzalgan, yaxshi to'shaklar to'-shalgan, sharobi antahurlar to'kilgan, suvlar sepil-gan, namoyishga chini gujumlar tikilgan, gujumning soyasiga jinqarcha, musicha, murotalibacha — ja'mi qushlar yig'ilib, o'rtada bir laylakni sozanda qilib, ayttirib o'tiribdi.

Bu alomatni Go'ro'g'li ko'rib, hayron bo'lib turib edi, osmondan bir ko'k kaptar quyulib kelib, bir og'-nab turib, bir surxayil gardon, ofatijon, pistadahan bir ajab nozanin pari bo'lib turdi. Bu parining jamoli-ga Go'ro'g'libek qaradi: irki olmaday pishgan, qora zulfi och beliga tushgan, ko'rganning aqli shoshgan, jamoliga oyu kunlar talashgan ajab bir parizod. Buni Go'ro'g'li sulton ko'rib, oshiqi beqaror bo'lib, ul parizodga qarab: — Asli joying, mamlakating qayerda? — deb, so'rab turibdi:

Davlatimdan sholi-sholdam o'rayman,
 Gul tarzim sarg'ayib, senga qarayman,
 Gul yuzli jononim, sendan so'rayman,
 Bir pari-paykarim, qaydan bo'lasan?

Ostimda bedovim o'ynar yuz alvon,
 Olmos po'lat belda, egnimda qalqon,

Arzimni eshitgin, ey, pari-paykar,
Chehrasi xandonim, qaydan bo'lasan?

Zarafshon zulfsingga uribsan shona,
Xinoli qo'llaring bo'yabsan qona,
Yusuf kabi meni solma zindona,
Zulayho nishonim, qaydan bo'lasan?

Boshingga kiyibsan davlatli toji,
Ko'rgan odam gul yuzingning muhtoji,
Ko'zimning ravshani, boshimning toji,
G'amzasi paykonim, qaydan bo'lasan?

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
Gulni ko'rsa, mast bo'p sayrar bulbullar,
Maloyik suratli, gul yuzli dilbar,
Rostin degin, dilbar, qaydan bo'lasan?

Dardli qul dardimni kimga yoraman,
Ayriliq o'tiga bag'ri poraman,
Shahring, oting aytsang, izlab boraman,
Maloyik suratli, qaydan bo'lasan?

Go'ro'g'li der, jigar-bag'rimni dog'lab,
Bor umrim yursam seni so'rog'lab,
Shahring aytsang, izlab boraman,
Rostin degin, dilbar, qaydan bo'lasan?

Ana shunda parizod Go'ro'g'lidan hu so'zni eshitib,
o'sgan elini, sog'u so'lini, sha'n-shavkatini, manzil-joyini Go'ro'g'liga bayon berib, bir so'z deb turibdi:

Davlatingdan sholi-sholdam o'rasang,
Kecha ko'rgan tushni kunduz jo'rasang,
Bir pari-paykar deb mendan so'rasang,
Men ham shahri Shabistondan bo'laman.

Men kelganman odamzodning qasdidan,
Izlasang topmaysan yerning ustidan,

Bir mazgilim kun chiqmagan go'riston,
Meni so'rsang, «go'riston»dan bo'laman.

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
Istambulda bir do'stim bor Zulfizar,
Enamning otidir pariyi Sipar,
Otamning otini Qosimxon derlar,
Shahrimming otini Torkiston derlar,
Bor, Go'ro'g'li, Torkistondan bo'laman.

Mavj urganda daryodayin tosharsan,
O'limasang dunyoda uzoq yasharsan,
Uch yuz oltmis Asqar tog'dan osharsan,
Undan so'ngra Qizilqumga tusharsan.

So'rab borsang, Ko'klam tog'day tog'i bor,
Ko'klam tog'da Boymoq devday devi bor,
Qistab yursang, oltmis yillik yo'li bor,
Malikada mayling bo'lsa so'rab bor.

Sizday bekdan jonin bormikin ayar.
So'ray borsang, Go'ro'g'libek nomdor,
Keldingmi, to'ram, deb qulochin yoyar,
Torkiston shahrida Malika ayyor,
Albatta, so'rab bor, Go'ro'g'li nomdor.
Bor, Go'ro'g'li, Torkistondan bo'laman.

Bu so'zni Malika Go'ro'g'liga aytib, bir ag'anab turib, kaptar libosini kiyib, falakka parvoz qilib, uchib jo'nay berdi. Ko'shk-ayvonlari ham falakka ravoq-qo'rg'onlari bilan ko'chib jo'nay berdi.

Bu alomatni Go'ro'g'libek ko'rib, xasa bo'lib, qo'lidagi tarlon qushning jig'ovulini olib: «Bor, sen jonivor ham mening qo'llimda qolib, nima bo'lasan?» — deb bo'shatib qo'yib yubordi. Bo'z tarlon qush ham falakka uchib ketdi. Shunda Go'ro'g'li G'irotning boshini burib, Chambilga qarab yo'iga kirib, ko'zini yoshib, o'zini otning yoliga tashlab, bu so'zni aytib bora berdi:

Jonim G'irot, molim G'irot,
 Seni mingan topar murod,
 Dam-badam yetkiz Chambilga.
 Shakarko'lga ovga keldim,
 Bir pari-paykarni ko'rdim.
 Yor ishqidan g'amga to'ldim,
 Ololmasdan endi o'ldim,
 Dam-badam yetkiz Chambilga.

Xafa salak soldi zulm,
 Obod bo'lgay o'sgan elim.
 Sensan nazarkarda G'irim,
 Dam-badam yetkiz Chambilga.

Ayriliqqa bag'rim dog'lab,
 Firoqig'a qonlar yig'lab,
 Yursam men yorni so'rog'lab,
 Dam-badam yetkiz Chambilga.

Jonim G'irot, molim G'irot,
 Yeming kishmish, to'tvang banot,
 Seni mingan topar murod,
 Dam-badam yetkiz Chambilga.

Bu so'zni Go'ro'g'libek aytib, kech bo'layin deganda, otini terlatib Chambilga kirib keldi. Soqi shunday qarasa, Go'ro'g'li sog' borib, salomat ovdan kelayotir. Soqi Go'ro'g'lini ko'rib: «Vaqti-zamonim to'lgan ekan, kunim bitgan ekan, ajalim yetgan ekan, boyagi gapni bejoy aytgan ekanman. Bu sog' borib, salomat ovdan keldi». Go'ro'g'lining tarziga Soqi qaradi. «So'na-suqsur ovlab kelaman», deb ketgan Go'ro'g'lining qo'lida bo'ztarlon qushi ham yo'q, so'na-suqsuri ham yo'q. Bekorga ko'tarilib, otini terlatib, bir o'zi sho'mpayib kelibdi.

Buni Soqi ko'rib, otning jilovini ushlab, ko'nglini xushlab:

— Go'ro'g'lijon, o'zingning holingni o'zing bilganning qani, maydonli kun G'irotningni yelganing qani,

Zebit cho'lga Shakarko'lga borganing qani, dobil tuyib qo'lga qushni solganing qani, Shakarko'ldan so'na-suqsur olganing qani, kelib qirq yigitga chulon borganing qani, mening tanimdan kallamni olganing qani, bizga sening sovg'a-shirolg'a olib kelganing qani? — dedi. Bu so'zni Go'ro'g'li eshitib:

— Soqijon, sen ham chiltanlarning biri, men oshib gapiribman. Bu se'limga tavba qilibman, — deb G'irotni Soqiga berib, qirq eshikli chillaxonasiga kirib, ko'kragini nam yerga berib, xasa bo'lib yotdi.

Oradan hafta-o'n kun o'tdi. Turkman elining dovjanjali ko'payib ketdi. Go'ro'g'lining Ahmad tog'asi yigitlarni yig'ib aytdi:

— Ey yigitlar, Go'ro'g'li turkmanlarning bekligini o'xshatolmaydi shekilli. Meni gilamga solinglar, bardor-bardor qilib, Go'ro'g'lining taxtiga mindiringlar, Turkman elining dov-janjalini so'rayin, Go'ro'g'lidan kelgan balo bo'lsa ko'rayin.

Bu so'zni Avazxon eshitdi, otasini izlab ketdi, chillaxonaga yetdi, borib qarasa, otasi — xon Go'ro'g'li nam yerga bag'rini berib yotibdi. Avazxon otasini bu ahvolda ko'rib, olisdan holu ahvol so'rab, bir so'z deb turibdi:

Ota, eshit men aytgan nolishimni,
Sel qilib to'karman ko'zdan yoshimni,
Och ko'zingni, ko'tar, ka'bam, boshingni.
Sardor beklar qildi elda maslahat,
Qo'lingdan ketmasin Chambilday elat.
Bu yotishing, ota, senga ne hojat,
Qo'lingdan ketmasin Chambilday elat.

Ota, eshit mening aytgan tilimni,
Sen turib suragin Chambil elingni,
Ota, xasa qilma menday ulingni,
Bu g'aflatdan turib, so'ra elingni.
Mehribonim, ka'bam otam, tur endi,
Jonim ota, mehribonim, tur endi.

Bu so'zni Avazxon o'g'lidan eshitib, Go'ro'g'li Avazxonga qarab, bir so'z deb turibdi:

Avazxon, quloq sol aytgan tilima,
 Qahrlansam qirov turar murtima,
 O'zim o'lmay kim keladi yurtima,
 Kelgan dushmanlarni bayon aylagin.
 Bolam, menga xabar bergin dushmanni.
 Qilib qo'yay dushmanlarning ishini.
 Xafa bo'lma, o'g'lim, mening ishimdan.
 Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,
 Olloh mening aqlu xushim oldimi?
 Arbaytindan [elga] dushman keldimi,
 Biror turli hukmi ravon qildimi?
 Shovqinga irg'iysi arabi tulpor,
 Shakarko'lga ovga bordim muqarrar,
 Va'da berib ketdi pari zulfakdor,
 Yor ishqidan men tortarman ohu zor,
 Qanday dushman keldi elga boyakbor,
 Dushmanlardan xabar bergin, Avazxon.

Bu so'zni Avazxon otasidan eshitib, otasiga qarab bir so'z deb turibdi:

Ota, eshit mening aytgan tilimni,
 Xizmatkor aylagin Avaz ulingni,
 Op kep beray va'da bergen yoringni.
 Ostimga mindirsang qiz belli tulpor,
 Shikor qip otlansam ko'p uzoq yo'llar.
 Olib kelib beray pari zulfakdor,
 To o'lguncha Avaz o'g'ling xizmatkor.
 Dunyoning vohimi sizga ne darkor,
 To o'lguncha Avaz o'g'ling xizmatkor.
 Ota, eshit mening aytgan so'zimni,
 Op kep beray ko'rigan sarvinozingni.
 Har na xizmat sizga mendan lozimdi[r],
 Xizmatkor aylagin Avaz qo'zingni.

Go'ro'g'li Avazxon o'g'lidan bu so'zni eshitib, Avazxonga qarab, bir so'z deb turibdi:

Maydon bo'lsa sotar erding shirin jon,
 Olmosingdan topar erding sharaf-shon,
 Bu xizmatga bel bog'lama, Avazxon.
 Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi,
 Botirni ingratar nayza yarasi,
 Bu xizmatga bel bog'lama, Avazxon,
 Talab qilma, Chambil elning to'rasи.

Har nechuk nomardga ko'ngil bermagin,
 Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin,
 Uzoq, yasha, ko'p yilgacha o'lmagin,
 Bu xizmatga, bolam, talab qilmagin.
 Devlarning qo'lida g'arib o'lmagin,
 Bu xizmatga, bolam, talab qilmagin,
 G'arib bo'lib dushman qo'lida qolmagin.

Boshimizdan ketgay g'animli tuman.
 G'ariblikda egam bo'lgay mehribon.
 Bu xizmatga bel bog'lama, Avazxon,
 Aytgan so'zim ol endi bo'zo'g'lon.

Bu so'zni Avazxon otasidan eshitib, yuragi toshib,
 ko'ngli jo'sh urib, otasiga qarab, bir so'z deb turibdi:

Men yig'layman yaratganga dodu dod,
 Bandam, deb rahm ayla qoziul hojat.
 Shu xizmatga, ota, o'zim bormasam,
 Ummatim demasin rasul Muhammad.
 Men yig'layman yaratganga zor-zor,
 Ne qilsa hukmi bor qudratli Jabbor,
 Shu xizmatga men boraman muqarrar,
 Ota, shu xizmatga o'zim boraman.
 Mahshar kuni do'st tutmasin choryor,
 Muridim demasin qo'l bergan pirlar.

Shunda Go'ro'g'libek Avazxon dan bu so'zni
 eshitib:

— Avaz o'g'lim, bu so'zni bejoy aytding. Bu aytgan
 so'zing ko'p yomon bo'ldi, endi har nima bo'lsa,

bormasang bo'lmaydi. Sen qasamyod qilding. Har nima bo'lsa, borasan, — dedi.

Shunday qilib, ota-o'g'il chillaxonadan chiqib jo'nab ketdi. Dalaga chiqib, Soqibulbulni chaqirib:

— Bog'da ochilgan gulim, chamanda bulbulim, Avazxon ulim Torkiston shahriga — Malika pariga bormoq bo'ldi. Soqijon, G'irotni abzallab, choqlab, egarlab, Avazxonga olib kelib ber, — dedi.

Soqi G'irotning qoshiga borsa, xonning G'iroti sag'risi toshib, yoli qulog'idan oshib, uchadigan qushday, quloglari qamishday, har ko'zi tarkashday bo'lib, yulduzni ko'zlab taraqqos boylab o'ynab turibdi.

Otga qarab, G'irotni ta'rif qilib, Soqibulbul bir so'z deb turibdi:

Yilqi ichinda o'zi kelgan sinlidir,
Tovushqon tuyoqli, marol bellidir,
Arosat kunida ajab hollidir,
Qimmataho ermish xonning G'iroti.

Minganlarning yetar asl maqsadi,
Qo'llig'ida to'rt yarim gaz qanoti,
Chu desa o'zadi osmonda qushdan,
Hech kamliging yo'qdir yo'rg'a yurishdan,
Umid qilar har shaharda buvishdan,
Asl tulpor emish bekning G'iroti.

Bog'i Eramdan olding oy Xiromonni,
Zangar eldan olding Orzigul yorni,
Zarrin eldan olding Mashriq yorni,
Isfihondan olding oy Intizorni,
Arzirumdan olding Dalli zulfdorni,
Endi izlab Malikaday ayyorni,
Pari izlab ko'rding necha shaharni,
Bekning oti nazarkarda tulpordir.

Soqidan bu so'zni G'irko'k ot eshitib, ancha ko'tarilib qoldi. Soqi otni yalang'ochlab, qashlab, egarlab berayin, deb turgan yeri:

Osha elga borgan tortar xo'rlikni,
 Avaz o'g'on bugun qilar erlikni.
 Bismillo, deb soldi otning beliga,
 Kimxobi mayindan bo'lgan terlikni.

Mard bo'lganlar ko'rар ekan durbini,
 Ustalar ishlatar po'lat qirg'ini.
 Bismillo, deb soldi otning beliga,
 Zarligu zARBObdan bo'lgan chirgini.

Chirgining ustida qo'ydi bellikni,
 Boz ustidan tashlab jahaldirikni,
 Mullalar o'qiydi zeru zabarni,
 Ustalar chopadi tesha-tabarni,
 Bismillo, deb bosdi otning ustiga
 Tillakorson, olqor mugiz egarni.

El ko'chirib Olatog'dan oshirdi,
 Sirin aytmay dushmanlardan yashirdi.
 Ikkovi ham tilladandi uzangi,
 Yarqillatib ikki yoqqa tushirdi.

Qishman yoz o'tasi hishshay savrdi[r],
 Lof aytganga botmondan ham ovurdi[r],
 Bismillo, deb soldi otning beliga,
 Chochog'i zumratdan zarli davurdi.

Katta-katta bandalaring joyildi[r],
 Xudo qilgan ishga banda qoyildi.
 Bismillo, deb tortdi otning belidan,
 Sirti ipak, ichi mayin ayildi.

Chuv, desam o'tadi osmonda qushdan,
 Hech kamligi yo'qdi yo'rg'a yurishdan,
 Bismillo, deb tortdi otning belidan,
 O'n sakkiz qubbali chig'atoy pushtan.

Sag'risiga tashlab karki quyushqon.
 Har qubbasi kelgan katta tarkashdan,

Abzallab chaqladi Soqiday o'g'lon,
 Abzalining bari ola qayishdan.
 Safarga minadi bekning farzandi,
 Yuz alvon o'ynaydi bekning G'iroti.

Shunday qilib, Soqibulbul G'irko'k otni abzallab, choqlab, sozlab Avazxonning oldiga olib borib ko'ndalang qilib turibdi. Avazxon bekdan podsholik sarpoylarni kiyib, Isfahonda ishlangan qilich, qilichning ishlovi yetgan, tekkan omon qolmasin deb zaharni yalatgan, ilon tilli olmos po'latni beliga boylab, otning beliga mindi. Avazini ottantirib, Go'ro'g'li:

— Hov Avazxon, Malika ayyor pari menga: «Qistab borsang, oltmis yilda borasan», deb edi. Sen oltmis yilda borsang, oltmis yilda kelsang, oradan yuz yigirma yil o'tar ekan, uzoq yo'l emasmi, borib oltmis yil shu yurtga tursang, oradan yuz sakson yil o'tadi. Undan keyin, ikkalamizning umrimiz bu yurishga o'tmay, bir xotin olamiz deb, yo'lda sarson o'tib ketar ekan. Endi Avazxon, sen shu yurtga borar bo'lding, menga kelar mo'ljalingni aytib ketgin, — dedi.

Shunda Avazxon aytdi:

— Ey ota, men u yurtga borib, bozorni bozorlab kelgan bo'lmasam, ko'rib bilgan bo'lmasam aytu qolsam. Shunday bo'lsa ham, «cho'tt-cho'tdan ortiq bo'larmi», cho'tdan aytib qo'ya qolaman-da, — deb Go'ro'g'libek otasiga qarab, Avazxon o'g'lon, yag'rini yoziq polvon bir so'z dedi:

Toyilmasa boshdan toju davlatim,
 Ostimda o'ynasa arabi otim,
 O'n olti oy kelar mening muhlatim.
 Dardliman dardimni kimga yoraman,
 Ayriliq o'tiga bag'ri poraman,
 Nasib etsa o'n olti oyda kelaman.

Jahonni sayr etib o'ynab-kulmasam,
 Nor kesar olmosni belga cholmasam,

O'n olti oyda Torkistondan kelmasam,
 Avazxonning zo'r bilagi toldi de,
 Ham otingni, ham o'g'lingni o'ldi de,
 Yakkamozor bo'lib shunda qoldi de.

Ota, eshit mening aytgan nolamni,
 To'karman ko'zimdan qonli jolamni.
 O'n olti oyda Torkistondan kelmasam,
 Chambilbelda to'yray bering oshimni.

Harna matlab bo'lsa Haqdan tilagin,
 O'n olti oyda Torkistondan kelayin.
 O'n olti oyda kelar mening muhlatim,
 O'n olti oyda yo'l-yo'lima daragin.

Go'ro'g'libek Avazxon dan o'n olti oy degan so'zni
 eshitib, vaqt ziyoda xush bo'lib, Avazxonga qarab
 bir so'z dedi:

Bir tog'im Polopon, bir tog'im Bolqon,
 Chor hokim shahrimdir, bekligim darxon,
 Sog' borib, salomat kelgin, Avazxon,
 Ko'rар ko'zim, bolam, Haqqa topshirdim.

Qayga borsang, Shohimardon yor bo'lsin,
 O'n ikki imom, chiltan jilovdor bo'lsin,
 Dushmanlaring kelib senga zor bo'lsin,
 Borgin, bolam, seni Haqqa topshirdim.

Avazxon Go'ro'g'li otasidan bu so'zni eshitib, ota-
 siga qarab, otasidan oq fotiha so'rab, xushlashib,
 aytayotgan so'zi:

Oshmoqqa qoyimdir tog'larning beli,
 Ot chopishib yurgan Chilbirning cho'li.
 Sog'-salomat borib, o'ynab kelayin,
 Shodu xurram yurgan, Chambilning eli.

Ostima minganim qiz belli tulpor,
 Shikor qip otlandim, ko'p uzoq yo'llar,
 Izlaganim bo'ldi pari zulfakdor,
 To ko'rguncha, ka'bam otam, xo'sh endi.

Oh urganda ko'zdan oqqan yosh endi,
 Omon bo'lsa nelar ko'rар bosh endi?
 Osha yurtga yor axtarib boraman,
 Omon bo'ling, to ko'rguncha, xo'sh endi.

Bu so'zlarni aytar edi Avazxon,
 Ostida o'ynaydi G'irko'kday hayvon,
 Olmos po'lat belda, enimda qalqon,
 Omin olloh, duoda bo'ling, otajon.

— Ey otajon, duoda bo'ling, omon-eson borib,
 sog'-salomat kelayin, — dedi. Chambilning el-yurti
 Avazxonning otlanib borayotganini ko'rib, po'sh-
 po'shlab, Chambil amaldorlari, sipohilari, beklari
 Avazxonne jo'natmoqchi bo'ldi. Chambilning hamma
 qiz-xotinlari tom-tomning boshida turib tomosha
 qilib turibdi. Avazni Chambildan chiqarib: «Oy borib,
 omon kel», deb fotiha berib, xush ketibsan, deb
 jo'natib yubordi.

Avaz jo'nagandan so'ng, Ahmad sardor, yigitlarini
 yig'ib, maslahat qilib aytdi:

— Go'ro'g'li otini Avazga berdi: ostiga mingandir
 chiltan bergen G'irotni, har yerga borsa topadi mu-
 rodni. Shu bachchag'arning bor g'ayrati, bir kunlari
 Malikani olib kelar, keyin nomi beklikka uyat bo'lар.
 Hov yigitlar, bir na'ra sher bormisan? Avaz yo'l bilan
 ketdi, sizlar tiklab yo'l tortsanglar, oldidan o'tsanglar,
 Avazdan ilgari Polopon tog'iga o'tsanglar. Avazni
 otsanglar, o'lja qilib G'irotni minsanglar, Torkis-
 tondan Malika parini olib qolsanglar. Go'ro'g'li
 Malika bilan ovora bo'lib qolar. Shunda yurtni o'z
 qo'limizga olsak. Bir na'ra sher bormisan?

Asad, Shodmon degan botirlar bor edi. Shodmoni naymanning botiri edi. Asadi qipchoqning botiri edi. Asad mergan parli yoy tortar edi. Shodmon mergan ashrafi miltiq otar edi. Bu ikkovi ham Chambilda daftari mergan edi, ular qushning ko'zidan otar edi. Ilgaridan ov ovlab yurib, yo'lning to'tasini ko'rghan edi. Asad, Shodmon:

— Bu xizmat bizdan bo'lsin, — deb ikkovi Gajdim, Majdim degan otlarni minib, ashrafi miltiqni osinib, parli yoyni egarning qoshiga solib, Avazxon yo'li bilan ketdi, bu ikki mergan yo'lning to'tasini olib, Avazning oldini to'sib, qistab yo'l tortdi.

Dubulg'a boshda dingkillab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan,
Uzangilarda shirqillab,
Shuytib merganlar yo'l tortdi.

Ravshan ko'zlarini yoshib,
Urni qamchini qulochlab,
Ostidagi Majdim oti,
Irg'ir edi yashin tashlab.

Tog'larda bordir zarangi,
Egnida bordir parangi,
Oylar ham toshday qorong'i,
Shuytib merganlar yo'l tortdi.

Bedov otga qamchi chotdi,
Urgan qamchi simday botdi.
Ostidagi bedov oti,
Kecha-kunduz shabgir tortdi.

Havoda bor yorug* yulduz,
Daryoda o'ynaydi qunduz.
Merganlar qildi g'ayratni,
Yo'l tortdi uch kecha-kunduz.

Chambilidan chiqib, uch kecha-kunduz yo'l yurib, Poloponiga yetdi. Tog'ning belini merganlar ko'rди. Avaz hali bu yerdan o'tgani yo'q ekan. «Avaz bizdan keyin», deb bir archaning panasiga otlarini boylab tashlab, bo'g'oridan qolguday, o'zlari pana bo'luguay yerni kovlab, ashrafi miltiqni o'qlab, parli yoyni qo'lliga olib, Avazning yo'lini to'sib yotdi. Peshin vaqtida Avazxon ham Polopon tog'ining yaqinini olib yetdi. Xonning G'iroti dushmanning borini bilib, miltiqning isini olib, Polopon tog'iga qarab bir ham qadam bosmay, oltmish yillik yo'lga boradigan jayragir uch kunchilik yo'lda charchab turib qoldi.

Shunda Go'ro'g'lining G'iroti qadamini bir bosib borayotir. Avazxon bunga tepsinib, jayragur to'ppaytib turib qoldi, deb bularning borligini bilmay borayotir. Merganlar qarasa, Avazxon irg'alib kelayotir. Avazni ko'rib, Shodmon merganga Asad mergan qarab, bir so'z deb turibdi:

Xabar bering, Shodmon aka,
Avazxoni otsammikin?
Ustiga mingan mardini,
Dam shu dam, sulatsammikin?

Ostidagi G'irko'kini,
O'lja qilib ketsammikin?
Torkistonga yetsammikin?
Oyim Malikani olib,
Bir kuni Chambilga kelib,
Go'ro'g'liga peshkash qilib,
Chambilbelda tortsammikin?

Bu so'zni eshitib, Shodmon mergan aytdi: — Ikkovimiz Avazni o'ldiramiz deb kelganmiz, agar qo'lingdan kelib Avazni o'ldirding-u, men sening qo'lingdan ayirib olayotibmanmi? Sen Avazni otib tashlasang, senga ora tushib ayirib olayotgan odam yo'q.

Shunda Asad mergan: — Unday bo'lsa otmoq faqirning tanida, — deb qo'lliga yoyni oldi:

G'amli kunda tortar edi oh-voy,
 Shiqirlatib, qo'lga oldi parli yoy,
 Gap eshititing merganlarning ishidan,
 Parli yoya shunday o'qni soladi,
 Choqladi Avazni qorday to'shidan.
 Jafo tig'i bu tun jondan o'tadi,
 Ayriliq xanjari bag'rin yirtadi.
 Yashinday bo'p yoyning o'qi yetadi.
 Ko'ring, bekning nazarkarda G'iroti,
 Qirq gaz o'qdan baland sachrab o'tadi.
 Jozoyilga olov berdi Shodmonxon,
 Shodmon mergan bo'shatgandir balanddan,
 Nazarkarda bekning oti qaradi,
 Jazoyilning o'qi baland keladi,
 Tappa tushib bedov yotib qoladi,
 Qirq gaz baland boshdan oshib boradi,
 Ikki o'qdan Avaz omon qoladi.

Ana endi, Avaz, «bu qanday alomat bo'ldi», deb har tarasga qaradi.

O'zi bilan birga yurgan merganlarni ko'rib, darg'azab bo'lib, ilon tilli isfahon qilichni yashinday qilib, g'ilosdan sug'urib olib, merganlarga siyosat qilib, bir so'z aytib boraberdi:

Shunday bo'ldi menga Haqdan farmonlar,
 Chambilbelda birga yurgan merganlar,
 Ne sababdan otim o'qqa boylading?

Ko'zingdan to'karman qonli yoshingni,
 Qilich urib kesay tandin boshingni,
 Sulatay, merganlar, gavda-loshingni,
 Ko'rolmaysan qavmu qarindoshingni,
 Ne sababdan otim o'qqa boylaysan?!

Merganlar, eshitgin aytgan so'zimni,
Ko'rolmaysan endi o'g'il-qizingni,
Ikki mergan, senga o'lim lozimdir,
Ne sababdan otim o'qqa boylaysan?

Asad, Shodmon nega ko'nglim bo'lasan,
Dushman bo'lib, yo'lim to'sib kelasan,
Qazong yetdi — ikkoving ham o'lasan,
Ne sababdan otim o'qqa boylaysan?

Avazning siyosatidan ikki mergan takbiridan ada-shib, nima deyarini bilmay, Avazga qarab, bir so'z deb turibdi:

O'z elingda shohning g'amin yeb edik,
Qo'rqoqmikin, botirmikin deb edik,
Paxtaband bo'shatib hazil qib edik,
Hazilimni ko'nglingga olma, Avazxon.

Otga soldik arpa bilan iyirdi,
Qor yoqqanda karvon solar chiyirdi,
Qilarmidik, qilmasmidik hazilni,
Chambilda Go'ro'g'li otang buyurdi.

Bizlar ham Chambilda daftari mergan,
Uchib yurgan qushning ko'zidan urgan,
Bir chetidan, Avaz, o'zing ham ko'rgan.
Paxtabandi qib-e, hazildi qilgan.
Hazilimni ko'nglingga olma, Avazxon.

Nodon ko'ngling har xayolga bo'limgin,
Bizlarni, Avazxon, dushman bilmagin,
G'am bilan sarg'ayib guldayin diydor.
Bizlar sening bek otangga xizmatkor,
Otangning amrini qilgan merganlar,
Hazilimni ko'nglimga olma, muqarrar.

Bu so'zni Avazxon eshitib merganlarga:

— Unday bo'lsa men botir ekanmanmi, qo'rqoq
ekanmanmi otam sinab ko'radigan bo'lsa? — dedi.

Merganlar:

— Avazxon, siz botir ekansiz, — dedi.

Avaz:

— Ha, men botir bo'lsam, qaytib ketaveringlar, — dedi.

Merganlar o'ylab fikr qildi: «Bu yerda qulayga tushirolmadik, biror yerda qulayga tushirsak, o'zi bilan birga bo'lsak», deb:

— Avazxon, boradigan yering yaqinmi, uzoqmi? Biz ham birga borib kelsak, fasli bahona jahonni sayr etib ko'rib kelsak, — dedi.

Avazxon aytди:

— Sizlar qaytib ketaveringlar. Sizlarning soydalaringdan ziyonlaringiz ko'proq tegib qolar.

Merganlar aytди:

— Avazxon, bizlarning nima ziyonimiz tegadi? Otingga mingashtir demasak, jon xarji ber demasak, o'z otimiz, o'z xarjimiz, nima ziyonimiz tegadi?

Avazxon:

— Unday bo'lsa, yo'l boshlanglar, — dedi.

— Siz turganda bizlarga yo'l boshlamoqlik nechuk? — dedi.

Avaz ilgari, merganlar orqasidan Torkiston shahri ni, Malika ayyor parini izlab yura berdi. Qoramaga qora borayotib, merganlar ancha orqada qolib borayotib edi. Asad mergan Shodmon merganga qarab bir so'z dedi:

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ladi,
Shum falak boshiga savdo soladi,
Shu vaqtida choqlasak qanday bo'ladi?
Xudo deyik, yaratganga yig'layik,
Omin desa farishtayi maloyik,
Shu vaqtı Avazni choqlab urayik.
Ko'zidan to'kayik selob yoshini,
Qarg'a-quzg'un yesin Avaz go'sh[t]ini,
O'lja qip minayik aspi qushini,

Sulaytayik uning gavda-loshini.
 Borayotir Avaz o'g'lon boxabar,
 Keyinidan choqlab olsak muqarrar,
 Armon bilan o'lar Avaz zo'rabor,
 Bu so'zlarni aytdi endi merganlar,
 Shu zamon angladi Avaz zo'rabor,
 Otning tizginini tortdi muqarrar:
 «Qistab yuring endi, mergan botirlar!»
 Avazning keyinidan yetdi merganlar,
 Ot tizginin tortdi Avazday nomdor,
 Ilgariga o'tdi ikki merganlar,
 Avazning bahodirlik nomi bor.
 Tosh kelar Avazxonning g'ayrati,
 Shunday bo'lar sipohining odati,
 Qo'lida yarqillar keskir po'lati,
 Har zamon merganlarga qilar siyosatdi,
 Qolmadi-ku, merganlarining toqati,
 Chuv, deb G'irko'kka qamchini chotdi.
 Merganlarni quvib cho'lda yo'l tortdi.
 Chambil elda Avaz o'g'lon turadi,
 Harna qilsa qismatdagin ko'radi,
 Merganlarni quvib solib oldiga,
 Izg'or cho'lda quvib ketib boradi.

Qirq kecha-kunduz yo'l tortdi, horib merganlarning mazasi ketdi, besh yuz tog'ning to'qinishi Och-gaza Darband tog'iga yetdi. Asad, Shodmon chechinib yotgandan ko'zi uyquga ketdi. Horib, charchab qo'nib yotdi. Avazxon buvunchog'i bilan yechinmasdan yotdi, uxlamoqchi edi, oti tishlab uxlatmadı. Avaz aytdi: «Chambilda xon Go'ro'g'libek otam aytar edi: shu G'irko'k ot, minib yurganda, qabatidagi jo'rasi keyinida biror g'anim dushmani bo'lsa, shu ot tishlab uxlatmas edi», deb. Menga shu ikkovi dushman, yo bulardan boshqa dushman bor, nimaiki bo'lmasa, meni ot uxlatmaydi. Bu tog'ni Darband tog' der ekan; naryog'ini Badbaxt cho'l der ekan; qol-e, shu tog'ning

boshiga chiqib Badbaxt cho'liga qarayin, agar Darband tog'ining naryog'ida, Badbaxt cho'lida biror dushman bo'lmasa, kelib shu ikkovining boshini olayin. Badbaxt cho'lida dushman bo'lsa uning bilan bo'layin. Avaz bu o'yni o'ylab, otlanib, Darband tog'i-ning boshiga chiqib qaradi. Badbaxt cho'lida bir narsa, Avazning ko'ziga g'ivirlab ko'rina berdi. Avazxon: «Bu ko'ringan qanday qora bunga, borib kelay, qanday joy ekan, ko'rib kelay, anig'ini bilib ketay», — deb o'ylab borayotib edi, oldidan bir gazadan lop etib bir odam chiqib qoldi. Qaradi: bir filni mingan, ikki oyog'i chim yerni omochday tilgan, soqol-murti o'sib ketgan, aymashib kelib, og'zi-burnini bosib ketgan.

Avaz buning qaddi-qomatini ko'rib, tavakkal qilib, yo'l chetga chiqib turdi: «Kel-e, bundan bir savol so'rayin, qaysi mamlakatga borayotgan ekan, bilayin», — deb so'z dedi:

Sen eshitgin mening aytgan tilimni,
Boshingga solarman qayg'u-zulmni.
Menga bayon ayla borar elingni,
Fil mingan butparast, qayga borasan?!

Ostimda bedovim o'ynar yuz alvon,
So'zimni eshitgin [fil mingan] dushman.
Davlatimdan sholi-sholdam o'rayin,
Borar mazgilingni sendan so'rayin,
Fil mingan butparast, qayga borasan?

Bu so'zni Avazxon aytdi, fil minganning qulog'iga yetdi. Kiprigi, qoshlarini turib, chug'arib qarasa, oldida bir yosh bola: «Qayga borasan?» deb so'z so'rab turibdi. Fil minganning ko'ngliga keldi: «Bu o'roq-chiga osh berib kelayotgan yosh bola ekan. Bizning podsholarimiz: «O'zbakning chivindayı ham do'qchil bo'ladi, do'qidan qo'rhma», — deb edi. Darvoqe, podshomizning aytgani rost ekan. Shunday bolalar

mening tarzimni ko'rib, qo'rqib, shaytonlab qolmay, mendan «Qayoqqa borasan?» deb gap so'raydi. Aytganda nima gapni bilar ekan bu?» — deb bir so'z dedi:

Oshiqning sahmidir qorong'i kecha,
Yig'lasam, holingga yig'lar bir necha,
Birov o'ngga, birov so'lga yuradi,
Mendan savol so'rab ishlaring qancha,
Minib yurgan chigirkaday oting bor,
Qumursqaday sening bir jasading bor,
Tur yo'qol, yo'lingga borgin, zang'ar.

Ostingga minibsan ko'k ola toydi,
Ola toying menga ta'til bo'lmaydi,
Senday odam rezgisi hech qolmaydi,
Tur, yo'lingga bora bergin, zang'ar!

Mendayin nomdorning ko'nglim bo'lasan,
Sen o'zingni odam choqlab turasan,
Odam rezgi, armon bilan o'lasan,
Keta bergin, yosh bolasan, o'lasan,
Nima uchun yo'lim olib turasan?

Bu so'zni Avazxon eshitib, bir so'z deb turibdi:

Qozining oldida shabgir noyibi,
Yigitga pand berar otning mayibi,
So'raganning hech bo'lmaydi ayibi,
Fil mingan yo'lovchi, qayga borasan?
Filni minib g'ayrat bilan yurasan,
Yolg'on aytma, sen badbaxt, o'lasan.
Xabar bergin, qay shaharga borasan?

Xudo deyin, yaratganga yig'layin,
Norkesar olmosni belga cholayin,
Yolg'on aystsang boshingni olayin,
Borar mazgilingni sendan so'rayin,
Fil mingan butparast, qayga borasan?

Badbaxt, g'ofil, senga bermayman omon,
 Solarman boshingga qayg'uli tuman,
 Bu so'zlarni senga aytdi Avazxon.
 Borar yering aytgin menga, sen dushman.

Bu so'zni eshitib:

— Bu mendan borar yerimni qayta so'ray berdi,
 endi aytib ketayin, qaysar ekan, — deb bir so'z aytib
 turgani:

Otga solib arpa bilan iyirdi,
 Qor yoqqanda karvon solar chiyirdi,
 Arbotinning shohi bizni buyurdi,
 Meni so'rsang, Arbotindan kelaman.
 Safar qilib Chambil elga boraman,
 Chambilning yurtini vayron qilaman.
 Go'ro'g'lining tandan boshin yulaman,
 O'lja qilib G'irotini olaman.
 Avazzxonday o'g'lin olib kelaman,
 Avazzxonni kosagul qilib yuraman,
 Avazning xushtori o'zim bo'laman.
 Eshit Maqotilning aytgan so'zini,
 Olib kelsam Chambilning Avazini,
 Shohim berar yuz beshga kirgan qizini.
 Shu xizmat deb Chambil elga boraman,
 Chambil yurtin yebir-yesir qilaman,
 Qaytib kelib shoh qizini olaman.
 Shohning qizi bilan o'ynab-kulaman.
 Rostin aytsam, shu xizmatga boraman.
 So'zimni so'rasang, ey yosh o'g'lon,

Avazxon bu so'zni eshitib: «Bu yomon kofir ekan.
 Shu tarzcha Chambilga borsa, Chambil elining tur-
 pog'ini g'alvirdan o'tkazib ketar. Otamning oti menda
 bo'lsa, yobi otlar munda hojat bermasa.

Endi tavakkal, ovloq yerda bunga ma'lum qilayin
 bir», — deb Avazxon o'zini ma'lum qilib, bir so'z
 qilib turibdi:

Charqillab uchadi ko'llarning g'ozi,
 Cho'llarda ko'p bo'lar ulog'man qo'zi,
 Ostimda irg'iydi G'irko'kday tozi.
 So'zimni eshitgin, Arbotin bozi,
 Men bo'laman Go'ro'g'lining Avazi.

Chambil elda elning g'amin yeb edim,
 Senday zo'rni izlab shikor qib edim,
 Men ham Arbotinga borsam, deb edim.
 Dushman izlab eldan chiqib kelganman!
 Chambilbelta men ham bekman,
 to'raman,

Nor kesar olmosni belga cholaman,
 Izlaganga so'raganining bo'laman,
 Ovloq yerda senga duechor kelaman,
 Chambilbelning Avazi o'zim bo'laman,
 Men ham Arbotinga izlab boraman,
 Qo'lingdan har nima kelsa, ko'raman.
 Qalpog'i manglayga to'rt enli botgan.
 O'n sakkiz yuz xotin olib —
 Dunyodan mujarrad o'tgan,
 Hasan bobo xizmatiga boraman,
 Shohning yuz beshga kirgan qizini
 Hasan Ko'lbar bobomga obkeb beraman,
 Chambilbeldan shu xizmatga boraman,
 Arbotin shahrini g'orat qilaman,
 Chambilning Avazi o'zim bo'laman.

Bu so'zni Maqotil eshitib: — O'zbakning toti,
 chapanisi shuncha ekan. Bu ham o'zini Avaz qilib
 yotir. Men Avazxonni ko'rmasam ham ta'rifini
 eshitganman. Sen o'zingni Avazzonga mengzama, —
 deb bir so'z dedi:

Jamollari oyu kundan g'olibdi[r],
 Ko'rganlarning bejoy aqlin olibdi,
 Ko'rmasam ham ta'rifini eshitdim,
 Sen o'zingni Avazzonga mengzama.

Qiyg'ir degan qush o'ltirar qiyada,
 Husnin ko'rsang, shohlardan ham ziyoda,
 Jamollari oyu kundan ziyoda.
 Sen o'zingni Avazzonga mengzama.

Avazxonman, deb losni urasan,
 Odam rezgi, armon bilan o'lasan,
 Sen o'zingni Avazzonga mengzama.

Xazon bo'lib bog'dagi gul so'ldimi,
 Shum falak boshingga pardal soldimi,
 Chambilning Avazin xudoy urdimi?
 Toy ustinda chivinday bo'p jalpayib,
 Go'ro'g'lining otini xudoy urdimi?
 Shundaygina ko'k ola toy bo'lib,
 Ko'rmasam ham ta'rifini eshitdim,
 Sen o'zingni Avazzonga mengzama.

Zuvalasi ortib tushgan loyidan,
 Avazxon deb tilar edim xudoydan,
 Jamoli g'olibdi osmonda oydan,
 Ko'rmasam ham eshitganmam, Avazim,
 Sen o'zingni Avazzonga mengzama.

Avaz bu so'zni eshitib: «Mening Avaz ekanligimni
 bilmadi, ishonmadi, endi bunga Avaz ekanligimni
 bildirayin», — deb Maqotilga qarab, bir so'z dedi:

Maydonda irg'itay aspi-qushini,
 Qamsab kesay dushmanlarining boshini,
 Solayinmi Alining savashini,
 Maqotil, ko'r, Avazxonning ishini.
 Ostimda irg'iysi G'irko'kday tulpor,
 O'zga deb, Maqotil, bo'lma bexabar,
 G'ayratimdan yig'lar senday g'osillar,
 Savashli kun men mingingga barobar.
 Otim Avaz, o'zim misli ajdahor,
 Ishqirmsam damimga ketar dushmanlar,
 Maydon bo'lsa men sotarmen shirin jon,

Olmosim toshkesar, asl isfihon.
 Go'ro'g'li o'g'liman, otim Avazxon,
 Changalimdan qutulmog'ing ko'p gumon.
 Armon bilan o'lar bo'lding, ey dushman.
 Nor kesar olmosni qo'lga olaman,
 Ko'rмаган кунларни сenga solaman,
 Tanimasang, g'osil, boshing olaman.
 Dod aylasang eshitmasdan so'zingni,
 Har bobdan o'yaman ikki ko'zingni,
 Badbaxt dushman, senga o'lim lozimdir.
 Tanitayin senga men Avazingni.

Bu so'zni fil mingan eshitib: «Bu Avazman deb
 ayta beradi, Avaz bo'lsa Avazdir-da, uzoqdan ta'rifi
 borar ekan-da. Bu Avaz bo'lsa, minib yurgan toyi
 Go'ro'g'lining G'iroti shu ekan-da. Endi mening
 ishim yo'ldan bitdi. Chambilga bormayman. Izlagan-
 nim Go'ro'g'lining oti bilan Avazxonni edi.

Shu yerdan oldimga solib haydab, Arbotinga qay-
 taman», — deb ko'nglida o'ylab, Avazga qarab, bir
 so'z dedi:

Avaz deb yugurdim sening izingdan,
 Quralayday kelgan jodu ko'zingdan,
 Gap eshit, Avazxon, aytgan tilimdan,
 Xudoy o'nglab chiqib qolding yo'limdan,
 Arbotinga yurgin endi Avazxon.

Arbotinda men ham bekman, to'raman,
 Arbotinga sizni olib boraman.
 To o'lguncha sizni olib yuraman.
 To o'lguncha kosagullik qilaman,
 Yur endi, Arbotin birga, Avazxon.
 Uzoq yasha, ko'p yilgacha o'Imagin,
 Yur endi, Arbotin birga ketamiz.

Avazxon bu so'zni eshitib, g'azabi kelib, Maqotilga
 qarab, Avazxon bir so'z dedi:

Ayo g'ofil, bilib so'zla so'zingni,
 Tillaring sug'urib, o'yay ko'zingni,
 Tanidingmi bu qo'chqor Avazingni!
 Avaz ekanimni o'zing bilasan,
 Manmanlik bilan, badbaxt, o'lasan,
 Unday deb ochma sen g'ayri og'zingni,
 Tanidingmi bul shunqor Avazingni.
 Xanjar chekib, men kesarman bo'g'zingni.

Maqotil bu so'zni eshitib, Avazga qarab aytди:

— Sen yor, pirlaringni, payg'ambariningni yodlay berding, biz bilan urushadiganga o'xshaysan. Sen chin urushar bo'lsang bizda ham qo'llaydigan piru payg'ambarlar bor, — deb o'zida borini yod qilib, bir so'z deb turibdi.

Avazxon aytди: — Bobo, siz katta ekansiz, urush, kaltak navbatи sizdan bo'lsin.

Maqotil aytди:

— Menga navbat berib nima qilasan, bir ursam o'lib qolasan, avval sen ur. Unda Avaz:

— Siz yovvoyi ekansiz, mening o'lgan-o'limganim bilan ishingiz bo'lmasin. Siz katta ekansiz, navbatni sizga berdim, — deb o'zi qalqonni boshiga jomilib turdi.

Bobosining uch botmon kaltagi bor edi, shuni ko'tarib:

— Xabardor bo'l, Avaz, yo Lot! — deb Avazning boshiga urdi. Lekin uch qalandar kelib Avazning girdini tutdi. Dushmanning kaltagi tariqday bo'lib tirqirab ketdi. Yana olti botmon cho'yan kaltagi bor edi, buni «yo Lot, endi, Avaz, o'lding!» deb siyosat qilib urdi, unda o'n ikki imom kelib Avazning girdini tutdi. Maqotilning kaltagi tariqday bo'lib tirqirab ketdi. Yana to'qqiz botmondan bo'lgan kaltagi bor edi. Buni ham ko'tarib: «Avaz, endi o'lding, xabardor bo'l, yo Lot», — deb siyosat qilib urdi. Avazning Shohimardon piri kelib girdini tutdi. Maqotilning kaltagi tariqday

bo'lib tirqirab ketdi. Maqotilning navbatı o'tdi. Avazning navbatı yetdi. Avaz ilon tilli olmos po'latini shirillatib g'ilofdan sug'urib oldi. Buni ko'rib Maqotilning tusi qochdi, rangi za'saronday bo'lib qoldi. Shunda Avaz o'n yetti gaz olmos po'latini qo'liga olib yetib bordi. Bobo aytdi:

— Avaz o'g'lim, to'xta.

Avaz aytdi:

— Meni to'xtatib nima qilasiz? — dedi.

Bobo aytdi:

— Mening umid bilan to'qqiz qavat qarq terisidan qilgan qalqoniim bor, shuni boshimga jomilib turayin.

Avaz:

— Xayr, jomilib turing, — dedi.

Bobo qalqonini boshiga jomilib turdi. Avazxon qo'lidagi olmos-po'latni qulochlab boboyning boshiga urdi. Olmos bobosining boshidan o'tib emchagigacha kesib turdi. Yana darg'azab bo'lib qo'lidagi olmosini sug'urib olib, qulochlab urdi. Maqotilning o'zidan o'tib, filning ham yarmidan kesib o'tib fil-mili bilan ikki bo'lib yerga botib turdi.

Avazxon buni o'ldirib, ko'kayi o'sib, ko'tarilib, otidan tushib, yayov bo'lib, Maqotilning qaddi-qomatini ko'rib, jasadiga qarab, «Hech yerda bunday dushman o'lgani yo'q», — dedi. Sha'ninga bir so'z aytib turibdi:

Qiyg'ir degan qush o'llitar qiyada,
 Ne ko'rib-kechirdim soniy dunyoda,
 G'ayratidan shohlar yurar piyoda,
 Qilgan ishim har odamdan ziyoda.
 Bizlar ko'rdik Qisako'zning zo'rini,
 Uch yil keb qamadi Chambil elini,
 Go'ro'g'libek chiqib qirdi barini,
 O'lja qilib oldik molu zarini,
 Shu urushda bunday dushman o'lgan yo'q.
 Maydonda chiqardi G'irning buvini,

Qonga bo'yab Zarchashmaning suvini,
Yiqitdi Bektoshning besh ming tuvini,
Shul maydonda bunday dushman o'lgan yo'q.

Hasan o'g'lon ot beliga minganda,
Arzirumdan xon Dallini olganda,
Dog'istonda uch oy urush bo'lganda,
Shu urushda bunday dushman o'lgan yo'q.

Yusuf sulton otga qamchi solganda,
Eram bog'dan Xiromonni olganda,
Toshotar polvonni nobud qilganda,
Yetti yil tinmayin urush bo'lganda.
Shu urushda bunday dushman o'lgan yo'q.

Ne ko'rib-kechirib soniy dunyoda,
Qilgan ishim har odamdan ziyoda,
Har urushda bo'lar dushman piyoda,
Hech urushda bunday dushman o'lgan yo'q.

Bu so'zlarni aytib, nariroq borib qarasa, oldidan yigirma to'rt shaharga boradigan ko'p yo'l chiqdi. Bu yo'llarning u yog'iga — bu yog'iga qaradi. Qarasa, bir yo'lda baydoq-baydoq ko'p lashkar kelayotir — soni yo'q. Kelayotgan lashkarboshilar ham Avazni ko'rди. Orasi yaqin qolgan ekan, biri-biriga o'rabi turdi. Avaz: «Bu lashkar qanday lashkar ekan?» dedi. Bu lashkarlar Arbotindan kelayotgan edi. Bu lashkarning lashkarboshlig'i haligi fil mingan polvon edi. Chambil yurtiga, Go'ro'g'lining ustiga qo'shin tortib borayotgan edi.

Lashkarboshilar aytdi: «Go'ro'g'li bitta, yo ikkita bo'lib yurar emish, deb eshitar edik. Bu — tayin Go'ro'g'liga o'xshaydi», — deb lashkar turib qoldi. «Kelayotgan odam Go'ro'g'li bo'lmasa, fil mingan polvondan bu yoqqa omon o'tmas edi. Bu — tayin Go'ro'g'li ekan, fil mingan polvonni o'ldirib, bu yerga kelayotir», — deb bular ham urush asbobini tayyorlab turib qoldi.

Avazxon bu chorraha yo'lida urush bo'larini bilib,
 G'irotning ayil-pushtanini mahkam tortib, sovut,
 qalqonini jomilib, otiga minib urushga tayyor bo'lib,
 lashkarga qarab, bu so'zni aytib, yuzlanib bora berdi:

Bu dunyoni barbod etib,
 Komil pirlarni yod etib,
 Ot qo'ydi dushman ustiga.
 Tog'dagi sherdai oh urib,
 Yo'lbarsday bo'p chopinib,
 Ot qo'ydi dushman ustiga.
 Qaramay baland-pastiga,
 Olmos olgandi dastiga,
 Yarashiqqa tikib chotir,
 Farang miltiq patir-patir,
 Otildi maydon ichinda.

Chappalashib satta botir,
 To'kildi maydon ichinda.
 Ko'rganlarning aqli ketib,
 Yana ko'rsam deb bo'lib intiq,
 Og'zi katta qora miltiq,
 Otildi maydon ichinda.

Bedovga zarrin ayillar,
 Qilganga dushman qoyillar,
 Shabnam miltiq jazoyillar,
 To'p buzar maydon ichinda.
 Ot chopadi asta-asta,
 Ko'pdir dushman, dasta-dasta,
 Urush bo'ldi, chopar asta,
 Jang qilar maydon ichinda.

Saf-saf turib aqli xo'plar,
 Ajdohoday katta to'plar,
 Ishqirat maydon ichinda.
 Dushmanlarning aqli shoshdi,
 Ota boladan adashdi,

Avazxon tanho savashdi,
Jang qilib maydon ichinda.

Qilich kelar alab-yalab,
Istar ko'ngil qilar talab,
Oltin kosa, gulgún sharob,
Ichildi maydon ichinda.

Asli tozi ne bedovlar,
Ketdi egasiz bosh olib,
Chodir-chaman, liboslar,
Qoldi shundayin to'shalib.
Har darasi murdaga to'lib,
Losh deganining selday bo'lib,
Tog' askarin chaldi tuman,
Dushmanlarga bermay omon,
Shul sababdan bek Avazxon,
Jang qilar maydon ichinda.

Tinmay oqar ko'zning yoshi,
Kesilar dushmanning boshi,
Shuldir Avazning savashi,
Jang qilar maydon ichinda.

Uchrasa ernen mardi,
Ko'zga dori poyi gardi.
Bizlar Chambilning jo'mardi,
Qirmaganlar nomard bo'lsin!

Gar uchrasa yori qobil,
Har mahal va'dadan topil,
Maydonli kun po'lat dobil,
Tuymaganlar nomard bo'lsin!

Yigit piri hazrati Dovud,
Oq kirovka, oltin sovut,
Kiymaganlar nomard bo'lsin,
Dushmanlarning murdasini
Uymaganlar nomard bo'lsin,

Olmosin dushman boshiga,
Qo'yunganlar nomard bo'lsin!

Bul so'zni aytib Avazxon,
Dasta-dasta qochib dushman.
Dushmanlarning aqli shoshdi,
Avaz o'g'lon bunda tanho savashdi.
Baydoq-baydoq yana lashkar yetishdi.
Avaz o'g'lon bu lashkarni ko'radi,
G'irotiga achchiq qamchi soladi,
Baydoq-baydoq lashkar kelib oladi,
Avaz o'g'lon tanho savash qiladi,
Karnay tortib o'ngu so'lni oladi.
Avaz o'g'lon bu o'rtada qoladi.
Dushmanlarman tanho savash qiladi,
Jafo tig'i bukun jondan o'tadi,
Ayriliq xanjari bag'rin yirtadi,
Shakaman dushmanlar choqlab otadi,
Jazoyilning o'qi tuyrab o'tadi.

Avazxonning qaddi-bo'yи bukildi,
Ko'zdan yoshi qatra-qatra to'kildi.
Shu savashda yurib edi Avazxon,
Ot yolini ushlab bu mard yiqlidi.

To'xtab qoldi Go'ro'g'lining G'iroti,
G'arib bo'ldi Go'ro'g'lining farzandi,
Hech kimsaga kelmay qoldi holati.
Bir Ollohga yetar mardning nolasi,
G'arib bo'ldi Go'ro'g'lining bolasi.
Jazoyilning o'qi yetib Avazga,
Oh tortib yiqlidi Chambil to'rasи.

Botinolmay turib edi ko'p dushman,
Ichi to'ldi, yurakka bo'ldi ko'p armon,
Yarador bo'ldi-ku, bekning farzandi,
Qolmadi-ku Avazxonning toqati,
Ko'ring, nazarkarda bekning G'iroti.
Murdam qolsa dushmanlarda, uyat deb,

Oldiga tashlasa yol bilan suyar,
 Ketinga tashlasa quyruqman suyar.
 Maydondan burilib nazari tulpor,
 Toqqa qarab jo'nay berdi jonivor,
 «Bu bachechag'ar hali hiyla qilar», deb,
 Botinolmay borayotir g'animlar.

Yara tegdi Chambilning g'o'chchog'iga,
 Barakalla, bekning to'bichog'iga.
 Necha ul dushmanga G'irot rad berib,
 Avazni ob ketdi baland tog'iga.

Falak titrar Avazning nolishiga,
 Ko'zlar g'ubor bo'lar oqqan yoshiga.
 Ko'p dushmanga mingan oti rad borib,
 Olib chiqdi Avazni tog'ning boshiga.

Shunda G'irot jonivor Avazning yarador bo'lganini bilib, yiqilib qolmasin, yiqilib qolsa menga ko'p yomon ta'na ishlar bo'ladi, deb keyinga ketayin desa, quyrug'i bilan suyab, ilgari ketayin desa, yoli bilan suyab, Avazxonni avaylab, asta-asta suyab olib Huyding tog'inining yuqori baland cho'qqisiga olib chiqdi. Ul tog'ning cho'qqisi taka-yovmit, turkman otidan boshqasi chiqa olmaydigan yer edi, chiqib ketdi. Buni dushmanlarning lashkari ko'rib, vaqtı xush bo'lib, zangar miltiqni qo'lliga ushlab, «To bu tog'ni qulatib, yiqib olmasak bo'lmas», — deb bir xili to'pni yotqizib, bir xili qo'lliga metinni olib tog'ni qulata berdi, dunyo taloto'p, shovqin, g'alva bo'lib ketdi. Bu g'alva bilan uyquda yotgan Asad mergan bilan Shodmon mergan uyqudan uyg'ondi. Qarasa, oldida Avaz yo'q. Qayoqqa ketdi, deb qarasa, tog'ning sirtida tutunning buruqsigani ko'rindi.

To'plar gumbirlab, otolib, toyushi dunyoni buzungunday bo'lib borayotir. Bu buruqsiganlarni, bu alo-matlarni ko'rib, Asad mergan Shodmon merganga qarab, bir so'z deb turgan ekan:

Shodmon aka, eshit aytgan so'zimdi,
 Ko'rolmay o'larman o'g'il-qizimdi,
 Endi turmay bundan ketmoq lozimdi[r],
 Angla, og'a, mening aytgan arzimdi.
 Izlamaymiz Avazxonday to'rangni,
 Juring, og'a, Chambil elga borayik.

Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi,
 Avaz borib, tanho savash qilibdi,
 Tog'ning naryog'iga lashkar kelibdi,
 Kun tuman, ilg'ovli kunlar bo'libdi,
 Juring, og'a, Chambil elga borayik.

Dushmanlar kesmasin tandan boshimni,
 Sulatmasin gavda bilan loshimni,
 Ko'rsa albat qilar mening ishimni,
 Borib ko'ray elda tengu tushimni,
 Juring og'a, Chambil elga jo'nayik.

Bu so'zni Asad mergandan eshitib, Shodmon mer-gan Asad merganga qarab, bir so'z dedi:

Maydon bo'lmay bedov otlar chopilmas,
 Ko'p chopilsa, xosa tulpor sovulmas,
 Izlaganda bulday maydon topilmas,
 Jurgin, Asad, niyat maydon, borayik.

Maydonda kesilar dushmanning boshi,
 Qiyomatcha bo'lar mardning savashi,
 Bu maydondan qochgan nomardning ishi,
 Jurgin Asad, niyat maydon, borayik!

Senga aytay men so'z bilan javobdi,
 Dushmanlardan o'ch olmoqlik savobdi[r].
 Mard yigit oldidan maydon chiqqan so'ng,
 Nomard bo'lib, qochmoq bizga ne bo'pti,
 Jurgin, Asad, niyat maydon, borayik.

Chambil elda bahodirlik qilasan,
 Go'ro'g'lidan otu anjom olasan,

Maydon ko'rib qanday qochib borasan,
 Chambilda so'rasha bahodir beklar,
 Uyalmayin qanday javob berasan?
 Jurgin, Asad, niyat maydon, borayik!

Bu so'zni eshitib, Shodmon merganga qarab, Asad
 mergan bir so'z deb turibdi:

Borar bo'l sang, Shodmon og'a, bora qol,
 Uvol-savobingni o'zing ola qol,
 O'Idirsang ham men bormayman, qo'ya qol,
 Juring, og'a, Chambil elga yurayik.

Mendayin o'g'lonning ko'nglin bo'lasan,
 [Sinamagan yovda] nima qilasan,
 Qazom yetib o'lib ketsam maydonda,
 Sen mening qonima zomin bo'lasan,
 Juring, og'a, Chambil elga jo'nayik.

Bu so'zni Shodmon mergan eshitib:

— Men bir o'zim yolg'iz maydonga boradigan
 bo'lsam, avval seni o'zim o'ldirib, so'ngra yolg'iz
 o'zim borayin, — deb qo'lini olmos-po'latiga uzatib,
 qilichni qo'liga ildirdi.

Shodmondan Asad mergan qo'rqib:

— Unday bo'lsa, yursang yura ber, maydonga bo-
 ramiz, — deb merganning orqasidan yuraberdi.

Ikkovi birga-birga tog'ning boshiga chiqdi. Shun-
 day chiqib qarasa, tog'ning u tarafida dushmanning
 ko'p lashkari bor. Buni bular ko'rdi. Asad mergan
 aytdi:

— Ey, Shodmon aka! Bu dushman ko'p ekan, bu
 dushmanlarning ustiga bormoq imushkul-da. Lekin
 bulardi o'zlari ham ko'p bahodir zo'rabor edi.
 Urushni ko'p ko'rib, urushdan taysallab qolgan edi.
 Urushga kirganda, lak-lak lashkarlar bilan har qaysi-
 lari barobar urushar edi, urushini ko'p ko'rib, hiylayı
 amalgar bo'lib qolgan edi. Dushmanlarga uzoqdan
 ko'rinish berib, Asad mergan bu so'zni aytib

borayotir: — Dushmanga siyosat qilayik, urushga Go'ro'g'li keldi deyayik, Go'ro'g'lining dong'i Dog'istonga ketgan. «Go'ro'g'li keldi» desa, beshikdag'i bolasi yig'lamay yotgan, dushman yurtiga Go'ro'g'lining zarbasi o'tgan, — deb dushmanlarga qarab bir so'z deb kelayotir:

Bul ohini bir Ollohg'a yetkarib,
Dushman ko'rsa tig'i-damdan o'tkarib,
Dushmanni o'ldirar barin o'ngarib,
Chambilan Go'ro'g'li keldi, dushmanlar!

Dushman, ko'rgin Go'ro'g'lining ishini,
Qamsab kesar sendaylarning boshini,
Sulatar dushmanning gavda-loshini,
Chambilan Go'ro'g'li keldi, dushmanlar!

Qoyil bo'lar anga xalqi zamona,
Dushmanlar, senga bermas om'on-a.
Dushmanlar bilmas qilar ishini,
Yomon kunda to'kar ko'zdan yoshini,
Dushman, ko'rgin Go'ro'g'lining ishini,
Chambilan Go'ro'g'li keldi, dushmanlar!

Bu so'zni dushmanlar eshitdi. Shunday qarasa, ikki otliq tog'dan baqirib-chaqirib, siyosat qilib kelayotir. Buni ko'rib: «Boyagi Go'ro'g'lining odami ekan, bu kelayotganning birovi tayin Go'ro'g'li», — deb dushmanlar zanglovini tashlab, otini bitta-bitta ushlab, qochar yo'lini boshlab turdi. Merganlar shunday qaradi, lashkar qo'zg'oldi. Urush ko'rib yurgan giranda emasmi, Go'ro'g'lining otini tutib: «Mana men urushga ketdim, Go'ro'g'li bo'laman, qayoqqa qochib qutulasizlar», — deb otlariga dam berib, ikki mergan birdan dushmanning ustiga qarab ot qo'ydi.

Bularni dushmanlar ko'rib, aqli shoshib, takbiridan adashib, Asad mergan dushmanlarning lashkarini qira boshlab, ko'nglini xushlab:

Tog' atrofin chalib tuman,
Dushmanlarga bermay omon,
Shu sifatda Asad, Shodmon,
Jang qilar maydon ichinda.

Kesildi dushmanning boshi,
Sel bo'lgandir ko'zda yoshi,
Shuldir merganlar savashi,
Jang qilar maydon ichinda.

Oshiq fahmi oqshom-kecha,
Holin bilmaydi bir necha,
Dushmanlardan o'ldi ancha,
Qirildi maydon ichinda.

Dushmanlarni to'plab olib,
Yetganiga qilich solib,
Qochqinchisi yo'lga kirib,
To'pu to'pxonalar qoldi.

Eshitingiz merganlarning so'zini,
Qamsab ketdi dushmanlarning o'zini,
Nogahondan borayotib merganlar,
Yo'lda ko'rdi G'irko'k otning izini.

Xazon bo'lib, bog'da guli so'libdi,
Shum falak boshiga savdo solibdi.
Otning izi qizil qonga to'libdi,
Yo yarador yoki Avaz o'libdi.

Merganlarning xasta ko'ngli buzildi,
Ko'zdan yoshi qatra-qatra tizildi.
G'irotning izini ko'rib merganlar,
Toqqa qarab burdi otning boshini.

Shunda dushmanlarning o'lgani o'ldi, qochgani
qochib qutuldi, to'pu to'pxonalar o'lja bo'lib qoldi.
Bu o'ljalarga merganlar qaramay, G'irotning izidan
ergashib, tog'ning boshiga qarab, Avaz bilan G'irotni
axtarib borayotir.

Tog'ning ustiga chiqib bordi. Merganlarning otini ko'rib, G'irko'k kishnab qo'ya berdi. Buning kishnaganini Avazxon eshitib, «Dushmanlar kelib qoldi», deb jon talvasasida boshini ko'tarib qaradi. Qarasa, bular merganlar ekan. «Q'zimizning odamlarimiz ekan», — deb yana boshini qo'yib yotdi.

Merganlar Avazning bu holini ko'rib:

— Endi Avazni o'ldirmak kerak. Bu o'lgan yo'q, yarador ekan, hech nimaga holati kelmay qolgan ekan, — dedi.

Merganlar o'ylab aytdi:

— Avazni o'ldirsak o'lar-ketar, bunday o'g'il paydo bo'lmay qolar, Avazni o'ldirib, G'irko'kning o'zini Chambilga quruq minib olib borolmasmiz, Torkiston shahrida Malika parini ikkovimiz ololmasmiz», deb o'ylab. Endigi maslahat: dori-darmon qilayik, Avazni tuzatib olayik. Avaz o'zi uchun xizmat qilib Torkistonga borar, Malika parini olar, bizlar shaharlarni tomosha qilayik, shaharlarini ko'rganimiz qoladi. Qaytib shu yerga kelganda Avazni o'rtaga olayik, boshini yulayik, bexavotir malikani Chambilga olib borayik.

Go'ro'g'li: «Avazim, qayoqqa ketdi, qayoqda qoldi», deb so'rasha, «Avazing bir devning qanjig'asiga qolib bekorga o'lib ketdi», deb aytayik. «Barakalla, merganlar, tila maqsadlaringni», desa, Hazorasp shahrini tilab olayik, — dedi.

Asad mergan aytdi:

— Ey Shodmon aka, tila deganda Hazorasp shahrini tilab o'tirma, Bolqiyon shahrini ham qo'shib tila! Bola-chaqang rizqi-da, bir shahar bizlarga nima bo'ladi?!

Ikki mergan bu so'zni xo'p o'ylab, maslahat qilib, Avazning oldiga borib, badaniga tekkan o'qlarni su-g'irib olib, o'qning joyidagi qora qonlarini so'rib tashladi. Ikkovi Chambilda daftari mergan emasmi, Avazga dori topmoq uchun toqqa chiqib ketdi.

Nogahon oldidan bir ayiq chiqdi. Urib otib olib, o'tini oldi. Yana bir qashqirni otib olib, kartini oldi, toshbaqanining moyagini olib, uchovini birga qo'shib aralashtirib, yumurtqa malham qilib, Avazning yaraliga tortdi.

Avazning yarasi andak tuzalib, otga minadigan bo'ldi. Uchovi otlanib, otlariga minib, tog'dan pastga tushib, Torkistonning cho'liga Malika parini axtarib keta berdilar.

Shunda Asad mergan Avazga qarab: «Avaz, sen mening esonligimda g'am ema», deb bir so'z deb boraberdi:

Ushbu damning damlarini dam dema,
Shukur qilgin, davlatingni kam dema,
Men esonda, Avaz o'g'lon, g'am yema!
Hamroh bo'lding Asad, Shodmon to'raka,
Das etarman ko'kdan kelgan baloga,
Men esonman, g'am yemagin, sadag'a.
Otim Asad, o'zim misli ajdahor,
Savashli kun yuz mingiga barobar,
G'ayratimdan bo'zlab ketar dushmanlar,
Bosh osonda g'am yemagin, Avazxon,
Qabatingda Asad bilan Shodmon bor.

Ostimda yuz alvon o'yнaydi otim,
Belimda yarqillar keskir po'latim,
Shundan bo'lar sipohilik odatim,
Men omon, g'am yema, Avazbek zotim!

G'irotni o'ynatib eldan chiqibsan,
Bahodirlik dag'dag'asin qilibsan,
Dushmanlardan ko'p jafoni ko'ribsan,
Tog' boshida g'arib bo'lib qolibsan,
Xudoyim saqlagay bandani omon,
Boshingdan ketganday qayg'uli tuman,
Ish ko'rsatdi Asad bilan bek Shodmon,
Jaso ko'rib, xasa bo'psan, Avazxon.

Bu so'zni Asad mergan aytib borayotir. Avazxon indamay ketaberdi. «Ko'tarilsang ko'tarila bor», — dedi. Asad merganning ko'zi fil mingan dushmanning o'ligiga tushdi. Qo'rqib otining jilovini tortib, nash'asi uchib, xayoli qochib turdi.

Avaz aytdi: — Botirlar, hayday bering, bu yotgan o'lik, — dedi.

Merganlar aytdi:

— Avazxon, buni kim o'lirdi? — dedi.

Avaz aytdi:

— Men o'lirdim, — dedi.

Merganlar aytdi:

— Ey, Avazxon, shuni o'ldirgan bo'lsang, sen yaxshi bo'lib qolgan ekansan, — dedi.

Bunday o'tdi, Badbaxt cho'liga yetdi. O'lik degan bog'day bo'lib qiyrab yotibdi.

— Bularni ham men o'lirdim. Shu yerda yarador bo'lgan edim, — dedi.

Merganlar aytdi:

— Avazxon, sen shularni o'ldirgan bo'lsang, durust bo'lib qolgan ekansan, urushning tartibini bizlar bilan birga yurib, bizlardan ta'lim olsang, sening oyoq olishing durust ekan, bizlar bilan birga yursang, savash, urush ko'rsang, bizlarday bo'lib qolasan ekan, — dedi.

Lekin Avaz bularning so'ziga indamadi, javob ham bermadi. Uchovi qirq kecha-qirq kunduz yo'l yurdi. Yo'l yura-yura ayni savr degan kunlarda Beldos degan bir qirga yetib, beklar otdan tushib, otlarini o'tlatib yotdi.

Merganlar aytdi:

— Avazxon, boradigan joying yaqinmi? O'zing bilasanmi, necha kunda borasan, qaysi shaharga borasan? Kunma-kun bedov otlar bilan yo'l tortamiz, sira yetmaymiz, o'zing yo'lni bilasanmi, yo bekorga yurib, adashib borayotibmizmi? Dunyoning yuzidan chiqib ketdik. Endi dunyoning chetiga borayotibmiz, — dedi.

Avaz aytди: — Men ham ko'rganim yo'q. Otam shu yoqda, deb aytgan edi, — dedi. Uchovi so'zlashib gaplashib turib edi, bir tepadan tutun chiqayotir.

Merganlar aytди: — Ey, Avazxon, anov tepadan tutun chiqayotir, boradigan shaharing shu tapaning ostida bo'lmasin? — dedi.

Avazxon aytди: — Bo'lsa bo'lar, ikkoving bir borib, xabar olib kelsalaring-chi, — dedi.

Merganlar aytди:

— Avazxon, sen yosh bolasan, chopqillab borib xabar olib kelsang. Shu shahar bo'lsa, kelib bizlarga xabar bersang, undan keyin boramiz, — dedi.

Avazxon xayr deb o'rnidan turib, piyoda bo'lib, tapani aylanib borib qaradi. Qarasa, oldidan bir g'or chiqdi. G'orga boraberdi. Qarasa, g'orda bir darvoza ko'rindi. Darvozani ochib ichkari kirib qarasa, qirq dev o'tiribdi. Chiqib turgan tutun devlarning dami ekan, tutundan darak yo'q ekan.

Bu qirq devning kattasini Yaproq dev der edi. Avazxonne ko'rib, vaqtı xush bo'lib, «Xudodan har nima tilasak berar ekan, ustidan yeydigan barra kabobni ham berdi», deb oldidagi xizmatkor devlariga qarab bir so'z dedi:

Dod aylasa, eshitmagin so'zini,
Zulm bilan o'ying ikki ko'zini,
Ajal haydab bunda kelgan yosh o'g'lon,
Hayallatmay bo'zlattinglar o'zini.
Xazon bo'lib bog'da gulni teribdi.
Ajal yetib paymonasi to'libdi,
Bu yerkaga ajal haydab kelibdi,
Men bilmayman qay shahardan kelibdi.

Avazxon bu so'zni devdan eshitib, devlarga qarab bir so'z deb turibdi:

Bahorda ochilgan bog'ning guliman,
Yunusman Misqolning jonu diliman.

Otim Avaz, Go'ro'g'lining uliman,
 Bu yerkarda devni izlab keldim man.
 Otga solib arpa bilan iyirdi,
 Qor yoqqanda karvon soldi chiyirdi,
 Chambilda Go'ro'g'li otam buyurdi.
 Devlarga bo'lgandi mening safarim,
 Chambil elda bordir mening lashkarim.
 G'irko'k otni otam minib chop, dedi.
 Ishlamagan tayin devlarni top, dedi.
 Chambil elda men ham bekman, to'raman.
 Qilich ursam darrov boshing olaman,
 Chambil eltib seni loyga solaman,
 Chambilning qo'chqori o'zim bo'laman.
 Ostimda o'ynaydi yuz alvon otim,
 Maydonli kun tosha kelar g'ayratim,
 Yo'lda qolar, devlar, sening jasading.
 Ayo devlar, timsol aytay bir alvon,
 Bu davlatni menga bergandi rahmon,
 Ul meni buyurgan Go'ro'g'li sulton,
 Go'ro'g'li o'g'liman, otim Avazxon.
 Hayallama, oldimga tush bu zamon,
 Yo'qsa qilarman boshlaringga oxir zamon.

Bu so'zni Avazxonidan devlar eshitib, «Go'ro'g'li»
 degan so'zni eshitgandan poygada turgan devlar qo-
 chib to'rga o'taberdi...

...Avazxon bilan Shodmon, Asad mergan uchovlari
 birga yo'l tortib, Qizilqum degan yerga yetib bordi.

Shunday Avazxon qarasa, qip-qizil Qizilqum, un-
 dan boshqa nima yo'q, ko'kargan giyoh ham yo'q
 lekin qumning chekkasida bir chinor zinkiyib turibdi.
 Juda katta chinor. Uning yon yog'ini xaloyiq qo'rg'on
 qilib uyurib, devor qilib qo'yibdi. Qo'rg'onning devo-
 ri qalayidan. Buni ko'rib, Avazxon otini merganlarga
 berib:

— Sizlar shu yerda turinglar, bu chinor qanday
 chinor ekan, bu qo'rg'on qanday qo'rg'on ekan, men

borib, ko'rib kelayin, — deb shu chinorga, Qalayi qo'rg'onga qarab jo'nab ketdi.

Borib Qalayi qo'rg'onning darvozasini ochib ichkariga kirdi. Ko'rsa, chinorning osti sarhovuz. Chinorning o'zi juda katta, shoxlari har yoqqa shoxlab ketgan, har bir shoxida to'ti, mayna, bulbullar bola ochib, bola qo'yib sayrab yotgan. Ovozasi olamga ketgan, ajab chinor ekan. Bu qanday chinor ekan, deb qarab turib edi, darvozadan bir qalandar ichkariga qarab kela berdi. Qalandarning haybatini, jasadini ko'rib Avaz qo'rqib o'zini har yerga urdi, hech yer pana bormadi. Avazxon aqli shoshib, ilojini topa olmay, noiloj chinorning ustiga chiqib oldi. Qalandar kelib chinorning ostiga qo'ndi. Kadi-mudbaq, so'talarini daraxtga ildi. Telpagining tarkidan bir olmani chiqarib, jag'ig'a bir urib, parizod qilib, buning bilan o'ynab-kuldi, dimog'ini choq qildi. Buni Avazxon chinorning boshida ko'rib turdi. Qalandar parining tizzasiga boshini qo'yib, jamoliga tomosha qilib, uqlab qoldi. Qalandar uyqudan turib, parizodning jag'ig'a bir urib olma qilib, telpagining tarkiga solib, kadi-mudbaq, so'talarini olib, «Yo Olloh, bir Olloh!» deb yo'lga kirib jo'nay berdi. Avazxon shoshib-pishib chinordan tushib, qalandarga tovush qilib, so'radi:

— Bobo, bu xotinni qayerdan olib edingiz? — dedi.

Qalandar aytди:

— Men bundan ilgari Gulshanning bog'idan tilanib gadoylik qilib yurib kelayotib edim. Gulshan bog'ining ichida, shisha hovuzda hamma parilar cho'milib yotgan ekan. Muni shu yerda bir gulbutaning tagiga o'tqazib qo'ygan ekan. Tilsimot, duo o'qib, muni olma qilib, telpagimning tarkiga solib, parilardan qochib qutulib ketib edim. Mening changalimga tushganiga o'n sakkiz yil bo'ldi. Shundan beri buni bir narsaga, jonzodga ko'rsatmay yurgan edim.

Bu so'zni qalandar Avazga aytib turib edi, yana bir qalandar «Olloh bir, Olloh» deb darvozaning eshi-

gidan kirib kela berdi. Avazxon qalandarning qaddi-qomatiga shunday qaradi. Qarasa, boshdan-oyog'i birday qalandar, har yag'rini qirday qalandar, boshida kuloh, qo'lida so'tta. Sulaymon payg'ambarning nafasi, deb so'tta bilan chinorni bir urdi. Chinordan bir eshik ochildi. Avazxon qarasa, chinorning ichida dar-chama-darcha uch ko'shk bor ekan, ko'shklarni ko'rib, qalandar aytdi:

— Obbo shallaqi, bu yerda ham yo'q ekan, — dedi.

Avaz aytdi: — O' bobo, siz kimni izlab yurib edingiz, kimni tayinlab qo'yib edingiz bu yerga, nima ishda yuribsiz, kimni axtarasiz? — dedi.

Shunda qalandar Avazga qarab, yurgan yuri-shini, chiqqan yurtini, qilib yurgan ishlarini bayon berib, bir so'z deb turibdi, Avazxon quloq solib turibdi:

So'zimga quloq sol, turgan yosh o'g'lon,
Meni so'rsang Chin-Mochindan kelaman.
Senga qurban menday bobongning joni,
Chin-Mochinda, bilsang, bobong makoni,
Qalandar deb, bolam, g'osil qolmagin,
Aslimni so'rasang, Chin-Mochin xoni.
Yor ishqida, bolam, bo'ldim qalandar,
Va'da berib ketdi gul yuzli dilbar,
Otini so'radim — Malika ayyor,
Shu chinorni va'da bergen gajakdor.
Torkistonda degan erdi shahrini,
Ko'p yerni axtardim — dunyo borini,
Hech bir yerdan topolmadim parini,
Ko'p halak ayladi xaridorini.
Soqolim oqarib, yoshim qaytganda,
Yor xanjari o'rtab ketdi bag'rimni,
Tishim tushib, oyoq go'rga yetganda,
Axtaraman Malikaday parini.
Izlab topsam malikaday gajakdorni,
Sabil qilay Chin-Mochinning shahrini,

Sen eshitgin menday bobong so'zini,
 Kuchuk bosmas yo'lbars, sherning izini,
 Izlab chiqdim Qosimshohning qizini,
 Elning Malikaday saryvinozini.
 Chin-Mochin shahrida qoldi kirdikor,
 Ko'p halak ayladi gul yuzli dilbar,
 Izlaganim Malikaday suyar yor,
 Ul sababdan, bolam, bo'ldim qalandar.
 Chin-Mochin shahrida mamlakatimdi[r],
 Xon qalandar deydi mening otimi.
 Izlab chiqdim Malika parizodimdi,
 Beega qilganman o'sgan yurtimdi.
 Quloq sol, eshitgin aytgan nolaga,
 Banda ko'nar Haqdan kelgan jalaga.
 Shoqalandar deydi meni, sadag'a,
 Eshit bolam, bu kun mening nidoga.
 Qalandar der: Chin-Mochindan kelaman,
 Devni ko'rsam qamsab boshin olaman.
 Dev bitganning kushandası bo'laman,
 Nasib qilsa, Malikani olaman.
 Otim Qalandardir, o'zim zo'rabor,
 Lak-lak devlar bo'lolmaydi barobar,
 G'ayratimni ko'rsa yig'laydi devlar,
 Malikaga bo'lib chiqdim xaridor.
 Torkistonda ko'rgin bobong ishini,
 Sulataman devning gavda-loshini,
 Oxir qilay devlar o'tirishini,
 Shuytib olay Malika buvishini.
 Bu so'zlarni aytdi bobong Qalandar,
 Na joylardan kelding davlatli shunqor?
 Men qalandar Malikaga xaridor,
 Bu yerlarda, bolam, nima ishing bor?

Avazxon bu so'zni eshitib, qalandar bobosiga qarab, Avazxon ham boshidan o'tgan ishlarni bir-bir aytib, qalandarning so'ziga javob berib, bir so'z deb turgani:

Ayo, bobo, timsol aytay bir alvon,
 Olmos-po'lat belda, egnimda qalqon,
 Go'ro'g'li o'g'liman, otim Avazxon.
 Siru holing, bobo, bayon aylading,
 Men ham, bobo, senday yurgan, sargardon.
 Chambilning elida davron suribdi,
 G'irko'k otni bir kun otam minibdi,
 Shakarko'lga bir kun ovga boribdi.
 Ovda yurib parizodni ko'ribdi,
 Siru holin otam shunday so'rabdi,
 Torkiston deb anga xabar beribdi.
 Malika ekanin aniq bilibdi,
 Pari bilan necha va'da qilibdi,
 Ul sababdan shunga ko'ngil beribdi.
 Qulq soling, bobo, aytgan tilima,
 Yetarmanmi Torkistonning eliga?
 Otam oshiq Malikaning o'ziga,
 Malikaning oyday to'lgan yuziga,
 Oshiq bo'pti Qosimshohning qiziga,
 Torkistonning shunday jodu ko'ziga.
 Torkistonning shunday sarvinoziga,
 Otam oshiq bo'lgan malikaning o'ziga.
 Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
 Gulni ko'rsa mast bo'b sayrar bulbullar.
 Minib chiqdim G'irko'kdayin tulporni,
 Borar bo'lsang, men ham hamroh, qalandar!
 Chambil elda men ham bekman, to'raman,
 O'z elimdan mehnat tortib kelaman,
 Nasib etsa Malikani olaman,
 Men ham Malikaga ketib boraman.

Ana shunda Avazxonning bu so'zini o'tirgan qalandarlar eshitdi. Ulardan biri Avazxonga qarab, bir so'z dedi:

Ko'zdan yoshim munchoq-munchoq tizildi,
 Diyda giryon bo'lib, bag'rim ezildi,

Malikani aytding, ko'nglim buzuldi,
Borar bo'lsang, men ham hamroh, Avazxon.

Meni so'rsang, Rum elidan kelaman,
Jafo tortib Torkistonga boraman,
Bir qiz uchun jafo tortib yuraman,
Borar bo'lsang, men ham hamroh, Avazxon.

G'am bilan sarg'aydi guldaiyin diydor,
Izlab chiqdim men ham Torkiston shahar.
Sen eshitgin menday bobong so'zini,
Olmaday so'ldirib gulday yuzini,
Toparmanmi Oqdevshohning qizini,
Borar bo'lsang, men ham hamroh, Avazxon.
Ayroliq o'tiga bag'rimni dog'lab,
Men yuribman Tillaqizni so'rog'lab,
Tillaqiz, deb shunday bo'ldim qalandar,
Ko'p jafoni soldi gul yuzli dilbar,
Shu sababdan men ham yurgan qalandar,
Rumning yurtida qoldi kirdikor,
Tillaqiz, deb men ham bo'lgan qalandar.

Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyada.
Na ko'rib kechirdim soniy dunyoda?
Yor xanjari o'rtab mening bag'rimni,
Besh yuz yillik yo'ldan poyu piyoda.

Rum elida men ham Hasan podshoman,
Yor ishqidan qalandar bo'p yuraman.
Rum elidan o'zim oshib kelaman,
Bu yo'llarda sarson bo'lib yuraman.
Laqabimni deydi ustayi Zargar,
Torkistonda Tillaqizday yorim bor,
Malikani aystsang, ko'nglim buzilar,
Borar bo'lsang, men ham yo'ldosh, Avazxon.

Qulog soling menday bobong tiliga,
Podsho edim, bolam-ey, Rum eliga.
Yor ishqidan bo'lib ketdim qalandar,

Axtarib ko'rganman juda ko'p shahar,
 Borar bo'lsang, men ham hamroh, Avazxon,
 Borar bo'lsang, men ham yo'ldosh, Avazxon.

Sen eshitgin Shozargarning so'zini,
 Olarmanmi Oqdevshohning qizini,
 Tillaqizday gajakdorning o'zini.
 Jahonni sayr etib o'ynab-kulamiz,
 Nasib bo'lsa birga-birga boramiz,
 Bu yo'llarda harna bo'lsa, bo'lamiz,
 Borar bo'lsang, men ham hamroh, Avazxon!

Shunda Avazxon Qalandardan bu so'zni eshitdi:
 Muning podsholigini bildi. «Muning birovi Rum
 mamlakati podshosi ekan, birovi Chin-Mochin
 elining podshosi ekan», — dedi. Aytdi:

— Ikkoving ham bir yor uchun o'zlarining qalandar
 qilib, yo'llarda ko'p sarson bo'lib, shuncha podshohlik
 shavkatidan, arkoni davlatdan kechib, yayov munday
 qalandar bo'lib yurmoq ne darkor? Bu yo'l uzoq yo'l
 bo'lsa, suvsiz qip-qizil qizil qum bo'lsa, bu qumni
 kunda bosib o'ta olmay yursa. Bu qip-qizil qumda
 piyoda yurib, ochlikdan, suvsizlikdan suvsab, ochqab,
 ovora bo'lib, ikkoving ham o'lasan. Podsho bo'l-
 sanglar, otlanib yursanglar bo'lmaydimi? Bu qanday
 rasvochilik?! O'zlariningizni muncha abgor qilib, bu
 cho'lda ko'p sarson bo'lasizlar, — dedi.

Shoqalandar Avazxonidan bu so'zni eshitib, aytdi:

— Sening otangning chiltanlar tarbiya qilgan oti
 bor, har yerga borsang, uchar qushday, qamehi
 ursang, uchar qushdan o'tadi. Qanday dushmanni
 quvsang yetadi. Ul otangning otini mingan kishi nima
 qilaman desa, murodiga yetadi. Bizlar podsho bo'lga-
 nimiz bilan bizning bunday chiltan tarbiya qilgan
 optimiz yo'q. Boshqa otlar bu yo'llarda yura olmaydi,
 hojat bermaydi. Sen ot, yaroq-asbobingga ishonsang,
 biz xudoyimizga ishonib, telpagimizni qayqaytib ke-
 layotibmiz. Bizning telpagimizning qayqayganini

bizga ta'na qilma! Yo'lida ko'ramiz, birga-birga borayotibimiz, bizlarning kim ekanmizni sen ko'rasan, sening ahvolingni biz ko'ramiz, yo'l uzoq bo'lsa ham poygasi yovuq. Mana bu Qizilqumni, omon bo'lsak borib ko'ramiz, — deb ikki qalandar, Avazxon uchovi chinorning oldida ko'p so'zlarni gaplashib, maslahatni bir yerga qo'yib:

— Ey bolam, gapdan nima chiqadi, yo'l yurmoq a'loroq. Endi yo'l yurayik, — dedi.

Unda Avazxon aytди: — Unday bo'lsa, ey bobolarim, mening yana ikkita jo'ra-yo'l doshim, otlarim bor edi. Endi yo'l yurar bo'lsak, jo'ralarimni borib aytib kelayin, undan so'ng birga-birga jam bo'l shib yo'l yuramiz.

Bobolari: — Borib aytib kel, unday bo'lsa, darrov kel, — dedi.

Avazxon Asad mergan bilan Shodmon merganning oldiga borib, otini minib, ikkovini ergashtirib, chinor yoniga, sarhovuz oldiga olib kelib, bobolarini ko'rsatdi. Merganlar qalandar bobolari bilan ko'rishib, so'rashib o'tirdilar. Bu ikki bobosiga bildirmagan kishi bo'lib, Avazxon ko'nglida: «Ajab ishlarni, ajab shaharlarni, ajab sir-asrirlarni bu bahona bilan ko'rdim, ajab jahongashta bo'ldim. Jahonni, ajoyib-g'aroyib-larni ko'rdirik», dedi. Endi yo'l yurmoqchi bo'lib, maslahatni bir yerga quyib, Avazxon, Shodmon mergan, Asad mergan uchovi ottanib, ikki qalandar piyoda-yayov, telpagi qaqqayib bu ikki toboqlik odam bo'lib, Qizilqumga tushib jo'nay berdilar. Bularning yurishini shoir bayt bilan shunday keltirib aytadi:

Azamatlar olmos boylar dastiga,
G'anim tushar kam davlatning qasdiga,
Beklar minib bedov otning ustiga,
Qumni yuzib irg'ir edi bedovlar,
Chuv, deb qamchi urib, hov, bir beklar,
Anga hamroh bo'ldi ikki qalandar.

Tushib jo'nadi bari qizil qumiga.
 Uzoq yo'ldir Qizilqumning orasi,
 Mast bo'lqandir Chin-Mochinnning to'rasи.
 Mast bo'lib so'tasin otdi Qalandar,
 Qizilqumni to'zon tutdi muqarrar,
 Qistasa ham yetolmaydi bedovlar,
 Shaydullo, deb yo'l tortadi qalandar.

Ko'zidan yoshini tizib boradi,
 Qalandarlar otdan o'zib boradi,
 Bedovlar qumlarni yuzib boradi,
 Kun-bakun badani qizib boradi,
 Avaz o'g'lon ko'nglin buzib boradi,
 Dunyodan umidini uzib boradi,
 Shaydullo, deb qalandarlar jo'nadi.

Tavakkalni bir xudoga qiladi,
 Avaz o'g'lon yaratganga jiladi,
 Chuv deydi, G'irotg'a qamchi uradi,
 Qalandarlar otdan o'zib boradi.
 Qumlarda horiydi minganda tulpor,
 Avazxonning bahodirlik nomi bor.
 Qamchi urdi Avazxonday zo'rabor,
 Yashin tashlab irg'ir edi bedovlar,
 Mast bo'lib boradi ikki Qalandar,
 Qistaganman yetolmaydi bedovlar.

Yursa Qizilqumni to'zon oladi,
 Mast bo'lib qalandarlar boradi,
 Harchand qichaganman bahodir beklar,
 Qichaganman yetolmaydi bedovlar,
 Mast bo'lib boradi Qalandar,
 Hayron bo'lib borayotir zo'rabor.

Davlat qo'nsa gar chibinning boshiga,
 Semurg' qushlar salom berar qoshiga,
 Banda ko'nar tangri qilgan ishiga,
 Avaz qamchi urar aspi qushiga.

Chu! — dedi G'irotg'a qamchini chotdi,
 Tillari tanglayga bordi-da, qotdi.
 Suvsizlikdan osha jabrlar o'tdi,
 Qizilqunida Qalandarlar yo'l tortdi.

Tashna bo'lib qumda bedovlar yotdi,
 Merganlar ham Avazxonni yig'latdi.
 Qalandarga Avaz qarab ko'z tutdi,
 Qalandar qayqayib shunda yo'l tortdi.

— Armon bilan o'ldim, g'amming ye, dedi,
 G'arib bo'ldik, bobo, beri kel, dedi,
 G'ariblikda mendan xabar ol, dedi.
 Hech kimsaga kelmay qoldi holatim,
 Tashna bo'lib yiqligandir G'irotim,
 Qumda qolar o'xshar mening jasadim.

Uchqur edim, qanotimdan qayrilib,
 Yugruk edim, tuyog'imdan tayrilib,
 Qumda qoldim man otimdan ayrib,
 Tashna bo'lib qoldim munda mung'oyib,
 Murdam munda bo'imasin-da besoyib.
 Illohim rahm aylasin qonli yoshimga,
 Xafa falak og'u qo'shd'i oshima,
 Mo'min bo'lsang, bobo, kelgin qoshimga,
 Ko'p kulfatlar tushdi mening boshimga,
 Mo'min bo'lsang, menga hamroh qalandar.

Qizilqumda, bobo, bo'ldik xoru zor,
 Holatdan ketdi-ku mingan bedovlar,
 Tashna bo'lib yig'lar Avaz zo'rabor.
 Mo'min bo'lsang, menga hamroh Qalandar.

Bu so'zni aytib Avaz o'g'lon yig'ladi,
 Qalandar burilib shunday qaradi,
 Bu so'zni aytib Shoqalandar keladi:
 Zargar, sizman birga-birga bo'layik,
 O'g'lonlarning borib holin so'rayik,
 Qumda g'arib bo'ldi Chambilning mardi,

Tashna, bo'lib yiqilibdi G'iroti.
Harna xizmat bo'lsa, borib qilayik.

Bu so'zni o'ylab Shoqalandar keladi,
Kelib Avazxonning holin so'radi.

Qalandarlar Avazxonning oldiga kelib:

Haqqa yetgay aytgan nolam,
Obod bo'lgay kulbaxonam.
Sensan mening Avaz bolam,
Sarg'aygandir gulday yuzing,
Sen ham ayrilmagin mendan,
Men ham ayrilmayin sendan!

Bahorda ochilgan gulim,
Sensan mening jonu dilim,
G'arib bo'lgan Avaz ulim,
Sen ham ayrilmagin mendan,
Men ham ayrilmayin sendan!

Mundan Torkiston borguncha,
Dushmanga qirg'in solguncha,
Shohning qizini olguncha,
Sen ham ayrilmagin mendan,
Men ham ayrilmayin sendan!

Qaytib Qizilqum kelguncha,
Devlarga qirg'in solguncha,
Bundan O'rtacho'l borguncha,
Oyim Malikani olguneha,
Sen ham ayrilmagin mendan,
Men ham ayrilmayin sendan!

Mundan Chambilga borguncha,
Nomdor otangni ko'rguncha,
Dunyoning davrin surguncha,
Sen ham ayrilmagin mendan,
Men ham ayrilmayin sendan,
Jonim, ayrilmagin mendan!

Shunda qalandarlar bu so'zlarni aytib, Avazxon, Asad, Shodmon merganlarning oldiga kelib, birovi bir tilsimot qilib, Shoqalandar bu uch polvonni olma qilib, telpaginining tarkiga soldi, Shozargar ham bir tilsimot o'qib dam qilib, uch bedov otni to'rg'ay qilib, kadi-mudbaqiga qamab oldi.

Shoqalandar beklarni ko'tarib, Shozargar bedov otlarni ko'tarib, «Yo Olloh, bir Olloh!» deb, telpagi qayqayib, mast bo'lib, Qizilqumga tushib, ketib borayotir. Avaz o'g'lon Chambildan bahodirlik nomini qilib, bu Torkiston shahriga bormoqqa bel bog'lab, bahodirman degan Avaz, bugungi kunda qalandarlarning qo'lida olma bo'lib, bedov otlari to'rg'ay bo'lib chuldirab qola berdi.

Ana shunday qalandarlar bularni ko'tarib, xizmat qilib, qumda necha muddat yo'l yurib, bir qumning ustiga tushib: «Endi bir kayf qilib, undan so'ng yo'lga tushib jo'naymiz», — deb o'tirib, dimog'i chog' bo'lib aytди:

— Endi mazgil yaqin qoldi. Bular ham endi dамини olgандир. Endi bularни asliga keltirmoq lozim. Bular bilan hangamalashib, gaplashib ketayik, — deb bir tilsimot o'qib, Avaz bilan merganlarni asldagi husniga keltirib, ham otlarni aslidagi tulporlik husniga keltirdi.

Shoqalandar aytди: — Ey, Avazxon, endi yo'l yaqin qoldi, hangamalashib borayik, — deb seni avvalдаги husningga keltirdik. Endi birga-birga yo'l yurayik.

Avazxon merganlar bilan uchovi otlanib, bedovlarni minib oldi. Qalandarlar telpagi qayqayib yayov yo'l boshlab, «Shaydullo, Olloh, bir Olloh!» deb yo'lga tushib ketaberdi. Ana shunday qilib beshovlari otliq-ma-yayov bo'lib, Qizilqumda yo'l yurib bora berdi. Shunda yo'ldagi borganiga shoirlar bu so'zni aytади:

Xudo qilgan ishga banda ko'nadi,
Bedov minib, endi, beklar jo'nadi.

Qalandarlar unga hamroh bo'ladi,
Harna bo'lsa taqdiridan ko'radi.
Eshitingiz bunday shohning so'zini,
Qumlarda qichaydi aspi tozini.
Izlab chiqqan Qosimshohning qizini,
Malikaday uning sarvinozini.

Yarg'oq bo'ldi jonivorning siyog'i,
Tos tepada qoldi ikki qulog'i.
Yigirma uch kecha-kunduz yugurib,
Korsonidan ivib tushdi tuyog'i.
Yigirma besh kecha-kunduz o'tganda,
Qorayib ko'rinishdi Ko'klamning tog'i,
Yetmish yillik yo'ldir boshdan-oyog'i.

Horib borayotir bedov tulpori,
Oh tortib qaraydi Chambil beklari.
Yarqillab ko'rinar devlar shahari,
Har chashma bo'yida besh yuz chinori.

Shunda bu ko'rindi tog'ning qorasi,
Buning bordir uch yuz oltmis darasi.
Ko'p bo'ladi Oq devshohning hiylasi.

Har daradan to'qqiz chashma oqadi,
Har chashmaga botmon zahar qotadi.
Tashna beklar zahar suvg'a yetadi,
Mayj urgan daryoni beklar ko'radi.
Tashna edik — dedi shunda bu beklar,
Vaqt xush bo'b shodu xurram bo'ladi,
Ichmakka Avazxon ko'ngil qiladi.
Shoqalandar endi bundan xabardor:

— Mundan totgan odam tayin o'ladi!
Icharman deb, Avaz, ko'ngil qilmagin,
G'arib bo'lib bu yerlarda o'lماgin,
Daryo deb bularga mag'rur bo'lماgin!
Bu ellarda bordir jodugar devlar,
Bu ishlardan Avaz o'g'lon bexabar,

Totgan jonzod omon qolmas muqarrar,
 Bu suvlarga zahar qo'shgandir devlar.
 Bu so'zlarni aytgandir Shoqalandar,
 Bu ishlardan senday beklar bexabar,
 Har kim ichsa o'lar, Avaz, zo'rabor.

Nasihat beradi Shohiqalandar,
 Tashnalikdan yiqildilar bu beklar.
 Xudo deyishib, hamroh, bo'lib Shozargar,
 Hojatini tilab yig'lar merganlar.

Shunda Avazxon, merganlar qalandardan bu so'zni
 eshitib, suvga zahar qo'shganini bilib, tashna bo'lgan
 bek xafa bo'lib yig'ladi. Tashnalikdan tillar tanglayga
 qotdi. «Xudo», deb beklar, Qalandarning Shohzargari
 bularga qo'shilib yig'layberdi. Yig'lab-yig'lab, suv-
 sizlikdan ilojini topolmay, qanday qilarini bilmay,
 ko'kragini nam yerga berib yotdi.

Bedov otlari ham suvsizlikdan ko'p horib-char-
 chab, tili og'zidan bir qarich cho'zilib, bu bedov
 otlarning ham yurarga holati qolmay, bular ham
 tappa tushib yotdi. Bular Ko'klam tog'da shu ko'r-
 gilikda ko'p suvsab, horib-charchab, yig'lab, chuvillab
 yotib qoldilar.

Ana shunda jo'ralarining Ko'klam tog'da suvsab,
 charchab qolganini Shoqalandar ko'rib, bularning
 suvsab yiqilganini bilib, Ko'klam tog'ining ustiga
 chiqqan qumdan qutulib toqqa yetganda jo'ralarini
 yurolmay yiqilib qolganiga Shoqalanlarning bular
 holiga rahmi kelib, aziz avliyolardan suv tilab, aziz-
 larga yalinib-yolborib bir so'z deb turgani:

Barchanining otasi hazrati Odam,
 Payg'ambarlik anga bo'ldi musallam.
 Ibrohim, Ismoil, Makka muazzam,
 Dirlarning chirog'i imomi A'zam,
 Muhammadga ummat, Haqqa musallam,
 Tashnalarni serob aylar ko'p bo'ldi.

Ruhing bino bo'ldi olamdan burun,
 Arshu kursi, lavhi qalamdan burun.
 Haq rasul, men sizga sig'indim bugun,
 G'amli qullar yig'lashar yig'in-sig'in,
 Yig'laganning bo'lur ko'z yoshi tugun,
 Tashnalarni serob aylar ko'p bo'ldi.

Bu so'zlarni aytar Shohiqalandar,
 So'tasini yerga urdi boyakbor,
 Qo'l ko'tarib duo qildi chiltanlar.
 Bir chashma oqib, Haq-parvardigor,
 Ichib serob bo'ldi ul tashna beklar.

Shodu xurram bo'lib bu tashna beklar,
 Serob bo'ldi bedov bilan polyonlar.
 Bularning yig'laganin xudo eshitdi,
 Tashnalik kulfati boshidan ketdi.
 Dimoqlari choq bo'lishib barining,
 Yugurishib kelishib bu suvdan ichdi.

Ana shunda Shoqalandarning munojatini xudoyi taolo qabul qilib, so'tasining ostidan bir chashma-buloq paydo bo'lib, beklar, qalandarlar, bedovlar ichib, hammasi suvga to'yib, serob bo'lib, xudoyi taologa shukurlar qilib, aziz avliyolarni yod qilib, ruhlariga duoyi xayr qilib yubordilar. Ana shunda bu qalandarlar, beklar suvdan ichib, «xudoyi taolo bizlarga yor bo'ldi», deyishib, dimog'i chog' bo'lishib, maslahat qilib o'tirganda, Shoqalandar aytdi:

— Ey, Avaz o'g'lon — bolam, endigi maslahat shul: Torkiston shahar bir bo'lsa, shu tog'ning ostida, yo ichida bo'lar. Sizlar endi shu yerda o'tiringlar, men borib bu tog'ning u yoq — bu yog'ini ko'rib, mo'ljallab kelayin. Agar Torkiston shaharidan darak topsam, kelib sizlarga xabar berayin, — deb o'midan turib ketdi. Avazxon, Shozargar, merganlar bu chashmaning oldida qoldi.

Ana shunda Shoqalandar borayotib edi, oldidan bir yolg'izoyoq bir tovon yo'l chiqdi. Bu yo'l bilan bora berdi. Qaradi, yo'li pastga tushdi, tushib keta berdi. Qirq zinapoya pastga tushib ketdi, bir katta — misli bir shahri azimday yerga bordi. Jonzod yo'q, odamzodning suyagi tog'-tog', tom-tom bo'lib uylilib yotibdi. Qalandar bu suyaklarni oralab dar hayron bo'lib yurib edi, falakdan bir dev uchib quyulib kelayotir, yetmish ming ko'kkashqa devdan jilovdori bor, yonida bir bola ham bor. Bu devning siyosatini, haybatini qalandar ko'rib qo'rqb, o'zini har yerga urdi, hech yer pana bermay qoldi. Shunda uyuqli turgan suyaklardan ovoz chiqib, qalandarga qarab, bir so'z deb turibdi:

O'z elimda shohlik g'amin yeb edim,
Malikani biz olarmiz, deb edim,
To'qson to'rt lak-lashkar bilan keb edim,
Shu devning changiga bo'ldim girifor.

Hech kim bo'lmas ushbu devga barobar,
Yetmish besh shaharning bunda qoni bor.
Malika deb o'ldi necha go'zallar,
Hech kim bo'lomadi devga barobar!

Sen ham bo'bsan Malikaga xaridor,
Odamzodga bu odamzod joy berar.
Suyakning ostiga kirgin, qalandar,
Shunday ko'rsa, armon bilan o'ldirar!

Dod aylasang, eshitmaydi so'zingni,
Zulm bilan o'yar ikki ko'zingni,
O'ldiradi, devlar ko'rsa, o'zingni.
Suyakning ostiga kirgin, qalandar,
Ushbu devga sen ham bo'limagin duchor!

Devlar ko'rsa, to'kar ko'zdan yoshingni,
Zulm bilan kesar tandan boshingni,
O'rta ga olib bari yeysi go'shingni,

Ko'rolmaysan qavmu qarindoshingni,
Oxir qilar devlar o'ltilishingni.

Malika deb jafo tortib kelasan,
Odamzodsan bunda g'arib bo'lasan,
Devlar ko'rsa sen ham bizday o'lasan,
Suyakning ostiga kirgin, qalandar!

Bu dev haybatlidir, osha zo'rabor,
Odam nasli bo'lolmaydi barobar,
Suyakning ostiga kirgin, qalandar,
Shu dev ko'rsa, tayin seni o'ldirar!

Ana shunda qalandar, uyulib yotgan suyaklardan bu so'zni eshitib, o'zi qaysi yerga borarini bilmay, nima qilarini o'ylab turar edi, «Bu yaxshi bo'ldi», deb xirmon bo'lib turgan suyakning oldiga borib, suyakka qarab zarb qildi: «Yoril!» — dedi. Suyaklar o'tasidan yorildi. Qalandarga joy berdi. Qalandar suyakning orasiga kirib jo bo'ldi.

Shunda Boymoq dev yetmish ming dev bilan osmondan uchib kelib tushib, bir shosupa bor edi, shunga kelib o'tirdi. Yetmish ming ko'kqashqa devlari qo'lini qovushtirib Boymoq devga qarab xizmatida turdi. Boymoq devning tizzasidagi bola bu qalandarni ko'rgan edi. «Bu odamzod ekan, odamning isi chiqadi, bu sho'rli qalandarni Boymoq devning devlari, yo o'zi yeb qo'ymasin», deb o'ylab, Boymoq devga janjal qildi.

— Menga mana bu turgan xirmonday suyakning ustiga joy soldirib bering.

Boymoq dev xizmatkorlariga buyurdi:

— Muni xasa qilmanglar, aytgan joyidan joy solib beringlar, — dedi.

Boymoq devning xizmatkorlari qalandar kirgan suyakning ustiga bolaga joy solib berdi. Bola shul xirmonday suyakning ustiga chiqib o'tirdi.

Shunda bola aytdi:

— Men shu yerda picha damimni olayin, ko'p charchadim.

Boymoq dev:

— Xayr, sen o'tirsang, o'tir, — deb bunga javob berib, yetmish ming ko'kqashqa xizmatkor devlariga qarab aytdi: — Endi bizlar dalaga chiqaylik, ov-ovlab kelaylik.

Bari birdan tayyorlanib, dalaga qarab chiqib ketdi. Qalandar bu bolaning ko'rghanini bilgani yo'q edi. Bolaning bir o'zi bu yerda qoldi. Shunda bola suyakning ustida turib, qalandarga gapirib, bir so'z dedi:

O'z elinda shohlik g'amin yeb edim,
Malikani men olarman, deb edim,
O'n sakkiz lak lashkar bilan keb edim,
Malika deb qoldim devning changida.

Rahm aylamay ko'zdan oqqan yoshima,
Xafa falak og'u qo'shdi oshima,
Qo'shilolmay men ham tengu to'shma,
Malika deb qoldim devning changida.

Kecha-kunduz men yig'layman mung'ayib,
Kamolimdan murdam bo'ldi besoyib,
Ota-onam qoldi sochini yoyib,
Malika deb qoldim devning changida.

Podsho edim, shunday bo'ldim xor-zor,
Malika deb bo'ldim devga giriftor,
Suyakning ostida yotgan, qalandar,
Sirlashaylik, senga aytar arzim bor.

Malika deb o'lgan necha go'zallar,
Sen ham bo'bsan Malikaga xaridor.
Oh urganda ko'zda yoshim sel bo'lar,
Suyakning ostida yotgan qalandar,
Sirlashaylik, jonim bobo, berman kel.

Hovdak ko'lda men qush solib yurganman,
Jahonni sayr etib o'ynab-kulganman,

Malika deb lashkar bilan kelganman,
 Lashkarimning barin nobud qilganman,
 Malika deb bu yerlarda qolganman,
 G'arib bo'lib dev changiga tushganman.

Shunda qalandar qo'rqib: «Obbo, meni ko'rgan
 ekan, endi chiqmasam bo'lmaydi», deb suyakning
 ostidan chiqdi. Shunday qarasa, odam naslidan
 ekan.

— Ey bolam, sen odam naslidan ekansan, nima
 qilib bu devlarning changalida yuribsan? — dedi.

U bola qalandarga aytdi: — Ey bobo, Zebit shah-
 rining shahizodasi edim. Hovdak ko'lida qush solib,
 ov oylab yurgan vaqtimda bir Malika degan qiz
 menga yo'liqdi, menga va'da berdi, shu yerni ko'r-
 satdi.

Shunda men o'n sakkiz lak lashkar bilan Malikani
 izlab yetti yoshimda shu yerga keldim. Munda kelgan
 so'ng lashkarlarimning barisini shu devlar yeb qo'ydi,
 lekin meni o'ldirgani ko'zi qiymadi, oradan yetti yil
 o'tdi, men hozir o'n to'rtga kirdim, yetti yildan beri
 devlarning qo'lida kosaguli bo'lib yuribman.

— Devlarga kosaguli bo'lsang, ko'p nafni egansan.
 Shuncha xizmat qilib Torkiston shahrini ko'rdingmi,
 bildingmi? — deb qalandar so'radi. Bola:

— Ey bobo, men Hovdakning ko'lida Torkiston
 shahrini Malikaning o'zidan eshitganman. Bu devlar-
 dan, yo boshqa devlardan yoki boshqa jonzoddan
 eshitganim yo'q. Yetti yildan beri devlarning qo'lidan
 ayrila olmay, bandi bo'lib yuribman, — dedi.

Qalandar boladan bu so'zni eshitib, bolaga qarab:

— Ey, Malikaning shahrini, Torkiston elini shu
 devlar biladi. Devlar kelganda, sen devlarga inoq
 ekansan, so'ragin. Boymoq dev Malikaning xizmat-
 kori bo'ladi, hamma ishdan xabari bor, bu ishlarning
 barini Boymoq dev biladi. Lekin so'raganing bilan
 devlar senga Torkistonni, Malikani aytmas, «Sening

nima ishing bor», der. Shunda sen ulay-bulay de, o'zimni o'ldiraman, deb jo'rttaga bir pichoqni olib qorningga urmoqchi bo'l. Bu dev sening o'lib ketganningni yaxshi ko'rmas. Senga bir so'zni aytar, Malikaning elidan, Torkiston shahridan, o'zidan xabar berar. Shunga qarab ish qilamiz. Bolam, sen yosh bola ekansan, xafa bo'lma. Men, inshoollo, shu devlarning qo'lidan seni qutqaraman, ota-enangga, qavmu qarindoshingga omon-eson yetkararman. Sen, bolam, bu yomon devlarning ichida bo'l, men tashqarida bo'layin, ishqilib, ikkovimiz o'lmaslik chorasini ko'rayik, — dedi.

Shunda yosh bola aytdi:

— Ey, bobo, sizning so'zingiz menga juda ma'qul bo'ldi. Shunday qiling. Lekin endi, bobo, devlarning kelar vaqtı bo'ldi, joyingizga kiring, — dedi.

Qalandar bu so'zni eshitib, bir tilsimot duo o'qib, bir yumronning suratida bo'lib, suyaklarning ostiga sho'ng'ib kirib ketdi. Shunda devlar ham ovdan qaytib kirib keldi. Boymoq dev shosupaga kelib o'tirdi. Ziyofatga qo'yni so'ydi, majlis bo'ldi. Ana shunda qalandar bobo usti-ustiga tilsimot duo o'qib, devlar dan bandcha olayotir. Bola shu majlisda kosagul bo'lib, soqilik qilib, devlarga may quyib berayotir. Shunda bola devlarga qarab:

— Ey devlar. Mening sizlarga aytadigan arzim bor. Shu men yetti yasharligimda Malikani olaman deb kelib edim. Yetti yildan beri kosagul bo'lib yuribman. O'n to'rtga kirdim. Malikani olaman deb elu xalqim dan ayrildim, g'aribi go'riston bo'ldim. Men endi o'ladigan yerimga yetdim, qanday qilsa Malikani oladi? Menga bir duo aystsanglar, mening armonim yuragimda qolmas edi, — dedi.

Shunda bir dev bolaning jag'ig'a urdi:

— Bachchag'ar! Malikani olmoq g'ami bilan nima ishing bor?! — dedi.

Shunda bu bola qo'liga bir pichoqni oldi:

— Sizlardan kunda munday ta'na, zulm ko'rib yurgandan, bu kun o'zimini o'ldirayin, bir boshga hamma vaqt bir o'lim-da, — dedi.

Shunda ishqiboz bo'lib qolgan devlar kelib:

— Unday qilma, — deb qo'lini ushladi: — Malika bo'lsa, bizlar aytayik, — dedi.

Malikani aytmoqchi bo'ldi, hamma devlar qo'lini ko'tardi: — Ey, devlar, baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, — deb duo qildi.

— Etmish besh shaharning xoni izlab keldi, hammasi bizlarning qo'limizda nobud bo'ldi. Ular yerning ustida deb izlab kelar edi, lekin Torkiston shahri, Malika pari yerning ostida, qorong'ilik yerning ostida. Torkiston shahar shu qorong'ilik yerda, Malika ham shu shaharda. Lekin qanday bo'lsa ham baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, — deb hammalari har gapida duo qiladi. Muni bola bilan Shoqalandar ham eshitib turibdi.

Devlar yana aytadi:

— Bu tog'ni Ko'klamtoq', deydi. Bu tog' emas, bizlar buni tilsimot bilan suratini tog'ning suratiga o'xshatib, Torkiston shahrining darvozasining og'ziga ko'ndalang qilib tashlab qo'yibmiz. Bu ishdan xabari bo'lsa, Shoqalandar kelsa, «Yoril!» deb, Ko'klamtoqqa zarb qilsa, Ko'klamtoq' yorilib Shoqalandarga yo'l beradi. Torkistonning bo'sag'asini ko'radi. Uning ostidan bir katta lavhi daryo chiqib oqadi. Torkistonning bo'sag'asining o'ng yog'idan bir yaydoq qora tulpor chiqib shu suvdan suvlaydi. Shu tulporni mingan kishi Malikani olib ketadi, agar boshqa kishi, boshqa mol, ot-bedov, yo boshqa narsalardan mingan kishi bo'lsa, bandargohda qirq ming ajdarho buni ko'rsa pish-qiradi, bo'lak mol mingan kishi ajdahorning damida yo'q bo'lib kirib ketadi. Bu tulporni mingan kishi o'llmay, qutulib, Malikani olib ketadi. Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, — deb devlar gurillab, chuvillab, duo qildi.

Boymoq devning xizmatkor devlaridan Shoqalandarni munday qilib maqtab, duo qilib turganini Boymoq turib, eshitib aytdi:

— Bu ishdan xabari bo'lsa, Shoqalandarday na'tasher kelsa, «Yoril» deb Ko'klamtoqqa zarb qilsa, Ko'klamtoq' yorilib yo'l bersa, qoratulporni minsa, Malika parini olsa, qaytib yana Ko'klamtoqqa kelsa, necha vaqtlar savash bo'lar, suvsizlikdan jabr o'tar, tillari tanglayda qotar, «Suv bo'lsa ichar edim» deb hasrat tortar. Shunda men bir suv bo'lib yotaman. Meni suv deb ichib ko'rар, zahar bo'lib ichiga ketib o'ldirib, olib qolaman. Baloning qadami yetsa-yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, har kim bu so'zni aytsa, tosh bo'lib qolsin! Bu zahardan omon o'tsa, sarhovuz oldiga yetsa, qo'nib mehmon bo'lib yotsa, bir tup qizil gul bo'lib turaman, gul deb iskab ko'rар, zahar bo'lib dimog'iga joylanib olaman. Bunda o'l-dirolmasam, unda o'ldiraman. Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, har kim bu so'zni aytsa, tosh bo'lib qolsin! Undan O'rtacho'lga yetar. Bir tilsimot duo o'qib dunyoning hammasini olov bo'lib yondirib olaman. Munda o'lmasa, unda o'lar. Shunda qalandar: «Tiriklay jahannamga ketdim», deb bezor bo'lib, Malikani tashlab ketar. Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, har kim aytsa tosh bo'lib qolsin. Undan keyin ham o'lmasa, Malikani tashlab ketsa ham, olmaymiz, Malika Shoqalandarga osh bo'lsin!

Shoqalandar yumiron bo'lib bir kam qirq tilsimotni o'qib bo'lganda qirq tilsimotiga yetmay, devlar os-monga ko'tarilib uchib ketdi.

Devlarning ko'tarilib ketganin yumron bo'lib turgan Shoqalandar ko'rib: «Obbo bachchag'ar devlar, tilsimotni qirqa yetkazgancha ko'tarilib uchib ketdi. Qirq martaba tilsimot o'qiganimda uchib keta olmas edi», deb qarasa, devlardan hech kim qolmabdi, bolani ham ko'tarib olib ketibdi.

Qalandar shunda bir tilsimot duo o'qib asli qadimigiday odam husniga kelib, boyagi chashma-buloqning oldiga, jo'ralarining yoniga bordi. Jo'ralarini so'rab qoldi. Boya ketayotganda «Malikadan xabar topsam, sizlarga kelib aytaman», degan edi. Shunda jo'ralar Shoqalandardan «Malikani ko'rdingizmi? Torkiston shaharini bilingizmi?» — deb so'radi. Shunda jo'ralariga qarab, ko'rganlarini aytib, bir so'z dedi:

Har qaysingiz bir mamlakatning xoni,
Yer ostida ekan yorning makoni.
Xabarni bergandir bizlarga devlar,
Malikani izlab kelgandir beklar,
Bormoqni ixtiyor qildi qalandar,
Bizman birga borasizmi, yigitlar,
Kel-a, beklar bugun Haqqa jilayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Omin desa parishtayu maloyik,
Yaratgan rahmondan maqsad tilayik,
Yer ostida ekan yorning makoni,
Torkiston shahrini izlab ko'rayik,
Keling, beklar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Sen eshitgin Qalandarning so'zini,
Kuchuk bosmas yo'lbars, sherning izini.
Izlab chiqsak Qosimshohning qizini,
Yuring, beklar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.
Rumning yurtida qoldi kirdikor,
Kuloh kiyib, sen bo'libsan Qalandar,
Bizga hamroh bo'lasanmi. Shozargar,
Yer ostida ekan yorning makoni,
Yuring, zargar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.
Bahodirlilik da'vo qilib yuribsan,
Bek otangning tulporini minibsan,

Malika deb ko'p jafoni ko'ribsan,
Torkistonga borarsanmi, Avazxon,
Borar bo'lsang, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Qumlarda qichading aspi tozini,
Izlading Torkiston sarvinozini,
Qosimshohning Malikaday qizini,
Bizga hamroh, bo'lasanmi, Avazxon?
Yuring, beklar, Torkistonga borayik,
Nasib qilsa Malikani olayik,
Shu yo'llarda harna bo'lsa bo'layik.

Har qaysing bir yurtni so'ragan beklar,
Bir nechang minibsan arabi tulpor.
Bir nechang piyoda yurgan qalandar,
Borarsanmi, birga yurgan yigitlar,
Yuring, beklar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Turib mingin bedovingning beliga,
Oshiq bo'lsang Malikaday pariga,
Biz borayik, Torkistonning yo'liga,
Borib kirsak Malikaning eliga,
Juring, beklar, Torkistonga borayik
Nasib etsa, Malikani olayik.

Chin-Mochindan mehnat tortib kelaman,
Dev deganning kushandası bo'laman,
Sen bormasang, yolg'iz o'zim boraman,
Nasib etsa, Malikani olaman,
U devlarga ko'p qirg'inni solaman,
Devlar bilan borsam savash qilaman.
Juring, beklar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Hayallab o'tirib qolma, Shozargar,
Sen bo'lgansan Tillaqizga xaridor,
Men bilaman, Torkistonda yoring bor,

Tillaqizning o'zi dilbar, gajakdor,
Juring, beklar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Ostingda o'ynaydi G'irko'kday hayvon,
Go'ro'g'li o'g'lisan, oting Avazxon,
Malika deb ko'p bo'libsan sargardon,
Torkistonga hamroh bo'lgin, Avazxon,
Yuring, jam bo'b Torkistonga borayik,
Nasib bo'lsa, Malikani olayik.

Sog'-salomat chiqsak devning changidan,
Ko'ngling xafa bo'lmasin-da, Avazxon,
Yosh o'g'lonsan, Malikani berayik,
Juring, do'stlar, Torkistonga borayik,
Nasib etsa, Malikani olayik.

Hijolatda turib edi Avazxon,
Boshidan ketganday qayg'uli tuman,
Sachrab o'rnidan turdi, Avazxon,
Shodu xurram bo'lib endi bu zamon:
«Borar bo'lsang, men ham hamroh, bobojon».

Izlaganim mening gul yuzli dilbar,
Sachrab o'rnidan turdi Shozargar.
Bu so'zlarni aytib Shoqalandar,
Yo'l boshlab yura berdi qalandar,
Xafa bo'lib ergashgandir merganlar.

Ana shunda bu so'zlarni Qalandar aytdi. Shozargar bilan Avazxon polvon, Asad, Shodmon — hammalari Shoqalandarga hamroh bo'lib, yo'lga tushib jo'nayberdilar. Shu tog'da, bir yerda — bir murvat qora tosh bor edi. Shu tog'ning ostidagi Torkiston shahar darvozasining bo'sag'asi shul murvat bilan ochilar edi.

Buni Shoqalandar bilar edi, oldiga borib, bir tilsimot duo o'qib, qo'liga so'tasini olib, «Sulaymon payg'ambarning nafasi» deb urmoqchi bo'lib, o'tgan payg'ambar, avliyolarga sig'inib ismiyot o'qib, Shoh-

zargar, beklar qo'llarini ochib turib, «Shaydullo» deb qo'llarini ko'kka duoga ko'tarib turibdi. Shunda Shoqalanlar bir so'z deb turibdi:

Injilma, yo'l bergin tog'lar, jodugar,
O'zga emasman-ku, bilgin, Shoqalandar!
Ayroliq o'tiga bag'rimni dog'lab,
Yor ishqida jabr ko'rdim, qon yig'lab.
Keldim munda Malika deb so'rog'lab,
Injilma, yo'l bergin tog'lar, jodugar!

Jafolar solganman tandagi jonga,
Xazon bo'lsa g'ozlar qo'nar gulshanga,
Ajalli kasratki tegar ilonga,
Indan chiqib pishak bilan hazillar,
Magar ajal qamsab kelsa siehqonga,
Men chirpib otarman seni osmonga!
Injilma, yo'l borgin tog'lar, jodugar!

Bu so'zlarni aytib Shoqalandar
Shaydullo, deb duo qilib Shozargar.
Xudo deydi g'arib ko'nglin bo'ladi,
Hojatini yaratgandan tiladi,
Qo'l ko'tarib beklar duo qiladi,
Ko'klamtog'ni so'ta bilan uradi,
Ko'klamtog'i qoq yorilib boradi,
Torkistonning bo'sag'asin ko'radi,
Biror lavhi daryo oqib jo'nadi.
Daryodan suvladi ul Qoratulpor,
Yugurib borib mindi Shoqalandar,
— Min! — dedi, mingashdi kelib Shozargar,
— Min! — dedi, mingashdi Avazday qo'chqor.
Uchovlari bir tulporga mingashar,
— Qoldik, — deb yig'laydi ikki merganlar.
Qulq soling merganlarning tiliga:
— Uchoving mingashding tulpor beliga,
Bizlar hamroh erdik uzoq yo'liga,
Ketar bo'lding Torkistonning eliga,

Bizni tashlab ketding devning mo'liga,
 Bir kelar mo'ljaling bizlar so'rayik,
 Necha kungachayin, beklar, turayik?
 Boshima tushmasin qayg'uli tuman,
 Bu so'zlarni anglab bilgin, Avazxon,
 Olmosingdan quyar eding qirmiz qon,
 Bizni munda qilib ketma sargardon,
 Kelar mo'ljalingni aytgin, Avazxon!
 Bizlarga omonat qoldi G'iroting,
 Necha kunda sening kelar muhlatining,
 Bir kelar mo'ljaling aytgin, Avazxon!
 Davlatimdan sholi-sholdam o'rayik,
 Kech ko'rgan tushni kunduz jo'raylik,
 Bir kelar mo'ljaling sendan so'rayik,
 Necha kungachayin yo'lga qaraylik?

Ketgay-da boshimdan qayg'uli tuman,
 Barqaror qib so'zlab ketgin, Avazxon,
 Sendan savol so'rар, bilsang, Shodmonxon.
 G'am bilan sarg'aydi guldaiyin diydor,
 Minsang parvoz qilar ostingda tulpor,
 Borar bo'lding, endi, Torkiston shahar,
 Kelaringni xabar bergin barqaror,
 Kelaringni so'rab turar merganlar.

Bu so'zni eshitib unda Avazxon.
 Bul so'zlarni ayta berdi shu zamон:
 — Anglab bilgin bu so'zimni, Shodmonjon,
 Qirq kun bo'ldi mening kelar muhlatim.

Toyrilmasin boshda toju davlatim,
 Sizlarga omonat qoldi G'irotim,
 Hojatingni yaratgandan tilagin,
 Xudo degin, bir Ollohga yig'lagin,
 Qirq kungacha bul yo'lima qaragin,
 Qirq kun bo'ldi mening kelar muhlatim.
 Jahonni sayr etib o'ynab-kulmasam,
 Norkesar olmosni belga cholmasam,

Qirq kunda ham Torkistondan kelmasam,
 Avazxonni g'arib bo'lib o'ldi, de,
 Yakka mozor bo'lib, shunda qoldi, de,
 Izlab topsang Chambildayin shaharni,
 Albatta, otamga bergin xabarni.
 Qirq kun bo'ldi mening kelar muhlatim.

Xafa bo'lma, beklar, o'ynab-kulinglar,
 Tavakkalni bir xudoga qilinglar,
 Qirq kungacha shunda qarab turinglar,
 Bu so'zlarni aytdi Avaz zo'rabor,
 «Omin – Olloh!» – dedi endi merganlar.
 G'orga boshqarildi ul qora tulpor,
 Qarab turib endi shunda merganlar,
 Ko'zdan g'oyib bo'ldi ketdi u tulpor.

Necha vaqt yurganin beklar bilmadi,
 Qorong'idir, kunning ko'zin ko'rmadi.
 Azamat mard edim, bo'lmayin nochor,
 Do'stga zor aylama, dushmanlarga xor,
 So'z ayтиb boradi Shohiqalandar,
 Haqning yashiniday oqadi tulpor.

Bandargoh ustida qirq ming ajdahor,
 Ajdahor ustiga etishdi beklar,
 Haqning yashiniday oqadi tulpor,
 Ishqirib damiga tortdi ajdahor.

Buni ko'rib Avaz o'g'lon yig'ladi,
 Yig'laganman nima iloj qiladi,
 Qorong'i g'uborda ketib boradi,
 Avaz yig'laganin bilib Qalandar,
 Avazxonga bir tasalli beradi:

— Ushbu damdir, o'zga damni dam dema,
 Boshing omon, bu davlatni kam dema,
 Ajdahoni ko'rib, Avaz, g'am ema.
 Beamr chiqmaydi chibinning joni,
 Ko'nglingni bo'Imagin, Chambilning xoni.

Bu so'zni aytib Shohiqalandar,
 Ajdahordan o'tib ketdi muqarrar.
 Haqning yashiniday oqadi tulpor,
 Usti-ustiga tilsimotdan Qalandar,
 O'qib borayotir Shohiqalandar.
 Shaydullo, deb Avaz bilan Shozargar,
 Necha kunlar yurganini bilmadi,
 Qalandarlar kun yuzini ko'rmasdi,
 Qayerlarga borarini bilmadi.

Oshiqning fahmidir qorong'i kecha,
 Yig'lasa holiga yig'lar bir necha,
 Bandargohda yotgan qirq ming shervachcha,
 Sher ustiga etib bordi qalandar.

Yo'lga chiqib nobud bo'lgandir sherlar,
 Dushman sherlar o'z holidan xabardor,
 Bir zo'r qalandarga bo'lgandir duchor,
 G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor,
 Necha sherlar bo'lomadi barobar,
 Zarbasidan nobud bo'lgandi sherlar,
 Armon bilan o'lib ketdi ko'p sherlar.

Dushman bo'lgan shernening qolmas toqati,
 Tosha kelar Shoqalandar g'ayrati,
 Sulab qoldi yo'lida sherlar jasadi,
 Ko'p ham oshdi bu shersharning hasrati.

O'z elida bular bekdir, to'radir,
 Ko'p shersharga ish ko'rsatib boradi,
 Yetarmizmi, dedi, shunda qalandar.
 Ul shersharning bilmaganin bildirdi.
 Dushman bo'lgan ko'p shersharni o'ldirdi.
 Xon Qalandar shunday o'zi turadi[r],
 Harni qismat — yozilganin ko'radi.

Ko'p shersharni yerga yakson qiladi,
 Sher murdasi bog'day qiyrab qoladi,
 Ajallisi shunda o'lib qoladi,

Bu shershordan endi o'tib boradi.
 Parvoz qilib uchar ostida tulpor,
 Ko'rinnmas ko'ziga Torkiston shahar.
 Necha vaqt yurganin bilmaydi bular,
 Qistab yo'l tortadi shunday go'zallar.
 Yashinday oqadi g'oyibning qushi,
 Ko'p jafo torttirar oshiqlik ishi.
 Izlagani Torkistonning buvishi,
 Ostiga mingani ul aspi-qushi.

Ot chopsa, gumburlar tog'ning darasi,
 Botirni ingratar nayza yarasi.
 Qarar edi Chin-Mochinning to'rasи,
 Ko'rindi ul Torkistonning qorasi.
 Yashindayin oqib mingan tulpori,
 Yarqillab ko'rindi yorning shahari.

Necha vaqt yurganin beklar bilmadi,
 Qorong'ida yurgan, kun ko'zin ko'rmadi.
 Yorug'likka endi chiqib qoladi,
 Ko'z jubortib har tarafga qaradi.
 Torkiston shahrini yaqin ko'radi.

Shunda Shoqalandar tulporning tumshug'idan ushlab, zo'rlik bilan to'xtatib oldi. Uchovi tulpordan tushdi. Shoqalandar aytdi:

— Ey, Shozargar, Avazxon, biz uchovimiz bu bedov — tulpor otini egasiz yerda yurgan yeridan ushlab minib olib edik. Bu tulporning, mabodo, shu shaharda egasi bo'lmasin? Egasi ushlab bizlarni garang qilib yurmasin. «Piyoda qo'noq — yaxshi qo'noq», degan so'z bor. Birovning otini minib borganimizdan yayov bo'lib yurganimiz yaxshi. Mana, ko'ringan shaharga yaqin qoldi, piyoda bo'lsak ham yetib qolamiz, — deb uchovi maslahat bilan tulporni qo'yib yubordi.

Bu tulpor shunday tulpor edi, malikaning yaxshi ko'rgan tulpori edi. Buni bular qo'yib yubordi. Shun-

da bu tulpor bularidan qutilganiga dimog'i choq, bo'lib, to'ppa-to'g'ri Torkistonga, Malikaning ko'shkiga qarab chopib bordi. Shunda Malikaning xizmatkorlari:

— Tulporingiz kelib qoldi, — deb Malikaga xabar berdi.

Malika xizmatkorlariga ushlatib, ko'shknинг oldiga «Mening tulporim kelib qoldi» deb boylatib qo'ydi. Bundan ilgari Malikalar o'zlari ham qur'a tashlab ko'rар edi, qora tulporni mingan Malikan olib ketadi, bo'z tulporni mingan Tillaqizni olib ketadi, degan qur'a chiqar edi. Buni Malikalar bilar edi. Lekin bu daf'a bu tulporni qalandarlar minib kelganini Malika bilgani yo'q edi. Malikalar o'z kayf-safosi bilan turuberdi.

Endi Shoqalandardan eshititing. Shoqalandar aytdi:

— Men Chin-Mochinning shahrida qur'a tashlatib ko'rар edim. Torkiston shahri keng mamlakat. Devlar, parilar, tilsimot duo bilan kecha-kunduz yorug' bo'lib turar, deb edi. Ana, ko'ringlar bu shaharni, — deb jo'ralariga shaharni ko'rsatdi.

Bu uchovi ham Qalandar bo'lib, yo'lga tushib jo'nayberdi. Shohi qalandar Avazxonni yosh ko'rib, bolam, bu ajoyib shaharni ko'rgin, deb shaharni ko'rsatib, Torkiston shahrini Avazxon ko'rib, hayron qolib borayotir edi. Shunda Shoqalandar bu ajoyibni ko'rib tomosha qilib, Avazga qarab, shaharlarni maqtab bir so'z dedi:

Jahonni sayr etib, bolam, yurasan,
O'imasang bir kuni Chambil borasan,
Ko'rganiningni sen hikoya qilasan,
Ajoyib yurtlarni ko'rgin, Avazxon,

Necha vaqlar bo'lding Chambilning xoni,
Sening otang yigitlarning sulton'i,
Kelgan joying parilarning makoni,
Ajoyib yurtlarni ko'rgin, Avazxon.

Maydon bo'lsa, sotar erding shirin jon,
Izlaganing, bolam, gul yuzli jonon,
Bulbullar sayragan ajoyib jahon,
Ajoyib shaharni ko'rgin, Avazxon.

Bir yor istab musofir bo'b yuribmiz,
Parilar shahrini kelib ko'ribmiz,
Bu ishlarga xo'p tabassum qilibmiz,
Ajoyib shaharni ko'rgin, Avazxon.
Bizga va'da bergen gul yuzli dilbar,
Kuyib-yonib bizlar misli Samandar,
Senga hamroh, bolam, menday Qalandar,
Ajoyib yurtlarni ko'rgin, Avazxon.

Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyada,
Ne ko'rib, kechirib soniy dunyoda,
Necha vaqlar yurdik poyu piyoda,
Yor axtarib bo'ldi dardim ziyoda,
Ajoyib shaharni ko'rgin, Avazxon.

Ko'z yogurtib, har tarasga qaragin,
Bilmaganing, bolam, mendan so'tragin,
Bu manzillar pari — dilbarning joyi,
Sizga so'z aytadi Chin-Mochin shoyi,
Yurgan joying, bolam, parilar joyi,
Tomosha qil, bolam, Chambilning shoyi.

Ko'klamtog'da qoldi G'irko'kday tulpor,
Ko'nglingni bo'limagin, Avazday shunqor,
Senga so'z aytadi menday qalandar,
Tomosha qil, ko'rgin, ajoyib shahar,
Qo'lga tegsin Malikaday gajakdor,
Ajoyib shaharni ko'rgin, Avazxon.

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
Gulni ko'rsa mast bo'b sayrar bulbullar.
Maloyik suvratli, gul yuzli dilbar,
Malika der, o'zi shunday gajakdor,
Tomosha ko'rsatar menday qalandar,
Ajoyib yurtlarni ko'rgin, Avazxon.

G'anim ko'rsang bu shaharda o'ldirsak,
 Armon bilan bilmaganin bildirsak,
 So'zimizga Malikani ko'ndirsak,
 Qo'lga kelsa, Malikaday dilbarni,
 Boyagi ul tulpor otga mindirsak,
 Ajoyib shaharni ko'rjin, Avazxon.

Bu so'zlarni Shoqalandar Avazzonga aytib, Torkiston shahrini oralab boraberdi, Avazzonga ko'rsatdi. Bu Torkiston shunday shahar: buni qorong'ilikda parilar, devlar duo bilan, sehr-jodu bilan yasagan edi. Bu o'zi qorong'ilik dunyodan edi. Bu qorong'ilik dunyoga yorug' dunyoning ko'pi bilan oyning shu'lesi urmas edi. «Bu oy bilan ostobga muhtoj bo'lmayik», — deb yaxshi olmoslardan, dur, gavharlardan oy, ostob qilib, mayda, o'tkir qimmatbaho toshlardan yulduzlar qilib qo'ygan edi. Bu qorong'ilikda Torkistonning shahri shunday yorug', yarqillab turgan edi. Tuproq o'rniga za'saron chochib qo'ygan bir ajoyib shahar edi. Gullar ochilgan, chamanlar yashnagan, suvlar oqqan, guliston-bo'ston, bulbullar sayrab mast bo'lib qolgan, ko'rmaganlar armonda, ko'riganlar darmonda. Hech bir buning misoli o'xshashini aytib bo'lmaydi. Avazxon ham ko'rib: «Xo'p yaxshi ajoyib shaharlar ekan», deb tomosha qilib borayotib edi. Shunday uchovlari qarasalar, oldilardan bir ko'shk chiqdi. Shoqalandar Avaz bilan Shozargarga aytdi:

— Bu ko'ringan ko'shk Malikaning ko'shki-da!

Shunda ko'shkni ko'rib, yaqinlab, aylanib borib qarasalar, Malika shu ko'shkning ustida bir sherni o'rtaga olib, ko'p parizodlar bilan o'ynab o'tiribdi. O'ynab turgan sher bularni ko'rib, Shoqalandarning yoqasidan ola ketdi. Malikaning sherini Shoqalandar ko'tarib olib osmonga otdi. Malikaning sheri osmonda kart-kart bo'lib ketdi. Buni ko'rib Malika parizod otasiga xat qilib jo'natdi: «Mening otam podsho

bo'lsa, mening oldimdag'i o'ynatib yurgan sherimni uch qalandar kelib bukun o'ldirdi. Shulardan sherimning xunini olib bersin», — dedi.

Arzani xizmatkorlar olib borib, Qosimshohga tutdi. Qosimshoh o'qib ko'rib, har tarasga ot choptirib, qalandarlarni axtarib olib borib, qalandarlardan shering xunini talab qilib so'rab turibdi:

Sen eshitgin Qosimshohning so'zini,
Shohning Malikaday sarvinozini.
Ko'nglin izza qilding sholning qizini,
O'ldirarman gunohkorming o'zini.

Manmanlikdan haddan oshib yuribsan,
Malikaning sherin nobud qilbsan,
Qalandarlar, gunohkor bo'b qolbsan.
Xazon bo'lib bog'da gullar so'lmasmi,

Ajal yetib shum paymonang to'lmasmi,
Holing bilib, to'g'ri yursang bo'lmasmi?
O'ldirar qo'limdan mening kelmasmi,
Ajal tortib senday sho'rli o'lmasmi?

Arza obkeb berdi pariyi sardor,
Arzaning so'zidan bo'lding gunohkor.
Sher xuniga javob bergin, qalandar,
Senga so'z aytar Qosimxon tojdar.

Dod aylasang eshitmayman so'zingdi,
Gunohkorsan, o'yay ikki ko'zingdi.
Qalandarlar, senga o'lim lozimdi[r],
Xafa qibsan mening yolg'iz qizimdi.

Oh urib to'karman ko'zdan yoshingni,
Jallod charlab torttirarman go'sh[t]jingni.
Kestiray taningdan aziz boshingni,
Xafa qilding Malikaday buvishingni.

Bu shohlik shavkatim, gado, ko'rasan,
Holing bilmay gunohkor bo'b qolasan.

Sher xuniga javob aytgin, qalandar,
Qahr aylasam, armon bilan o'lasan!

Sher o'ldirib, sen bo'libsan gunohkor,
Eshitsa keladi pariyu sipor.
Qalandarlar bo'lib qolding gunohkor,
Armon bilan o'lib ketma, qalandar.

Malikaning ko'shkisiga boribsan,
Parilarning o'yinini ko'ribsan.
Sher o'ldirib gunohkor bo'b yuribsan,
Rostin so'zla, yolg'on desang, o'lasan.

Bu so'zlarni aytar shohi muqarrar,
Hayallamay javob aytgin, qalandar.
Shohning g'azabi kelsa, qalandar,
Beajal o'lasan, kelgan mehmonlar.

Solarman boshingga qayg'u-zulmni,
Boshing kesib, dorga tortay loshingni.
Ko'nglin aza qilding mushtiparamning,
Bilmabsan-ku, sen ham o'lar holingni.

Bu so'zlarni shohi aytar muqarrar,
Mahtal qilmay javob aytgin, Qalandar,
Ishoratman kelib qolar jallodlar,
Ishoratman sening qo'ling bog'larlar,
G'arib o'lma, javob qilgin, Qalandar.
O'z ishingga o'zing bo'bsan javobgar.

Bu so'zni Shoqalandar eshitib, Qosimshohga qarab: — Sher xuniga javob shu, — deb bir so'z deb turibdi:

G'amli kunda tortar edim ohu voh,
Bandam desin, rahm aylasin bir Olloh.
Yo'l yurganda har kim berar bir pano[h],
Bu kuningdan o'lsang bo'yimi, Qosimshoh?

Elingning rasmi shunday bo'larmi,
Hech zamonda kuchukka xun olarmi?

Bu kuningdan o'lsang bo'yimi, Qosimshoh,
Qizlaring kuchukman bazm qilarmi?!

Sen eshitgin qalandarlar tilini,
Gadoylikman g'amlab kelding pulini.
Bu kuningdan o'l maysanmi, Qosimshoh,
Mana, olasanmi sherning xunini?!

Har shaharda yurgan gado, Qalandar,
Kuchukni o'ldirib, bo'ldik gunohkor.
So'raganing bo'lsa kuchukning xuni,
Senga muncha sha'nu shavkat na darkor?!

Qizing bizni osha Majnun bilibdi,
Xun bermoqqa qalandarlar qolibdi.
Jasolar solarman tandagi jonga,
Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga,
Podshoh, hazillashma menday o'g'longa,

Hali ham podsholiking hurmati,
Taxtu baxting otayinmi osmonga?
Bu so'zlarni aytar menday qalandar,
Dilbar qizing bizni qilsa gunohkor,
Sher xuniga javob aytmoqlik darkor.

Sag'al ishga gunohkor qib turasan,
Bizni nochor, juda nochor bilasan,
Sherning xunin, balki, bersam olasan,
Qahr aylasam, ey Qosimshoh, o'lasan!

Bu so'zni Qosimshoh eshitib, atrofidagi amaldorlariga qarab kulib yubordi:

— Bizlar xo'p odamlarga da'vo qilibmiz. Bular bir yurgan majnun qalandar ekan. Shulardan oladigan sherning xunidan o'tmak kerak. Bular bu podsholikda hukmkushdan qo'r may, bizlarni nazar-guzar qilmay, o'ylamay gapiradi. Bularga boshqa gap so'ylamoq darkor emas, — dedi.

Shunda qoshida turgan amaldorlar aytdi:

— Ey podshohi olam, sultoni bokaram! Shunchalik sha'nu shavkatga beadablik qilib, munchalik so'zni gapiradi, bular o'zlarining so'zlari bilan o'zlar gunohkor bo'ldi, bularning o'lmagiga o'z so'zlari guvoh bo'ldi, bularga o'lim lozim bo'ldi, — dedi.

Qosimshoh bu so'zni amaldorlaridan eshitib:
— Rost aytasizlar, — deb jallod chaqirib turibdi:

Sen eshitgin menday shohning tilini,
Kelib bog'lang qalandarlar qo'lini.
Qalandarlar o'z tilidan gunohkor,
Keling endi munda mirg'azab, jallodlar.

Kesing endi qalandarlar boshini,
Boshin kesib, dorga osing loshini.
Gunohkorni dorga haydab boringlar,
Ko'rмаган kunlarni unga solinglar,
Harna deb amr etsam, ani qilinglar,
Qalandarlar bo'lib turur gunohkor.

Hukmkushga, shohim, uni buyurdi,
Kelib qoldi mirg'azabu, jallodlar,
Girdini olib turdi jallodlar.
Harna qismat yozilganin o'yładi,
Jallod kelib qalandarni haydadi.

Uchovi ham endi bo'ldi gunohkor,
G'azab bilan hayday berdi jallodlar.
Dim indamay turib qoldi Qalandar.
«Senga ergashib endi bo'ldik gunohkor»,
Ko'nglin bo'lib, dedi Avazday nomdor:

— Belimga boylagan zarrin po'tamdi[r],
Xudoyim kechirgay qilgan xatomdi,
Ko'ra olmadim men o'zim otamdi,
Senga ergashib g'arib bo'ldim, qalandar.

Boshimga solibdi qayg'u-zulmni,
Jabbor egam barvaqt soldi o'limni,

Ko'rolmadim o'ynab-o'sgan elimni,
Senga ergashib g'arib bo'ldim, Qalandar.

Boshim kesib, dorga tortsa tanamni,
Ko'rolmadim ul parizod enamni.
O'z elimda men ham yurgan turaman,
Oxir kelib senga hamroh bo'laman,
Sendan qilgan foydam shuldir, qalandar,

Armon bilan, endi o'lib boraman.
O'z jonimga o'zim qilib zulmni,
Iloji yo'q, boylatibman qo'llimni,
Kimga aytay endi o'lar holimni,
Ko'rolmadim o'ynab-o'sgan elimni.
Senga ergashib g'arib bo'ldim, qalandar.

Oyog'imga ursa edi bir tikon,
Nolish bilan titrar yer bilan osmon,
Pari enam bo'lsa qilar yuz fig'on,
Armon bilan o'lar bo'ldim bu zamon,
Qutilmog'im bo'ldi menga gumon.

Qochgan bilan endi qayda el endi,
Oh urganda ko'zda yoshim sel endi,
G'ariblikda ko'rgan kunlar shul endi,
Bu so'zlarni aytib yig'lar Avazxon.
Boshim kesib dorga tortadi dushman,
Qora kunda yig'lar edik bu zamon.

Bandadan umiddir, xudodan rahmat,
Balki ro'zi mahshar bo'ldi qiyomat,
Qutulmog'im yo'qdi menga salomat,
Qora kunda qoldim, qattiq qiyomat.
Bu so'zlarni aytib yig'lar Avazxon,
G'ariblikda hamroh bo'lgan qalandar.

— Ushbu damdir o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
O'ldim deb, Avazxon, sira g'am ema,
Azalning bu kun binosin motam dema.

O'ldirar bularning qo'lidan kelami,
Mard kishi nomard qo'lida o'lami?
Xudodan beamr ishlar bo'lami,
Ajali yetmay, bunda chibin o'lami?!

Ko'ngilni bo'Imagin, Chambilning xoni,
Ajal o'tmay, chiqmas chibinning joni,
Bizni o'ldirolmash Torkiston xoni,
Senga qurban menday bobongning joni.

Bizni gunohkor aylagan bu shohning qizi,
Ustiga kiyibdi gulgun qirmizi.
Ko'nglingni buzmagin, endi, Avazxon,
Bu ishlar bilgaysan dilbarning nozi.

Qaramaydi yig'lab baland-pastiga,
Xaloyiqlar yig'ilgandir ustiga,
Yaqinlab qoldi-ku dorning ostiga,
O'ldirmakka gunohkorning qasdiga,
Shunday bo'b borib qoldi dorning ostiga.

G'ulg'ula bo'b qoldi Torkiston shahar,
Tomoshaga kelar hamma parilar,
Saf-saf bo'lib xaloyiqlar yig'ilar,
Ulug'-kichik tomoshaga qoldilar,
Kelib dor teginda qarab turdilar.

Uch qalandar gunohkor bo'b qolibdi,
Har kim borsa tomosha qib turibdi,
Boshin kesib uni dorga tortadi,
Har kim borsa tomosha qib qaytadi,
Uch qalandar bu dunyodan o'tadi,
Tomoshaga keldi parilar qator.

— Uch qalandar bo'lgan ekan gunohkor,
Bilolmadik, bu haybatli qalandar,
Malikaning suhbatiga boribdi,
Parizodga borib nazar solibdi,
O'ynab turgan sheri buni ko'ribdi,
Shu sherni qalandar nobud qilibdi,

Shu sababdan gunohkor bo'b turibdi,
Qazo yetsa qalandarlar o'libdi.

Ana shunda parizodlar bu so'zlarni bir-biroviga so'ylayberdi. Malikaning enasi Yusufbar pari ham kelib, tomosha qilib turgan edi.

Malikaning enasi sultuv Yusufbar,
Atrofida qancha pari xizmatkor,
O'ynab turgan qancha pari sanamlar,
Ulug'-kichik yig'ilganida muqarrar.
O'ldirmakka chog'langandi jallodlar,
Xaloyiqni ko'rib Shoqalandar,
Tilsimot duoni o'qib boyakbor.
Har tarasga endi nazar soladi,
Uch yuz kishi shunda tosh bo'b qoladi.
Bu sirlarni shunda ko'rgan jallodlar
Qosimshohga endi xabar beradi.

Bu sirlarni ko'rди, uch yuz kishi birdan tosh bo'ldi.
Buning xabarini Qosimshohga aytmoqchi bo'lib, jallodlardan birmunchasi yugurib-chopib ketdi. Qosimshohga yetdi. Qosimshohga qarab so'z aytib turibdi:

Uch qalandar dor ostiga kelibdi,
Uch yuz kishi bunda tosh bo'b qolibdi,
Kelib bu xabarni jallod beribdi,
Bo'lar nechuk yurgan gado qalandar?

Qarasa, tosh bo'ldi turgan shaharlar,
Bu sirlarni ko'rib keldi jallodlar,
Shohim, sizga jallodlar xabar berar,
Bu ishning oxiri ne bo'lar, tojdar?

Shunda Qosimshohnning oldiga jallodlar borib voqeani bayon berdi:

— Uch qalandar gunohkor bo'ldi. Bir qaragani bilan uch yuz kishi tosh bo'lib qoldi. Biz bu ishlarni qalandarlardan deb bilamiz. Bu qanday ish bo'ldi, sizga xabarga keldik, — dedi.

Shunda Qosimshoh bu so'zni eshitib:

— Unday bo'lsa, qalandarlarni munda olib kelinglar, men gap so'rayin. Bularni bilayin, sinayin. O'yin-hazil bilan bir joduga, sehrga duch bo'lib qolmayik. Bularning qanday jon ekanini so'rayik. Qaysi eldan kelgan, boshqa yurtlarda yurgan, bilayik, — dedi. Jallodlar borib, uch qalandarni olib keldi.

Shunda Qosimshoh qalandarlarga qarab: — Qaysi shahardan keldinglar? — deb so'rab, so'z qotib, bir so'z dedi:

Senga so'z berdimi pariysi ayyor,
Qay shahardan munda kelding, qalandar?
Odammisan, basharmisan, jodugar,
Asli nasling xabar bergin, mehmonlar,
Qay shahardan munda kelding, qalandar?

Ne ish uchun munda mehmon bo'libsan,
Men bilmayman, qay shahardan kelbsan,
Bu shaharda ish ko'rsatib yuribsan.
Avlodningni xabar bergin, qalandar,
Nima uchun qalandar bo'b yuribsan?

Men bilmayman, qay shahardan kelasan,
So'z so'rasam majnundayin bo'lasan,
Bu ellarda ish ko'rsatib borasan,
Avlodning ne, o'zing kimsan, qalandar,
Qay shahardan, qay ellardan bo'lasan?

Qancha xaloyiqlar tosh bo'b qolibdi,
Bul ishlar sendan sodir bo'libdi.
Odammisan, parimisan, qalandar,
Avlodiningdan xabar bergin, jodugar,
Qanday shaharlardan kelding, mehmonlar?

Senday gado bizning elga keladi,
Senga duchor bo'lgan odam o'ladi,
Xaloyiqlar sendan gumon qiladi.
Kashmirmisan yoki o'zing jodugar,

Siru holing xabar bergin, qalandar,
Sendan gumon qilar barcha odamlar.

Bu so'zni aytadi Torkiston shohi,
Men bo'laman Torkistonning podshohi.
Qosimshoh der, eshit aytgan otimni,
Torkiston deydilar mamlakatimni.
Bu so'zima xabar ber avlodingni,
Menga bildir sen ham ismi-zotingni?

Bu so'zni Qosimshohdan Shoqalandar eshitdi.
Shunda Shoqalandar: «Endi biz ham odam qatori
bo'ldik, bizdan Qosimshoh javob so'radi, bunga men
ham bir javob aytmasam bo'lmasdi», — deb Qosim-
shohga qarab, javob berib, bir so'z dedi:

So'zimni eshitgin, shohim, muqarrar,
Otim Yo'ichi, o'zim Vatan na darkor,
Qahr aylasam vayron bo'lar shaharlar!
Aslzoda, balki eshon muqarrar,
Har yerda qo'l berar sendayin shohlar,
Senday shohlar bo'lar menga jilovdor,
Komil pirlar bo'lar menga madadkor.
Tarkidunyo qilib bunda kelaman,
Valiyulloh nom ko'tarib yuraman,
Sendayin shohlarning qo'lin olaman,
Har kimiki, manmanlik qilsa menga,
Alarning shahrin vayron qilaman,
Har kim ixlos bilan xizmatim qilsa,
Ixlos qilsa, uni qo'llab olaman,
Tarkidunyo qilgan eshon bo'laman.
Qalandar suratl zohir muqarrar,
Malikaday qizing qildi gunohkor,
Beadablik sendan o'tdi boyakbor,
Bo'lma, shohim, yana bizdan boxabar.
Bu so'zlarni aytar menday qalandar,
Shohim, bo'lma endi bizdan bexabar,
Madadkorim, bilsang, imom, chiltanlar,

Avval Olloh, duyum bo'lsa nabi yor,
 Har ish kelar shular bo'lsa menga yor,
 G'ofil qolib o'lib ketma, ey tojdar!
 Nima bo'lsa o'y lab qilgin ishingni,
 So'zima quloq sol, ko'tar boshingni,
 Bu so'zimni hazil bilma, podshohim.
 O'y lab qilda, bundan keyin ishingni.

Bu so'zni eshitib Qosimshoh aytdi:

— Bular tarkidunyo qilgan qalandarlar ekan,
 o'zini bildirmay bizning elda yurgan ekan, lekin biz-
 dan ko'tohlik o'tgan ekan, bizdan ziyon yetgan ekan,
 — deb o'rnidan turib, qalandarlarni pir bilib, turib
 yo'l berib, yoshu qarisi qo'l berib, nazru niyoz mo'l
 berib, siylab turganida bu xabar Malikaga yetdi.

Malika eshitib «Otam mening sherimning xunini
 olib beradi, desam qalandarlarni pir bilib, yoshu qarisi
 qo'l berib, nazru niyozni berib yotgan emish», deb
 yana arza qilib, Qosimshohga jo'natdi. Xizmatkorlar
 arzani olib borib Qosimshohga tutdi. Qosimshoh arza-
 ni o'qib ko'rsa, Malika shunday deb yozibdi: «Ota,
 Siz so'ray olmadingiz, endi bir kunlik podsholigingizni
 menga bering, men o'zim taxtning ustiga o'tirib,
 sherimning xunini qalandarlardan talab qilib olayin». Otasi Qosimshoh qizining bu xat-arzasini o'qib ko'rib,
 qiziga javob berolmay, hech nima deyolmay, qalan-
 darlarga ham gap qotolmay, indamay qarab qoldi.

Shohning fikrda qolganini bilib: «Menga endi nav-
 bat keldi, bunga bir narsa deb so'z qotayin», deb
 Shozargar qalandar o'rnidan turib, Qosimshohga qa-
 rab, bir so'z dedi:

Ayo shohim, senga deyin so'zimdi,
 Holingga ingrandim, bilgin, arzimdi.
 Muning uchun xafa bo'lma, sultonim,
 Bu xizmatni qilmoq mendan lozimdi[r].
 Shodu xurram kuldirarman qizingdi,
 Uyingdagi sening sarvinozingdi.

Eshit menday g'arib gado tilini,
 Bizdan ko'rgin karomatning mo'lini.
 Yasab beray Malikaning sherini.
 Karomatim barin anga bildirib,
 Tilladan yasayin jonlar endirib,
 Malika qizingni xurram kuldirib.

Anglab bilgin Zargarbekday valini,
 Bizdan ko'rgin karomatning mo'lini,
 Yasab beray Malikaning sherini.
 Boshdan toji, qo'ldan bermay davlatni,
 Qirq kun bersin yana bizga davlatni,
 Tilladan sher yasab, jonlar endirib,
 Qirq kungacha men qilarman xizmatni.

Zulfiga boylabdi bahosiz gavhar,
 Sherni o'ldirgan ushbu qalandar,
 Uning uchun men bo'laman xizmatkor,
 Qirq kun muhlat bersin gul yuzli dilbar,
 Bu xizmatni qilar, biling, Shozargar,
 Sherni o'ldirib bo'ldi sho'li gunohkor,
 Tilla sherni yasab berar Shozargar.

Bu so'zni Shohzargardan eshitib, Qosimshohning dimog'i chog' bo'lib ketdi. Shoh Zargarning so'zini aytib: «Sheringni bu qalandar qirq kunda tilladan yasab berar ekan, asli sheringning o'ziday bo'lar ekan», deb qizning xatiga javob berib, «qirq kunda tilladan yasalgan, jon endirgan sherdan xabar olinglar», deb qiziga qaytarib yubordi.

— Unday bo'lsa, sher yasalaringiz, nima kerak bo'ladi? Kerakkilaringizni aytингизлар, — dedi.

Unda Shozargar:

«Shoqalandar aytса ozroq aytib qo'yadi, men ko'proq aytayin», deb:

— Qirq botmon tilla bering, qirq botmon guruch bilan qirqta yaxshi katta qo'y, bir qancha qand bilan choy, shahringizning yaxshi yeridan — saroyidan joy

bering. Bizlar shu tilla sherni yasaganimizcha yeb yotamiz, ovqat qilamiz, — dedi.

Qosimshoh bularning aytganini darrov hozirlatdi. Qalandarlarga yaxshi joylar tayin qildi, har na istaganlaricha berdi. Ana shunda qalandarlar vaqtı xush bo'lib, dimog'i chog' bo'lib, podshoning bergen narsalarini olib, sher bilan ishlari yo'q, ovora bo'lib yurgan beklar emasmi, Qosimshohning bergenini olib, Torkistonni aylanib tomosha qilmoqdan boshqani bilmay, sherga taraddi qilmay yurdilar. Shu orada bir kam qirq kun o'tdi, bir qo'y bilan bir botmon guruch, kundan bir kun qoldi. Qalandarlarning sherni yasamoq ham esiga kelmadı.

Shunda Avazxon aytdi:

— Telpaklaringni qayqaytib yurasizlar-qo'yasizlar, erta podsho chaqirib, sherni so'rasa, nima javob berasisizlar? Shozargar Avazxonga qarab:

— Lodon ko'nglingni bo'lasan, ajaling yetmasa ham o'lib qoladigan bo'lasan, — dedi. Avazxon xafalik tortdi.

Unda Shozargar aytdi:

— Ey Avazxon, qozonni os, tillani erit, senga sher yasab berayin, — dedi.

Shoqalandarga aytdi:

— Sen qo'yni so'y, oshni damla, oshni yeyayik, bu suhbatni oxir qilayik, qornimizni to'yg'izayik.

Avazxon qozonni osib, tillani eritib turdi, Shoqalandar qo'yni so'yib, oshni damlab, bu ham tayyorlab qo'ydi. Shunda Shozargar sher yasamoqqa ish boshladi. Avazning ko'nglini xushladi.

Shozargar sherni shunday yasab sozladi, sherning ichidan murvat bilan ochadigan qilib, sozlab, boplab yasadi. Ot jasadli, ichidan murvatli, shunday suratli jinqarcha, musicha, murotalibachcha, to'ti, qumri, mayna, bulbul — shunday qushlarning suratini shu sherning jasadiga qo'shib, juda choqlab, hech kim ko'rmagan sher qilib qo'ydi. Shunda uchovlari oshni

yeb, Avazxonni to'yg'izib, dimog'ini chog'lab, Shozargar aytdi:

— Ey Avazxon! Senga shunday so'zni aytayin, sen xabardor bo'l: bu sherning ichiga seni solib qo'yaman. Sherning ichida turasan. Tilla sherning ustiga odam-zod, parizod minsما, murvatini buraysan. Qattiq burasang, u yo'rg'alaydi, asta burasang, yuradi, o'rta burasang, jebalaydi, — deb Shozargar sherning hamma murvatlarini ko'rsatib, ta'lim berib o'rgatdi. Avazxon barisini o'rganib oldi.

Ha, boya Qosimshohga tilladan sher yasayman, sherga jon paydo bo'ladi, o'zi yuradi, deb va'da qilgan emasmi. Shu aytgan so'ziga yarasha tilla sher ichini kovak qilib ichiga bir odam sig'adigan qilib qo'ygan edi. Avazxonga ta'lim berib:

— Endi bizlardan bugun xabar olar muhlati yetdi, endi birov kelib qolmasin. Avazxon, buning ichiga kir, xudoning nima taqdiri bo'lsa ko'rayik, — deb Avazxonni sherning ichiga kirgizib, murvatlarni ham mahkamlab, odam kiradigan yerlarining murvatlarini berkitib, sozlab, sherni tezlab, muxtasar qilib qo'ydi.

Shu vaqtida qalandarlarning qirq kun muhlati tamom to'ldi. Malika Qosimshoh otasidan shereni so'radi, Qosimshoh xizmatkorlariga buyurdi. Kelib ko'rса, qalandarlar sherni yasab, sozlab, o'xshatib qo'yibdi. Xizmatkorlar borib podshoga xabar berdi. «Sherni yasab qo'yibdi», — dedi. Qosimshohning dimog'i chog' bo'lib, qizi Malikaga xabar yubordi. Buni Malika eshitib, shod-xurram bo'lib: «U sherni bir ko'rmak lozim bo'libdi», deb o'zining xizmatkorlaridan qirqta qizga: «Sherni olib kelinglar», — deb buyurdi. Xizmatkor qizlar, «Xo'p!» — deb jo'nab, Shoqalandar bilan Shozargar qo'ngan saroya qarab kela berdilar.

Bularning kelayotganini Shoqalandar ko'rib, Shozargarga qarab aytdi:

— Bu qizlar, ayollar erkaklardan shumroq bo'ladi.
 «Kecha ko'rganimizda sizlar uchov edingizlar, bugun
 nimaga ikkov bo'lib qolibsizlar?» desa, javob berolmay
 qolmayik; bularga hiyla qilib bir-birovimizga so'zlash-
 gan kishiday bo'lib, turayik, — deb Shoqalandar Sho-
 zargarga qarab so'zlab turibdi:

Xazon bo'lib, bog'da gullar so'libdi,
 Ajal yetib, paymonasi to'libdi.
 Uch qalandar ikkov bo'lib turibdi,
 Biri oxiratga safar qilibdi.
 Musofirmiz bizlar ushbu shaharga,
 Sog'-salomat yetolmay kirdikorga.
 Kecha choshgoh qo'yib keldik mozorga,
 G'am bilan sarg'aydi guldayin diyordi,
 Qarasa, keladi qirqin parilar,
 Bizga zulmat bo'ldi Torkiston shahar,
 Biri o'lib, yig'lab turgan, qalandar.
 Har shaharman shul shaharni ko'rganmiz,
 Jahonni sayl etib bunda kelganmiz.
 Armon bilan to'ramizdan ayrılib,
 G'arib bo'lib bunda yig'lab turganmiz,
 Bunda kelib jabru jafo ko'ramiz,
 Uchov edik, ikkov bo'lib boramiz.
 Bizda yo'qdir bu shaharda kirdikor,
 Benavo yurganmiz, bunda qalandar,
 Sherga kelayotir huru parilar,
 Qovog'ingni uyub o'tir, Shozargar.
 Jafo tig'i bu kun jondan o'tadi,
 Ayroliq xanjari bag'rin yirtadi,
 Biri g'oyib bo'lib ushbu shaharda,
 Uch qalandar ikkov bo'lib ketadi.
 Ayo, senga timsol aytay, Shozargar,
 Do'zaxining bir belgisi — fe'li tor,
 Bu shahardan endi ketmaklik darkor,
 Bizga sud aylamas Torkiston shahar.
 Bu shaharga kelib xursand bo'lmadik,

Uchovimiz shodu xurram yurmadik,
 Tengu tushman o'ynab yurib, kulmadik.
 Endi bu shaharda turmoq na darkor,
 Ketmoqni qilayik endi ixtiyor,
 Uch Qalandar ikkov bo'ldi, parvardigor,
 Shul zamon yetishdi satta qiz — dilbar,
 Bu so'zni aytib yig'lab turdi qalandar,
 Bu shahardan ketmoq darkor, Shozargar.

Bu so'zni Qalandar aytib turib edi, shuning ustiga qirqin qizlar yetib kelib qoldi. Shunday qaradilar. Ilgari ko'rganda qalandarlar uchov edi, bugungi kunda ikki kishi bo'lib qolibdi. Uning ustiga ikki qalandar dod, deb yig'lashib turibdi.

Qizlar aytidi: «Bular har qanday vali bo'lsa ham, birovi o'libdi. Bular ham xudoning bandasi-da, ajali yetsa o'ladi-da», — dedi. Shunday bu qalandarlarning holiga rahm qilganday bo'lib:

— Xayr, har nima bo'lsa bo'libdi, ajali yetgani o'libdi. Sherni ko'rayik, tomosha qilayik, — deyishib, qalandarlarning holiga rahm qilganday bo'lib, bular sherni ko'rmoqqa boshladilar. Shoqalandar, Shozargar o'z qayg'ularida qolib turdi.

Qizlar shernen oldiga kelib qarasa, musicha, qumri, bulbullar sayrab turganday, to'tilar gapirayotganday, parilarga tiklab qarab turganday, bir yaxshi ajoyib sherni yasabdi, aytgan bilan ta'risga to'g'ri kelmaydi. Qirq qiz sherni bunday o'xshatib yasaganiga hayron qolib, bir-biridan sherni qizg'anib, yugurishib, talashib, qirqin qizlarning kattarog'i — mahmadona chopsonrog'i shernen oldiga kelib:

— Sherni sher suratlri qilib ustalik bilan yasabdi. Bir minib ko'rayik, — deb shunday mindi.

Buning minganini Avazxon bilib, murvatini asta buradi, yurdi; undan qattiqroq buradi, jebaladi. Qizlarning dimog'lari chog' bo'ldi. Bularning dumoqlari chog' bo'lganini ko'rib, Avazxon murvatni ilgari-

gidan qattiqroq buradi, sher yo'rg'aladi. Qirqin qizlar juda hayron bo'lib:

— Bu turgan qalandarlar juda usta ekan. Bular dan bir narsani olgan olib qoladi, qolgan bular dan hech nimani ololmaydi, deyishib, qalandarlarga so'z qotmasdan sherni o'ttalariga o'tab olib, nechovlari sherni talashib, sher goh jebalab, goh yo'rg'alab yo'lga kirib, nechovlari sherni minib, kulib-kulib, Zargarning qilgani qirqin qizning aqlini olib, Malikaning oldiga, ko'shkiga yaqinlab bordi. Malika shunday qarasa, sher goh yo'rg'alab, goh jebalab kelayapti. Bular ning bunday bo'lib kelayotganini ko'shkining ustida ko'rdi. Malika pari ham ko'shkisidan besh yuz parilari bilan pastga tushib, qalandarlarning qilgan ishiga hayron qoldi. Aytdi:

— Ey qirqin qiz parilarim! Tilladan sher qilib yurgizgan odamzodni ko'rma k tugul, eshitganimiz ham yo'q. — deb vaqt xush bo'lib, goh munisi, goh unisi minishdi.

Malika pari aytdi: — Bu qiziq — izi topilmaydigan qalandarlar ekan. Biz parilar shohlikda yuramiz, bizlarga bunday kishilar juda kerak. Bu qalandarlar bizlarga hamma vaqt darkor kishilar ekan. Bular ni olib kelib, vaqtini xushlab, ko'nglini chog'lab, ostiga palos tashlab, shu qalandarlar uchun pastki ko'shkining ostidan joy-yotoq bermog'imiz yaxshi. Bu qalandarlarni olib kelib, nazri-niyozini berib, duosini olmog'imiz lozim. Bunday yaxshi sharosatli odamlar izlaganda topilmaydi, — dedi.

Unda sherga borgan qizlar Malika parizodga aytdi:

— Ilgari ko'rganimizda qalandarlar uchov edi, hali borib qarasak birovi o'libdi, ikkovi yig'lashib qolibdi, xafa bo'lishib turishibdi. Malika aytdi:

— Sizlardan o'lganini so'raganim yo'q. O'lgan bo'lsa, bular ham xudoning bandasi, o'ligini olib kelinglar deganim yo'q. Qolgan ikki qalandarni borib, ergash tirib kelinglar, — deb o'nta qizni buyurdi.

Bu o'n qiz Malikaning xizmatini o'rniga keltirib, qalandarlarning oldiga kelib: — Yuringlar, sizlarni Malika pari chaqiradi, — deb bir so'z deb turibdi:

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbullar.
Biz bo'lamiz parizodga xizmatkor,
Kelsin, deb chorlaydi Malika ayyor.

So'zimni eshititing, Shohiqalandar,
Malikamiz yo'llaringga intizor.
Biz bo'lamiz Malikaga xizmatkor,
Hayallamay yuringizlar, qalandar.

Ustga kiygani gulgun qirmizi,
Aqlingizni olar jodugar ko'zi,
Biz bo'lamiz Malikaning kanizi,
Kelsin deb chorlaydi buvishim sizni,
Elchi qib yubordi, qaytayik bizni,
Kelsin deb chorladi oyimim sizni.

Sheringizni ko'rib xursand bo'libdi,
O'ynab-kulib, shodu xurram bo'libdi,
Ul sizlarni kelsin debon turibdi,
Sheringizni yaxshi ko'rib minibdi.

G'amdan ozod bo'ling, endi qalandar,
Yuring, sher yasagan, ustai Zargar,
Qarab turgan yo'lingizga nechovlar,
Sizga xizmat qilar necha gajakdor.

Malikamiz, kelsin, degan, chorlagan,
Sizlar uchun yaxshi joylar sozlagan,
Ko'rmakehi sizdayin usta Zargarni,
Yugurishib nechovlari xezlagan.

Bog'da ochilgan gulg'unchalar,
Kelsin, degan oyimchalar.
Juring endi, usta Zargar,
Hamroh bo'ling Shoqalandar,

So'z aytar menday xizmatkor,
 Nеча qizlar xizmat qilar,
 Borsangiz ko'nglingiz to'lar,
 Shoyim sizga in'om berar.

Eshitingiz aytgan so'zni,
 Mahtal qilmang kanizlarni,
 Qo'ymay ob ketamiz sizni,
 Mahtal qilmang muncha bizni.
 Darrov bo'linglar tayyor,
 Chaqiradi Malika ayyor,
 Chorlagan sizni zulfakdor,
 Yuring, bobo, bo'lib tayyor,
 Hamroh bo'ling, Shoqalandar.

Tez bo'ling, birga ketamiz,
 Zulfakdorga biz yetamiz,
 Bormasangiz, ey, bobojon,
 Xafa bo'lib biz ketamiz.
 Bobo, borib in'om oling,
 Parilar suhbatin ko'ring,
 Jonim bobo, tura keling,
 In'om olib o'ynab-kuling,
 Bizlar bilan birga yuring.

Parilarga ish bildirgan,
 Tilla sherga jon endirgan,
 Ul sababdan bizlar kelgan,
 Jonim bobo, tura keling,
 Bizlar bilan birga yuring.

Tilla sherdir o'yin qilar,
 Saf-saf turgan sanam-dilbar,
 Hamma ko'rib, hayron qolar,
 Jonim bobo, birga yuring.

Behad dunyo in'om berar,
 Nеча qizlar xizmat qilar,
 Agar borsang ko'ngling to'lar,

Dushman bo'lsa 'kuyib o'lar,
Do'st bo'lganlar shodmon bo'lar.
Jonim bobo, birga yuring,

Hayallamay yo'lga kiring,
Yig'ilishgan na'makorlar,
Saf-saf turar zulfakdorlar,
Kelar debon qalandarlar.
Agar borsang, aqling olar,
Oldingizda metar chalar,
Necha qizlar o'yin qilar,
Sizlar bilan o'ynab-kular,
Borganlarning aqlin olar,
Yetolmagan yo'rtib yurar,
Tezroq bo'ling, Shohizargar,
Hamroh, bo'ling, Shoqalandar.
Jonim bobo, birga yuring!

Xafa bo'lmay ul gajakdor,
Mahtal bo'lmasin zulfakdor,
Necha qizlar yo'lga qarar,
Yo'lingizga ko'p intizor,
Bobo jonim, yuringizlar,
Qalandarlar, turingizlar.

Ana endi Shoqalandar bilan Shozargar qirqin qizlardan bu so'zni eshitib: «Bu yaxshi bo'ldi. Endi bu qizlar bilan birga borayik, har nima bo'lsa, ko'rayik; bizlarning ishimiz Malika bilan bo'ladi», — deb ikkovlari bir-birlari bilan maslahatlashib o'rinalardan turib, qirqin qizlar bilan birga jo'nay berdilar. Bu Shohiqalandar bilan Shozargar birga bo'lib, qirqin qizlar bilan borishini shoir shunday olib borayotir:

Qirqin qizman, birga bo'lib,
Necha qizlar o'yin qilib,
Qalandarlar aqlin olib,
Shul zamonda yo'lga kirib,
Malikaga jo'nay berdi.

Sanam qizlar yo'l boshladi,
 Bir-biriga pul tashladi,
 Hur sifatli jonon qizlar,
 Mehmونlar ko'nglin xushladi.
 Yo'lga kirgandir qalandar,
 Malikaga ketdi xabar,
 Sher yasagan usta Zargar,
 Hamroh bo'lgan Shoqalandar.
 Peshvoz chiqib necha qizlari,
 Boshlab borayotir qizlari.
 Kelayotgandir ustalari.
 Peshvoz chiqqan ko'p qizlari,
 Hamma parining sarvari,
 Malikaday gajakdori,
 Ul sherning oldiga qolib,
 Qalandarning ishin ko'rib,
 Ko'p qizlarni xizmatkor qilib,
 Qaraydi intizor bo'lib,
 Ko'p qizlar yo'lga qarab,
 Telpaklari qayqayib,
 Kelayotir ko'p qiz bilan,
 Malikaning qoshiga yetdi.
 Ko'ring, malikaday dilbarni,
 Bular necha navozish etdi.
 Necha qizlar o'ynab-kulib,
 Ko'p yugurib xizmat qilib,
 Pastki ko'shkidan joy berib,
 Pari, hurlar saf-saf turar.
 Qalandarlar aqlin olib,
 Parilarning bu husniga,
 Qalandarlar juda tolib,
 Turishibdi bu parilar
 Tol chiviqdayin irg'alib,
 Bir nechasi zulfin ushlab,
 Qalandarlar ko'nglin xushlab.
 Necha xizmatkor kanizlar,
 Qalandarlarning ostiga,

Tezlik bilan to'shak tashlab.
 Qalandarlar aqlin oldi,
 Oldiga dasturxon soldi.
 Qalandarlar ko'ngli xushdir,
 Parilarman o'tirishdi,
 Shu zamonda ko'p taomlar,
 Pista-rusta ham qandolat,
 Usti-ustiga aralashdi,
 Olib kelayotir qizlar
 Boz ustiga qovurma go'sh[ti]di.
 Izzat bilan Malika ayyor,
 Qalandarlarman ko'rishdi,
 Bir-biridan hol so'rashdi.
 Parilarman qalandarlar,
 Qilayotir o'tirishdi.
 Ko'rgan emas hech bir kishi,
 Shu dunyoda bul buvishdi.
 Ajab qiziq, bo'ldi bazm.
 Bir-biriga juda jazm,
 Xizmatkorga buyurgandir:
 — Choy ustidan maylar lozim.
 Shundayin ovoza bo'ldi,
 Har shahardan odam qoldi.
 Bularning ishini ko'rib,
 Hammalari hayron qoldi.
 Bu xizmat ishini ko'rib,
 Behad dunyo in'om berdi.
 Mudom o'ynab-kuling, dedi,
 Tomosha qib ko'ring, dedi,
 Qayga borsang tomoshaga,
 Bu manzilga qalandarlar
 Yana qaytib keling, dedi,
 Bu in'omin oling, dedi,
 Biz boramiz sayilboqqa,
 Hamisha shunday turing, dedi,
 Ko'p shahardir bul shaharlar,
 Tomoshani qiling, dedi.

Torkistonning shaharlari
 Chor hokimli shahar, dedi,
 Xo'b o'ynashib yuring, dedi.

Ana endi qirqin qizlar bilan qalandarlar birga-birga yo'lga kirib Malikaning oldiga kelishdi. Shunda Malika qalandarlarning oldiga ko'p qizlarni peshvoz chiqargan edi. Qirqin qizlar peshvoziga chiqib qalandarlarni olib keldi. Malika ayyor ham bu Shoqalandar, Shozargarlarning kelayotganini ko'rib qirqin qizlari bilan o'ynab-kulib o'zlarining nozi bilan, qizil yuzi bilan, tillarida bir-biriga shirin so'zi bilan qalandarlarning oldiga peshvoziga chiqib ko'shkning oldiga boshlab olib keldi. Qalandarlarga pastki ko'shkidan joy berib, ostilariga yaxshi to'shaklarni to'shatib mehmon qilib o'rincin tayin qildi.

Qalandarlarning vaqtini xushladi, ziyofat ustiga ziyofat, qand ustiga sharbat quydirdi, hamma chor-atrof shaharlardan ko'p odamlar yig'ilishib kelgan edi. Kelgan odamlar qalandarlarni ko'rdi. Yasagan sherlarini ko'rib, bular ham hayron qolib, dimoqlari chog' bo'lib qoldilar. Shunda Malika ayyor Shoqalandar bilan Shozargarga ko'p in'omlar berib, yaxshi joylar tayinlab, qalandarlar Malikaning in'omlarini olib dimoqlari choq bo'lib turdi. Malika ayyor qalandarlarga qarab aytdi:

— Ey, mehmon qalandarlar! Sizlar endi shu pastki ko'shkdan chiqmay o'tira beringizlar, shaharni tomosha qilmoqchi bo'lsalaringiz, tomoshani qilib, yana qaytib kelib, shu yerda yura beringlar. Sizlarga hech kimning bu yerda ishi yo'q. Bizlar gohida u yoqqa — bu yoqqa sayri bog'larga chiqib, tomosha qilishib kelamiz, sizlarning ishlaringiz bo'limasin. Sizlar bizlar bilan, bizlar sizlar bilan, — deb Shoqalandar bilan Shozargarga ko'p yaxshi so'z bilan qaradi. Qalandarlarning dimog'i chog' bo'lib qoldi.

Malika aytди: — Sizlar esa, bu yerda o'tira berin-gizlar, bizlar bugun bir sayri bog' qilib kelayik, — dedi.

Qalandarlar «Xayr», — deb qoldi. Shunda Malika ayyor ko'p qiz parilari bilan boqqa jo'natmoqchi bo'lди. Xizmatkorlar: — Bugun malikamiz boqqa boradi, yo'lни sozlanglar, — dedi. Farroshlar yo'llarni shupurdi, meshkoplar yo'lga suvlarni sepdi. Shaharning yo'lidagi odamzod, parizod qanday narsa bo'lса, «qochinglar, yo'lни bo'shatinglar, bugun Malika yo'lдан o'tadi, qochmasanglar ajallaring yetadi», deb yo'lни odamlardan xoli qilib, ko'chalarni sozlab-boplاب Malikaga, yo'llar sozlandi, deb xabar berdi. Malika ko'p qizlari bilan, jodu ko'zlari bilan, barno sanamlari bilan jo'namoqchi bo'lib, sherning oldiga keldi. Malikani izzat bilan sherga mindirdilar. Shoир Malikaning sherga minganini so'з bilan shunday jo'natadi:

Zulfiga bog'labdi bahosiz gavhar,
Maloyik suratlι, gul yuzli dilbar,
Oy tuqqanday bo'lib Malika ayyor,
Atrosida turgan necha gul qizlar,
Bardor-bardor qilib necha kanizlar,
Tilla sherga mindirdi ul barno qizlar,
Atrofini olib besh yuz kanizlar,
O'ynashadi bir-birimан nozanin qizlar,
Tilla sheri yo'lga kirdi muqarrar,
Murvatini burar Avazday nomdor.

Hammalari birday bo'lib,
Behishtdagи hurday bo'lib,
Yangi ochilgan gulday bo'lib,
Jo'nayberdi ul parilar,
Badanlari qorday bo'lib.
Malikaning ko'nglin xushlab,
Bir-biriga qo'lни tashlab,
Necha qizlar o'yin boshlab,

Har bir xilda yurish boshlab,
 Bir-biriman vaqtin xushlab,
 Borayotibdi po'sh-po'shlab,
 Gohi yo'rg'alab, gohi yayovlab,
 Borayotir tilla sheri,
 Har bir xilda yurish boshlab,
 Malikaning ko'nglin xushlab,
 Kiygan kuylaklari kishtan,
 Yasov tortishib beishton,
 Ko'p kanizlar yo'lni boshlab,
 Bir-biriman vaqtin xushlab.
 Har qaysisi nozi bilan,
 Qora qoshi, ko'zi bilan,
 Bir-biriga so'zlashadi,
 Shirin-shakar so'zi bilan.
 Shundayin pari jo'nadi,
 Mastona qizlar jo'nadi.
 Oyim keladi kish-kishlab,
 Xizmatkorlari po'sh-po'shlab.
 Kelayotir ko'p qizlari,
 Kiygani gulgun qirmizi,
 Xursand bo'lib shohning qizi,
 O'z tavriga yengni tashlab,
 Sayri boqqa yo'lni boshlab.
 Olamga ovoza bo'lib,
 Tilla sherdan ko'ngli to'lib,
 Shohning qizi xursand bo'lib,
 Borayotir necha barno.
 Noz bilan yo'lda irg'alib,
 Malikani o'rtaga olib,
 Malikaning husnin ko'rgan,
 Necha qushlar mast bo'p qolib,
 Shunday bo'p pari jo'nadi,
 Ko'rganning aqlini olib.
 Bog'da ochilgan gulg'unchalar,
 Bari birday oyimchalar.
 Sayri boqqa kirsak, deydi,

Sher o'yinin ko'rsak, deydi.
 Hammalari chuvlashadi,
 Boqqa tezroq yetsak, deydi.
 Parilar shunday jo'nadi,
 Ko'rganning aqlin oladi.
 Neecha qizlar kuyib-pishib,
 Yo'llarda terlab boradi,
 Sher ichinda Avaz nomdor,
 Murvatin qattiq buradi.
 Ko'ring, endi tilla sherni,
 Mayindan kelib yo'rg'aladi.
 Shunday qilib hiylagarlar,
 Parining aqlin oladi.
 Atrosida besh yuz qizlar,
 Juda ham charchab boradi.
 Ko'p qizlarning aqli shoshib,
 Tilla sherga ergashib,
 Ko'p qizlarman Malika ayyor,
 Keldi sayri boqqa yetishib,
 Gulhovuz bo'yiga kelishib,
 Qumri bulbullar sayrab turdi.
 Rang-barang gullar ochilib,
 Malikani sherdan tushirib,
 Zarli-zarbob libos tashlab,
 O'tiribdi ko'nglini xushlab,
 Neecha qizlar o'yin boshlab,
 Sozandalar sozin ushlab,
 Gajakdorlar o'ynashadi,
 Tol-tol qilib zulfini tashlab.
 Bir-birining aqlin olib,
 O'ynashadi parizodlar,
 Bir-biriga o'yin qilib.
 Shunday qilib, oyimchalar,
 O'ynashadi gulg'unchalar.
 Bir-biriga so'zlar qotib,
 O'ynashadi bir nechalar.

Malika parining sayr boqqa boramiz degani, sherning yurishini, turishini ko'rmoqchi bo'lib, sayr boqqa kelgan edi. Malikaning fikri sherni ovloq yerlarda yurgizib, yo'rg'alatib ko'rib, sayri bog'da bir qancha o'tirib, o'ynashib-kulishib, dimoqlarni choq qilish edi. O'ynashib-kulishib dimog'lari chog' bo'ldi. Malika aytди:

— Ey, sanam qizlarim! Mening maqsadim sherning yurishini ko'rmoq edi. Ko'rdim, bo'lar. O'ynab-kulib bo'ldik, endi shaharga qaytayik! — dedi.

Shunda besh qiz xizmatkorlari sherni olib keldi, Malika sherni minib oldi. Qizlar Malika bilan birga-birga o'ynashib-kulishib, hazil qilishib, qaytishib, sherni goh yurgizib, goh jebalatib, goh yo'rg'alatib, dimog'i juda choq bo'lib, Shoqalandar bilan Shozargarning oldiga ko'shkning ichiga kirib yetib bordi.

Malika sherdan tushib, qalandarlardan hol-ahvol so'rab, o'zining ko'shkiga chiqib ketmoqchi bo'lib, shunda kanizlaridan Xadicha degan kaniziga buyurdi: «Borib mening do'stim — Tillaqizni aytib kel, o'z qizlari bilan birga kelsin. Do'stim mendan o'pkalab yurmasin, u ham bizning ustalarimizga tilla sher yasatib olsin. Do'stim bilan ikkovimiz sayri bog'larda sherlarni minib, birga-birga yuramiz». Xadicha kaniz «xo'p» deb Malikadan javob olib, Tillaqizga qarab jo'nab ketdi. Malika Xadichani jo'natib, o'zi yuqori ko'shkka qarab chiqib ketdi, sherni pastki ko'shkning qizlari olib keldi, yaxshi yerga joylab qo'ydi. Bular bunda tursin, endi so'zni Xadichadan eshititing.

Xadicha Tillaqizga yetdi, xizmatkorlar Tillaqizning oldiga olib bordi, Tillaqiz Xadichadan kelganini so'radi. Xadicha Tillaqizga qarab, javob berib bir so'z dedi:

Olmadayin so'lgan gulday tarzim bor,
Ey buvishim, sizga aytar arzim bor.

Yana bahor bo'lsa, ochilar gullar,
 Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbullar,
 Maloyik suratli, gul yuzli dilbar,
 Kelsin, deb buyurdi Malika ayyor.
 Osha eldan uch qalandar keldilar,
 Biri o'lib, ikkoslari qoldilar,
 Buvishinga bir sher yasab berdilar,
 Buvishimning sheri butun na'makor,
 Kelsin, deb chorladi Malika ayyor.

Jahonni sayr etib o'ynab-kulsin, deb,
 Kelib bizning tilla sherni ko'rsin, deb,
 U ham kelib sher yasatib olsin, deb.
 Tilla sherga jonne ato qiladi,
 Ko'rgan odam juda hayron qoladi,
 Xizmatkor ayladi buvishim bizni,
 Kelsin, deb chorlagan oyimcha sizni.

Tilla sher qoshida ajoyib qizlar,
 Ustalarga bo'lib turur xizmatkor.
 Har kim ko'rsa uning aqlin oladi,
 Bizning elga ish ko'rsatgan ustalar,
 Kelsin, deb chorlagan Malika ayyor.

Siz eshititing endi so'ylagan so'zni,
 Kelar deb yuborgan Malika bizni,
 Xizmatkor aylab yuborgan necha kanizni.
 Qaysi eldan kelgan ustai Zargar,
 Sherni yasab, tillaga jon endirar,
 Unga hamroh, bir haybatli qalandar,
 Kelsin, deb chorladi Malika ayyor.

Shunda Tillaqiz Xadichadan bu so'zni eshitib:
 — Bor, boraver, men bormayman, — deb Tillaqiz
 Xadichaga qarab, so'zlab turibdi:

Oshiqning fahmidir qorong'i kecha,
 Yig'lasam holimga yig'lar bir necha.
 Bu so'zlarni aytar menday oyimcha,
 Kelgan yo'lga keta bergen, Xadicha!

Uchqur bo'lsang, qanotingdan qayrilib,
 Yugruk bo'lsang, tuyog'ingdan toyribi,
 Sen qolarsan buvishingdan ayrilib,
 Kelgan yo'lga keta bargin, Xadicha!

Xazon bo'lmay bog'da gullar so'libdi,
 Olloh uning aqli-hushin olibdi,
 Ilohim o'lsin-da, Malika do'stim,
 Yorining ustiga minib yuribdi.
 Kelgan yerga keta bargin, Xadicha,
 Buvishingga aytib bargin, Xadicha!

Ko'p o'ylanib turib nima qilasan,
 Borib buvishingga xabar berasan,
 Borsang, dushmanlarning ishin bilasan.
 Buvishingni izlab kelgan zo'rabor,
 Devu pari bo'lolmaydi barobar,
 O'zin zargar qilib kelgan — hiylagar,
 Har yurtdan kelgandir bahodir beklar.

Savashli kun yuz ming qulga barobar,
 Jasadni ko'rasan bitta qalandar,
 Ishqirsa damiga tortar ajdahor,
 Bo'lolmaydi hech bir narsa barobar!

Aytgan gapning payomini bilasan-a,
 Bunda turma, ul manzilga borsan-a,
 Tilla sherni biror tepib ko'rsan-a!
 Yarqillab ochilsa sherning murvati,
 Sherning joni Go'ro'g'lining farzandi.
 Bora bargin, bunda turma, Xadicha,
 Bul so'zlarni aytar menday oyimcha.

Tillaqiz yana aytidi:

— Ey, Xadicha kaniz, bunda ko'p turma, mening
 aytgan so'zimni buvishingga aytib ber. Kelganlar qa-
 landar emas, hiylagar bo'ladi. Sherni yasagan qalan-
 dar emas, u ham hiylagar jodugar. Sherning joni
 yo'q. Sherning joni Go'ro'g'lining o'g'li Avazxonidir.
 Sherning joni bor, deb Malika ayyorning Avazxon

yorini minib sharmandasi chiqib yurgandir. Mening so'zimga ishonmasang, borib shu sherni bir tepib yuborgin. Men bormayman, mening so'zimni Malika ayyorga borib aytgin, — deb Xadichani jo'natib yubordi.

Shunda Xadicha Tillaqizdan bu so'zni eshitib, yerdan temirtak topgan qulday bo'lib, chopib orqasiga qayta berdi. Ko'shkning oldiga borib qarasa, Malika ayyor, kanizlari — hammasi sherni oldiga olib tomosha qilib turib edi. Xadichani ko'rdi, Malika so'radi:

— Mening do'stim kelmadimi?

Xadicha indamasdan sherga qarab o'ta berdi. Qizlar, Malikalar «Indamaydi», deb qarab turib edi, Xadicha bularning so'ziga javob bermay, tilla sherning oldiga borib, u yoq-bu yog'iga qarab, tilla sherni tepib yubordi, tilla sherning murvati sharqillab ochilib ketdi. Ichidan Avazxon lo'p etib chiqib, pastga tushdi. Shunda qizlar, parilar qarasalar, sherning ichidan bir odamzod yerga tushdi. Buni ko'rib Malika, qizlar gurillab qochib ketdi. Shunda Avazxon hayron bo'lib, nima qilarini bilmay turgan edi, shunday qarasa, Malikaning Qoratulpori ko'shkning oldida boylovli turibdi. Qo'rqqanidan yugurib borib tulponi ushlab, ustiga minib oldi. Bularning ishlarini Shoqalandar ko'rib turibdi. Qarasa, sher ochilibdi, Malika, qizlar qochinqirab ketayotir. Avazxonga qarasa, Avazxon Qoratulporga minib turibdi. Buni ko'rib, qalandarlar ikkovi ham o'rinlaridan turib, belini boylab, sozlandi.

Qalandarning sifati shul edi: Shoqalandar so'tasini qo'liga olib: «Sulaymon payg'ambarning nafasi», — deb siyosat bilan baqirsa, har qanday jonli jonivor qo'rqb, hushidan ketib, behush bo'lib qolar edi. Ana shunda Malikaning ketayotganini ko'rib, Shoqalandar bir na'ra tortdi. Malikaning hushi uchdi. Go'yoki osmondan yashin tushganday bo'lди. Torkiston shaharini yer tortadiganday, ko'zi qorong'i bo'lib: «Endi

o'lmay menga nima qoldi?» — deb qo'rqqanidan Qoratulporga minmoqchi bo'ldi. Ko'zi qamashib, qo'rqib qolganidan Avazxonning Qoratulporga minib olganini bilmay, Malika borib, bu ham Avazxonning oldiga minib qoldi. Malikaning Qoratulporga mingashganini ko'rib Shoqalandar ham Malikaning oldiga mindi. Uchovi Qoratulporga mingashib oldi. Qoratulpor yo'l yurib surib chopib ketdi. Shoqalandar Shozargarga: — Mingash! — dedi. Mingashmadi, piyoda qoldi. Qoratulpor kelgan yo'liga qarab yashinday bo'lib oqib ketdi. Shozargar ham bu yerda turayin desa qo'rqadi: «Torkiston shahari g'ala-g'ul, chuvilashib qoldi, meni ushlab olib o'ldirib qo'ymasin», — deb bu ham bularning orqasidan qorama-qora chopib, bir o'zi ketib borayotir. Bularning bir-birining chopishib ketayotganini shoirlar shu xilda qilib, urish-tiradi, quvishtiradi:

Hagarida ketdi Shohiqalandar,
Qo'lga tegib Malikaday gajakdor,
Haqning yashiniday oqadi tulpor,
Piyodalab irg'iy berdi Shozargar,
Keyinidan tulporning qancha amaldor,
Har tarafdan otlangandir zo'r devlar.

Quloq sol, alarning aytgan dodiga,
Erlar titrar aning siyosatiga,
G'ulg'ula tushdi Torkiston yurtiga,
G'azab bilan Oqdev mindi otiga.

Qani, men ham qalandarga boray, deb,
Ko'rmagan kunlarni unga solay, deb,
Agar ko'rsam, pora-pora qilay, deb,
Malikani ham ajratib olay, deb,
Ko'rsam, dushmanlarning boshin yulay, deb.
Bu so'zlarni o'ylab keladi devlar,
Ilgarida ketgan Shohi qalandar,
Piyodalab borayotir Shozargar.

Shozargar shunday burilib qaradi,
 Kelayotgan Oqdevshohni ko'radi,
 Xudo dedi, yaratganga jiladi,
 Talabini bir Ollohdan tiladi.
 G'ayrat bilan badbaxt devlar keladi,
 Bir tilsimot duo o'qib Shozargar,
 Bir otning iziga kirib qoladi.

Shozargar bir uzuk bo'lib otning iziga kirib yotibdi. Oqdevshoh buni ko'ribdi. Ko'ngliga kelibdi: «Malika-ga qalandar harba qilibdi, uzugi yo'lda tushib qolibdi. Kel-e, shu uzukni olayin, Tillaqizima eltib berayin, shod-xurram qilayin, qaytib kelib qalandarni ko'rayin, ko'rnagan kunlarni unga solayin», — dedi. Uzukni oldi, Tillaqizga jo'nab ketdi.

Shoqalandar, Malika, Avazxon — uchovi mingashib yo'l yurib, qorong'ilikdan necha kunda o'tdi, nima hodisalar bo'ldi, bilmadi. Qoratulpor yashinday bo'lib oqib ketdi, bir vaqt yorug' dunyoga, chashmaning labiga yetdi. Avazxon qarasa, mergan jo'ralari yo'q. Xafa bo'ldi. Shoqalandarga aytdi:

— Merganlar yo'q, G'irot turibdi. Endi menga javob bersangiz, jo'ralarimni axtarib bu Ko'klamtoq-ni ko'rsam, o'likmi-tirikmi bilsam.

Shoqalandar aytdi:

— Borsang bor. Men sen kelgancha andak yotib, yonboshlab olayin. Sen o'zingga ehtiyyot bo'l. Bu yerlar yomon, xatarli. Hayallamay, tezroq borli-yo'qli xabar ni olib kel, Shozargar orqada, qanday bo'ladi, undan ham xabar-pabar olamiz, hali, — dedi. Avazxon: — Xo'p, — deb jo'nab ketdi. Shu yurganicha Ko'klamtoq'ning hamma erini axtardi, topolmadi, xafa bo'lib yuraberdi. So'zni Oqdevshohdan eshititing.

Oqdevshoh uzukni oldi, Tillaqizga bordi. Qiziga aytdi:

— Nogahondan borar edim, yo'llimdan bu uzuk chiqdi. Malikaning bog'da guli so'libdi, qalandarlar

unga harba qilibdi, uzugi yo'lda tushib qolibdi, o'ynab-kulgin, deb senga olib keldim. Kel bolam, olgin, qo'lingga solgin, bu uzukni senga beray, dushmanning keyinidan boray, qattiq kunni unga solay. Malikani olib kelay, — dedi.

Bu so'zni eshitib Tillaqiz otasiga qarab bir so'z dedi:

Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmasin,
Olloh mening aqlu hushim olmasin.
Ota, eshit mening aytgan so'zimni,
Qalandarning biri uzuk bo'lmasin?
Uzuk deb, sen qo'ldan berma qizingni,
Oh urib to'karman ko'zdan yoshimni.
Yot ellarga g'arib qilma boshimni,
Oxir qilma mening o'tirishimni.

Uchqur bo'lsang, qanotingdan qayrilib,
Yugruk bo'lsang, tuyog'ingdan toyritib.
Otajonim, g'osil bo'lib so'zlama,
Armon bilan qolma mendan ayrib.

Dod aylasang eshitmaydi so'zingni,
Sarg'aytadi sening qizil yuzingni.
Qo'ygin, ota, bunday uzugi qursin,
Uzuk debon qo'ldan berma qizingni,
Topolmassan, ota, mening izimni.

Sherday bo'lib uzukni olib kelbsan,
Bir ayyorga, ota, duchor bo'libsan.
Erisin, tog'larning qori erisin,
Har kishi olgani bilan qarisin,
Yer ostida dushman tani chirisin,
Qo'ygin, ota, bunday uzugi qursin!

Oqdevshoh qizidan bu so'zni eshitib, zehni koyib, xafa bo'lib, qiziga qarab, achchig'lanib, bir so'z dedi:

Yosh boshingga bunday shungg'ut bo'lasan,
Bu uzukdan nega hadik olasan?

Do'stingning uzugi, tayin bilasan,
Bunday bo'lsang, sen juvonmarg, o'lasan.

G'anim bo'lib sening yo'ling to'sdimi,
G'ariblikda ko'kayingni kesdimi?
Xayolingga necha gaplar kelarmi,
Uzukdan kishiga dushman bo'larmi,
Biror yerda seni uzuk bosdimi?

Mendayin otingga ko'ngling bo'lasan,
Bir uzukdan muncha hadik olasan,
Bunday bo'lsang, sen juvonmarg, o'lasan,
Yosh boshingga muncha shungg'ut bo'lasan.

Ana shunda Oqdevshoh qizga uzukni berdi. Tillaqiz uzukni olmadı. Otasining achchig'i kelib, qiziga qarab, koyidi, urushdi.

Oqdevshohning achchig'i kelganini Tillaqizning oldidagi sanam sizlar ko'rib: — Otangizni xafa qildingiz, qo'lidagi uzugini oling, — dedi. Shunda Tillaqiz otasidan uyalib, «Xafa bo'lmasin», deb uzukni oldi, qo'liga soldi, o'lchaganday qo'liga lop-loyiq keldi, «Uzukni berdim», — deb Oqdevshoh dimog'i chog' bo'lib, qalandarlarning orqasidan ketdi. Bular ham ketabersin, dev ham quvib orqasidan ketabersin. Endiki so'zni Tillaqiz bilan kanizlardan eshititing...

...Shunda Tillaqizning ko'p kaniz — jo'ralaridan birov o'rta bo'yli Oqqiz, nasyasi yo'q naqd qiz, tanbal emas sog' qiz, uzun emas o'rta bo'yli chog' qiz, tishlari guruchday oq qiz, qoshlari qalam, o'zi yaxshi, barno sanam, Tillaqiz oyim buvishining ketarini bilib, yurak-bag'ri ezilib, ko'zidan yoshi tizilib burni oqib, nima qilarini bilmay:

— Ey sanam, Tillaqiz buvishim! Bizlarni qanday qilib tashlab ketasiz? Bizlarning siz ketgan so'ng kuni-miz qanday kechadi? — deb dod-faryod qilib yig'lab, Tillaqizga qarab, bir so'z dedi:

Zargarbek etagin ushlab,
 Sen ketarsan ko'ngil xushlab,
 Zor yig'latib bu manzilda,
 Sen ketarsan bizni tashlab.
 Ayroliq o'tiga dog'lab,
 Biz qolamiz qonlar yig'lab,
 Borolmaymiz biz so'rog'lab.
 Endi ketding, nomu nishon qolmadi,
 Ketding bundan jodu ko'zlar.
 Seni olib Shohizargar
 Yurgan kunlar esga tushsa,
 Shu zamon yig'lar kanizlar.
 Bir yor deb etagin tutib,
 Qoldik bizlar qonlar yutib,
 Jigar-bag'rim kabob etib,
 Yurgan kunlar esga tushib,
 Yig'lasharmiz biz dod etib,
 Sening uchun qonlar yutib,
 Qaytib yana izing ko'rsam,
 Yurar edim tavof etib.
 Senga hamroh bo'ldi Zargar,
 Ko'zingga ko'rinnmas qizlar,
 Ko'ngling topgan bu qalandar,
 Qon yig'lagan bu kanizlar.
 Osha yurtga qilding safar,
 Olib ketar bu zo'rabor.
 Ota-ena, dengu dushlar,
 Hammasi qoldi bexabar,
 Kecha-kunduz biz yig'larmiz,
 Har zamon senga intizor.
 Sizni yo'qlab faryod etib,
 Kecha-kunduz afg'on etib,
 Sen ketasan bu kun bundan,
 Oshiqlik yo'lini tutib,
 Yodimizga sizni olsak,
 Biz yig'larmiz qon yutib.
 Meni o'rtab sening darding,

Ko'zga dori poyi-garding,
 Hurum yurtini axtarding,
 Zargarshohga hamroh bo'lding.
 Kiyganing gulgun qirmizi,
 Yurtimizda shohnning qizi,
 Oqdevshohning sen yolg'izi,
 Sen ketgan so'ng yig'lab qolar,
 Bunda turgan qirqin qizi.

Sen ketgan so'ng tinmay sig'on qilarmiz,
 Ajal yetsa biz ham bir kun o'larmiz.
 Bildim sening ketishingni, buvishim,
 Tag'ina mahshar kuni sizni ko'rarmiz,
 Qonlar yig'lab bizlar munda qolarmiz.
 Qaytib endi bizni tashlab ketasiz,
 Zargar shohman suhbat qurib yotarmiz,
 Siz bizlarni toza unutib ketarsiz,
 Jahonni sayr etib elga yetarsiz.
 Ko'zda yoshim munchoq-munchoq tizildi,
 Diyda giryon bo'lib, bag'rim ezildi,
 Ketaringni endi bildim, buvishim,
 Shuning uchun mening ko'nglim buzildi.
 Sabil qilding Torkistonday yurtingni,
 Tashlab ketding bunday mamlakatingni,
 Ko'rolmaymiz senday parizodimni,
 Qonlar yutib yod qilamiz surriyotni.
 So'z aytib yig'laydi bizday mushtipar,
 Tulporning beliga mindi Shozargar.
 Yulduzni ko'zlaydi arabi oti,
 Belida yarqillar keskir po'lati,
 Esga tushar Zargarning mamlakati,
 Angg'ishlaydi Zargarning mingan oti.

Ana shunda Tillaqiz kanizi Oqqizdan bu so'zni
 eshitib, kanizlariga tasalli berdi. Tillaqizning kanizlari
 oldida edi, otiga mindirmoqchi bo'lib turgan edilar.
 Shozargar Bo'ztulpor otga qayqayib kuyov yigit bo'lib
 minib: «Tillaqiz minsan ekan, keta qolsak ekan, polvon

Avaz bilan Shoqalandarga eta qolsak ekan», — deb
Tillaqizni shoshirib turibdi.

Shunda Tillaqizning kanizlariga aytayotgan so'zi:

Ayroliq o'tiga bag'rini tuzlar,
Oldimizda xizmat qilgan kanizlar,
Yoshlarga to'lmasin-da jodu ko'zlar.
Shodu xurram bo'lib, o'ynab-kul endi,
Xafa bo'lmay, sen duoda bo'l endi.

Meni ketdi debon ko'ngil bo'lasan,
Sizlar ham birovman o'ynab-kulasan.
Ko'nglim bo'l mang, xizmat qilgan kanizlar,
Sizlarga yo'liqsa shundayin shunqor,
Mendan ziyod bo'lib qolarsiz, kanizlar.
Shunday bo'ldi menga endi farmonlar,
Qolmas yuragimda cheru armonlar,
Sirli ustun, munda ko'shk-ayvonlar.
Munaqqashli ko'shku ayvon, xo'sh endi,
Shunda turgan manzil joylar, xo'sh endi.
Oh ursam to'karman ko'zdan yoshimni,
Yolborib xudoga soldim ishimni,
Yot ellarga g'arib qildim boshimni,
To ko'rguncha, kanizlarim, xo'sh endi.

Quloq soling menday oyim tiliga,
Men minarman Bo'ztulporning beliga,
Taqdirim tortibdi Hurum eliga,
Duchor bo'ldim Zargarbekning qo'liga,
Shodu xurram o'sgan ellar, xo'sh endi,
Kanizlarim, jodu ko'zlar, xo'sh endi.

Asqartog'ning boshin cholmasin tuman,
Har kimsa yig'lab oxirat zamon,
Tengu tushim qaytib ko'r magim gumon,
Meni bunda olib ketar Zargarxon.
Ayroliq o'tiga bag'rimni dog'lab,
Zargarbek kelgandi meni so'rog'lab,
Dushmanning yurak-bag'rini dog'lab,

Kanizlarim, bunda qoldingiz yig'lab.
 Tengu tushim, kanizlarim, xo'sh endi,
 O'ynab yurgan jodu ko'zim, xo'sh endi.

Zargar bilan birga-birga ketarmiz,
 Otamning savashin ko'rib o'tarmiz,
 Agar ko'zi tushsa podshoh otamning,
 Qanday bo'lsa bir xo'shlashib ketarmiz,
 Ko'rgan ko'zlar, sarvinozlar, xo'sh endi.
 Sanam yuzli, jodu ko'zlar, xo'sh endi,
 Xizmat qilgan mehribonlar, xo'sh endi,
 Vafoli kanizlar, qoling, xo'sh endi.

Xafa bo'lib nodon ko'ngling bo'lmaning,
 Men ketgandan zor-zor yig'lab yurmagin,
 Yana, qanday bo'lsa, yo'mon ko'rmanglar,
 G'ariblikman nodon ko'ngling bo'lmanglar.
 Taqdir tortsa, Hurum elga borarmiz,
 Har zamonda sizlarni yodga olarmiz,
 Tuz-nasiba tortsa qaytib kelarmiz,
 Sog'-salomat kelib sizni ko'rarmiz,
 Sizlarni ham yodga olib yurarmiz,
 Sizlarning yaxshiliklaring bilarmiz.
 Shodu xurram kanizlarim, xo'sh endi,
 O'ynasa taxtu baxtim, xo'sh endi.

Necha vaqt bizlarga xizmat qilgansiz,
 Payrovlik qib mening aqlim olgansiz,
 Mening bilan birga o'ynab-kulgansiz,
 Davron surib, birga-birga yurgansiz,
 O'ynab-o'sgan qadrdonlar, xush endi,
 Tengu to'shim, shirin so'zim, xo'sh endi.

Qaytayin, jo'natding menday sanamni,
 Ko'rolmadim oq sut bergan enamni,
 Sizlar ayting mendan tegar salomni,
 Mening uchun ko'rib keling enamni,
 Obod qiling mening vayronxonamni,
 Albatta, so'ranglar mening enamni,

So'rangizlar Gulsanamiday enamni.
Boshimizdan ketsin qayg'uli tuman.
Duo qilsin oq sut bergan mehribon,
Mahtal bo'lib munda turar Zargarxon.
Rozilashib kelolmadim shul zamon.
Albatta, so'ranglar mening enamni,
Yetkizinglar mendan aytgan salomni.
Men ketgan so'ng lodon ko'nglin bo'lmasin,
Farzandim, deb zor-zor yig'lab yurmasin.
Bu so'zlarni aytar menday gajakdor,
Salomni enamga yetkar, kanizlar,
Duoda bo'l qirqin qizlar, mushtipar,
Bu so'zlarni aytar hur yuzli dilbar.
Mening uchun ul enamni so'ranglar,
Aytingizlar Tillaqizning so'zini,
Farzandim, deb koyitmasin o'zini,
O'lmasa ko'radi menday qizini.
Kiyganim ipakdan, oltindan yoqa,
Ko'rgan bo'lar jamolimdan sadag'a.
Salom aytgan mehribonim tog'amga,
Katta-kichik ulug' — shohu og'aga.
Men minarman endi aspi qushimga,
Arzu holim aytdim dengu do'shimga.
Mening uchun salom etkir
qavmu qarindoshimga,
Xo'shlashgani ular yo'qdir qoshimda.

Shunda Shozargar yori Tillaqiz bilan kanizlarining so'zi uzayib, cho'zilib ketganini ko'rib:

— Gapni juda uzun qilib, yıldan ham uzoq qilib yubordinglar. Mening jo'ralarimning holi qanday bo'ldi? Bo'l-ha, bo'l, kel-ha kel! — deb Tillaqizga qarab, achchig'i kelganday bo'lib, bir so'z dedi:

Ochilgan jig'aday gul yuzing so'lib,
 Yig'lanib gapirma hijrona to'lib.
 Aytgan so'zing, ey gul yuzli, bas bo'lib,
 Men ketarman bu yerlardan mas[t] bo'lib.

Senday yorni bu yerlardan mindirib,
Ko'p gapirma sen zardamni qaynatib.
Kel, mingashgin endi, gul yuzli dilbar,
Men jo'narman bundan otim o'ynatib.

Darg'azab bo'ldi-ku ul Shozargar.
Tarziga qaradi gul yuzli dilbar,
Xijil bo'ldi shunda turgan kanizlar,
Tillaqizni o'rtaqa olgandi qizlar.

Ana shunda Shozargarning xafa bo'lib so'zlaganini ko'rib, tarziga Tillaqiz qarasi, juda xafa bo'lib tuklari tippa-tik bo'lib, og'zi-ko'zi bejo bo'lib, og'zi qibirlanib, bijirlanib borayotir. Buni Tillaqiz ko'rib: — Xayr endi, omon bo'linglar, — deb otga minmoqchi bo'ldi. Shunda qirqin qizlar Bo'ztulpor otning jilovini ushladi, birovi uzangisidan ushladi. Bir xili Tillaqizni ko'tarib mindirmoqchi bo'ldi. Bo'ztulpor otga bundan ilgari birov mingashgan emas edi. Turmay juda bezor bo'ldi. Unday qilib, bunday qilib, kanizlar bir yoqdan, Shozargar bir yoqdan otni mahkam ushlab, Tillaqizni otga mindirdi. Shozargarni xushvaqt qilib kuldirdi. Tillaqiz tulporga mingashib edi, tulpor ot tipirlab turmay dinggilladi. Tillaqiz o'zini otning ustida turgiza olmay, sapchib dinggillaganiga o'rnidan tushib qolguday bo'lib, shoshib qoldi. Shunda egarning qoshi deb Zargarbekining bilagidan egarning boshi, deb ushlab oldi. Buni ko'rib Zargarbek: «Uyat bo'ldi, sening bu ishingni kanizlar ko'rdi. Nariroq o'tir!» — deb turkilab berdi. Kanizlar yig'lashayotir, ot bezor bo'layotir, zargarning ko'ngli tinayotir. Tillaqiz yorini sinayotir. Shunda Zargarshoh: «Bu mening yangi olgan yorim bo'lsa, bu yurt, ko'p uzoq, yomon yurt bo'lsa, devlar, parilar, katta dushmanlar ko'p bo'lsa, mabodo menga birovi zo'rlik qilib orqamdan tortib, bir silkib olib qo'ymasin», — deb Tillaqizning belidan mahkam bog'lab oldi. Oti terlab turmayotir. Tulpor angg'ishlab, jilovini qo'ysa uchqur qushday

uchmoqchi bo'lib turibdi. Qoratulpopor qanday ketsa, shunday keta berdi. Shoirlar bu tulpor otni shunday jo'natayotir:

Mindirgandir parizoddi,
Jo'natdi-ku bedov otdi.
Ko'ring, Zargar azamatdi,
Shundayin qildi g'ayratdi.
Bo'ztulporga qamchi chotdi,
Urgan qamchi simday botdi,
Tillaqizni olib qaytdi.

Shunday bo'lib yo'lga kirdi,
Qirqin qizlar qarab qoldi,
Ko'zlaridan g'oyib bo'lib,
Haqning yashiniday ketdi.
Sabil qilib o'sgan yurtin,
Jo'natgandi parizodin.
Duo qilib qirqin qizlar,
Endi uzdi bu umidin.
Shunday bo'lib bu kanizlar,
Manzilda qoldi kanizlar.
Ko'zdan pana bo'ldi dilbar,
Ko'ringiz, Zargar zo'rabor,
Parizodni olib qaytdi.

Endi ko'ring, sherdan qaysar,
Yashinday bo'b oqadi tulpor,
Qo'lga tekkandi gajakdor,
Esiga tushgandi qalandar,
Topishsam, deb qistab ketdi,
Pari olgan Shohizargar.
Yori bilan mingashib,
Tulpor minib yo'lga tushib,
Ketmayin deb adashib,
Borayotir Tillaqiz bilan.
Gurkiraydi sherdai shoshib,
Tulpor boradi angg'ishlab,

Qo'lting'idan buklab tashlab,
 Tushib qolmayin, deb oyim,
 Shozargarni mahkam ushlab,
 Shozargar Tillaqizni,
 Tushib qolmasin deb turmushlab.
 Tulpor boradi harsillab,
 Tuyog'i yerga dursillab,
 Bo'ztulpor ot og'zini oolib,
 To'zon bo'ladi karsillab.
 Borayotir og'zin oolib,
 Parqinidan ko'pik sochib,
 Shozargarni olib qochib,
 Parizodning bahrin oolib.
 Yo'lda bir-biriga qarar,
 Bir-birining holin so'rар,
 O'ynab-kulib qo'l uzatib.
 Borayotir Shohizargar.
 Zargarbekning ko'nglin xushlab,
 Urди qamchini qulochlab,
 Ostidagi Bo'ztulpori,
 Irg'ir yashin tashlab.
 Qistaydi tulpor otdi,
 Zargar qildi g'ayratdi,
 Mindirgan parizoddi,
 Shuytib zargar yo'l tortdi.
 O'r kelsa o'mganlatdi,
 Qir kelsa qilpillatdi,
 Arna kelsa irg'itdi,
 Shuytib zargar yo'l tortdi.

Ostidagi Bo'ztulpor
 Yo'lda bo'ynin uzatdi,
 Mindirgan parizoddi,
 Shuytib Zargar yo'l tortdi.
 Zargar qildi g'ayratdi,
 Ko'ringiz tulpor otdi,
 Jilov bermay Bo'ztulpor,

Zargarni olib ketdi,
 Zargar shunday yo'l tortdi.
 Har zamon burilib qarab,
 Torkistondan uzab ketdi.
 O'ynar ostida Bo'z oti,
 Belda keskir po'lati,
 Toshdi Zargarning g'ayrati.

Mast bo'shib boradi Zargar zo'rabor,
 Ostida o'ynaydi arabi tulpor,
 Keyniga mingashgan shunday gajakdor,
 Har zamon esiga tushar qalandar,
 Yorug' yerdan o'tib shunda bu Zargar,
 Qorong'ilik yerga yetdi muqarrar.

Xudo deydi, yaratganga jilaydi,
 Hojatini bir Ollohdan tilaydi,
 Qorong'ilik yerga kirib boradi,
 Tavakkalni bir xudoga qiladi.
 Parizod har tarafsga qaradi,
 Qaysi yerga borarini bilmadi.
 Xudo, deb boradi endi bu Zargar,
 Haqning yashiniday bo'b oqadi tulpor.
 Qaramaydi nomdor baland-pastiga,
 Olmos yarashgandir mardning dastiga,
 Haqning yashiniday bo'shib Bo'ztulpor.
 Borib qoldi ajdarhoning ustiga.
 Ajdarhoni shunday ko'rib qoladi,
 Ajdarhoni ko'rib ko'nglin bo'ladi.
 Bu yotgan-ku behad ajdahor,
 Ul o'tganda hamroh edi qalandar,
 Endi qanday ilojini qilaman.
 Endi qanday bo'lar, dedi bu shunqor.
 Unga shunday so'z aytadi gajakdor:
 — Otning tizginini tortmang muqarrar,
 Buni damga ololmaydi ajdahor,
 Omon-eson o'tib ketar bu tulpor.
 Bu tulpor ham u tulporman barobar,

Yuganini qo'yib tashlang jilovdor,
 Yashinday bo'p oqar shunda Bo'ztulpor.
 Yetolmaydi damga tortsa ajdahor.

Bo'ztulpor jonni sotdi,
 Zargar qilar g'ayratdi,
 Tiklanib o'rga yetdi.
 Kechami, bilmaydi kunduz,
 Yo'l tortadi Zargarman oyimqiz.
 Shunday chopib, yashinday bo'b oqadi,
 Bo'ztulpor jonini qiyab qochadi.
 Zargar bilan Tillaqiz pari,
 Birov-biroviga qarab boqadi.
 Ketib boradi, «chuv-ha», deyishib,
 Tulpor chopganiga aqli shoshib,
 Zargarbek so'raydi suygan yoridan.
 Tag'i ham ketmayik yo'ldan adashib.
 Zargarbekka Tillaqiz oyim suylaydi:
 «Bu yo'l, bir yo'l, boshqa yo'l yo'q», — dedi.
 Tulpor boradi yo'l boshlab,
 Chopganda ajdahorday vishillab,
 Qistab borar Bo'ztulpori,
 Yerni bosganda vorsillab.
 Tulpor boradi arqirab,
 Otgan o'qdayin zirqirab.
 Yashin tashlab irg'igandi,
 Tog'ning toshlari tirqirab.
 Borayotir yo'lni boshlab,
 Zargarbekning ko'nglin xushlab,
 Tillaqizni mahkam ushlab,
 Boradi tulpor kish-kishlab,
 Bu beklarning ko'nglin xushlab.
 Otgan o'qdayin zarillab,
 Borayotir Tillaqizi,
 Badanlari pirillab.
 O'zin bosib to'xtatolmay,
 Yuraklari zirillab.

Ko'klam tog'i devga to'lib,
 Bedovning irg'iganiga,
 Har darasi larzon urib,
 Gursillab boradi Bo'ztulpor.
 Qorong'ilikning og'zida,
 Ko'rindi yorug' dunyo yuzi.
 Xurram bo'ldi shohning qizi.
 Oqdevshohning bu yolg'izi,
 Zargarbekning jodu ko'zi,
 Balki og'zidagi so'zi,
 Juda yaxshi, nozik o'zi,
 Kuydirgandir Zargarbekni,
 Qilik'imani aning nozi.
 O'ynamoqqa oyim tolib,
 Yursa bellari buralib.
 Zargarbekning aqlin olib,
 Shunday sanam bir qaradi,
 Qorong'i dunyo yorug' bo'lib.
 Yorug' dunyoni ko'radi,
 Zargarbekdan bul so'radi:
 — Yorug' dunyoga chiqding, — dedi,
 Xasa bo'lmay, o'ynab-kulib,
 Yorug' dunyoni ko'rayin.
 Xasa bo'lmanang, Zargarbek,
 Qalandarman Avazxonga yetishdik,
 Omon bo'lsak bularman endi topishdik,
 Malika bilan ko'rishdik,
 Eson-omoi bo'lsak bizlar shunda,
 Ota-onamiz bilan topishdik, —

deb qorong'i yerdan chiqib, shunday yorug' dunyoga
 Shozargar qaradi. Qarasa, Shoqalandar Malika bilan
 boyagi o'zining tilab olgan chashmasining oldida tu-
 ribdi. Buni ko'rib dimog'i chog' bo'ldi. Lekin Avaz-
 xonni ko'rmadi. Qoratulpor ham shu yerda — chash-
 maning labida boylog'li turibdi. Buni uzoqdan ko'rib,
 xudoga shukur qildi. Avazxonning yo'qligiga birmun-

cha xafa bo'lib kelayotir. Lekin Avazxonning qo'yib ketgan ikki jo'rasidan ham xabar yo'q, otlari ham yo'q. Zargarbek hayron qolib kelayotib edi, bir vaqt Bo'ztulporning ko'zi Qoratulporga tushib, guldirab kishnab yubordi. Xuddi yer qimirlab, osmon yorilganday bo'lib ketdi. Buning tovushini Qoratulporga eshitib, bir kishnadi. Nimkalatop xotinlar bo'g'oz bo'lgan bo'lsa, bolasini tashlab qo'yadiganday, Ko'klamtoq'i larzon urib ketdi. Ikki tulpor bir-biri bilan kishnasha berdi.

Shunda Tillaqizning kelayotganini Malika pari ko'rib, Tillaqizga qarab, miyig'idan kulib, tabassum qilib: «Ey sho'rli do'stim, shumsinibgina yurib eding, bu kunda sho'rli mendan ham o'xshalib, sozlanib kelayotganga o'xshaysan», — deb uzoqdan ko'rgandan bu Tillaqizning ahvolini Malika pari bilib, o'ziga to'ppa-to'g'ri ayta olmay, ichidan bilib kelsin, deb yo'lliga qarab turdi.

Ana shunda kuyib-pishib, pishnab, charchab-horib Shozargar bilan Tillaqiz oyim Shoqalandar bilan Malika parining oldiga yetib keldi. Bularning kelayotganini Shoqalandar ko'rib: «Mening cho'ldagi g'arib yo'ldoshim kelayotir», — deb o'midan turib, shu zamonda Zargar otdan tushib, Qalandarbek bilan ko'rishi. Malika o'midan turib, Tillaqiz oldiga kelib, tulpor otdan tushirib oldi:

Juda siz ham shung'it bo'lib,
 Bo'ztulporni mingashib,
 Bo'ladigan ishni bilib,
 Qani, endi bilganingiz,
 Zargardan qutulganingiz?
 Kanizakka kulganingiz?
 Qani, sizning shung'it bo'lib,
 El ichida qolganingiz?
 Zargarbek changiga tushib,
 Bizdan yomon bo'lganingiz.

Bizlar bunda omon kelgan,
 Sizga tanho qolgan sulton,
 Sizni bilganiday qilgan,
 Olib kelgan Zargar sulton.

Bu gapni ustiga Avazjon yetib keldi. Ana shunda Avazxon Zargarni ko'rib, ko'ngli to'lib, vaqtı ziyoda xush bo'lib, otdan tushib, ikki podsho bilan ko'rishib-so'rashib, topishib, bir-birini «hormang — bor bo'ling» deyishganda, Shoqalandar, Avazzondan: — Birga kelgan mergan jo'ralariningizdan xabar bormi? — deb mer-ganlarni so'rab aytgan so'zi:

Jahonni sayr etib o'ynab-kuldingmi,
 Norkesar olmosni belga chaldingmi?
 So'zimni eshitgin, Avazxon,
 Birga kelgan mer-ganlarni bildingmi?
 G'irotingga achchiq qamechi chaldingmi,
 Har tarafni so'rab, nazar qildingmi?
 Devlarning ham manzilini ko'rdingmi,
 Merganlarning xabarini bildingmi?
 Hech kimsadan so'ramayin yurdingmi?
 Mergan deb yurdingmi tingsalib qarab,
 Hech kimdan so'ramay, bekor yurdingmi,
 Mehnat tortib birga kelgan, Avazxon.
 Merganlarning xabarini bildingmi,
 Yo bo'lmasa, bekoriga yurdingmi?

Avazxon Shoqalandardan bu so'zni eshitib, Qalandarga qarab bir so'z dedi:

Men topmadim merganlarning to'rasin,
 Kun axtardim Ko'klamtoq'ning darasin,
 Endi topmay kela berdim darani,
 Axtarib, ko'rmadim merganlarning qorasin.
 O'lmasak bir kuni Chambil boramiz,
 O'g'il-qizi yig'lab chiqsa oldimga,
 Bilmay qoldim, qanday javob berarmiz.
 Yoqamni chok etib, yig'larman faryod,

Yiqilsin, buzilsin ul charxi noshod,
 Hayf, navjuvonlar — qomati shamshod,
 Bo'lgan o'xshar merganlarga qiyomat,
 Bo'Iganga o'xshaydi turli alomat,
 Ko'p qaradim Ko'klamtoq^{*}ning darasin,
 Qolgan yo'qdir bu devlardan salomat.
 Xazon bo'lib bog'da gullar so'lgandir,
 Ajal yetib paymonasi to'lgandir,
 Yo g'aflatda devga duchor bo'lgandir,
 Devlarning changida ular o'lgandir.
 Harchandki izladim tog'ning darasin,
 Bilolmadim Asad, Shodmon to'rasin.
 Ko'p yerlarni men axtardim ot quvib,
 Hech ko'rmadim Asad,

Shodmon qorasin.

Bobo, eshit, Avazxonning so'zini,
 Har tarafsga termulib shunday qaradim,
 Topolmadim merganlarning izini,
 Dev yegandir merganlarning o'zini,
 Yetim-yesir qilgan o'g'li-qizini.
 Ko'zidan to'kkandir selob yoshini.
 Dev yegandir merganlarning go'sh^ttini,
 O'lja qip olgandir otman qushini.

Shunda Avazxon:

— Ey Shoqalandar, men tunovgi kundan beri
 G'irko'k otimni minib, Ko'klamtoq^{*}ning uch yuz olt-
 mish darasining hamma yerini qaradim. Lekin zahar
 qotgan suvlarning tarasiga devlardan qo'rqb bora
 olmadim. Devlar juda ko'p ekan. Ko'klamtoq^{*}ning
 u yog'idan — bu yog'i yetmish yillik yo'l bo'lsa, buni
 qanday qilib qarab bas kelib bo'ladi? Men shu vaqt-
 gacha yuz oltmish darani qarab axtardim. Hech bir
 nomu nishon topa olmadim. O'zim ko'p charchadim,
 ham Malikani ko'zim qiymay, merganlar o'lsa o'lar,
 qolsa-qolar, har nima taqdirdagi bo'lar, deb qaytib
 keldim, hech daragi yo'q, — dedi.

Shoqalandar:

— Unday bo'lsa, bu yomon bo'libdi, o'ligini-tirigini bilmog'imiz lozim edi, — dedi.

Ana shunday qilib, Shoqalandar, Avazxon, Shozargar, Malika ayyor pari, Tillaqiz parizod, G'irko'k — bular to'p bo'lib, shu chashmaning oldida turdi. Beklarning mernanlar uchun juda xayollari qochgan edi. Bularni shu yerda shunday o'tqizib turayik. Endigi gapni bu yoqdagi shohning elchilaridan eshiting.

Oqdevshohning uchib yuradigan elchilari osmonda uchib yurib, yerdagi odamzodni ko'rib, Malika pari bilan Tillaqizni bu uch o'g'lon bilan hamroh, ko'rib, qaytib borib ko'rgan ishlarini Oqdevshohga bildirib, elchi devlar bir so'z deb turibdi:

Ayo, shohim, sizga deymay so'zimni,
Malika bilan ko'rdirim qizingni.
Malikaman hamroh ikki qalandar,
Tillaqizman beshov bo'lgan muqarrar,
Bilmam, qaydan keldi unday zo'rabor,
Bu ishlardan senday shohim bexabar.
Hazil bilma, shohim, aytgan so'zimdi,
Olib kelibdi sening Tillaqizingdi,
G'ayrat bilan savash qilmoq lozimdi[r],
Anglab bilgin mening aytgan so'zimdi.
Odamzod qadami bunda yetarmi,
Uch odamzod ish ko'rsatmay ketarmi?
Har qaysimiz g'urullahgan ajdahor,
Odamzodman savash qilmoqlik darkor,
Ul changaldan ozod bo'lsin parilar.

Ot o'ynatib, lashkar tortib borayik,
Ko'rmagan kunlarni anga solayik,
To'tiday bo'b qafasdag'i qizingni,
Yuring shohim ajiratib kelayik.
Sabil bo'libdi o'sgan joyi — kirdikor,
Balki cho'l bo'b qobdi Torkiston shahar,

Torkistonning obodi Tillaqiz, Malika ayyor,
 Qalandar changaliga bo'libdi duchor,
 Borib endi savash qilmoqlik darkor,
 Ul qafasdan ozod bo'lsin parilar.

— Unday bo'lsa otlanaber, lashkarlar,
 Hayda lashkaringni, bayroq-tug'dorlar,
 Endi maydon bo'lsin, savash qilishing,
 Yov-yarog'ing kiyib olgin, sardorlar!
 Qorni ochin xo'rak berib to'qladi,
 Yotgan lashkar miltiqlarin o'qladi.
 Endi ko'ring, Oqdevshohning lashkari,
 Urushga barini choppa-choqladi.

Ot chopilar baland tog'ning pastiga,
 Devlar tushgan uch odamning qasdiga.
 — Jur-ha, jur, — deb bordi ko'p devlar,
 Saf-saf bo'ldi Ko'klamtog'ning ustiga.

Devlarning g'ubori olamni tutdi,
 Ko'klamtog' ustida devlar saf tortdi.
 Par-parlatib karnay tortib ko'p devlar,
 Odamzod ustiga urushga yetdi.

Shoqalandar endi qildi g'ayratni,
 Turib mindi asl tulpor G'irotni.
 Tog' ustida saf-saf turgan devlarga,
 Shoqalandar haybatini ko'rsatdi.

Shozargar ham endi belin boyladi,
 Bu ham turib Bo'ztulporni shayladi.
 G'ayrat bilan minib otning ustiga,
 Shozargar devlarga talab ayladi.

Devlar kelgan necha tog'lardan osha,
 Oqdev ketgan yonar o'tga tutasha.
 Shoqalandar, Zargar kirsin savasha,
 Avazxon, o'tirib qilgin tomosha.

Illi polvon shu maydonga kiradi,
 Ajdahorday ikkovi ishqiradi.

Talab qilib adadi yo'q devlarga,
 Boz Avazdan oq fotiha so'radi.
 Duo olib Avazzonday o'g'londan,
 Xudo deb ikkovi jangga kiradi.
 Duo qildi Avaz polvon ajdahor:

— Madadkoring bo'lsin g'oyib eranlar,
 Bor, endi topshirdim yaratgan Haqqa,
 Xudo yoring bo'lsin, ollohu akbar!
 Olamni kisht o'zgan yetti qalandar,
 O'n ikki imom, chiltan bo'lsin jilovdor.

Bu devlardan aslo qo'rwmang, yoronlar,
 Javob berdim ot qo'ying, Shoqalandar,
 Devlarni ayamang, o'ldiring, Zargar,
 Boring endi urush bo'ldi, turish yo'q,
 Ot qo'yinglar, endi javob, ollohu akbar!

Til bilmasga jazo, dedi,
 Kel, niyati g'azo, dedi,
 Na'ra tortib Shoqalandar,
 Aliyu Murtazo, dedi.
 Sizlar devning eli, dedi,
 O'ngi bilan so'li, dedi.
 Shozargarman Shoqalandar,
 Yo, Murtazo, Ali, dedi.

Haqni yod etibdi dam-badam,
 O'zing qil deb lutfi karam.
 Shozargarman Shoqalandar
 Sermaydi misli Rustam.

Ko'p devlar saf tutib kelib yotir,
 Talabgor deb qichqiradi bul bolir.
 Bul ikkovi talabgor deb qichqirib,
 Terak yaprog'iday titraydi kofir.

Tomosha qil Shoqalandar ishini,
 Ko'zga ilmay tog'ni bosgan kishini.

Tomosha qing Zargar bilan Qalandar,
Bab-barobar qo'ydi otning boshini.

Buni ko'rgan tog'ning aqli shoshadi,
Ikki polvon birday bo'b savashadi.
Qirib devni ikki birday ajdahor,
Aralashib daryoday bo'b toshadi.
Qochmoqqa qo'ymaydi ikki ajdahor,
Anov qochdi, oldini ol, deyshadi.

Endi ko'ring Shoqalandar qallobdi,
Minib oldi nazarkarda G'irotdi.
Nechovni ushladi, osmonga otdi,
Zo'r devlarni tomoshaga qaratdi.

Kel-ha, kel, deb G'irko'k otni o'ynatdi,
Ne devlarning zardasini qaynatdi.
Bir orallab o'tib ketsa G'irko'k ot,
Nechovining kallasini yeb ketdi.

Bir yoqdan Shozargar jonin sotadi,
Qo'lliga ilinsa siltab otadi.
Qanday devni kelib ursa Shozargar,
Qimirlamay urg'an yerda yotadi.
Kim ko'ndalang bo'lsa ikki ajdarga,
Hayallatmay yerman yakson etadi.
Har sisatlì bo'lib olsa ikki ajdar,
Uyursimon qirib-jo'yib o'tadi.

Qochganlari qutulmaydi devlarning,
G'irko'k tulpor qadalganga yetadi.
Qilichin o'ynatib ikki ajdahor,
Kim yondashsa, ikki bo'lib o'tadi.
Ikki botir tushib opti o'rtaga,
Ayamay devlarni xo'p mayda etadi.

Savdo soldi Oqdevshohning boshiga,
Hech dev kelolmaydi bular qoshiqa,
Hamma qoyil bo'lar qilgan ishiga.
Shuncha dev yetolmay ikki kishiga.

Yetib solib har devning boshiga,
Boshlarini tushirib yonboshiga,

Ikki botir ot qo'ydi,
Qassob bo'b devni so'ydi.
Garov qilib ikkovi,
Sanamoq bo'b kalla qo'ydi.

Ikkovi ham yosh botir,
Shuncha devga ajal bo'p,
Shuncha devga kep yetdi.
Voy-voyladi qo'rqoqlari,
Bari kelib yig'ib devni,
Qoch-qoch deyib baqiradi.
Mana yoqdan kelib qo'ydi,

Bola ekan ikkovi,
Bab-barobar bo'lib qo'ydi.
Anov yoqqa qaranglar,
Katta safni olib qo'ydi.

Zo'ring bo'lsa ana u,
Qaragin, ag'nab qo'ydi.
Tug' ushlagan zo'r bo'lsa,
Uning joyin olib qo'ydi.

Dev bulardan qolmaydi,
Boymoq devi ham jolmaydi.
Dim charehmas bachchag'ar,
Sira bular tolmaydi.

Oqdevshohning lashkari,
U ham barobar bo'lmaydi.
Ana unisiga qaragin,
Devni pisand qilmaydi.

Mana bunisi ham balo-ku,
Devni ko'ziga ilmaydi.
Selday bo'lib keladi,
Past-balandni bilmaydi.

Endi ko'ring Oqdevni,
 Zor yig'laydi, kulmaydi.
 Tillaqizing ketgan-ku,
 Endi qaytib kelmaydi.

Bunda baring qirilding,
 Hech kim omon qolmaydi.
 Senmi devning botiri,
 Oldin desang bo'lmaydi.

Shoqalandar urindi,
 Tomoshani ko'r endi,
 Bir xudoga sig'inib,
 O'zing obro'y ber endi.
 Nodon devning ko'ziga,
 Bittasi ming ko'rindi.

Zargar qildi xurushdi,
 Endi ko'ring urushdi.
 Shuncha devga ikkovi,
 Ur-ha, ur, deb surishdi.
 Yalang'ochlab olibdi,
 Ikkovi ham qilichdi.
 Bir siltasa kesadi,
 Adadi yo'q ko'p boshdi.

Qo'rqib qolibdi ko'p devlar,
 Bari endi chuvlashdi.
 Shoqalandar ishqirib,
 Ajdar bo'lib aralashdi.

Shozargar ham sherdai bo'b,
 Bir yoqdan hamdamlashdi.
 Bunday zo'tni ko'rmagan
 Devlarning aqli shoshdi.

Zolim devning o'ligi,
 Tog'da qanorday shishdi.
 Alimoq devlar kallasi,
 Balanddan yumalashdi.

Ana o'llim keldi, deb,
Qo'rqog'i tura qochdi.
Ikki botir devlarning,
Endi uyqusin ochdi.
Ikki tulpor shu tog'da,
Chachasidan loy kechdi.

Shoqalandar, Shozargar
Qildi tanti savashdi.
Qirg'inidan bularning
Qaragan ko'z qamashdi.

Devlar kelar qamalab,
Uramiz deb chamalab.
Yaqintashsa bularga,
Qolayotir dumalab.
Pisib yurar nechovlar,
Ko'rmasin, deb panalab.
Nechovlari voy-voylab,
Itday bo'lib ayqaylab.
Borayotir ikkovi,
Junday qilib savalab.
Devlar qarg'ab yig'laydi,
Qora yerni to'balab.
Shoqalandar oralab,
Yomongina yaralab.
Boshin uzib boradi,
Polvonini saralab.
Zo'r, man-man ne devlar,
Qochib yurar mo'talab.
Necha devlar o'lilik deb,
Tog'ning toshin panalab.
Qirib ketib boradi,
Janaq yerman panalab.

Zargar mast bo'b boradi,
Kim yo'liqsa qiradi.
Ikkovi ham chin botir,

Bir-biridan satradi,
 Ayamasi devlarni,
 Xo'p mayda qip qiradi.
 Hech kim bo'lmas barobar,
 Sherday bo'lib boradi.
 Kim yo'liqsa qo'liga,
 Yerga toblab uradi.
 Qaysi devni ushlasa,
 O'ldim, deb qichqiradi.
 Nechovlari emaklab,
 Soysa qochib boradi.
 Qochmasa ham qo'yymaydi,
 Bu ham yetib uradi.
 Qo'lida bor qilichi,
 Qaytib qochmay turadi.
 Tayoq-mayoq bo'lmasa,
 Qilich bilan uradi,
 Kallasini yulib ob,
 Chopib ketib boradi.
 Bul Avazday bahodir,
 Ko'p qiziqni ko'radi.
 «Ko'rdingmi?» — deb Avazga,
 Bular shovqin beradi.

Ana shunda Avazxon, Malika ayyor, Tillaqiz chashmaning labida o'tirar edi, oldida Qoratulpor boylog'lik edi, ustiga Shozargar bilan Shoqalandar chiqib keldi. Chashmadan suvlab, chechinib, shamollab o'tirdi.

Shunda Shoqalandar Zargarga qarab aytdi:

— Sen bilan ikkovimizga yana tag'in bir xizmat bor, uni sen bilmaysan, men senga bildirayin. Asad, Shodmon va sizlarni shu chashmaning labida qo'yib, Boymoq devning manziliga borib edim. Shunda Boymoq devning qo'lida shahri Zebit elining bolasini ko'rib edim. Uning bilan so'rashib, shuni Boymoq devga jonsiz qilib edim.

— Shu shaharni olib, Malikani qo'llimizga olsak, shu devning qo'lidan ajratib olaman, deb edim. Shu Zebit shahrining shahzodasini ajratib olib ketmog'imiz darkor. O'n sakkiz ming lak lashkar bilan kelgan ekan. Hamma odamlarini o'ldirib, yolg'iz shahzodaning o'zi qolgan ekan. Bunda g'aribu go'riston bo'lib ketmasin. U vaqtida aytgan edim: «Devlardan so'rab, Malikaga boradigan yo'lni ko'rsatdilsang, seni ota-enanga omon-eson olib borib qo'yaman», deb va'da qilgan edim. Va'damiz yolg'on bo'lmasin, endi borib shuni ajratib olib kelayik.

Bu qalandarlar shu maslahatda edi. Boymoq devning manzili oldini ko'p lashkarlar olgan edi. O'lGANI o'lGAN, qolgani qolgan edi. Boymoq devning lashkarlari, Oqshohdevning lashkarlari, Qosimshohning lashkarlar — hammasi jam bo'lib shu yerda yotgan edi. Lekin osmonda uchib yuradigan ayyor, jodugar, sehrgar devlar bularning majlisida yo'q. Ular ham «nima gap bo'lar ekan», deb uzoqdan bularga qarab o'tirib edi. Bu devlar — hammalari shu ajnosda turdi. Ana endi, qalandarlardan eshititing.

Shunda qalandarlar urush asboblarini, keskir xanjalarini olib, Avazxonga aytdi:

— Ey bolam, bizlar yana bir yerga boramiz, shunda borganda, urush bo'lib qolsa ham ajab emas. Sening bizlar bilan ishing bo'lmasin. Sen endi Malika ayyorga, Tillaqizga, Qoratulporga ehtiyyot bo'l. Bu devlar senga biror kulfat bermasin. Bular indamagan bilan osmonda uchib yuradigan ayyor jodugarlardan, ehtiyyot bo'l! Tag'in yana bu devlarning birovi senga dushmanlik qilib, qo'lingdan Malikani, yo Tillaqizni, yo Qoratulporni olib qochib ketmasin. Uxlab yotib qolma, uyqu yaxshi ish bo'lmaydi. Bu turgan Malika, Qoratulporni seniki. Sen bularga ehtiyyot bo'l! — deb urush yarog'ini g'amlab, keskir isfihonni qo'liga olib, belini mahkam boylab, Shoqalandar G'irko'k otni, Shozargar Bo'ztulporni minib, devlarga qarab, «kel-ha, kel» deb bo-

raberdi. Shunda devlar Qalandar, shoh Shozargarning kelayotganini, ko'rib, urush asbobini sozlab, saf-saf bo'lib, yaqinlab qarab turaberdi. Shoqalandar: «G'irko'k ot urushga ustadi, boshqa otlar qastadi», — deb otlanib, yaqinlab boraberdi. Bularni devlar ko'rib, Oqdevshoh g'azablanib qalandarlarga gapiradi:

Qalandarlar, kel-ha, dedi,
Kelib urush ko'r-ha, dedi,
Kel maydonga, jur-ha, dedi.
Kel maydonga, qalandarlar,
Urushimni ko'r-ha, dedi,
Qazong yetsa o'l-ha, dedi.
Ikki beklar, urushamiz,
Joylik devlar kel-ha, dedi,
Urush qilsang kel-ha, dedi,
Ajal yetsa o'l-ha, dedi.
Bizlar bilan urush boshlab,
Ko'rmaganni ko'r-ha, dedi.
Arqiragan erday bo'lib,
Tog'da aqirgan sherdai bo'lib.
Bordi devlarning ustiga,
Ikkovi ham birday bo'lib.
Og'zidan ko'pigi oqib.
Mast bo'lgan sherdai bo'lib.
Devlarga qarab boradi,
Changab yotgan norday bo'lib.
Oqdevshoh darg'azab bo'lib,
Shu zamon tulpor minib,
Chuv, deb tulporga qamchi urib,
Qalandar qoshiga yaqinlab yetdi.

— Holing bilmay bu maydonga kelbsan,
Nochor ko'p lashkarni nobud qilbsan,
Ajal haydab menga duchor bo'libsan!

Oqdevshoh haybati olamni tutdi,
Zo'r dev edi, o'tday tutashib ketdi,

Qalandarga badbaxt qo'lin uzatdi,
 Qalandar uzalib belidan tutdi,
 Boshdan aylantirib osmonga otdi,
 Havoda ko'rinxay ul dev ketdi.
 Qalandar zarbidan G'irko'k bukildi,
 Dev kelib havodan yerga yiqildi.

Dustaman bo'lib yiqildi,
 Joni og'ziga tiqildi,
 O'lib pora-pora bo'ldi,
 Yuragi sadpora bo'ldi.

Oqdevshohning o'lganin ko'trib u lashkar.
 Qalandardan jon qutilmas, yoronlar,
 Bunday balo, bilmam, qaydan keladi,
 Bunga duchor bo'lgan jonzod o'ladi.
 Ostida o'ynatgan arabi tulpor,
 Lak-lak dushman bo'lolmaydi barobar.
 Hech kim bilmas bu qalandar ishini,
 Dushman bo'lsa kesar aning boshini.
 Rustamday bo'b ish ko'rsatib ko'radi,
 Kim ro'para bo'lsa, tayin o'ladi,
 Kimning ajali yetsa shunda boradi,
 Ustimizga kelgan shunday qalandar,
 Ul jo'rasi ham shuning bilan barobar,
 Xohi turgin, xohi qochgin, ey devlar.

Boshida bor ekan jig'a davlati,
 Urushli kun Rustameha bor g'ayrati.
 Biz bilmaymiz, qay shaharning bekzodi.
 Ot o'ynatib Ko'klam tog'da turibdi.
 Shu qalandar qasdimizga kelibdi.
 Yaqinlab yetishar turgan qalandar.
 Agar na'ra tortsa u zo'rabor,
 Yuragi yorilib o'lar ko'p devlar,
 Lak-lak bo'lsa, bo'lolmaydi barobar,
 Har kim duchor bo'lsa muqarrar.
 Buni aytib yig'ladi barcha devlar,

Beega qoldi Torkiston shahar,
 Qalandardan jon qutulmas, yoronlar,
 Qurab turar nariroqda Shozargar.

Bu so'zlarni devlar shunday aytadi,
 Bir nechasi orqasiga qaytadi.
 Bu so'zni eshitib shunday qalandar,
 Halilulloh, deydi, ollohu akbar!
 Ikkovi ot qo'ydi devga barobar,
 Maydonda kimlar o'ladi, kim qolar.
 Bu so'zni aytar Shoqalandar,
 Menga hamroh, Shohizargar.

Bu beklarning zarbin ko'rib,
 Durillab qochadi devlar.
 Ko'p devlarning aqlin olib,
 Chaparsta qilich solib,
 Qalandarlar qirishga tolib,
 Choparasta qilich solib,
 Ko'p devlarning aqlin olib,
 Murda degan kash-kash bo'lib,
 O'likka soylari to'lib.
 Urushmoqda beklar tolib.
 Ko'zidan to'kadi yoshdi,
 Devlar bilan ko'p savashdi,
 Choparasta kesib boshdi.
 Bir necha bir qo'rroq devlar,
 Panalab har yoqqa qochdi.
 Botirlari g'urullahdi,
 Qo'rroqlari aqli shoshdi.
 Zargar bilan Shoqalandar,
 Devlar bilan ko'p savashdi.

Po'lat bilan qirdi devni,
 Keskir xanjarini urdi,
 Yalang'ochlab qilich soldi.
 Bedovlarga qamchi cholib,
 Ko'p devlarning aqlin olib,

Choparasta qilich solib,
 Ko'klamtoq'da o'lik degan,
 Qirilib qoldi bovday bo'lib.
 Zo'r degan devlar yiqilib qoldi,
 Ikki buti tovday bo'lib.

Ot chopadi alvon-alvon,
 Bandam desin qodir mavlon,
 Qirg'in qildi qalandarxon,
 Zarbin ko'rib yig'lashadi.
 Bu devlardan kelgan dushman,
 Tog' askarin chalsin tuman,
 Bu devlarga bermay omon,
 Misli qildi oxir zamon,
 Qalandarning g'ayratiday,
 O'lib ketdi qancha dushman.
 Qalandar zARBini ko'rib,
 O'lik qoldi bog'day bo'lib,
 Bekoriga o'lди devlar,
 Qalandarman taraf bo'lib.

Xon qalandar savash qilib,
 Har tarafga xabar qilib,
 Har shahardan lashkar kelib,
 Qirgan bilan ozaymaydi,
 Devlarga kelib qo'shib.
 Shunday qirg'in bo'ldi qiziq.
 Devlarning orqasi yoziq
 Qalandarlar qilar ishni,
 Devlarga qiladi bosiq.
 Shunday katta urush bo'ldi,
 Maydonda yaxshi turish bo'ldi,
 Devlar bilan qalandarlar
 Ajab qirg'in surish bo'ldi.

Qalandarlar jondan kechib,
 Bir xilin nayzaman sanchib,
 Ko'p devlarni qirayotir,

Nechasiga kafan bichib,
 Bir nechasi yig'lab qochib,
 Qalandarlar turish qildi,
 Qilichini siltab tortib.
 Bu so'zin aytar Qalandar:

— Uchrasa yorning mardi,
 Ko'zga dori poyi gardi,
 Bizlar bir yurtning jo'mardi,
 Qirmaganlar nomard bo'lsin.
 Uchrasa yori qobil,
 Har mahal va'dadan topil,
 Maydonli kun po'lat dovul
 Tuymaganlar nomard bo'lsin.
 Yigit piri hazrati Dovud.
 Oq kirovka, oltin sovut,
 Kiymaganlar nomard bo'lsin.
 Bu devlarning o'ligini,
 Uymaganlar nomard bo'lsin.
 Olmosidan dushman sari,
 Cholmaganlar nomard bo'lsin.

Bu so'zlarni aytar o'g'lon,
 Dasta-dasta bo'lib dushman.
 Ot qo'yib dushman ustiga,
 Qaramay baland-pastiga.
 Savash bo'lib shu zamonda,
 Ko'klamtoq'ining ustiga,
 Kelgan devlarning qasdiga.

Qilich kelib alab-yalab,
 Ketar ko'ngil qilar talab,
 Oltin kosa, gulgun sharob,
 Ichilib maydon ustinda.
 Aspi qushi ne bedovlar
 Qutuldi maydon ichinda.
 Tor biqinli qazoqilar
 Tutildi maydon ichinda.

Qancha devlar o'lja bo'lib,
 Qalandarxon qirg'in solib,
 Ot chopar maydon ichinda.
 Ko'zdan oqar ko'zning yoshi,
 Kesilar dushmanning boshi,
 Shuldir Qalandarning ishi,
 Jo'sh urar maydon ichinda.

O'ngi so'lni olib tuman,
 Ko'p devlarga oxirzamon.
 Ko'p devlarni to'plab oldi,
 To'sh-to'shidan qilich soldi.
 G'ayrat qiladi Qalandar.
 Qochma, dedi Shozargar.
 G'irko'k otga qamchi chotib,
 Qochganning ustiga yetib,
 Dodin berib o'mganlatib,
 Bedovlar murdani bosib,
 Dev o'ligi itday sasib.
 Gapirolmay qo'rroq devlar,
 Pana yerda yurar pisib.
 Gap kelmas devning tiliga,
 Dushman bo'lgan zo'rning qo'liga,
 Yetolmaydi mazgiliga.
 Ish ko'rsatdi Shoqalandar,
 G'arib o'ldi necha devlar,
 Bo'lolmadi Qalandarga barobari.
 Qalandarni ko'rgan vaqtda,
 Chuvlab yig'lab qolgan devlar
 Qaramay baland-pastiga?
 Shul sifatda qirg'in qilib,
 Bordi Boymoq dev ustiga.
 Boymoq dev ham qalandarni ko'rgandir,
 Necha marta urushida bo'lgandir.

— Kelgan ekan bunda qaysar qalandar,
 Jon qitulmas, qochabergin, sho'r devlar.
 Ilgari ko'rganman buning ishini,

Baland yerda turib ko'rdim savashini,
 Shunda kesdi o'n lak devning boshini,
 Qildi shunda Alining savashini,
 Shunda ko'rdim qalandarlar ishini.
 Duchar bo'lsang omon topmassan, devlar,
 O'z boshing qutqarib qocha bergin, ukag'ar,
 Bu so'zlarni aytib Boymoq dev,
 Yetmish ming lashkari bilan, jo'nadi.
 Bizlar edik Qosimshohga xizmatkor,
 Guzar solib bunda kelibdi qalandar,
 Bunda tursang, tayin o'lasan, devlar.

Boymoq dev ketdi-ku, boshini olib,
 Yetmish ming devni hamroh qilib,
 Ketdi bular o'z boshini qutqarib,
 Qalandar shundayin g'ayratni qilib,
 Qistab, qimtib Qosimshohga yetkarib,
 Qosimshoh lashkari turar jam bo'lib.
 Tortinmay ot qo'ydi sherdayin qaysar,
 Ikkovi ham, ko'ring, misli ajdahor,
 Armon bilan o'lib ketdi ko'p devlar,
 Zarbidan titraydi shunda bu devlar.

Devlarning aqli shoshib,
 Yurar yo'lidan adashib,
 Yig'ildi birday lolovlashib,
 Devlarning boshini kesib,
 Bordi-ku ustiga bosib,
 Dushmanlar o'ligi sasib.
 Zargarbek yurib savashdi,
 Ko'p devlarning aqli shoshdi.
 Kallalar kaptarday uchdi,
 Qo'lga olgandi qilichdi,
 Chaparasta kesib boshdi,
 Bir tarafdan Shoqalandar,
 Bir tarafdan Shohizargar,
 Devlar bilan ko'p savashdi.
 Sulatdi gavdadan loshdi,

Bu devlarning aqli toshdi.
 O'likka ko'z qamashdi,
 Kam yuragi alanglashdi.
 Devlarga qildi savashdi,
 Uyib tashladi-ku loshdi.
 Bunda devlar ko'p yig'lashdi,
 Bir nechasin aqli shoshdi,
 Bir nechasi pisib qochdi.

Behad devlar bunda o'lib,
 Ko'klamtog'da savash bo'lib,
 Har dara murdaga to'lib,
 Tulpor oqar selday bo'lib,
 Devlar qochar junday bo'lib.

Berdi devlarning jazosin,
 Urushda topmay azasin,
 Ko'rди qalandar izzasin,
 Saylab sanchadi tozasin,
 Qochib ketgan Boymoq devning,
 Buzdi qo'rg'on andozasin.
 Shoqalandar izlab qarar,
 Ilgari ko'rgan shahzodasin.

Devlar boshin olsam, dedi,
 Oxirzamon qilsam, dedi,
 Bunda turgan ko'p devlarning,
 Murdasini uysam, dedi.
 Dev qo'lindagi bolani,
 Ko'rib topib olsam, dedi.
 Manglayimga kelgan devni,
 Qilich bilan ursam, dedi,
 Jazosini bersam, dedi.
 Birontasin omon qo'y may,
 Qora kunni solsam, dedi.
 Dushman bo'lgan bu devlarning,
 Murdasin xirmon qilsam, dedi.

Bu so'zni aytib, Shoqalandar,
 Qirg'in qilib Shohizargar,
 Ostida o'ynaydi tulpor.
 Zargarbekning zarbin ko'rib,
 Izillab yig'laydi devlar.

Chaparasta kesib boshdi,
 Zargarbek qildi savashdi,
 Uyib tashladi-ku loshdi,
 Bir necha dev tanho chiqib,
 Zargarbekman bul savashdi.
 Ajallisi ko'p yonashdi,
 Ajal ani botir qilib,
 Zargarbekka ko'p yonashdi.
 Zargarbekdan zarba ko'rib,
 Ajal sharobin ichdi.

Bo'ztulporga qamchi urib,
 Ko'p devlarni to'plab olib,
 Har to'piga qilich solib,
 Murda degan qiyrab qolib,
 U devlarning aqlin olib,
 G'ayrat qilib Shohizargar,
 Bu devlarga qiron solib.
 O'lik-o'likka ayqashib,
 U devlarning aqli shoshib
 Qaysar Zargar qilich solsa,
 Yiqilar devlar shaqirlashib.
 Nega bunda keldik, deyishib,
 Zo'rga duchor bo'ldik, deyishib
 Yig'layotir sho'rli devlar,
 G'arib bo'lib o'ldik, deyishib.

Hech kim kelib holim so'rmay,
 Bundan qutulmaymiz o'lmay,
 Ajal haydab biz kelibmiz,
 Buning bilan barobar bo'lmay,
 Bular devga qirg'in soldi,

Devlarni chivinchcha ko'rmay,
 Bekor ahmoq bo'lib keldik,
 Biz holimizni bilmay.
 Ushbu kunda o'lar bo'ldik,
 Ulman qizimizni ko'rmay,
 Bu Zargarlar balo bo'ldi.
 Ketmaydi bizga qirg'in solmay.
 Bul qo'ymaydi endi bizni,
 Bitta-yarimtani qo'ymay,
 Qutulmaymiz biz bulardan,
 Bularning qo'lida o'lmay.

Devlar ko'p xasratdadir,
 Shoqalandar qilar g'ayratdi,
 Bu devlarga qiyomatdi[r],
 O'zi tulpor — xonazoddi,
 Qalandar bilan G'iroti,
 Zargar mingan tulpor oti,
 Bu tulporlar jonne sotdi,
 Ko'p devlar o'lib ketdi.
 Qalandarlar kesib boshdi,
 Bir xil devlar ko'p yig'lashdi.
 Devlarning aqli shoshdi,
 Qalandarlar ko'p savashdi,
 Bular qirdi sonsiz boshdi.

Devlarga bermay omonni,
 Solgandir oxirzamонни,
 Dushmanga qora tumanni,
 Maydonli kun Shoqalandar,
 Irg'itdi G'irko'k otni,
 Chopadi Zargar tulpor otni.
 Axtarar shahzodani,
 O'zi nozik, ozodani,
 Bir navjuvon bekzodani,
 Shoqalandar axtaradi,
 Topolmayin xonzodani.

Yurib-yelib qiraberdi,
 Gala devni uraberdi,
 Surib-qirib kelaberdi,
 Qilich siltab Shoqalandar,
 U devlarga solaberdi.
 Qirib-jo'yib ko'p devlarni,
 Jahaannamga solaberdi.
 Bilganiday qilaberdi,
 Ust-ustiga qiraberdi,
 Kuni to'lgan o'laberdi.
 Katta-katta yomon devni
 Qamsab boshin olaberdi.

G'irotiga qamchi chotdi,
 Ko'ring shunday vallamatdi,
 Qamchi urganda devga otdan,
 Malika, deb jonni sotdi.
 Ko'p devlarni Shoqalandar,
 Qo'yday qilib izillatdi.
 Qalandar qildi g'ayratdi,
 Qo'lga tushgan katta devni,
 Siltab havoga otdi.

Bor umri urushda yurgan,
 Urushning tilini bilgan.
 Dev o'ldirmak alifbesin,
 Hazrati Xizr ta'lim bergan.
 Malika deb izlab kelib,
 Bunda devga duchor bo'lgan.
 Malikani qo'lga olgan,
 Dushmanlari o'lib qolgan,
 Malikani bermaymiz, deb,
 Yomon devlar o'lib qolgan.
 Qalandar ishini ko'rgan,
 Ko'p devlarning boshin olgan,
 Devlarga qiyomat qilgan.
 Hamroh bo'lgandi Shozargar,
 Urush qilgan Shoqalandar,

Mingan oti jo'mardlarning,
 Bu dunyoda tengsiz tulpor.
 Bularning zARBini ko'rib,
 Toqat qilolmaydi devlar.
 Ko'ring, endi Shoqalandar,
 Bo'lmaydi devlar barobar,
 Baydoq-baydoq qochar lashkar,
 Oldin olib Shohizargar,
 Bu yoqdan qamab qalandar,
 Hech bir yerga qocholmaydi,
 Sarosima bo'ldi devlar.
 O'rtaqa olib sherdai qaysar,
 Saf-saf qilib qirib tashlar,
 Shunday bo'lib o'ldi devlar,
 Ko'p devlar bo'ldi yarador,
 Qalandarga bo'lib nochor.
 Tog' askarin chalib tuman,
 O'rtaqa olib, bermay omon,
 Botirlar odati yomon,
 Qilib qo'ydi oxir zamon.

 Shunday bo'ldi devlar ahvoli,
 Turay desa yo'qdir holi.
 Ko'ring, endi G'irko'k otni,
 Parqinidan ko'pik sochib.
 Ustidagi xon qalandar,
 Urush qildi jondan kechib.
 Urushli devlar borayotir,
 Bir xili panadan qochib.
 Ko'ring, endi qalandarni,
 Qulochini ketdi ochib.
 Ostidagi mingan oti
 Chachasidan loshni kechib.
 Shunday beklar urush qildi,
 Yetganin nayzaman sanchib.

 Qalandarlar qildi savashdi,
 Beedad kesdi-ku tog'da boshdi,

Uyib tashlagandi murda loshdi,
 Harba qilib necha devlar etishdi,
 Devlarning boshiga qora kun tushdi.

Zo'r devlar g'urbillab shunday keladi,
 Qilich bilan bu devlarni uradi,
 O'lehaganday ikki bo'lak bo'ladi.
 Bu ishlarni qilib Shohiqalandar,
 Qirg'in qilib birga bo'lar Shozargar.

Irg'itar maydonda aspi qushini,
 Dushmanlarga ko'rsatadi ishini,
 Zargarbek kesgandi devning boshini,
 Sulatib tashlagan devlar loshini.
 Na'ra tortib ot qo'yadi qalandar,
 Zarbidan titrashib bu zamon devlar,

Hohim, qursin Qosimshoh qizi,
 Bu baloga kelib bo'ldik-ku duchor.
 Hech kim bo'lmaydi ekan bunga barobar,
 Qalandardan o'lib ketdi ko'p devlar,
 Holin bilmay kelib bo'ldik-ku duchor,
 Sen joningdan umid uzgin, ey devlar,
 Sira omon qo'ymas bizni qalandar,
 Shovqin qilib yig'layberdi ko'p devlar.

Bo'libdi bu yil zamona,
 Tog'lar ko'rinmas — tuman-a,
 Har daralar to'lib losha,
 Qani, ko'rsa bu janon-a.
 Bu so'zlarni aytib Shoqalandar,
 Izillashib yig'lar devlar,
 Sherday bo'lib Shozargar.
 Har zamonda kelmadi, deb,
 Avaz bilan ul parilar —
 Yo'lga qarar bek Avazxon.
 Zargarbekka ko'ngil bergen,
 Har zamonda yo'lga qarar.

Tillaqizdayin zulfakdor.
 Mahtal bo'lgan shunda u ham,
 Laqabi uning Malika ayyor.
 Qalandarlar bo'lgay omon,
 Parilar qoshida turib,
 Harzamon yo'lga qarat Avazxon.
 Tog'larning boshini chalganda tuman,
 Devlarga qildi Shoqalandar oxirzamon.
 Sira bermaydi devlarga omon.
 Shunday devlarni qiradi,
 Qistab qamab boradi,
 Ajalli devlar Ko'klam tog'da,
 Ilojin topmay o'ladi.

Qochib ular qayda borar,
 Qutula olmay bari o'lar,
 Zargar turib oldin olar,
 Qochgani ertaroq o'lar,
 Qalandarman Shohizargar,
 Devlarga qiyomat soladir,
 Juda ham o'rtaqa olar,
 Devlarga yomon kun bo'lar.
 Bir xili shovqin qilar,
 Ajallisi shunda o'lar,
 Yaradori o'lmay shunda,
 O'ldim, deb zirillab turar.

Qalandarlar urush boshlab,
 Bu maydonda ko'ngil xushlab,
 Qilichlarni yalang'ochlab,
 Yarador devlar yonboshlab,
 Murdasin ustiga tashlab.
 O'lik o'likka ayqashib,
 Ko'p devlarning aqli shoshib,
 Yurar yo'lidan adashib,
 Murdalarga g'ajir tushib.
 Qalandarlar to'lib-toshib,
 Devlar bilan ko'p savashib.

Bu beklar qildi g'ayratdi,
 Bedovga qamchi chotdi,
 O'r kelsa o'mganlatdi,
 Arna kelsa irg'itdi,
 Yaradori suvlab yotdi,
 Endi bunda o'lrik, deyishib,
 Qochsel, omon bo'lrik deyishib,
 Qosimshoh ham qolgan devlar,
 Qocha boshlar lolovlashib.
 Bedovlarga qamchi urdi,
 Devlar qochib yo'lga kirdi.
 Qancha aslaha-anjomlar,
 O'lja bo'lib bunda qoldi.
 Qolgan o'ljaga qaramay,
 Qalandarlar g'ayrat qildi.
 Yetganin qilichlab urdi,
 Qilich tekkan vaqtda devlar,
 Ayiqday bo'lib ayqirdi,
 Bular otga qamehi chaldi,
 Yetganning boshini oldi,
 Boshi ketgan sho'rli devlar,
 Tanasi yumalab qoldi.

Bir-biriga qaramaydi,
 Hol-ahvol so'ramaydi,
 Qochib borayotir devlar,
 Yaralisi yaramaydi.
 Qoldim desa qaramaydi,
 Yaradorni so'ramaydi,
 O'ldim degan bilan devlar,
 Kelib holin so'ramaydi.

Har qaysisi o'z yo'liga,
 Qaramaydi o'ng-so'liga.
 Pishnab chopib borayotir,
 Yetolmaydi manziliga.
 Uzoqdadir devning joyi,
 Qochib borar Torkiston shoyi,

Quvib borar Zargar shoyi,
 Yetolmaydi uchar qushday,
 Shudir qalandarlar ishi,
 Yo'lida qolar devning boshi.
 Suvlab yotir bu yo'llarda,
 Yarador devlarning loshi.
 Hadsiz ekan bu devlar,
 Qirgan bilan ado bo'lmaydi.
 Qo'lga tushib borayotir,
 Ko'p devlari o'lib qoldi.
 Devlarga bermadi omon,
 Bulargadir oxirzamon.

Borayotir ko'zin yoshlab,
 Yaradorlar otdan tashlab.
 Qolayik deb endi yig'lashar,
 O'ldik, deb yerlarni mush[t]lab.
 Qalandarlar ko'nglin xushlab,
 Devlarni to'plab yo'l boshlab.
 Bu devlarning aqlin olib,
 Yaqinlasa nayza solib.
 Nayza tekkan sho'rli devlar,
 Ul zamona yarador bo'lib,
 Otdan yiqildi chirqirab.
 Ko'ring Zargarbek ishini,
 Qaysi devga yaqinlasa.
 Kesar qilich bilan boshini.
 U devlarni to'plab oldi,
 Galalab oldiga soldi,
 Qochqinchi devlarning oldi,
 Qorong'ilik yerga bordi.
 O'ldirardi Qosimshohni,
 Malikaning hurmatidan,
 U Qosimshoh omon qoldi.

 Qutulsa, qutilsin, dedi,
 Quvmayik, qutilsin, dedi.
 Borsa-borsin Qosimshoh,

Malika hurmati, dedi.
 Malikaning hurmatidan,
 Bunda omon qolsin, dedi.
 Boshqa devlar o'lsin, dedi,
 Jazosini ko'rsin, dedi,
 Harna bo'lsa bo'lsin, dedi.
 Malika o'pkalab yurmasin, dedi,
 Qosimshoh qutilsin, dedi,
 O'zga devlar o'lsin, dedi,
 Jazosini ko'rsin, dedi.

Qalandarlar zARBini ko'rib,
 Qochqini Torkiston borib.
 Qalandarlarning ko'zidan,
 Qochgan devlar g'oyib bo'lib.
 Eshiting bekning ishini,
 Sulatib devlar loshini,
 Devlar pana bo'b ketgan so'ng,
 Keyin burdi otning boshini.
 Ko'rsatib devga ishini.
 Hech kim bilmay bul darada,
 Devlarning yotgan loshini.
 G'irotiga qamchi urib,
 Shozargar hamroh bo'lib,
 Har dara murdaga to'lib.
 Ne yarador devlar yotir,
 Ayiqday bo'p chinqirib.
 Qalandarni yana ko'rib,
 O'lifik, deb yarador devlar,
 Kallasin yerga solib.
 Qalandarning ishi yo'qdir,
 Borayotir shahzodani axtarib.
 Ayriliqqa bag'rin dog'lab,
 Boymoq dev makonin yo'qlab,
 Borsam, deb devning shahriga,
 Yo'liqsam zo'raboriga.
 Sho'ri qisgan dev yo'liqar,

Shunday qalandariga.
 Qaramay baland-pastiga,
 Yurib dushmanning qasdiga.
 G'irko'k otini o'ynatib,
 Chiqqandi tog'ning ustiga.
 Har tarafga nazar solib,
 Boymoq dev manzilin ko'rib,
 Yana G'irko'k otini minib,
 Shozargarni hamroh qilib.
 Qalandarlar borayotir.
 Ko'klamtog'ning darasi,
 Qarasa murdaga to'lib.
 Izlab endi shahzodasin,
 Bersam dedi devning jazosin.
 Qalandarlar buzmoqchi bo'p,
 Boymoq devning andozasin,
 Ko'rди-ку qо'rg'он-qal'asin,
 Boymoq dev makonga etib,
 Ochib kirdi darvozasin,
 Axtaradi shahzodasin,
 Devlarning berar jazosin.

Ana shunda Shoqalandar bilan Zargar ikkovi cho-pib-yelib, g'ayrat qilib, Ko'klamtog'ning ustiga — bir katta cho'qqiga chiqdi. Shunday qarasa, Boymoq devning makoni — qo'rg'oni ko'rini turibdi. Shoqalandar Shozargar bilan yana otiga minib, g'ayrat qilib, yo'lga tushib borayotgan edi, bu tog'ning u yog'i ham o'llikka to'lib qolgan ekan. Urushning ko'p bo'l-ganidan qayerda devlar bilan urush qilgani, qaysi darada chopib yurgani Shoqalandarning esidan chiqib ketgan ekan. Bo'lmasa, devlarni quvishib, shu daralarga ham kelib, devlarni o'ldirib, bir xilini yarador qilib, tag'in orqasiga qaytib, ko'p qirg'inni qilib ketgan ekan. Shunday qarasa, tog'ning pastki yog'i devning o'ligiga to'lib qolibdi. Yarador bo'lib zor yig'lab yotibdi. Shoqalandarni ko'rib yarador

devlar qo'rqib qoldi. Lekin Shoqalandarning bular bilan ishi yo'q. Shozargar bolani axtarib yurib edi. Shunday cho'qqida qalandarlar u yoqqa — bu yoqqa qaradi. Qarasa, Boymoq devning makoni, qo'rg'oni ko'rindi. Shoqalandarning dimog'i choq bo'lib, shunda Shoqalandar Shozargar bilan ikkovi chopib-yelib, bedov otlarini qistab, yo'lga kirib, Boymoq devning qo'rg'oniga yetdi.

Shoqalandar bilan Shozargar qo'rg'onga kirib, u yoqqa — bu yoqqa qaradi. Bu qo'rg'onda devlardan hech bir nishon-darak topmadi. Shunda ikki qalandar Boymoq devning manzilini, arkon-davlatini, ko'shku ayvonlarini, harna borini, xazinaxonalarini, hamma qulflı joylarini axtarib ko'rди. Hech bir nishon ko'r-madi. Hayron bo'lib qoldi. «Bu yomon dev qaysi yerda ekan? Osmonga chiqib ketganmi, yo meni keladi, deb yerning ostiga kirib ketganmi?» — deb juda xayoli qochib, qaysi yerni axtarib toparini bilmay turib edi. Shoqalandar bu makonni biladi. Shozargar bu makonning kimniki ekanini bilmaydi. Shunda, bunday yaxshi makonni, tabladagi tulpor otlarni, xazinalarni, ko'shku ayvonlarni — jam'i aslahalarni ko'rib, «Bu qanday devning makoni ekan?» — deb Shoqalandardan Shozargar so'rab, bir so'z dedi:

Xudo qozi, payg'ambarlar noyibi,
Yigitga pand berar otning mayibi.
Bu manzilni yurib, xonim, qaradik,
Kim bo'ladi bu manzilning soyibi?

Kumushdandir qarchig'ayning jig'asi,
Oltindandir kirovkaning yoqasi.
So'zimga quloq sol, yurtning to'rasи,
Kim bo'ladi bu manzilning egasi?

Davlatimdan sholi-sholdam o'rayman,
Kecha ko'rgan tushim kunduz jo'rayman,

Gul tarzim sarg'ayib senga qarayman,
Bu manzil egasin sendan so'rayman.

Arzimni eshitgin Chin-Mochin shoyi,
Mo'minni bandam, dedi qodir xudoyi,
Yo devmidi, yo parimi, so'rayman,
Bu manzillar qanday odamning joyi?

Xazon bo'lmay bog'da gullar so'lmasa,
Otlohh mening aqlu hushim olmasa,
So'ramoqqa bunda jonzod bo'lmasa,
Minib birga yurdik arabi tulpor,
Yurishing bilmaydi menday Shozargar,
Axtarib bu manzilni qaraysan,
Parilarmi, devlarmi, nima ishing bor?
G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor,
Bu ishlardan menday jo'rang bexabar,
Agar bilsang, xabar bergin, qalandar,
Yurishing bayonin bilsin Shozargar.
O'z yurtingda davron surgan to'rasan,
Dushman ko'rsang, qora kуни solasan,
Devni ko'rsang, qamsab boshin olasan,
Odamsiz manzilda nima qilasan,
Bu yerda sen kimni izlab yurasan?

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
Gulni ko'rsa mast bo'p sayrar bulbullar,
Odamsiz manzilda senga nima bor,
Bundayin sargardon bo'l mang, Qalandar.

Chashmaning bo'yida qoldi parilar.
Xabar topib qolmasin-da zo'r devlar,
Holi tang bo'lmasin Avazday shunqor,
Bu yurishing qanday bo'ldi, qalandar,
Ularning holidan bizlar bexabar.

Oh urib to'karman ko'zdan yoshimni,
Turibman xudoga solib ishimni,
Devlar olib ketmasin gul buvishingni,

Qorong'i qilmasin yozman qishingni,
 Qo'lingdan qochirma olg'ir qushingni,
 Bilmadim men sening bu yurishingni.
 Ko'p halak bo'lib kimni izlab yurasan,
 Men bilaman, juda sarson bo'lasan,
 Xabar bergen, kimni qarab yurasan?

Ana shunda Qalandarshoh: — Sening ishing bo'lmasin. Hali nima ekanini bilasan, men nimani axtarib yurganimni ko'rason, — deb Shozargarga qarab, bir so'z dedi:

Izlab topsam undan keyin bilasan,
 So'ramagin hozir, nima qilasan,
 Bekor so'rab o'zing halak qilasan,
 Izlaganni topsam, aniq bilasan,
 Yurishimini sen ko'nglingga olasan,
 Nega halak bo'lding, deb izza berasan,
 So'raganing bildim endi, Shozargar,
 Senam bizni juda ahmoq bilasan.
 Bu so'zlarni aytdi Shohiqalandar,
 So'ziga uyalib qoldi Shozargar.

Ana shunda Shozargar qalandardan bu so'zni eshitib, Shoqalandardan uyalib qoldi. Uyalib, qalandarga gapirmasdan: «Aytsa-aytmasa, mening qiling'im qiziq bo'ldi. Yursa-ku, o'zim bilib qolar edim», — deb turdi.

Shunda Qalandar: — Endi otdan tushayik, bu ko'shklarning hamma yerini axtarayik, — deb otdan tushib, shu yerda Boymoq devning makonidagi hamma ko'shku ayvonlarni, necha xildagi ichkima-ichki joylarni, xazinaxonalarini axtarib ko'rди, hech narsadan xabar topmadi, jonzoddan ko'rmadi. Tabladagi tulpor otlarni ko'rди. Bari egasiz turibdi, devdan nishon yo'q.

Shunda Shoqalandar: «Boymoq devning makoni juda yaxshi ekan», — dedi. Shosupalari bor edi, shosupa ustiga chiqib, u yoq-bu yoqqa qaradi. Shozar-

gar ham orqasidan ergashib yuribdi. Shunday qarasa, oldidan bir yerda bir zinapoya ko'tinadi. Ul zinapoya borsa, eshigi bor. U eshikni ochib ichkari bordi. Qarasa, bu zinaning tagi juda katta bir joy ekan. Bu Boymoq dev o'zi uchun soldirib qo'ygan edi. U yog'ini — bu yog'ini qaradi. Qarasa, shu mazgilda Malikani axtarib kelgan shahzoda yuribdi. Podshovachcha Qalandarlarni ko'rib, otasini ko'rganday bo'lib, yugurib kelib, qalandarlarning oyog'iga boshini qo'yib, yuragi yorilguday bo'lib, dodlab yig'lab: — Mening otamsiz, enamsiz, qavmu qarindoshimsiz, — deb har nimani bir nima, deb qoldi.

Boymoq dev: «Bu bola odamzoddan bo'ladi, mabodo biror yerda mendan ayrilib — ajralib qolib, har nima bo'lsa odamzod emasmi, mening qo'limdan ajratib Shoqalandarning qo'liga tushsa, bo'lgan hodisalarни qalandarlarga aytar, bizlarning holimizni aytar, qalandarlar bizlarning ishimizdan voqif bo'lib, bizlarga bir katta qiyomatni solar, bu bolamizdan ayrilib qolarmiz», — deb yer ostidagi makonga biqtirib yashirib qo'ygan edi. Bu devlarning yashirib qo'yib ketganini Qalandarga shahzoda aytgan edi. Shozargar bu yosh bolaning bunday bo'lib, devlarning qo'lida asirlikda yurganini ko'rib:

— Shahzoda, qaysi shahardan bo'lasan, o'zing odamzodsan, devning qo'lida nimaga bunday qamalib turasan? — deb yosh boladan so'radi. Shoqalandar shahzodani chaqirib oldi.

Shunda Shoqalandar Shozargarga:

— Dalaga chiqayik, — dedi.

Uchovi birga-birga pastki tomdan chiqib, qo'r-g'onning shosupasiga borib, yaxshi libos to'shaklardan chiqarib so'ldi. Uning ustiga bu ikki qalandar chiqib o'tirdi. Shoqalandar xudoy taologa shukur qildi: «Mening murodimni xudoy berdi. Seni ajr etib edi». Shahzoda bola devlarning hamma narsalarini bilar edi. Bu ikki podshoga ovqat, dasturxon, har xil

taomlardan olib kelib berdi. Bular ovqatlardan yeb, qorni to'yib, qovzanib oldi, suvdan ichdi. Qalandarlarning ko'ngli tindi. Lekin Shozargar: «Bu qanday ish bo'ldi, bular ikkovi bundan ilgari bir-birovini ko'rgannikan, bilgannikan, yo bo'lmasa, bu bola o'zimizning shu yurtlardan kelganmikan? Qanday bo'lsa ham bu yaxshi bola ekan. «Bunday bola podsholikka munosib bola ekan. Bunda nima qilib yurgan ekan», deb ko'ngliga har nima gaplar kelib, yurtini, elini so'rab, bir so'z dedi:

Bahorda ochilgan bog'ning gulisan,
Sen ham bir dilbarning joni-dilisan,
Qay shaharda, qanday odam o'g'lisan,
Xabar ber, mard o'g'lon, qaydan bo'lasan?

Qiyg'ir degan qush o'lltirar qiyoda,
Husning ko'rgan shohlar yurar piyoda,
Tarzingni ko'ribman abgor, astoda,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Jamoling mengzayman osmonda oyga,
Qoshingni mengzadim egilgan yoyga,
Tarzingni mengzayman bo'z qarchig'ayga,
O'zingni mengzayman ming qo'yli boyga,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Bino bo'lding qaysi gavhar donadan,
Senday o'g'lon bino bo'lmas enadan,
Parvoz qilding qaysi mazgilxonadan,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Bandaga ko'p yaratganning farmoni,
Seni tuqqanlarning bormi armoni,
Tarzingga qarayman, bir yurting xoni,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Menga xabar bergin mamlakatingni,
Nima deydi sening ismi, zotingni,

Xabar bergin unib-o'sgan yurtingni,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Husning bordir oyu kundan ziyoda,
Abgor bo'lib etolmaysan muroda,
Ne ko'rib kechirding soniy dunyoda,
Tarzingga qarayman, poyu piyoda,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Menga aytgin unib-o'sgan yurtingni,
Bayon ayla o'sgan mamlakatingni,
Menga aytgin o'zingning ota-enangni,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Dushmanlarga kelib duchor bo'libsan,
Devlarning elinda g'arib bo'libsan,
Nima uchun endi bunda yuribsan,
Xabar bergin, bolam, qaydan bo'lasan?

Shozargarning bu so'zini Shoqalandar eshitib, o'zi
indamasdan, hech nima demay, telpagi qayqayib,
damlagan tanaday dam bo'lib o'tiribdi.

Shozargar betoqat bo'lib, shahzodadan bu so'zlarni
so'riganiga, u bola ham Shozargarga qarab, bir so'z
deb turibdi:

Otam - Qavadshohdir, otim Mahmudjon,
Bir yer istab, bobo, bo'ldim sargardon.
Yor axtarib judo bo'ldim yurtimdan,
Hasratman ayrilib mamlakatimdan.

Necha shahar erdi hukmi farmonim,
Shu g'urbatga soldi bir go'zal zolim.
Shoh edim, gado bo'lib qismatim,
Kunma-kun ziyoda bo'ldi hasratim.

Necha beklar bilan davron surganman,
Dobil tuyib, qo'lga qushim solganman.
Hovdak ko'lda bir parini ko'rganman,
Shu parini axtarib bunda kelganman.

O'z elimda shohlik g'amin yeb edim,
 O'n sakkiz ming lashkar bilan keb edim.
 Armon bilan lashkarimdan ayrılib,
 Armon bilan dev qo'linda qob edim.

Shu ahvolda eldan judo bo'libman,
 Shu orada yetti yillar o'tibdi.
 Shundan beri dev xizmatida yuribman.

Rahim qilmas ko'zdan oqqan yoshima,
 Xafa falak og'u qo'shdi oshima,
 Qo'shilolmay qavmu qarindoshima,
 G'arib bo'lib dev qo'linda turibman.

Devlarning qo'lida g'arib, mung'ayib,
 Enam, singlim yig'lar sochini yoyib,
 Toju taxtim, mulkim bo'lgan besoyib,
 Abgor bo'lib bu yerlarda qoldimman.

Devlar kosaguli bo'lib yurardim,
 Ko'tarib parvoz qilsa havoga,
 Dunyo borin — mamlakatni ko'rardim.
 Bu mazgil egasin Boymoq dev deydi,
 Ko'klamtoq'da Boymoq devni shoh deydi.

Yetmish ming ko'kqashqa dev jilovdori bor,
 Buning qancha devdan ko'p lashkari bor,
 Men bilmayman qayga ketdi zo'rabor,
 Devning qancha zangi lashkarlari bor.
 Hech bir kishi bo'lolmagan barobar,
 Shu devning qo'lida men ham xoru zor,
 O'n to'rt yildan beri men ham xizmatkor,
 Nogahonda kelar edim muqarrar,
 Devning tizzasida edim men abgor,
 Shunda ko'rdim g'arib bo'lib qalandar.
 Shu vaqtida topishgamiz muqarrar,
 Va'dasiga kelgan jonim qalandar.
 Ahdu yaso etgan menga zo'rabor,
 Va'dasiga kelgan jonim qalandar.

Yoqamni chok etib, ayladim faryod,
Buzilsin, yiqilsin u charxi noshod,
Har kun bo'lar erdi vahmi qiyomat,
Alhamdulilloh, ko'rdim sizni salomat.

Bunday kunda egam bo'lib mehribon,
Ketganday boshimdan qayg'uli tuman.
Sog'-salomat sizni ko'rdim, bobojon,
Yuragimdan ketdi mening yuz armon.

Ana shunda shahzoda bilan Shozargar bu so'zlarni
aytib, bir-biriga mehri-muhabbati ortib, yaxshi ko'rib:

— Endi unday bo'lsa, bolam, xafa bo'lma, Xu-
doning beradigani bordir, taqdir tabdil bo'lmaydi,
— deb o'tgan ishlarni gaplashib, so'rashib, o'ynab-
kulib: — o'lmasak, inshoolloh, o'z yurtingga borib
qolasan, g'am yema, — deb so'rashib o'tirdilar.

Shunda Shoqalandar bularning bu so'zini eshitib
aytdi:

— Ey bolam, seni mingashtirib yurib bo'lmas. Men
ko'rdim, pastki tablada devlarning ot-anjomni, keskir
po'lat xanjarlari turgan ekan, shulardan birovini say-
lab, yaxshi tulporidan minib ol, — dedi.

Unda yosh bola aytdi:

— Unday bo'lsa, borib ko'rayik, mening o'z
yurtimdan minib kelgan otim ham bor edi.

Shoqalandar, Shozargar, shahzoda — uchovlari
birga-birga devning tablasiga bordilar. Tablani ochib
ko'rsalar, otlarning ichida o'z mamlakatidan minib
kelgan o'zining oti turibdi. Tulpor otini ko'rdi. Bu
ot shunday tulpor ot edi: yetti pushti tulpor o'tgan,
o'n pirning karami ketgan. Tulpor ham qadimgi ega-
sini ko'rib, parvoz qilib, sag'risi toshib, yoli qulog'idan
oshib, uchadigan qushday, quloglari qamishday, har
ko'zlari tarkashday bo'lib, yulduzni ko'zlab, taraqqos
boylab, kishnab o'ynay bordi. Shunda podshovachcha
tulporining oldiga borib, sag'risini siypab, bo'yinini
qashlab, jilovidan ushlab, ko'z-burunlarini surtib,

tamomi badanlarini artib: «Jonivor tulpor otim, sen ham menday bo'lib turibsanni?» deb ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, tulpor otini ko'rib, o'sgan yurti, shonu shavkati esiga tushib, ahvoli ko'p vayron bo'lib ketdi. Bu shahzodaning tulpori ham odamzodday bo'lib, ko'zini yoshartib, shahzodaga bo'yning solib, mung'ayib turdi. Shahzoda oti uchun ko'ngli buzilib, yig'lamoqchi bo'lib: «Ey men bunday rahbarlarni topib, ishimning mushkuli ochilgan vaqtida dimog'im choq bo'lmay, xasa bo'lmos'him mardlarning ishiga o'xshamaydi», deb tasalli berib, tulpor otining asli o'zi minib kelgandagi egar-anjomlarini devning xazinaxonasidan olib chiqib, egarlab — sozlab, hamma asboblarni mahkam tortib, tilladan bo'lgan asboblari dan ustiga yopib, bo'yniga tilla o'mildiriqlarni osib, anjom-ashoblarini bir-biriga munosib qilib, yaxshi tilla o'tqizgan yuganlarni boshiga urib, sozlab qangtarib, tashqariga tabladan olib chiqib, devning ko'shkisining oldidagi marmar toshdan bo'lgan yakka mixga boylab qo'ydi. Boymoq devning xazinasiga kirib o'zining keskir isfahon qilichini topib oldi. Shunday qarasa, Boymoq devning xazinaxonasida bir olmos xanjar turibdi, juda o'xshatgan, yomon kunda kerak bo'lar degan, yig'ib qo'ygan xanjari, uni ham olib, o'zining beliga mahkam osib oldi. Keskir isfahonni olib borib otining egariga osib qo'ydi. O'zining tamom shohlik, sipohilik asboblarini o'ziga boyladi. Bir xilini kiyib oldi. Hech bir yeridan kansiz bo'ldi: «Endi maslahat Shoqalandarda, min desa, minamiz, tur desa turamiz, har nima buyursa qilamiz», — deb turibdi. Shunda qalandar Shahzodaga:

— Endi devlarning yaxshi-yaxshi kerakli asboblaridan, yeydigan narsalaridan olinglar. Yo'ldagi chashma oldidagi jo'ralarimiz bilan ovqatlanishib jo'naymiz, — dedi.

Shahzoda keskir xanjarlardan, yo'lda kerak bo'ladigan asboblardan olib, uchovlari otlashib, kelgan

yo'llariga qarab jo'nab ketdilar. U yerdan chiqib, yo'l yurib keta berdilar, birmuncha yo'l yurib chashmaning oldiga yaqinlab yetdilar. Shahzoda shunday qarasa, Hovdak ko'lida ko'rgan parizodni chashmaning oldida ko'rди. Ko'rgan hamon otidan ag'darilib yiqildi. Buni ko'rgan Shozargar: «Bu jinnimi, yo quyonchiqmi, yo birovning ko'zi tegdimi, nimaga bunday bo'ldi», deb turdi. So'ng, bir zamon turib edi, shahzoda «uh» deb boshini ko'tarib turdi.

Shahzoda:

— Men bu yerga kelib, Malikani ko'rib yurganimdan, devlar qo'lida o'lib ketganim yaxshi edi, — deb, shunday bo'lsa ham Shoqalandar bilan Shozargarga bildirmagan kishi bo'lib turdi. Shoqalandar indamadi. Shozargar shahzodaga qarab, holini so'rab: «Nimaga bunday bo'lding?» deb bir so'z dedi:

Tarzing ko'rdim, bir mamlakat shunqori,
Yo tegdimi devu jinning asari?
G'arib bo'lib, bolam, qadding bukildi,
Ko'zda yoshing qatra-qatra to'kildi,
Holing ketib senday shunqor yiqildi,
Bilmayman, jon bolam, holing ne bo'ldi?

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,
Aqling ketib sening hushing oldimi,
Yo devu jin senga asar qildimi,
Ul sababdan holing zabun bo'ldimi?

Tarzing ko'rib mening ko'nglim buzildi,
Diydagiryon bo'lib bag'rim ezildi,
Nima uchun behush bo'lib yiqilding,
Sen yiqilding, mening ko'nglim buzildi.

Ota-enang yurishingdan bexabar,
Elu xalqing senday bekka intizor.
Sen yiqilding, zargar bo'ldi darhayron,
Ko'ngil qal'asini aylading vayron,

Siru holing bayon ayla yosh o'g'lon,
Boshingga tushdimi qorong'i tuman,
Ne sababdan g'arib bo'lib yiqilding?

Odam bo'lib o'z elingdan kelgansan?
Bir o'n to'rt yil dev qo'linda turgansan,
U devlardan ko'p jafoni ko'rgansan.
O'z joningga qilib jabru zulmni,
Hech kimga aytolmay siru holingni.

Elu xalqingni esingga oldingmi,
Ul sababdan, bolam, ko'ngling bo'ldingmi?
Devlar jodusidan asar ko'rdingmi,
Yo bo'lmasa, biror narsa ko'rdingmi?

■ Bu so'zni eshitib, shahzoda Zargarga bildirmagan kishi bo'lib: — Ey men elu xalqim, qavmu qarin-doshim, otam-enam esimga tushib, ko'nglim behuzur bo'lib otdan yiqildim, — dedi.

Ko'ngli buzilib, Shozargarga qarab, ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Izlaganim pari mening,
Ko'rganim tushmidir, nedir?
Quribsan egri kamani,
Ketmas boshimning tumani,
Parisani, yo'qdir gumoni,
Tumanlik qishmidir, nedir?

Bir bek o'g'li ovga chiqar,
Ovga chiqib tablin qoqar,
Pari menga qiyo boqar,
Yo parimi, qushmi, nedir?

Bizning bilan boqqa kiring
Taqdir etsa, davron suring,
Bormi, pari domongiring,
Yo boshing bo'shmidir, nedir?

Mahmudshoh deb biyriborim.
 Qolmayin sabru qarorim,
 Qo'ldan ketdi ixtiyorim.
 Menga yo'qdir g'amguzorim,
 Ko'rganim tushmidir, nedir?

Bu so'zni aytib, mazasi qochib, xayoli uchib, aqli parishon bo'lib: «Bu qanday, ko'rganim tushimmi, o'ngimmi», deb ko'zi bo'zarib, nash'asi uchib, ko'zini yoshtag, o'zini yerga tashlab: «Ey yaratgan xudoyim, meni dog'i hijronga tashlading!» deb yana yiqilib, yuztuban bo'lib, boshini yerga solib qoldi.

Bu ishlardan Shozargarning xabari yo'q, lekin Shoqalandar bu boladan uning Malikaga xushtorligini eshitgan edi. Shoqalandar bu bolaning ahvolini yomon bilib:

— Ey bolam, sen bunday bo'lma! O'immasam, seni ham bu mamlakatdan quruq jo'natmasman, sen yosh bolasan, sendan ilgari odamlar bunday ishlarni ko'p ko'rgan. Sen bunday bo'lsang, o'zingni o'zing bekorga ovora qilasan, — deb necha nasihat aytdi:

Men ayturman bir boshidan,
 Qonlar oqib tirmog'indan.
 Belimda zarrin po'taga,
 Tilim ketmagay xatoga,
 Bobomiz Odam Atoga,
 Alarga jon dog'i tushdi.

Gunohlarim erur anbul,
 Kechirgaymu ani subuh,
 Jafo ko'rdi hazrati Nuh,
 Anga tufon dog'i tushdi.

Zo'rlik bilan ursa bosib,
 Barchasi ayladi taassuf.
 Yoqub o'g'li hazrati Yusuf,
 Anga zindon dog'i tushdi.

Qator-qator yurgan norlar,
 Nor ustiga yuklar zarlar,
 Olmako'z yugruk bedovlar,
 Anga yo'lning dog'i tushdi.
 Qulog solgin ayg'on so'ziga,
 Bedov chopsang qulo-tuzga,
 Podshovachcha, ikkimizga,
 Bilgin, yorning dog'i tushdi.

Shoqalandar aytdi: — Ey shahzoda, sen bunday oliq-toliq bo'lma. Sendan ilgarigi odamlarga ham qancha dog' tushgan. Men senga aytdim, seni bu mamlakatdan quruq — toq boshingni jo'natmayman. Senga ham yarasha biror parilardan taqdir qilgani bordir. Sen bu Malikaga xushtor bo'lib kelgan bo'l-sang, men ham shu Malikaga xushtor bo'lib, o'zim olaiman, deb kelgan edim. Menga taqdir qilmadi. Men ko'nganda, sen ko'nimsaysanmi? — dedi.

Shoqalandardan shahzoda bu so'zni eshitib, pichigina uyalib, qizarib qoldi. Boshqalar tushunmaganday bo'lib turdi. Shunda Shoqalandar aytdi:

— Endigi gap shu: bu yerdan ketmoq lozim. Yo'l yiroq, yo'l olmog'imiz yaxshi. «Ketar kishiga yo'l yaxshi», deydi. Turingizlar, otlaringizning egar-anjomlarini sozlangizlar.

Shunda Shozargar Bo'ztulporni sozlab, egarlab, anjomlarini solib, tayyorlanib oldi. Shozargar bilan Tillaqiz mingashdi. Qoratulporni egarlab, sozlab, hamma anjomlarini tayyorlab, Avazxon bilan Malika mingashdi. Shoqalandar G'irko'k ot ni minib oldi. Shahzoda o'zining tulpor otini egarlab, sozlab, minib oldi. Shoqalandar bosh bo'lib, Ko'klam tog'dan otlanib yo'lga tushib, jo'nay berdi. Yurishda Shozargar bilan Avazxonni ilgariga solib. Shoqalandar bilan shahzoda orqasidan yurdi. Ana shunday qilib bu to'rtovlari Ko'klam tog'dan otlanib, o'z mamlakatlarini yodiga olib jo'may berdi. Shoqalandar:

— Hay attang, Asad mergan bilan Shodmon mergandan ayrıldık — deb ko'p afsus qilib, yo'lga tushib keta berdi. Bular shu ketganlaricha yo'llarida keta bersinlar, endigi so'zni Boymoq devdan eshititing.

Boymoq dev avvalgi urushning qo'rqinchligidan qo'rqb, Shoqalandarning urushiga toqat qilolmay bir yoqqa qochib ketgan edi. Boymoq dev devlariga: «Juringlar, borib Shoqalandarning urushini ko'rib kelayik, urushi qanday bo'lar ekan, bilib kelayik», — deb qochib ketgan yog'idan uchib, Ko'klamtog'iga kelib qarasa, Ko'klamtog'inining u yog'i-bu yog'i hamma darasi o'likka to'lib ketibdi. Ko'klamtog'ida jon o'l-may qolmabdi. Boymoq dev xizmatkorlariga aytdi:

Qalandarlar hammasini o'ldiribdi, o'lмаган dev bizlardan boshqa qolmadi. Magar qolgan bo'lsa, bizning makonimiz omon qolgan. Endi borib taxt-baxtimizni ko'rayin. Bolamizning holi qanday bo'ldi? — deb o'zining manzili-makoniga bordi. Makonini ko'rdi. Qarasa, manzilining eshigi ochiq, angqayib turibdi. Boymoq dev buni ko'rib, xayoli qochib, hushi kallasidan uchib, «Bizning bu makonga ham qalandarning qadami yetgan ekan, bola omon bo'lsa shuda», — deb osmondan quyulib manziliga tushdi. Hamma yerning eshigi ochiq, xazinaxonalar ham ochiq, ichidagi yaxshi olmos xanjarlar yo'q. Chopib, shoshib-pishib otxona, tablaxonani ko'tsa, shahzodaning oti ham yo'q. Yuragi yorilib, pastki manzilning oldiga bordi. Ko'rsa, uning ham eshigi ochiq, «oh-voh» deb ichkari kirdi. Qarasa, shahzoda bola ham yo'q. Rangi uchib, tusi qochib xayoli har tarafda bo'lib: «Bu qalandar mening ham manzilimga kelgan ekan, mening ishimni qilgan ekan. Buning orqasidan borib, bir do'g'ilishib qolmasam bo'lmaydi. Har qancha yursa yetib olamiz, qalandar bilan har nima bo'lsak bo'lamiz», — deb yetmish ming ko'kqashqa devlarga qarab:

— Juring, hammamiz borayik, qalandarni o'ldirayik, yo bo'lmasa, bizlar ham qalandarning qo'lida o'layik! — deb qancha gaplarni aytib, sherlik qilib: «Bu qanday zolimlik? Otimizni olsa, bolamizni olsa, xazinamizni olsa — bizni talabdi-ku. Bu qanday zolimlik. Bundan o'lib ketganimiz yaxshi emasmi, «uyda kishisi borni tuzda urolmas» degan gap bor odamzodlarda. Shunga o'xshab Shoqalandar bizni ko'zga ilmabdi. Bizlarning yo'qlik vaqtimizda bunday yomon ishlarni qilibdi», deb yetmisht ming ko'kkashqa devlarning hammasini chog'ladi, sozladi. O'zi bosh bo'lib, makonidan uchib, «Ko'klamtog», qaydasan? Qayda bo'lsang ham, ustingdan qalandarlarni jo'natib yuborma», — deb kela berdi. Uchib yurguvchi ko'kkashqa devlari uchib, ko'kkashqa devlarning yerda yuradigan piyoda zangi qora devlari ham pastda yerda yayov yurib, qistab kelayotir. Boymoq dev o'ziga qarashli xizmatkor, ayyor, jodugarlari bilan uchib, Ko'klamtog'ga kelib shunday qarasa, Shoqalandarlar Ko'klamtog'dan pastga tushgan, Qizilqumda borayotir. Ot-anjomli bo'lib, tulporlarni minib, Boymoq devning xizmatkori Mahmudjon ham bular bilan birga borayotir. Shoqalandarlar ham Boymoq devning osmonda uchib kelayotganini ko'rib, Shoqalandar Shozargarga qarab bir so'z dedi:

Keyinimizdan yetib keldi ko'p devlar,
Dushmanning changiga bo'lsa girifstor.
Tanho borib urush qilar qalandar,
Sen bulardan xabardor bo'l, Shozargar,
Falakda uchadi, jodugar devlar,
Anglamaysan, bu devlardir hiylagar,
Bu ishlardan Avaz o'g'lon bexabar.
Qo'lingdan ketmasin olgan parilar,
Albatta, xabardor bo'lgin, xabardor!
Armon bilan bilmaganing bildirma,

Falakdan chang solar jodugar devlar,
 Agar dev changiga bo'lsa giriftor,
 Bu o'g'lonni badbaxt devlar o'ldirar,
 Albatta Shozargar bo'lgin xabardor!

Keyiniga mingashgan zulfakdor dilbar,
 Buning ham payida yurgan ko'p devlar,
 Do'st yig'latib, dushmaningni kuldirma,
 Hiylagar devlardan bo'lgin xabardor.

Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rмагин,
 Bu dilbarni sen qo'lingdan bermагин,
 Vahm bosib g'aflat ichida qolмагин,
 Devlarning changiga duchor bo'lмагин.
 Egam rahm aylasin qonli yoshингга,
 Ayyor devlar jilva berar qoshингга,
 Qo'l uzatmasin gul buvishingга,
 Qoyil bo'lsin badbaxt devlar ishингга,
 Albatta xabardor bo'lgin, Shozargar!

Bu ishlardan Avaz o'g'lon bexabar,
 Keyiniga mingashgan Malika dilbar,
 Buning ham payida necha devlar bor,
 Albatta xabardor bo'lgin, Shozargar!
 Badbaxt devlar qora kunni solmasin,
 G'aflat topib senga zarar qilmasin,
 Devlarning changida Avaz qolmasin,
 Armon bilan Avaz bolam o'lmasin,
 Albatta xabardor bo'lgin, Shozargar!

Devlar kelar vaqtin topib yonashib,
 Albatta, bularning aqli shoshib,
 Shu vaqtida sen turgin daryoday oshib,
 Shunday qib sen bo'lgin bulardan xabardor,
 Tanho borib urush qilar qalandar,
 Albatta bulardan bo'lgin xabardor!

Qanday bo'lsa devlar qilmasin zarar,
 Senga tayin qilar Shoqalandar,

O'zingga boxabar bo'lgin, Shozargar,
 Qo'lga tushsang, o'ldiradi bu devlar.
 Bittangni tirik qo'ymas muqarrar,
 Ko'p hiylagar, yomon devdir, ko'p ayyor,
 Tayin qildi senga Shohiqalandar,
 Albatta xabardor bo'lgin, Shozargar.

«Sizlar ketaberinglar, mana bu ko'ringan devlar
 yomon devlar bo'ladi-da. Ayyorlari ko'p, hiylagarlar
 ko'p, o'zlaringga xabardor bo'linglar. G'osil qolib
 Boymoq devning qo'lida o'lib ketmanglar», — deb
 Shozargarga tayinlab, Shozargarga Avazxonni qo'-
 shib, shahzodani orqasidan hamroh qilib:

— Endi sizlar Qizilqumning ichiga qarab, jo'nab
 keta beringlar, — deb ko'p gaplarni aytib, jo'natib
 yubordi. Shozargar bilan malikalar, Avazxon, shah-
 zoda Qizilqumga tushib jo'nay berdi.

Ana shunda Shoqalandar bularni jo'natib, tayin-
 laydigan so'zlarini tayinlab, gapiradigan so'zini so'z-
 lab, o'zi G'irotning boshini burib, Boymoq devning
 o'ziga, lashkariga qarab tayyorlanib, sozlanib, choq-
 lanib turdi. Ana shunda devlarning lashkari baydoq-
 baydoq bo'lib, qalandarga qarab kela berdi. Shoqa-
 landarning bularga qarab turganini devning lashkari
 ko'rib, bosib kelolmay to'xtab qoldi. Shoqalandar
 ularga qarab so'zlab turibdi:

Tog' askarin chalib tuman,
 Senga bermay endi omon,
 Senga solay oxirzamon,
 Izlab kebsan, devi nodon,
 Boshing kesar qalandarxon!

Irg'itay aspi qushini,
 Ilgarida ko'rmabmiding,
 Qalandarning savashini?
 Ko'klamtog'da bilmadingmi,
 Yotgan devlarning loshini?

Talab qilsang, tush maydonga,
Ko'rgin, qalandar ishini.

Ahmoq bo'lib devlar kelar,
Qizilqumda murdang qolar,
Shoqalandar savash qilar,
Qizilqumni to'zon olar,
Senday necha devlar o'lar,
Balki oxirzamon bo'lar.

Bekor halok bo'lgin devlar,
Qalandarni ko'rgin devlar,
Ajal yetib o'lgin, devlar,
Talab qilsang kelgin, devlar,
Nima bo'lsang bo'lgin, devlar.
Meni buncha qantarmayin,
Urushimni ko'rgin, devlar!

Xon Qalandar urush qildi,
Devlarga qarab yurish qildi.
G'irotiga qamchi urib.
Jilov tortib yurish qildi.

Mayling bo'lsa kel-ha, dedi,
Urushimni ko'r-ha, dedi.
Qarab bunda turasanmi,
Mening bilan bo'l-ha, dedi.
Boymoq dev lashkarin ko'rdi,
G'ayrat qilib Shoqalandar,
G'irotiga qamchi urdi.
Devga qarab otin burdi.

Qaramay baland-pastiga,
Dushman devlarning ustiga,
Shoqalandar qistay berdi,
Ko'kqashqa devning qasdiga,
Keskir xanjari dastida.

Biring qo'rqsang — to'plab kelinglar,
To'ping qo'rqsang — saf bo'b kelinglar,

Men bir yolg'iz — Shoqalandar,
 Turmay unda hammang kelinglar.
 Kelmas bo'lsang men borarman,
 Baringni boshdan olarman,
 O'zlarining men o'ldirib,
 Yomon devlar, badbaxt devlar,
 Oxirzamon men qilarman.

Qaramay baland-pastiga,
 Badbaxt devlarning qasdiga,
 Qahr bilan Shoqalandar,
 Oldi xanjarni dastiga.
 Urdi devlarning boshiga,
 Qoyil qalandar ishiga.
 Yetmish ming ko'kqashqa devdan,
 Barobar chiqmas bu kishiga.
 To'plab-to'plab qirayotir,
 Devni qirib borayotir.
 Ajallisin quvib borib,
 Shirillatib urayotir.
 Urush qildi Shoqalandar,
 Chidamaydi satta devlar,
 Kattasini saylab olib,
 Boshin kesar Shoqalandar.
 Big'irlatib tashlayotir,
 Yaxshi urush boshlayotir,
 Ulug'rog'in saylab olib,
 Ajabdayin ishlayotir.

Devlar qilar ohu voydi,
 Qalandar devga qaraydi.
 To'plab-to'plab Shoqalandar,
 Bu devlarga g'osil bo'lma, deb
 Menga Boymoq devni ko'rsatgin,
 Mening o'zimga ko'p uyat,
 Uyalmasang, kelgin, devlar,
 Mening qo'llimda o'linglar.

Harna bo'lsang omon devlar,
Ajal sharobin ichinglar.

O'lik qoldi ayqashib,
Devlar qo'rqib ha-halashib,
G'irotni qistay berdi,
Xon Qalandar to'lib-toshib.
Daryoday bo'lib savash qildi,
Yomon devlar o'lib qoldi.
Qalandarshoh g'ayrat bilan
To'p-to'piga borib qoldi.

Ajallisini urayotir,
G'irotni surayotir,
Qistab, badbaxt devni ushlab,
Xanjar bilan solayotir.
Ajallisi ag'darilib,
Itday bo'lib o'layotir.
Juda qiziq bo'ldi bozor,
Ushlab olib Shoqalandar.
Bir xil devning bo'ynin suzar,
G'irko'kdayin bul jonivor,
Maydon ko'rsa bo'ynin cho'zar,
G'irotni bilan Shoqalandar,
Devga qarab qo'lin yozar.
Urush bo'ldi chaparasta,
Devlar turar dasta-dasta,
Qo'ymay devni o'ldirsam, deb,
Xon Qalandar ko'ngli xasta.
G'irko'k ot og'zin ochdi,
Tizzasidan qumni kechdi,
Bang-banglab yurgan katta devlar,
Ajal sharbatin ichdi.
Quvib-qistab mard qalandar,
Qo'ymay katta, zo'r devlarni,
Qora yerga kafan bichdi.
Badbaxt devlar o'ldik, deydi,
Toza guldek so'ldik, deydi.

Boymoq devning zulmi bilan,
 Bul urushga keldik, deydi.
 Ko'p devlarning aqli shoshib,
 Yurar yo'lidan adashib.
 Qalandar zARBini ko'rgan,
 Qizilqumda savash qilgan.
 Harna bori qolgan devlar,
 Qochib endi yo'lga kirgan.
 Bunda tursak o'larmiz, deb,
 Behad nobud bo'larmiz, deb.
 Endi qochsak qutularmiz, deb,
 Qocha berdi qolgan devlar.
 Orqasiga qaramayin,
 Ketaberdi qochib devlar.

Ana shunda badbaxt devlar Shoqalandarning urushiga toqat qila olmay qochib ketaberdilar. Shoqalandar devlarning qochganini ko'rdi, lekin Boymoq devni urushib yotganda bir ko'rgan edi, so'ngra shuncha qistab urush qildi, Boymoq devni ko'rmadi. Bular ko'rмагandan keyin Shoqalandar: «Bu badbaxt Boymoq dev urushda yo'q, tag'in Shozargar bilan Avazxonning oldiga borib, ularga bir ishni qilib yotgan bo'lmasin.

Bu yerda urushiman, deb Avaz bilan Shozargar, malikalardan ayrilib qolmayin», — deb otining boshini burdi, devlarga qaramay kela berdi. «Boymoq devni ko'rmadim, lashkarlarini qirdim, ko'p o'ldirdim. Endi ulardan xabar olayin», — dedi. Shuytib surilib devlarga qaramay kelaberdi, bir xili qochib ketdi, bir xilini katta devlar qaytardi.

Shunda devlarning lashkar boshliqlari qalandarning burilib ketayotganini ko'rib:

— Qirilgur devlar, qayoqqa borasizlar? Qalandar qaytdi. Sizlar qochmanglar, orqasidan boramiz, — dedi. Bir xili qaytib saf-saf bo'lib, Shoqalandarning orqasidan kela berdi.

Shunda devlarning lashkarboshilari Boymoq dev bormi-yo'qmi, deb u yoqqa-bu yoqqa qaradi. Boymoq ko'rinnadi. «Boymoq dev podshomiz yo'q ekan, endi bu lashkarni Boymoq kelgancha jo'natmayin. Jo'natsam, Boymoq dev qahr qilar», — deb qolgan devlarni to'plab, qalandarning orqasidan qorama-qora olib bora berdi.

Shunda Shoqalandar orqasiga qaytib, yo'lga tushib, Zargar bilan Avazxonning eson-omoniligini tilab, G'irotni qistab bora berdi. Qizilqumning yo'liga tushib borib qarasa, Shozargar bilan Avazxon Qizilqumda juda chanqab, suvsab, holatdan ketibdi. Oldidan bir mesh suv chiqibdi.

Bu meshni Avazxon bilan Shozargar ko'rib, «xudodan nima tilasang beradi», deb Avazxon bilan Shozargar meshning og'zini ochib, ichmoqchi bo'lib turib edi, Shoqalandar bularning bu ishidan xabardor bo'lib:

— U meshdan ichmanglar! O'lasizlar! — deb baqirib-baqirib boraberdi. Avazxon, Shozargar, shahzoda — uchovi Shoqalandarning tovushini eshitib, ang-tang bo'lib, «bu nima gap bo'ldi?» deb qarab qoldilar. Shoqalandar bularga qaramay, so'ylamay, qo'llidagi so'tasini Sulaymon payg'ambar nafasi, deb meshga urdi. Mesh yorilib, qizil, yashil bo'lib o'tday yonib, bir to'p yashin bo'lib, yonib chirqirab, osmonga chiqib ketdi. Buni Shozargar bilan Avazxon, shahzodalar ko'rib hayron qoldilar.

Shunda bular:

— Shoqalandar aytmaganda, bizlar bu meshdan suv deb ichsak, hammamiz kuyib-yonib o'lar ekanmiz, — deb Shoqalandarga bularning mehrmuhabbati burungidan ham ziyoda bo'ldi. Shoqalandar: — Yura beringlar, — dedi. Bular yo'l yurib keta berdilar. Boymoq devning piyoda lashkari hali ham bularga qorama-qora ergashib kela berdi. Boymoq devning ayyor jodugarlari bularning boshida,

osmonda — havoda uchib Shoqalandarga qarab, ga-pirinib yuribdi:

Ayriliq o'tiga bag'rimni dog'lab,
Qayda borsang, bizni yurding so'rog'lab,
Sening zarbiningdan men ham qon yig'lab,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da!

Ilgaridan ko'rib edim ishingni,
Devlar bilan qilgan ul savashiningni,
Erambog'da yurgan ul hurishingni.
Parilar bilan qilgan o'tirishingni,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da!

Dod aylasa eshitmading so'zini,
Sarg'aytding shohning gulday yuzini,
Ko'p devlarga zo'rлиgingni o'tkarib,
Olib qaytding Qosimshohning qizini.
Malika ayyor pari, deydi o'zini,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da!

Ko'kka otib Oqdevshohning o'zini,
Armon bilan o'yding uning ko'zini,
Olisizlar shohning Tillaqizini.
Mindiribsan shunday sarvinozini,
O'Idiribsan ko'p devlarning o'zini,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da!

Ko'p devlarni Ko'klamtoq'da o'Idirib,
Har darasin sen o'likka to'ldirib,
Qizilgulday ranglarini so'ldirib,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da!

Shohning zulmidan devlar kelgandir,
Izlab kelib senga duchor bo'lгandir.
G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor,
Siz bilan bo'lолmaydi barobar,
Ko'p lashkarga tanho tekkan qalandar,
Izlab kelib o'lib ketdi ko'p devlar.

O'g'il-qizi bo'lib qoldi intizor,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da!

Qancha devni bunda nobud qilibsan,
Guzar solib manzilima boribsan,
Kosaguli bir bolamni olibsan,
Bachchag'ar, mening ham korim qilibsan,
Ey voh, Shohiqalandar, sendan kuydim-da!

Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
Gulni ko'rsa sahar sayrar bulbullar,
Armon bilan yosh bolam olibsan,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da.

Sen eshitgin mening aytgan nolamni,
Sen o'zingga hamroh qilding mening bolamni,
Vayron qilding mening kulbaxonamni,
Ey voh, Shoqalandar, sendan kuydim-da.

Boymoq dev havoda uchib bir so'zlarni aytib yuribdi. Shoqalandar «Sen gapirdingmi, gapirma-dingmi», demasdan, quloq solmay, kelsang, ko'-raman-da, deb Boymoq devga hech narsa demasdan keta berdi.

Ana endi Qizilqumning ichidagi Qalayi qo'rg'on, avvalgi yolg'iz chinorning oldiga yetib, sarhovuzning oldiga kelib qo'ndi. Hammalari otdan tushib, yechinib, hovuzning bo'yidagi shosupanining ustiga chiqib o'tirdi, suvlaridan ichdi, dimoqlarini choqladi. Bu yer, bu chinor, sarhovuz ham Malikaning bir qo'noq joyi edi. Malika bir yerga borar bo'lsa, shu chinorning oldidagi shohsupada o'tirib, ovqatlanib, damini olib ketar edi. Bu yerga to'rtovi malikalar bilan kelib o'tirdi. Ovqat yedi. Boymoq dev havoda uchib yuribdi. Goh osmonda uchadi, goh orqadagi lashkar-larning oldiga borib xabar olib keladi.

Shunday qilib bular: «Har nima bo'lsa borayik, biron yerda bularni biror ish qilarmiz. Qo'y manglar, xabardor bo'linglar», — deb lashkarlariga qarab tayin-

lab. Boymoq dev o'zi tag'in keladi. Shoqalandar bilan malikalarni poylab yuradi.

Ana shunda Shoqalandar, Shozargar, Avazxon, shahzoda Mahmud — to'rtovi shosupada o'tirib qoldi. Malika bilan Tillaqiz o'rnidan turib, ajoyib yaxshi yerlarni tomosha qilib, chinorning ostiga borib qaradi. Chinorga qarasa, chinor shoxlab ketgan, ostida har xil gullar ochilib yotgan, to'ti, mayna, qumri, bulbullar uya qo'yib, bola ochib, sayrab yotgan. Shunda Malika parizod bu chinorning sha'niga ikki og'iz so'z aytib turibdi:

To'ti, mayna sayrab yotgan,
Bulbullar bolalab yotgan,
Ovozang Chambilga ketgan,
Balli chinor, balli chinor.

Uzoqyurda qoldi joyim,
Boxabardir qiblagohim,
Sensan mening saylgohim,
Endi Chambil bo'lar joyim,
Balli chinor, balli chinor.

Ustimidagi yashil — ko'kdir,
Nechov izimda intikdir,
Menday oyim Chambil ketdi,
Yana qaytib ko'rmaq yo'qdir,
Balli chinor, balli chinor.

Necha marta bunda keldim,
Parilarman suhbat qurdim,
Endi men ham ketar bo'ldim,
Balli chinor, balli chinor.

Taqdiri davronlar o'tdi,
Menday oyim Chambil ketdi,
Qaytib kelib ko'rmoq yo'qdir,
Balli chinor, balli chinor.

Qulq sol pari tiliga,
Tushibman zo'rning qo'liga,
Taqdirim Chambil eliga,
Balli chinor, balli chinor.

Hamroh bo'ldi Shoqalandar,
Ustimizda savash qilib,
O'lib ketdi necha devlar,
Ish ko'rsatib bunda beklar,
Balli chinor, balli chinor.
Endi bundan ketar dilbar,
Bunda qolarsan sen chinor.

So'z aytar senga gajakdor,
Ko'ngilda qolmasin g'ubor,
Sayr etadi hamma qushlar,
Balli chinor, balli chinor,
Balli chinor, balli chinor.

Ana shunda Malika ayyorning aytayotgan so'zini
Shoqalandar, Shozargar, Avazxon, shahzoda Mahmud
eshitadi. Boshqalar dim indamay turdi, lekin
shahzoda Mahmud Malikaning so'zini eshitib, ko'ngliga
necha gaplar kelib, o'z sha'niga bir necha so'zlarni
aytdi:

Men kelganman yorni izlab,
Bu jarohat bag'rim tuzlab.
Yig'larman bo'taday bo'zlab,
Bo'llmas bunda yorim mening.
Bulbuldayin nolondaman,
Dog'i hasrat, armondamaman.
Azalda kuygan bandaman,
Yor axtarib sharmandaman,
Ketdi nomus, orim mening.

Yaxshi kunim, tunim qora,
Yuragim bo'lib sadpora,
Mansurday osdilar dora,
Yo'qdir xaridorim mening.

Haqqa yetgay aytgan zorim,
 Sabil bo'lib kirdikorim,
 Belimda yo'qdir madorim,
 Jafo soldi devu zolim.
 Birga yurgan yo'qdir yorim,
 Yorga yetmas mening zorim.

Bo'g'inlarim tol-tol bo'shab,
 Xazon bo'lgan gulga o'xshab.
 Men yig'larman bu kun qaqshab,
 Yetishmasmi zorim mening?

Hamroh bo'lgan bu qalandar,
 Ko'nglim so'rар ham Shozargar,
 O'zimda yo'qdir ixtiyor,
 Jabru jafo soldi dilbar,
 Qolmay menda sabru qaror,
 Yo'qdir qarorim mening.

Bu so'zni Mahmud aytib turdi, Shoqalandar olayib qaragandan keyin Qalandarning avzoyini yomon ko'rib, gapirayotgan tilini tortdi. Lekin Mahmudning Malika uchun ovora-sarson bo'lib yurganini, bu baytni Malika uchun aytganini Avazxon bilmaydi. Buning bilan gaplashgani yo'q. Shoqalandar eshitgan, boshqasi eshitgani yo'q. Shuning uchun bu so'zlarni eshitsa ham, buning so'ziga tushungani yo'q. Lekin buning sirini Malika biladi, lekin Malika ham shahzodaga qaramaydi. Avazxon bilsa, Malika uchun so'ylaydi, shahzodaning boshi ni sapchaday uzar edi. Bilmagan dan «Bu ham birov uchun ovora bo'lib yurgan bir sho'rli-da», — deb so'ziga e'tibor bermay o'tirar edi.

Boymoq devlar ham ko'z ko'rinish turadigan yerda hamma askar-lashkari bilan tushib, «O'lmay, ayrılmaymiz. Sira qo'y manglar, bu yerdan jo'nar bo'lsa, baring birdan ot qo'yinglar, yo o'layik, yo Malikani olib qolayik. Bu qanday gap, bir qalandardan muncha

ko'p dev lashkari qo'rqib, qalandarning sitamidan Malikadan ayrilib, uning ustiga boladan ayrilib qolsak. Sizlar to'planib uringlar, men bir yoqdan o'zimni uraman». — deb lashkarlariga ko'p so'zlarni tayinlab turar edi.

Ana endi Shoqalandar shahzodaga ko'zini olaytirib edi, shahzoda og'zini tortdi. Shoqalandar aytdi:

— Endi bu yerdan jo'namoq kerak, damlaringni oldilaring, endi turinglar, ot-anjomlaringni sozlanglar!

Hammalari o'rnidan turib, o'z otlarini sozlab egarlab, anjomlarini qayta boshdan solib, Shozargar Tillaqiz bilan Bo'ztulporga mingashdi. Avazxon bilan Malika Qoratulporga mingashib oldi. Shoqalandar G'irko'k otga, shahzoda o'zining tulporiga mindi. Ana shunday qilib bu chinorning soyasida, hovuzning labida soyalab, salqinlab, xushlab, tushki ovqatni yeb, chinorning oldidan jo'nayberdi. Avazxon ilgari, Shoqalandar orqani olib chinorning oldidan jo'nay berdilar.

Bularning jo'naganini devlar ko'rib, bir xili piyoda, bir xili havoda uchib gurullab, bularning to'rt tarafini olib tusha berdi, qurshab, qamsab kela berdi, o'ngu so'lni ola berdi. Shunda Shoqalandar:

— Endi har qaysilaring o'z otlaringga, o'z malikalaringga xabardor bo'linglar. Bular o'lmay, bizlarni qo'ymaydiganga o'xshaydi. Sizlar har nima bo'lsa ham, yo'l ola beringlar, yomon yo'ldan bir qadam etsak ham yaxshi. Sizlar yura beringlar, men bu badbaxt devlarga o'zim tanho so'g'ish qilaman, ajallisin urib o'ldiraman, — deb ularni jo'natib, otning boshini burib, na'ra tortib, devlarning ustiga qarab ot qo'ydi.

Sherday bo'lib dushman ustiga yetdi,
Qo'liga tushganni havoga otdi.
Qo'liga olgani keskir po'latdi[r],
Sermaganda devlarni kesib o'tdi.

Ne zo'r devlarni qiyratdi,
 Qizilqumida nuratdi,
 Qalandarbek qildi g'ayratdi,
 Necha bir devlarni nuratdi.
 Ko'p devlarning aqli shoshib,
 Qalandarbek o'zi tanho savashib,
 Murda degan qoldi bunda ayqashib.
 Tinmay oqar ko'zning yoshi,
 Kesildi devlarning boshi,
 Qizilqumda qoldi loshi,
 Shudir qalandar savashi.
 Ostida o'ynaydi tulpor,
 G'ayratidan devlar yig'lar,
 Tanho qilib urush o'zi,
 Kesilib devlarning buti.
 Beklarning qo'liga tushgan
 Qosimshohning barno qizi,
 Yonida Chambil dobilbozi,
 Hamroh, bo'lgan Tillaqizi,
 Har tarasga nazar solib,
 Qaraydi Zargarning o'zi.
 Alangladi Shohizargar,
 Yetishdi jodugar devlar,
 Har tarafni devlar olib,
 O'rtada qoldi bu beklar.
 Bu urushdan xabardordi
 Urush qilgan Shoqalandar,
 Ostida G'irko'kday tulpor,
 Qamchi urgandir bu zo'rabor.
 Ayriliq o'tiga bag'rini dog'lab,
 Kelgan devlar shahzodani so'rog'lab.
 «Necha savashlarni bizga qilgandi,
 Ko'p devlarning tanho boshin olgandi.
 Qora kunni o'sha bizga solgandi,
 Qancha devlar bu urushda o'lgandi,
 Tanho turib ko'p ishlarni qilgandi.
 Qizilqumni olgandi qalin tuman,

Bizga bermadi-ku bachchag'ar omon,
O'lmay qaytmang, endi bo'lgan oxir zamon».

Maydonda Qalandar so'zni eshitdi,
Qalandar o'tdayin tutanib ketdi.
Qo'lida yarqillab keskir po'lati,
Osha keldi Qalandarning g'ayrati,
Qizilqumda qoldi devning jasadi.

Quloq solmas devlar aytgan nolishiga,
Qilich soldi zo'r devlarning boshiga.
Qizilqum to'lgandi murda-loshiga,
Bir xil devlar qoyil bo'ldi ul zamon,
Qalandarning tanho qilgan savashiga.

Ne bir devlar parvoz qilib keladi,
Shamshir po'lat bilan uni uradi,
O'lchaganday ikki nimta bo'ladi,
Buni ko'rgan hayron bo'lib qoladi,
Devlarning ranggi gulday so'ladi,
Ajallisi shunda o'zi o'ladi.

Urush qilib, devning ko'nglin sizadi,
Bir xil devlar ko'zin yoshin tizadi.
G'ayrat qilib otin solib qalandar,
Og'ir safni, lashkarini buzadi.

Qancha devlar bo'lolmayin barobar,
Omon topmay o'larmiz, deb bu devlar,
Bizning sho'rimizga kelgan qalandar,
Buning bilan hech nima bo'lmas barobar,
Chuvlab ot qo'yadi ul zamon devlar,
Sherday bo'lib sira qaytmas qalandar.

Necha u devlarning aqili shoshib,
Bir nechasi takbiridan adashib,
Qizilqumda shunday urush qilgandi,
Devlar yarog'ini rad berib, qaytarib.
Urush tilini bilib yurgandi,
Qizilqum dalasi o'likka to'lib,

Murda degan bovday qiyrab qolgandi.
 Boymoq dev — zo'rabor urush qiladi,
 Turgandan qochganin qulay biladi,
 Ajal yetgan bu maydonda o'ladi.
 Beklarning atrofini olov oladi,
 O'rtalikda Avaz, Zargar qoladi.

Ana shunda Zargarbek bilan Avazxon, Malika, Tillaqiz, Mahmud yo'lda ketib borayotib edilar, bir olov qizil, yashil bo'lib yonib, bir boshi yerda, bir boshi osmonda yonib, kuydirib ketadiganday bo'lib, bularning gir tevaragi — to'rt tarasiga yoyilib oldi. Shunda Zargarbek, Avazxon o'z jonini bu olovdan qutultiradiganga o'xshamay qoldi, holi tang bo'ldi, tiriklay jahannamga ketadiganday bo'ldi. Avazxonning ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, bu Qizilqumda g'aribi go'riston bo'lib o'lib ketadiganga o'xshab, qalandarni yod qilib: «Shoqalandar meni bu o'tdan ajratib qutultirmasa, endi men o'ldim, Malikadan ayrildim», — deb Avazxon bir so'z dedi:

Bir navjuvon erdi, o'zi xiromon,
 Har kim ko'rsa, bo'ldi husniga qurban.
 Bu so'zni aytib, yig'lab turar Avazxon,
 Menga yo'qdir g'ariblikda mehribon.

Tiriklay jahannam ketib boraman,
 Dardli qul dardimni kimga yoraman,
 Ayroliq o'tiga bag'ri poraman,
 Qani endi Shoqalandar mehribon.

Boshimga tushgandi qayg'uli tuman,
 Bu olovdan endi qolmasman omon,
 G'ariblikda xabar olsang, bobojon,
 Tiriklay jahannam ketib boraman.

Jilva qilar bu ko'nglimda elatim,
 Tayrildi boshimdan toju davlatim,

Ajal yetib, endi to'ldi muhlatim,
 Bu olovda yonib ketar jasadim,
 Ostimda bo'ljadi mening G'irotim,
 Hech kimsaga o'tmay qoldi quvvatim.

G'am bilan sarg'aydi guldayin diydor.
 Bir nechalar o'z holidan bexabar,
 Menday bo'lib yonib ketar Shozargar,
 Qani, bizdan xabar olsa qalandar.

Mendayin nochorning ko'nglin bo'ladi,
 Hiylagar dev bunday ishni qiladi,
 Bunda turgan beklar tayin o'ladi,
 Avaz o'g'lon xudo, deydi, jiladi.

Bizlarga mingashgan Malika dilbar,
 Bu ishlarni qilgan devlar — jodugar,
 Podshovachcha, sen ham o'lding xoru zor,
 Ayyorning qo'liga bo'ldik giristor.
 Qani, bo'lsa bobom — Shohiqalandar,
 Ko'rsa titrab ketar yongan olovlar,
 Hech barobar bo'lolmaydi bu devlar,
 Yig'lay bergen, endi o'ldik xoru zor.

Ayyor devlar bizga qildi zulmdi,
 Ko'rolmasman o'ynab-o'sgan elimdi,
 Bizga qildi bunda yomon zulmdi,
 Shozargar, sen ham nazar sol endi.

Sening ham qolmadi endi toqating,
 Yetmay qoldi o'xshar sening quvvating,
 Bizday bo'lib kuyar sening jasading,
 Qanday bo'ldi, ketdi sening holating.

Bahodirlik ta'ma qilib yuraman,
 Nazar topib bu yerkarda kelaman,
 Armon bilan endi o'lib boraman,
 Yig'laganman nima iloj qilaman?
 Jodugarlikka qoyil qolaman,
 Jonimdan umidim uzib boraman.

Sadag'ang bo'layin sultoni Abror,
 Bu jafoni soldi ayyoru jodugar.
 Qani bobom bo'lsa Shohiqalandar,
 Yomon kunda bo'lar edi xabardor,
 Ko'rsa qochar edi bu zamon devlar,
 Qattiq kunda o'lar bo'ldik xoru zor.

O'z jomimga o'zim qilib zulmdi.
 Kimga aytay endi o'lar holimdi,
 Uzoq turma, Zargar, beri kel endi,
 Qo'l ko'tarib hammang duo qil endi.

Shundayin mardning ko'nglin bo'ladi,
 Podshovacheha, Zargar duo qiladi.
 Avaz o'g'lon bu yerlarda zor yig'lab,
 Hojatini yaratgandan tiladi.

Qodir Olloh, sen bilasan holimni,
 Dono egam, bevaqt berma o'limni.
 Xoliqsan, karimsan, qahringdan qutqar,
 Gunohkor bandangni maqsudga yetkar.

Chuvlab duo qilar bul zamon beklar,
 Olov bo'lib qamsab oldi jodugar.
 Duoga ko'z tutib davlatli shunqor,
 Bu urushda yetolmaydi qalandar.
 Bu ishlarni bilib turar Shozargar,
 Ikki pari hamma ishdan xabardor.

Ostida o'ynaydi bu tulpor oti,
 Hech nimaga kelmayotir Zargar quvvati.
 Ayroliq o'tiga bag'rini dog'lab,
 O'ldik, deyshib bunday kunda qon yig'lab,
 Jonidan umidin uzgan Avazxon,
 Shoqalandar kelsa, dedi so'rog'lab.

Bag'rimdan o't chiqib, tanim tutashdi,
 Ajal yetib, o'lar vaqtim yetishdi.
 Qani bobom bo'lsa — Shohiqalandar,
 Ayyorlar zulmidan aqilim shoshdi.

Unda obod edi o'sgan elatim,
 Ostimda bo'lindi mening G'irotim.
 Bu olovda kuyib ketar jasadim,
 O't tutashib, ziyodadir kulfatim,
 Shoqalandar edi hamroh, ulfatim.
 Qalandarman birga edi G'irotim.

Endi olovda jasadim kuyib ketar,
 Ostimda bo'lsaydi G'irko'kday tulpor.
 Urushning tilini bilgan jonivor.
 Qochar edi ko'rsa jodugar-ayyor.

Jasolarga tushib endi tanda jon,
 Bu so'zlarni aytar edi Avazxon,
 Bu jonimdan umid uzib boraman,
 Bu olovdan endi qolmayman omon.
 Atrofimni oldi jodugar dushman,
 Chuvillashib yig'lashadi bu zamon,
 Dev qo'lidan qutulmog'im dargumon.

Falak titrab Avazxon nolishiga,
 Ko'zlar g'ubor bo'lib oqqan yoshiga,
 Yaxshi odam ko'nar tangri ishiga.
 Xudo, deb yig'lashib beklar bu zamon,
 Yonib ketar edi bu beklar,
 Tilsimotdan duo o'qib Shozargar,
 Shu sababdan kelolmaydi bu dushman.
 Bezovta bo'lib shundayin beklar,
 Shaydullo, deb borib qoldi qalandar.
 Bezovta bo'ldi bu zamon beklar,
 Urushda shoshibdi Shohiqalandar.
 G'irotiga achchiq qamchi uradi,
 Beklar holi zabun bo'ldi, biladi.
 Rabbim, dedi, devga qilich soladi,
 Yo'l bermayin devlar yo'lni oladi.
 Qancha devlar baydoq-baydoq zo'rabor,
 O'lib ketdi nom ko'targan ne devlar,
 Necha nomard devning ko'nglin bo'ladi,

Alamdar devlarning boshin oladi.
 Turgandan ketganin yaxshi biladi,
 Necha devlar bunda bo'zlab jiladi.
 Xudo deb G'irotga shiddat qiladi,
 Necha devlar qochib yo'lni beradi,
 Qalandardan devlar hazar qiladi,
 Duehor bo'lgan devlar bunda o'ladi.
 Bu olovga endi yetib boradi,
 Yeru osmon ko'rinnmaydi ko'ziga,
 O'lar vaqtı yaqin etib boradi.
 Bular qolib endi qattiq kunlarga,
 Yetib Shoqalandar shunda boradi.
 Sulaymon payg'ambar nafasi, dedi,
 So'ta bilan bu olovni uradi,
 Yotgan olov g'oyib bo'lib boradi,
 Ismiyot duoni o'qib qalandar,
 Ko'zini ochib qarar Avazman Zargar,
 Boshidan ketibdi qayg'u, tumanlar,
 Oldida ko'rindi Shohiqalandar,
 Qalandarni ko'rib shu zamon beklar,
 Otdan tashlab ko'rishadi bu beklar.

Ana shunda Boymoq devning lashkarları bilan ko'p urishib, Shoqalandar shunday qarasa, ko'p katta, zo'r devlar Shoqalandarni beklariga qarab yurgizgani sira qo'ymaydi. Shoqalandar G'irko'k otni qistab, qo'shinga yashinday qilib haydaydi. Devlarning bir xili o'ladi, bir xili qochadi, yana Shoqalandarning orqasidan yonashadi, Shoqalandarni o'rtaga oladi. Shoqalandar har zamonda dev lashkariga qarasa, Boymoq dev hech yerda ko'rinnmaydi. «Bu badbaxt Boymoq dev bu yerdan ketgan ekas, Avazxon bilan Zargarbekka borgan ekan, har qanday bo'lsa ham bular omon-eson bo'lsa shu-da», — deb ko'nglini bu beklarga bo'lib, qichab yo'lini olmoqchi bo'ladi. Devlar o'lgani o'lib, qolgani tag'i to'planib kelib, Shoqalandarni sira yurgizgani qo'ymaydi. Shunday qir-

g'inning ustida edi, Avazxonning: «Bizlar o'ldik, ku-yib g'arib bo'ldik», degan tovushini Shoqalandar eshitdi. Shoqalandar xudo, deb jonini Jabborga top-shirib. G'irko'k otning boshini burib, oldini olgan devlarni urib o'ldirib, qirib-juyib, oldini to'sat qilib ochib oldi.

— Ana badbaxt devlar, men yetdim, — deb oldiga yaqin borib, bu ham tilsimot o'qib, Sulaymon pay-g'ambarning nafasi, deb qo'lidagi so'tasini yonib turgan olovga urdi. Bu olov yonib turganicha yonib osmonga chiqib ketdi. Qancha g'ovur-shuvur, talo-to'p-to'polon bo'lib yetgan devlar, o't — hammasi zimziyo yo'q bo'lib ketdi. Shozargar, Avazxon, Mahmudjonlarni ko'zлari choyday chirk etib ochilib qoldi, hamma devlardan qutulib qoldi, bularning boshidan g'ubor ko'tarildi, ko'zлari yorug' bo'ldi. Shunday qarasalar, Shoqalandar mast tuyaday bo'lib gurkirab, u yoq — bu yoqqa qarashib enib, talpinib turibdi. Shoqalandarni ko'rib: «O'lmayin omon-eson bir-birovimiini ko'rdirik», deb hammalari otlaridan tushib, Shoqalandar bilan ko'rishib, topishib, hol-ahvol so'rashib, xudoysi taologa shukurlar etib dimog'lari chog' bo'ldi.

Ana shunda bularning dimog'ini choqlikda qo'yib, Boymoq devning o'zidan, lashkarlardan eshiting.

Boymoq dev Shoqalandarning kelganini bilib, ay-yorligi, jodugarligi Shoqalandarga ta'sir qilmay, o'z jonidan qo'rqib:

— Ey hamma ayyor, jarror devlarim! Endi ish bo'ljadi. Bu ishni bizdan xudo ko'tardi, — deb Shoqalandarni, Shozargarni, Avazxonni o'ldirmoqdan, shahzoda Mahmudni ajratib olib ketmoqdan, Malika ayyor bilan Tillaqizni bularning qo'lidan ayirib olmoqning umidi uzildi, ko'ngli buzildi. — Endi bularni o'ldirmoq, malikalarni olib qolmoq bizlarning qo'limizdan kelmadni. O'zimiz o'lmay qoldik, bo'ldi. O'lgan o'ldi, qolgan qoldi. Qolgani hasratli bo'lib yo'lga kirdi, o'zlarining jonini qutqazmoqni g'animat

bildi. O'z chegaramizgachayin quvib keldik, bizga shu davlat bo'ldi. Ko'p g'ayratlarni qildik. Bulardan Malikanı, Tillaqizni ajratib olamizmi degan umidimiz bor edi, bo'lmasdi. Endi bizlardan Malika, Tillaqiz o'pka qilolmaydi, nima bo'lsa bizlar malikalarning tuzini haqladik. Harchand qildik bo'lmasdi. Bekorga bularning orqasidan quvib yurganimiz bilan ish bo'lmaydi, bularga kuchimiz yetmaydi. O'z chegaramizdan o'tsak, bizlardan katta devlarning podsholari, avvalgi o'tgan podsholarga, keyingi keladigan podsholarga bizlar kulgi bo'lamiz, bizlarga ta'na qiladi. Bu yerdan qaytmoq kerak, — deb qancha afsus-nadomatlar qilib qaytdi. O'z manzillariga borib, yetti yildan beri kosa-guli qilib yurgan bolasidan ayrılgan Boymoq dev ko'kragini nam yerga berib yota berdi. Boshqa devlar ham har qaysilari o'z manzil-joylariga borib, o'z tirikliklariga kirishib yota berdi. Ana, bu devlarni yotmoqda, tirikchilikda qo'yib, endigi so'zni Shoqalandar bilan Shozargar, Avazxon, shahzoda Mahmud, Malika ayyor, Tillaqizlardan eshititing.

Shoqalandar devlarni quvdi, beklar bilan topishdi, ko'rishdi, so'rashdi, biror soat dam olib, ulay-bulay qilib, ottarini, egar-anjomlarini sozlab:

— Tayyor bo'linglar, ha denglar, shovvozlar, endi yomon yo'ldan o'tdik, jo'namoq lozim, otlaninglar,
 — deb Shoqalandar o'zi ulardan ilgari otiga mindi. Shozargar, Avazxon — har qaysilari o'zlarining Malikalari bilan mingashib oldi. Shahzoda Mahmud o'zining tulporiga mindi, qalandar «endi g'urbat qolmadis», deb beklarning oldiga tushib, yo'lni boshlab keta berdi. Shunda Shoqalandar yo'lda beklarga qarab bir so'z deb borayotir:

Juring endi, ulfatlar,
 Boshdan ketdi g'am-kulfatlar.
 Ostingizda bedov ottar,
 Sizga tekkan parizodlar,

Haq taolo berdi omon,
 Ketdi bizdan qayg'u — tuman.
 O'lib ketdi necha dushman,
 Pari olgan bol Avazxon,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Oshiq fahmi oqshom kecha,
 Holin bilmagan bir necha,
 Avaz mingashtirgan g'uncha,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Hamroh, bo'lgan, ey Shozargar,
 Senga tekkandir gajakdor,
 Jilva qilar bu zulfakdor,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Bog'da ochilib gulg'unchalar,
 O'ynab-kulgan oyimchalar,
 Mindirgandir bekvachchalar,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Shohasan der eldan kelib,
 Yor ishqida Zargar bo'lib,
 Xizmat qilib yorni olib,
 Yori bilan davron surib,
 Ikkovingiz o'ynab-kulib,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Podshovachchaman Qalandar,
 Sizlarga bo'lib xizmatkor,
 Oldimizdan chiqsa qizlar,
 Biz ham olsak shunday dilbar,
 Pari olgan navjuvonlar,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Bahodirlilik da'vo qilib,
 Har qaysingiz sherday bo'lib,
 O'ngg'ay qilib yorni olib,
 Tekin sizlarni mindirib,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Qizilqumda devlar kelib,
 Atrofingni olov olib,
 Bahodirlar zabun bo'lib,
 Xon Qalandar xizmat qilib,
 Menday beklar sabab bo'lib,
 O'lar vaqtingdan qutqarib,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Minganing tulpor, bedov ot,
 Har qaysing elda vallamat,
 Sizlarga tekkan parizod,
 Qalandarxon qilib xizmat.
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Beklar yo'lda ko'nglin xushlab,
 Bedov otlar kokil tashlab,
 Begu xonlar qo'l uzatib,
 O'ynab-kulib parizodman.
 — U yer, bu yeridan ushlab,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Uzoq, yo'lda mamlakatim,
 Ko'pdir sizlarga xizmatim,
 Qo'lga tekkan parizoding,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Tillaqizdayin gajakdor,
 Angladi Malika ayyor,
 Bu so'zlarni mot qib aytdi,
 Beklarga shunday qalandar.
 Yuring, pari olgan beklar,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Kiygani gulgun qirmizi,
 Aqlingni olar jodu ko'zi,
 Sizga tekkan shohning qizi,
 Chambilbelning dobulbozi,
 Qistab yuring, yo'l olayik.

Yor uchun bo'lgansan Zargar,
 Sening oting Hasan qaysar,
 Aqlingni olgandir dilbar,
 Senga mingashdi gajakdor,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Sayr etib o'ynab-kularsan,
 Bir kuni elga borarsan,
 Shunday yorni obkeldim, deb,
 Beklarga ta'rif qilarsan,
 Juring, beklar, yo'l olayik.

Shoqalandar yo'lni boshlab,
 Qalandarning aytgan so'ziga,
 Parizodlar kula boshlab.
 Qalandarning aytgan so'ziga,
 Bu beklar barmog'in tishlab.
 So'zlarim beklarga ta'sir qildi, deb,
 Qalandar borar yo'lni boshlab.

Beklar bu so'zlarga boshini ko'tarolmay, pastga solib, uyalib, hech nima deyolmay ketib borayotir. Lekin Malika ayyor bilan Tillaqiz ikkovi beklarga ta'na qilganini bilib, bildirmay tabassum qilib, kulisib borayotir.

Shoqalandar: «Bu beklarni yomon uyaltirdim», — deb beklarning oldiga tushib, yo'lida ketib borayotir edi, shunday qarasa, uzoqdan bir to'p odamizod qiz ko'rindi, yo'lning yoqasida saf-saf bo'lib turibdi. Shoqalandar tiklab qarasa, hammasi qiz, shohlik sha'ni-shavkati bilan turibdi. Shoqalandar bularni ko'rib, dimog'i chog' bo'lib: — Bu ish juda yaxshi bo'ldi, «Yo'li bo'lgan yigitning yangasi oldidan chiqadi», deganday bu sanamlar bizlarning oldimizdan chiqib qoldi. Yo'limiz bo'ldi. Shu beklar bitta-bitta oldi, bizlar endi ikkovimiz bu sizlarni otga siqqanicha mingash-tirsak ham bo'ladi, bizga bu qizlarni xudo berdi, — deb shahzodaga sho'xlik qilib aytdi: — Bu qizlar

bizlarga intiq bo'lgan, yo'lga chiqib turgan. Xudo o'z qudrati bilan bizlarga bu qizlarni bergan. Qancha xotin olmoqchi bo'lsang, olaber, — deb sho'xlik qilib bu so'zlarni aytib, yo'lni boshlab qichab, qizlarga qarab yo'l bosib boraberdi. Qizlar Shoqalandarning haybatidan, siyosatidan qo'rqib, yo'lni qoq yorib, yo'l berib turdilar. Bular bilan kelayotgan Malika parizodlarni ko'rib, bularga qarab, ta'zim qilib turdilar.

Shoqalandar:

— Sizlar qanday qizsizlar, bu yo'lda nima qilib turibsizlar? — dedi. Avazxon bu qizlarni ko'rib, otining jilovini tortib, qizlarning ichida Misbelim, Gulzamon degan kanizlarni tanib, otining boshini burib turdi.

Shunda Shoqalandarning so'ziga javob berib, yo'ldagi qizlar bir so'z dedi:

Sizlar kebsiz parizodni uzatib,
Joy orasta, manzil joylar tuzatdik.
Sizlarga yetarmi qizlarning so'zi,
Biz bo'lamiz Gulqizoyning kanizi.
Peshvoz chiq, deb oyim buyurgan bizni,
Kelsin, deb chorlaydi buvishim sizni.
Elchi qilib yubordi bizday kanizni.

Oldimizda siyosatli Qalandar,
Alar bilan birga shavkatli qizlar,
Ul sababdan peshvoz chiqdi kanizlar,
Kelsin, deb chorlaydi, buvishim, sizni.
Oldingizda yugurib xizmat qiladi,
Ko'ngli kelsa, boz qo'yniga oladi,
Juring, beklar, yo'ling bo'lib qoladi.

Bu so'zlarni aytar bizday kanizlar,
Vaqtingizni xushlab gul yuzli dilbar,
Biror kecha mehimon bo'lsin parilar,
Biz bilan yo'l boshlang, turgan qalandar.

Harna deb amr etsang, bizlar qilarmiz,
 Tong otguncha xizmatingda turarmiz,
 Biror kecha sizni mehmon qilarmiz.
 Parizodlar bilan suhbat qurarsiz.
 Juring, beklar, birga-birga boramiz.

Sizga mahtal bo'lib turgandir dilbar,
 Sizlarga mingashgan ikki parilar,
 Gulqizoyim yo'lingizga intizor,
 Birga-birga yuring, davlatli beklar.
 Hali uzoq elda o'sgan elating,
 Belingda yarqillar keskir po'lating.
 Parilarman bo'lar, beklar, suhbating,
 Sizlarga ko'p qiladigan xizmatim,
 Juring, beklar, birga-birga boramiz.

Eshitinglar aytgan so'zni,
 Mahtal qilmang ko'p kanizni,
 Qo'ymay op ketarmiz sizni,
 Juring, beklar, birga-birga borayik.

Juringiz satta bekvachcha,
 Mehmon bo'lingiz bir kecha,
 Xizmat qilar qiz-kelincha,
 Sizlarga intiqdir oyimcha,
 Xudoyim bergen tarbuzcha.
 Bir tilikni totib keting, bekvachcha,
 Qanday bo'lsa yotib keting bir kecha.
 Juring, beklar, birga-birga borayik.

Darvozada yo'lga qarab,
 Peshvoz chiqdik sizni so'rab,
 Kelmasmikan dedi oyim,
 Yuring Gulistonga qarab.
 Bandam desin bir xudoyim,
 Yaratgan qodir iloyim,
 Ko'p intizor sizga oyim,
 Juring, beklar, birga-birga borayik.

Ko'p intizor sizga dilbar,
 Yo'lni boshlang, Shoqalandar,
 Qarab turar Shohizargar,
 Kanizlar bo'ldi ko'p muztar,
 Juring, beklar, birga-birga boramiz.

Keling endi yo'lni boshlang,
 Gulqizoyim ko'nglin xushlang,
 Bunday qilib turasizmi,
 Beklar, endi yo'lni boshlang.
 Juring, beklar, birga-birga borayik.
 Buvishimiz kelmish boqqa,
 Qarab turgan shu ravoqda,
 O'ynab-kuling bu chorboqda,
 Juring, beklar, birga-birga boramiz.

Ana endi Shoqalandar bu so'zni eshitib, beklariga qarab:

— Borsak borayik, xudoning hikmatin ko'rayik, beklar. Har kimni birov chaqirsa, borgan yaxshi, bu yerga borsak, vaqtimiz xush bo'ladiganga o'xshaydi. «Er tilagan erda aziz», degan so'z bor. «Chaqirmasa boruv yo'q, chaqirgan yerdan qoluv yo'q» degan ekan, yuringlar! — deb otning boshini burib, beklar bilan birga-birga Gulshanboqqa qarab kela berdilar. Buni ko'rgan kanizlardan bir nechasi chopib, beklar kelayotir, deb Gulqizoyimga xabar berdi.

Gulqizoyim ko'shkularini yaxshi orasta qilib, yaxshi libos-to'shaklardan soldirib, xizmatkor sanam qizlarga buyurib, o'zi Gulshanbog'ning darvozasiga chiqib qarasa, beklar parilar, kanizlar bilan kelayotir. Gulqizoyim qirqin qizlari bilan, necha jodu ko'zlari bilan peshvoz chiqib, beklarning yo'lini boshlab, ko'nglini xushlab, otlarini ushlab, Gulshanboqqa ergashtirib, darvozadan ichkariga olib kirdi. Shoqalandar bosh beklar, Malikalar otdan tushib, Gulqizoyim bilan ko'rishib-so'rashib, dimog'lari chog' bo'l shib, Gulqizoyim bularni ko'shkiga ergashtirib, yo'l boshlab olib

chiqib, bularning ostilariga yaxshi-yaxshi libos, kim-xob to'shaklarni tashlab, joy tayin qilib, har qaysi o'z martabalariga yarasha joy olib o'tirdilar. Bu beklarning bedov otlarini, tulporlarini tablaxon alarga bog'lab, ayil-pushtanlarini bo'shatib, sayislar terisini qashlab, o'xshatib, sozlab, boqib qola berdi. Shunda Gulqizoyim bu beklarning omon-eson qaytib kelgанини узоқдаги-яғындағи паризод қыздарга хабарни юбордин. Hammalari eshitib, bu beklarni, malikalarni ko'rmoqqa yig'ilishib keldilar. Hamma kelgan qizlarni munaqqash yaxshi ko'shklarga boshlab, ostiga yaxshi libos-to'shaklardan tashlab, joy tayin qilib, o't-qizib, ziyofat ustiga ziyofat, qand ustiga sharbat, shirin ustiga sharob, taom ustiga taomlardan torta berdi. Rang-barang turgan parizod, qilib yotir Gulqizoyim xizmat, qurib o'tirgandir suhabat, qizlarning bu qilayotgan xizmatiga xursand bo'layotir Malika parizod.

Har chorboqdan qizlar kelib,
 Har alvonda o'yin qilib.
 Bunda kelgan parizodlar,
 Bu o'yindan xursand bo'lib.
 Gulshanbog'ning sarvinozi,
 Malikaga xizmat qilib.
 Gulqizoyning ishin ko'rib,
 Har tarafdan qizlar kelib,
 Ko'shkining pastida turib,
 Saf-saf turgan barno qizlar,
 Sibiziq, naylarni olib,
 Setor-metorini chalib,
 Har alvonda nag'ma qilib,
 Parizodlar o'ynab turar,
 Nozik bellari buralib,
 Shunday bo'ldi o'tirishlar,
 Parizodlar o'yin boshlar,
 Balanddag'i ko'shkida turib,

Mehmonlarning ko'nglin xushlar,
 Qizlarning o'yinin ko'rib,
 Gulqizning qilgan ishiga,
 Mehmon qizlar qoyil bo'lib.

Bu balandda jodu ko'zlar,
 Oyday to'lgan qizil yuzlar,
 Tomosha qilib sarvinozlar,
 Pastda o'yin qilib yotar,
 O'yin-kulgi qilib qizlar.
 O'yinidan ko'ngli to'lib,
 Bu parilar tabassum qilib,
 Gulqizning ishini ko'rib,
 Hammasi vaqt xush bo'lib.
 Gulqizoyim ish boshqargan.
 Jami qizlarga bosh bo'lib,
 Gulqiz qilgan xizmatidan,
 Mehmonlarning ko'ngli to'lib.
 Qalandarman Shohizargar
 Parilarga nazar solib.
 Hamrohdir Avaz zo'rabor,
 Podshovachcha bul muqarrar,
 Parilarman qator turib,
 Qizlarning o'yinini ko'rib,
 Vaqt xush bo'b Shoqalandar,
 Jilva qilib aqlin olib.
 Oyu kundan husni g'olib,
 Sarvinozlar o'yin qilib,
 Bu beklarning ko'nglin olib,
 Satti barno sanam qizlar
 O'yin qildilar buralib.
 O'yin qildi chuvillashib,
 Gulqiz ketdi pastga tushib,
 Qizlarning qoshiga borib,
 Ko'p qizlarga oro berib.
 O'rtaga tushgandir qizlar,
 Ish ko'rsatsak, deydi bizlar.

Xizmatni bajo qilinglar,
 Bunda turgan sanam qizlar.
 Malikaman Tillaqizni,
 Chaqirib oldi Qalandar:

— Pastga tushib ketma, qizlar,
 Ko'ngling bo'limgan nochor.
 Sen o'rningdan tura kelib,
 Shu majlisga borgin, dilbar.
 Gulqizoymen birga turgin.
 Uchoving ham birday bo'lib,
 Yangi ochilgan gulday bo'lib.
 Behishtdagi hurday bo'lib,
 Oq badaning qorday bo'lib,
 Labing so'rsa bolday bo'lib,
 Ko'rgan qolsin angday bo'lib.
 Senga Qalandarning so'zi,
 Gulshanbog'ning sarvinozi,
 Bir yigitning suygan nozi,
 Gulqizoyga oshiq bo'pti,
 Qavodshohning dobulbozi.
 Shu so'zimni Gulqizoyga bildirgin,
 Qabul qilsin Gulshanbog'ning sarvinozi.
 Shahri Zebit eliga borar,
 Podsholik shavkatin ko'tar,
 O'ynab-kulib davron surar,
 O'ynab-kulsa ko'ngli to'lar.
 Hammalardan husni g'olib,
 Gulqizoy deb sarson bo'lib.
 Nogahondan bizni ko'rib,
 Siru ahvolin bildirib,
 Qizil yuzini so'ldirib,
 Oshiq bo'lib izlab kelgan,
 Bu so'zimni aytib borib,
 Sen Gulqizoyimga bildirib.
 Bu so'zni aytdi Qalandar,
 O'rnidan turdi parilar,

Pastki ko'shkiga ravon bo'ldi,
 Yugurib yetdi necha qizlar.
 Qo'lting'idan suyab olib,
 Olib bordi sarvinozlar,
 Gulqizning oldiga yetdi.
 Malikaning kelganini,
 Gulqizoyim ko'rib bildi.
 Tomoshani ko'ring, dedi,
 Keling bunday, keling, dedi,
 Xursand bo'lib turing, dedi.
 Bir tarafında Tillaqiz,
 Anga hamroh, bo'lib Gulqiz –
 Uchovlari birday bo'lib,
 Yangi ochilgan gulday bo'lib.
 Qizlar turar o'yin qilib.
 Bir-biridan husni g'olib,
 Bir-birining bo'yiniga,
 Parizodlar qo'lin solib.
 Malikadayin gajakdor,
 Qalandarning aytgan so'zin,
 Asta-asta bildiradi,
 Gulqizoya ovoz qilib:
 – Quloq sol so'zga oyimcha,
 Jafo tortgandir bir necha,
 Ko'rmaysizmi, oshiq bo'lib,
 So'rab kelgan bu bekvachcha.
 Shahri Zebit deydi joyi,
 Qavodshohdir qiblagohi,
 Zebit elning bu podshoyi,
 O'z yurtida davron suribdi,
 Bir kecha tushida sizni ko'ribdi,
 Sizday oyim kirib buning tushiga,
 Otim Gulqizoyim, deb xabar qolibdi,
 Ota-enasi bexabar qolibdi.
 Sizni ko'rib bejay xushtor bo'libdi,
 Devlarning changiga tushib qolibdi,
 Ishqingiz o'n to'rt yil xafa qolibdi,

Devlarning qo'lidan judo qilibdi,
 Sizni ob boraman deb va'da qilibdi,
 Hozirlikda jamolingizni ko'rib,
 So'zlamakka quvvati yo'q turibdi.
 Ko'p yig'ladi yo'lda shundayin nomdor,
 Tasalli bergandir Shohiqalandar.
 Necha so'z aytarman menday gajakdor,
 Ko'nglingni bo'Imagin, davlatli shunqor,
 Dalolat qiladi menday zulfakdor.
 Borib ko'rsang juda vaqting xush bo'lar,
 Ko'ndirar ixtiyor, bilsang, bizda bor,
 Ko'nglingdan ketsin, deb cher bilan g'ubor.
 Necha so'z aytgandir menday parilar,
 Xasa bo'lma, menday oyim ko'ndirar,
 Bu so'zlarni aytar Malika ayyor,
 Tabassum qib kului gul yuzli dilbar.
 So'zimni qaytarma, jonim, gajakdor,
 Ko'shkiga qaradi shundayin dilbar.
 Podshozoda qarab turar muqarrar,
 Malikaga qarab Gulqizday dilbar:
 — Er izlasang, mamlakatdan topilar,
 Bema'niga mingashib bizga nima bor?
 Unday demang, mening ko'nglim qabarar,
 Bu so'zni eshitib Malika dilbar:
 — Erga xotin, xotinga er darkor,
 O'tmasin g'animat, bilgin, davronlar.
 Senga yoqar menday oyimning so'zi,
 Oshiq bo'lgan Qavodshohning yolg'izi,
 Erkak desang, har joylardan topilar,
 Har kimga duch kelmas bularning izi.
 O'z yurtining buldir sohibtamizi,
 Aytgan so'zga ko'ning, Shohbolshoh qizi.
 Sizni izlab jafo tortib kelibdi,
 Xaridoring sendan ziyod turibdi.
 Davronni o'tkazmagil, gul yuzli dilbar,
 Anglayman, sening ham bunga ko'ngling bor,
 G'animat bil to o'lgancha davronlar,

Qabul qilgin, jonim sendan, gajakdor.
 Buni eshitib Gulzamon keldi,
 Bularning so'zini anglatdi, bildi,
 Bu yaxshi ish kuning parim, dedi Gulzamon,
 Qistay bergenidan Gulqizoy kului.

Ana shunda Malika ayyor bilan Tillaqiz ikkovi
 Gulqiz parining oldiga kelib, shahzoda Mahmudning
 jamolini ta'rif qilib, Gulqizoy pariga maqtab, qizlar-
 ning katta sardori Gulzamon Gulqizga qarab, bir so'z
 dedi:

Oh ursam to'kilar ko'zimdan yoshim,
 So'zimni eshiting, jonim, buvishim.
 Bog'bon bo'lib qizil gulni termakchin,
 Jahonni sayr etib o'ynab-kulmakchin,
 Xolis va'da qilib edik biz yo'lda,
 Mahmudxonga oyim sizni bermakchin.
 Qiyg'ir degan qush o'tirar qiyoda,
 Ne ko'rib kechirding foniy dunyoda,
 Jamollari oyu kundan ziyoda.
 G'ayratidan shohlar yurar piyoda,
 Husnin ko'rsang, xonim, sizdan ziyoda.
 Qavmu qarindoshing qolsin bexabar,
 Sayrboqqa o'yin qilgan sanamlar,
 Ora tushib turar Malika ayyor,
 Bularning aytganin qilmog'ing darkor.
 Shodu xurram bo'lgin, gul yuzli dilbar,
 Injilmayin qila qo'ygin ixtiyor,
 Ko'ngiliga og'ir solsa bu beklar,
 Zarb aylasa, vayron bo'lar necha shahar.
 Sizga dalolatda shavkatli qizlar.
 O'ynab-kulsang ketar ko'ngildan g'ubor,
 Sizga kerak, bilsang, shundayin shunqor,
 Dod aylasa izin topmay ko'p qizlar.
 Gulqizoyning bilmaganin bildirdi,
 Vaqtin xushlab, shodiyona kuldirdi,
 Mahmudxonga Gulqizoyni ko'ndirdi,

Dalolatni qilgan Malika ayyordi[r],
 Avvaldan o'zining ham ko'ngli bor edi.
 Noz qilib turib edi bunday qilib,
 Axtargani buning ham shunday shunqor.
 Ko'ndi, deyishib malikalar, parilar,
 Qalandarga yetkazadi endi xabar,
 Balanddag'i ko'shkka boshladi dilbar.
 Beklarning yonida bir-bir parilar,
 Tanho turar shunday Shohiqalandar,
 Bu beklarga xizmat qilar qalandar,
 O'yin qilib o'tirgandir parilar.

Ana shunda Malika bilan Tillaqiz, Gulzamon uchovi Gulqizoyimni Mahmudxonga ko'ndirib, qilgan ishlarini tindirib, pastki ko'shkdan yuqori ko'shkka ergashtirib olib chiqib, buni Shoqalandarga ma'lum qilib, Shoqalandar buni eshitib, ko'p vaqtı xush bo'libdi.

Bu bekvachchani ham quruq yubormayman, deb kattalik qilgan edi, xudoy meni o'tirikchi qilmadi, deb xudoyi taologa shukurlar qilib, shahzoda Mahmud bilan Gulqizoyimga qulluq bo'lsin, deb o'tirishdi. Qayta boshdan o'xshatib bazm ustiga bazm, tomosha ustiga tomosha, beklar malika parilar o'tirar yonasha. Shu oqshom o'ynab-kulib, beklar parilarning u yer – bu yeridan ushlab, dimoqlarini chog'ladi.

Pastdagi sanam qizlar o'yin ustiga o'yin, qiliq ustiga qiliq, birovi birovidan tiniq, hammalari bir-biriga bo'yin solib, noz bilan bir-biriga boqqan, kulgan, o'ynagan, qilig'i ko'rganga yoqqan, yarashiqqa bo'yniga gavhar taqqan, o'ynagan qizlar birovi birovidan chaqqon, bir-biriga qarashgan, zulflarini tarashgan, oshiq-ma'shuq bir-biri bilan topishgan, o'yin juda qizigan. Qiz-sanamlarning dimog'i chog', g'oyatda vaqtı xush bo'lib, hammalari shodu xurram bo'lischib o'yin-tomosha qilib o'tira berdilar.

Ana shunda bazm juda qiziq bo'ldi, beklarning dimog'i Gulqizoyimning xizmatiga choq bo'ldi. Tun-dan ancha o'tdi. Shoqalandar aytди:

— Endi bafasl istirohat yaxshi. O'zimiz necha kundan beri tinmay kelayotirmiz. Beklar, pichigina dam olingizlar, yotingizlar. Tong otgan so'ng, jo'namoq kerak, — deb yo'lning kerakli anjom-asboblarini tayyorlab turdi.

Shunda beklar, malikalar, qizlar — har qaysilari o'z joylarida shu oqshom yotdi, erta bilan tong otdi. Shoqalandar: — Endi bunday o'tirmanglar, bo'linglar, beklar, — dedi.

Shunda Gulqizoyimni shahzoda Mahmud mingashтиrdi. Shozargar Bo'ztulporga Tillaqizni mingashтиrdi. Avazxon Malikani Qoratulporga mingashтиrib oldi. Shoqalandar G'irotni minib oldi, ham-malari jo'namoqchi bo'ldilar.

Otlarini mingandan so'ng Gulqizoyim: — Endi bu yurtimdan, unib-o'sgan mamlakatimdan ketadigan bo'ldim, — deb ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, birga yurgan kanizlarini ko'zi qiymay, ota-enasini bu yerda ko'ra olmay, ulardan rozichilik so'ray olmay, xafa bo'lib, bir so'z aytayotibdi:

Yoshga to'ldi bunda bu jodu ko'zlar,
Ayriliqning o'ti bag'rimni tuzlar,
Oldimizda xizmat qilgan kanizlar,
To ko'rguncha qirqin qizlar, xo'sh endi.

Oh urib to'karman ko'zdan yoshimni,
Yot ellarga g'arib qildim boshimni,
Ko'rolmadim do'stim, tengu to'shimni,
O'ynab-o'sgan do'stu yorlar, xo'sh endi.

Shunday bo'ldi menga Haqdan farmonlar,
Yuragimda bordir g'amu armonlar,
Sirli ustun, bunda ko'shku ayvonlar,
O'ynab o'sgan sayrgohim, xo'sh endi.

Vo hasrato, tushib zo'rning qo'liga,
 Endi mindim men ham otning beliga,
 Taqdirim tortibdi Zebit eliga,
 O'ynab o'sgan tenggu to'shlar xo'sh endi.

Hasrat bilan bu ellardan ketarman,
 Yurgan kunlar esga tushsa netarman,
 O'z holima qonlar yig'lab ketarman,
 Shodu xurram manzil joylar, xo'sh endi.

Qaytayin yig'latib menday sanamni,
 Solib yuragimga dog'i alamni,
 Rozilashib men ko'rmadim enamni,
 Mehribonim, qirqinlarim, xo'sh endi.

Xudoyim kechirgay qilgan xatomni,
 Jo'nar vaqtda men ko'rmadim otamni,
 Belimga bog'ladim zarli po'tamni,
 Qirqin qizlar, kanizlarim, xo'sh endi.

Gap eshit, kanizlar, aytgan tilimdan,
 Men ham ketdim o'ynab-o'sgan climdan.
 Mushtiparman, ish kelmayin qo'limdan,
 Xizmat qilgan qirqin qizlar, xo'sh endi.

Jahonni sayr etib o'ynab-kulinglar,
 Dunyoning davrini bunda suringlar,
 Mening uchun siz enamni ko'ringlar,
 Harna amr etsa, shuni qilinglar,
 To ko'rguncha omonda bo'linglar.

Jodu ko'zli jononlarim, xo'sh endi.
 To ko'rguncha sizlar omon bo'linglar,
 Shodu xurram bo'lib o'ynab-kulinglar,
 Xizmat qilgan qirqinlarim, xo'sh endi.

Ketar bo'ldim, mening ko'nglim buzildi,
 Ko'zdan yoshim munchoq-munchoq tizildi,
 Ketarimni bilib bag'rim ezildi,
 Xizmat qilgan kanizlarim, xo'sh endi.

Xudoyim saqlagay bandani omon,
 Qolmasin boshimda qayg'uli tuman,
 Bu ellarni qaytib ko'rmaklik gumon,
 Sarvinozlar, kanizlarim, xo'sh endi.

Bu so'zlarni aytди Gulqiz zulfakdor,
 Chuvillab yig'ladi turgan kanizlar,
 Qo'l ko'tarib duo qildi kanizlar.
 Omin, Olloh, deydi, ollohu akbar.

Rozilashib jo'namoqchi gul yuzli dilbar,
 Siyosatman qarab turar qalandar,
 Bu so'zlarni aytib turar qalandar:
 — Mahtal bo'lib turadimi bu beklar?

Ochilgan jig'aday gullaring so'lib,
 Ko'p yig'lama dog'i hijrona to'lib,
 Kanizlaring qoldi duolar qilib,
 Aytgan so'zing endi sening bas bo'lib,
 Biz jo'narmiz endi bundan mast bo'lib.

Bu so'zlarni aytib nomdor beklar jo'nadi,
 Keyinidan ergashib necha kanizlar,
 Xush kelibsiz.

deb darvozadan chiqarib boradi.

Bir-biri bilan rozi bo'lishib jo'nadi,
 Gulqizoyimning qorasi ko'rinxayin,
 Darvozadan qirqin qizlar qaradi.

Umidini uzib qaytdi kanizlar,
 Mast bo'lib boradi amaldor beklar,
 Barining sardori Shohiqalandar,
 Kecha-kunduz beklar yo'lni oladi,
 Uzoq yo'lni yaqin qilib boradi,
 Hammasidan Malikasi saradi[r].

Olmos boylab azamatlar dastiga,
 Qaramaydi beklar baland-pastiga.
 Necha muddat yo'llar tortib hammasi,
 Borib qoldi ul qirq devning ustiga.

Shovqinga irg'iysi arabi tulpor,
 Qirq dev edi Malikaga xizmatkor,
 Devlarning ko'ziga ko'rindi dilbar,
 Sherday bo'lib yo'lga chiqdi bu devlar.
 «Eshitmayik, — dedi,

— aning so'zini,

O'ldirayik Go'ro'g'lining o'g'lini,
 Qo'lga olsak Malikaday parini,
 Olib qochsak Qosimshohning qizini.
 Olib borib bersak jodu ko'zini,
 Shundayin haqlasak shohning tuzini,
 Boshqasiga qaramasak, jo'ralar,
 Olib qochsak Malikaning o'zini.
 Boshqasiga qaramayoq yo'Idoshlar,
 Olib qaytsak Malikaning o'zini.

Hiylagarlar Torkistonga borgandi,
 Ne zo'r devlar, ul bexabar qolgandi,
 Sinagarlar tayin urlab olgandi,
 Urlab olib qochib bunda kelgandi.

Dod aylasa, eshitmayik so'zini,
 Termultayik balki ikki ko'zini,
 O'ldirayik Avazxonning o'zini,
 Shuytib ob ketayik sarvinozini».

Bu so'zlarni aytib ul zamon devlar,
 Yaproq dev bularga bo'libdi sardor,
 Shu zamonda yo'liga chiqdi muqarrar,
 Yaqinlab kelgandi Avaz, qalandar,
 Sherday bo'lib turdi bunda bu devlar.
 G'irotni o'ynatib davlatli shunqor,
 Beklarning oldida bo'lgandir sardor,
 Ko'zini ochib qarab edi qalandar,
 Telpagi qayqaygan Shohiqalandar.
 Qalandarni ko'rib ul zamon devlar,
 Bunga qora ko'rsatmaklik ne darkor?
 Ko'zi tushsa tayin bizni o'ldirar,

Yo'lga chiqib bunda bizga nima bor,
Pastqam yerni olib qocha bering, devlar.

Bu qirq dev yo'lda turib, ko'zini ochib qarasa,
telpagi qayqayib, G'irotni minib Shoqalandar kela-yotir. Yaproq dev aytди:

— Mana bu kelayotgan Shoqalandar ekan. U bizlarni ko'rsa tayin o'ldirmay qo'ymaydi. Endi past yerni olib tayin qocha beringlar, qocha beringlar! Bizga Shoqalandarning oldiga chiqib Malikani ayirib olmoqni kim qo'yibdi, — deb kayfi uchib, xayoli qochib, panalab-havolab, goh ko'rinar, goh ko'rinnmas bo'lib, tura-tura qochib ketdi.

Lekin beklar bu devlarni ko'rmadi, o'z kayfu safosi, hangamasi bilan kelayotgan edi. Shuning uchun bu cho'lda zanglab yotgan yerda, dev borligi-yo'qligi eslariga ham tushmadi.

Bu devlar o'z ovuliga o'zlaridan o'zlar qochib yo'q bo'lib: «Unda qochmasang, bunda qoch» — deb toza qochib, Torkistonga ketdi.

Shunda beklar o'z kayflari bilan yo'l yurib, bir-birlari bilan gaplashib, chaqchaqlashib, tegishib so'z-lashib, yo'lda mast bo'lib kelayotgan edi. Shu yurganlaricha yo'l yurib, necha manzil mo'l yurib, qistab ela-yurta asta-asta, kela-kela yigirma to'rt shaharga ketadigan chorraha yo'lga yetdilar. Shunda Shoqalandar aytди:

— Ey beklar, bu yerga tushib damlarimizni olayik. Har qaysilarimiz o'z yurtlarimizga, o'z elatlаримизга ketadigan yo'lga keldik, otdan tushinglar, — dedi. Hammalari otlaridan tushib, ko'ngillari xush bo'lib, otlarning ayil-pushtanlarini bo'shatib qo'ydilar.

Shunda avval shahzoda Mahmudning Shoqalandarga aytgan so'zi shu:

Necha vaqt men ham qoldim xor-zor,
Yetti yil devlarga bo'ldim xizmatkor,

Otamday yaxshilik qilgan qalandar,
Men ketarman, jonim bobom, xo'sh endi.

Gap eshititing menday o'g'lon tilidan,
Ajratiб oldingiz devning qo'lidan,
Siz meni qutqargan yomon qo'lidan,
Mehribonim, Shoqalandar, xo'sh endi.

G'ariblikda mening holim bilgaysan,
Devlarning changidan xalos qilgansan,
G'ariblikda mendan xabar olgansan,
Mehribonim, jonim bobom, xo'sh endi.

G'arib edim, hojatimni bitkazgan,
Yomon kunda zolimlardan qutqazgan,
Xalos qilib murodimga yetkazgan,
Mehribonim, jonim bobom, xo'sh endi.

Harna desang, aytganiga ko'ndirgan,
Sensan parizodni menga endirgan,
Xafa edim, shodu xurram kuldirgan,
Mehribonim, jonim bobom, xo'sh endi.

Yaqin qoldi uzoq, tushgan kirdikor,
Zo'r qo'linga o'ldi ul necha devlar,
Keynimga mindirding gul yuzli dilbar,
To ko'rgancha, xon qalandar, xo'sh endi.

Men izladim o'ynab-o'sgan elatni,
Mindirib olganman bu parizodni.
Qayg'u-tuman, kulfat boshimdan ketdi,
Parizodman men qurarman suhbatni,
Omon bo'ling, bobojonim, xo'sh endi,
Eson bo'ling, tojdorim, xo'sh endi.

Sog'-salomat yana elga borarman,
Har zamon yodga olib duo qilarman,
Parizodman o'ynab, davron surarman,
Xalos bo'lib men ham qayg'uli kundan,
Shukrillio, elga ketib boraman,
Omon bo'ling, bobojonim, xo'sh endi.

Nasib etsa, bizlar elga borarmiz,
 Ota-oná, tengu to'shni ko'rarmiz,
 Keeha-kunduz sizni duo qilarmiz,
 Siz ham duo qiling, bobom, xo'sh endi.

Shoqalandar:

— Omon bo'l, olgin, oldirma, ushlaganing oltin, tishlaganing bol bo'lsin, bor, bolam, omin ollohu akbar! — deb fotihani betiga tortdi. Gulqizoyim Malika bilan qayta boshdan ko'rishib, so'rashib: — Taqdiri ilohi shul ekan. Men sizlarni xafalamadim, tegmayman desam, sizlar xafa bo'ladigan bo'ldinglar. Sizlar ham omon bo'lingiz, xush qolningizlar, — deb Shoqalandarga qarab ta'zim qilib, shahzoda bilan Gulqizoyim Shoqalandardan, Shozargardan, Avazxonadan duo olib, xo'shlashib yo'lga tushib jo'nab ketdi. Malikalar ham «omon bo'ling», deb ko'p yaxshi so'zlar aytib jo'natib yubordi.

Bular jo'nagandan keyin Shozargar ham jo'namoqehi bo'lib, beklardan javob so'rab, omonlashib bir so'z aytayotir:

Aqlimi olgandir gul yuzli dilbar,
 Yorning ishqini meni qildi qalandar,
 Men o'zinga laqab qo'ydim Shozargar,
 Uzoq yo'lga hamroh bo'lgan birodar,
 Hamdam bo'lgan mehribonim, xo'sh endi.

Jaso tortib yurdik uzoq yo'liga,
 Oshiq bo'lib Tillaqizzay pariga,
 Necha kunlar yurdik yorning elida,
 Shunday oyim tegdi Zargar qo'liga,
 Hamroh bo'lgan Shoqalandar, xo'sh endi.

Savash qildik Ko'klamtog'ning belida,
 Safardoshim, mehribonim, xo'sh endi.
 Maydon kunda G'irotningni o'ynatib,
 Ne devlarni, zarb ko'rsatib, yig'latib,
 Ish ko'rsatgan mehribonim, xo'sh endi.

Dod aylasa eshitmayin so'zini,
 Ko'kka otding zo'r devlarning o'zini,
 Borib oldik Oqdevshohning qizini,
 Birga yurgan mehribonim, xo'sh endi.
 G'ayrat qilgan qalandarim, xo'sh endi.

Qo'limga tekkandir bir mohi anvar,
 Menda bordir ko'shk-ayvon, manzillar,
 Qattiq kunda ish ko'rsatgan qalandar,
 Yori bergen mehribonim, xo'sh endi.

Shohasan der, men ham elga borarman,
 Elda qolgan beklar bilan yurarman,
 Har zamonda kelsam seni ko'rарman,
 Yori bergen mehribonim, xo'sh endi.

Necha vaqt yor deb jafo ko'ribman,
 Yaqin qoldi, elga bu kun kelibman,
 Bu yo'l bilan ketmoqchi bo'lib turibman,
 Mehribonim, qadrdonim, xo'sh endi,

Maydon bo'lsa sotar erding shirin jon,
 Olmosingdan mudom topding sharaf-shon,
 To ko'rguncha omonda bo'l, Avazxon,
 Endi elga qaytmoq bo'ldi Zargarxon.

Bu qalandar bobong senga mehribon,
 Ketib boshimizdan qayg'uli tuman,
 Endi sen ham omon bo'lgin, Avazxon,
 Mehribonim, qadrdonim xo'sh endi.

Tillaqiz der: — Elda davron surganmiz,
 Ikkovimiz do'st bo'lib birga yurganmiz,
 Jahonni sayr etib o'ynab-kulganmiz,
 Shodu xurram, jonim do'stim, xo'sh endi.

Qulq, solgin menday do'sting tiliga,
 Ko'p hiylani qilganman Torkiston eliga,
 Harchand qildim mening hiylam bo'lmadi,
 Oxir tushdim Zargarbekning qo'liga,

Biz ketarmiz endi Hurum eliga,
 Davron sursak bu beklar manzilida,
 Boshimizdan ketib qayg'uli tuman,-
 Bizni olib elga ketar Zargarxon.
 Sizga hamdam bu kun Avazday o'g'lon,
 Mehribonim, jonim do'stim, xo'sh endi.

Harna taqdir, yozilganin ko'rarmiz,
 Borishli-kelishli bo'lib yurarmiz,
 Bu so'zlarni aytdi menday gajakdor,
 Gapirgan so'zlarim mening bas bo'lar.
 Jo'namoqchi bo'ldi endi Shozargar,
 Malika bilan Tillaqiz xo'shlashar.
 To ko'rgancha, jonim do'stim, xo'sh endi.
 Qadrdonim, do'stim jonim, xo'sh endi.

Shozargar bilan Tillaqiz ikkovi omonlashib, xo'sh-lashib, Rum eliga qarab jo'nab ketdilar. Avazxon, Malika ayyor, Shoqalandar — uchovi bularni jo'natib, o'zлari bu yerda qoldi. Shoqalandar hech nima demay turibdi. Avazxon Shoqandardan bularday omonlashib javob so'tamoqqa ibo qilib turibdi. «Men ham javob so'tab ketaman desam, Shoqalandar «Malika ayyorni shuncha yo'lidan olib kelib senga beramanmi? Ketur bo'lsang, o'zing keta ber», — demasin, deb hadik olib, gapirolmay turibdi. Shoqalandar ham bulardan ayrilmay turibdi».

Shunda Shoqalandar:

— Yuring endi, bolam, ketayik, — deb boshlab, Chambilga qarab yura berdi. Avazxonning ko'ngliga keldi: — «Obbo bu bachchag'ar qalandar o'zining eliga qarab qaytmadi, yo'lda Malikani ko'zi qiymay tortib olib qo'ymasa yaxshi edi-da. Buning ustiga Asad mergan bilan Shodmon mergan ham bo'lmadi. Menga bu qalandar bir zarar qilayin desa, hamdamlashar edi, hay attang», — deb ko'p o'ylab kelayotir. Avaz bilan Shoqalandar kela bersin, Asad bilan Shodmon merganlardan eshiting.

Asad mergan bilan Shodmon mergan ikkovi Ko'kklamtog'ida yurgan edi. Merganlar qalandarlar Ko'kklamtog'dan devning makoniga ketgandan so'ng, maslahat qilgan edi: «Bizlar endi bu yerda turmayik. Bu yerda tursak bitta-yarimta devlarning qo'chib, pisib yurganlari bo'lsa, bizlarni o'ldirib qo'ymasin. Asti qochgan nomard, endi bundan ketayik. Avazning yo'lini to'sib yotayik. Avaz o'lmasa, bir kunlar Malikani olib kelsa, yo'lda Avazni o'ldirib, malikani biz olib keldik, deb Go'ro'g'liga aytayik. Avazni so'rasha, Avazxonni qaysi bir devlar yeb qo'ygandir, bizlarning xabarimiz yo'q deymiz» deb ikkovi shu maslahatni qilib, necha manzil yo'l yurib, horib-charchab, Darband tog'iga kelib, «oqsoqning oxiriga boq» degan ekan, deb shu Darband tog'ida birovi qo'liga ashrafi miltiq olib, birovi parli yoyni olib, Avazxonning yo'lini to'sib, tog'ning belida, yo'lning yoqasida ong'ib yotib edi. Shunda Shoqalandar bilan Avazxon Malikani olib, bularning tikka ustidan kelib qoldi.

Merganlar qalandar bilan ishi bo'lmay, Avazni ko'rib, o'rnidan turib, siyosat qilib Avazxonga: — To'xta, Avaz armon bilan o'lasan, — deb Shodmon mergan bu so'zni aytayotir:

Ajal haydab bu yerkarda kelasan,
Qazong yetdi, ushbu kunda o'lasan,
Kelib merganlarda duchor bo'lasan,
To'xta, Avaz, endi qayga borasan?

To'karman ko'zingdan selob yoshingni,
Ko'rmaq yo'qdir borib tengu tushingni,
Keyningdan tushirgin gul buvishingni,
Oxir qilay sening bunda ishingni!

Solarmiz boshingga qayg'uli tuman,
Bizdan qutulmaysan, Avazxon, omon,
Omon-eson sening ketmog'ing gumon,
Otib tashlar seni bunda Shodmonxon!

Seni choqlab bizlar bunda otarmiz,
Malikani bizlar olib ketarmiz.

Hayallama, sen Avazxon, o'lasan,
Rozi bo'lib Malikani berasan,
To'xta Avaz, endi nobud bo'lasan,
Kuning bitgan, bizga duchor kelasan.

Behuda qilmagin otga zulmdi,
Ko'rolmaysan borib Chambil elingdi.
Agar otsam armon bilan o'lasan,
Hayallamay Malikani ber endi.
Sening bilan ko'p jafoni ko'rganmiz,
Malika deb ko'p yerlarga borganmiz.

Bizga bergen Malika buvishingni,
To'karman ko'zingdan siylab yoshingni,
Qarg'a-quzg'un bunda yeydi go'shingni!
Bizga bergen Malika buvishingni,
Qilarman, enag'ar, sening ishingni.
Ajal haydab endi bunda kelasan,
Mendan sen qutulib qayda borasan,
Yoyni tortsam, tayin shunda o'lasan.
Asqar tog'ning boshin chalgandir tuman,
Bu so'zlarni aytar senga Shodmonxon,
Xabardor bo'l endi qara, Avazxon,
Senga yo'qdir bu yerlarda mehribon!

Ana shunda Avazxon merganlarni ko'rdi. Shunday qarasa, yoyni qo'liga olgan. Avazxonning ha, demoqqa holati qolmadı.

Otning boshini burib, keyiniga qaytgani ham bo'l-may qoldi. Juda shoshib, o'larini bilib, merganlarga hech nima deyolmay turib edi.

Shoqalandar bu merganlarning avzoyini ko'rib, merganlarga qarab siyosat qilib, bir so'z deydi:

Nodon ko'ngling har xayolga bo'lmagin,
Yomon kunni Avazzonga solmagin.

Mard bo'lsang, nomardning ishin qilmagin,
Qo'ygin endi, yo'lni to'sib turmagin!

Sen eshitgin qalandarning tilini,
O'ldirmagin Go'ro'g'lining ulini.
Sog'-salomat olib borsin yorini,
Omon-eson ko'rsin Chambil shahrini.

Beliga bog'lagan zarrin po'tasin,
Xudoyim kechirgay banda xatosin.
Sog'-salomat borib ko'rsin otasin,
Nima uchun buncha jonni sotasan?

Sog'-salomat elga borsin Avazxon.
Otasini borib aylasin xursand,
Nomardning ishini qilma, Shodmonxon,
Avaz o'g'lon ketsin bu yerdan omon.
Omon-eson olib borsin yorini,
Borib obod qilsin kirdikorini,
O'ldirmagin Chambilning qo'chqorini,
Borib ko'rsin elda qadrdon beklarini.
Kalima shahodat kelar tilimdan,
Yomonlik kelar merganlarning qo'lidan.
Balki umidingni uzgin joningdan,
Sog'-salomat ketolmaysan qo'limdan.

Bunday bo'lib yo'l ustida turmagin.
Keyin tur, Avazga daxl qilmagin.
Holing bilib to'g'ri yo'lga bora ber,
Avazning o'rniga o'zing o'Imagin,
Ket, merganlar, yo'lingdan qolmagin.
Ikkoving ham nega ahmoq bo'lasan,
Qazong yetsa, armon bilan o'lasan,
Ket, merganlar, bunda nima qilasan.

Bu so'zni Shoqalandardan merganlar eshitib, Shoqalandarga qarab, merganlar bir so'z dedi:

Hiylaman minibsan G'irko'kday tulpor,
Avaz deb oraga tushma, qalandar.

Armon bilan sen ham o'lma, ukag'ar,
 Ora tushib endi senga nima bor.
 Quloq solgin merganlarning tiliga,
 Bir kun bordik bizlar Chambil eliga
 Qayta boshdan bek Go'ro'g'li buyurdi:
 Xazon bo'lsa bog'da gullar so'lsin, deb,
 Ajal yetib paymonasi to'sin, deb.
 Avazxon kelmasisin, yo'lda o'sin, deb,
 Malikani mergan olib kelsin, deb,
 Avazxonning jazosini bersin, deb.
 Go'ro'g'li amr etdi, bizlar kelamiz,
 Malikani bizlar olib boramiz,
 Avazxonni bunda nobud qilamiz,
 Dushman ko'rsak, jazosini beramiz!
 Shuning uchun bizlar ko'zlab turamiz,
 Bu yerkarda harna bo'lsak bo'lamiz,
 Bizlar mergan, xon amrini qilamiz,
 Ko'rmagan kunlarni bunga solamiz,
 Malikani bizlar olib boramiz!
 Bu so'zlarni aytar senga merganlar,
 Ora tushib sen ham o'lma, Qalandar!
 Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'Imagin,
 Avazning tarafin bunda olmagin,
 Holing bilib sen ham yo'ldan qolmagin.
 Biling, bizlar — Asad mergan shakaman,
 Bu Avazga sira bermaymiz omon,
 Qo'limizda ketar gul yuzli jonon,
 Jonvorlarga yemtik bo'lar Avazxon.
 Oldim deb yoyni olib bul zamon,
 Go'ro'g'li amrini tutib bunda kelaman,
 Avaz bilan sen ham o'lding bu zamon,
 Endi sira bizdan qutulmaysan omon.

Shunda Shoqalandar: «Bu merganlar, otamiz, deb Avazxonning otini hurkitib yuborar, oti hurkisa Malika qiyin bo'lar», — deb merganlarga qarab, bir so'z dedi:

O'tar dunyo qiyomatni o'ylading,
 Qiyomat, deb sen joningni qiyndading,
 Shu so'zni menganlar, yolg'on so'ylading,
 Avazxonga muncha azob aylading,
 Necha shumlik so'zni sen ham o'ylading,
 Rostni qo'yib, yolg'on, lofni aylading.

Rostin degin, Chambil elga bordingmi,
 Chambil elda Go'ro'g'lini ko'rdingmi?
 Bu so'zlarni nega aytsin Go'ro'g'li,
 Sen bu yerga Chambil eldan keldingmi?

Xazon bo'lib bog'da gullar so'ldimi,
 Olloh uning aqli-hushin oldimi?
 Avazni o'ldir, deb javob berdimi,
 Shul sababli senday mengan keldimi?

Bu so'zlarni aytar menday qalandar,
 Rostin desam, endi o'lding menganlar,
 Nega bu so'zni aytsin Go'ro'g'li shunqor,
 O'z gapingdan endi bo'lding gunohkor.
 Bu so'zlarni aytib davlatli shunqor,
 Chilton bergen bunda ayyor libosin,
 Boshidan ko'tardi endi qalandar,
 G'irko'kning ustida Go'ro'g'li nomdor,
 Bildirmayin bo'lib yurgan qalandar,
 Ikki mengan bo'lib ketdi gunohkor.

Bu yurganning asli o'zi Go'ro'g'li,
 Hamma ishni qilgan edi Go'ro'g'li,
 Ko'p devlarning dodin bergen Go'ro'g'li,
 Avazxonga rahbar bo'lgan Go'ro'g'li.

Hech kishi bilmasin deb bo'lgan qalandar,
 Asli o'zi Avazxonga g'amguzor.
 Bu so'zlarni anglamayin menganlar,
 Ikkovi ham bo'lib ketdi gunohkor.
 Otasi ekanin Avazxon bildi,
 Otasin ishiga tabassum qildi.

Ot ustidan tashlab o'zin Avazxon,
G'irotning tizginin bo'yning ildi.

— Necha so'zlar bilan losni uribman,
Tanimayin ojiz bo'lib qolibman,
Yomon kunda bizga bo'lib mehribon,
Uzangiga boshin urib, Avazxon,
Har gunohim bo'lsa o'ting, otajon.
Uzoq, yo'lga birga safar qilibman,
Qalandar deb tanimayin yuribman,
Tavba qildim, otajonim,
O'ting mendan, madadkorim,
Qalandar, deb mag'rur bo'lib yuribman,
Baland-past so'zlarni lof uribman,
Balki sizga osiy bo'lib turibman.
Merganlarni men ham hamroh qilibman.
Nodonlikman bo'lib ketdi gunohkor,
Ko'p yo'llarda halak bo'lgan merganlar,
Shu yurtlarda birga yursa bachchag'ar,
Ular ham olardi gul yuzli dilbar,
Bir xayolga borib bo'ldi gunohkor,
Gunohidan o'ting davlatli shunqor.
So'z bergandir merganlarga jodugar,
So'z bermasa, merganlarda nima bor?
Qabul qiling Avazxonning so'zini,
O'ldirmangiz merganlarning o'zini,
Sog'-salomat ko'rsin o'g'il-qizini,
Sarg'aytmangiz sho'rliklarning yuzini.

Bir gap bilan bo'lib ketdi gunohkor,
Gunohin tiladim mendayin shunqor.
Merganlarning gunohini tiladim,
Merganlarga aytgan mening shartim bor.
O'g'il-qizim esga olib merganlar,
Bu so'zlarni yig'lab aytdi boyakbor,
Tasalli berib edi mendayin shunqor.
Xafa bo'lib edi unda merganlar.
Yuraging to'lmasin diydayi g'amda,

Sog'-salomat sizni Chambil elmasam,
 Mahshar kuni sening qo'ling yoqamda.
 Shunday menganlarga aytgan so'zimdi,
 Salomat ko'rasan o'g'il-qizingdi.
 Bu so'zlarni aytgan edim muqarrar.
 Gunohin tiladim mendayin shunqor,
 Qanday bo'lса, bo'lmasin-da gunohkor.
 O'g'li, qizi yo'ligadir intizor,
 Tiladi gunohin Avazday shunqor.
 Avazning so'ziga xursand bo'b nomdor.
 — Sog'-salomat bora bersin menganlar.
 Ota-bola topishgandir, muqarrar,
 Ostida o'yaydi qanotli tulpor,
 Avazga mingashgan Malika ayyor,
 Chambil eliga jo'nay berdi bu beklar.
 Ostida o'yaydi tulpor G'iroti,
 Gunohidan o'tdi Go'ro'g'li nomdor,
 Yaqin qoldi endi Chambil elati,
 Boshlab borayotir Go'ro'g'li nomdor.
 O'ynab-kulib Malikadayin dilbar,
 Otasi bilan birga Avazday nomdor.
 Shodu xurram yo'l tortadi boyakbor.
 Toy qilib dashtu dalasin,
 Ko'ring Chambilning to'rasin.
 Kechayu kunduz yo'l tortadi,
 Ko'rsak, deb Chambil qorasi.
 Xon Go'ro'g'li hamroh qilgan,
 Avazzondayin bolasin.

Yo'lda qichar bedov otdi,
 Beklar olgan parizoddi,
 Kecha-kunduz yo'l tortdi,
 Chambil elga yaqin yetdi.
 Polopon tog'idan o'tdi,
 Shuytib qildi g'ayratdi,
 Bu beklar qichab yo'l tortdi,
 Ko'rsak, deb Chambil yurtdi.

Ostidagi bedov oti
 Kunma-kun mo'ynin uzatdi.
 Yo'llarning tanobin tortdi,
 Beklar qildi g'ayratdi,
 Xon Go'ro'g'li yaqin etdi.

Jahon titrab bekning ovozasiga,
 Kelib qoldi Chambil darvozasiga.
 Bo'lib ketgan edi bundan qalandar,
 Yurtin so'ragan Yususbek shunqor,
 Malikani olib davlatli beklar.
 Qavatida Avazbekday zo'rabor,
 G'ulg'ula bo'b qoldi Chambilday shahar,
 Peshvoz chiqib qoldi necha amaldor,
 O'rdadan chiqdilar necha gajakdor,
 Yig'ilishgan katta-kichik ko'p qizlar.
 O'rdaga boshladi gul yuzli dilbar,
 Avazga mingashgan Malika ayyor,
 Otdan tushirib oldi necha parilar,
 O'rdada o'rtaga oldi sanamlar.
 O'rtada o'tirar Malika dilbar,
 Xizmat qilib yurar necha parilar.
 Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,
 Gulni ko'rsa mast bo'b sayrar bulbullar,
 Maloyik suratlari gul yuzli dilbar.
 Malikani o'rtaga olib shu zamon,
 Xizmat qilgan katta-kichi gajakdor,
 Saf bo'b turgan qancha vazmin xotinlar.
 Shunday bo'lib qoldi Go'ro'g'li nomdor,
 Poytaxtga minib shundayin beklar,
 Yurtni so'rab turgan Yusuf mahram bor,
 Yugurib-yelib xonga qildi xizmatlar.
 Kelib ko'rdi o'sgan shahrini,
 Obod qilsam, dedi kirdikorini,
 Avazzonga bermak bo'ldi bul zamon
 Olib kelgan Malikaday parini.
 Yig'ilishgan katta-kichiklarini,

Asabador, tug'dor, yasavullarini,
 Xon Go'ro'g'li buyurgandir,
 Qiling, degandi bugun to'yini.
 Endi Chambil elatlari,
 Qursin to'y asboblarini.
 Xon Go'ro'g'li amr qildi,
 Amaldorlar tayyor qildi.
 Anjomlarni sozlab olib,
 To'y asboblarin bajo qildi.

Ana endi shunday qilib, bularni shu so'zda quyib,
 endigi gapni Go'ro'g'lining Qalandar bo'lib Chambildan ketganini eshititing.

Xon Go'ro'g'li Avazxonni Malikaga yuborib edi. Avazxon Malikani olib kelaman, deb qasam ichib qo'yanini ko'rib, noiloj javob berib qo'yan edi. Avazxon jo'nab ketgandan so'ng Go'ro'g'li aytdi: «Avazxon bu Malikani olib kela olmaydi, shu yurda o'lib ketadi. Buning orqasidan o'zim bormasam bo'lmaydi», — deb Chambil yurtni Yususbek degan mahramiga topshirib, o'zi hech kimga bildirmay, Avazning orqasidan qalandar bo'lib ketgan edi. «Avaz devlarning qo'lida o'lar, g'aribu go'riston bo'lar, Torkiston uzoq mamlakat, unda ko'p katta devlar bor, Avazxon qasam ichib ketdi», — deb Go'ro'g'li bir kuni chiltanlarning oldiga borib, chiltanlardan duo olib, otini Shoqalandar qo'yib — qalandar bo'lib chiqib ketgan edi. Buning siridan hech kim voqif emas edi. Shunday qilib, Avazxon bilan birga yurib kelayotgan edi.

Ana shunday qilib, merganlarning oldiga kelganda, aytmayin desa ham, bo'Imagani uchun Go'ro'g'li o'zini bildirgan. Merganlar Go'ro'g'lini ko'riб qochib, sharmanda bo'lib ketdi. Bularning orqasidan Avazxon Go'ro'g'li otasi bilan shodu xurram bo'lib, topishib, dimog'i choq bo'lib, «Menga hamroh bo'lib yurgan otam ekan, men boshqamikan, boshqa odamga me-

ning sirim ma'lum bo'ldimikan, deb ko'p o'yda edim», — deb Go'ro'g'lini ko'rib, vaqtı xush bo'lib, birga-birga Chambilga keldi. Bu beklarning kelayotganini meraganlar aytgan edi.

Chambil elning hamma akobir, amaldorlari bularning oldiga peshvoz chiqib, omon-eson yurtiga, o'zining unib-o'sgan elat-beklarining oyimlari, xotin-qizlari bilan Malika ayyorni tushirib olib, o'rdaga olib kirdilar. Bir-birovlari bilan ko'rishgan, so'rashgan, hol-ahvollarini bir-birovlariga aytishgan. Shunday shodu xurram bo'lishib, oyimlar o'tirdi.

Go'ro'g'libek o'z shonu shavkati bilan o'g'lining poytaxtiga chiqib, omon-eson o'z borgohida o'tirdi. Shunda Go'ro'g'libek Malika ayyorni Avazxonga bermoqchi bo'lib, Chambil elining hamma katta-kichiklari: «Malika ayyorning to'yini tayyorlanglar, Malikani Avazxonga nikoh qilib berayik», deb buyurdi. Hamma beklar to'y asbobini tayyorladi.

Shu ishni qilib Go'ro'g'li nomdor,
 To'rt yarim lak bedov suvor amaldor,
 Necha beklar bo'lib yotir xizmatkor,
 Har zamon buyurar Go'ro'g'li qaysar.
 Aytganini tayyor qilar mahramlar,
 Obod bo'lib qoldi Chambilday shahar,
 To'y boshlamoq bo'ldi bundayin beklar.
 O'zbekiston elga ketgandir xabar,
 Katta-kichik yig'ilgandir o'zbeklar.
 Oltin otib, oltin qovoq otdirib,
 To'y bermoqchin endi uloq choptirib,

 Oshiq fahmi ogshom kecha,
 Holin bilmaydi bir necha,
 Yig'ilishgan satta norcha,
 Ko'pkariga talab qilib,
 O'n ikki mingcha boyvachcha.
 Sanab ko'rgan odam yo'qdir,
 Taxminan o'n ikki mingcha.

Ko'pkari chiqarmoq bo'ldi,
 Saf turgan bekvachcha.
 Ust-ustiga tashlab turar,
 Ko'sam sarka, olapocha,
 Chopaverdi qirq kungacha.
 Ne go'zallar otni solib,
 Har zamon uloqni olib.

Eshiting beklar ohu zorini,
 Obod qildi kelib Chambil shahrini.
 To'y lab bermak bo'ldi Avaz o'g'longa,
 Ul zamonda Malikaday parini.
 Shu ishlarni qildi Go'ro'g'li shunqor,
 Yig'ilishib kelgan yoshu qarilar,
 Qirq kecha-qirq kunduz to'y qilib beklar,
 Bo'layotir turli-turli bazmlar.
 Bazmlari ko'p qiziqlar,
 Qirq kun to'y qildi beklar,
 Tolib qoldi malikalar, bu bellar.
 Og'rib qoldi uning nozik bellari,
 Hofizlarning qurib qoldi tillari.
 Bek Go'ro'g'li shuytib daryoday toshdi,
 Shu to'yning bayrami haddidan oshdi.
 Har qilgan ishlari juda yarashdi,
 Unga qaragan ko'z qamashdi.
 Bol Avazning olib kelgan yorini,
 Ko'rgan suluv bari ofarin deyishdi.
 Qoyil bo'lib Avazxonning ishiga,
 Hech kami qolmadi, deb tarqashdi.
 Shohlar chiqsa tortar nuqra karnayni,
 Tuzaydi unga munosib joyni,
 Xizmat qilib qo'li ishga tekkanga,
 Bek Go'ro'g'li berdi katta sarpoyni.
 Olib kelib bu maydon katta qozini,
 Chuvillatib ovulning xotin-qizini,
 To'yda duo qilib, ishni bitirib,
 Nikoh qildi Malikaning o'zini,

Ana endi bunisi ham bo'ldi, deb
 Qo'yniga soldi-ku Avaz qo'zini.
 Bek Go'ro'g'li katta qildi himmatni,
 Shu to'yda o'zini juda talatdi.
 Har kim niyatini shunday oq qilsa,
 G'ayrat bilan, ko'ring, murodga yetdi.
 Tiladi, yomonlar yo'q bo'lar ketar,
 Yaxshi to'g'rilik bilan maqsadga yetar.
 Yomonlik bilan hech kim hech nima bo'lmaydi,
 Axiri, yoronlar, to'g'rilik o'tar.
 Yomonlikning hech elda yo'q rivoji,
 Harna desa, to'g'rilik bilan bitar.
 Bek Go'ro'g'li shuytib o'tgan olamdan,
 Qilgan ishin hali odamlar yod etgan.
 O'zi o'lsa ham so'zi qoldi jahonga,
 Qiyomatga davr buni yod yetar.
 Har kim bo'lsa, to'g'ri bo'lsa, yoronlar,
 To'g'ri odam xor bo'lmas, murodga yetar,
 Yomon ko'rар yomonlikning jazosin,
 Axiri shu ish boshiga yetar.
 Uning yomonligini birov tortmaydi,
 Yomonligi bilan yo'q bo'lar — ketar.
 Ko'rdingizmi, Asad bilan Shodmondi,
 Yo'q qilamiz, dedi Avaz o'g'londi,
 Baxillik qib, poylab shunday polvondi,
 Qoyil qilarmiz, deb Go'ro'g'li xondi.
 Ishi nohaq edi uni, ko'rdingmi,
 Shu turishi o'lгandan ham yomondi.
 Doim egan Go'ro'g'lining tuzini,
 O'lгuday dushman bo'b Avaz qo'ziga,
 Xudoy martaba bergan Avazga,
 Asad, Shodmon qaytib olar o'ziga?
 Moxovday bo'b bir burchakda o'tirar,
 Qaray olmay Go'ro'g'lining yuziga.
 Dushman bo'lган bilan teng bo'b qolarmi,
 Barobar bo'lолmay Avaz iziga.
 Avaz uning qilganin ish demay,

Xizmatkor, deb teng ko'rmaydi o'ziga.
 Qasd bo'lib Avazxonni ne qildi?
 Munkir kelib Avazxonning tuziga,
 Qancha yomonlikni qildi o'ziga.
 Qirq yigit ham o'lib yurar barisi,
 Ichidan qoyil bo'b Avaz qo'ziga.
 Xoldor mahram o'n yigitman quvonib,
 Yerga urib qo'shadi har bir so'ziga.
 Polvon Avaz gapirma, deb, qo'y, dedi.
 Bir gaplarni loyiq ko'rmay o'ziga.
 Ahmad sardor o'lib qoldi sirrayib,
 Yorug' dunyo qora bo'lib ko'ziga.
 O'lganidan ha-ha, deydi, kuladi,
 Qozonkuya surtganday bo'b yuziga.
 O'lganidan Avaz toza o'g'il, deydi,
 Hech kim qulq solmay buning so'ziga.
 Yaxshilikman Avaz yetdi murodga,
 Mindi doim nazarkarda G'irotga.
 Quvonmagan elda odam qolmadi,
 Ahmad doim yomonlik qib ne qildi?
 To'yda o'layin deb yurar uyatga.
 Bek Go'ro'g'li nazarkarda polvon-da,
 Bolasini yetkardi shunday maqsadga.
 Shuytib, men to'yni endi tarqatib,
 Dostonini baytlarman o'xshatib,
 Shu yerga kelganda doston sop bo'ldi.
 Do'stimni siyladim, dushmanni qaqshatdim,
 Qo'limman bittim-da, og'zimman aytdim,
 Qissani ushbu kun tamom etdim.

Ana endi shunday qilib, Avazxon bilan Go'ro'g'li sulton Torkiston yurtiga borib, Rum elining podshosi Shozargarga Tillaqiz oyimni olib berib, yurtiga jo'natib yubordi. Shahzoda Mahmudga Gulqiz oyimni olib berib, bu ikkovining vaqtini choqlab, o'zlari omoneson Malika ayyorni Chambilga olib kelib, Malika ayyorni Avazxonga qirq kun to'y-tamosha qilib,

nikohlab berdi. Chambil yurtida Go'ro'g'li sulton vaqtilarini xushlab, dimoqlarni choqlab, shodu xurram bo'lib, o'zining poytaxtiga o'tirib qoldi.

Do'stlar shod, dushmanlar g'amli bo'lib, Asad, Shodmon sharmanda bo'lib uyalib qoldi. Bularning uyalganini Avazxon, Go'ro'g'lixon biladi. Nima ishlar yo'lda bo'lganini boshqa qirq yigitlar bilmaydi. Bu ikki merganni Go'ro'g'li sulton o'ldirar edi. Go'ro'g'-li sultondan Avazxon yo'lda so'rab tilab oldi. Shuning uchun bularning gunohini o'tdi.

Ana shunday qilib, Go'ro'g'li shodu xurram bo'lib poytaxtga chiqib, arkoni davlat bilan o'ynab-kulib, dunyoda yashab yura berdi. «Malika ayyor» dostoni sob bo'lib, murod-maqsadga yetdi.



SHOHDORXON

(dostoni)

Aytuvchi: *Usmon Mamatqul o'g'li*

Yozib oluvchi: *Mansur Afzalov*, 1937-yil

Ilk bor nashrga tayyorlovchi: *Tilovqul Ashurov*

Qayta nashrga tayyorlovchilar: *Mamatqul Jo'ravev,*

Zebiniso Rasulova

Go'ro'g'li Chambilning sohibi bo'ldi. Bu xalq uni o'ziga xon ko'tarishib oldi. Go'ro'g'lining xon bo'l-ganini eshitib, har qishloqning kattalari o'zlarini sarkardalarga loyiq ko'rib, Go'ro'g'lining qoshida bekorchi oshxo'r ming sarkarda paydo bo'ldi. Go'ro'g'-lining G'iroti bilan o'zining dong'i har tarafga mashhur bo'ldi. Go'ro'g'li o'ttiz besh yoshga borganda Ko'hi Qof – Bog'i Eram podshosining qizi Og'a Yunus pari uning dong'ini eshitib: «Qaray-chi, kanday kishi ekan?» deb Chambilistonga uchib keldi. Go'ro'g'lining qaddi-qomatini ko'rib, ishtiyoqiga ishqivoz bo'lib tegdi. «Ko'hi Qofdan bir pari kelib Go'ro'g'liga tekkanmish» deb eshitib, Isfihondan Misqol pari, qirq yoshga kirgan Go'ro'g'liga kelib tegdi. Go'ro'g'li qirq besh yoshga borganda Ko'-histondan Gulnor pari kelib tegdi. Go'ro'g'li paridan uch xotin oldi. Yoshi ellikka yetdi, bola ko'rmadi. Odamzoddan to'qqiz xotin oldi, bola ko'rmadi. Yoshi oltmishtga borganda Karkiston dan Xoldor deganning o'g'lini olib qochib keldi.

Hasanxонни bosh o'g'lim dedi. Har bir mammakatlarga borsa, ko'cha-ko'yda ko'ziga botir bola ko'rinsa, olib qochib kelib, o'g'il qilib olishni odat qildi. Qirq o'g'il qilib oldi. Bularni tarbiya qilib, katta qildi. Bularga ot-anjom,sovut, yaroq-jabduq, nayza-qilich

tayyorlab berib, boqib olgan qirq o'g'lini yigit qilib, ovini ovlab, dala yerlarning davrini surib o'taverdi. Qachon Go'ro'g'li ovga chiqar bo'lsa, qirq yigitni otlantirib birga chiqardi. Go'ro'g'liga chet taraflardan dushman kelmas edi. Har kun ming sarkarda xonni o'r dasiga ko'rgani ko'rrikka erta bilan kirar edi. Ish qiluvchilar xat ishlari bo'lsa yozib o'tirar edi. Bir ming sarkarda xon bilan o'tirgan edi, shunda Go'ro'g'lining diliga bir so'z keldi. Kosaguldan bir kosa gulob talab qildi. Kosagul xon qo'liga bir kosa gulob keltirib berdi.

Bunda Soqibulbul sayis chaqirdi. Soqi o'rnidan turib, otasining qoshiga bordi. Go'ro'g'li qo'llidagi kosani Soqiga berdi. Soqi kosani olib poygakka o'tdi. Kosani ichib, bo'shatib, yana otasining qo'liga qo'sh-qo'llab keltirib berdi. Yana poygakka borib ta'zim qilib dedi:

— Ey qiblagohim, men kaminani nima xizmatga loyiq topib nazarga oldingiz? Buyuring, tanimda joni bor, bajonidil xizmatingizni qilaman.

Go'ro'g'li aytdi: — Ey farzand, to'laxonada besh yuz arg'umoq otlar yotibdi. Bir yildan buyon ko'k yegan emas. Shu otlar abgor bo'ldi. Yoz havosi tog'lar salqindir. To'rt-besh sayisni o'zingga hamroh qilib, shu otlarni haydab, besh-o'n kun bir ko'klatib kelsang. Soqi bu xizmatga o'zini mutasaddi qildi. Yetti sayisni o'ziga hamroh qilib, besh yuz otni haydab Chambilni cho'liga chiqdi. O'rtabel adirdan ham o'tdi. Hovdakning ko'liga yetdi. Ul sayislar bilan otlarni Hovdakka tashlab, adir-qiyalarni o'zi aylanib o'tlov yer qidirdi.

Yana qaytib sayislar oldiga keldi: — Ey sayislar, adir, qiya, cho'li ko'l, tog'larni kezdim. Hovdak ko'lidek o'tlov joyni topmadim. Hovdak ko'lda qamishzor, yana yemakka o't serob, ichmakka buloq serob, ko'lankali daraxt serob, havosi yaxshi ekan. Otlar beozor boqiladi. — deb yilqichilarga shu yerni tayin qildi. Tepaning ustiga chiqib yotar qo'shlarini,

qozon-idishlarini tayyorlab, yilqichilar ovqat harakatini qildi. Shu turganicha olti oy turib qoldi. Olti oydan keyin Soqi yilqichilarga buyurdi:

— Yilqilarni haydab chiqinglar, ko'raylik-chi ne darajaga yetdiykan?

Yilqichilar otlarni to'plab, tepaning tagiga olib keldi. Soqi otlarni ko'rib xushvaqt bo'ldi.

— Otlar yaxshi to'libdi, ko'ngildagidek bo'libdi. Xon ko'rsa ko'rgudek bo'libdi, qilgan ishimiz xonga manzur bo'lguudek bo'libdi, har qaysimizga yaxshi in'om qilgudek bo'libdi. Otlarni haydab boraylik, otamga ko'rsatib in'omini olaylik. — deb G'irotni ushladi, egarlab ustiga mindi. Soqi otda tepaning ustiga chiqib atrofdan yo'l qaradi: — Ey yilqichilar, kuz havosi bo'lsa ham kun issiq ekan. Otlar yaylovda o'sallab qolmasin. Qaysi yo'l serdaraxt salqin bo'lsa, shu yo'l bilan haydab ketaylik, — deb atrosga qarab turib edi. Asqar tog' ustidan chang ko'rindi. Soqi yilqichilarga:

— Ey yilqichilar, Asqar tog' ustida lashkar ko'rindi. Bu tepalarda lashkar yo'q edi. Ehtimol dushman bo'lsa, sizlar otlarni jilg'a ko'cha bilan adir qiyasidan haydab, tezlik bilan sayisxonaga yetkazinglar, bu otlar yov qo'liga tushib qolmasin. Men sizlar bilan birga ketsam, otamga dashti Chambilda lashkar ko'rdim desam, bir kishini yuborib xabar oldirsa, kishi chiqib xabar olguncha, bu lashkar boshqa tarafga o'tib ketgan bo'lsa, «yo'q ekan» deb otamga borib aytса, mening so'zim yolg'on chiqmasin. Men sizlardan ajrab, shu lashkarning yo'liga borayin, kim ekanin ko'rayin, qayerdan kelib, qayerga borishini bilib, otamga aytayin, — deb yilqichilarni jo'natdi.

Bular jilg'a ko'cha bilan otlarni haydab, Chambilda qarab ketdi. Soqi G'irotning ustiga minganicha alamdlorlarning yo'liga chiqib bordi. Ko'rdiki, bir ajib g'ayri xalqlar. Bularning mingan otlarining kattaligini ko'rib Soqi hayron bo'ldi. Har qaysilarining boshla-

rida dubulg'a, kiyganlari po'lat sovut, har qaysisining belida tilladan charm-kamar bog'langan. Bellarida kamar, qilich ham xanjar, atroflariga ham hamoyil qilgan. Nayzayi jonistonni yelkasiga solgan. Bular o'ngu so'l so'zlab kelayapti. Bularning haybat-salovati, yana qaddi-qomatini ko'rib Soqi hayron qoldi. Bu mamlakatda Go'ro'g'liday basavlat kishi yo'q edi. Bularning eng pakanasiyam Go'ro'g'lidan basavlat ko'rindi. Soqi bularga qarab bir so'z dedi:

Bu dunyoda ko'pdir insonning soni,
 Bu dunyoning hech jonga yo'q poyoni.
 Ot o'ynatib qaysi yerdan kelasan,
 Aslzodam, aytgin, kimning dushmani?
 Ostingda arillab o'ynaydi oting,
 Boshda toju egningda po'lat sovuting.
 Men so'rayman asling qaydan kelasan,
 Yo'l yurmoqdan nadir sening maqsading?
 Belingda kamardir, qilichu xanjar,
 Ham nayza qo'lingda, tutganing sipar,
 Seni ko'rib dilim bo'ldi gumondor,
 Siring aytgin, yo'l bo'lsin dushmanlar?

Endi u tarafdan eshititing:

Oshib o'tdim olti dovon Oloydan,
 Zabon topay go'yo tili tanglaydan.
 Seni ko'rdim bugun bizga yo'l bo'ldi,
 Biz kelamiz Shohdor eli — Saroydan.

Botir kishi yovdan qaytmas o'lguncha,
 Saroyning ulug'i Shohdorshoh podsho.
 Bizni elchi qilib Chambil yubordi,
 Yo'ldoshim yo'lovchi Chambilga boshla.

Bizga ko'rsat Taka-Yovmit elini,
 Tutib bog'lasak Go'ro'g'lining qo'slini.
 Boshin kesib, talab Chambil elini,
 Opketarmiz bol Avazday ulini.

Soqijon oh tortib, ko'zin yoshladi,
Tavakkalni haq o'ziga tashladi,
Otamni saqlagay qodir xudo deb,
Elchilarni Chambil qarab boshladi.

Changu tuman qildi Chambil dash[t]iga.
Yoqasi ho'l ko'zdan oqqan yoshiga,
Aqli yetmas tez dushmanlar ishiga,
Peshin vaqt yo'l boshchi bo'p bularga,
Namozgarda yetdi dala-dash[t]iga.

Bular borib to'xtadi. Darvoza ochiq edi. Lashkar qorasini ko'rib darvozani tortib qo'ydi, darvoza qoshida turib qoldi. Chambilning chor atrofi adir edi. Qal'a-qo'rg'on devori adir ustiga urilgan edi. Chambilning chorusu bozoridan o'ttiz ikki tarasga yo'l chiqargan edi. O'ttiz ikki yo'lning boshiga darvoza qurilgan edi. Ul elchilar chor atrofdagi darvozalarni ko'rdi. Shaharning o'zi chuqurlik ichida edi. Bir do'ppiday qishloq ko'rindi. Ul elchilar darvoza, qal'alarni, shaharning ahvolatini ko'rib, masxara qilib kular edi. «O'zi bir oz qishloq ekan, shahar tartibida qal'a-qo'rg'on qilib qo'yibdi» deb ermaklar edi.

Bunda Soqiga qarab elchilar aytdi: — Ey yo'lovchi, bu nima qishloq?

Soqi aytdi: — Saroy eldan, yetti oychalik yo'ldan orzu qilib kelgan Chambillaring shudir. Elchilar aytdi:

— Ey yo'lovchi, odammisan, ozitqimisan? Bizni ozdirmagin, biz yo'l azobini ko'p tortib kelganmiz. Bizga boshqa qishloqni Chambil deb ko'rsatayapsan. Bizni Chambilni o'ziga boshlagin. Saroyda yetti hokim, Shohdor boshliq hammalari bir yerga jam bo'lib, Chambilni tavsif qilishgan. Go'ro'g'lining qoshida to'qson to'qqiz tug'dor, sakson sakkiz sardor, yetmish ikki jig'ador, o'ttiz ikki darvozada qozi, hokim, o'ttiz ikki muhr dor so'roq qilib turadi, degan. Shuncha amaldorlar so'ragan Chambili shumi? Ko'p bo'lsa uch yuz uyli bo'lmasa, ikki yuz uyli ekan. Qaydan,

qirg'izdan qochib chiqqan yangi chekni bizga Chambil deb ko'rsatasan. Bizni ovora qilmay Go'ro'g'li so'rigan Chambilining o'ziga boshla, — dedi. Bunda Soqi aytdi:

— Go'ro'g'lining so'rigan Chambili shudir. Boshqa Chambil bo'lса men bilmayman, — dedi.

Elchilar aytdi: — Shu Chambilga kirsak Go'ro'g'-lining o'zini ko'rsatib qo'yasanmi? — dedi. Soqi:

— Ko'rsatib qo'yaman, — dedi. Yana Soqi so'radi:

— Azbaroyi yovmisan, yo elchi?

U vaqtida elchilar aytdi: — Bizning podshomiz Shohdor yetti hokim ichidan bahodir pahlavonlardan tanlab, Go'ro'g'lining ustiga yuborgan. Go'ro'g'li umrbod yurtdan olgan boj — xirojini bizga bersin, Avazxon o'g'lini ham yuborsin. Ul yurtning hokimi bo'lib tursin. Agar bu so'zga amal qilmasa, qo'lini bog'lab, yuragini dog'lab, Go'ro'g'lining boshini kesib, Avaz o'g'lini tutib, yurtini talab kelinglar, — degan. Bizning yonimizda elchilik nomamiz bordir, — dedi

Soqi bu so'zdan ogohlandi. Darvozabonga qarab aytdi:

— Ey darvozabon, bular yov emas, elchi ekan. Bularga yo'l bermog'ing yaxshidir, darvozani ochgil!

Darvozabon darvozani ravon ochib qo'ydi. Soqi yo'l boshlab, shaharga qarab yurdi. Chambilning har bir ko'chasidan kirgan kishi shaharni o'ttiz ikki marta aylanmasdan o'rta bozorga yetmas edi. Namozgarda kirganicha tuni bilan yo'l boshlab, tong otdi. Kun quloch bo'yи chiqqanida Go'ro'g'lining sirtqi o'rda darvozasiga yetdi. Uch moy ostonadan o'tib, Go'ro'g'-lining huzuriga yetar edi. Darvoza ochiq edi. Jamiki sarkardalar xonning oldiga ko'rikka kirgan edi. Bu lashkarni ko'rib, darvozabon darvozani bekitdi.

Soqi aytdi: — Ey elchilar, xonning oldiga beijozat kirmoqqa yo'l yo'qdir. Kimki xonni oldiga kirma ijozat oladi. Xonning oldida bir ming sarkarda, amaldorlari

bordir. Tuyqisdan kirib bormanglar, amaldorlar, qilich-andozlar, nayzadorlar sizlarni oraga olib, jang mag'luba bo'lar, obro'laring ketadi. Menga elchilik nomangni bergin, xonga olib kirib ko'rsatay. Sizlar shu yerda turinglar. Xon nomalariningni o'qitib elchiliklaringni bilsa, ulug'lar tartibida elchiga ozor yo'qdir, sizga joy tayin qilar. Bunda hurmatlaring joyida bo'ladi. Bu Soqining so'zi elchilarga xush keldi. Elchilar aytdi:

— Ey yo'lovchi, o'zing oqil kishi ekansan, ulug'lar tartibini yaxshi bilar ekansan. Bu nomani olib kirib xonga bergin. Go'ro'g'li bizning zo'rligimizni bilsin, o'tirgan bo'lsa tursin, tanasiga gapini o'ylab chiqsin, bizning yo'limizni xushlab chiqsin, Avazni tuhsa qilib, qo'llidan ushlab chiqsin. Shu nomaga amal qilsa elchi dermiz, agar bu nomaga amal qilmasa, bilmasa, bildirgusimiz, — deb Soqining qo'liga nomani berdi. Soqi darvozabonga: Men kiray, yana eshikni bekitib qo'y, bular kirmasin, — dedi. Darvozabon eshikni qiyalab Soqini o'tkazib yubordi. Elchilarni kirdizmay, tag'in darvozani bekitib oldi. Soqi otasining oldiga kirib bordi. Olti oydan beri otasini ko'rmagan edi. Go'ro'g'li dilida «Soqi olti oydan beri kelmadi» deb turar edi. Soqi poyostonadan o'tib, otasiga ko'zi tushdi. Salom-javobga nafasi chiqmay, o'pkasi to'lib, otasiga ta'zim qildi. Go'ro'g'li ko'rdiki, Soqi yig'lab turibdi.

Bunda Go'ro'g'li Soqiga qarab bir so'z dedi:

Oltoy bo'ldi, bolam, qilding xizmatim,
O'ylab tursam ichka sig'mas hasratim.
Men o'lmasdan nega ko'zing yoshladim,
Nimadan kam etdi seni davlatim?

Xon Go'ro'g'li deydi mening o'zimni,
Farzand dog'i sarg'aytdi gul yuzimni,
Men o'lmasdan yoshlamagin ko'zingni,
Qanday dushman xor ayladi qo'zimni?

Shunda Soqi bir so'z dedi:

Yilqi boqib qaytdim Hovdak ko'llimdan,
O'lim vahimin unutmasman dilimdan,
Kelarimda keng Chambilning cho'lindan,
Bir yuz oltmis dushman chiqdi yo'lidan.

Dushmanlarni to'sib chiqib yo'lidan,
Kelar joyin, borar yo'lin so'radim.
So'z aytarman guyo tili tanglaydan,
Jumla jonlar pano tilar xudoydan,

Bu dushmanlar javob berdi so'zimga,
Elchi kepti Shohdor eli Saroydan.
Yilqi boqib yurdim turkman ustida,
Dushman duchor bo'ldi adir pastida.
Bu dushmanni borar joyin so'rasam,
Kelgan ekan Chambilingni qasdida.

Menga duchor bo'ldi Chambil dashtida,
Qo'lda qilich savash qilmoq qasdida,
Olib keldim bu dushmanlarni boshlab,
Sanjob bo'ldi sirtqi o'rda qoshida.

So'rab bildim, dushman ekan zotini,
Mo'minga solmasin dushman otini.
Sirtqi o'rda darvozasida qoldi,
Olib keldim elchi noma-xatini.

Bu so'zni Soqi otasiga aytib ul xatni otasining
qo'liga berdi. Mirzalar xatni o'qib ulug'larga bildirdi.
Go'ro'g'li sarkardalarga nazar solib, bir so'z dedi:

Yurtga hokim bo'ldim o'ttiz yoshimda,
Doim o'ylab, g'amu savdo boshimda.
Bu dardimni kimga aytib so'ylayin
Bir ming jig'ador sarkarda qoshimda.

Yoshligimda haq olmadi jonimni,
Mashhur qildi bu dunyoda sha'nimni.
Bu xizmatni kimga loyiq topaman,
Beoriyat beklar kiydi to'nimni.

Ichga sig'mas o'ylab tursam hasratim,
 Bir kuncha bo'ljadi ko'rgan davlatim.
 Menda yo'qdir ini-og'a, er, o'g'il,
 Qilar edi dushmanga oriyatim.

Beo'g'il banda bilmas holini,
 Haq saqlasin Go'ro'g'lini elini.
 Oldimda bor bir ming nomdor, amaldor,
 Bu turganlar bilmas dushman tilini.

Iynimda bordir meni chem sadog'im,
 O'lguncha ketmaydi ko'ksimda dog'im,
 Kel oldimga, Avaz o'g'lim chirog'im,
 Sen, dushmanga tutar o'tkir yarog'im.

Avaz, bolam, meni joni dilimsan,
 Dilim ochar ham go'yo bulbulimsan.
 Nasling bilsam boqib oldim yoshlikdan,
 Men o'lganda sen merosxo'r ulimsan.

Er yigitlar, suluv qizlar yo'ldoshing,
 Men tirikman, xor bo'lmasin bu boshing.
 Bu xizmatni o'zing qilg'il, jon bolam,
 Ota gapi kepti, qo'zim, tildoshing.

Bu xizmatni bol Avaz o'ziga loyiq topib, o'rnidan turdi. Ta'zim qilib, otasining oldidan chiqib ketdi. O'zining uyiga kirib, usti-boshini kiydi. Simsori telpakni boshiga kiyib, kokilini ikki tarafga tashlab, tilla hasasini qo'liga ushlab, otasi turgan o'rdaning darvozasidan chiqib, bundan o'rta darvozadan ham chiqdi, elchilar turgan darvozaga yetdi. Darvozaning bir qanotini ochib, elchilarga qarab turdi. Elchilar Avazni ko'rib, qaddi-qomatiga, husni-sifatiga, qurayday ko'ziga, gulday yuziga qarab tahsin-ofarinder edi.

«Shunday ham chiroyli o'g'il bo'lar ekan», deb Avazning jamoliga hushlari ketdi. Yarmining og'zi o'lgan o'likday anqayib, og'zi ochilib qarab qoldi.

Qolganlari bir nechasi ko'kragiga urib, Avazga xushomad qilardi. Avaz bularga qarab bir so'z dedi:

Musofirman doim oqar ko'z yoshim,
Kecha-kunduz g'am bo'ldi yo'ldoshim,
Xush kepsizlar bu Chambilni shahriga,
Keng saroylik ham elchilar tildoshim.

Chambilga kelganman men to'rt yoshimda,
G'am savdosi doim hamroh boshimda.
Yoshligimda kelgan edim Chambilga,
Mirg'azablar doim mening qoshimda.

O'n bir yil tortdim jabri alamni,
Sog'inaman otam bilan enamni.
Ketay desam Xunxor yo'llin bilmayman,
Dog'lab o'tdim doim gulday tanamni.

Yuringlar ko'rsatay Chambil yo'lini,
Bog'lab beray Go'ro'g'lining qo'lini.
Meni billa opketinglar, og'alar,
Ko'rsatib qo'yinglar, Xunxor yo'lini.

Chidamayman ko'rgan jabru alamga,
O'tlar yoqar musofirlik tanamga.
Sizlar bilan birga ketsam Saroya,
Shoyad borsam otam bilan enamga.

Bul elchilar Avazning so'zini eshitib, shodu xurram bo'ldi, qah-qah urib kului. Bizning g'amimiz «Chambilning pasti-balandini bilmasak, qanday qilib Chambil yo'lini toparmiz» deb turuvdik. Mana bizga Avaz yo'lbo'shchi bo'ldi. Bu bechora[ga] musofirlik alami yomon o'tib, yoshlikda kelib, ota-enasini sog'i-nib, yurtining yo'lini topib ketolmay yurar ekan. Mana bizni o'ziga himoyat qildi, biz bilan birga ketishga va'da qildi. Bizning ishimiz oson bo'ldi. Avazni sababi bilan Chambil qo'lga kirar ekan. To Chambil bizga musaxxar bo'limguncha Avazning aytadigan so'zidan chiqmagaymiz» deb bir-birlariga

ahdi-paymon qilishdi. Avaz bularning so'zini bilar edi. Bu elchini so'zi tamom bo'lguncha quloq solib turdi. «Yuringlar, elchilar» deb darvozaning ikki qanotini ravon ochib oldiga tushib, o'rda ichiga qarab yo'l boshladi. To u sirtqi o'rdaning yarmiga yetguncha Avazni otga bostirib ketguday bo'ldi. Avaz to'xtab turib, hassasi bilan otning boshiga urdi. Achchig'lanib bularga bir so'z dedi:

Alam o'tgan nido qilar zor yig'lab,
Piyoda bo'linglar otni yetaklab.
Qanday odam otli kirar o'rdaga,
Ulug' ta'limin bilmagan beodob.

Kuygan banda doim ko'zini yoshlari,
Tapga kelmay o'rdak olmaydi qushlar.
Qanday odam otli kirar o'rdaga,
Ulug' ta'limin bilmagan beboshlar.

Qarchig'aylor qanot qoqar uyada,
Asling dushman, do'stdan bo'ldim ziyoda.
Qanday odam otli kirar o'rdaga,
Otdan tushib, bo'nglar menday piyoda.

Asling dushman, qilg'in do'stning ishini,
Kirib yenglar xonning noni oshini,
Boylab beray alfov bilan sizlarga,
Kesib onglar, Go'ro'g'lining boshini.

Podsho zolim ishonmaydi do'stiga,
Beodoblar, otli kirma o'rdaga,
Otli kirib bo'lmas ulug' ustiga,
Otdan tushib, bo'nglar menday piyoda.

Avazning so'zini bari xushladi,
Tappa-tappa otlaridan tashladi.
Darvozaga yetkanida Avazxon,
Chapga solib, jin ko'chaga boshladi.

Boraverdi u elchilar o'ylanib,
Oti qoldi tashqarida boylanib.

Ertamnandan peshingacha yo'l yurdi,
O'rta bozoriga yetdi aylanib.

Har ko'chani qayta-qayta ko'rsatdi,
«Zo'r shahar» – deb Avaz qildi sifatdi,
Har ko'chaga besh martadan aylanib,
Uzoq kunlar borib joyiga botdi.

«Xo'p ko'ringlar bu shaharni, elchi» – deb,
Kechasiman tindirmasdan yo'l tortdi.
Yetmay turib uzoq tunlar long otdi,
Nayza bo'yli ostob chiqdi yozilib,
Ahmadbekni darvozasiga yetdi.

Amal yo'qdur o'limning ilojiga,
Ajal qo'ymas bul bandaning vajiga,
Yuringlar, deb bol Avaz yo'l boshladi,
Olib kirdi sarkardalar ichiga.

O'rdani yarmiga yetuvdi, elchilar «ana Go'ro'g'li,
ana Go'ro'g'li» deb, bir-birlariga ko'rsatib boradi.
Go'ro'g'li sirtqi o'rdada bir ming sarkardasini – bir
ming kursini kuz havosi kunchuwoqqa qo'ygan edi.
Yuztadan o'n qator qilib mingta sarkarda o'n qator
bo'lib o'tirgan edi. Ahmadbek – Go'ro'g'lining tog'asi
– yolg'iz o'zi ming kishiga qarab o'tirgan edi.
Elchilarga orqasi o'girig'liq edi. Bunda elchilar Ah-
madbekni Go'ro'g'li deb bir-birlariga ko'rsatayotkan
ekan. Avaz bularni tilini bilar edi. Avaz bu elchilarga
qarab bir so'z dedi:

Yuraverdin keng saroylik elchilar,
Go'ro'g'liga odam bo'lmas baravar.
Ko'rар bo'lsang yurt egasi ichkari,
Bu o'tirgan hammasidir amaldor.

Ichkarida ko'rsang yurting egasi,
Berigi o'tirganni boshida jig'asi.
Ko'rар bo'lsang xon Go'ro'g'li ichkari,
Ul jig'ador Go'ro'g'lining tog'asi.

Maydonda pand berar otning mayibi,
Go'ro'g'lixon mamlakatning soyibi.
Berigi o'tirgan jig'ador Ahmadbek,
Ham tog'asi, Go'ro'g'lining noyibi.

Elchilar turib: «Bu Go'ro'g'li emas ekan. Tog'a-sining o'tirishi bu osoyishta ekan, Go'ro'g'lining o'zi qanday ekan? Shohdorning oldida so'zlagan kishilar bilmay so'zlagan ekan. Go'ro'g'lining davlat siyosati ham kam emas ekan. Tog'asi bunday ekan, o'zi qanday ekan?» deb o'tib borib, ichkarigi o'rdaga kirdi. Go'ro'g'li ichki o'rdada qirq karavotni ostob kun-chuvoqqa qo'yib, tirab bir-biriga tizib qo'ygan edi. Har karavotga zarrin barqutlarni yasatgan edi. Ipak zilcha gilamlarni to'shatgan edi. Go'ro'g'li qirq yigitni yasab, qirq karavotga yotqizib qo'ygan edi. Har qaysilari chalqancha yotib, telpaklarni betiga kiyib yotar edi. Har qaysi o'z nayza-qilichlarini o'z karavotlariga suyab qo'ygan edi. Qirq yigitni tepasiga qirqta mahram, soqi, kosagullar yigitlarga gulob sunib muntazir turar edi. Ul yigitlar ko'zini oolib soqiga nazar solmas edi, qo'lidagi kosani ham olmas edi. Go'ro'g'li bu ishlarni elchilarga siyosat bobidan ko'rsatmak uchun ozmoyishga qo'ygan edi. Elchilar kelib bularni ko'rди. Bir-bilariga qarab so'zlashdi:

— Ana davlat, ana santalat. Mana hukumat, hayfi Shohdorga qilgan xizmat. Kimiki Go'ro'g'liga qilsa xizmat, umri shunday huzuri rohatda bo'lar ekan, — deb buni ko'rib, orzu qilib, bir-birlariga ko'rsatar edi. Bular yigit emas, Go'ro'g'lining o'g'illaridir, bular podshovachchalardir. Xizmatchi bo'lsa, bunday umri aziz o'tmas edi, — deb bir-biriga so'zlashdi. Bu so'zlarni eshitib, Avazning achchig'i keldi. — Yuringizlar, ulug' shahar Chambili Sulaymon davrini surgan Go'ro'g'li, bu yotganlar bek emasdир quldir, har qaysisi har bir shaharning o'g'li, Go'ro'g'lini ko'rsang odamning zo'ri, yovga kirsang jon olg'ichday

har biri. Bu yotganlar jami boqma, o'ljaki quli, yuraverbyn, yurt egasi ichkari, — deb Avaz ichkariga boshlab, ul o'rdadan ham o'tdi. Go'ro'g'lining darvozasiga yetdi, xon o'rda siga qadam qo'ydi.

Avaz darvozadan kirdi, elchilar kirgani unamadi. Avaz: — Yurgil, — dedi. Elchilar aytdi:

— Ey Avaz, bizni to'yxonalik ishimiz yo'q, o'rdaga boshlagin, mardlarning joyi o'rdadadir, — dedi. Avaz bunday qarasa, o'rda ichi zikh. Yosh o'spiringlarga to'libdi. Go'ro'g'li bu elchilarga ko'rik uchun to o'n beshdan yigirma yosh o'rtasidagi bolalardan yig'ib, besh yuz yetmish bolaning hammasiga qizil banotdan kiyim kiydirib, qo'llariga pichoq ham xanjar berib, jallod suratida tayyorlab qo'ygan ekan. Besh yuz yetmish bola qo'llariga pichoq — xanjarni ushlab haybat bilan turibdi. O'rdaning ichi tor edi. Bir-birlarining yelkalariga yelkalarini sig'ishtirib, g'olib bo'lib turar edi. Avaz buni ko'rib, otasining qilgan ishiga osarin o'qidi. Avaz elchilarni bir kechayu kunduz aylantirib kelgancha Go'ro'g'li saranjomini olib bo'lgan ekan. Avaz elchilarga qarab bir so'z dedi:

Xon Go'ro'g'li o'zi podsho tojdar,
G'azabiga dushman bo'lmas barobar.
Go'ro'g'lixon ko'rар bo'lsang ichkari —
Yuraverbyn, keng saroyli elchilar.

Iskandarda yo'q Go'ro'g'li davlati,
Ko'rар bo'lsang azroilday haybati.
Tanidingmi bu turganni, elchilar,
Besh yuz yetmish Go'ro'g'lining jallodi.

Elchilar turib aytdi: — Bizni bu yerga aldab olib kelgan ekan, Avazning sehriga ishonib qo'lga tushdik. Nima bo'lsa boshga solganini ko'rgaymiz, boshla, — dedi.

Avaz yigitlariga: — Yo'l bering, — deb ishora qildi. U yigitlar chetlanib yo'l berdi. Darvozani chap qa-

notiga qarab Avaz devolni qirg'oqlab, yo'l boshlab boraverdi, aylanib darvozaning o'ng qanotiga keldi. Elchilar oxiri kirib bo'ldi, darvozani taq etkizib bekitib qo'ydi. Go'ro'g'li darvozaning tepasida mirza-yu vazirlari bilan o'tirgan edi.

— «Jallod»— dedi Go'ro'g'li, haligi besh yuz yetmish yigit birdan «labbay» deb shovqin berdi. O'rданing ichi guldirab ketdi.

Elchilar ko'rdiki, darvoza tepasida devga o'xshab Go'ro'g'li dubulg'a boshida, yasovullar qoshida, ayni sakson yoshida, har ko'zlari piyoladay bo'lib o'tiribdi. Go'ro'g'lining haybatidan, jallodlarning salavatidan elchilar qo'rqiб, uch yuz oltmishto'rt tomiridagi issiq joni peshonasiga kelib to'xtadi. Hushlari ketib, quloqlari bitib qoldi, Go'ro'g'li yana: «jallod» bularni safga turganday qator qil! Safga kirganini ushlanglar. Qiyilik qilganini mushtlanglar, — deb buyurdi. U besh yuz yetmish yangidan bo'lgan jallodlar «yaxshi amalga kelgan ekanmiz, bu yerga Go'ro'g'li nimaga keltirdi ekan deb hayron edik... Bu odam urdirgani olib kelgan ekan deb», — elchilarning qo'lidan ushlab, boshiga mushtlab, qator qilib chizib turdi. Tag'in nima ishga buyurar ekan, — deb ko'zlari yana Go'ro'g'lida edi. Go'ro'g'li ko'rdiki, elchilar bo'yinilarini solib, yerga qarab xomush bo'lib turibdi. Go'ro'g'li yonidagi qozi Mansurga qarab aytdi:

— Ey qozi Mansur, bu elchilarning hammasini Soqi olib kirganida bularning so'zini yomon olib, achchig'lanib, bularning qonini to'kkayman deb qasamyod qilgan edim. Mana bular huzurimga keldi. Begunoh odamga ozor bermoq haqiqatdan emas. Yana haqiqatda elchiga o'llim ham yo'qdir. Bular huzurimga keldi. Yana bo'yin solib turibdi. Bularga bir jazo buyuray desam, bulardan hech gunoh topmadim, qilgan qasam — shartimga nima qilgayman, — dedi. Qozi Mansur aytdi:

— Odam o'ldirib qon to'kmak shart emas.

Elchilar Avazga qarab aytdi:

— Bu o'n bir yil Chambilda yurib hiylagar bo'lgan ekan. Bir kecha-yu kunduz yuribmiz, otning oldida turibmiz, — deb Avazga ta'na qildi. Avaz ularni otlarga mindirib, o'zi ham otlandi. Chambilning tashqarisiga olib chiqdi. — Ey Shohdorning elchisi, qayerga borsang xush borgin, Chambilda nima ko'rsang shohingga ayta bergin. Go'ro'g'lini ko'rding, ahvolini bilding. Go'ro'g'lida qirq yigitdan boshqa lashkar yo'q. Shohdor podshohing lashkarini jam qilsin tezlik bilan kelsin, Go'ro'g'lini o'ldirib, g'arib-mozor qilsin. Kimki Go'ro'g'lini o'ldirmasa ul podsho qiron emas. Go'ro'g'li soyibxurushdir. Go'ro'g'lini o'ldirib, qironlik nomini olib ketsin, Chambilni o'z yo'liga solib ketsin. Mening qilgan yaxshiligidimni esingdan chiqarmay, shohingga ayta borgin, — dedi. Avaz bularni yo'lga solib jo'natdi. Yo'lda elchilar bir-birlariga hasrat qilib, Avazdan shikoyat qilib borar edi. Avazning so'ziga kirmaganda bunday bo'lmas edik, deb, o'n besh kun yo'l bosdi. Elchilarning yo'lidan lashkar ko'rindi. Elchilar to'xtab qoldi. «Bu lashkar kim ekan, bilib kel, deb bir kishini yubordi. Bordiki, Shohdor podsho ekan. Yetti hokimning lashkarini tamom olib, elchilar hayollab qoldi, deb elchining orqasidan Chambilga kelayotgan ekan. Borgan elchi Shohdor podshoni to'xtatib qo'yib, orqasiga qaytib kelib elchilarga: — Shohdorshoh ekan, bizning orqamizdan yordam — lashkar qilib kelayotgan ekan, yuringlar, — deb elchilarni boshlab, Shohdor oldiga olib bordi. Ko'rdiki elchilarning ahvoli o'zgacha, Shohdor aytdi:

— Ey polvonlar, nima bo'ldi sizlarga, burunquloqlaringiz kesik? Elchilar aytdi: — Podsho bo'lmay, biring qolmay baring o'l. Aytmadningmi, Go'ro'g'lini bittang ham uddasidan chiqasan deb. Mana, biz bordik. Go'ro'g'lini ko'rdik, Ahmadbek degan tog'asi bor ekan. Senga o'xshagan shohday ming kishi Ahmadbekning huzurida qo'l qovushtirib

xizmatida turibdi. Bundan ichkariga kirdik. Go'ro'g'li qirq yigitining kiygan kiyimi, o'tirgan karavotlarini ko'rdik, senday shoh yurtdan bir yilda olgan xirojing bilan qilomaysan. Mana, uni qo'y, buni qo'y, senda odam o'ldiradigan jallod nechtadan turadi?

— Ikkita, uchta turadi, — dedi Shohdor shoh. El-chilar aytdi: — Biz kirib ko'rdik, kallakesar jalloddan besh yuz yetmish kishi xanjar, pichoq qayrab, «kimning ajali yetdi» deb haybat bilan turibdi. Buni ko'rib, biz jonimizdan umid uzdik. Go'ro'g'lining haybat-salobatini dushman ko'rsa jonidan umid qilmas. Burni, qulog'imizni shu jallod kesib oldi, yo'lga chiqarib bizni jo'natdi. Chambilni olmoq u yoqda tursin, o'l-may keldik, bu ham sening davlating. Shohdor aytdi:

— Bir kishi enadan tug'ilsa, bir cho'listonni shahar qilib, obod qilib, mulk egasi bo'lsa, ul kishi mehnatini nazarga olmay, lashkari g'olibimga ishonib, zo'rlik bilan tortib olaman, — deb bunga qasd qildim. «Shuncha mulkka to'ymay yana shul Go'ro'g'lining yurtini olaman dedingmi?» — deb, xudo bizni g'azab qilsa qo'limizdan nima keladi. Mana shuncha bahodirlar chivinga quvvat qilolmay burni, qulog'idan ajrab kelibdi. Yiroq-yaqin podsholar: «Go'ro'g'lining ustiga elchilar yuborgan ekan, Go'ro'g'li u polvonlarni tutib, burni, qulog'ini kesib «bor, dodingni podshoyingga ayt!» — deb jo'natibdi», — degan so'zlar o'zga podsholarga eshitilsa, bizlarga ayb qo'yari. «Go'ro'g'lining lashkari yo'q», — deb, uning ham yurtini olmoqqa qasd qilib yuborgandir. Ajab qilibdi Go'ro'g'li, — deb bizga ta'na aytar. Bu so'zlar bizga juda yomon or-nomus bo'ldi. Bu mulk ollo-taoloning mulkidir, kimga bersa o'zi berar. Ikti adirning o'rtasida Turkmanistonni eb yotadimi, deb qasd qilgan se'l-atvorimiz tangriga xush kelmadidi. O'lmay kelibsizlar, bo'pti. Burni, qulogqlaringizni kesib jo'natgani ham, o'ldirmay tirik yuborgani ham mening obro'yimdir. Shunchalik sizlarni o'ldirmabdi, Go'-

ro'g'li ham insofli ekan. Mening davlatimda Turkman Chambilni Go'ro'g'li yeb yotsin, — deb insofga kelib, orqasiga qaytib ketdi. Ham yig'lab, ham kulib bir-birlarini «ul puchuq, ul chinoq» deb masxaralab kulishib borar edi. Bular yo'llarida ketaversin, endigi so'zni Go'ro'g'lidan eshititing:

— Ey sarkardalarim, ey mirzalarim, mulki sherik kengashlarim, katta-kichik umarolarim, Shohdorning elchisi kelganda boshimdan aqlim qochgan ekan. Mendan ul elchilarning boshini kesib o'ldirmak lozim edi. Shohdor ularni mening qo'limga topshirib qo'y-gani yo'q edi, mendan ko'rmas edi. Bularni o'ldirmay yo yaxshi in'omlar berib qaytarimoq xo'b edi. Bularni yo o'ldirmadim, yo yaxshi so'z bilan qaytarmadim. Bularning burni-qulog'ini kesib yubordim. Men Shohdorday ulug' podshoga barobar bo'lmoqchi. Elchilar shu kayfiyatda Shohdorning huzuriga kirib borsa, mendan ibo qilmabdi deb tamom lashkarni olib ustimga kelsa, menda asbob, yov-yarog', lashkar bo'lmasa, yurtimning tuprog'ini osmonga shopirib ketsa ham ehtimol. Qarigan chog'imda yurtimning zominatiga sabab bo'ldim. Endi o'ylarmanki, shul elchilar Shohdorning oldiga tirik bormasin, Shohdor bularni ham ko'rmasin. Endi ey Ahmadbek tog'a, sizni sardori lashkar qilib elchini orqasidan yuborgayman. Qayerda yetsangiz elchini o'ldirib qayting. Bundan boshqa amal yo'q. Shunday qilmasak Shohdor lashkarining qo'zg'olishiga sabab bo'ladi. Olti ming akobir yigitlardan aslaha, ot-anjomlarni, kiyar saloh, yaroq-jabduqlarni tayyorla deng. Bugundan qoldirmay, elchi orqasidan quvib yeting, deb Ahmadbekning qo'liga bayroq rostlab berdi. Ahmad sardor egar qoshiga bayroqni tikib, olti ming xil jam joy yigitlarni o'ziga hamroh qilib, elchining orqasidan izlab jo'nadi. Orqasidan Hasanxonni olti ming yigitga bosh qilib buni jo'natdi. Uning orqasidan Avazxonni olti ming yigitga sardor qilib buni ham jo'natdi. Uni

orqasidan Chaqqonbekni olti ming yigit bilan buni ham jo'natdi. To'rtovini yigirma to'rt ming yigitga sardor qilib jo'natdi. Bular elchining orqasidan pesh-pesh iz quvib ketaverdi. Bularni jo'natganida Go'ro'g'li hisob qilib ko'rди. Oradan o'n kun o'tdi. Bulardan darak bo'lindi. Yana Go'ro'g'liga g'ussai g'am ortdi. Chambilning o'ttiz bir darvozasini ko'mirdi. Turkman dalada bir darvoza ochiq qoldi. Xotin, kelin, oqsoch, kaniz oyim, cho'rilari bilan Go'ro'g'-lining xotinlari o'tirgan o'rdasini Gulbog' der edi. Qirq olti xotinni jam qildi. Go'ro'g'li kirib xotinlarning o'rtasida o'tirdi.

— Ey oyimlar, oqsoeh kampir, doyalar! O'ynamak, kulmakdan, yaxshi yeb, yaxshi kiymakdan, davlat davrini surmakdan sizni-bizni oramizda hech armon qolmadi. Qarib-qartaygan chog'imda oramizga farzand ato qilmadi. Yo o'rninga qolar bir merosxo'r bo'lindi. Qartayib, kuchim ketib, davr vaqtim o'tganda menga Saroy degan shahardan dushman paydo bo'ldi. Yurtimni o'ziga tobe qilmoq uchun bir yuz oltmis pahlavonini yuborgan ekan. Shohdor yetti hokimni jamlab, har podsholardan beshtadan-o'ntadan pahlavonlarni xillab, yetti hokim Shohdor bilan sakkiz podsho menga dushman bo'ldi.

Elchilar shundan keldi. Bu elchilarning burun, qulog'ini kesib, tirik jo'natdim. Bu qilgan ishim o'zimga ham ma'qul bo'lindi. Elchilar shu ahvolda Shohdorning oldiga borsa, dushman qo'zg'alib tepamga kelmasin, deb o'zimga xavf tushdi. Elchining tirik bormog'ini o'zimga ma'qul ko'rmadim. Jo'natib yuborib pushaymon qildim. O'g'onlарим bilan Ahmad tog'amga: «Qayerda yetsangiz elchini o'ldirib qayting!» deb yigirma to'rt ming lashkar qilib berdim. O'n kun bo'ldi, bulardan hech darak yo'q. O'ylarmanki, elchini orqasidan Shohdorning yordamchi lashkari kelgan bo'lsa, mening lashkarimga yo'lda duchor bo'lsa, Shohdor g'olibi lashkardir, mening

lashkarlarimga barham bergandir. Ularni o'ldirib yo'l-dan nari ketmas. Dushman to meni tutib olmasa maqsadiga yetmas. Mening qasdimga yurtimga bosib kelar. Yurtimni mening kasofatimga poymol qilar. O'ylarmani, qarigan chog'imda yurtimga kasofatim tegib o'lmayin. Men endi o'ylayman: — Shu lashkar orqasidan borsam, lashkarim salomat bo'lsa, ko'rsam. Agar lashkarimga barham bergan bo'lsa, meni tutib olsa murodiga yetar. Shoyad shundan nari ketar, shoyad yurtimga kelmay ketsa, yurtim salomat qolsa. Qarigancha yurtimni davrini surib keldim. Yurtimga o'zimni sadaqa qilib o'lsam, armonim yo'q, yurtim eson qolsin. Saroy yo'lining orasi yetti oylik emish. Agar lashkarim salomat turgan bo'lsa, topsam, lashkarni boshlab Saroygacha elchini quvib boraman. Endi, oyimlar, mendan da'vo qilmanglar, sizlar ham rozi bo'linglar, men ham sizlardan roziman. Saroyni yetti oylik borish yo'li, yetti oylik kelish yo'li, o'n oy orada to'xtalsak, xudo ajalga omon bersa, inshoollo, o'lmasak, ikki yilda kelib yuz ko'rishgaymiz. O'lib ketsak, diydor ko'risha olmasmiz. Sizlar ham doim bizning salomatligimizni tilab duoda bo'linglar, sizlar munqulug — mushtiparsizlar. Sizlarning duolaringni mustajo qilsa ajab emas, salomat kelsak, — deb, bola-chaqalari bilan rozilashdi. Soqijonga: — Majnunko'kni, sariq samanni egarlab keltirgin, — dedi.

Soqi ikki ot ni tayyorladi. Go'ro'g'lining xotinlari ichida, birining o'g'li bor edi. Bu bola ichki, tashqi hovlida xizmat qilib turar edi. Uning oti Berdiyor edi. Berdiyorga to'qqiz yigitni qo'shdi. Darvozani ichidan temir tamba soldirib, Go'ro'g'li bilan Soqi otlanib tashqariga chiqib turdi, to'qqiz yigit bilan Berdiyor darvozani mahkamladi. Go'ro'g'li Berdiyorga qarab bir so'z dedi:

Xush qol, bolam, Saroya qildim safar,
Yomonlikka qilma, hargiz ixtiyor.

Darvozaga g'osil qolmay mahkam bo'l,
Enalaring ishondim, senga Berdiyor.

Quloq solgin mening degan so'zimga,
Xudo panoh bersin senday qo'zimga,
Otam yo'q deb oyoq bosma yuzimga.
Dushman kelsa, ochib bersang qo'rg'oni,
Rozimasman, senga bergan tuzimga.

Otam yo'q deb hurmatimdan kechmagan,
Dushmanlarim zar ko'rsatsa uchmagan.
Mendan bo'lak Xo'jaxizr chaqirsa —
O'zing o'lmay, darvozani ochmagan.

Bir xudoni quliman deb quvondim,
Jasadimga jon berganga suyandim,
Darvozamga chtiyot bo'l, jon bolam,
Avval xudo, qo'zim, senga topshirdim.

Men qilarman bolam senga nasihat,
O'lmay kelsam, ko'rsam sog'u salomat,
Joyim senga, sen xudoga omonat,
Beg'am bo'lmay, bo'lgin doim chtiyot, —

deb Go'ro'g'li jo'nab ketdi. Soqi ikkovi ot tezlab shaharning sirtqi darvozasiga bordi. O'ttiz bir darvoza ko'milgan, ochiq darvozadan chiqdi. Berdiyorni akasi Askarbekka uch yigitni qo'shdi. Ularga ham miltiq, to'plarni tayyorlab berdi. Darvozani ichidan bekittirdi. Berdiyorga qarab bir so'z dedi:

O'yla, bolam, mening jonu dilimsan,
Bulbul bo'lsang, qo'nar toza gulimsan.
Rost niyatda halol xizmat aylasang,
O'lib ketsam bir merosxo'r ulimsan.
Ikki ko'zim safar yo'lga shoshirdim,
Qo'llaydigan pirlarimga bosh urdim.
Men kelguncha ehtiyyot bo'l, jon bolam,
Seni haqqa, joyim senga topshirdim.

Ishonch yo'q aylab tandagi jonga,
 Dunyo degan ko'ngil berar shaytonga,
 Beling boylab mahkam bo'lgin, jon bolam,
 Er bolasi, yo'l bermagin dushmanga.

O'ylab tursam jonim omonat tanda.
 Banda o'tar hasrat dog'i jahonda.
 Dushmanimga ochib berib eshikni,
 Mahshargohda bo'lma, qo'zim, sharmanda.

Xon Go'ro'g'li haqqa soldi ishini,
 Sahroga yo'lladi otning boshini.
 Qistab chopsa bedov otlarni cho'lda,
 Changitardi biyobonning dash[t]ini.

Tortib chopsa sherdai og'zin ochadi,
 Suvliq chaynab norday ko'pik sochadi.
 Shunqor quvgan quyonday bo'p irg'ishlab,
 Kaptar quvgan qarchig'ayday uchadi.

Surib borar ot suvlig'ini tishlab,
 Cho'ziladi qora yerni qulochlab.
 Qo'ya bersa biyobonga bu otni,
 Kiyiksifat borar chopib irg'ishlab.

Uzangini bosib qamchi tortadi,
 Tirsagidan qora qumga botadi.
 Orom olmay, yo'lga ketsa bu jonvor,
 Ovchi quvgan bo'riday bo'p yo'rtadi.

Tog'da bitgan to'qaylarda to'rang'i,
 Egnida qolganisovut farangi.
 Tinmay cho'lga ot qo'yadi Go'ro'g'li,
 Soqi bilan, kecha-kunduz qorong'i.

Tizgin qoqib bedov otni tezlatdi,
 Suv ko'rmagan suvsiz cho'lni to'zg'itdi.
 O'n kechayu o'n kunduz chopdi oromsiz,
 Xon Go'ro'g'li tinmay «chu» deb yo'l tortdi.
 Changni tuman qildi cho'lni dash[t]iga,
 Bulutday bo'lди tuproqlar boshiga.

O'n kechayu o'n kunduz yo'l bosib,
Sahar yetdi Ahmadbekni qoshiga.

Ahmadbekni qoshiga yetib xon otdan tushdi. Ahmadbekning chodiriga kirib, o'tirib, orom oldi, tunadi, tong otdi. Bunda jami lashkarlar xonning kelganidan xabar topdi. Go'ro'g'lixon taxtiga chiqib o'tira berdi. Har qaysilari o'z ulug'larini oldilariga solib pesh-pesh, to'p-to'p bo'lib kelib, navbat-navbat bilan xonni ko'rib, xon haqiga duo qilib, ko'rikdan o'tib, qaytib, o'z qo'shxonalariga borib, qaror topdi. Bunda xon borib tushganda tog'asi Ahmadbekning achchig'i kelib qoldi. Ahmadbek hukmronchilikka ishqiboz edi. Nega deganda bu lashkarning ixtiyori Ahmadbekda edi. Elchiga yetolmay, cho'lga tushib yoyilib yotgan edi. Xonning lashkarlari kelib ketgandan keyin Ahmadbek Go'ro'g'lining qoshiga kelib qo'l qovushtirib turdi. U Go'ro'g'lini yoshlida boq-qan edi, Go'ro'g'li ham otam, ham tog'am der edi. Qanday qilsa qilar edi, uning ra'yini qaytarmas edi. Ko'rdiki, tog'asi qo'l qovushtirib turibdi, Go'ro'g'liga hech bunday takallum qilmas edi, ul tog'asining turishi bad ko'rindi.

— Ha, tog'a, — dedi.

Ahmadbek aytdi: — Ey sulton, naqlida: «Yoshni ishga buyurma, orqasidan o'zing yugurma» degan bir so'z bor. Sizga men bir yosh bola bo'ldimmi? Bu ishga meni bosh qilib yuborib, bir ishni udda qilolmas deb, shu maqsadni o'ylab keldingiz, — dedi.

Go'ro'g'li aytdi:

— Sizlarni bu ishga jo'natganimda o'zimni kelishga ixtiyorum yo'q edi. O'n kun qaradim, sizlardan darak bo'lmasdi. O'yladimki, bular kechikib qoldi. Shohdor elchilarining orqasidan yordam lashkar kelsa, bir-biriga ro'baro' bo'lib qolsa, bu Shohdor ulug' podshodir, yana g'olibni lashkardir, sizlarga g'oliblik qilib, bir kasr berganmi, deb ko'nglim ishonolmadi.

Urushning korini bilmak qiyindir, deb ko'nglim ishonmasdan orqalaringdan keldim.

Ahmadbek aytdi: — Sizni Chambilda qoldi, deb xotirimiz jam edi. Mana siz ham kelib qolibsiz. Chambildan bir yomon bosh ko'tarib chiqib, yurtga bir sho'rish solsa, oraga kim tushar dedi.

Xon aytdi: — Ey tog'a, Chambilning o'ttiz bir darvozasini tuproqlab ko'mdirdim. Shunday bo'lsa ham har ko'milgan darvozada yigirma-o'ttizdan tunqator bordir. Xotin, bola-chaqa, zaiflarni Gulboqqa jamladim, kelin-qizlar bilan qirq olti xotin Og'a Yunus bilan Gulbog' ichidadir. Gulbog' darvozasining ichkarisida to'p, jazoyil miltiqlarni jamladim, darvozani bekittirdim. To'qqiz tirandozni Berdiyorga qo'shib, xotinlar o'tirgan hovlini unga topshirdim. Sirtqi darvozaning biri ochiq edi. Ul ochiq dala darvozasini ichidan bektdim. O'zim tashqariga chiqib turib, o'n uch mergan tirandozlarni Berdiyorning akasi Askarbekka tayinladim, — dedi.

Ahmadbek aytdi: — Naqlda bir so'z bor: «Tol madang bo'lmas, begona dadang bo'lmas, o'zingdan ul bo'lmasa o'g'il bo'lmas, sotib olmasang qul bo'lmas. Qizilboshning bolasini olib kelib «o'g'lim» deb boqib katta qilding. Qilichni zarbidan qo'rqqanidan «ota» deb kun kechirib yurgandir, qachon dushman qo'lidan ish kelar, dushman dushmanligini qilar. «Ulonning dumini kessang vaqtini topsa tili bilan zahar solar!» Qizilboshning bolasi senga hech dil bermas. Ularning bo'ynini buqaday to'ldirib, xo'b vaqtini bilib, xotinlarga uyur qo'yib kelibsiz, — dedi.

Bu so'z Go'ro'g'lining jonidan o'tib ketdi. Azbaroyi yoshlikdan tarbiya qilib boqqani ham tog'asi bo'lgani uchun bir narsa deyolmay nafasini ichiga oldi. Go'r-o'g'li yoniga burilib olib, bir kishiga bir so'z so'zlab turdi. Ahmadbek yana Go'ro'g'lining ro'parasiga o'tdi.

— Ey sulton, menga ruxsat bering, men ketsam, — dedi.

Go'ro'g'li qahrlanib, tog'asiga qarab so'zladi:

— Ey tog'a, bilarmisiz, go'r ichidan chiqib eshi-gingizga keldim, yetti yoshga bordim. Bizning viloyatlarni sohibi yo'q edi, yurt yordam berdi, qal'an-i bino qildi. Shaharning tayini yo'q, avval qo'rg'oni bino qildik, bechora kambag'allarni ko'chirib olib keldik, bu shaharni odamga to'ldirdik, ajoyib bir ulug' shahar bo'ldi. Bu tilsim suratda bo'ldi. Har bir ko'chalari bir-biriga payvasta edi. Yurt kambag'al edi, chochilgan xalqni olib kelib jamladik. Shuning uchun shaharning nomi Chambil qo'yildi. Bunda bizni boshchimiz qirq yildan beri yo'q. Xaloyiqlar bizning yurtimizni oyoqosti qildi, bizni qo'rir kishi bo'lmasdi. Yurt ixtiyori bilan meni bek ko'tarishdi. Sizga kishi yubordim, ham otam, ham tog'am deb maslahat qildim, o'zingiz rozilik berdingiz. O'sha kundan so'roq ixtiyorini sizga berdim, bilasiz. Urganch bordim, Dilxiroj bordim, Isfixon bordim, Karkiston bordim, Xoldor o'g'li Hasanni olib keldim. Yoshim yetmishga borganda Gurjiston bordim, Xunxor shoh qo'lidan Bulduruq o'g'li Avazni olib keldim. Bilasiz, har mamlakatda kimni sherik qilib bordim. Doim siz hukumat davlatida, men yurtimning salomatlik mehnatida shu joygacha keldim. Endi o'ylaysizki, Shohdor ulug' yov, Go'ro'g'li bu oz kishi bilan borib, qo'lidan nima kelar dersiz. Bilasiz-ku, doimo yolg'iz safar qildim. Shohdor jangida agar qazom yetsa dunyoda hech banda meni ajratib ololmas. Men ajaldan qo'rqlayman. Saroyni qasdiga chiqdim, endi qayt-mayman. Xohlang boring, xohlang keting, — dedi. Ahmadbek otiga minib, Go'ro'g'li Chambilda yasab bergen bayrog'ini egarning qoshiga mahkam bog'lab oldi, lashkar orasiga qarab yurdi.

— Ey xaloyiqlar, Go'ro'g'lixon keldi, — dedi. Saroy yo'li uzoq ekan, o'limgan qul ikki yilda kelar ekan. Bu lashkarlarning qari ota-enasi bordir, ko'pini mayda bola-chaqasi bordir. Ikki yilgacha qolganlar

qiyalsa, magar o'lsa, men bularni zominiga qolmayin. Har kim o'z diyonati uchun jang talab bo'lsa, men tomonga o'tabersin. Kimki borgisi kelmasa javob berdim ketaversin, — deb Go'ro'g'li javob berdi, — dedi.

— Jang talabing Go'ro'g'li tarafga o'taver, borging kelmaganingga javob bo'ldi, yur men bilan, — deb, bayroqni ko'tarib, lashkarni oralab o'ynab ketdi. Lashkarga g'ulg'ula tushdi. Ahmadbek bilan Go'ro'g'-lining tortishganini bildi. «Go'ro'g'li o'lmay Saroydan kelsa qaysi ko'z bilan qarayman, besh kunlik dunyo o'tar, xonga yuzim shuvit bo'lar» degan yigitlar Go'ro'g'li tarafga qarab o'taverdi. Mingta Go'ro'g'-lining joni menga jon bo'larmidi, jonio o'zimga kerak, — degan yigitlar Ahmadbek bilan chiqib ketaverdi. Zar tarozi yigirma to'rt ming kishidan o'n ikki ming kishi Ahmadbek bilan ajralib chiqib ketdi. Go'ro'g'li bu holni ko'rib «G'irotni keltir!» dedi. G'irotni olib keldi. Xon otning ustiga o'zini oldi. Ketgan kishiga qaramay, Saroya qarab jo'nadi. To'rt o'g'li o'n ikki ming yigit bilan elchilarni orqasidan izlab ketdi. Endi Go'ro'g'lini Saroy yo'liga qo'yaving. Endigi gapni Ahmad sardordan eshititing.

Kechayu kunduz tinmay ot chopishib, to'qqiz kechayu kunduzda Asqar tog'iga yetib keldi. Vaqt peshin bo'ldi. Ahmad sardor ko'rdi Chambilning qal'asi ko'rindi, bayrog'ini tiklab yigitlarni tog' ustiga qator qilib, o yigitlarga qarab bir so'z dedi:

Quloq songlar mendir bek Ahmad sardor,
Harna qilsam o'zimdadir ixtiyor.
Yurtni tashlab, ketdi Saroy, Go'ro'g'li,
Belingizni mahkam boylang, yigitlar.

Saroy qarab ketdi Chambil to'rasи,
Ot choparga tekis cho'lning dalasi.
Belingizni mahkam boylang, yigitlar,
Ana ko'ringan Chambil elning qal'asi,

Nodon podsho ishonmaydi do'stiga,
Borib uchrar Shohdor tig'in qasdiga.
Belingizni mahkam boylang, yigitlar,
Ot qo'yinglar, talang Chambil ustiga.

Yigitlarga Ahmad yo'lni ko'rsatdi,
Qo'lidagi bayrog'ini tebratdi.
Bul Ahmadning so'zi bilan, yigitlar,
Ko'zlarni har tarafga yoynatdi.

Ot qo'ying, qal'ani vayron qilarmiz,
Xazinani taqsim qilib talarmiz.
Davlatimda ot o'ynating, yigitlar,
Oyimlarni bitta-bitta olarmiz.

Ahmad qildi belni boylab shiddatdi,
Yigitlarga oson yo'lni ko'rsatdi.
Quyon quvgan ovchiday bo'b qiyqirib,
Darvozaga qarab tekis yo'l tortdi.

Orqasidan borar bek Ahmad sardor,
Darvozaga kelib tiraldi lashkar.
Devolda o'tirgan kechki qorovul,
Yov keldi deb, Askarga berdi xabar.
Himmatga bel boyladи turdi bek Askar.
Tirandozi oldidagi yigitlar,
Miltig'ini mukammal qib roslatib,
Birdan otdi o'n to'rt o'qni barobar.
Ahmad shovqin solib nayza tuvlatdi,
Yigitlarni qaytmanglar, deb zo'rlatdi.
O'qni ustun-ustun otib bek Askar,
Qamish o'rgan o'roqchiday bovlatdi.
O'qlar o'tar yonlaridan zirqirab,
Ahmad kelar qo'lga nayzasin tirab,
O'lganlari alif bo'lib almashdi,
Adir-adirlarga ketdi tirqirab,
Askar otib bu lashkarni qiyratdi.
Qolganlari adir-adirga ketdi,
Bir-birini na'ra tortib chaqirib,

Qorong'u tun ravshan bo'lib tong otdi,
 Ertan peshin vaqtি bo'ldi kunduzi,
 Ahmad sardor lashkarini jamlatdi,
 Ichka sig'mas noinsofning hasrati,
 Birin-birin kelaverdi yigit.
 O'lganlari darvozada qolipti,
 O'limgandan olti mingi kelipti.
 Afsus qildi Ahmad aytgan so'ziga,
 Qora qoni tepehib keldi yuziga.
 Olti mingta yigitidan ayrilib,
 Kunduz kuni qorong'i bo'p ko'ziga.

Ahmad to'xtab afsus qilib qarab qoldi. Munshilarni oldiga chaqirib oldi.

— Bu o'rdaga kirib o'z ishimni qilmasam menda orom yo'qdir. Mamlakat mulki hokimlarga xabarnoma yozinglar, — deb noma yozdirdi. Nomaning mazmuni shunday: «Eshiting, ey fuqarolar, yurt amal-dor, sarkardalar! Man Ahmadbekdirman. Shu xabarni sizlarga yubordim. Go'ro'g'lixon o'g'lonlari bilan, yigirma to'rt ming lashkari bilan yetti oylik yo'l bosib Saroy shahriga bordik. Shohdor bilan qattiq jang qildik. Go'ro'g'lining bolalari o'ldi. Go'ro'g'li ham zahmdor bo'ldi. Oti bilan yetaklab, tog'ning ustiga olib chiqdim, tizzamga bosh qo'yib vasiyat bilan jon berdi. Eshiting fuqaro, Go'ro'g'lining vasiyati shuldu: «Tog'a, endi mening o'rninga sohibim siz, yurtimni sizga topshirdim. Beva-bechoralarni, yetim-yesirlarni, kambag'al boylarni oliq-soliq, xiroj-bojlari bilan xazina qildim. Bul xazina yurtimning o'zini haqidir. Menda merosxo'r yo'qdir, yurtimga xabar bering, tamom fuqorolar kelsin, xazinani qismat bilan taqsim qilib, bo'lib olsin. Mening ruhimga duo qilsin. Men dan keyin qolgan mulk sizga bo'lsin, deb vasiyat qil-gan. Fuqarolar, shu xabarni bilinglar, bir-birlaringga tezlik bilan xabar qilinglar. Uch kundan qolmay kelinglar, xazinani yetishicha taqsim qilib olinglar,

xonning ruhiga duo qilinglar» deb bu xabarni yozdirdi. Munshilarga o'qitib ko'rib, qo'liga xatni berdi. Ular bu xabarni tezda xalqqa yetkazdi. Bu fuqarolar dunyoni olamiz deb bir-birlariga qaramay, yo'l tortdi.

Ahmad qildi uch kun tog'da fursatdi,
Har tarasga yubordi e'lon xatdi,
Fuqarolar bu xabarni eshitdi,
Dunyo uchun jonni sotgan olomon,
Bir-biriga qaramasdan yo'l tortdi.
Ahmad mindi shiddatlanib otiga,
Yetib keldi olomonning ustiga.
To'rt ming xalqi olomonlar to'plandi,

Tutunlar osmonni tutdi burqirab,
O'qlar o'tar yulduzday bo'p shirqirab.
Jonlaridan umid uzdi olomon,
Darvozaga borolmaydi chirqirab.
Ahmad otga mindi, qildi g'ayratdi,
Nayza bilan qilichlarin tezlatdi.
Kimki bormay qarab qo'ysa orqaga,
Qilich bilan boshin kesdi, so'latdi.
Olomonlar oh-voy deb zor yig'lab,
Boraverdi Askar o'qiga qarab.
O'q tekkanlar ajal suvini yutdi,
Bu ajalga chiday olmay olomon,
Darvozani teng yopishib qulatdi.
Borib Askarbekni mahkam ushladi.
O'n uchini boshin kesib tashladi.

Chambil ellar endi bo'ldi arosat,
O'lganlarga bo'ldi davri qiyomat,
Olomonni, qolganlarini haydab,
Shahar tomon ravon bo'ldi bek Ahmad.
Olomonni haydab shaharga yetdi,
Ola ber deb xazinani ko'rsatdi.
Olti mingta yigitga tayinlab,
Ketmasin deb har ko'chaga poylatdi.

Olononlar oldi g'aznani talab,
 Haydadi tag'i Gulboqqa qarab.
 Timdan o'tib rasta bordi mo'minlar,
 Kimki timdan qadam qo'yib chiqardi
 Omon bermay otib turdi Berdiyor.
 Ahmad qildi «qaytmanglar» deb xurushdi,
 Kim rastadan chiqdi o'qiga uchdi.
 Tuzalmaydi tekkan o'qning yarasi
 Ko'z tegib buzildi xonning qal'asi,
 Kim rastadan chiqsa otar Berdiyor,
 Qutulmaydi yalang edi orasi.
 Berdiyor qildi ustин-устин otishni,
 O'lik degan g'aram bo'lib aymashdi,
 Dori o'qlar alangasi timlarga,
 Shamol bilan birga kelib tutashdi.
 Tutun yo'lin o'rlab chiqib osmonga,
 Timlar kuyib o'lik ustiga tushdi.

O'lik yotdi bir-biriga munashib,
 Rasta-timlar kuydi o'likni bosib,
 Ko'chalargacha bosildi o'liklar,
 Kuz kunida o'lgan tanalar sasib.

Berdiyorda tobi-toqat bo'lmadi,
 Otaverdi birdam orom olmadi,
 Hayday desa bek Ahmadbek yaqinlab,
 Olomondan biror kishi qolmadi.
 Yig'ladi oh tortib, ko'zini yoshlab,
 Bir nechalar qoldi **yerni** quchoqlab,
 Ahmad sardor o'rda qarab jo'nadi.

Olti ming yigitni boshlab, Ahmad o'rdaga yetib borib, otdan tushdi. Ahmad sardor o'rdaga tushib katta-yu kichik, mirza-yu umarolar oldida o'tirdi. Ko'chalarga jarchilarni buyurdi, darvoza-darvozaga kishi qo'yib bekittirdi. Jarchilar ko'chalarda chaqirdi: «Zamon-zamon kimniki, Ahmad sardorniki. Gulbog' Berdiyorniki» deb ko'cha-ko'chada jarchilarning

ovozlari eshitilar edi. Berdiyor ko'rdi, shovqin pasanda bo'ldi. Qal'aning ustiga chiqdi.

Qarasa, ro'parasida dushman qolmabdi, ko'cha-ko'chalarda rasta-timlar kuyib tushib, tutunlar tuman-day Chambitning tepasini tutib yotibdi. Qal'ani ustidan Berdiyor har tarafga qaradi. Sirtqi darvozada dor ustida osilgan o'likni ko'rdi. Ahmad akam Askarni o'ldirib kelgan ekan, dedi. Yana darvoza tepasidan devolning ichiga tushdi. Sheriklariga aytidi:

— Ahmad o'rdaga borib joylanibdi. Sirtqi darvozada, dorda bir o'lik osilib turibdi. Akam Askarning o'ligi bo'lsa kerak. Ey birodarlar, beparvo bo'l manglar, dushman bo'lsa-bo'lmasa o'qning ketini uzmay, otib turinglar, enalarimga kirib bu xabarni aytayin,

— dedi.

Gulboqqa kirib Berdiyor:

— Ey mehribonlarim, Ahmad tog'am Saroy yo'lidan qaytib kelibdi, lashkar qilib, sirtqi darvozani buzibdi, akam Askarni dorga osib o'ldirib kelibdi. Sizlarning qastilaringdan olti kundan beri men bilan jang qiladi. Axir darvozaga kelolmay, bugundan qaytib ketdi. Ko'cha-ko'chalarda jarchitarning «Zamon-zamon Ahmadbekniki» degan ovozlarini eshtiddim. Buning ko'nglida nima muddaosi bor bu ishlarni qiladi. Gulbog'da xazina yo'qdir, sizlarni o'lja-asir qilmoqqa, buning qilgan g'avg'osi shudir. Bu zolimning qo'liga girifstor bo'lmaylik, — deb yig'ladi. Berdiyoring bu so'zini eshitib, o'rda ichidagi xotinlariga vahim tushdi. Birdan yig'i ko'tardi. Og'a Yunus aytidi:

— Ey bolam Berdiyor, kimki enadan tug'ilgay, o'lim u bilan birga bo'lgay. Otang avvali xudo, qolmish bizni senga ishonib tashlab ketgan. Darvoza tagida yotaver, dushman kelsa otaver. Qazo yetsa ketamiz, dushmanqa yo'l berguncha qo'lida jon bergen afzal. Bor, seni xudo saqlasin, bolam, — deb Berdiyoriga duo qildi. Berdiyor enasining u so'zi

bilan qazoga sabr tilab orqasiga qaytdi, sheriklarining oldiga chiqib keldi. Darvoza tagida yotaverdi, o'jni terib otaverdi. U otaversin, endigi gapni o'rda ichidagi xotinlardan eshititing. Berdiyor chiqib ketgandan keyin hammalari dod-fig'on qilib, yig'i ko'tardi. Og'a Yunus bir soat sabr qilib turdi. Oxir toqat qilolmay: — Oyimlar, yig'ini qo'yinglar, mening sizlarga deydigan bir so'zim bor, — dedi.

Xotinlar baravar yig'ini to'xtatdi. Og'a Yunus xotinlarga qarab:

— Kimki davlatmand bo'lsa, diliga keltirsaki, hech narsadan kamligi yo'q, bir kishiga muhtojlik joyi ham yo'q, deb o'ylasa, muqarrar gumroh bo'lur. Agar banda dunyoda kamlik, muhtojlikni ko'p tortsa, aytsaki, men xudoga nima yozdim, bir yaxshilik ko'rma-dim, desa bu ham muqarrar kosir bo'lur, yaxshisi shu — sabr qilmoq kerak. Shuncha yil Go'ro'g'lining davlatiga g'arq bo'lib o'tdilaring, hech nimadan kamlik ko'rma-dilaring. Bir kunlik jafosiga chidamay, dodvoy qilsak, bundan battar jafoga solsa, qo'limizdan nima keladi? Yig'idan foyda yo'q. Bu jafoga bir uy topmoq kerak. Mana mulki sherik, Ahmad tog'am hukumat ixtiyor o'zida edi, o'z mulkiga o't qo'yib, kuydirib, yuboribdi.

Buning bunday qilmishidan maqsadi o'ylaymanki, bizni o'lja — asir qilmoq qastida shu ishlarni qilayotgandir. Buning ro'parasida turaversak bir kun qo'rg'oning bir yerini ushatib kiradi. Bizni qo'lga olsa, hammamizni rasvo qiladi. Oqil kishi dushman dan o'zini yashirgay. Sizlarga men bir maslahat bersam nima deysizlar? — dedi.

Xotinlar: — Hammamizning ulug'imiz siz, so'zlang, eshitaylik, — dedi. Og'a Yunus aytdi:

— Mana shu Go'ro'g'li otalaring go'rdan tug'ilib chiqqanda, shu Ahmad tog'asining o'ziga boqim bo'l-gan. Mana mulki sherik Ahmad tog'amizning bizga solgan kulfat-uqubatlari bunday bo'layapti. Buni

ro'parasida turmay qochaylik. Berdiyorni chaqiraylik, bizni yolg'iz yer bilan boshlasin. Handakdan o'tkazib, qal'ani devoliga chiqib har qaysimizni belimizga arg'amchi solib, devoldan oshirib tushiraversin. Qal'a-dan salomat chiqib olsak, Ahmadning kishilariga ko'rinxay, kechalab qochib ketaversak, Berdiyor darvozani poylab yotaversin. Eson-omon Xidiraliboy otaxonimiznikiga yetib olsak, to Ahmad bizning daramizni u yerdan topguncha, xudo podsho, Go'ro'g'-lidan bir xabar kelib qolar, — deb xotinlariga shu maslahatni ko'rsatdi.

Xotinlarga bu so'z ma'qul keldi. Berdiyorni chaqirdi. Berdiyor yo'l boshlab, ularni olib jo'nadi, namozshomda sirtqi darvozaga yetdi. Berdiyor qal'aning ustiga chiqdi. Xotinlarning beliga arg'amchi solib devoldan bitta-bittalab tortib olib, oshirib, qal'aning tashqarisiga tushirdi. Berdiyor xotinlar bilan ma'zurlashib qaytib ketdi. Gulboqqa kirib, darvoza tagida yotaverdi, o'qini uzmay terib otaverdi. Endi xotinlarni yo'lda ketayotganidan eshititing. Ular uy ichida kimxob, ipak paloslarni yalang oyoq bosmagan oyimlar kovushlarini qo'liga olib, namozshomda Cho'listonga qarab jo'nadi. Pochadaroz jangal, cho'kurlarni kesib, oyoqlarini teshib, oyoqlari qonga botib, yig'i-sig'i bilan kechasi yo'l yurdi. Tong otdi. Kun qiyomgacha yurdi. Bir adirning tagida keng bir suvi yo'q toshloq soy bor edi. U toshloqqa tushib yurgandan keyin xotinlarni oyoqlarining yaralari toshga botib yurolmay qoldi. Bir yerga borib, to'planiib o'tirib oldi. Bir qadam yurgani ham oyog'ida mador qolmadidi. Bir-birlarini peshonasiga peshonasini qo'yib, yig'iga tushdi. «Yurolmaymiz, shu joyda o'lar ekanmiz», deb bular bu yerda tursin, endi bular qora tortib borayotgan Xidiraliboy otaxonidan eshititing.

Xidiraliboy dunyodor, katta boy edi. Yetti ming yilqisi bor edi. Yetti ming yilqini ichida uchta baytal yo'qolib ketgan edi. U boy bir biyani minib, uch

baytalmi istab har kuni erta bilan ketar edi. Kech bo'lganda kelar edi. O'sha xotinlar soyni ichida o'tirib qolgan kuni boy o'tovga tushda keldi, otdan tushdi, otni boylab o'tirdi:

- Ho kampir, — dedi.
- Ha, — dedi kampiri.

Chol aytdi: — Hech ovqating bormi, qornim ochib ketdi?

Bir kosa qatiq bilan bir qozonga qotirgan qotirma chevatini keltirib qo'ydi. Chol qatiqqa chevatini bulab urib oldi, qornini to'qladi. U boyning to'qqiz o'g'il, to'qqiz qizi va to'qqiz kelini bor edi. To'qqiz o'g'lidan o'rtanchasining oti Ma'qulcha edi. U bari bolalaridan sho'x edi, hangomachi, dangasa edi. Boy shu o'g'lini yomon ko'rар edi.

— Shu mening dunyomning qadriga yetmay, uni yo'qotadi, — deb yomon ko'rib, hech otini atab chiqmas edi. Chol qotirmaga qornini to'yg'izib bo'lib, o'tirgan yeridan u yoq-bu yoqqa qaradi. Yomon ko'rigan o'g'lidan boshqa o'g'li ko'ziga ko'rinnadi.

Noiloj: — Ho Ma'qulcha, — dedi.

Ma'qulcha o'g'li: — Ha, — dedi.

Boy: — Menga bir tuzukroq ot tutib bergin, bu ot charchab qoldi, o'n besh kundan beri har yoqni qaradim. Mana shu o'rta bel adir dalasini qaramadim. Shu bugun o'sha tarafni ham qarab kelay-chi, ehtimol shu uch baytal topilib qolsa, — dedi.

O'g'li aytdi: — Buncha umring uzoq bo'ldi, yo o'lmaisan. O'n besh kundan beri ertametan ketasan, kechqurun kelasan. Beling bukrayib, qulog'ing dik-rayib otdan tushmaysan. To'qqiz o'g'il ekanmiz, qaranglar, bolalarim, deb bizga buyursang, oyog'ing uzatib uyda yotsang. To'qqiz yoqni qaraymiz. Bor bo'lsa topib kelamiz. Yo'q bo'lsa yo'qqa chiqadi. Uch biyani topaman deb, bir yerda o'liging qolar, qarg'a-quzg'un yeb ketar, o'ligingni istab qaysi jangallarni axtaramiz, — deb o'midan turib ketdi.

Uch quloch yog'ochga bir quloch arg'amchini uguruq qilib boyladı. O'n beshta bezori ulfatini chaqirib oldi. Bir to'p yilqini haydab bir soyning ichiga olib borib qamadi. Sheriklarini to'stirib qo'ydi. Yilqilarning ichida bir qora biyasi bor edi, odamni ko'rsa, g'oyib bo'lib ketar, yovvoyi bo'lib ketgan edi, ko'ziga shu ko'rinish qoldi. Uguruqni haligining bo'yniga tashladi. Qora baytalni yetaklab olib chiqdi. Sheriklariga javob berdi. U baytalni yetaklab o'tovga keldi, o'tovni og'ziga boylab qo'ydi. Qoziqda ham tek turmay, birday yugurib turdi.

— Keling, ota, mining, — dedi. U otga yomon abzal urib qo'ydi. Chirib qolgan jun, bosma ayil tortib qo'ydi. Bir qilchilvirdan tizgin, qildan yuganni urib qo'ydi. Chol otni mingani turib boraverdi. Chol to'qson to'rtga kirgan edi, bukrayib qolgan edi. Oldida turgan odamni ham ko'zi ilg'amas edi. Yo'qotgan baytallarni ko'rsa ham tanimas edi. Birovdan so'rab topib kelaman, deb qidirar edi.

Ma'qulcha otasini o'ldirish uchun o'sha otni egarladi. Chol otga yaqin yetganda bo'ynini bit chaqib oldi. Qashlanib turib qoldi. Orqasiga qarab:

— Ho kampir, o'tovga kiray, yaktak-ishtonimni yechay, po'stinni ustidan belimni boylab olay, otga minib ketaveraman. Meni dalada kim ko'rib yuribdi. Yuvib qo'ygin, men kelguncha qurib qolar, — dedi. O'zi o'tovga kirib ishton-yaktagini yechdi, po'stinni ustidan kalta ip bilan boylab oldi. Otni oldiga keldi. Ma'qulcha o'g'li otni oldida poylab turib edi, egar og'ib ketsa boshqa abzal urib ber, — deydi, deb. Chol kichkina bo'lib qolgan edi. Qo'lltig'iga qo'l solib, dast ko'tarib, otga mindirib qo'ydi. Tizginni yechib cholning qo'liga berdi va qo'yib yubordi. Oi ko'tarib ketdi.

Chol: «Yo navzanbillo, qayda o'laman ekan» deb boraverdi. Borib-borib to'planib o'tirgan xotinlarga ro'para bo'ldi. Boboni oti to'xtab, orqasiga tisarilib,

pirq-pirq etib turib qoldi. Bu nimadan hurkadi ekan, deb bobo xo'b singalab qaradi. Qip-qizil to'plab qo'ygan cho'g' jimir-jimir tovush qilib turganga o'xshab ko'rindi ko'ziga. Bobo yana singaladi, bu nima ekan deb. Kichkina-kichkina qiz bolalarga o'xshab ko'rindi. Bobo aytdi:

— Yoshligimda qarilarning suhbatida o'tirganimda keksalar aytardi: bolalar, qulqlaringda bo'lsin, ha, vabo ham xotin kishiga o'xshab to'planib yuradi. Xoh ko'lida, xoh cho'lida shunaqaga uchrab qolsalaring, o'zlaring bilgan duolaringni o'qib, dam solsalaring, yo'q bo'lib ketadi, der edi. Men jinning to'planib qolgan yeriga kelib qolganga o'xshayman, deb bobo bilgan duosini o'qib, dam soldi, hech yo'qolmadi. Bu ajina gapirmasam ketmas ekan, — deb bobo bir so'z dedi:

Bor xudoyo, bergin bu jonga pano,
Tanda jonim qilma bugun begona.
Tagimdag'i otim asov hurkadi,
Nari yo'qol, to'planishgan ajina.

Shunda Go'ro'g'lining o'rtancha xotini Misqol pari bir so'z dedi:

Aytay, bobo, hasrat dodu nadomat,
Arosati bugun bo'ldi qiyomat.
Bu joylarda bo'lmas jini falokat,
Jin demang, bobo, naslim odamzod.

Bobo:

So'rasam odamday javob berasan,
Kim ko'rinsa aldab aqlin olasan,
Odamman deb meni yo'lga solasan,
Qaydan chiqding, qaysi elga borasan?

Misqol:

Maydonda pand berar otning mayibi,
Saroy ketdi Chambil elning soyibi.

Yurtin buzdi Ahmadbekday noyibi,
Biz bo'lamiz Go'ro'g'lining zayibi.

Bobo:

Hurkitma qari bobong otini,
Bandaga solmasin o'lim otini.
Tanimasdan men sizlarga so'zladim,
Sen ekansan Go'ro'g'lining xotini.

Misqol:

Namozshomdan beri biz yo'l yuramiz,
Ahmadbekdan biz jafolar ko'ramiz.
Biz kelamiz Ahmad tog'amdan qochib,
Xidiriliboynikiga boramiz.

Bobo:

Jin desam odamga o'xshar tovushing,
Oyoqqa yarashgan kiygan kovushing.
Borsangizlar Xidiriliboy uyiga,
Bollarida, o'zida bor nima ishing?

Misqol:

Namozshomdan beri biz yo'l tortamiz,
Ahmadni dastidan g'amga botamiz.
Biz kelamiz Ahmad tog'amdan qochib,
Xidiriliboy bizning vakilotamiz.

Xon Saroy ketgandi mulkidan kechib,
Ahmad odam so'ydi qonlarni kechib.
Chambil elni vayron qildi bek Ahmad,
Biz kelamiz Ahmad tog'amdan qochib.

Shunda bobo peshonasiga bir urdi:

— Hoy darig', qariguncha ko'milgan yaxshi ekan.
Umrim ichida bularning yaxshi izzatlarini ko'rib,
yaxshi ovqatga to'yib, yoshim shu joyga keldi. Bularni
eshigimga bir keltirib mehmon qilib, bir ko'nglini
xush qilmadim, deb dog'i hasratda yurar edim.

Eshituvdim, Ahmad ahmoq Go'ro'g'lini Saroya ketkazib, Chambilda olomonlarni o'ldirib yurgan emish deb. Bu bechoralar Ahmaddan qochib, meni otam deb, menikiga kelayotgan ekan. Bularni tanimay jin, ajina, — deb yomon so'zlarni aytdim, meni tanimadi, tanisa edi, hormang ota? — der edi. Tanimagani yaxshi bo'ldi. Endi o'zimni tanitmay ketay. Xidiraliboy meniman desam shunikiga borib nima obro'y toparmiz, deb u bechoralarning g'ami ustiga yana g'am qo'shilmasin, — dedi o'zicha.

— Ho bolalarim, o'rirlaringdan turinglar. Mana shu adirning ustiga yuringlar. Adirdan oshib o'tsalaring tekis o'tovlar ko'rini turadi. Borsalaring, chekkadagi oq o'tovlar Xidiraliboyning o'tovi. To'qqiz qiz, to'qqiz kelini bor. Bolalari juda qobil, yaxshi mehimon qiladi. Tezroq yuringlar, bevaqtga qolmanglar, — dedi.

Xotinlar o'rirlaridan turib, adirga qarab yurdi. O'rnidan turolmay, qadam bosib yurolmay, oyoqlarining yaralari zo'rladi. Emaklashib, bir-birlariga suyanishib, bir-birini yetaklashib, yig'lashib adirga qarab boraverdi. Bularning ahvolini ko'rib boboning ham rahmi keldi. «Sizlarni shu kunga solmay Ahmad o'lsin», — deb yig'ladi.

U aytdi: — Bu bechoralar, shunday mashaqqatlar bilan borsa, mening bolalarim bularni tanimasa, buyoqqa kir, bu yerda tur demasa, «tanimasni siylamas», qayga kirarini bilmay, dala yerda qolmasin. Bulardan ilgariroq o'zim uyga borib, bolalarimni xizmatga buyurib, to bularni qoshida o'zim bo'lmasam bo'lmas, — deb otini lo'killatib ketayotgan edi, bir joyga yetganda yerning tagidan suv o'tgan haval yerga ot shulg'ib kirib ketdi. Ot boshicha sanchilib qoldi. Bobo egardan o'tib, otning bo'yniga yotib, otning boshini quchoqlab qoldi. Ayil uzilib, egar cholning ostidan irg'ib chiqib ketdi. Ot chopib turaman deb boboning burniga boshini urdi.

Boboning burni qonadi, otning yoliqa ishqalib belidagi ip yechildi. To ot o'mnidan turguncha, po'stin boboning boshidan oshib, otning boshiga yopildi. Boboning boshi bilan otning boshini po'stin o'rabi qoldi. Jonining boricha ot turib, ko'tarib ketdi. Chol otning boshini quchoqlab borar edi. Boboning orqasi ochilib qoldi. Turay deb, bobo harchand harakat qildi, o'zini o'nglab ololmasdi. Ot bir jilg'a ichiga zirqirab ketaverdi. Har yerda o'limtik yeb yotgan elatning itlari beshta o'nta bo'lib, otning orqasidan quvib borardi. Itlarning shovqini bilan ot jonining boricha qochar edi. Shu borganicha, el ichiga oralab ketdi. Turkmanlar ko'rdiki, bir kishining orqasi ochilib, ot yoliqa yotib boryapti. Ko'p odamlar otni to'sib, tutmoqqa qasd qildi. U ot odamni ko'rmay, temsa bosib ketar edi. O'tovlarni oralab, aylanib chopa berdi. U boboning bola-chaqalari aylanib, orqasidan yig'lab yugurar edi. Bobo bildiki, el ichida orqasi ochilib sharmanda bo'ldi. «Bu kundan o'lGANIM yaxshi» deb o'zini otdan tashladi. Yerga po'stin boshiga yopilganicha beti bilan ag'darilib tushdi. Bobo miq etmay qoldi. Bola-chaqalari bobo yalang'ochligi uchun uning oldiga borolmay turar edi. Keksa kishilar bir qo'li bilan ko'zlarini bekitib kelib, bir qo'li bilan po'stinni tortib, boboning ustini yopib qo'ydi. Bola-chaqalari ko'rpa, zanbar olib kelib, boboni ko'rpgaga o'rabi, zanbarga solib, ustiga po'stinni yopib, yig'lashib, uylariga ko'tarib ketdi. O'tovning ichiga olib kirib yotqizib qo'ydi. Harchand gap so'rasa, bobo indamas edi. Yurt-ellar beshlab, o'nlab kirib, ko'rib chiqib ketib turar edi. Bola-chaqalari «dod-voy» deb tepasida yig'lashib turardi. Keksalar kirib, yuragiga qo'l solib ko'rdi.

— Ko'p yig'lamanglar, o'lGANI yo'q. Keksalik qilib sal ko'ngli ketibdi, endi tuzuk bo'lib qoladi, — deb chiqib ketar edi. Bunga ham bolalari qanoat qilmay, balandroq shovqin solib yig'lashar edi. Cholning

kampiri cholimning joni bor ekan, deb tuya-mollar-dan so'yib, cholning boshidan aylantirib, xomtalash qilib, cholimdan sadag'a derdi. Yig'i-sig'ining ichida «uni so'y, buni qo'y» degan gap cholning qulog'iga kirib qoldi.

Chol: — Ho kampir, — deb chaqirdi. Kampir:

— Ha, — deb oldiga keldi. Chol aytdi:

— Tashqarida nima shovqin, uni qo'y, buni so'y degan, — dedi. Kampir aytdi:

— Sizni shaytonlab qoldi, deb mollardan so'yib sadaqa qilib, xomtalash qilayotirman, — dedi.

Chol aytdi: — Men gapirib bo'lguncha so'ygizmay tur.

Kampir: — Hoy so'y may turinglar, — dedi.

Chol aytdi: — Men uch biyobon istab o'rta bel dalasiga darasiga bordim. Go'ro'g'lining xotinlari bir yerga to'planishib o'tirgan ekan. Shularga duchor bo'ldim. Otim hurkib, to'xtab qoldim. Jinmisan, odammisan? dedim. Ko'zim xiralik qilib tanimabman, ular javob berdi. Go'ro'g'lining zaifalari ekan. Go'ro'g'li Saroya ketgan ekan Ahmad sardor Cham-bilni buzib, bularni o'lja-asir qilmoqqa qasd qilibdi. Ahmaddan qochib, xotinlar menikiga kelayotgan ekan. O'zlarini menga tanitdi. Men ularga aytkan so'zimdan uyalib, o'zimni tanitmadi. Adirdan oshib borsalaring, o'tovlar ko'rindi, chekkadagi oq o'tovlar o'sha Xidiraliboyning o'tovi deb, ularga o'tovni tayinlab jo'natdim. O'zim bulardan ilgariroq borib turay, deb bir jilg'ani ichi bilan tezlab kelayotsam bu haromi o'lgin ot yiqildi, meni shu kayfiyatga soldi. Yurt oralab qochib kelib, el ichida meni sharmanda qildi. Bu beobro'y bo'lganimdan eldan nomus qilib, o'zimni o'likka solib yotibman, o'zimga hech narsa qilgani yo'q. Men uch biyani topaman deb shunday rasvo bo'lsamu, sen buyoqdan so'yib, tugatib tursang! So'ygizma, qizi-kelinlaringni buyurgil, oyimlar kelguncha bir joyga o'tov tikib, joy rostlab

tursin. Oyimlarga bisotimda nima bo'lsa sarf qilib mehmon qilinglar, ularning ko'nglini yaxshi to'ldiringlar. U oyimlarning ko'p izzatlarini ko'rganman. Meni so'rasha qattiq kasal degin. Ko'rgani borgan kishini ham tanimaydi denglar. Shu so'ranganlaring ham kifoya degin. Ko'tramiz deb kelib, meni tanib qo'yib, u adirning tagidagi boyagi chol shu emasmi, deb mazamni qochirmasin, — dedi. Kampir to'qqiz qiz, to'qqiz kelinini chekaroqqa bir o'tov tikinglar, deb buyurdi. Cholning o'tovidan ellik qadamcha yiroqroqqa bir o'tov tikdi. O'tovni juda yasadi. Oyimlar adirni ustida qizg'aldoqday qizarib ko'rindi. To'qqiz qiz, to'qqiz kelin yugurishib borib, oyimlar bilan ko'rishdi. Qo'l ushlashib, gaplashib, yetaklashib kelib, o'tovga kirgizdi. Hammalari o'tovga kirib o'tirdi. Cholning qizi, kelinlari dasturxonlarni to'kib soldi. Oshu go'shtlarga juda serob qildi. Chol:

- Ho kampir! — dedi.
- Ha, — dedi kampiri.

Chol: — Oyimlardan hech darak bormi? — dedi.
Kampir aytdi:

— Oyimlar bog'ana kelgan. Qizu kelinlar mehmon qilib o'tiribdi.

Chol aytdi: — Sen bormadingmi?

Kampir: — Men bormadim, — dedi.

Chol aytdi: — Ey bachechag'ar, beaql, ular sening yaxshi kiyimingni kiygani, osh-ovqatingga to'ygani kelmagandir. Ular dilshikasta bo'lib kelgan. Sen ko'hna kishisan, ko'p yashagan, sen borib, bularning oldida o'tirishing lozim. Yiroq-yaqindan timsol qilib, ularga so'z so'zlab, ko'nglini ovlab o'tirishing zarur, — dedi. Kampir:

— Men bormayman, — dedi. Chol:

— Nimaga bormaysan? Ey aqli qisqa, beaql, to'qqiz ul, to'qqiz qiz, to'qqiz kelinning enasi bo'lsang, shuncha mollarni egasi bo'lsang, moli tuvorni ichida turgan bo'lsang, sen elat xotini ekanligingni bilmay-

dimi? Bir molni sotib usti-bosh qilsang, oyimlarni kiyimidan ortiqcha bo'lasan. Elat xotini deb seni ayblamaydi. Borgin, shu mehmonlarni nima bilan ham bo'lsa vaqtini choq qilib o'tirgin, — dedi. Kampir o'ylanib qoldi. Kampirning kelinchakligidagi yaxshi liboslari bo'g'chada kiyilmay qolavergan edi. Sigir, yilqilarni sog'ib, sutini soqqanda u kiyimlar bulg'anadi, deb kiyimagan edi. Kampir anavi qizimga bersammi, manavi kelinimga bersamimi deb qarigan-da qizg'anib yurarkan. Hech qaysiga bergisi kelmay, u kiyimlar bo'g'chada turgan edi. Kampir o'ylab aytdi: «Oyimlarda bor kiyim menda yo'qmi, shu kiyimni shu bugun kiymasam go'ristonda kiyaman-mi?» deb turib, narigi o'tovga kirdi. Sandiqni ochib kiyimini oldi. Kiyimini sozandalar shunday maqtaydi:

Bulbul sayrab ochar gulni,
 Kiyik kezar tog'u cho'lni,
 Momom kirdi ul o'tovga,
 Sandig'iga kalit soldi.
 Sayis to'plar shunqor qushni,
 Oldi bo'g'cha noprasmachni.
 Saxatdan nag'al qoqtirgan,
 Kiydi quyma kovushini.
 Zarrindan ko'ynakni kiydi,
 Qiz o'rniga o'zin suydi,
 Tilla qubba marvaridlik,
 Sochpopuklarni taqdi.
 O'smani qo'ydi qoshiga,
 Durrani soldi boshiga,
 Satta gavhar yoqut munchoq,
 Marjonlar osdi to'shiga.
 Sallachani dol qo'ydi,
 Chekkasiga gul qo'ydi,
 Upa-elik mo'l qo'ydi,
 O'zini qizday yasatib.
 Bettariga xol qo'ydi.

Po'tani boylab beliga,
 Tilla uzuk gavhar ko'zlik,
 Yarqiratib savlat bilan,
 Bilaguzuk soldi qo'liga.
 Qo'lda suqsur g'oz bo'lib,
 Parilardan soz bo'lib,
 Pardoz bilan xo'p yasandi,
 O'n besh yashar qiz bo'lib.
 Surmani qo'ydi ko'ziga,
 Xo'p oro berdi o'ziga.
 Oynakni oldi tiziga.
 Sochlarini silanib
 Termildi oyday yuziga.

Kampirni shoviri chiqmay qoldi. Chol yotgan joyda ketdimikan deb: — Hoy kampir, — deb chaqirdi. Kampir narigi o'tovdan «hu» deb javob berdi.

— Hali ham shu yerdamisan? — dedi. Kampir dim bo'lib qoldi. Chol boshini ko'tarib narigi o'tovga keraganing tagidan qaradi. Orqasi o'girig'lik sochiga soch popukni osib tashqari qarab tizzasiga bir oynakni olib bir kelinchak taranib o'tiribdi, suqsurday bo'lib. Chol aytди: — G'uvlagan shamol turgan ekan, meni xudo urgan ekan, haligina dalada oyimlarni tanimay jin, ajina deb qo'yib undan pand yedim, yo bu o'tirgan qizlarimning kenjasи, yo to'qqiz kelinning kenjasи.

— Ho bolam, tanimay, juvon o'l, deb qo'yibman, xafa bo'lib yurmagan, — dedi. Kampir kulib:

— Qariganda ko'zdan qolmay o'ling, — dedi. Chol:

— A barchag'ar, qiz bo'libsan, qizdan ham soz bo'libsan, oldingga borsam, ko'nglingni olsam, yo'lga solsam bo'lar ekan, — dedi. Kampir o'rnidan turib sha'nu shavkat bilan sochpopuk, isirg'alarini shaldiratib ketaverdi. Eshikda xizmat qilib yurgan kelinlar kirib oyimlarga xabar berdi — kampir kelayotibdi deb. Oyimlar yakbora yugurishib o'tovdan chiqdi, hammlari quchoqlashib ko'rishdi. Og'a Yunus kampirni

qo'sidan ushlab, to'rga olib chiqib yoniga o'tqazdi.
 Fotiha o'qishdi, bir-birlaridan hol-ahvol so'rashdi.
 Oyimlar yer tagidan ko'z qirini solib, kampirning
 pardozlariga qarar edi. Yuraklar chokidan so'kilib
 ketganday kulgilari kelar edi. Boshlaridagi kulfat-
 g'amning ko'pligidan kulmoqqa bir-biridan oru no-
 mus qilib, yenglarini og'zilariga tutib, pinhona kular
 edi. Bunda Go'ro'g'lining o'rtancha xotini Misqolpari
 o'rnidan turib, ostonadan tashqari chiqdi. U yerda
 turib, kampirga qarab ta'zim qilib bir so'z dedi:

Kim rahm etar ko'zdan oqqan yoshimga,
 Kelib qolmasin mirg'azablar qoshimga.
 Mehribonim, ena, sizga arz qildim,
 Bir simsari telpak bering boshimga.

Kim o'tadi bu o'limdan begumon,
 Jumla jonga yaratgandir mehribon.
 Ko'zim ushlab endi sizga arz qildim,
 Ko'z yoshimga rahm qiling, enajon.

Dushmanning xavfini soldi ko'nglimga,
 Ahmad tog'am kirar bo'ldi qo'ynimga.
 Quloq soling, ena, sizga arzim shul,
 Erkak joma-to'n tilayman enimga.

Hech bandani haq solmasin o'limga,
 Ahmad tog'am qirg'in soldi elimga.
 Quloq soling, ena, aytay dodimni,
 Qilich bilan kamar bering belimga.

Chidayman do'stdan tushgan o'timga,
 Ahmad tutsa sepkil solar betimga.
 Mehribonim, ena, eshit arzimni,
 Bir no'g'ay etik so'rayman putimga.

Mulkin tashlab Saroy ketdi badavlat,
 Chambil qal'asini buzdi bek Ahmad.
 Ahmad bizni ushlab olsa qiyomat,
 Safarga yaroqli bering bitta ot.

Zar kokilim zardan tarab o'rayin,
 Shu kamchilik, ena, sizdan so'rayin.
 Xudo boshga neni salsa ko'rayin,
 Saroyga, xonim, istab borayin! —

deb, kampirga arz qildi. Kampir ikki kelini, ikki qizini haligi o'tovga buyurdi. To'rt bo'g'chani olib kelib, Misqolning oyog'i tagiga tashladi. U bo'g'chaning bandini ochdi. O'ziga munosib uch qavat hilatni, oyog'iga etikni, boshiga simsari telpakni kiydi. Beliga kamar boyladı. Qilichni osdi, kokilini taxlab telpakni tagiga bostirdi. Sumbati shamoyilini er yigitday qildi.

Kampir aytdi: — Ey parizod, kiygan kiyiming o'zingga nasib qilsin, bisotimda borini berdim. Libosning ixtiyori xotinda bo'lar, hayvonni ixtiyori erkakda. Otni otangdan so'rab ol, — dedi.

Misqol: — Otam qayerda? — dedi. Kampir aytdi:
 — Otang qattiq kasal, ko'rgani borgan kishini ham tanimaydi.

Bunda chol oyimlarni bola-chaqalar mehmon qilib o'tirar, kun peshin bo'libdi, shu uch baytal yo'qolib ketmasin, bir istab kelay, deb po'stinni kiyib, bir otni minib narigi o'tovni qoshida teskari qarab turgan edi. Misqol tashqarida edi. Misqol qarasa, teskari qarab bir kishi narigi o'tovning qoshida otga minib turibdi.

Otam shu odam bo'lmasin deb Misqol «hu ota» deb chaqirdi. Qarasam tanib qo'ymasin deb chol teskari qarab turganicha «Ha» dedi. Misqol aytdi:

— Menga bir tuzukroq otingizdan bersangiz. Saroyga sultonni orqasidan borsam, — dedi. U chol katta o'g'ili Aqilchani chaqirdi: — Saman otning abzalini o'zgartmay qamchisi bilan Misqolga keltirib bergin. Abzalini mukammal qilib, taylorlab, bularni kelgan qadamiga hadya qildim, — deb dalaga qarab keta berdi. Otni bobo bularga bermasdi, Go'ro'g'lidan qo'rqqanidan berdi. Aqilcha saman otni egarlab,

yuganlab, olib kelib, Misqolga ko'ndalang qildi. Qamchinni egar qoshiga osib qo'ydi. Katta kundoshi Og'a Yunus pari Ahmadning yo'lidan qaytib kelganini, Askarning dorda qolganini, xazinani talab olganini, Chambilning vayron bo'lganini, Berdiyorning xizmat qilganini, Gulbog'ning salomat qolganini, bularning o'zlar turkman dalalarida sarson bo'lganini, Berdiyorning xizmatini ko'pdan-ko'p ta'rif qilib, o'zlarini Ahmaddan qochib Turkmanistonda Xidiraliboyning eshigida yotganini, Misqolga Xidiraliboydan ot, to'n tilab olib berganini ariza xat qilib, kundoshining bog'ichiga boylab qo'ydi. Kichkina kundoshi Gulnor pari yetti oychalik yo'l bo'lsa, eli yo'q cho'l bo'lsa, o'zi zaif kishi bo'lsa, birovni xonasiga kirib yota bermasa, obu ovqatdan qiynalmasin deb, sanach so'kka shakar qo'shib, tuyib, talqon qilib otni orqasiga bo'ktargi qilib berdi. Qirq besh xotin Misqolni ottantirib, duo qilib jo'natdi.

Misqoloyim mindi otdi,
 Safarni ixtiyor etdi.
 Qirq besh xotin duo qilib,
 Misqoloyimni jo'natdi.
 Mindi otning beliga,
 Qamchisin ushlab qo'liga.
 Otni boshini tezlatdi,
 Biyobon izg'or cho'liga.
 Uzangini tepindi,
 Chu jonivor, — deb dap berib,
 Hayvon borar cho'lni ko'zlab,
 Suvlig'ini ul chaynab,
 Qora yerni qulochlaydi,
 Qulog'ini jimirib.

 Misqol borar yo'lni ko'zlab,
 Saroy shahar yo'lin izlab,
 Ey xudoyo yo'l bergen deb,
 Ko'zdan yoshi tizillab.

Ot chopdi cho'lning dash[t]iga,
Yoqalari ho'l bo'ldi,
Ko'zidan oqqan yoshiiga.

Uzoq yo'llar turush bermas,
Bu hayvonning yugurishiga.
Tizgin qoqib qistab chopsa,
Yo'lni kaflab og'zin ochar,
Suvlig'ini g'archebla chaynab,
Parcha-parcha ko'pik sochar.
Tuman bo'ldi cho'lning changi,
Misqoloyning boshiga.
Uzoq yo'llar toqat qilmas,
Bu jonorning irg'ishiga,

Sovidi terlab iyikday,
Chopib Changib borar tog'i cho'lda.
Ovchi quvgan kiyikday,
Yelib boradi cho'lda.
Otga qamchi tortadi,
Yer bag'irlab ketadi,
Arg'amchiday cho'zilib
Yo'l tanobin tortadi.

To'qaylarda bitgan andiz,
Suv ichinda o'ynar qunduz,
Misqoloyim ot o'ynatdi,
Ham kechayu ham kunduz.
Lochinlar yotar uyada,
Kiyiklar o'ynar qiyada.
Misqoloyim ot chopadi
Sher yigitdan ziyoda.
Misqolni ko'zi pirpirab,
Oftobda yuzi yarqirab,
Hayvon jonvor yo'l tortadi,
Lochin qushday shirqirab.
Orom olmay ot o'ynatdi,
Dam-badam tushib o'tlatdi.
Qisqa-qisqa yo'lda qo'nib,

Yigirma kun yo'l tortdi.
Ayni peshin bo'lganda,
Samkor tog'iga yetdi.

Misqol borib to'xtab qoldi, bir baland tog'ni ko'rib qamalib qoldi. U yoq-bu yoqqa qaradiki yo'l yo'q, qayerdan o'tarini bilmay, pasti-balandga qaradi. Bunday ham g'azabnok yaratgan cho'liston bo'ladimi, men tugul parranda yursa tashnalikdan o'lar ekan. Yigirma kun yo'l yurdim, bir qatra suv ko'rmadim, deb turib edi, oldidan bir katta qurib qolgan archa chiqdi. U qurigan archaning tagidan toshdan jildirab suv chiqyapti, yana toshga singib boryapti. Misqol u suvni ko'rib xudoga shukur, deb otdan tushdi. Qurigan archa shohiga otni tizginidan ilib, qantarib qo'ydi. Toshni to'dalab, suvni bir ko'lmak qilib bir yerga to'plab, yuz-qo'lini yuvib, suvdan uch-to'rt qultum ichdi. Talqondan bir oz yedi. Talqonni yana otning suvrisiga bog'lab qo'ydi. Dam olayotgan edi, ro'parasidan katta bir tosh guldirab qulab kela berdi. Tosh surilib kelib, Misqolga yaqin kelganda bir katta toshga tegdi. Ot pishqirib orqasiga tislandi. Misqol boshini yerga qo'yib yig'ladi:

Doimo timmay oqar ko'zimdan yoshim,
Kecha-kunduz bo'ldi mehnat yo'ldoshim,
Meni tashlab ketdi tilisiz hayvon-ot,
Bir xudoga na yoqmadi qilmishim.

Hasratingda doim oqli ko'z yoshim,
Yo'l topolmay men qilaman ohi voy,
Yo'qdir meni yo'lga solar yo'ldoshim.
Har muddao keldi Misqol diliga,
Qochib ketgan oti keldi aylanib,
Turib ushlab oldi otni qo'liga.

Uzangiga oyoq qo'yib Misqoloy,
Namozgarda mindi otning beliga.
Xustongacha yo'l bosib o'tdi tog'dan

Tog'dan o'tib ketdi Saroy yo'lliga.
 Xuston vaqtি bo'ldi, u tog'dan o'tdi,
 Yarim kechagacha tinmay yo'l tortdi,
 Chaman-chaman bo'ldi u cho'listonda.
 Bildiki, lashkar chiroqqa yetdi.

U vaqtida Misqol to'xtadi. Chiroqqa yetmay turib, yer yuzida qo'yday yoyilib yotgan lashkarning ustiga bordi. U bir-biriga bosh-oyoq bo'lib, sarpo'sh yopgandayin tijilishib, cho'listonda yotganini ko'rди. Misqol aytdi: «Endi lashkarga yetdim, bu yotgan kishining birini uyg'otib olsam, meni xonning oldiga boshlab borsa. — deb yonidan qilichni sug'irib oldi. Ot ustida engashib turib bir kishini qilich bilan turtib uyg'otmoqchi bo'ldi. Tag'in qo'lini tortdi. Keyin o'yładi: «Bu yigitni boshloqchi qilib borsam, xonning oldiga kirsam, bu yigit bilan birga yotib, menga ko'rrikka ko'rsatib olib keldingmi» — deb ajatim yetmasa ham o'ldirar, deb yana qilichni g'ilofga soldi. Otni lashkarning ustiga qarab «chu» dedi. Odamlarning ora-orasidan ot ochiq joylarga oyog'ini qo'yib, irg'ib-irg'ib boraverdi. Bir qancha lashkarni oralab bir chodirga yetdi. Misqolning tole'si bu lashkarning uyqusini g'olib qildi, to yetguncha pok etib, bir kishidan yo yotlib hech shalpa chiqmadi. Hamma lashkar huzuri farog'atda uqlashib yotgan ekan. Chodirning ichiga beedad chiroqlarni yoqib qo'yibdi. Chodirning ichi kunduzgidan ham ravshan. Chodirning ichida ham odamlar bir-biriga omuxta bo'lib yotipti, oyoq bosar ochiq joy yo'q. Bular ham qattiq uyquda. Chodirning o'tasida karavatda bir zabardast kishi bosh-oyog'iga barqutdan bolish qo'yib, chalqancha tushib, betiga zar yopib yotibdi. U karavotning to'rt tarasiga to'rt karavotni tirab qo'yibdi. To'rtovida to'rt yigit yotibdi. Bu yigitlar har qaysi nayza qilichlarini ko'kraklariga olib uqlab yotibdi. Misqol aytdi! — Oyoq yog'idagi Soqi bulbuldir, chap yonidagi Chaqqon bekdir, o'ng

tarafidagi Hasanbekdir, bosh tarafidagi Avaz qo'zimdir, o'rtadagi xonning o'zidir, — deb chodirning ichiga otni «chu» deb soldi. Karavotning oyog'iga otning tumshug'ini yetkazib, turib bir so'z dedi:

Adolat xonlar taxtidan toymagan,
Ajal qahri shoh, gadoni qo'yagan.
Tur o'rningdan, yotgan Chambilning xoni,
Jahonni olib shoh Iskandar to'yagan.

Qiyomatda suvlar qurib tosh qolar,
Tan lahatda chirib, suyak-bosh qolar.
Ko'tar boshing, yotgan Chambilning xoni,
Olsang Saroy Chambil elday bo'sh qolar, —

deb chaqirdi. Bunda yotganlar boshini ko'tardi. Misqol ot boshini burib qochdi. Lashkar ustiga qarab ot solib, chiqib ketdi. Shovqin-arosat ko'tarildi. Misqol bir joyga borib to'xtadi. Bu yotgan lashkardan ko'p kishini ot bosib nobud qildi. Yotgan kishi boshini ko'targanda Misqolning yuzini ko'rib qoldi. Bu yetti hokimning ulug'i Shohdor shohni uyg'otgan edi. Cho'listonga lashkarlar chiqib bir-birlari bilan urushmoqqa tayyorlanib poylab yetgan edi. Misqol bir uzoqqa borib to'xtab: «Xudo yo shukur, bu dushmanidan qutuldim, xudo saqladi» — dedi. Shohdor lashkari sakkiz yerda bo'lsa, xon bilan to'qqiz yerda lashkar bor ekan. To'qqiz borgohga borib qay biridan topar ekanman, deb atrosga qaradi. Yana bir yerda lopillab yongan ko'p chiroq ko'rindi. Misqol u chiroqqa qarab ketdi, yana bir lashkarga etdi. Qo'rada yotgan qo'yday lashkar yer yuzini bosib yotibdi. Bu lashkarni oralab-oralab chiroqqa qarab boraverdi. Bir chodirga yetdi. Chodirning ichida chiroqlar bir-biriga tirab yoqib qo'yilibdi, kunduzgidan munavvar bo'lib turibdi. Chodirning o'rtasida bir sim karavotda bir zo'r rustam sisatlik bahaybat kishi yotibdi. U ham boshiga parxut bolish qo'yib, chalqancha bo'lib,

betiga zar yopib, to'rt tarafida to'rt karavotni tirab qo'yig'lik. Baayni haligi Shohdorning yotgan asasida bo'lib yotibdi. Chodirning ichida ham odamlar bir-birlariga tamba bo'lib yotibdi. Karavotning taglarida ham odamlar uxlamoqda.

Misqol chodir chekkasiga otli kirib, to'xtab turdi. Ko'rdiki, hech kishi bedor emas. Misqol aytdi:
 — Karavotning oyoq yog'idagi Soqibulbuldir, chap yog'idagi Chaqqon bekdir, o'ng tarafidagi Hasanbekdir, boshidagi yotgan Avaz qo'zimdir, o'rtadagi xonning o'zidir. Otni «chu» deb, karavotning tepasiga borib to'xtatdi va bir so'z dedi:

Turgin sulton qanotingdan qayrilding,
 Saltanatli oltin taxtdan tayrilding.
 Och ko'zingni, ko'tar boshing uyqudan,
 Mehnat qilgan obod eldan ayrilding.

Ahmad tog'ang yo'lidan javob tiladi,
 Sirtqi qo'rg'on paxsalarini quladi.
 Bir ishonching Askarni qaqshatib,
 Askar bolang dor boshida suladi.

Ahmad ahmoq olomonni chaqirtib,
 Olomonlar xazinangni taladi.
 Ahmad tog'ang o't qo'ydi Chambilga,
 Rasta, timlar ko'chalarga quladi.

Qancha mo'min bo'ldi elda xokisor,
 Olomonni to'pladi Ahmad sardor.
 Bizni o'lja, yesir qilmoq qastida,
 Ahmad tog'ang qildi qasdni ixtiyor.

Gulbog' qarab xurush qildi u sardor,
 O'qqa tutib yakson qildi Berdiyor.
 Berdiyordan Gulbog'ingni ololmay,
 Ko'chalarda chaqirishdi jarchilar.

O'rdaga tushdi Ahmad belbog'in yechib,
 Qirg'in berdi ko'chalarga qon sochib.

Xotinlaring Gulbog' ichida turolmay,
Turkman eliga ketdi Ahmaddan qochib.

Ahmad bordi xotinlarni qasdida,
Erovullar poy devolning ustida.
Darvozani chim bostirdi bek Ahmad,
Xaloyiqlar qoldi tuproq ostida.

Ahmad xurush qildi nayzani tuyib,
Xotinlaring bo'lди eldan besoyib.
Yotasanimi g'aflat bilan uyquda,
Turgin sulton, endi boshni ko'tarib, —

deb Misqol xonni uyg'otdi. Go'ro'g'li boshini ko'tardi. Misqol egar qoshiga otning tizginini ilib turdi. «Ushla bachchag'arni» deb xon dap qildi. Xon Misqolni tanimagan edi, betini ko'rib tanidi. Misqol otidan tushib, chodirning orqasiga kirib yotib oldi. Go'ro'g'li bosh tarafidagi Avazga qarab: «Turgin», dedi. Avaz irg'ib turib, otasining oldiga kelib turdi. Xon Avazga qarab bir so'z dedi:

Himmat kamarini boyla belingga,
Harna desam g'ayrat kelsin dilingga.
Chodirni keyniga o'tgin, jon bolam,
Xanjaringni ushlab olgin qo'lingga.
Bugun menga arosat kun bo'libdi,
G'am saydoni xudo menga solibdi.
Ol xanjaring, o'tgin chodir keyniga,
Enang la'nati ergashib kelibdi.

Harna desa qilgin otang ishini,
Halollagin otang bergan oshini.
Turgin bolam, men buyursam qil xizmat,
Bul nomussiz enang shuyga kelibdi.

Avaz bir so'z dedi:

Enamni o'y lab bandi-bo'g'nim bo'shadi,
O'ldir desang tani jonim qaqshadi.

Olib kelay, haqqat qilib gap so'rang,
Chambil ellar buzilganga o'xshaydi.

Avaz bul so'z aytib xonni to'xtatdi,
Chiqib borgohning orqasiga o'tdi,
Mehribonim qaydasan deb chaqirdi,
Misqoloyim yotgan joyidan turdi.
Quloch yozib Avazxonqa yugurdi,
Jon bolam, deb nola tortib oh urdi.

Yotgan lashkar uyg'onmadi toyshiga,
Ko'kragi ho'l bo'ldi ko'zin yoshiga.
Yetib keldi Avazxonning qoshiga,
Ikki qo'lin soldi Avaz bo'yniga,
Avaz boshin mahkam bosdi to'shiga.

Yig'ladi ikkovi bag'rini dog'lab,
Ena-bola birga keynida yig'lab,
O'tgan ishni bir-bir bayon ayladi,
Avazxonning boshin mahkam quchoqlab.

Avaz ham yig'ladi ko'zini yoshlab,
Oldi ul arzani qo'liga ushlab.
Kirib bordi, otasining oldiga,
Ko'zin yoshlab mehribonini boshlab.

Avaz xatni ushlab borgohga kirdi,
Enasini orqasiga obturdi.
Xatni o'qib xonga uni bildirdi,
Ko'zin yoshlab xon Go'ro'g'li oh urdi.
Misqoloyning gunohini kechirdi,
«Beri kelgin suyarim» deb chaqirdi.
Misqol boshin engashtirib yig'ladi,
Yig'lama, deb peshonasin siladi.

Go'ro'g'li Avazxonqa qarab aytdi: — Ey jigargo'sham, nuri diydam, ko'rар ko'zim, suyar qo'zim.
Ul cho'listonda Ahmad tog'amni qaytarda se'lining
buzilganini biluvdim. Xudoga solgan edim, nima ko-
ri-zorlarni qilibdi, Majnunko'k otni keltirgin, enangni

olib tezlik bilan jo'nagin. Enangning kelganini bu lashkardan biror kishi bilmisin. Agar Chambilning bunday bo'lganini bilsa lashkarning beli bo'shab har tarafga tarqab ketadi. Men Saroya yetti oylik yo'l azobini tortib keldim. Yo Shohdor o'lmay, yo Saroyni olmay, yo Shohdorni rost yo'lga solmay bormayman. Sen enangni boshlab ketgin. Sog'-salomat Chambilga yetgin. Seni ko'rsa Ahmadning olti ming cheriki har tarafga tarqalib ketadi. Ahmad tog'am duchor kelsa, yuziga sovuq so'z qilsang senday bolamdan rozi emasman. Nima qilay, Ahmaddan bo'lak yaqinroq qarindoshim yo'qdir. Qizil et vaqtimda, go'dakligimdan boqib katta qilgan. Men bergan tuzini xudo uchun rioyasini qildim. Bul ishlar Ahmaddan emas, taqdirdandir. Bir kishi senga yomonlik qilsa, sen unga yaxshilik qilgin. O'zi uyalib qolar. Ikkii yomon bir bo'lsa, yomonga yomonlik qilsang o'rta xunga to'lar. Chambilga kirib, yurt-elini yig'ib xalq-suqarolari chaqir. O'rdada turgan amaldorlar boshliq o'lgan o'liklarni tuproq ostidan olib, dashtga dafn qilinglar, buzilgan devol — raxnalarni avvalgiday qilib uringlar, ko'chalarni suv quyib yuvingga. Shaharni fisqu-sujurdan xalos qilinglar. O'lganlarga obi-osh qilinglar, borgil, — deb Avaz bilan Misqolni jo'natdi. Ikkovi yo'lda ketaversin, endigi so'zni Chambildan eshititing.

Ahmad olti ming yigitlarni boshlab Gulboqqa qarab ot qo'yardi, Berdiyor o'qni otar edi. O'qqa borolmay Ahmad lashkari bilan qaytardi. Har olti kunda xurush qilib qo'yaverdi. Berdiyor uni darvozaga borgizmas edi. Axir Berdiyor zerikdi. Ahmadga kishi chiqardi:

— Ey beaql, qo'yasanmi qo'yimasanmi, nima maqsading bor? — dedi. Ahmad: — Xotinlarni chiqarib ber. Gulboq ichida o'lib go'riston bo'lsang ham go'ringga duo qilmoqqa or qilaman, sening bilan ishim yo'q, — dedi. Berdiyor aytdi:

— Xotinlarning ketganiga o'ttiz kundan oshiqroq bo'ldi. O'sha yoqdan topib, meni o'z holimga qo'ygin, — dedi. Ahmad bu so'zni eshitib xursand bo'ldi. Ahmad sardor o'zi mol-mulk uchun Chambil, xon o'rdaasida davr surib yurardi. Olti ming yigitni boshlab xotinlarning orqasidan qarab jo'nadi. Ahmad sardor olti ming yigitni bilan kelayotganmish deb turkmanni kattalaridan bir ming kishi dasturxon ko'tarishib, Ahmadning yo'lliga muntazir turdi. Ahmad olti ming yigitni bilan yetib bordi. Unga kattalar piyoda peshvoz chiqishdi. Ahmad yaqin yetdi. Ko'rdiki, o'z yurtining kattalari piyoda yo'lliga chiqib turibdi. Ahmad ham yaqinroq borib, otidan tushdi, ular bilan ko'rishdi. O'sha adir ustiga lashkarni ham tushirdi, oldilariga dasturxon soldi, bir-birlari bilan hol-ahvol so'rashdi. Bola-chaqa, mol-jon omonmi, deb pesh-pesh dasturxon kelaverdi. Tamom lashkarni ovqatga serob qildi. Oldidan dasturxon olinmay turib, Ahmad turkman kattalariga so'z ochdi:

— Ey turkmanimning kattalari! Men bu turkmanga izzat-ikrom, yemak-ichmak uchun kelganim yo'q. Sizlarning qo'llaringda Go'ro'g'lining zaifalari bor ekan. Mening oldimga chaqirib bersalaring, elni besar qilmay shu yerdan qaytsam dedi. Bular ichida Doniyor otli turkman elining so'zamoli bor edi. Aqli raso dono kishi edi. Ahmadning so'zini eshitib u turkman ulug'lari Doniyorga qaradi. Doniyor aytdi:

— Ey Ahmad, o'lмаган kishining xotiniga xo'stgorlik qilish qaysi qabilada bordir. Go'ro'g'li Saroy ketgan, o'lik-tirik xabari yo'q. Xondan biror xabar kelsin. Bundan keyin xotini, mulki seniki. Senga Go'ro'g'lidan yaqinroq kishi yo'qdir. Nima qilsang qilgin. Bizning qo'limizda Go'ro'g'lining xotinlari bordir. Boshimiz salomat ekan, sening oldingga solib yubormasmiz. Go'ro'g'li salomat kelsa, qaysi ko'z, qaysi yuz bilan uni ko'rgani boramiz. Necha yil sizlarga sohib bo'ldim, qaysingizga bevos, jabru

sitam qildim. O'zlaringizdan chiqqan Ahmadbekka yuzi xotir topmagan ekanman, mening xotirimni qilmay, xotinlarimni Ahmadga tutib beribsizlar, — desa nima dermiz. Xonga tirik sharmando bo'lancha o'lib qolganimiz yaxshi. Sabr qilgin, xon salomat kelsa sening bu qilgan gunohlaringni xondan tilab olarmiz. Qo'rwmagin, bu ishni sen qilding, hech kim qilgan emas. Chambilni buzding, qancha mo'minlarni tuproq ostiga qo'yding. Bu xaloyiqlarning qoni seni yer yuzida tirik qo'ymas. Qirq kun qaragin, Go'ro'g'li salomat kelib qolsa, turkmanlik seni qutqarib qoladi. Qirq kungacha qo'ymasang, avval turkmanni o'ldirib, undan keyin Go'ro'g'lining xotinlarini nima qilsang qil, — dedi. Doniyorning so'zi Ahmadga juda qattiq botdi. Azbaroyi o'z yurti ulug'lарining riyasini qildi.

— Xo'p, sizlarning ham so'zлaringga kiray, qirq kungacha qaray, — deb, o'sha adir ustida lashkari bilan tushib yotdi. Turkmanning umidi, Misqolning Saroy ketganidan edi. Turkmanlar Ahmadni olti ming cheriki bilan qirq kungacha boqib yotdi. Qirq kun ham o'tdi, Misqoldan darak bo'lindi. Ahmad tag'in kishi kirgizdi. Turkman ulug'lari xotinlarni to'plab, haydab olib chiqdi. Xotinlarga arz qildi:

— Ey zaifalar, peshonalaringda ko'rguliklarning bor ekan. Qirq kunga Ahmaddan muhlat tilab, xondan Misqol bir xabar keltirar deb umid qildik. Qirq kun bo'ldi. Xondan ham, Misqoldan ham xabar bo'lindi. Endi biz bu zolim bilan barobar bo'lolmaymiz. Bizda yov-yaroq yo'qdir, olti ming yigit bilan tepamizga kelib turibdi. Sizlarni shunga ko'rsatmasak bo'lindi. Endi xon kelsa, salomat xonni yuzini ko'rsalaring turkmanlarning qilgan ishlarini, Ahmadning qilgan bu hangamasini xonga aytarsizlar. Turkmanni yaxshi qilib ko'rsatsalaring ham, yomon qilib ko'rsatsalaring ham o'zlaring bilasizlar. Bilinglar, fuqaroda quvvat yo'q, turkmanni xonga oqlag'uvchi sizlar. Endi bizardan xafa bo'limgalar, — deb turkmanning kattalari

xotinlarga uzr aytib, bularni haydab, olib kelaverdi. Olib kelib Ahmadning qo'liga topshirdi. Ahmad qo'shinini Chambilga qarab jo'natdi. Xotinlarni lash-kardan keyinroq olib yurdi. Xotinlar piyoda, Ahmad otliq, o'zi yolg'iz xotinlarni o'rtasiga kirib oldi. Xotinlarning betida niqob bor edi, yuzini ko'rolmasdi. Yurib borayotgan xotinlarning orqasidan bo'ksasiga nazar solar edi. Bunisi Yunus parimikan, bunisi Misqol parimikan deb borardi, taniyolmas edi. Go'ro'g'li dono kishi edi. Turkmanni cho'lida, Chambilning yo'lida, O'rta bel degan bir adir bor edi. Ul adirning usti tekislik edi. Oti ariq, piyoda kishi uzun yo'lda bo'rige yem bo'lib qolmasin, o'tkan-ketgan yotib turar deb, Go'ro'g'lixon o'sha adirning ustiga bir qo'rg'on qildirib, darvoza qurib qo'ygan edi. Namozgarda u yerga yetib borib, shu qo'rg'onga xotinlarni kirgizdi. Qo'shinni qo'rg'ondan o'tkazib tushirdi. Askarga obi-ovqatni yedirib, hammalarini uyquga kirgizdi. Ahmad o'rnidan turib Og'a Yunus parining qo'yniga kiraman deb, qo'rg'onga keldi. Bu qo'rg'onda yotgani palos yo'q edi. Xotinlar yotolmay pachchadaroz, burgan, shipirindi, cho'pi-cho'pehaklarni to'plab, chaqmoq chaqib, o't yoqib, guldiratib o'tni baland qo'yib, o'tning atrofini aylanib o'tirishdi. Niqoblarini belidan olib, tizzalariga qo'yib ertan Chambilga borsak, ahvolimiz nima bo'lar ekan, deb o'tga qarashib, yig'lashib o'tirgan edi. Og'a Yunus narigi tarafda darvozaga qarab yuzi to'g'ri bo'lib o'tirgan edi. Ahmad darvozaning darzidan qaradi. Og'a Yunusning yuzini ko'rdi, qo'lidan tuz ichgan edi, andek yuragi to'xtadi. Kim yomonlik bilan murodga etgay, shu yerdan bir gap qilib ko'rgay, gapini razmidan bilay, yaxshilikecha tegarmikan yoki zulm qilib olamanmikan, deb Ahmad bir so'z dedi:

Men qilarman darvozada ohi voy,
Seni menga qo'sharmikan bir xudoy.

Men qo'yningga kirmak uchun keluvdim,
Yuzing ko'rib qarab qoldim, Yunusoy.

Amir ketdi menga qoldi Chambiling,
Bo'yningga chirmalsa yozsam kokiling.
Qo'yningga kirmak qastida keluvdim,
Yaxshilikcha bormi menga ko'ngling?

Muddaongni bilib so'zda ko'nglingga,
Kirmakni qastida keldim qo'yningga.
Yaxshilikcha tegarmisan, Yunusoy,
Tegmasang zulvin solarman bo'yningga.

Bunda Og'a Yunus Ahmadga qarab bir so'z dedi:

Nima bo'ldi xon tog'asi bek Ahmad,
Saroy ketgan yurt egasi badavlat.
Amir o'lqa kelar bizga belgi, xat,
Esir bo'lsam, sizga tegmog'im sunnat.

Xabar kelsin o'lgan bo'lsa gulimdan,
Xon sirog'in unutayin dilimdan.
Harna bo'lsa qiling, tog'a, qanoat,
Yesir bo'lsam, iloj kelmas qo'limdan.

Xitob aylab, zulm qildingiz mingcha,
Sabr qiling xondan xabar kelguncha.
Qo'ymasangiz erta oling nikohlab,
Fe'lingizdan qayting, tog'a, buguncha.

Xonning ishqil alam o'ti ko'ngilda,
Bedorgoh bo'p yo'llar yurdim bu cho'lda.
Buncha bizga zulm qilding, bek tog'a,
Yomonlikdan qayting, tog'a, bu yo'lda.

Go'ro'g'lini yaxshiligin bilayin,
Shu buguncha motamini qilayin.
Harna bo'lsa, qayting, tog'a, bu yo'ldan,
Ertan Chambil borib qabul qilayin, —

deb Og'a Yunus bu so'zni aytdi. Ahmad aytdi. «Bugun nima, erta nima, ertaga va'da berdi. Ertal nima

deb vaj qilar ekan», deb qaytib ketdi, lashkariga yetdi. U kun tong otdi. Ahmad qo'shinni jo'natdi. Qo'shin ilgari Ahmad keyin xotinlarni haydab jo'nayverdi. Kun peshin bo'ldi. Ahmad qo'shini darvozai Chambilga yetdi. Xotinlarning borar yo'li bir chaqirim qoldi. Xotinlar birdan niqoblarini olib, yerga urdi. Xudoyo omonat joningni olgin, bu zolimdan qutulaylik, deb yig'lashdi, kokillarini har tarafga parishon qilishdi. Og'a Yunus ham shu nobakorga giriftor bo'lmayin deb yig'lar edi. Ahmad achchiqlandi.

— Ey gesuburida, — deb qilichini g'ilofidan su-g'urdi. Otiga dap berib «men bedinmi, mendan buncha hazar qilasan, bir yo'li seni o'ldirib qutulay», deb qilichini Og'a Yunusning boshiga yalang'ochlab olib borib turdi. Og'a Yunus Ahmadning yuziga qarab yig'lab turdi. Og'a Yunusning ko'zi Asqar toqqa tushdi. Archalarning orasida qaldirg'ochday ikki qora narsa zirqirab kelaverdi. Og'a Yunus yana-yana qaradi. Bunda Ahmadga qarab Og'a Yunus bir so'z dedi:

Seni menga taqdir qilmadi xudoy.
Jonom azobida qilmadim gunoy.
Ber suyunchi, xon tog'asi bek Ahmad,
Kelayapti Saroy ketgan Misqoloy.

Tog'ning gulin dasta-dasta terganim,
Xonning davlatiga ko'ngil berganim.
Kelayapti xabar olib sultondan,
Kundoshim, singlimdan ortiq ko'rganim.

Oltin toqqa oyoq tenglab bosganim,
Mehnat qilib Ahmad baxtin to'sganim.
Ber suyunchi, xon tog'asi, suyunchi
Kelayapti bir o'rdada o'sganim!

Uzilmadi bo'ynimdag'i sadog'im,
Qo'lga tegdi mening yovu yarog'im.
Bergin, tog'a, tezroq menga suyunchi,
Yarqirab keladi Avaz chirog'im.

Hasratingda yo'lda tortdim ko'p alam,
 Joying bo'lsin, tog'a, do'zax, jahannam.
 Ber suyunchi menga, Ahmadbek tog'a,
 Kelayapti yurtim egasi bolam.

Qo'shiljadi senga taqdir yulduzim,
 Ko'r qilin oshi non, tag'i-da tuzim.
 Ber suyunchi, kelayapti Saroydan
 Yurtimning solibi bol Avaz qo'zim, —

deb Ahmadga Yunus oyim Misqol bilan Avazni ko'r-satdi.

Ahmad qarab ko'zi tepaga bitdi,
 Ahmad keldi, ular yugurdi ketdi,
 Xotinlar hammasi qo'rg'onga yetdi,
 Darvozadan kirib olib barchasi,
 Ul eshikni qiyalashib ko'z tutdi.

Armon bilan yosh yig'ildi ko'ziga,
 Hayron bo'lib qoldi turkman sardori.
 Avaz bilan Misqol keldi ot chopib,
 Misqol oyim bol Avazdan ilgari.

Kim rahim etar ko'zdan oqqan yoshiga,
 Pushmon qildi Ahmad qilgan ishiga.
 Qilar ishni qilib qo'ydim o'zim deb,
 Tushib bordi otdan Misqol qoshiga.
 Yoqasidan oldi otning to'shiga,
 Qahrlanib o'mgaylatib otiga,
 Misqol qamchi soldi Ahmad boshiga.

Uch qamchi boshiga urdi Ahmadning,
 O'mgallatib ot ostiga ag'natdi.
 Qamchi bosib ustidan ot irg'itdi,
 Ot qo'yib u kundoshlariga yetdi.
 Misqol bordi, parilar eshik ochdi,
 Darvozadan kirib otidan tushdi,
 Parizodlar faryod aylab yugurishdi,
 Quchoqlashib, qayta-qayta ko'rishdi.

Sulton esonligidan berdi xabar
 Quchoqlashib xo'p ko'rishdi parilar.
 Qo'l ko'tarib duo qildi hammasi,
 Salomat kelsin, deb duo qildi mushtipar.

Kim boqadi Ahmadning ahvoliga,
 Beobro'ylik soldi nafsi kuniga.
 Bu gunohni harna qilsam qildim deb
 Yig'lab bordi Avazxonning yo'liga.

Avazga qarab bir so'z dedi:

Olamga mashhurdir, bolam, shuhrating,
 Kundan-kunga kam bo'lmasin davlating.
 Tog'ang qildi aqli ozgan gunohni,
 Xon oldida eldan ortiq hurmating.

O'Imagin, bolam, hargiz ilohim,
 Avval xudo — sensan mening panohim.
 Sog'-salomat kelsa Saroydan,
 Tilab olgin qiyin bo'ldi gunohim, —

deb Avazga bu so'zni aytди. Bir vaqtда Ahmadbek Bo'tako'z qizini Avaz qulga bermayman, deb borgan sovchiga shu so'zni aytgan edi. Avaz bu so'zni eshitib, «qulligim hech ketmas ekan, kishining yurti bo'lmas ekan» deb arazlab Xunxor yurtiga ketib qolgan edi. Shu yana qaytib edi. O'sha gap Ahmadning bu so'zi-dan keyin Avazning esiga tushdi. Otasi yomon gapirmagin degan edi. Ahmadga qarab bir so'z dedi:

Shaytonday ozg'irib, to'smang yo'limdan,
 To'rt yoshimda qul kelganman elimdan.
 Otash o'tin yondirmagin dilimdan,
 Odam tilash kelmas mening qo'limdan.

O'z yo'limda yursam doim erkaman,
 Qirq yigitga yo'l boshilagan sarkaman.
 Qulga chikora gunohkorni tilamak,
 Xon oldida so'zlamakka qo'rqaman.

Xizmat qilsam xonning joni-diliman,
 Gurjistonda Buldur qassob uliman.
 Tilayolmayman gunohing, bek tog'a,
 Tanirmisiz, Go'ro'g'lining quliman, —

deb Avaz o'tib keta berdi. Bu ham qal'a qo'rg'onga yetdi, darvozadan kirib bordi. Otidan tushdi, parizodlar hammasi Avazni quchoqlab ko'rishdi. Otamni salomat ko'rasizlar, hammalaringga salom aytdi. Sizlar ham otamni salomat kelishini tilab duoda bo'linglar, — deb xotinlarni diljam qildi. Nogoh ko'zi dorda turgan Askarga tushdi. Voy jigargo'sham, deb Askar osilgan dorni quchoqlab, ko'p yig'ladi. Dor ostida yotgan o'lgan o'lklarni ko'rib ko'p afsus qildi. Enasi: — Endi yig'lama, qo'y, — deb Avazni otiga mindirdi. Avaz ilgari, xotinlar keyin shaharga kirib boraverdi. «Hoy noinsof», — deb Ahmadga hassana aytib borar edi. Bundan rasta, timlarga yetdi. Bozor boshini buzilmagan, kuymagan joyi qolmabdi. Rastadan chiqdi. Avaz ko'rdiki, Berdiyorning o'qi hali otilib turibdi.

Devorda turgan erovul darvoza boshidan xotinlar bilan kelayotgan Avazni tanidi. Berdiyorga xabar berdi. Berdiyor devor ustida, Avaz pastida bir-birlari bilan yuz ko'rishdi. Berdiyor «otam, yori do'stlar, katta-yu kichiklar salomatmi?» deb so'radi: — Esendir, eshikni ochgil, — dedi. Enalarim ko'chada qolmasin, bularni Gulboqqa kirgizay, o'rdaga borib, qolgan ulug'larni ko'ray, kim bor, kim yo'q. Chambil xaloyiq-larini chaqirib, tuproq ostida qolganlarni dashtga tashitib ko'mdiraylik, buzilgan rahnalarni, devorlarni tuzataylik, ko'chalarni tozalatib, Askarni dordan olib kelib, buni ham lahadga qo'yaylik. Birodarzodangni ko'rdingmi, — dedi. Berdiyor yig'ladi: — Nima qilay, og'amni desam otamni derman, tayinlagan omonatini buzolmay turibman, eshikni ocholmayman, — dedi. Otam menga qasam bergen, mendan

bo'lak kishiga ochib bersang rozimasman deb. Otam qiyomat kuni mening shartimni buzding deb mendan haq da'vo qilsa, kafil bo'lib ajratib olsang, eshikni ocharman, — dedi. Avaz: — Balli, har kimning g'ulomi xo'jasiga shunday xizmat qilsin, xo'jası bilsin. Otam salomat kelsin, yuzini ko'rib, eshik ochishingni xudo senga nasib qilsin. Berdiyor sendan ikki dunyoda otam ham, men ham minnatdormiz, — deb Avaz orqasiga qaytib, o'rtadagi to'pchilar turadigan o'rdaga enalariga joy qilib berdi. Avaz qaytib, shaharga bordi, o'rdaga kirdi. O'tirgan jumla umarolarni salomat ko'rди. Mirzaboshi, jig'avulboshi, timqatorlar, qozi Mansur — hammalari bol Avaz bilan ko'rishdi. Olamni fisqu-fujur bosibdi, o'liklar sasibdi, bunday beparvo o'tirasizlar, — dedi Avaz. Qozi Mansur aytidi:

— Ey farzand, bizda nima quvvat bor, xon ketdi, bizdan ham aql ketdi. Ko'rdingmi, bu nima ishlar qildi, nima qilsa tog'ang qildi. Biz ham bir o'lik-dirmiz, — dedi. Bu xaloyiqlarning nobud bo'lganini eshitib, jumlai ulug'lar ham yig'lashdi. O'rda beklari buyurdi, xaloyiqni yig'di. Tirik qolganlar o'lganlarni tuproq ostidan ochib, tashib olib chiqib, hammasini ko'mib tamom qildi. Dorda turgan Askarni, hamrohlarini, ichki tashqida Ahmad haydar o'ldirgan o'liklarni ko'mdirib, tamom qildi. Bularning haqiga obi-osh qilib, g'arib-miskinlarga yedirib-ichirdi, Avaz o'rdada katta-kichiklar bilan turdi. Avaz u yerda tura tursin, endigi gapni Ahmad sardordan eshititing.

U turkmanga qarab ketdi. Uyiga borib o'tovining bir burchiga kiygizlardan to'sib qorong'i xona — yotoq qilib oldi. Xotin, bola-chaqalariga:

— Mening kelganimni, yurting ulug'lari eshitib ko'rgani kelsa, ozor beradi, odam suymas kasalga giriftor bo'lgan, — deb qaytaringlar, — dedi. Ahmad yotaverdi. Endigi gapni Go'ro'g'lixondan eshititing.

Misqol bilan Avaz borganda ularni Go'ro'g'li qaytardi. Elchilik xat yozib Yortiboyni Shohdorga

yubordi. Shohdorning oldiga Yortiboy u nomani ko'tarib bordi. Shohdor o'qib ko'rdi: — «Ey Shohdor, men Go'ro'g'liman. Yetti oylik yo'ldarl, Chambil el-dan sening joningning foydasi uchun keldim. Chibinday joningni otashga kuydirmagin. Kelgan yo'llimdan bir qadam o'tmay qaytib yurtimga ketaman. Duoyi salom vassalom». Bu so'zdan Shohdor achchig'landi. Bu beaql mendan hech ibo qilmay bu so'zni aytadimi, buning ajali yetib kelgandir bu yerga. Bu ajal haydaganning jazosini beray, — deb lashkarini ma'lum qildi. Shohdor boshliq yetti hokim lashkarini olib biyobonga keldi. Biyobon lashkarga to'ldi. Shohdorning bu lashkarini ko'rib, Go'ro'g'li lashkarining beli bo'shadi, tarqab ketishni ixtiyor qildi. Go'ro'g'li lashkarlarining qo'rqqanligini bilib: — Ey bolalarim, Shohdor lashkariga nazar qilmanglar, xudo saqlasa hech gap yo'q, — deb askarlariga dadillik berdi. Yortiboy Shohdorning oldidan qaytib keldi. Yortiboyga uch ming, Hasanga uch ming, Soqiga uch ming, Chaqqonga ikki ming lashkar berdi. Bir ming lashkar o'zi bilan bo'ldi. U askarni cho'listonga qator qilib tarqatdi. Biyobon lashkarga to'ldi. Shohdorning lashkaridan ziyoda bo'ldi. Go'ro'g'li bolalariga qarab bir so'z dedi:

Bu dushmanga ot qo'ygan,
 Qaytmay ot qo'y Yortiboy.
 Ot qo'y dushman ustiga,
 Nayza ushlab Hasanxon.
 Qo'lda yovu-yarog'im,
 Tagimda bor pirog'im.
 Ot qo'yinglar dushmanga,
 Chu de, Soqi chirog'im.
 Otang Go'ro'g'li sulton,
 Xudo bizga mehribon,
 Madadkorim qirq chilton,
 Ot qo'y qo'zim bek Chaqqon.

Go'ro'g'li der mening o'zim,
O'lSAM o'char yulduzim.
Siz u yoqdan, men bu yoqdan,
Ot qo'yinglar botir qo'zim.

Go'ro'g'lixon ot qo'ydi,
Misli yashin uchganday.
Shohdor u yoqdan ot qo'ydi,
Shamolga bulut ko'chganday.
Go'ro'g'lixon yovga kirdi,
O'ngu so'lga qilich urdi.
Na oldidan, na orqadan,
Kimki kelsa o'lildirdi.
Qaytmanglar deb qiyqirib,
Go'ro'g'lixon yovga tushdi.
Yarqillatar qo'lidagi,
Po'pakli nayza qilichdi.
Tagidagi bedov otlar,
Maydon ichra qonni kechdi.
Egasi o'lgan bedov otlar,
Dalaga besoyib qochdi.
Uch kechayu, uch kunduz,
Aralashib urushdi.

So'lqillagan nayzalar,
Sanchildi maydon ichida.
Olmos, qilich bayzalar,
Chopildi maydon ichida.
Ajal yurdi axtarib,
Kuni bitgan bandalar,
Tayrildi maydon ichida.
Moshparang qora miltiqlar,
Sochildi maydon ichida.
Amaldor tutgan bayroqlar,
Yiqildi maydon ichida.
Qaraganlar yomg'irday,
To'kildi maydon ichida.
Ajal bozori qizidi,

Kuni bitgan bu jonlar,
 Sotildi maydon ichida.
 Lobar qo'lda karnaylar,
 Tortildi maydon ichida.
 To'pehi qo'lda zambaraklar,
 Gurkirashib larza berib
 Otildi maydon ichida.
 Menman degan bahodirlar,
 Yiqildi maydon ichida.
 Go'ro'g'li qildi xurushni,
 Uch kechayu uch kunduz.
 Tinmay qattiq urushdi.
 Chanqab sulton Go'ro'g'li,
 Og'ziga sig'mas tillari.
 Axtardi doim Go'ro'g'li,
 Uch kechayu uch kunduz
 Ko'rinmas bitta bollari,
 Oh tortib xon amir,
 Yosh olib yurdi ko'ziga,
 Olib bo'pti lashkar deb,
 O'limni ko'rdi o'ziga.
 Urushda yurib Go'ro'g'li,
 Ko'zidan yoshi chizildi,
 Men o'larman bugun deb,
 Jonidan umid uzildi.
 Oh tortib maydonda,
 O'zini otdan tashladi.
 Qora yerni quchoqlab,
 Xudo deb ko'zin yoshladi.
 Yotgan joyidan turdi.
 Irg'ib mindi bo'z G'irni,
 U lashkardan tashqari,
 Oq tuv tutgan beadat,
 Qancha lashkarni ko'rdi
 Ul lashkarlar surilib,
 O'zin lashkarga urdi.

Xon Go'ro'g'li yolborib,
 Ul kelganlarni ko'rди.
 Xonni dili sirilib,
 Otning boshini burib,
 Shohdor tarafga yurdi.
 Shohdor joni amaldor,
 Lashkarlariga bordi.
 Yetib borib Go'ro'g'li,
 Alamdorga tig' urdi.
 Dam o'tmasdan maydonda,
 Yetti alamni ag'dardi.
 Har tarafdan tirandoz,
 Go'ro'g'li o'q otdi.

Lashkarlarni Shohdorshoh
 «Dam g'animat, yuring» deb —
 Saroy eliga boshladи.
 «Shohdor podsho,
 to'xta» deb
 Go'ro'g'lixon qiyqirdi.
 Bul ovozni eshitib,
 Olomon deb chaqirdi.
 Orqasidan Go'ro'g'li,
 Yurib Saroyga kirdi.
 Yigitlari orqadan,
 Go'ro'g'liga ergashdi.
 Xoniga yetib bordi,
 Olti kecha-kunduzda.
 Shohdor joyiga kirdi,
 Yigit lashkarin olib,
 Sulton borib o'tirdi.

Bunda Shohdor yetti hokimni olib, Oyxumor nomli qizini oldiga solib Go'ro'g'lining qoshiga ta'zim bilan kirib keldi. Shohdor kelishini ko'rrib, Go'ro'g'li xushvaqt bo'lib o'rnidan turib u bilan ko'rishdi. Shohdor kelishidan ilgari bir kishi Go'ro'g'liga: — Shohdor Oyxumor qizini sizga tortiq qilib

sizga yarashimoqqa kelmoqchi bo'ldi, — degan edi. Shohdorning o'ngu-so'lida Go'ro'g'lining qirq yigitni aylanib turar edi. Shohdorga joy tayin qildi, Shohdor o'tirmadi.

— Men sizga bay'at qilgani keldim, ko'p lashkar kelib meni lashkarimni yiqitdi. Yana bizga bir kastlik yordam berdi. Yana chiqib biyobonga yetdi. Lashkar kelib ketguncha ko'zim shularda edi. Bir baland yerda qarab turar edim. Bundan keyin siz uch kun jang qildingiz, mening lashkarimni bosib, alamimni tagiga keldingiz. Sizni ko'rib fil ustidan tushdim, shaharimga qarab jo'nadim. Ulug'larimga kelib, maslahat qildim. Kengashgo'ylarimning so'zi bilan bo'ysunib keldim, — dedi. Go'ro'g'li yana o'rnidan turib Shohdor bilan boshqatdan ko'rishdi. Qo'lidan ushlab uni o'z taxtiga o'tqazdi. Shohdordan bay'at so'radi. Yetti hokim Shohdor boshliq o'rdada turgan jumlai umarolari, kattayu kichiklari Go'ro'g'lini yaxshi mehmon qildi. Saroydan ketmak uchun Go'ro'g'li lashkarini to'pladi. Borini topdi, yo'g'ini topmadi, otlanib jo'nadi. Shohdor qizi Oyxumorga yaxshi otni yasab mindirdi. Ming otga qimmatbaho liboslar, ipak, yaxshi paloslar, qancha zar — dunyolar ortib, bir ming otning ustiga yukini bog'lab, Shohdor umaro — amaldorlari bilan otlanib, yuk ortgan otlarni haydatib Saroydan dashtidalaga chiqdi. Shohdor Go'ro'g'liga: — Qayting, bu mamlakatni sizga topshirdim, — dedi. Shohdorxon bir ming yuk ortgan otlarni, Oyxumorni sizga tuhfa qildim dedi. Go'ro'g'li Shohdordan xushvaqt bo'lib, yigitlariga bir ming yukli otni haydatib, Oyxumorni ham o'zi bilan olib jo'nadi. Shohdor saroya qaytib keldi. Go'ro'g'li Oyxumorni Berdiyor bolamga loyiq tuhfa topildi, deb xushvaqt bo'ldi. O'n kechayu kunduz yo'l yurdi. Xunxor tog'iga keldi. Lashkarni shu yerga tushirdi, ovqatga harakat qildi. Ovqat tayyor bo'lguncha lashkarini hisob qildi. Shohdorning olti kunlik jangida ikki mingdan ziyodroq kishisi o'lgan

ekan. U kuni yotib, lashkarga orom berdi. Tong otdi, Shohdor bergan bir ming otni haydab, Go'ro'g'lixon jo'nadi. Yetti kun deganda Asqar toqqa yetib keldi. Asqar tog'dan Soqini xushxabarga yubordi. Fuqarolar eshitib, O'rda amaldorlari Chambildan chiqib xonning yo'liga qarab turdi.

Sulton xabar berdi Chambil eliga,
O'rda begi ham Avazxon uliga.
Katta-kichik amaldori, fuqaro,
Chiqib keldi Go'ro'g'lining yo'liga.

Shahar kirib, amir o'rdaga yetdi,
Olib kelgan bor bisotin tugatdi.
Otdan tushib amir o'rdaga kirdi,
Amaldori, katta-kichikni ko'rdi.
Amir yana turgan o'rmidan turdi,
Yana Soqi bo'z G'irotni keltirdi.
Go'ro'g'lixon qaytib mindi bo'z G'irni,
Otga minib chorsu bozorga yurdi.
Timdan o'tib yetdi rasta qoshiga,
Qulq soldi Go'ro'g'lining tovshiga.
Yetib bordi darvozaga tojdar,
Darvozani ochib chiqdi Berdiyor.
Farzandim deb amir qildi tovushni,
Eshitib Berdiyor eshikni ochdi,
Berdiyorni ko'rib otidan tushdi,
Fig'on qilib yetib keldi Berdiyor.
Otasiman yig'lab turib ko'rishdi.
Xonni oyog'iga qo'ydi boshini,
Ko'zdan to'kib yig'layverdi yoshini,
Yotgan yerdan turg'izdi Berdiyorni,
Aytib berdi Ahmadbekning ishini.

«Mayliga» deb birga o'rdaga kirdi.
Berdiyorni qo'lidan ushlab yo'l yurdi.
Ota-bola birga Gulboqqa kirdi.
Undan o'tib xotinlarini ko'rdi.

Xotinlari hammasi teng yugurdi,
 Odam o'lgan kishi sifat hayqirdi.
 Bir pasgina sulton kirib o'tirdi.
 Ul o'rdadan chiqib Gulboqqa kirdi,
 Ota-bola yetaklashib yo'l yurdi.
 Xonni boshlab darvozaga keltirdi.
 Amir otli, Berdiyor bo'ldi piyoda,
 Ota-bola kelib shaharga yurdi,

 So'zamoldan o'n kishini saralab,
 Ahmadbekka xabarchi qip yubordi.
 O'n so'zamol gala turkmanga bordi,
 Otdan tushib Ahmad oldiga kirdi.
 Ahmad bilib yotgan yerda oh urdi,
 «Kasalman» deb zo'rg'a o'rnidan turdi.
 «Go'ro'g'lixon gunohingni kechdi» deb,
 So'zamollar Ahmad ko'nglin ko'tardi.
 Olib keldi Ahmadbekka bir otni,
 Ahmadbekni boshlab bari yo'l tortdi.
 Bevaqtida otlanuvdi hammasi,
 Choshka vaqtı xon o'rdasiga yetdi.
 Otdan tushib, kirdi Ahmadbek sardor,
 Ul o'rdada bordir qancha amaldor,
 Hamma qarar Ahmadbekning ko'ziga,
 Ahmad boqolmas hech kimning yuziga.

 Yerga qarab Ahmad o'rdaga yurdi,
 Go'ro'g'lixon bek tog'asini ko'rди.
 Amir sulton qilmas yomonlik ishni,
 Tog'am bo'lsa o'zi qilgan qilmishni.
 «Kattalardan uyalmasin tog'am» deb,
 Xon taxtidan turdi, pastroqqa tushdi.
 Ahmad boshin baland qilib yo'l yurdi,
 Yaqin bordi, Go'ro'g'lixonni ko'rди.
 Tog'asini ko'rib taxtidan tushdi,
 Tog'a-jiyan quchoqlashib ko'rishdi.
 Ahmad ishin qilolmaydi hech kishi,
 Hargiz yomon bo'lmas yaxshining ishi.

Ko'zdan yoshin gurra-gurra to'kadi,
O'ziga dushmandir, qilgan qilmishi,
Qozi Mansurni xon Go'ro'g'li chaqirdi,
Munshisiga merosnoma bitirdi.
Ming kishiga qildi sarkarda boshi,
Tog'asining xon gunohin kechirdi.
Yana noma bitdi mulla, munshilar,
Avaz bilan Berdiyorning ikkovin,

Mulkka meros qildi ikkovini barobar,
Xon qildi oxirgi o'yini,
Ahmadbekka berdi avvalgi joyini,
Uch kun qildi elu yurtga to'yini,
Oyxumorni olib berdi nikohlab,
Berdiyorga bag'ishlaydi bo'yini.
Berdiyor yetdi mehnat qilib murodga,
Ahmad qoldi Go'ro'g'lidan uyatga!



QISQACHA LUG'AT

Akobir — ulug' kishilar, eng hurmatli zotlar.

Arna — daryodan ajralgan ko'lcha, sel yuvgan soy.

Asp — ot.

Baxshanda — unashtirilgan.

Bejoy — juda, o'ta, juda ham.

Botmon — o'tmishda mamlakatimizning turli hududlarida ikki puddan o'n bir pudgacha bo'lgan salmoqqa ega bo'lgan og'irlik o'ichovi sifatida qo'llanilgan bu miqdor aslida 898,5 gramminga teng og'irlik o'ichovi bo'lgan.

Gaz — hozirgi metrik sistema qabul qilingunga qadar qo'llanilgan 0,71 m.ga teng uzunlik o'ichov birligi.

Gana — ba'zi, goho, ba'zan.

Dalhay — 1) qush qo'nadigan qo'ndoq; 2) kishi tanasining quymuch bilan bel orasidagi qismi.

Darxon — erkin; soliq va to'lovlardan ozod etilgan shaxs yoki urug' a'zolari.

Dahsari — xalqimiz tomonidan o'tmishda qo'llanilgan og'irlik o'ichovi birligi bo'lib, odatda botmonning qirqdan bir qismi miqdorini ifodalagan.

Dobil — 1) ot egarining qoshiga mahkamlab qo'yib jang yoki to'y-hashamlarda chalinadigan doirasimon nog'oraga o'xshash musiqa asbobi; 2) dovul.

Domad — kuyov.

Dubulg'a — jang paytida boshni tig' yoki kamon o'qidan himoya qilish, shuningdek, boshqa xil harb zarbalaridan saqlash maqsadida kiyiladigan metall bosh kiyim.

Duyum — ikkinchi.

Do'nan — to'rt yoshli ot.

Jazoyil — miltiqning bir turi, kichik to'p.

Janaq — yon yer, qiya yer.

Janda — darvesh va qalandarlarning to'ni, quroqli to'n.

Jarrow — sipohi, qo'shin, sarboz.

Jahaldirik — egarning ikki yonboshi ostiga qo'shiladigan bir just ot abzali.

Jebachi/Jevachi — ilgarigi xonliklarda qurol-aslaxona boshlig'i lavozimidagi amaldor.

Jezna — pochcha.

Jiranda — sel yuvishi natijasida hosil bo'lgan chuqurlik.

Jonsiz — josus, ayg'oqchi.

Zamcha — handalak.

Yobi — otning bir turi.

Kasiratki — kaltakesak.

Keraga — o'tovning pastki yog'och qismi.

Kirovka — sovut ostidan kiyiladigan, metalldan yoki boshqa qattiq narsadan tayyorlangan nimchaga o'xshash kiyim.

Korson — tol, qarag'ay va boshqa daraxtlarning yog'ochidan o'yib ishlangan katta tovoq.

Kulli — bari, jami, hammasi.

Kuloh — qalandar va darveshlarning bosh kiyimi, tepe qismi ingichkalashib chiqqan qalpoq.

Ko'kay — ko'ngil, dil.

Lak — aslida qadimgi hind tilidan o'zlashgan bu so'zning lug'aviy ma'nosi «yuz ming» bo'lib, lashkarlarning sonini ifodalovchi miqdor belgisi sifatida ishlatilgan.

Losh — o'lik gavda, jonsiz tana, o'limtik.

Lo'k — katta gavdali yirik erkak tuyasi.

Marol — kiyik, ohu.

Metara — suv solinadigan mesh, sanoch.

Mesh — suv, qimiz va boshqa suyuq narsalar solib qo'yiladigan va tashiladigan teri sanoch.

Mirg'azab — mahbus va bandilarni jazolaydigan mirshab, kaltaklab tergov qiladigan navkar, zindon nazoratchisi.

Murut — mo'ylov.

Mo'yinsa — tengdosh, tengqur.

Nahal — otlarning oyog'i tagiga qoqiladigan taqa.

Nor — bir o'rakchli erkak tuyasi.

Nugra — kumush.

Partol — yuk, ashg'ol-dashg'ol.

Pishak — mushuk.

Pushtan — egarning ot qornidan o'tkazib bog'lab qo'yiladigan tasmasi.

Rusta — ichiga pista yoki bodom mag'zi solib tayyorlangan holva.

So'na — yovvoyi o'tdakning erkagi.

Tabar — bolta.

Tabl — teri qoplаб ishlangan va urib chalishga mo'ljallangan katta nog'ora, dovul.

Tabla — otxona.

Talxat — astida «ta'lat» bo'lib, «yuz», «bet», «husn», «ko'rinish», «go'zallik» ma'nolarini bildiradi.

Tana — urg'ochi mol, buzoq.

Tangi — ikki tog'ning osti tutashgan joyi, tor dara.

Terlik — otning tanasidan chiqqan termi to'qimga o'tkazmaslik uchun to'qim tagidan qo'yiladigan qalin namat yoping'ich.

Tovushqon — quyon.

Tuv — bayroq, tug'.

Tuz — tekis dala, dasht.

To'balab — tepkilab.

Xoli/G'oli — gilam.

Chacha — ot oyog'inining pastki qismida tuyoqqa tomon o'sgan qil.

Cher — alam, qayg'u, dard.

Cherik — qadimda muayyan harbiy yurish vaqtida xon amriga ko'ra yig'iladigan muntazam qo'shin, lashkar.

Chindovul — 1) bir tomoniga teri qoplаб tayyorlangan dubulg'a shaklidagi urma cholg'u asbobi bo'lib, jangu jadallar va turli marosimlarda ishlatilgan; 2) lashkarning orqa qismi (arergard).

Chirgi — otning ustiga yopiladigan maxsus yopinchiq, terlik.

Choroyna — to'rt parcha temirni biriktirib yasaladigan harbiy libos bo'lib, zirqli kiyim ustidan ko'krak va elkaga taqiladigan bu himoya moslamasi o'q va tig' zarbidan saqlanish uchun badanga o'rab bog'langan.

Shakaman — nishonni xatosiz va aniq oladigan, bexato otuvchi morgan.

Shamiyona qaytarmoq — bo'ysunmaslik, o'jarlik qilmoq, qaysarlik qilmoq.

Shig'ovul — podsho saroyida tantanali marosimlarni boshqarib, nazorat qilib turadigan katta amaldor.

Yumron — yumronqoziq.

Yasovul — xonliklar davrida yuqori lavozimdagи kishilarga, amaldorlarga xizmat qiluvchi kichik mansabdor, xonlarning shaxsiy xizmatkori, soqchi yoki posbon.

O'mildiriq — egar surilib ketishining oldini olish maqsadi-da ikki uchini egarning old qismiga, uchinchi uchini otning o'mrovi orqali o'tkazib, ayliga biriktirib qo'yiladigan bezakli qayish tasma.

O'tirik — yolg'on, behuda.

Qalandar — dunyo tashvishlaridan voz kechgan, tarkidunyo qilgan zohid kishi.

Qalloch // Qalloj — kambag'al, qashshoq, darbadar, daydi.

Qarsaq — bo'ri.

Qobilaboshi — karvonboshi.

Qulo tuz — had-hududsiz, cheksiz tekislik, poyonsiz dasht («qulo» so'zi aslida arabcha «qulla» leksemasing sonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lib, «cho'qqi», «tog' cho'qqisi» ma'nosini anglatgan).

Quyushqon — egar oldinga siljimasligi uchun otning dumi tagidan aylantirib egarga bog'lanadigan bezakli qayish.

G'ajir — asosan o'limtiklar bilan ovqatlanadigan burgutga o'xshash yirik yirtqich qush.

G'ul — aybdorning bo'yni va oyoqlariga kiygizib qo'yiladigan temir kishan.

G'o'non — ikki yashar ot.

Hudaychi — biror ish yoki arz bilan kelganlar to'g'risida xonga xabar beruvchi va xonning javobini ularga yetkazuvchi amaldor.

MUNDARIJA

Jo'rayev M. Ezgulikni kuylovchi doston	3
Go'ro'g'lining tug'ilishi	7
Avazxon.....	84
Malika ayyor (<i>Fozil Yo'ldosh o'g'li varianti</i>).....	151
Shohdorxon.....	372
Qisqacha lug'at.....	443



GO'RO'G'LI

DOSTONLAR

To'rtinchi yosh guruh



Muharrir
Olim USMONOV

Badiiy muharrir
Azamatjon YULDASHEV

Texnik muharrir
Yelena TOLOCHKO

Kompyuterda sahifalovchi
Gulchehra AZIZOVA


Lisensiya raqami AI № 163. 09.11.2009. Bosishga 2017-yil 15-yanvarda ruxsat etildi. Ofset qog'oz. Bichimi 84x108^{1/32}. Sharqli bosma tabog'i 23,52. Nashr bosma tabog'i 15,55. Adadi 44221 nusxa. Shartnoma № 106—2016. Buyurtma № 898

Original maket O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida tayyorlandi. 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. 100128, Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.

26000 c



GO'RO'G'LI

Atoqli o'zbek xalq baxshilari tomonidan sevib kuylangan «Go'ro'g'li» turkumi dostonlarida ona yurtni qahramonona himoya qilish, Vatanni ko'z qorachig'iday asrabavaylash, pok sevgi va sadoqatni ulug'lash, oila qo'rg'onini muqaddas deb bilish, xalqlar o'rtaсидаги о'заро до'стликни qadrlash, yurt daxlsizligi, erk, baxt va farovonlik uchun kurash g'oyasi tarannum etilgan.



*Cho'lpón nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi*

ISBN 978-9943-05-900-

9 789943 059005